

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

10.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oiptazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 10 (197)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

21-OKTABR – O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

Xudoyberganov Ravshan Yusupovich (Xorazm viloyati hokimining maslahatchisi, f.f.n., dotsent) YANGI O‘ZBEKISTONDA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

Ma'lumki, tilning taraqqiyoti jamiyatning, millatning taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Istiqlol tilni ma'naviyat gulshaniga aylantirdi. Milliy til mustaqillikning dastlabki ramzlaridan biri sifatida bo'y ko'rsatdi. Davlat tili maqomi esa uni har tomonlama rivojlantirishga, taraqqiy etishiga imkon yaratdi. O'zbek tilining istiqloq davri taraqqiyoti buning yorqin misoli bo'la oladi. Bunday istiqbolli rivojlanish: islohotlar, o'zgarishlar, takomillashuvlar tilimizning leksikasida o'z aksini topmoqda. Olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, moddiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar milliy tilimiz bo'lgan o'zbek tilimizning rivoji va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Mana, o'zbek tilining davlat tili sifatida e'tirof etilganiga ham 34 yil to'lmoqda.

O'tgan davr mobaynida o'zbek tilining nufuzi va mavqeyi oshdi, uning ijtimoiy vazifasi va qo'llanish doirasi kengaydi, ona tilimiz mustaqil davlatimiz tili sifatida ravnaq topmoqda. Ish yuritishlar davlat tili, ya'ni o'zbek tilida olib borilmoqda.

Istiqlol sharofati bilan o'zbek tilida qator asarlar yaratilmoqda, oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarida barcha yo'nalishlar hamda sohalar bo'yicha yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar nashr qilindi, ayniqsa, o'zbek tilshunosligi sohasida yuzlagan, balki minglagan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, mazkur soha bo'yicha o'zining yechimini kutayotgan ayrim nazariy muammolar o'rganildi, turli yo'nalishlarda ilmiy, ilmiy-ommabob maqolalar nashr etildi hamda nomzodlik (PhD) va doktorlik (Dc) dissertatsiyalari himoya qilindi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Til va adabiyot instituti (hozirgi O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) olimlari tomonidan tuzilib, 2006–2008-yillarda nashr qilingan 80000dan ortiq so'zdan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining davlat tilini rivojlantirish masalalari bo'yicha departamenti xodimlarining tashabbusi bilan to'ldirilgan holda yangidan nashr qilindi va mamlakatimizdagi vizirlik, agentliklar, qo'mitalar, idoralar, tashkilotlar, mahalliy hokimliklarga beg'araz taqdim qilindi. Shuningdek, marhum prof. E.Begmatov tomonidan tuzilgan 15000 dan ortiq ismni o'z ichiga qamrab olgan "O'zbek ismlari" lug'ati chop qilindi. Mazkur lug'at hajmi jihatdan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida ham hech bir mamlakatdan kam bo'lmagan hisoblanadi.

Bularning barchasi shu sohada mutasaddilar tomonidan olib borilgan ishlarning samarasidir.

Agarda biz keyingi olti yil ichida milliy tilimizning istiqboli, ertangi kuni bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan qator qonun, qaror, farmon va boshqa rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning yanada samarali faoliyatiga zamin yaratishda davom etmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat tilini rivojlantirish masalalari bo'yicha departamenti faoliyatining yo'lga qo'yilganligi va uning huzurida vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va hokimliklar rahbarlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarining ta'sis qilinishi, ular tomonidan mazkur sohaga oid ishlarning izchillik bilan davom ettirishga imkon yaratdi. Avvallari davlat tili to'g'risidagi bayram kuniga yaqin qolganda va bayramdan keyin yana o'n kun davlat tili haqida qayg'uriladigan bo'lsa, endilikda bu kabi illatlar barham topib, doimiy ravishda shug'ullanadigan tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli farmoni bilan O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug'ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida qator vazifalar belgilanib, mazkur vazifalarni to'laqonli amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli farmoni qabul qilinib, unda 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha konsepsiya tasdiqlanib, amaliy jihatda qator ishlar bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda.

Ajdodlarimizda armon bo‘lib o‘tgan va bugungi kunda tom ma’noda g‘ururlansa arziydigan eng asosiy qonunlardan biri – bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘RQ-615-sonli qonunidir. Unga muvofiq har yili 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni sifatida nishonlanadigan bo‘lib, bu qonun bilan asoslab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-sonli qarori qabul qilinib, unda mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq, mamlakatda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich, 2023-yil 1-yanvardan boshlab esa to‘liq o‘tish belgilani va mazkur sanadan boshlab, viloyat hokimligida, viloyatdagi barcha idoralar, boshqarmalar, tashkilotlar hamda ularning tuzilmalarida davlat tilida ish yuritish, hujjatlar aylanmalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida olib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 662-sonli qarori qabul qilinib, unda O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq, normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organing qaroriga ko‘ra, lingvistik ekspertizadan o‘tkazilishi mumkinligi belgilanib, mazkur qaror 2023-yil 1-yanvardan to‘la kuchga kirishi qayd etilgani va bugungi kunda barcha turdagi hujjatlar lingvistik ekspertizadan o‘tkazilayotgani mazkur sohalaridagi qator unsurlarning bar-taraf etilishiga zamin hozirlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-sentabrdagi “Reklama to‘g‘risida”gi 776-sonli qonuning yangi tahrirda qabul qilinishi va mazkur qarorning joriy yilning 9-sentabridan kuchga kirishi hamda uning 6-bandida bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha turdagi reklama vositalari, peshlavhalar, bannerlar va boshqa axborot matnlari faqat davlat tilida tarqatilishi va zaruriyatga, ehti-yojga qarab, uning tarjimai reklama umumiy hajmining 40%idan oshmagan miqdorda boshqa tillarda ham berilishi mumkinligi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-oktabrda qabul qilingan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi PQ-303-sonli qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan Senat yig‘ilishining yalpi majlisida muhokama qilingani, geografik obyektlar va ularning nomlanishi yuzasidan olib boriladigan ishlarning yanada takomillashuviga zamin yaratdi.

2020-yilning yanvar oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat ti-lini rivojlantirish masalalari bo‘yicha departamentining tashabbusi bilan ishchi guruhi tuzilib, “O‘zbekis-ton joy nomlarining izohli lug‘ati”ni tuzishga kirishilgani va bugungi kunga kelib, mazkur lug‘at bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yakuniga yetkazilib, uning birinchi nashri kitobxonlarimizga taqdim etilgani ham-da bugungi kunda mazkur lug‘atning ikkinchi nashri tayyorlanayotgani va uni yangi yil arafasida chop etilishi quvonarli holdir.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kengasi, viloyatlar va Toshkent shahar ho-kimliklarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligi oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchilari tomonidan joylarda davlat tilida ish yuri-tish, hujjatlar aylanmalari, muhrlar, rasmiy ish qog‘ozlari, geografik obyektlarining nomlari, tashqi va ichki yozuvlar, davlat tiliga oid targ‘ibot-tashviqot ishlari, televideniya-dagi chiqishlar, ilmiy va ommabop maqolalar tayyorlash, radiodagi eshittirishlar, boshqarmalar, idoralar, tashkilotlar, korxonalar bilan ham-korliklarning yo‘lga qo‘yilishi kabi masalalar shular jumlasidandir. Birgina Xorazm viloyati misolida 2022–2023-yillarda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masa-lalari” bo‘yicha komissiyasi tomonidan 11 ta tuman, 2 shahar, 50 ta shaharcha, 599 ta qishloq, 585 ta aho-li punkti, 529 ta mahalla, 11772 ta ko‘cha, 3 ta daha, 13 ta istirohat bog‘i, 2 ta maydon, 562 ta qabriston nomlariga Respublika ekspert xulosalari olinib, ularning barchasi davlat reyestri bazasiga kiritildi.

2. Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari” bo‘yicha komissiyasi tomonidan viloyatdagi barcha idoralar, tashkilotlar, boshqar-malarda davlat tilida ish yuritish, hujjatlar aylanmalari, muhrlar, shtamplar, rasmiy blankalar va boshqa rasmiy hujjatlarning “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun hujjatlariga muvofiq olib borilishi yuzasidan doimiy nazoratlar o‘rnatilgan.

3. Xorazm viloyati hokimligi huzuridagi yana bir “Tashqi reklama va ularni tartibga solish masa-lalari” bo‘yicha komissiya tomonidan muntazam ravishda ishlar olib borilib, viloyatdagi deyarli barcha boshqarmalar, idoralar, tashkilotlarda davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, tashqi yo-

zuvlar, reklamalar, peshlavhalar va boshqa axborot matnlarining ahvoli ishchi guruhi tomonidan o'rganilishi yu-zasidan viloyatda jami 1000 dan ortiq o'zgartirilishi lozim tashqi yozuvlar aniqlanib, shulardan xorijiy tilda yozilgan tashqi yozuvlar: peshlavhalar 151 ta, reklamalar 226 ta, boshqa axborot matnlari 107 ta, xato bilan yozilgan tashqi yozuvlar: peshlavhalar 91 ta, reklamalar 164 ta, boshqa axborot matnlari 117 tasi aniqlanib, olib borilgan tushuntirish ishlari va targ'ibotlar natijasida o'zgartirilgan tashqi yozuvlarlar-ning umumiy soni 851 tani, shundan xorijiy tilda yozilgan tashqi yozuvlar: peshlavhalar 141 ta, reklama-lar 213 ta, boshqa axborot matnlari 103 ta, xato bilan yozilgan tashqi yozuvlar: peshlavhalar 90 ta, rekla-malar 158 ta, boshqa axborot matnlari 110 tasi o'zgartishga muvaffaq bo'lindi. faoliyatlarining yo'lga qo'yilishi ham davlat tiliga bo'lgan e'tiborning, hurmatning yuqori ekanligidir.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-sonli qarori qabul qilinib, 2023-yil 1-yanvardan boshlab viloyat hokimligida, viloyatdagi barcha idoralar, boshqarmalar, tashkilotlar hamda ularning tuzilmalarida davlat tilida ish yuritish, hujjatlar aylanmalari lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida olib borilishi yo'lga qo'yildi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 8-oktabr kuni Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan ishchi guruhi tuzilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rgangan holda boshlang'ich sinflar uchun darsliklarning yangidan chop etilayotgani ta'kidlab o'tilgani, mamlakatimizda ta'lim tizimiga, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasi, ilmi, bilimi uchun bo'lgan munosabatning oliy namunasidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 75-sessiyasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning bo'y ko'rsatayotganini jahon ahliga millatimizning bosh va xira tortmas ko'zgusi bo'lgan o'zbek tilida – O'zbekiston Respublikasining davlat tilida e'lon qildi. Bunda har bir hamyurtimizning qalbidida o'zining tiliga bo'lgan hurmat, ehtirom va g'urur yana bir marta paydo bo'ldi.

Ayni damlarda butun mamlakatimiz bo'ylab, jumladan, vazirliklar, agentliklar, qo'mitalarda, viloyatlardagi barcha idoralar, tashkilotlar, korxonalar, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarida 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan tadbirlar, turli xildagi viktorinalar, o'yinlar, tanlovlar, namoyish qilishga rejalashtirilayotgan tilga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazkur bayramning har yilgisidan ham boshqacha ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Demak, istiqbolda o'zbek tilining taraqqiyoti haqida barcha birgalikda, xursandchilikda O'zbek tili bayramini nishonlash har qachongidan ham o'zgacha shukuhda, ko'tarinki ruhda o'tkazish Yangi O'zbekistonning ertangi kuni uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishiga hech kim shubha qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-oktabrdagi 179-sonli va viloyat hokimining 2023-yil 13-oktabrdagi 649-sonli bayonlari qabul qilinib, tuman va shahar kesimida ochiq xiyo-bonlar, ampiteatrlar, istirohat bog'larida "O'zbek tili milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimizning timsoli!" shiori ostida umumxaiq bayrami sayllarini tashkil qilish va yuqori saviyada quyidagi sanalarda: 17-oktabr kuni soat 10:00 da Urganch, Xiva, Shovot, Hazorasp tumanlarida, 18-oktabr kuni soat 10:00 da Gurlan, Yangibozor, Qo'shko'pir, Tuproqqal'a tumanlarida, 19-oktabr kuni soat 10:00 da Xonqa tumani Alisher Navoiy bog'ida, 20-oktabr kuni soat 10:00 da Yangiariq, Bog'ot tumanlarida bayramlar o'tkazilgan bo'lsa, 21-oktabr kuni soat 10:30 da Urganch shahri viloyat musiqali drama teatrida va soat 14:30 da Xiva shahri Ichon qal'a davlat muzey-qo'riqxonasida bayram dasturlari davom ettirildi.

Xullas, muqaddas Vatanimizning muqaddas timsoli bo'lgan o'zbek tili millat ma'naviyati, madaniyatining xira tortmas ko'zgidir. Til ma'naviyat, madaniyat, ilm-fan, ta'lim, milliy tafakkur, urf-odat, an'ana, qadriyat kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochib beradi va kelgusi avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

Demak, til mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilovchi asosiy omildir. Davlat tili taraqqiy topsa, tilimiz yangi bosqichlarga ko'tarilaveradi.

To'xtayev Hakim Primovich (O'zbekiston Milliy universiteti professori v.b.;
email: tuxtayevxakim0@gmail.com)

“QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI” TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY
TAHLILI

***Annotatsiya.** Maqolada “qadriyatlar transformatsiyasi” tushunchasining mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, jamiyat va inson hayotida ushbu sohaning mavjud makon va zamondagi muttasil ijtimoiy-aksiologik harakati, ya’ni, uning doimiy ravishda yangilanishi, o‘ziga xos tarzda o‘zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayoni hamda hozirgi davrda qadriyatlarni barqaror qilish amaliyotining xususiyatlari tahlil etilgan.*

***Аннотация.** В статье раскрыта сущность понятия «трансформация ценностей», его специфика, непрерывное социально-аксиологическое движение этого поля в существующем пространстве и времени в обществе и жизни человека, т.е. его обновление при постоянном его взаимоотношении, как свое собственное изменение, в процессе добычи и обогащения анализируются текущие процессы в производственном процессе.*

***Annotation.** The article reveals the essence of the concept of “transformation of values”, its specificity, the continuous social and axiological movement of this field in the existing space and time in society and human life, i.e. its renewal with its constant relationship, as its own change, in the process of extraction and enrichment, the current processes in the production process are analyzed.*

***Kalit so‘zlar:** qadriyatlar transformatsiyasi, aksiologiya qonuniyatlari, ijtimoiy-aksiologik tamoyillar, qadriyatlar sohasi, jamiyatdagi qadriyatlar sohasi transformatsiyasi, bag‘rikenglik g‘oyalari, taraqqiyot, Yangi O‘zbekistonning milliy taraqqiyotiga asoslanadigan yangi qadriyatlar tizimi.*

***Ключевые слова:** трансформация ценностей, законы аксиологии, социально-аксиологические принципы, сфера ценностей, трансформация сферы ценностей в обществе, идеи толерантности, развитие, новая система ценностей, основанная на национальном развитии Новый Узбекистан.*

***Key words:** transformation of values, laws of axiology, sosio-axiological principles, sphere of values, transformation of the sphere of values in society, ideas of tolerance, development, new system of values based on national development New Uzbekistan.*

Aksiologiya qonuniyatlariga bog‘liq ijtimoiy-aksiologik tamoyillarning muttasil tarzda o‘tmishdan kelajakka o‘tib borishi ushbu sohaning tayanch qonuniyatlaridan sanaladi. Shunga ko‘ra, o‘z taqdiriga befarq bo‘lmagan jamiyat o‘zining qadriyatlar tizimini asrashi, bu sohani yaxshi ish, ezgu an‘analar bilan boyitgan holda kelajakka uzatishi lozim.

Qadriyatlar sohasida tarixiy tajriba va bugungi amaliyotdan kelib chiqib aytish mumkinki, “o‘tmishga aylangan har bir davr o‘zidan keyingi davrga, albatta, qator muammolarni ham meros qilib qoldiradi. “Qadriyatlar transformatsiyasi” tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlarini shunday boy ijtimoiy-aksiologik tajribadan kelib chiqib, atroflicha tadqiq etish oldimizdagi vazifalardan hisoblanadi. Ayni paytda, “bugungi globallashuv sharoitida davlatimizning ichki va tashqi faoliyati tayanadigan negizlarni yanada mustahkamlash nuqtayi nazaridan, ushbu masalaning ahamiyati yanada ortib borayotgani, shubhasiz” [1].

Shu bilan birga, “Qadriyatlar transformatsiyasi” tushunchasi ma’lum hudud, mamlakatga xos belgi-xususiyatlar, ularni yuzaga keltirgan tuyg‘ular, millat bilan bog‘liq ma’naviy meros hamda madaniy boyliklarga aloqador jihatlarni ham qamrab oladi. “Qadriyatlar transformatsiyasi” jamiyat va inson hayoti ushbu sohasining mavjud makon va zamondagi muttasil ijtimoiy-aksiologik harakati, ya’ni uning doimiy ravishda yangilanishi, o‘ziga xos tarzda o‘zgarishi, rivojlanishi va boyib borishi jarayonini ifodalovchi tushunchadir.

Makon va zamonda yuz bergan har qanday voqea-hodisalar jamiyat a’zolari ongida va o‘z-o‘zidan, qadriyatlar tizimida ma’lum o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Qolaversa, qadriyatlarining yangilanishi ham zamondagi o‘zgarishlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ya’ni, yangilanishlar qadriyatlar transformatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq jihatdir. Qadriyatlar sohasi muttasil o‘zgarib, yangilanib turmas ekan, zamondan ortda qolib, taraqqiyot yo‘lidagi to‘siqqa aylanib qolishi hech gap emas. Mamlakat taraqqiyoti uchun tub burilishlar paytida qadriyatlar sohasida ham keskin o‘zgarishlar kuzatiladi va o‘z o‘rnida qadriyatlarining jamiyatda kechayotgan jarayonlarga ta’siri hamda qadriyatlar transformatsiyasining sur’ati ham tezlasha-

di. Masalan, davlatimiz mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning ko'plab milliy qadriyatlari tiklandi, ularni targ'ib qilishga katta ahamiyat qaratildi. Qadriyatlar transformatsiyasiga bo'lgan e'tibor odamlarning dun-yoqarashi, turmushi, voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati o'zgarishiga olib keldi. Hukumatimizning qadriyatlar sohasida olib borayotgan siyosati jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni doim oson va silliq kechmasligi tarixdan ma'lum. Jamiyatda hukmron tuzumlar almashganda, eski tuzum izlari uzoq vaqtgacha odamlarning ongida, turmush tarzida saqlanib qoladi. Ilm-fanda bu holat qadriyatlar ambivalentligi deyiladi. Bu bir paytning o'zida bir-biriga mos kelmaydigan, mazmunan zid qadriyatlar yonma-yon yashashini anglatadigan tushunchadir. Qadriyatlar sohasidagi bunday ziddiyat og'riqli kechadi. Mamlakat osoyishta taraqqiyot davrini boshdan kechirayotgan paytda bunday ambivalentlik deyarli bo'lmaydi yoki juda past darajada bo'ladi. Taraqqiyotdagi burilish pallalarida esa ambivalentlik ko'proq namoyon bo'ladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun insonlardagi ma'naviy hayotdagi o'zgarishlarga hozir javoblikni tarbiyalash kerak bo'ladi. Bugun qadriyatlar transformatsiyasi, birinchi navbatda, ba'zi qadriyatlar yangilanishi tarzida kechmoqda. Bu jarayonda millat madaniy va ma'naviy merosini tiklash, targ'ib qilish, saqlash bilan birga, zamonaviy qadriyatlarni odamlar ongiga singdirish, milliy o'zlikni anglashga yetaklash uchun harakatlarni jadallash-tirish yo'lidan boriladi.

Qadriyatlar transformatsiyasi sur'atlari insonlar hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, shaxslararo munosabatlarning mustahkamlanishi, ma'naviy targ'ibot va tashviqot tadbirlarining natijadorligi bilan o'lchanadi. Bu borada ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'atning hamma turlari, ijtimoiy fanlarning ahamiyati katta. Yangi, umidbaxsh qadriyat va an'analar, yangi tuzum va hayotiy g'oyalar xalq hayotidan qanchalik tez joy olsa, targ'ibot ishlarida qanchalik ta'sirli vositalardan foydalanilsa, qadriyatlar transformatsiyasi shunchalik natijador bo'ladi.

Qadriyatlar transformatsiyasining jadalligi faqat davlat va jamoat tashkilotlari emas, balki qadriyatlar sohasida faoliyat yuritadigan xodimlarning jonbozligiga ham bog'liq bo'lib, bu soha davlat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatishini unutmazlik lozim.

Qadriyatlar transformatsiyasi tushunchasini aksiologik tomondan jamiyat va uning har bir a'zosi, muayyan ijtimoiy-aksiologik subyektlarning asosiy xususiyatlari, ularning yuz berayotgan o'zgarish tendensiyalarini belgilovchi o'zaro aloqalar va munosabatlar majmuyi hamda bu jabhadagi yangilanish sifatida tushunish lozim. Har bir qadriyatlar sohasi o'ziga xos aksiologik makon bo'lib, uning doirasida mamlakat xalqi va fuqarolarining fikrlari shakllanadi, jamiyatda esa tarixiy-madaniy, diniy va milliy qadriyatlar o'ziga xos tarzda mavjud bo'ladi va amal qiladi.

Boshqacha aytganda, jamiyatdagi qadriyatlar sohasi transformatsiyasi shu sohada yuzaga kelgan va shakllangan tushunchalar yordamida ifodalanadi. Jamiyat hayoti, aksiologiya qonuniyatlari hamda alohida shaxsning mehnat faoliyati natijalarini solishtirish bu tushunchalar o'rtasidagi tafovutni aniqlashga yordam beradi. Bunda birinchisi aksiologik jarayonlarning qadriyatlar sohasiga ta'sirini, ikkinchisi ma'naviy xusu-siyatlarning ustuvorligini belgilab bersa, uchinchi unga xos aniq bir holatning aksiologik hodisa sifatidagi butunligi va mushtarakligini, yashovchanligini ifoda etadi.

Ma'lumki, qadimiy yurtimizda ming yillardan buyon turli millat va elat, turfa din va madaniyatga mansub insonlar birdam, hamjihat bo'lib yashab keladi. Bunga asosiy sabab esa bizda har doim bag'rikenglik g'oyalari ustuvor bo'lganidir. Hamma zamonlarda ham bag'rikeng xalqimizga xos milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analardan oziqlangan qadriyatlar sohasi jamiyatimiz ko'zgasiga aylangani bejiz emas.

“Qadriyatlar transformatsiyasi” tushunchasi ajdodlarning asrlar mobaynida to'rlagan moddiy va ma'naviy qadriyatlarini vorisiylik asosida avlodlarga uzatish, bu borada tarixiy mezonlar va ijtimoiy hayot talablariga muvofiq tadrijiy ravishda muntazam boyib yoki yangilanib boradigan jarayonlarning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Tarixiy taraqqiyot bilan uyg'un bo'lgan bu holat uzluksiz harakatdagi jarayondir. Shu ma'noda qadriyatlar yoshlarni tarbiyalash, ularga keksa avlod hayotiy tajribalarini o'rgatish vositasi hamdir. Har bir davrning o'z qadriyatlar tizimi bo'lib, u vaqt o'tishi bilan o'zgarib, mazmunan boyib boradi, ba'zi shakllari transformatsiyaga uchraydi, ayrimlari yo'qoladi, yangilari shakllanadi. Bu jarayonlar birdaniga emas, asta-sekin, tadrijiy ravishda yuz beradi.

Qadriyatlar sohasidagi yangilanish ularning o'zgarishi, takomillashuvi va boyib borishi jarayonini ifodalaydi. Kishilar hayotida, umuman, jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar shaxs ongi va qadriyatlar tizimida muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ikkinchi tomondan, qadriyatlar voqelikdagi o'zgarishlarning kelib chiqishi va sodir bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangilanish qadriyatlarining tub mohi-

yati bilan bog'liq hodisa. Agar qadriyatlar sayqallanib, yangilanib, boyib turmasa, juda tez orada eskirib, taraqqiyotga yordam berish u yoqda tursin, unga xalaqit beradigan, to'siq bo'ladigan hodisaga aylanib qolar edi.

“Qadriyatlar transformatsiyasi” uchun qadriyatlarni asrab-avaylash, takomillashtirish va yuksaltirish, yangilarini yaratish har bir davr va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada muayyan davlat va millat oldida qadriyatlarni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilinishi, ularning ushbu yo'nalishda qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olinishi kutilgan natijalarni berishi mumkin. Qadriyatlarni shakllantiradigan asoslar inson ongiga ta'sip ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy mezonlar, an'analar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlardan iborat turli omillar bilan uzviy bog'liqdir.

Qadriyatlar transformatsiyasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu murakkab jarayonda kishilarni qadriyatlar to'g'risidagi tushunchalari, fikr va qarashlari o'zgarib borish nisbatan uzoqroq davr davomiyligi tadrijiy o'zgarishlarni qamrab oladi. Yangi O'zbekistonning milliy taraqqiyotiga asoslanadigan yangi qadriyatlar tizimi shakllanish jarayonlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar, respublikamizda qadriyatlar omili samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari ham ilmiy o'rganishni talab qiladi.

O'zbekistonning rivoji qanchalik yuqori pog'onalarga ko'tarilib boraverar ekan, tarix sahifalariga murojaat qilish, undan tashbehlar izlash ehtiyoji shunchalik ortib boraveradi. Ammo hayot faqat tarixdan iborat emas. Tarix naqadar serqirra va serma'ano bo'lmasin, bugungi va kelajakdagi o'zgarishlarni to'lato'kis qamrab ololmaydi, balki kelajakda tarixga aylanadigan jarayonlarga asos bo'ladi, xolos.

Ijtimoiy taraqqiyot esa tarix silsilalari, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar orasidan o'ziga yo'l ochib boradi. Uning zamondagi bunday ilgariharakati jamiyat taraqqiyotini umumijtimoiy qonuniyatidir. Bu qonuniyat qadriyat tizimlari, ularni tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar dialektikasi uchun ham umumiydir. Qadriyatlar transformatsiyasining zamona zayllari ta'sirida o'zgarishi va davr realliklariga mos holatga kelishi ham ana shu jarayonga bo'ysunadi. Bu jarayonda o'zgarishlar voqea va hodisalarni zamondagi ketma-ketligi tarzida ro'y beradi. Dialektik tafakkur esa ana shu davomiylkning in'ikosi, uni anglab olish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U qadriyatlarni o'zgarishi va yangi qadriyat tizimlari vujudga kelishi jarayonini anglab olish imkonini beradi. Hozirgi davrdagi turli nomutanosibliklar, zamona silsilalari va muammolari orqali shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelish jarayonini tasavvur qilmoq u uchun ham dialektik tafakkur va ilmiy bilish usullariga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Qadriyatlar transformatsiyasi jarayoni shundayki, bunday sharoitda jamiyatning tub burilish bosqichlarida bu jarayonning tezkor sur'atlarini anglash, izohlash va asoslashga eng dialektik tafakkur usuli ham ulgura olmay qoladi. Zaminimizda yashayotgan va bizga zamondosh bo'lgan kishilar hayotida yangi davr boshlandi. Ya'ni, mustaqil Yangi O'zbekistonimizning milliy istiqloliga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini barqaror qilish, bu tizimda qadriyat shakllarining dialektik uyg'unligiga erishish, inson qadri, qobiliyati, iste'dodini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish borasidagi dolzarb vazifalar hozirgi avlod umrining mazmuniga aylanadi.

Hozirgi kunda yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy subyektlarni o'zaro hamjihatligi, kelishuvi, hamkorligi asosidagi faoliyatini mezoniga aylanishi jarayoni bir qancha vaqtni talab qiladigan o'zgarishlarni amalga oshirish davrini qamrab olishini ko'rsatdi.

Bugun ana shunday qadriyatlar transformatsiyasi, ya'ni, dialektik inkor va yangilanish orqali boradigan jarayon davom etmoqda. Biz bu jarayonda tarixiy burilish davrlarida sodir bo'ladigan umumaksiologik fenomen bilan, ya'ni, qadriyatlar tizimi o'zgarishi va yangisini barqaror holatga kirishi jarayonida tadrijiy usulning imkoniyatlari nihoyatda katta ekanligi bilan bog'liq jarayonga duch kelmoqdamiz. Shu bilan birga, ijtimoiy barqarorlik sharoitidagi o'zgarishlar jarayonida inson omili alohida shaxs ta'siri ham katta ahamiyat kasb etadi. Kishilarni muayyan qadriyatlarga asoslangan hamkorligi, hamjihatligi, asosiy ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi kelishuvga tayangan holda tadrijiy o'zgarishlar potensialidan to'laroq foydalanish borasidagi imkoniyatlarni izlab topish ortib bormoqda.

Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan ushbu qaror xalqimizning har bir farzandi qalbida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ehtirom va bu qadriyatlarni acrash tuyg'ularini tarbiyalash dolzarb vazifa ekanligini eslatib turadi. Unda bayon qilingan asosiy tamoyillar “turli ma'naviy xavf-xatarlar, millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi kurash, mafkuraviy immunitetga ega, mustaqillik g'oyalariga sodiq, O'zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan barkamol avlodni shakllantirishga yordam beradi” [3].

Ushbu hujjatlar va ularni amalga oshirish uchun olib borilayotgan ishlarning barchasi ijtimoiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning milliy qadriyatlar sohasi transformatsiyasi zaruriyati, taraqqiyot tufayli millatlararo munosabatda va shu yo'nalishdagi faoliyatda paydo bo'layotgan zamonaviy muammolarga yangicha nuqtayi nazar qarash, kishilarning dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasida umuminsoniylik talablariga mos keladigan xususiyatlarni shakllantirishning ahamiyati nihoyatda kattaligidan dalolat beradi. Bu esa butun mamlakatimizdagi barcha ijtimoiy-aksiologik subyektlar uchun yurtimizni taraqqiy ettirish imkoniyatlarini izlash zaruriyatini yanada kuchaytirib yuborganini anglatadi.

Shu ma'noda, bir tomondan, "qadriyatlar transformatsiyasi" tushunchasi jamiyat taraqqiyoti jarayonida vujudga keladi, o'tmishdan kelajakka tomon rivojlanib, takomillashib, yangi-yangi jihatlarni muttasil shakllantirib boradi, ikkinchidan, zamonlar o'tishi, davr va avlodlar almashishi bilan bog'liq turli omillar ta'siri ostida yangilanadi va o'zgarib boradi. Sh.Madayeva ta'kidlagani kabi, "bunday jarayon xalqning milliy mentaliteti va ijtimoiy tafakkurining o'zaro aloqadorligini, ularning o'ziga xosligini belgilaydigan mezonlarni va omillarni shakllantirishga xizmat qiladi" [5].

Demak, "qadriyatlar transformatsiyasi" jamiyat va davlat hayotining hamma yo'nalishlariga aloqador bo'lgan, ularning mavjudligi, kelajagini, hayotiy qonun-doidalar, talablar, tartiblarni, insonlarga xos ezu-gu orzu-umidlar va maqsadlarni mujasamlashtirgan tushunchadir. Bu tushuncha jamiyat a'zolarining barchasi uchun birdek ahamiyatli bo'lib, ular hayotida yuz berayotgan yangilanishlar, odamlarning intilish, harakatlari, mehnat faoliyati hamda turmush tarziga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Umuman olganda, qadriyatlar sohasi barcha uchun ahamiyatli ijtimoiy mezon hisoblanib, jamiyat hayoti va odamlar faoliyatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Aksiologiya qonuniyatlari va transformatsiyasini o'zlashtirish va anglash inson tafakkurining muhim xususiyati bo'lib, shuning natijasi o'laroq, odamning boshqalar bilan aloqasi bog'lanadi, o'zaro munosabatlarga kirishadi, bu holatda aksiologiya qonuniyatlari transformatsiyasi uchun ijtimoiy negizga aylanadigan eng muhim omil o'z-o'zini namoyon etish ehtiyojidir. Bu ehtiyoj insonning o'zidan qaysidir sifatlarni izlash barobarida o'z imkoniyatlarini kashf etish, ularni yuzaga chiqarish bilan bog'liq holatdan tug'iladi. Inson shu tarzda irodasini namoyon qiladi va bu aksiologik tafakkurida ham o'z aksini topadi. Aksiologik jihatdan kuchli inson o'z oldiga har doim hozirgidan mupakkabpoq vazifalarni qo'yadi, bunday shaxs ma'rifiy va estetik tomondan boshqalardan kuchliroq bo'lishi ham ma'lum. Ammo bu shunday insonlarning aksiologik faoliyati tuganmasdir, degani emas. Ya'ni, insonning mavjudligi bilan bog'liq bu belgi jismoniy xotima tufayli to'xtab qolishi ham, tabiiy.

Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar transformatsiyasi hamma davrlarda ijtimoiy muhitning ma'lum xususiyatlari oqibatida yuz beradi. Ijtimoiy muhit bilan qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar transformatsiyasining bu aloqadorligi sohaga doir faoliyatning muqarrar ta'siri ifodasidir. Qadriyatlar sohasi transformatsiyasi faqat jamiyatdagina amalga oshadi hamda uning ijtimoiy o'zgarishi, yangilanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy muhitning qadriyatlar sohasi transformatsiyasiga ta'siri uning tarkibiy qismi bo'lgan aksiologik madaniyat va mafkura bilan ham o'zaro bog'liq holda ro'y beradi. Bu jihatdan olganda, ba'zi mutaxassislar fikricha, "ma'naviylik fenomeni ko'p qirrali, ko'p tomonli jarayon bo'lib, inson ma'naviy borlig'ini qat'iy tushuntirish yoki tizimga solish mumkin emas" [6].

Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlar transformatsiyasining imkoniyatlari jamiyatda bu sohada aksiologik ta'sirchanlikni oshirish hamda o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ba'zan madaniyat va mafkura sohasidagi o'zgarishlarning natijasi jamiyat qadriyatlar sohasi transformatsiyasini belgilaydi. Shuningdek, bu tahliliy o'zgarish va yangilanish transformatsiyasi jamiyat qadriyatlar sohasidagi muayyan natijada o'z aksini beradi.

Qadriyatlar sohasi transformatsiyasining jamiyatimiz hayoti va yuqoridagi islohotlar jarayonidagi bunday qattiq bog'liqligi mamlakatimizga xos xususiyatlardan biri, boshqacha aytganda, hozirgi islohotlar paytida bu sohalarni ajratish emas, aksincha, birgalikda taraqqiy ettirishga e'tibor qaratilmoqda.

Shu tarzda qadriyatlar sohasi transformatsiyasida ma'lum makon va zamondagi ijtimoiy-aksiologik harakatlarning doimiyliги namoyon bo'ladi va shu tufayli amaldagi ma'naviy-axloqiy tamoyillar hamda qonun-qoidalar barqarorligi ta'minlanadi. Bu yo'l bilan shakllangan qadriyatlar sohasida tez sur'atda o'zgarayotgan ijtimoiy muhit ta'siriga nisbatan aks ta'sir vujudga keladi. Ya'ni, qadriyatlar sohasi har qanday yangilikni ko'r-ko'rona qabul qilishga qarshiligini ko'rsatibgina qolmay, ba'zi innovatsion yondashuvlar va amaliyotlarni tezlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilganda, birinchidan, qadriyatlar sohasi transformatsiyasi uzluksiz harakatda yuz beradi, so-dir etish yoki barpo etishning muayyan mavjudligini ko'zda tutuvchi qonuniylik va ijtimoiy zarurat, amalga

oshadigan yoki oshmaydigan maqsadlar, ehtimoliy umumiy talqinlar bilan belgilanadigan o'z-o'zini barpo etish jarayoni tarzida shakllanadi va amal qiladi. Ayni paytda, qadriyatlar transformatsiyasi, bir tomondan, kishilar harakatlarining natijasidir, ya'ni odamlar o'zlarining jamiyatini yaratadi va o'zgartirib boradi.

Ikkinchidan, jamiyat a'zolari, o'z navbatida, qadriyatlar sohasining namoyon bo'lish paradigmasini shakllantiruvchi aksiologik omillar va ijtimoiy jarayonlarning samarasini oshirishga harakat qiladi va bu borada tizimli faoliyat olib boradi. Buning ta'sirida qadriyatlar sohasiga mos ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarning aksiologik paradigmasini yaratish uchun uslubiy asoslar paydo bo'ladi. Bu aksiologik paradigmalarda hayotda ijtimoiy begonalashuvga va individualizmga olib bormaydi, balki jamiyatga ta'sir o'tkazuvchi kishilar harakati, innovation tendensiyalarni shakllantirgan holda, ko'plab subyektlarning amaliyoti sifatida namoyon bo'ladi va o'zgarishlar transformatsiyasida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchunchidan, muayyan davlat, jumladan, bizning mamlakatimizda ro'y bergan yangilanish jarayonlari jamiyatning aksiologiya qonunlarida muqarrar ravishda aks etishi bu sohaning o'ziga xos qonuniyati hisoblanadi. Qadriyatlar transformatsiyasining tahlili jamiyatdagi ijtimoiy-aksiologik faoliyat natijalari, aksiologik-huquqiy va ma'naviy jarayonlar, ya'ni qadriyatlar sohasiga aloqador qator omillarni qamrab oladi. Bunda ajdodlar va avlodlar vorisiyligi, insonlar hayotidagi odat va an'analar, qolaversa, davlat tomonidan o'tkazilayotgan islohotlar, mamlakat fuqarolari o'rtasidagi do'stona munosabatlarni o'rnatuvchi ma'rifiy faoliyatning o'z o'rni bor.

Bu, o'z navbatida, ushbu tushunchaning jamiyatimizdagi ijtimoiy subyektlarga nisbatan ham umumiy tarzda namoyon bo'ladigan jihatlarni va mamlakatimizga xos xususiyatlarini tahlil qilishda nimalarga alohida e'tibor berish lozimligini tasavvur qilish imkonini beradi. Bu yo'nalishda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish omili sifatida yuzaga chiqadigan va yurtimizda ro'y berayotgan islohotlar dialektikasining qadriyatlar transformatsiyasiga ta'siri va ahamiyatini ilmiy o'rganishning maqsadini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usarova F.X. Globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining milliy-ma'naviy negizlari. Toshkent, 2008.
2. <https://lex.uz/docs/-4925806>. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-mayda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2993-sonli qarori.
3. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 23-may, <http://www.president.uz/uz/lists/view/966¼>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan milliy-madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risida"gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 25-yanvar, <http://www.president.uz/uz/lists/view/966¼>.
5. Madayeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur (XX asr saboqlari va XXI asr istiqbollari). Toshkent, Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007, 112-bet.
6. Muminova Z. Ma'naviy borliqning sinergetik tahlili. Samarqand, "Zarafshon", 2016, 15-bet.

Qodirov Davronbek Hoshimovich (Buxoro davlat universiteti, PhD; deviekhan@mail.ru) QUSHAYRIYNING "KITOB UL-ME'ROJ" ASARIDA INSON KOMILLIGI G'OYASI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada X–XI asrlarda yashagan mutasavvif Abulqosim Qushayriyning "Kitob ul-me'roj" asarida bayon qilgan inson kamolotining yuksalishi to'g'risidagi falsafiy qarashlari bayon qilinadi. Shuningdek, mutafakkirning so'fiylar uruji, ya'ni ma'naviy yuksalishiga doir tasavvuri tahlil etiladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются философские взгляды мистика Абулкаси-ма Кушайри, жившего в X–XI веках, о возвышении человеческого совершенства, которые описаны в его произведении «Китаб аль-Мирадж». А также анализируются воззрения мыслителя о сун-дуйском урудже, т.е. духовном восхождении.*

***Annotation.** This article discusses the philosophical views of the mystic Abulqasim Kushayri, who lived in the 10th–11th centuries, about the rise of human perfection, which are described in his work "Kitab al-Miraj". It also analyzes the thinker's views on the Sufi Uruj, i.e. spiritual ascent.*

***Kalit so'zlar:** me'roj, tasavvuf, uruj, yuksalish, komillik, sayr, makon, suluk.*

Ключевые слова: *мирадж, суфизм, урудж, вознесение, совершенство, сайр, пространство, сулук.*

Key words: *miraj, sufism, urudj, ascension, perfection, sair, space, suluk.*

Inson kamoloti va komillik bosqichlarida yuksalishi to'g'risidagi tadqiqot mavzusi islomiy tasavvuf doirasida bo'lib, so'fiylar me'roj hodisasini ham o'ziga xos tarzda talqin etishgan. Imon mohiyatini me'roj tamoyiliga asoslangan holda ko'rib chiqish bu masalaga oid fundamental meros bilan botiniy nazar (ezoterik) o'rtasidagi farqni tushuntirib, tasavvufdagi ba'zi asosiy e'tiqodlarning rivojlanishi nuqtayi nazaridan ularga ta'sir qilgan eng muhim omillarni yoritib beradi.

Abulqosim Qushayriyning "Kitob ul-me'roj" yoki "Al-Me'roj" asari ushbu masalani tadqiq etish uchun asos hisoblanadi. Qushayriyning ushbu asarni yaratishiga uning hayoti va kechinmalari, o'sha davrdagi diniy va siyosiy vaziyat ham muhim rol o'ynagan. Qushayriy yashagan davrda Nishopur muhim madaniy markaz bo'lib, uning atrofidagi intellektual muhit, o'sha davrda hukmron bo'lgan fikr va qarashlar mutafakkir g'oyalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Shundan kelib chiqqan holda, so'fiylarning o'zlari yozgan asarlarga asoslanib, ularning me'roj masalasida e'tiqodlarini ko'rib chiqish, ushbu g'oya bilan bog'liq merosni Sharq falsafasi tarixi doirasiga o'rganish muhim. Umuman olganda, tasavvuf adabiyotlarida aks etgan uruj g'oyasi ko'pgina tashqi jihatlari bilan yahudiy, nasroniy, futuhiy va boshqa yaqin e'tiqod an'analarga o'xshashligini ko'rish mumkin.

Qushayriy me'rojni yoritishdan oldin islom merosida tizimli shakllantirilgan g'oyalarni tahlil qilishga kirishgan. U so'fiylarni bir-biriga bog'lab turgan va payg'ambar s.a.v. bilan tugaydigan "silsilatu an-nasab as-sufiy"—so'fiylik nasabi silsilasidagi Hasan Basriy, Robiya Adaviyya hamda ularning salafllari va zamondoshlarining qarashlarini keltirgan.

"Kitob ul-me'roj" asari misrlik olim Ali Hasan Abdulqodir tomonidan hadislar kitobi sifatida tayyorlanib, 1964-yilda Qohirada nashr etilgan. Tadqiqotchi kitobning muqaddimasida asarni nashr etishdan maqsadi Me'roj mo'jizasi tasavvufdagi ahamiyati, muallif hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish bilan izohlaydi. Muqaddimaning oxirgi ikki sahifasida u tadqiqot uchun asos qilib olgan asar nusxalari haqida bayon qiladi.¹ U asardagi oyat va hadislar tarjimasini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi.

Asar mazmuniga ko'ra, me'roj tushunchasining lug'aviy talqinlarini keltirib, tasavvuf olimlarining isro va me'roj haqidagi fikrlarini bayon qiladi, shuningdek, me'rojning jismonanmi yoki ruhan sodir bo'lganligi haqidagi rivoyatlarni ochiqalaydi. Qushayriy asarda Idris, Ibrohim, Ilyos, Muso, Iso (a.s.)ning me'rojlarini to'g'risida ham bayon etib, avliyolarning ham me'roji haqida gapiradi. Kitob so'ngida mutafakkir Boyazid Bistomiyning me'roji to'g'risidagi rivoyatni keltiradi. Shuningdek, u olimlarning me'roj borasida ikki toifaga bo'linganini ta'kidlaydi. Ulardan birinchi toifa, me'rojni inkor etib, buni aqlan imkonsiz deb da'vo qiladiganlar va ikkinchisi, me'roj bir ro'yo sifatida ko'rilgan, deydiganlar.

Qushayriy asarda me'roj ro'yoda ko'rilgan degan kishilarning qarashlari va uning ta'villarini ham bayon qiladi. Turlicha talqin etilib, izohlanadigan me'rojda Muhammad s.a.v. Haqni ko'rganmi yoki yo'qmi degan masala muhokama qilinadi. Shu bilan birga, asarda me'roj to'g'risida ayrim so'fiylarning qarashlari ham bayon etilgan.

So'fiylarning me'roji payg'ambar s.a.v. me'rojining merosi bo'lib, u solikning sulukdagi sayohatida sodir bo'ladi. Sayru suluk insonning borliq martabalaridagi sayohatidir. Bu sayohat insondan boshlanib, Haqqa ruhiy yuksalish, ya'ni uruj yoki me'roj bo'ladi, so'ngra takror dunyoga qaytiladi. Ya'ni, solikning nozili yoki ruju' sodir bo'ladi. Tasavvufda uruj (yuksalish) va nuzul (inish) atamalari mohiyatan majoziy ma'noga ega. Zero, Alloh yo'nalish va makondan pok. Bu atamalar keng qamrovli bo'lmaganligi va ma'nosi torligi sababli qo'llanilgan. Aslida, me'rojni mo'jizaviy tarzda "boshqa o'lchamga o'tish" deyish to'g'ri bo'ladi. Payg'ambar s.a.v.ning ko'tarilishlari ham boshqa olamga sayohat hisoblanadi. So'fiylik yo'li (at-tariq us-sufiy) g'oyasi, dastlab, Haqqa olib boruvchi yo'lni bildirgan bo'lsa, Qushayriyning xizmati bilan o'sha davrda umume'tirof etilgan tushunchaga aylandi.

Tasavvufiy asarlarda ham ko'pgina so'fiylar o'zlarining me'rojlarini haqida ma'lumot berganlar. Biroq so'fiylarning fikricha, payg'ambar ham tana, ham ruhi bilan yuksalgan va me'rojga chiqqan; so'fiylar esa bu safarni faqat ruhlari bilan amalga oshiradilar.

Boyazid Bistomiy o'zining me'rojlaridan birini – malakut olamidani oshganligi, unga jannat va do'zaxni ko'rsatganlari, ammo o'zining ularga hech qachon e'tibor bermaganligini tavsiflaydi. U olamda ko'rgan barcha payg'ambarlarga salom berganini, biroq payg'ambar s.a.v.ni ko'rmaganini aytadi. Bunga sabab uning ruhi atrofida mingta nurdan pardaning borligi deydi. Undan chiqqan nurlar qariyb barcha nar-

¹ القشيري. كتاب المعراج. القاهرة، دار الكتب الحديثية، 1964. 3-21 ص.

sani yoqib yuboradigandek kuchli edi, deb ta'kidlaydi.¹ Boyazid Malakut, Jabarut olamlaridan kechib o'tib, Kursiga yetib boradi. Nur dengizlaridan o'tadi va dengizlarning eng buyugi Arshi Rahmon yetib boradi. Xudodan unga nido keladi: Mening oldimga kel! Mening oldimga kel! Qudsiy to'shak ustiga o'tir va san'atimdagi latoifni ko'r.

Alouddavla Simmoniy "Sirbol ul-bol li-zaviya-l-hol" (Hol egalari aqlining siri) asarida o'zining me'rojini ta'riflar ekan, qalbining avval yer, havo, suv va olovga sayohat qilganini, keyin esa sayyoralar bo'ylab sayohat qilishni boshlaganini aytadi. Oyga kelib, undan ahvolini so'rganida, Oy: "Men nurimni Quyoshdan olaman va o'sha nurni Yerga yetkazaman", deb javob beradi. Simmoniy: "Nega sen goh hilol, gohida to'lin oy shaklida bo'lasan?" deb so'rganida, Oy shunday javob beradi: "Yer ba'zan men bilan Quyosh orasiga kirib, yorug'likni to'sib qo'yadi va men quyosh nuridan ulush ololmayman (bu paytda hilol kabi ko'rinaman)".²

Imom Rabboniy Ahmad Sirhindiyning fikricha, sayru sulukda, ya'ni ruhiy me'rojda koinotni tark etish mumkin. Payg'ambar s.a.v. Me'rojda koinotni tark etib, bu dunyoning zamon va makon (vaqt va fazo) chegaralaridan xalos bo'lgan. Yunus baliqning qornida bo'lganida, Nuh alayhissalom to'fonni boshdan kechirayotganida jannat ahlini jannatga, do'zax ahlini esa do'zaxga kirayotganini ko'rgan. Bu safarda Imom Rabboniyning o'zi ham bu mulkning zamon va makon chegaralaridan qutulib, farishtalarning Odam alayhissalomga sajda qilgan onini ko'rganligini aytadi.

Imom Rabboniy sayru suluk chog'ida o'zining yuksalishi va inishini tavsiflar ekan, Alining ma'naviyati yordamida ilohiy ismlardan o'z tarbiyachisi ismiga ko'tarilib, u yerdan Bahouddin Naqshbandning ruhoniyligi yordamida Haqiqati Muhammadiya martabasiga, so'ngra Umar, Alouddin Attor, Abdulqodir Jayloniy va payg'ambar s.a.v. ruhoniylarining yordami bilan yuksak maqomlarga ko'tarilganligini aytadi. Keyin nuzulga tushib, Chishtiyya, Kubraviya va Suhravardiya mashoyixlarining maqomlaridan fayz olgani, inishning oxirgi nuqtasi bo'lgan qalbgaga kelganida, u yerda tamkinni topmasdan oldin yana bir yuksalish bilan avvalgidan ham yuksak darajaga erishgani va yana qalbgaga tushib, tamkinga erishganini bayon qiladi.

Har bir solikning uchta yuksalishi bor:

1. Mab dai taayyunga, ya'ni o'zi bog'langan ilohiy ism soyasiga qadar.
2. O'zi bog'langan ilohiy ismning asligacha.
3. Ilohiy ismning aslidan ham yuksaklarga qadar.

Me'roj rivoyati so'fiylar orasida juda mashhur bo'lganligi ham bejiz emas. Tasavvuf nazariyotchisi Abulqosim Qushayriy me'roj qissalarining turli variantlarini va mashhur tasavvuf shayxlarining Qur'onning tegishli oyatlariga sharhlarini to'plagan. Qushayriy "Kitob ul-me'roj" asarida Isro va Me'roj haqida ulamolarning hukmi, bu boradagi olimlarning ixtiloflari, me'roj haqidagi soxta rivoyatlar, me'roj haqiqati bo'yicha ulamolarning mazhablari, uning ruh va jism tomonidan amalga oshirilganligi borasidagi tahlil, me'rojning davriga oid tadqiqot, me'rojning Allohning yuqorida ekanligiga dalolat qilmasligi, payg'ambar dan boshqa insonlarda me'rojning sodir bo'lishi yoki bo'lmasligi to'g'risidagi fikrlar farqi, valiylar me'roji, me'roj kechasida payg'ambarga xos bo'lgan xususiyatlar, Idris, Ibrohim, Ilyos, Muso va Iso payg'ambarlar me'roji oid xabarlar, Me'rojning Makkadan emas, Baytul Muqaddasdan boshlanishining siri, tasavvuf shayxlarining bu masaladagi so'zlari, Najm surasi birinchi oyatlarining tafsiri, me'roj haqidagi sahih va to'qilgan hadislar va Abu Yazid Bistomiyning me'roji haqida bayon qiladi.

Qushayriy payg'ambar s.a.v. me'rojini shunday tasvirlaydi: "U tunda nafs va ruhi bilan sayohat qildi".³ Bu tungi sayr uning siri edi, chunki sir ruhdagi narsani bilmaydi va ruh ko'rgan narsasini bilmaydi. Sir va tana o'zlaridagi narsaning mohiyatini anglamaydi. Har bir inson Haqning shohidi bo'lib, unga vositasiz va insoniy vujudiyatsiz erisha oladi.

Qushayriyning fikriga ko'ra, basiratning o'rni (mahallu) ko'z, ularning birligi esa ko'ruvchi – roiy, hidning o'rni burun, ularning birligi hid sezuvchi – shomm bo'lganidek, xuddi shunday mushohadaning mahalli sir, muhabbatning mahalli ruh va ma'rifatning mahalli qalb. Shu sabab mushohada qiluvchi, muhib va orif kishi banda (abd) hisoblanadi. Shunday ekan ilohiy hukm ham unga qaytadi. Bularning har bir qismi ma'nosiga ko'ra bir-biri bilan bog'liqdir. Muhabbat bo'lgan qismi shohidga ega bo'lmagani kabi ko'rish idroki (idroki ul-basar) bo'lganda eshitish idroki (idroki us-sam') bo'lmaydi.

¹ Imâm-ı Rabbânî Ahmed Sirhindî, Mebde' ve Me'âd, Karaçi 1968, s. 63.

² ركن الدين علاء الدولة السمانى. رسالة سربال البال لذوي الحال. القاهرة، دار المعارف، 1987. ص. 247.

³ ابوالقاسم القشيري. كتاب المعراج. بيروت، دار الوراق، 2016. ص. 187.

Qushayriy Haq me'roj to'g'risidagi barcha e'tirozlarni "sara" – "tungi sayr" kalimasi o'rniga "asra" – "tungi sayohat" so'zini ishlatgani bilan bekor qiladi deb ta'kidlaydi. Zero, ilohiy qudrat va rububiyatga ajablanib (hayron) ham bo'lmaydi, undan taajjublanib ham bo'lmaydi. So'fiylardan Nuriy aytadiki, "Haq qalblarga qaradi va Muhammad a.s.ning qalbidan uni ko'proq istaydigan biror bir qalbni ko'rmadi. Va tezroq uni ko'rish (ru'yat) va u bilan suhbatlashish (mukolamat) istagida Me'roj bilan unga ikrom ko'rsatdi".¹

Vositidan me'rojning hikmati haqida so'ralganida, Xudo habibining holini ubudiyat mahalli, ya'ni bandalik maskanidan azaliyat mahalli – abadiylik maskaniga, azaliyat mahallidan esa rububiyat mahalli rabboniylik maskaniga ko'tarishni istaganini aytadi. Bundan ko'rinadiki, Qushayriy me'rojni uchta maskanga bo'ladi: 1. Ubudiyat. 2. Azaliyat. 3. Rububiyat.

Xudo payg'ambarning uruji orqali ubudiyat maskanida ummatga bandalik odobini ko'rsatishni, so'ng esa uni azaliyat maskaniga o'tkazib, o'sha maqomda bo'lgan kishining u bilan odoblanishini (liyataaddaba bihi) xohladi. Shundan so'ng Xudo payg'ambarni rabboniyat maqomiga ko'chirdi. Bu me'roj bo'lib, unda Haqqa tungi sayohatni amalga oshirdi. Bu sayohatda maqom va rusum (ramz)lar tushunchasi undan olib qo'yildi (zoyil qilindi) va u yaqinlik hamda qurbatdan yaratilgan holga o'tkazildi. Demak, oxirgi maskan bo'lgan rabboniyat maqomida so'fiydagi maqom tushunchasi yo'qolib, u qurbatga erishadi va bu eng oliy maqom sanaladi.

So'fiylar tasavvuf falsafasini va nafs bilan kurashish orqali yuksalish yo'llarini ifodalash uchun Me'roj masalini misol qilib oladilar. Shu tariqa, so'fiylar eng yuqori maqomlarga erishadilar. Avliyolarning ruhoniy-barzahiy isrolari ham mavjud bo'lib, ular xayol uchun xizmat qiladigan sezgi a'zolari yordamida mushohada qilinadigan tasvirlardagi ma'nolarni kuzatadilar. Bilim bu tasvirlarda mujassam bo'lgan ma'nolar orqali beriladi. Valiylarning yer yuzida va havoda isrolari bor, ammo samoda sezgi bilan idrok qilinadigan maqomlari yo'q. Payg'ambar s.a.v.ning isrosi jismoniy bo'lib, osmon va falaklarni keziishi mumkin bo'lgani kabi, ma'naviy vorislari uchun ham mumkindir. Avliyolarning me'roji ruhlarining yuksalishi, qalblarining ko'rishi, barzaxiy suratlar va shaklga ega ma'nolar hisoblanadi.

Me'roj, aslida, Haq yo'lidagi tasavvuf ta'limotini bayon qiladi. U bir maqomdan ikkinchisiga solikni yuksaltirib, Haqiqatga yuzlanishida o'z irodasining to'g'riligini, o'zgalardan ajralganligini, ilohiylikka yetishish yo'lini, shohidlik maqomini aks ettiradi.

Gulyamova Gulnoz Baxodirovna (UrDU tadqiqotchisi)

HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASI VA UNING MA'NAVY-AXLOQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada vatanparvarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, vatanga muhabbat, o'z shaxsiy manfaatlarini vatan uchun qurbon qilishga asoslangan hissiy bog'liqligi borasida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, vatanparvarlik o'ziga xos tuyg'ulari, vatanparvarlikning tarixiy ildizlari va vatanparvarlik jamiyat tafakkurining ajralmas qismiga aylanib, uning rivojlanishining milliy momentlarini aks etishi kabi masalalar tadqiq etiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие патриотизма и его значение, эмоциональная связь, основанная на любви к Родине, принесении в жертву своих личных интересов ради страны. При этом изучаются такие вопросы, как специфические чувства патриотизма, исторические корни патриотизма, а также то, как патриотизм становится неотъемлемой частью мышления общества и отражает национальные моменты его развития.

Annotation. This article discusses the concept of patriotism and its meaning, an emotional connection based on love for the Motherland, sacrificing one's personal interests for the sake of the country. At the same time, issues such as specific feelings of patriotism, the historical roots of patriotism, as well as how patriotism becomes an integral part of the thinking of society and reflects the national moments of its development are studied.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik tushunchasi, harbiy xizmat, vatanga sadoqatli bo'lish, vatanni sevish, vatanparvar, yoshlarni tarbiyalash, ijtimoiy munosabatlar, antogonistik, ijtimoiy taraqqiyot, jasorat ko'rsatish.

Ключевые слова: понятие патриотизма, военная служба, верность стране, любовь к Родине, патриотизм, воспитание молодежи, общественные отношения, антагонизм, социальное развитие (прогресс), проявление мужества.

¹ ابو القاسم القشيري. كتاب المعراج. بيروت، دار الوراق، 2016. ص. 188.

Key words: *the concept of patriotism, military service, loyalty to the country, love of the Motherland, patriotism, education of youth, public relations, antagonism, social development (progress), manifestation of courage.*

Yoshlar tarbiyasining kelajagi ularni axloqiy va ma'naviy jihatdan haqiqiy insonlar etib shakllantirishdan iborat. Shundagina u komil insonga aylanadi. Tarbiyaning asosiy vazifasi – yoshlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirish, tengdoshlari, oila a'zolari bilan muloqot qilish, boshqa odamlarni tushunish va qabul qilish, yoshi va millatidan qat'iy nazar, har bir shaxsning o'ziga xosligini tushunish, o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Vaziyatni, o'z ishining hisobini tushunib, mehnati natijasiga baho bera olsa, kelajagi yuksak bo'lishi, shubhasiz. Bugungi kun yoshsi o'qituvchi bergan bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki uni faol, maqsadli, zukko, iste'dodli harakatlari bilan bog'lay oladi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlariva yozilgan maqolalarida, aynan ichki ishlar sohasidagi kadrlarni tayyorlashda, asosan, tizimdagi ijtimoiy va psixologik masalalarga urg'u berilib, muammoga tizimli va amaliy tomondan yondashilmagan. Shuningdek, ichki ishlar xodimlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq muammolar qisman ochib berilgan, ammo oliy harbiy ta'lim funksional muammolar, ularning kelib chiqish sabab va omillari hamda ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilmagan. Bu esa, o'z navbatida, mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, istiqbolda tizimda ichki ishlar sohasidagi kadrlarni tayyorlash jarayoniga ta'sir etuvchi ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini tizimli tahlil qilish hamda amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Insoniyat ming yillar davomida yaratib kelmoqda, doimo o'zgarib, rivojlanib boruvchi ongli hayot davom etmoqda. Faqat insoniyatga tegishli bo'lgan hayot rivojining bog'boni – ta'lim. Tarbiya keksa avlodning eng yaxshi tajribasi, kelajak avlod muvaffaqiyati, ibrat namunasi, an'anasi, ma'naviy boyligi, xalq pedagogikasi esa o'zbek xalqining ko'p asrlar davomida otadan o'g'ilga o'tib kelayotgan o'lmas merosidir.

Vatanparvarlik mazmun-mohiyati vatanga muhabbat, o'z shaxsiy manfaatlarini vatan uchun qurbon qilishga asoslangan hissiy bog'liqlikdir. Bu bog'lanish, shuningdek, mansub bo'lgan millatning etnik, madaniy, siyosiy va tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, milliy tuyg'u yoki milliy g'urur sifatida yuzaga keladi. Bu yerda o'z ona yurtining xarakterini, madaniy durdonalarini asrash va shu fazilatlar bilan o'zini boshqa millat vakillari bilan tenglashtirish, Vatan, o'z xalqi manfaatini himoya qilish ham vatanparvarlik fazilatlariga kiradi. «Vatan» arabchadan o'zlashgan bo'lib, «ona-yurt» degan ma'noni anglatadi.¹ «Ona–yurt, –deydi V.V.Makarov, –bu insoniyatning sotsial vaqt va makondagi borlig'ining shakli bo'lib, u hozirgi zamon sivilizatsiyasi umumjahon-tarixiy xarakteri rivojlanishining doimiy kuchayishida alohida xalqlarning individual taqdirilarida lokalizatsiyalashadi».² «Vatanparvarlik» esa arabcha «vatan» so'ziga forscha-tojikcha-o'zbekcha so'z va qo'shimchalarning qo'shilishidan hosil bo'lib, «o'z vatanini, xalqini cheksiz sevuvchi, vatan manfaatlarini uchun jonbozlik ko'rsatuvchi» demakdir.³ «Patriotizm» so'zi esa grekchadan olingan bo'lib, «vatan», «yurt» va «vatandosh» degan ma'nolarni anglatadi.⁴ «Ona-yurt va vatanparvarlikning o'zaro aloqadorligiga,–deydi V.V.Makarov, –konkret tarixiy muayyanlik xosdir, shu bilan birga, jamiyatning har qanday tizimida ona-yurt fenomeni tarkib topadiki, shunda sotsial-biologik zamin (muayyan kishilar birligida muayyan sotsial makonda tug'ilishi) subyektning u bilan sotsial-emotsional bog'lanishini ta'minlaydi va shaxs va davlat munosabatlarining erishilgan darajadagi monandligi fuqarolarni unga nisbatan munosabati bo'yicha to'g'ridan to'g'ri bog'liq qilib qo'yadi».⁵

Vatanparvarlik o'ziga xos tuyg'udir. «Tuyg'u» atamasi lug'at kitoblarda shunday izohlanadi: 1. Tashqi ta'sirni sezish, his etish, qabul qilib olish qobiliyati; sezgi. 2. Ruhii yoki jismoniy kechinmalar, his-tuyg'ular majmuyi; his-tuyg'u, his-hissiyot. 3. Ko'tarinki ruh; ehtiros».⁶ Demak, tuyg'u ruhiyatga, xususan, inson ongiga xos hodisa. Inson ongi ijtimoiydir, ya'ni jamoaviy, jamiyatda yuzaga kelgan. Ijtimoiy ong madaniydir, demak, uning atributiv qirralaridan biri – vatanparvarlik ham madaniydir, ya'ni, unga e'tiqod va xatti-harakat birligi sifatida onglilik va maqsadga muvofiqlik xosdir. «Ajdodlarimizning, –deydi O'.Abilov,–eng bahodir, eng pahlavon, eng yovqur vakillarini vatanparvarlik tuyg'usi jasoratga un-

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., “Рус тили”, 1981, 1-том, 173-бет.

² Макаров В.В. Патриотизм как философская проблема. Автореф. ... докт. филос. наук, М., 1990, с. 10.

³ Ўша жойда, 174-бет.

⁴ Философский энциклопедический словарь. М., “Советская энциклопедия”, 1983, 484-бет.

⁵ Макаров В.В. Патриотизм как философская проблема. Автореф. ... докт. филос. наук, М., 1990, с. 11.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М., “Рус тили”, 1981, 2-том, 221-бет.

dadi. Xalqimizni turli suronlardan, turli bosqinlardan omon saqlab qolgan, millat sifatida shakllantirgan, ulg'aytirgan, birlashtirgan tuyg'u ham vatanparvarlik tuyg'usidir».¹

Vatanparvarlikning tarixiy ildizi – ming yillar davomida yashab, mustahkamlanib kelgan, o'z ona zamini, tili va an'alariga bog'langan davlatchilik. Millat va davlatchilikning shakllanishi sharoitida vatanparvarlik jamiyat tafakkurining ajralmas qismiga aylanib, uning rivojlanishining milliy momentlarini aks ettiradi.

Vatanparvarlik tushunchasi turli yo'llar bilan qo'llanilgan. 18-asrdagi Amerika va Fransiya burjua inqiloblari davrida u inqilobiy mafkura bilan bog'lanib, "millat" tushunchasiga tenglashtirildi. Keyinchalik, vatanparvarlik yangi davlatlarning tashkil topishi, milliy va milliy-ozodlik harakatlari va urushlar arafasida dolzarb bo'lib qoldi. Tarix davomida vatanparvarlik muhim rol o'ynagan. Insoniyatga qarshi tor fikrli guruh manfaatlarini ifodalovchi mutlaq vatanparvarlik shovinizmga yaqinroqdir.

Vatanparvarlik buyuk tushuncha. Bu nafaqat harbiy xizmatda, Vatanga sadoqatli bo'lish, Vatanni sevish, yerga bog'liq bo'lish–vatanparvarlik! Vatanparvar yoshlarni tarbiyalash faqat ta'lim muassasalari faoliyati bilan tugamaydi. Dastlab, oiladan boshlangan bu tarbiyaviy ishlar ta'lim muassasalarida davom ettirilib, butun jamiyat, uning har bir a'zosi faoliyatida ijobiy misollar bilan kamol topadi.

Har bir mamlakat hayotida dushmanga qarshi urushda barchani birlashtirgan, barcha sa'y-harakatlarning mazmun-mohiyatini namoyon etadigan chaqiruv katta, o'zgarmas ahamiyatga ega. Vatanparvarlikning birinchi tarixiy tipi asosiy ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchilikka asoslangan, ijtimoiy munosabatlar antogonistik tus olgan, ijtimoiy taraqqiyot sinfiy kurash natijasida yuz bergan kishilik jamiyati rivojlanishining davri uchun xarakterlidir".² Ushbu keltirilgan fikrlardan so'ng, quyidagi savollar yuzaga keladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida qabilalar o'rtasida yurt uchun kurashishlar bo'lmaganmi?! Yevropada Uyg'onish va Yangi davrlarda Amerika qit'asida yashovchi tub joy aholi – indees qabilalarining o'z ona yurti uchun mustamlakachilarga qarshi kurashlari, jasorat ko'rsatishlari ular uchun vatanparvarlik emasmi?! Yoki ona yurtimizga oid qadimgi davr ma'lumotlaridan, grek tarixchisi Gerodotning "Tarix" nomli kitobida To'marisning, grek tarixchisi Poliennning "Harbiy hiylalar" asarida Shiroqning jasoratiga oid fikrlarni keltirish ham o'rindir. Vatanparvarlik faqat sinflar kurashi bilan bog'liq his-tuyg'umi?! Vatanparvarlikning faqat antogonistik va sotsialistik tiplari mavjud deb tushunish, cheklangan fikr emasmi?! Axir sinflar va sotsial qatlamlar millat ichidagi kishilarning mehnat faoliyatiga ko'ra bo'linishlari-ku?!

M.M.Kuchukovning vatanparvarlikning subyektiga oid yana quyidagi fikrlariga e'tibor bering: "Har qanday formatsiyada vatanparvarlik subyektini har xil sinf va sotsial guruhlarining ichki differensiyalashgan, uning strukturasi o'zgaruvchan va harakatchan konkret-tarixiy birligi sifatida shakllanadi. Ayni shu davrda har bir tarixiy davr muayyan sinf, sotsial guruhni vatanparvarlik subyektini yadrosi sifatida ilgari suradi. Shunga o'xshash birlikning shakllanishi vatanparvarlik mafkurasining shakllanishi bilan bog'liq qator bosqichlar orqali yuz beradi. Birinchi bosqichda ona yurtga munosabatni aks ettiruvchi ijtimoiy-ruhiy qurilma, his-tuyg'u, tasavvurlarning shakllanishi yuz beradi. So'ngra shakllanayotgan birlikning yadrosi sifatida anglangan sinfiy manfaatlar asosida vatanparvarlik mafkurasini yuzaga keltiradi. Keyingi bosqichda u sinfiy kurash rivojlanishi bilan sinfiy manfaatlarga, shu asosda ichki ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishdan manfaatdor bo'lgan boshqa sinf, sotsial guruhlarini birlashtirib, umumiy shakl berishga harakat qiladi. Xuddi shu bosqichda sinfiy mafkura vatanparvarlik maqomiga ega bo'ladi".³ E'tibor berdingizmi, janob M.M.Kuchukov milliy vatanparvarlik to'g'risida, hech bo'lmasa, millat ham vatanparvarlik subyektini bo'lishi mumkin, degan fikrni ham keltirmaydi.

Vatan uchun kurashish, Vatanni sevish, Vatanni himoya qilish yoshlarning asosiy vazifasi edi. Vatanparvarlik falsafasi har bir fuqaro, har bir askar, o'zbek yoshi va yoshlari qiyofasida o'z ifodasini topib, vatanparvarlik va tuyg'ularning jamiyat hayotida, ayniqsa, ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rnini, vatanparvarlik tarbiyasining muhim ahamiyatini ko'rsatdi. Chunki Vatan har birimiz uchun muqaddas sajdagoh va panoj maskanidir. Dunyodagi eng katta qahramonlik Vatan uchun qilingan. Hamma narsadan ulush bo'lishi mumkin, lekin Vatandan ulush emas.

O'tgan davrda umumta'lim mazmunidagi milliy ta'lim masalalari, ayniqsa, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy mafkura va uning tarkibiy qismlari bilan bog'liq ta'lim masalalari umumta'lim faniga oid guma-

¹ Абилов Ў. Ўзбекистон таракқиётининг оптимистик рухи. Т., "Истиклол", 2003, 137 – 138-бетлар.

² Кучуков М.М. Исторические типы патриотизма. Автореф. дисс. ...канд. филос. наук, Ростов-на-Дону, 1984, с. 6 – 7.

³ Shu manba. 16 – 17 с..

nitar yo‘nalishdagi darsliklarda, ko‘plab loyihalarda keng o‘z aksini topdi. Shuningdek, maktabgacha, umumta‘lim va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish amalga oshirildi.

“Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, –deydi A.M.Qambarov, –davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining yoshlarda yuksak vatanparvarlik ongi, o‘z vataniga sodiqlik hissi, fuqarolik burchini bajarishga, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorgarlikni shakllantirish bo‘yicha rejali, tizimli maqsadga yo‘naltirilgan va uyg‘unlashgan faoliyatdir”.¹ Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ham kompleks yondashishni taqozo qiladigan jarayondir. Uni faqat Qurolli Kuchlar safida olib boriladi, deb tushunish noto‘g‘ridir. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, –deb yozadi tadqiqotchi R.Y.Qurbonov, –harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shaxs shakllanishidagi murakkab jarayondir. Bu jarayon aholining barcha ijtimoiy yosh guruhlari qamrab oladi. Shuningdek, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning obyektiv omillari harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratsa-da, ular to‘la-to‘kis kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Shu ma‘noda subyektiv omillar – davlat organlari, jamoat tashkilotlari, boshqa ijtimoiy institutlarning maqsadga qaratilgan faoliyati hamda shaxsning ichki kechinmalari muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasiga obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yig‘indisi ta‘sir ko‘rsatadi. Obyektiv shart-sharoitlarga, eng avvalo, iqtisodiy, siyosiy va g‘oyaviy-nazariy asoslarni kiritish kerak”.² Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ham barkamol avlodni tarbiyalashning yo‘nalishlaridan biridir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O‘zbekiston yoshlarini chinakam vatanparvar fuqarolar etib tarbiyalashda davlatimiz rahbarining yoshlarga oid oqilona siyosati beqiyos o‘rin tutmoqda. Bu siyosatning asoschisi Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid siyosatini amalga oshirish milliy-ma‘naviy qadriyatlarga asoslangan mustaqil davlatchilik, milliy ozodlik va ularni himoya qilish yo‘lida kurashuvchan yosh avlodni voyaga yetkazish, vatanparvarlik – milliy g‘oya ruhini rivojlantirishdan iborat edi. Yurtboshimiz tomonidan ulkan muvaffaqiyatlar bilan amalga oshirilayotgan yoshlarga oid siyosat yoshlarda vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, yoshlarning vatanparvarlik, davlatchilik g‘oyalari asosida chinakam vatanparvar bo‘lib voyaga yetishi uchun keng imkoniyat yaratayotgani haqiqatdir. Harbiy vatanparvarlikka bo‘lgan ehtiyoj va jarayonlar A.Y.Qurbonovning “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni” (ijtimoiy-falsafiy tahlil) nomli falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida baholi-qudrat tahlil etilgan.³

Keyingi yillarda yoshlarning davlat boshqaruviga faolroq ko‘tarilayotgani ularning davlatga sadoqat bilan xizmat qilishlari, zamonaviy dunyoning global chaqiriqlariga javob beradigan raqobatbardosh kasb-hunar shaxsi bo‘lib yetishishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ta‘lim tizimida ta‘limni samarali tashkil etish, ushbu sohani jadal va barqaror rivojlantirish uchun ta‘limning milliy konsepsiyasi va rivojlanish strategiyasi bugungi kun voqeligi va jahon tajribasini hisobga olgan holda tayyorlanishi va amalga oshirilishi zarur. Vatanparvarlikni tarbiyalash ta‘limning asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanishi kerak.

Xo‘jayev Davron Nuriddinovich (O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi) SHARQ PERIPATETIKLARI QARASHLARIDA ADOLAT MASALASI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sharq peripatetiklarining adolat haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinib birinchi renesans davrida rivoj topgan adolat borasidagi tasavvurlar umumlashtiriladi. Bunda Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino ta‘limotidagi adolat konsepsiyasining genezisi va transformatsiyasi ochib beriladi. Qolaversa, Sharq peripatetiklari adolat borasidagi konsepsiyalari shakllanishiga qadimgi Yunon mutafakkirlarining qarashlari alopida ko‘rib chiqiladi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос о справедливости в воззрениях восточных перипатетиков, сравниваются взгляды восточных перипатетиков на справедливость и обобщаются представления о справедливости, сложившиеся в период первого Возрождения.*

¹ Камбаров А.М. Актуальные проблемы духовно-нравственного и патриотического воспитания молодёжи на современном этапе. Проблемы духовно-нравственного и патриотического воспитания военнослужащих и пути их решения. Т., ABC РУ, 2001, с. 5.

² Курбанов Р.Ю. Ёшларни харбий ватанпарварлик рухид тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалс. фан. номз. ... дис. автореферати, Т., 2008, 11-бет.

³ Shu manba. 25-бет.

Раскрывается генезис и трансформация понятия справедливости в учении Абу Насра Фараби и Ибн Сины. Кроме того, отдельно рассматриваются взгляды древнегреческих мыслителей на формирование представлений о справедливости восточных перепатетиков.

Annotation. This article compares the views of Eastern Peripatetics on justice and summarizes the ideas about justice that developed during the period of the first Renaissance. The genesis and transformation of the concept of justice in the teachings of Abu Nasr Farabi and Ibn Sina are revealed. In addition, the views of ancient Greek thinkers on the formation of ideas about the justice of the Eastern Peripatetics are considered separately.

Kalit so‘zlar: Forobiy, Ibn Sino, ijtimoiy adolat, jamiyat, yaxshilik, ezgulik, kategoriya, tenglik, sharq, axloq, siyosat.

Ключевые слова: Фараби, Ибн Сина, социальная справедливость, общество, добро, благодеяние, категория, равенство, восток, этика, политика.

Key words: Farabi, Ibn Sina, social justice, society, kindness, category, equality, east, ethics, politics.

Sharq peripatetiklari, kalom falsafasi kabi oqimlar bu borada g‘oyaviy asos vazifasini bajargan. “Falsafa kalomdan farqli o‘laroq, adolat tushunchasini Qur‘on esxatologiyasi, ilohiy jazo va mukofot, inson ixtiyori bilan bog‘liq masalalarga emas, balki dunyoviy masalalarga, ya‘ni jamiyatdagi odamlar munosabatlariga asoslanadi”.¹ Forobiy uchun jamiyatda adolatni ro‘yobga chiqarishning qadriyati hayotning umuman insonga o‘ziga va o‘zgalar uchun foydali bo‘lgan ezgu ishlarni amalga oshirishga imkon berishi bilan belgilanadi. U bu haqda shunday yozadi: “Solih odam o‘limni yaqinlashtirishga intilmasligi kerak, balki umrini uzaytirish uchun har qanday yo‘l bilan harakat qilishi kerak, bu unga o‘zini baxtli qiladigan bunday harakatlarni ko‘proq qilishga imkon beradi; shaharliklar o‘z fazilati bilan ularga keltirgan foydani boy bermasinlar”.²

Forobiyning fikricha, “Insonning Allohga sig‘inishi, uni dunyoning yagona hukmdori deb tan olishi ikki oqibatga olib keladi: yo Ilohiy amrlarga amal qilgan kishi o‘lgandan keyin ajrga erishadi yoki Allohning amrlarini inkor etib, bu hayotdan zavqlansa, o‘sha bilan jazoni boshdan kechiradi. Demak, diniy g‘ayrat ham, diniy urf-odatlariga e‘tiborsizlik ham bu hayotda emas, balki narigi dunyoda hisob qilinishiga olib keladi”.³ Forobiy o‘zining boylik, pul, kuch kabi asl maqsadlarini yashiruvchi shaxslarni ovchi bilan yirtqich hayvonga hujum qilib, lekin hujumning asl maqsadini yashirib, xunuk harakatlar qilgan kishiga qiyoslaydi.

O‘rta asrlar islom faylasuflarining adolat muammosiga ijtimoiy fazilat sifatida munosabati ko‘p jihatdan Aristotel va Platon asarlarining Sharq peripatetikasiga ta‘siri bilan belgilanadi.

Aristotelning fikricha, adolat «fazilatlarining eng ulug‘i bo‘lib, odamlar shom va tong yulduzlari yorug‘idan ko‘ra ko‘proq undan hayratda qoladilar». Aristotel uchun adolat, birinchidan, barcha fazilatlarini o‘z ichiga oladi, shuning uchun u “to‘liq fazilat”, “butun fazilat”, ikkinchidan, u boshqasiga nisbatan mavjud bo‘lgani uchun “tashqi” deb hisoblangan yagona narsadir. A.V.Sagadeev ta‘kidlaganidek, Sharq peripatetiklari amaliy falsafaning nazariy asosini tashkil etuvchi, siyosiy qismi Platonning “Davlat” asaridagi g‘oyalariga tayangan o‘zlarining axloqiy ta‘limotini ishlab chiqishda “Nikomax axloqi” asaridan foydalanadilar.

Platon va Aristotelda axloq va siyosat o‘zaro bog‘liqdir. Aristotel ta‘limotidagi bu nisbatni hisobga olgan holda A.A.Huseynov “Siyosatning o‘z maqsadi fuqarolarning baxt-saodatini ta‘minlash, ularning oqilona mohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi davlatdir. Shu ma‘noda siyosatning maqsadi o‘z chegarasidan chiqib ketadi”, deb ta‘kidlaydi.

Shaxs ijtimoiy subyekt bo‘lib, uning axloqi o‘zining axloqiy me‘yorlari o‘rnatilgan davlatda amalga oshadi. Binobarin, insonda adolat fazilatining mavjudligi umuman adolatli davlat tartibining mavjudligini taqozo etadi. Inson polis borlig‘i sifatida baxt, adolat va yaxshilik kabi umumiy maqsadlar tufayli polisga immanent bo‘lib qoladi. Axloqiy fazilatning siyosatga yo‘naltirilganligi, birinchisida ikkinchisida amalga oshirilishi falsafaning, birinchi navbatda, Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy qarashlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. A.A.Ignatenko uni “siyosat falsafasi vakili” deb ataydi, u adolat va tartib hukmron bo‘ladigan, shaharning barcha aholisi baxtli bo‘ladigan ezgu shahar qurishni orzu qiladi. G.B.

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Таржимонлар: Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар: М.Хайруллаев, М.Жаббаров. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2016, 89-бет.

² Ўша асар.

³ Ўша асар.

Shaymuxeambetova Forobiyning butun falsafiy tizimi “ma’lum bir axloqiy idealni tasdiqlash”dan kelib chiqadi, deb hisoblaydi.

Forobiy “Aflotun qonunlarining hayot ham yomondir”.¹ Shunday qilib, inson uchun asosiy narsa ezgulikka erishish bo‘lishi kerak. Inson o‘zini axloqiy me‘yorlar asosida tarbiyalab mohiyati” asarida Aflotunning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarini sharhlar ekan, “eng munosib odamlar” abadiy, mutlaq, vaqt sinovidan o‘tgan imtiyozlarga ega ekanligini yozadi. Bunday odamlar baxtga intiladi. “Yomon va zolimlarga kelsak, ular manfaatga ega emaslar va baxtga erisha olmaydilar. Ular uchun, baxt-saodatga intilib, adolatli, tartibli, ezgu jamiyatda yashashga intiladi. Shaxslarning adolati davlat adolatini tashkil etadi.

Demak, faylasuflar uchun adolat muammosi, eng avvalo, ijtimoiy muammodir. Muayyan ma’noda, u aholisi hamkorlik va o‘zaro yordam muhitida yashaydigan ezgu yoki adolatli shahar namunasini qurishga urinishda ifodalanadi. Aytish joizki, ayrim arab-musulmon faylasuflari ijtimoiy masalalarga unchalik qiziqmaganlar. Bu mulohaza, xususan, ushbu masalalarda ikkinchi darajali rol o‘ynagan Ibn Sinoga tegishli. V.Zohidov: “Ibn Sino tabiatshunoslik va falsafiy muammolar bilan bir xil darajada bo‘lmasa-da, ijtimoiy masalalar bilan ham shug‘ullangan”, deb qayd etadi. A.V.Sagadev Ibn Sinoda fazilatli shahar haqidagi risolalarning yo‘qligini “o‘z davrining umumiy siyosiy ahvoli, bu holat qudratli Mahmud G‘aznaviyning ismoliylar (shia islomining asosiy yo‘nalishlaridan birining tarafdorlari) bilan kurashi bilan tavsiflanadi.

Arab-musulmon faylasuflari orasida birinchi bo‘lib fazilatli shahar haqida risola yozishga murojaat qilgan kishi Forobiydir. A.V.Sagadeev Forobiyning ezgu shahar haqidagi asari mazmunini siyosiy vaziyat bilan bog‘laydi. Har safar “qarama-qarshilikdan qarama-qarshilikka evolutsiya” bir hukmron sulolaning, axloqsiz va adolatsizning halokatiga olib keladi va natijada yangisi paydo bo‘ladi.

Forobiyning qarashlari adolatli jamiyat tushunchasi bilan ajralib turadi, bu yerda har kim o‘z o‘rini egallaydi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bunday pozitsiyani butun o‘rta asr olimlari egallaydi. Shunday qilib, Ioxan Huizinga shunday deb yozadi: “Jamiyatning sinfiy bo‘linishi g‘oyasi o‘rta asrlardagi barcha teologik va siyosiy mulohazalarga singib ketgan”.

“Ikkinchi muallim” uchun “adolat, eng avvalo, umumiy mulkni shaharning barcha aholisi o‘rtasida taqsimlash, undan keyin esa ular o‘rtasida taqsimlangan narsalarni saqlab qolishdir”. Forobiy oddiy kundalik qadriyatlarini—farovonlik, boylik, obro‘-e’tibor, jamiyatdagi mavqeni anglatuvchi imtiyozlar hamma uchun bir xil va to‘liq berilmaydi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy iyerarxiyadan kelib chiqqan holda, har bir shaharlik bu imtiyozlarda o‘zi qanchalik munosib bo‘lsa, shuncha ishtirok etadi. Aflotun fikricha, iyerarxik jamiyatda adolat mumkin bo‘ladi, mohiyatan utopik bo‘lgan mutlaq ijtimoiy tenglik esa adolatsizlik manbai hisoblanadi. Biroq, bu yerda quyidagilarni ta’kidlash kerak: agar Aflotun ruhning har bir kuchiga ma’lum bir sinf va har bir sinfga ma’lum funktsiyalarni belgilagan bo‘lsa, Al-Forobiy uchun har qanday ruhiy kuch har qanday tabaqaga mos kelishi mumkin. Masalan, Aflotunda faylasuflar sinfi ruhning aqliy kuchiga, hunarmandlar sinfi ruhning shahvat kuchiga mos keladi, Forobiyda esa sxema – ruhning kuchi – sinf – funksiya barqaror emas. Ushbu sxemaning rivojlanishi insonning o‘zi irodasiga bog‘liq. Hunarmand o‘z xarakterini tarbiyalab, bilimga erishib, faylasuf bo‘la oladi. G.B.Shaymuxeambetova ta’kidlaganidek, “Farobiy Platon aristokratiyasiga o‘ziga xos demokratiyani qarshi qo‘yadi: tug‘ilishda ruhlarining tengligi tegishli tarbiya va o‘z intilishlari natijasida bilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir xil imkoniyatlarni tasdiqlaydi”.²

Forobiy ne‘mat ulushlarini taqsimlash va saqlashda bunday demokratiyaga yo‘l qo‘ymagan, chunki har bir harakatga ma’lum ulush ajratilgan. Forobiy “ulush” so‘zini belgilash uchun arabcha “kist” (ulush) so‘zidan foydalanadi, bu so‘z ham “adolat” ma’nosini anglatadi. Uning yozishicha, «har bir shahar aholisining savobiga teng ulushi bor», ya’ni, adolat, bu hissalarining adolatli taqsimlanishi. “Har kim jamiyatdagi mavqeiga ko‘ra, o‘ziga berilgan darajasiga munosib oddiy hayotdan narsani olishi kerak”.

Demak, adolat fuqarolar o‘rtasida o‘z xizmatlariga ko‘ra imtiyozlarni taqsimlash bo‘lsa, adolatsizlik ne‘matlarni noloyiq taqsimlash bilan sodir bo‘ladi, bu esa shaxsning ko‘p yoki oz foydasiga ega ekanligini bildiradi. Forobiy ne‘matlarni nafaqat taqsimlash, balki uni saqlab qolish kerak, deb hisoblaydi. Ya’ni, imtiyozlarga ko‘ra, belgilangan imtiyozlarning ulushi saqlanib qolishi kerak. “Agar tovarning bir qismi uning qo‘lidan chiqib ketsa”, “yoki ixtiyoriy ravishda... yoki ixtiyoriy bo‘lmagan holda” yuzaga

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Таржимонлар: Абдусодиқ, Ирисов, Махкам Махмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар: М.Хайруллаев, М.Жаббаров. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2016, 102-бет.

² Шаймухамбетова Г.Б. Арабоязычная философия средневековья и классическая традиция (начальный период). М., 1979, с. 113.

kelgan taqdirda, imtiyozlar shaharning boshqa aholisi qo'lida saqlanishi kerak. "Bu, –deb yozadi Forobiy, – faqat shahar aholisi qo'lida qolgan narsalarni o'z xohishiga ko'ra yoki unga zid ravishda qoplash orqali sodir bo'lishi mumkin va (qaytarilgan foyda) unga tegishli bo'lgan narsaga teng bo'lishi kerak, yo bir xil (Tovar)ga yoki boshqasiga. Qaytarilgan narsa unga shaxsan yoki shahar aholisiga qaytariladi. Bu ikki holatdan birortasida shaharda yashovchiga ekvivalent qaytariladi. Bu orqali bir marta bo'lingan foyda shaharliklar tomonidan saqlanib qoladi. Bu Forobiyga ko'ra, adolatni anglatadi. Adolatsizlik shundan iborati, uning ne'matlarining bir qismi odamni unga yoki shahar aholisiga unga teng keladigan foydani qaytarmasdan qoldiradi". Shunday qilib, Forobiyning bu dalillarida asosiy narsa adolat sifatida ekvivalentlik tushunchasidir. Fuqarolarga savobiga qarab taqsimlanadigan nafaqalar ulushini belgilash va saqlash alohida fuqarolarga zarar yetkazmaslik va umuman jamoat tartibini buzmaslikdan iborat.

Bundan tashqari, Forobiy bir fuqaroning o'ziga tegishli bo'lgan nafaqa ulushini boshqa fuqaroga o'tkazish, agar bu shaharga zarar yetkazsa, man etilishi haqida gapiradi. Bu taqiqlarni buzish jazo qo'llanilishiga olib keladi, "bu adolatsizlik tegishli jazoni olishi uchun belgilanishi kerak". Jazolashda uning taqiqni buzish darajasiga tengligini kuzatish kerak. "Agar adolatsizlik qilgan kishi yomonlikning teng ulushini olsa, bu adolatli, agar ko'p bo'lsa, bu shaxsan unga nisbatan adolatsizlikdir va agar kamroq bo'lsa, bu shahar aholisiga nisbatan adolatsizlikdir, lekin agar ko'p bo'lsa, unda bu shahar aholisiga nisbatan ham adolatsizlik bo'lishi mumkin".¹ Shunday qilib, jazoning tartibga soluvchi prinsipi–bu xizmatga ko'ra mukofot sifatida adolat tamoyili.

Ibn Sino jamiyat birliklarining iyerarxiyasi tamoyili haqida ham gapirgan. Uning fikricha, odamlarning ijtimoiy tengsizligi jamiyat hayotini ta'minlovchi tabiiy zaruratdir. A.V.Sagadeevning fikriga ko'ra: "Ibn Sino siyosiy qarashlari odamlarning tabiiy tengsizligi g'oyasiga asoslanadi".² Jamiyatdagi odamlarning tengsizligi adolatsizlik yoki ular o'rtasida tovarlarning teng taqsimlanmaganligini anglatadi, degan noto'g'ri tushuncha paydo bo'lishi mumkin. Ammo bu unday emas, "chunki jamiyatda har bir kishi o'z o'rnini egallashi kerak, "har kim o'z mavqeyidan mamnun bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, birining yo'qligi ikkinchisining mavjudligi bilan to'ldiriladi, shuning uchun "tarozi" muvozanat holatida bo'ladi".³

Ijtimoiy tenglashtirish faqat jamiyatning yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin, tabiiy muntazam tengsizlik esa mavjud bo'lgan hamma narsaning mavjudligini qo'llab-quvvatlaydi. Aksincha, ijtimoiy qatlamlarning bu tengsizligi adolatdir. Forobiy yozganidek, Aflotunni sharhlar ekan, tenglik degani qullar va ozod tug'ilganlar, surgunlar va solihlar bir xil huquqqa ega bo'lishlarini anglatmaydi. Tenglik ularning har biriga nozil qilingan narsa, u munosib darajadir.

Sharq peripatetizmining so'nggi yirik vakili Ibn Rushd (1126–1198) ham Ibn Sino kabi ijtimoiy tengsizlikning tabiiy muntazamligini ta'kidlagan. Ibn Rushd ijtimoiy munosabatlarning mavjudligi zaruriyatini insonning boshqa odamlar yordamida ezgulikka erishish imkoniyatini ilgari suradi.

Biroq, jamiyatning har bir bo'linmasi o'z hunarmandchiligini boshqasidan ajratilgan holda amalga oshira olmaydi. Aks holda, bu barcha fazilatlarga ega bo'lish ma'nosida ruhga nisbatan ham, barcha hunarlarga ega bo'lish ma'nosida harakatga nisbatan ham komil insonning mavjudligini bildiradi. Mukammal odamni topish qiyin. Ibn Rushdning fikricha, "komillik, asosan, birga olingan ko'p shaxslarda mavjud". Inson faqat hamkorlik jarayonida ezgulikka erisha oladi. Agar barcha fazilatlarga ega bo'lgan shaxsning mavjudligi tan olinsa, bu, albatta, bunday shaxs barcha ijtimoiy qatlamlarning qobiliyatlarini birlashtirganligini tan olishga olib keladi. Bu esa jamiyat qonuniga zid, uni butunlay inkor etib, umuman jamiyatning mavjudligini keraksiz qiladi. "Agar har bir inson bu fazilatlarning barchasiga erishish imkoniga ega bo'lganida, – deb ta'kidlaydi Ibn Rushd, – va agar har bir kishi bir vaqtning o'zida ularga ega bo'lishga majbur bo'lsa, u xizmat qiluvchi ham, xizmat qildiruvchi ham bo'lar edi. Chunki bu holda hamma odamlar xo'jayin bo'lishga moyil bo'lardi, lekin bu mumkin emas, chunki xo'jayinga itoat qiluvchi kishi bo'lishi kerak".

Shaharlar hatto hukmdor yo'qligida ham vayron bo'ladi. Qizig'i shundaki, o'rta asrlarda musulmonlar orasida bir kunlik anarxiyadan ko'ra, qirq yillik nohaq hukmdor hukmronligi ostida yashash afzal, degan fikr keng tarqalgan edi. "Falsafa" vakillari ham hukumatning jamoat tartibini saqlash zarurligiga ishonchi komil. Ammo ular uchun nafaqat hukmdorning, balki dono va adolatli hukmdorning mavjudligi muhimdir.

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Шу манба. 226-бет.

² Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). 2-ое изд. М., "Мысль", 1985, с. 116.

³ Шу манба.

Ibn Sinoning fikricha, “Hamkorlik uchun qonun va adolat kerak, qonun va adolat uchun qonun va adolatni oʻrnatuvchi shaxs kerak va bunday kishi odamlarga soʻz bilan murojaat qila olishi va qonunga riya qilishga majbur qilishi kerak, u odil inson boʻlishi kerak va u bu masalada odamlarni va ularning qarashlarini yoʻl-yoʻriqsiz tark eta olmaydi, chunki, aks holda, ular oʻrtasida ixtilof paydo boʻladi va har kim oʻzi uchun foydali boʻlgan narsani adolatli deb hisoblaydi va oʻzi uchun nohaq narsani yomon deb biladi”.

Demak, huquq va adolat jamiyati, umuman olganda, adolat, taʼbir joiz boʻlsa, har bir shaxsga nisbatan manfaat toifasi bilan oʻlchanadigan anarxiya davrida vayron boʻlishi mumkin. Anarxiyaning sababi hukmdorning lavozimidan chetlatilishi yoki uning ixtiyoriy ravishda ketishi yoki oʻlimi boʻlishi mumkin.

Birinchi renesans davridagi Arab musulmon mutafakkirlarining adolat borasidagi qarashlari natijalarini umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, mazkur fenomen ular taʼlimotida islom paradigmasi hamda Yunon falsafasi kabi gʻoyaviy ildizlarga borib taqaladi. Qolaversa adolat mazkur mutafakkirlar taʼlimotida axloqiy falsafiy diniy huquqiy hamda siyosiy maʼno kasb etadi. Shuningdek, birinchi renesans falsafiy tafakkur paradigmasida adolat ham individual ham ijtimoiy miqyosga ega boʻlgan.

**Samanova Shaxlo Boxtiyarovna (UrDPI dotsenti; shaxloboxtiyarova@gmail.com)
EKOLOGIK MUAMMOLARNING YUZAGA KELISHI VA GLOBALLASHUVI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonning tabiatga antropogen taʼsiri natijasida paydo boʻlgan ekologik muammolar, sanoatning rivojlanishi, ekologiya sohasida aholining koʻpayishi yangi muammolarning paydo boʻlishiga olib kelganligi, bu global ahamiyat kasb etib borayotganligi, shuningdek, toza suvning yetishmasligi muammosi, uni zararsizlantirish va samarali foydalanish, suv bilan bogʻliq xavf-xatarlarning oldini olish Oʻzbekiston Respublikasining ushbu muammolarni hal etishdagi tashabbusi va sayyoramiz aholisini toza suv bilan taʼminlash bugungi kunda jahon hamjamiyatining eʼtiboridagi masalalardan biriga aylanib borayotganligi kabi masalalar falsafiy, ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о том, как экологические проблемы, возникшие в результате антропогенного воздействия человека на природу, развития промышленности, увеличения населения в области экологии, привели к возникновению новых проблем, приобретающих глобальный характер, а также анализируются проблемы нехватки чистой воды, ее обезвреживания и эффективного использования, предотвращения связанных с водой рисков, инициативы Республики Узбекистан в решении этих проблем и вопросы обеспечения населения планеты чистой водой, что становится сегодня одним из главных вопросов, находящихся в центре внимания мирового сообществ и философского, научно-теоретического анализа.

Annotation. In this article, the environmental problems that have arisen as a result of the anthropogenic influence of man on nature, the development of industry, the increase in the population in the field of ecology have led to the emergence of new problems, which are gaining global importance, as well as the problem of the lack of clean water, its neutralization and efficient use, as well as the prevention of water-related risks, the initiative of the Republic of Uzbekistan in solving these problems, and the fact that providing the population of the planet with clean water is becoming one of the issues in the attention of the world community today, philosophical, scientifically and theoretically analyzed.

Kalit soʻzlar: ekologik xavf-xatar, ekologik muammolar, tabiiy resurslar, globallashuv, atrof-muhit, biosfera, atmosfera, gidrosfera, litosfera, toza ichimlik suvi.

Ключевые слова: экологический риск, экологические проблемы, природные ресурсы, глобализация, окружающая среда, биосфера, атмосфера, гидросфера, литосфера, чистая питьевая вода.

Key words: environmental risk, environmental problems, natural resources, globalization, environment, biosphere, atmosphere, hydrosphere, lithosphere, clean drinking water.

Kirish. Tabiat – bu odamlarning ijtimoiy hayotining tabiiy sharoitlari yigʻindisi boʻlib, odamlarga bevosita yoki bilvosita taʼsir qiladi va ularning iqtisodiy faoliyati u bilan bogʻliq. Inson tabiat aʼzolari sifatida “tabiat – jamiyat” murakkab tizimining bir qismidir. Tabiat hisobiga odamlar oʻzlarining koʻplab ehtiyojlarini qondiradilar. Insoniyat hayoti tabiatning, biosferaning uygʻun sharoitiga bogʻliq. Bu sharoit salbiy tomonga oʻzgartirilsa, odamning normal yashashiga putur yetkaziladi, ekologik muammolar paydo boʻladi. Ayni paytda, bunday muammolar globallashib borayotgani insoniyat uchun kata xavfdir. Globallashuv sharoitida shaxsning maʼnaviy begonalashuvi sabablarini ilmiy oʻrganish va un oldini olishga qa-

ratilgan ilmiy-falsafiy va amaliy chora-tadbirlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy-texnika yutuqlaridan noto'g'ri foydalanish – biosferaning buzilishiga olib keladi. Binobarin, tabiatni puxta bilib, undan samarali foydalanish, unga to'g'ri va oqilona munosabatda bo'lish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Garchi XXI asr texnika yutuqlari rivoji bilan insoniyat uchun munosib turmush sharoitini yaratgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, insoniyat bu asrda yolg'iz o'zi hal eta olmaydigan muammolarga duch keldi. Bunday muammo faqat bir mamlakat yoki bir millatga xos emas, balki butun sayyorani qamrab oladi. Binobarin, global xarakter kasb etgan bu kabi masalalar hamisha davlatlar hukumatlari va xalqaro tashkilotlarning alohida e'tiborida bo'lib, ularni hal etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Sanoatning rivojlanishi, ekologiya sohasida aholining ko'payishi yangi muammolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu masala yuzasidan taniqli olim Piter Farbning "Ommaviy tushunish ekologiyasi" kitobining ruscha nashri so'z boshida shunday ta'kidlanadi: "Yil sayin ekologiya-ning ahamiyati ortib bormoqda. Darhaqiqat, inson hech qanday sharoitda ekologik muammolarni hal qilishdan qaytmaydi, chunki bunday muammolarni hal qilmaslik inson hayotiga tahdid solishi mumkin. Soha olimlarining fikricha, "XXI asrda ekologiya xalqaro munosabatlar global tizimining eng yuqori ustuvor yo'nalishlaridan bo'ladi". Masalan, akademik A.Pokrovskiy qariyb yarim asr avval: "Hozirgi zamon kishisi hamma vaqt tabiatga nisbatan urush holatida bo'lib kelgan. Uning halokatli oqibatlari yildan-yilga kuchliroq sezilmoqda. Agar insonning tabiatga ekologik munosabat madaniyatini tarbiyalamasak, fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin", deb yozgan edi (5.117).

Sayyoramizni toza suv bilan ta'minlash bugungi kunda jahon hamjamiyatining e'tiborini tortgan eng muhim global muammolardan biridir. Sayyoramizning ko'plab mamlakatlari neft va gaz kabi yer osti boyliklariga ega bo'lishiga qaramay, toza ichimlik suvi yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Bundan kelib chiqadiki, suv masalasiga e'tibor kundan kun ortib bormoqda va bu muammoni hal etish mintaqaviy va xalqaro anjumanlarning asosiy mavzusiga aylangan. Bunday prognoz shuni ko'rsatadiki, suv muammosini hal qilish faqat bir mamlakat yoki mintaqaga xos emas, balki bu masala butun dunyoni tashvishga solmoqda. Ya'ni, XXI asrda suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolarning globallashuvi munosabatlarni belgilovchi vositaga aylandi, uni alohida davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, mintaqaviy va xalqaro darajalarga bo'lish mumkin. Toza suvning yetishmasligi muammosi, uni zararsizlantirish va samarali foydalanish, shuningdek, suv bilan bog'liq xavf-xatarlarning oldini olish O'zbekiston Respublikasini ushbu muammolarni hal etishda tashabbus ko'rsatishga majbur qildi. Shu boisdan ham davlatimiz siyosatida "atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish"ga alohida e'tibor qaratilgan edi (6).

Vernadskiy biosferaning inson tafakkuri va mehnati bilan qayta tiklangan bu yangi holatini noosfera deb atadi. Uning muhim xarakteristikasi – ijtimoiy-tarixiy va tabiiy qonuniyatlarning optimal uyg'unligi asosida tizimning global muvozanatini saqlashdir [1.640].

Tabiatdagi suv aylanishi Yerdagi barcha mavjudotlarning rivojlanishi uchun muhim asosdir. Turli sanoat va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini suv resurslaridan foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga, tabiatdagi suv aylanish jarayoni qisqarib, miqdor va sifat jihatidan o'zgarishlar yuz berdi. Shuning uchun ham «Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik falokatning g'oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundaki, u bir necha o'n yilliklar mobaynida ushbu muammoni inkor etish natijasidagina emas, balki mintaqada inson hayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatar ostida qolganligi natijasida kelib chiqqandir» [3.114].

Bir qator ekologik inqirozlar ma'lum: qadimgi odamlarning oziq-ovqat resurslarining qisqarishi – baliq ovlash va terimchilik, yirik sutemizuvchilarni ovlash (50–10 ming yil avval), global ifloslanish bilan bog'liq hozirgi inqiroz o'zining murakkab darajasini ko'rsatadi. «Ma'lum ma'noda, ekologik inqiroz, na faqat energoresurslar kamayibligi, atrof-muhit ifloslanishi emas, balki, eng avvalo, insonning uyg'unlik davridan boshlab ongli ravishda shakllangan (ta'kid bizniki. –O.T.), dunyoga va tabiatga munosabatlari ti-zimi inqirozidir» [4.71].

Natijalar va muhokama. Tabiiy resurslardan foydalanishning ortishiga asosiy sabab sayyoramiz aholisining ko'payishi va texnikaning jadal rivojlanishidir. Natijada tabiiy resurslarni iste'mol qilish ham ortdi, bu esa ba'zi tabiiy resurslarning kamayishiga yoki yo'q bo'lib ketishiga olib keldi. Ilmiy-texnik inqilob jamiyat taraqqiyotining eng kuchli omillaridan biridir. Hozirgi vaqtda insonning biosferaga ta'siri tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Shuning uchun Yer sayyorasi yuzasida insonning ko'p qirrali faoliyati ta'sir qilmagan biron bir nuqtani topish mumkin emas. Odamlar endi o'z faoliyatini tabiatni o'z manfaati uchun o'zgartirishga qaratmoqda. Shu tariqa, millionlab gektar taqir, lalmi va hosilsiz yerlar unumdor

dehqonchilik yerlariga aylantirilib, muhtasham bog'lar barpo etildi, og'ir bezgak kasalligining asosiy manbai bo'lgan yerlar qurib, qishloq xo'jaligi yerlariga aylantirildi. Yuzlab hayvonlar zotlari va minglab qishloq turlari odamlar tomonidan o'zgartirilib, yanada mahsuldor va kasalliklarga chidamli bo'lib, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab landshaftlar mavjud.

Hozirgi vaqtda organizmlarning yashash muhitining ekologik muammolari jamoatchilik fikridagi eng dolzarb va dolzarb masalalardan biri bo'lib, ular yadro qurolidan foydalanish xavfidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Inson o'zining kundalik faoliyati bilan shug'ullanadi, odatda, atrof-muhitga ta'sirini aniq his qilmaydi yoki ularga befarq qaramaydi. Ma'lumki, miqdoriy o'zgarishlar to'planadi va ma'lum bir vaqtda si-fat o'zgarishlariga sakrashga aylanadi, bu alohida hollarda dahshatli ofatlarga olib keladi. Komponent fa-lokatlar umumiy sayyora inqirozining alomatidir. So'nggi yillarda odamlar bu masalalarni yakunladilar va ularning munosabatlari va o'zaro ta'siri hozirgi vaziyatdan ko'ra kuchliroq bo'lmasligini ta'minlashga ha-rakat qilishlari kerak. Shu munosabat bilan, insoniyat ekologik xavf-xatarlarning oldini olish uchun birlam-chi choralarni ko'rishi zarur.

Xulosa. Inson ekologik inqirozlarda juda faol ta'sirga ega bo'lib bormoqda. O'tmish tarixida va insoniyat tarixida bir nechta ekologik inqirozlar mavjud. Yashash muhitining o'zgarishi tik yuruvchi antropoidlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Yaxshiroq va ertaroq hosil olish uchun o'simliklarni yoqish ko'rinishidagi biotexnik tadbirlarni tashkil qilmagan qadimgi odamlar tomonidan ov va terim resurslarining kamayishi. Birinchi antropogen inqiroz yirik hayvonlarning ommaviy nobud bo'lishi ("iste'molchi inqirozi") bo'lib, keyinchalik, u qishloq xo'jaligidagi ekologik inqilob bilan bog'liq bo'ldi. Tuproqning sho'rlanishining ekologik inqirozi va o'sib borayotgan aholi uchun yetarli bo'lmagan yerning normal suv ta'minotining buzilishi lalmi yerlarning o'zlashtirilishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вернадский В.И. Биосфера и ноосфера. Эксклюзив. М., АСТ, 2022, 640 с.
2. Инглхарт Р. Культура и демократия. Культура имеет значение. Каким образом ценности способствуют общественному прогрессу. М., 2002, с. 107.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таққийёт кафолатлари. Т., "Ўзбекистон", 1997, 114-бет
4. Паленко А.Н. Экологический кризис как псевдопроблема. "Вопросы философии", № 7, 2002, с. 71.
5. Покровский А. Экологические проблемы Земли. М., 1975, с. 117.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харажатлар стратегияси тўғрисида»ги фармони.

Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich (O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti) TASAVVUF TA'LIMOTINING INSONNI QADRLASH VA UNI BARKAMOLLIKKA ERISHISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada tasavvuf ta'limoti o'z vaqtida islom dinining vujudga kelishi va keng tarqalishi, mustahkamlanishi va rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'langan holda paydo bo'lganligi va uzoq evolutsiya taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi bayon qilingan. Tasavvuf islomdagi o'ziga xos diniy-falsafiy oqim bo'lib, uning ma'nosi ko'p qirraliligi tahlil etilgan.

Аннотация. В статье говорится, что учение суфизм возникло в свое время и было неразрывно связано с процессом возникновения и распространения, укрепления и развития исламской религии и прошло длительный путь эволюционного развития. Суфизм-уникальное религиозно-философское течение в исламе, анализируется его значение.

Annotation. The article states that the doctrine of Sufism appeared in its time and was inextricably linked with the process of the emergence and spread, strengthening and development of the Islamic religion and went through a long path of evolutionary development. Sufism is a unique religious-philosophical trend in Islam, and its meaning is analyzed.

Kalit so'zlar: tasavvuf, inson qadri, vatanparvarlik, halollik, fuqarolik jamiyati, o'z-o'zini anglash, ezigulik, muhabbat, do'stlik, g'urur, axloq.

Ключевые слова: суфизм, ценность человека, патриотизм, честность, гражданское общество, самосознание, добро, любовь, дружба, гордость, нравственность.

Key words: sufism, human value, patriotism, honesty, civil society, self-awareness, goodness, love, friendship, pride, morality.

Tasavvuf, sufiylik islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limotdir. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xalduinning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf"–"jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero, qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi.

Tasavvuf namoyandalari komil insonni tarbiyalash haqida. Islom madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan tasavvuf islom musulmon Sharqiy mamlakatlarida falsafa, axloq, madaniyatni targ'ib etishga, Qur'on va hadislarning mohiyatini ochib berishga, ilohiy ilmlar bilan dunyoviy ilmlarni o'zaro bog'lashga intilgan insonparvar va xalqsevar ta'limot sifatida VIII asr o'rtalaridan boshlab o'z nazariyasi va amaliyoti, ilm sifatida shakllandi va rivojlandi.

Tasavvufning tub mohiyati inson qalbi va ruhiyatini, axloqini poklash, shaxsiy hayotda halol yashash, zahiran va botinan pok bo'lish, pok qalb va ruh kuchi bilan Alloh visoliga etishga kishilarni targ'ib-tashviqot etishdan iboratdir.

Hozirgi kundagi diniy mutaassiblik siyosiy muammolarni hal etishning asosiy vositasi sifatida ishlatish va zo'ravonlik qilish, o'zining ijtimoiy va diniy qadriyatlarini boshqalardan ustun qo'yishga intilib, ular bu g'oyalari bilan terrorizm hamda diniy ekstremizmning jonlanishiga xizmat qilmoqdalar. Ularga qarshi kurashda ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy merosimizning ajralmas qismi hisoblangan, asrlar davomida hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan tasavvuf tariqatlarining xalqchil g'oyalari o'tkir ma'naviy qurol sifatida xizmat qila oladi. Tasavvuf ta'limoti o'z vaqtida islom dinining vujudga kelishi va keng tarqalishi, mustahkamlanishi va rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'langan holda paydo bo'ldi va uzoq evolusion taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Uning ilk ta'limotlari IX–X asrlarga mansub bo'lib, islom dunyosida o'sha davrdagi ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob tariqasida paydo bo'ldi. Tasavvuf islomdagi o'ziga xos diniy-falsafiy oqim bo'lib, uning ma'nosi ko'p qirralidir. Tasavvuf arapcha "ahl us-suffa" so'zidan olingan bo'lib, maschitning chodir tortilgan qismida–suffada suhbatlashib o'tirgan kishilar, ya'ni, so'fiylar demakdir, tasavvuf so'fiylik haqidagi ta'limotdir. So'fiylar, odatda, jun kiyim kiyganlar. Jun arabcha "suff" ma'nosini ham bildiradi. Tasavvuf ta'limotiga asoslangan so'fiylar hayot mashaqqatlarini yengishda barchaga namuna bo'lganlar.

Arablar Markaziy Osiyoni bosib olishi davrida uning xalqlarini og'ir ahvolga solgan edilar: "Tasavvuf falsafasi ana shu ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik kayfiyati sifatida shakllandi. Bu oqim va-killarining diniy-falsafiy qarashlarida odamlar o'rtasida tobora chuqurlashib borayotgan tengsizlik va adolatsizlikni qoralash, hammani o'zining kuchi bilan kun ko'rishga chaqirish g'oyalari ilgari surildi. Tasavvuf falsafasida ijtimoiy-gumanistik fikrlar ustunlik qilar edi". Ammo, dastlab, uning siyosiy va diniy arboblardan qabul qilinishi silliq kechmadi. Ayniqsa, mutaassib din arboblari va ulamolar tomonidan xudosisizlikda ayblangan yirik tasavvuf olimlaridan biri bo'lgan Mansur Xalloy (858–922-yillar) qatl etildi. Bu esa diniy-ma'naviy muammolarni kuch ishlatish, zo'ravonlik vositasida hal qilishning yorqin misoli edi. Ehtimol, shu voqea sabab bo'lib, tasavvuf ta'limoti diniy zo'ravonlikning oldini olish, unga ta'sir ko'rsatish uchun din manfaatlarini jamiyat, shaxs manfaatlariga hamohang qilish, uning mohiyatini insonparvarlashtirish hamda inson hayotiga uni tobora yaqinlashtirishga qaratildi. Bu esa ikkiyoqlama foydali bo'ladi: dinni inson hayotiga, ehtiyojiga yaqinlashtirdi va insonlarni dinga e'tiqodini oshirdi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida turli tariqatlar vujudga keldi, oqibatda esa ularning xalq o'rtasiga keng tarqalishiga din peshvolari monelik qila olmadilar. Chunki tasavvufning deyarli hamma oqimlarini birlashtiradigan tamoyillar, Xudo visoliga yetishish haqidagi ta'limotlardan tashqari ularning zulm va zo'ravonlikka qarshi g'oyalari, hech kimga yomonlikni ravo ko'rmaslik, o'zgalarga yordam berish, saxiy va sabr-toqatli bo'lish, halol mehnat qilish va shu yo'l bilan komil inson darajasiga erishish yo'llarini ko'rsatgan. Islomning tasavvufga munosabatini ijobiy tomonga o'zgarishiga yana bir sabab uni nafaqat istilochilik va harbiy yurishlar orqali, balki uni tasavvuf bilan xalqqa tushunarli bo'lgan ma'naviy-axloqiy vositalar yordamida yanada kengroq tarqatish imkoniyati paydo bo'lganligidadir. Zero, tasavvuf islomni inson kamolotiga olib boruvchi yo'l va vositalar bilan boyitdi, diniy g'oyalarni ortiqcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy tadbirlarsiz tarqatish imkoniyatini tug'dirdi. Oqibatda tasavvuf islom ma'naviyatining, qolaversa, jahon tafakkur olamining mukammal ta'limoti darajasiga yetdi. Tasavvuf maqomlari insonni donolikka, donishmandlikka chorlaydi. Insoniyat tajribasi ko'rsatadiki, donolik mujassam bo'lgandagina ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin: "Tasavvuf ilmi insoniyatni idroki, donishmandlik maqomi orqali yuksaklikka intiltiradi. Barcha ishlarda ilmiylik kashf ettiradi. Aql-idrok orqali kishilik huquqiga ergashish, o'z-o'zini erkin boshqarishga yo'llaydi". Tasavvuf yaxlit diniy, axloqiy, falsafiy ilmiy

ta'limot hisoblanadi: "Tasavvuf ta'limotida dastlab quyidagi qoidalarga amal qilinadi: "ilmul yaqin", ya'ni, mohiyatni ilm bilan bilish, "aynul yaqin", ya'ni mohiyatni aniqlash va "haqqul yaqin", ya'ni Allohni bilish va uning qudratini tan olish. Bu qoidalar tasavvuf ilmiga kirishning dastlabki qadamlaridir". Sharqning buyuk tasavvufiy mutafakkirlari Junayd Bog'dodiy, Mansur Xalloy, Muhammad G'azzoliy, Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband o'zgacha yo'l tutib, tasavvufni shaklan rang-barang bo'lishiga xizmat qilib, uni boyitganlar. "Tariqat" so'zining ma'nosi yo'l demakdir, ya'ni ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lovchi kishining ruhiy-axloqiy kamolot yo'lidir Tariqatni tasavvufning amaliy qismi, deb ham ta'riflaydilar. Tasavvuf ta'limotining rivojlanishida Marka-ziy Osiyo alohida o'rin egallaydi. Mazkur mintaqada shakllangan tasavvufiy ta'limotlar o'zining ko'p qirraliligi, mazmuni va ijtimoiy ahamiyati jihatidan qo'shni Eron, Arabiston, Turkiya va boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lgan diniy, falsafiy ta'limotlardan ustun turadi. Naqshbandiya tariqati esa mazkur tariqatlar silsilasida 16-tariqat bo'lib, unda inson tashqi ko'rinish bilan shug'ullanganlar. Bunda ular o'zlarining taqvorliklarini ham tilda, ham tashqi qiyofalarida namoyon qilganlar. Naqshbandiya tariqati esa mazkur tariqatlar silsilasida 16-tariqat bo'lib, unda inson tashqi ko'rinishi bilan ham boshqalardan farq qilmagan holda, Ollohni qalbdadilla saqlashi: "Dil ba yor-u dast ba kor" asosida hayot kechirishi targ'ib qilingan. Bahouddin Naqshband "Zikri xufiya" ta'limotini ilgari surgan, bunga ko'ra taqvor o'z hayot tashvishlarini, oilasi ehtiyojlarini qondirishni, ular oldidagi o'z burchini ado eta turib, Allohni ham yuragida zikr qila olgan, inson Tangri oldidagi farzlarini, islom dini 5 ruknini va Muhammad s.a.v. payg'ambar sunnatlarini ham to'la eta olgan.

Shunday qilib, tasavvuf ta'limoti axloqiy poklik, yuksak insoniy fazilatlarni targ'ib qilib, unga ko'ra solik halol mehnat qilib, halol rizq topib, o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z yashash tarzi bilan atrofidagi kishilarga saxovat, izzat-hurmatda bo'lishi, yashash joyini go'zal maskanga aylantirishi, ayni paytda dilida Ollohni zikr qilishi lozim. Bu ta'limot ko'rsatishicha, yosh avlod ta'lim-tarbiyasini amalga oshiruvchi o'qituvchi-murabbiy, eng avvalo, iymon-e'tiqodli bo'lishi zarur, bu tariqatning butun mazmun-mohiyati insonga ijobiy ta'sir qilishi, bunda o'qituvchi o'z pok axloqi bilan o'quvchiga ibrat-namuna bo'lishi, halol yashashi, mehnat qilib umr kechirishi, o'z o'quvchisi bilan zohiriy va botiniy munosabatda bo'lib, uni komil inson darajasida tarbiyalab yetkazishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orif Usmon. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida. T., "Universitet", 1993, 4 – 5-betlar.
2. Hamidjon Islomiy. Ipor hid ila tug'ilgan Orif (Xoja Bahouddin Naqshband). T., "Fan", 2005, 41-bet.
3. N.Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T., "Yozuvchi", 1996, 21-bet.
4. Jurakulovich S.J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), p. 1160 – 1164.
5. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. "Ilm sarchashmalari", Urganch, 3-son, 2023, 19 – 21-betlar.
6. Shodiyev J.J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), p. 616 – 625.
7. Jurakulovich S.J. (2023). Philosophical views of sages on human values and glorifying him. Theory and analytical aspects of recent research, 2(16), p. 229 – 238.

G'afurov Doniyor Oripovich (BMTI dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD))

MAXDUMI A'ZAMNING "ASROR UN-NIKOH" RISOLASIDA OILA MASALASINING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xojagiy Ahmad Kosoniy har bir jamiyatning kelajagini uning qo'yida o'sib, ulg'ayayotgan yoshlarning yetarli va to'liq parvarish olishga bog'liq, degan g'oyani ilgari surgan. Bu masalada loqaydlik qilish yoki e'tiborsiz bo'lishning oqibati halokat ekanligidan ogoh etganlari bayon etilgan.

Аннотация. В статье речь идёт об идеях Ходжаги Ахмеда Косани о том, что будущее каждого общества зависит от молодых людей, растущих в его лоне и получающих адекватную и полную заботу. Утверждается, что результатом равнодушия или пренебрежения в этом вопросе является разрушение общества.

Annotation. In this article, Khojagi Ahmed Kosani put forward the idea that the future of every society depends on the young people growing up in its bosom and receiving adequate and complete care. It is stated that they were warned that the result of indifference or neglect in this matter is destruction.

Kalit soʻzlar: *Xojagiy Ahmad Kosoniy, oila, nikoh, odob, axloq, tarbiya, maʼnaviy yetuklik, inson kamoloti.*

Ключевые слова: *Ходжаги Ахмед Косани, семья, брак, нравы, нравственность, воспитание, образование, духовная зрелость, совершенство человека.*

Key words: *Khojagi Ahmed Kosani, family, marriage, manners, morals, education, spiritual maturity, human perfection.*

Tarixiy manbalar koʻrsatadiki, million yillar davomida erkak ovchilik, ayol oʻchoqni asrash bilan shugʻullanib kelgan. Bu turni asrab qolish imkoni edi, ayol va erkak ushbu zaruriyatni instinktiv sezgan. Natijada erkak faoliyati va hayotini, oilasini zarur neʼmatlar, oziq-ovqatlar bilan taʼminlashga, ayol esa oilasini boqish, oʻchoqni asrashga ixtisoslashgan. Ushbu differentsiatsiya erkakni koʻcha, dala, qirda kezib ovchilik qilishga, ayolni oilasini toʻydirish, farzandlarining sogʻ-salomat oʻsishini taʼminlashga oʻrgatgan. Shuning uchun ham tashqi muhitni kuch bilan oʻziga itoat ettirish yoki oʻzgartirish tashabbuskorlari erkaklar, oilani qoʻriqlaydigan, farzandlarining qorni toʻq, usti-boshi but yashashi haqida qaygʻuradigan ayollardir.

Darhaqiqat, globallashuv davrida eng katta muammoga aylanib borayotgan oila munosabatlari na faqat Gʻarb davlatlarini, balki oʻz milliy anʼana va qadriyatlariga ega Sharq davlatlarini ham qiynab kelayotgan dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Jamiyatimiz va davlatimizni shu muammolar taʼsiridan saqlashning eng toʻgʻri yoʻli bu oila farovonligini taʼminlash hamda farzandlarimizni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Bu masalaga oid maʼnaviy merosimizdagi qimmatli fikrlarni oʻrganib, jamoatchilikka yetkazish olimlarning burchidir. Oʻtgan asrning 60-yillarida Gʻarb mamlakatlarida sodir boʻlgan “madaniy inqilob” er, xotin va bolalarni oilaviy vazifalar, burch va masʼuliyatdan ozod etib, oilaga boʻlgan ijtimoiy ehtiyojni yoʻqqa chiqardi. Bu hol oilaning yemirilishiga sabab boʻldi. Hukmronlikni qoʻlga olgan “ommaviy madaniyat” kecha-yu kunduz azaliy qadriyatlarni kamsitib, hatto ayolning eri va bolalari boʻlishi tabiiy, hayotiy ehtiyoj ekani haqidagi tasavvurlar ustidan ham kulib keldi.

Ularning fikricha, “Nikoh – bu qullikning bir shakli. Shunday ekan, ayollar harakati ana shu institutga qarshi yoʻnaltirilishi zarur. Negaki, nikoh barham topmagan jamiyatda ayollarning ozod etilishiga umid qilish xom xayoldir”. Afsus, bu gʻoyalar taʼsirida million-million gʻarbluk ayollar oila qurish va bola tugʻishdan voz kechmoqda, oilaning barcha dinlarda qoralangan noanʼanaviy shakllari paydo boʻlmoqda. Tadqiqotlarga koʻra, 1970-yildan hozirgi vaqtgacha nikohsiz yashayotganlar soni 523 mingdan 6,5 milliongacha, yaʼni, 1000 foizga oshgani, faqat toʻrt xonadondan bittasida toʻliq oila istiqomat qilayotgani, bir jinslilar “nikohi” koʻpayib borayotgani, yakka oʻzi yashayotgan amerikaliklar mamlakat aholisining 26 foizini tashkil etayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. Gʻarb mamlakatlarida “erkinlik” martabasining berilishi jamiyatni ham bora-bora izdan chiqardi, yaʼni, oila-nikoh munosabatlarining inqirozi gʻarbona turmush tarzining eski qadriyatlari sanalgan fidoyilik, mehribonlik, sadoqat, imon-eʼtiqod kabi fazilatlarining shaxsiy manfaatlar qondirilishini yoqlovchi qarashlar quyidagicha koʻrinish oladi:

◆ Bir jinslilarning nikohlanishiga qonun doirasida yoʻl ochib qoʻyilgani.

◆ Oila qurmay, yolgʻiz yashashga intilish kuchliligi.

◆ Xotin erni yoqtirmay qolgani uchun uni tashlab ketishi.

Barchamiz bilamizki, Sharq madaniyatida oila muqaddasligi qadim-qadimdan alohida eʼtiborga olingan mezon hisoblangan. Dunyodagi tendensiyalarning rivojlanishi natijasida oila munosabatlarining baʼzi bir tamoyillariga jiddiy zarar yetmoqda. Xususan, globallashuv va manfaatlar toʻqnashuvi asrida yashar ekanmiz, davlat, qolaversa, millat ertasi, uning kelajagi uchun kurashmogʻimiz darkor. Zero, darhaqiqat, oilada boshlangan oddiy kelishmovchiliklar, vaqt oʻtishi bilan katta bir muammoga aylanishi va oilalarning buzilishiga sabab boʻlishi mumkin.

Xojagiy Ahmad Kosoniy ayni vaqtda muridlarni kuz shabadasi singari daraxtlarning yaprogʻini xazon qilib, ularni gʻaflat tomon yetaklovchi noqobil “pirlar”ning bexosiyat nafaslaridan ogoh boʻlish lozimligini uqdiradi. Xojagiy Ahmad Kosoniy har bir jamiyatning kelajagini uning qoʻynida oʻsib, ulgʻayayotgan yoshlarning yetarli va toʻliq parvarish olishga bogʻliq, degan gʻoyani ilgari surgan. Bu masalada loqaydlik qilish yoki eʼtiborsiz boʻlishning oqibati halokat ekanligidan ogoh etganlar.

Mutasavvif er va xotin oʻrtasidagi munosabatlarni quyidagicha tahlil etgan: “Ey tolibi sodiq, bilgikim, ul oʻzini xotining qoʻlidan oʻynash uchun tutgan insonning sir-u hikmati unga nihoyasiz savob yoziladi. Zeroki, oʻynashdan maqsad u shaxsning diliga zavq-u shavq-u surguga kirgizishdir, nafsoniy laz-zat emas”. Ushbu hadisga koʻra: Idxol-u us-surur-u fi qalb ul-moʻmin xayr min ibodat al-saqalayn savobga loyiqlar tuganmas boʻladi, shu jihatdan ekanim, hech kim oʻz oilasi bilan bunaqa toza boʻlmadi, chunki Hazrat Rasul salallohu alayhi vassallam bir kuni shu darajada Oysha raziollah anho bihum bilan

yugurdilar, toki u oldinga o'tmaguncha. Hazrat Rasul salollohu alayhi vassallam oldinda bo'ldi, qaytadan yana yugurdilar Oisha raziolloh anho oldinga o'tdi. Hazrat Rasul salallohu alayhi vassallam dedi: "Birga-bir, ya'ni barobar bo'ldik".

Ijtimoiy-siyosiy shiorlar ta'sirida ayol bilan erkak teng huquqli, ular mehnat turini tanlash, fikrlash va oila qurishda erkindirlar, degan qarashlar shakllangan. Xojagiy Ahmad Kosoniy fikricha, "Erkak o'zining xotini bilan xuddi go'dakdek bo'lishi lozim va agar (xotini) xo'jayinlikni istasa, o'sha payt erkaklardek bo'lmog'i kerak". Aslida, ushbu qarashlar negizida ayolni ijtimoiy hayotning subyektiga aylantirishdek ezgu niyat yotadi. Biroq inson million yillar davom etgan tarixiy-madaniy va bioantropologik taraqqiyot mahsuli, aynan ushbu omillar ayol va erkakda o'ziga xosliklarni, ular o'rtasida farqlarni keltirib chiqarganini unutib bo'lmaydi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: "Ayolni to'rt narsa – mol-mulki, nasl-nasabi, go'zalligi, din-diyonati uchun nikohlab oladilar. Sen diyonatlisini tanla, baraka topkur!" deganlar. Xojagi Ahmad Kosoniy fikricha, agar adolat o'rnatish qo'lidan kelmasa va boshqasini tanlasa, qarshi amal qilgan bo'ladi va o'zini o'z qo'li bilan ulkan halokat girdobiga solgan bo'ladi.

Mazkur sifatlar erkaklarga ham xos. Zero, qiz ham yigitning kelishganligi, boyligi, obro'si, nasabiga aldanib qolmay, diyonatli yigitni tanlashi kerak. Diyonatli, solih yigit juft bo'lish uchun eng muhim sifatlariga ega sanaladi. Diyonatli yigit xotinini har tomonlama himoya qiladi, u bilan totuv yashaydi, uncha-muncha injiqliklarini ko'taradi. Eng muhimi, uni yaxshi ko'rsa, e'zozlaydi. Bordi-yu yomon ko'rsa, zulm qilmaydi. Agar ayol birga yashashni istamasa, uni qiynab, ushlab turmaydi, yo'lini ochib qo'yadi. Imom G'azzoliy "Nikoh odobi"da juft tanlashda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish lozimligini ta'kidlagan: Bo'lg'usi kelinning din-diyonatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois bo'lajak kuyovlarga minnatni xush ko'radigan, shahvatparast, molparast, besabr, ko'cha uchungina bezanadigan xulqi yomon qizlar bilan oila qurmaslik tavsiya etiladi.

Kelinning go'zal, xushro'y bo'lishi ham zaruriy shartlardan sanaladi. Chunki muhabbatni alangaltuvchi omillardan biri chehra go'zalligidir. Ko'rimsiz ayol chehrasi ko'ngilni tezda zada qilishi mumkin. Shu bilan birga, go'zallik diyonat, xushxulqlikdan ayro bo'lmasligi lozim. Diyonatsiz, badxulq ayolning chehra go'zalligi buzulikka yetaklashi xavfi bor.

Ayolning nasl-nasabli bo'lishi ham muhim o'rin tutadi. O'zbekchilikda yetti ajdod surishtirilishi bejiz emas. Zotan, tag-tugli, zoti asl, diyonatli qizlargina kelajakda iffatli, hayoli musulima ayol bo'lib, solih, sog'lom farzandlarni tarbiyalashga qodir bo'ladi. Bu o'rinda nasliy kasalliklarni surishtirish ham zarur. Juftlikka tanlangan ayol yaqin qarindosh bo'lmagani ma'qul. Chunki shahvat quvvati ham ehtirosli nazar, erkalashga uzviy bog'liq. Zamonaviy tibbiyot ilmi ehtiroslar jo'shqinligi ayolning notanishligiga bog'liq ekanini e'tirof etmoqda. Aniqlanishicha, yaqin qarindoshlardan qurilgan oilalardagi erkaklarda "ruhiy mijoz sustligi" dardi ancha ko'p uchrar ekan.

Hozirda ko'p odamlar kuyov va qiz tanlashda oxiratni o'ylamay ish qilishmoqda. Ular imon-e'tiqodi, odob-axloqidan ko'ra otasining mansabiga, boyligiga uchib farzandlari baxtiga zomin bo'lishmoqda.

Xojagiy Ahmad Kosoniy oilada erkakning huquqi haqida alohida to'xtalib o'tadi. "Va yoxud ko'p ibodat qilishning asosi bo'la oladi, zero, jamiyat ibodatxonasi ogohlik siri va shariat taqozosida bo'lsa, er deyishgan. Ya'ni, er o'z xotiniga har qanday harakat qilsa, buning hammasi ibodatdir. Masalan, biror kishi o'ynash uchun o'z xotining qo'lini ushlaydi, qanchalar savob deyishgan va yo unga qarasa, xuddi shunday va savob yuzasidan u Ka'ba uyining ustunini o'pgan hisoblanadi, agar quchoqlasa, Ka'ba uyini quchoqlagandek bo'ladi, chunki so'zlari bir-biri bilan kelishadi, ikkalalari ham kechiriladilar. Agar birga cho'milishsa, har bir qatra suv miqdorida ularning qilgan ishlari daftariga savob yoziladi. Ko'p vaqt shunday bo'lsa, ularning bu ishdan maqsadi ibodatning ko'pligi bo'ladi, chunki ularning hamma ibodatda katta g'amxo'rliklari bor, xalqning qarashlari nuqsonlidir, shu jihatdan bu oliy toifani ta'na qiladilar va o'zlariga qiyoslaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qa'tiy artib intizom har bir rahbar xodimning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., 2016.
2. Ahmad Xojagiy Kosoniy. Asror un-nikoh. Qo'lyozma, O'zR FASHI, № 501/I, 12-bet.
3. Тримингем Д.С. Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ. А.А.Ставиской. М., "Наука", 1989, с. 17.
4. Baxtli hayot sari. T., 2017.
5. Kosoniy Ahmad Xojagiy. Asror un-nikoh. Qo'lyozma, O'zR FASHI, № 501/I., 12-bet.

**Otaqulov Nodirjon Baxromaliyevich (O'zMU)
SUBKOLLOKVIAL FRAZEOLOGIZMLARDA VARIANTLILIK**

Annotatsiya. Maqolada frazeologik birliklarning variantlarda o'zgarishlari haqida tilshunoslar tomonidan berilgan ta'riflar asosida fransuz, o'zbek va rus tillaridagi subkollokvial frazeologizmlarning variantlari o'rganilgan. Frazeologizmlarning muayyan qismlari o'zgaruvchanligi shu komponentlarning morfologik qurilishi yoki boshqa leksik komponentlar bilan almashtirilishi tushuniladigan variativlikni hosil qiladi.

Аннотация. В статье изучены варианты субколлоквиальных фразеологизмов французского, узбекского и русского языков на основе приведенных лингвистами определений вариативности фразеологических единиц. Под вариативностью понимается изменчивость конкретных частей некоторых фразеологизмов, морфологическое строение этих компонентов или их замена другими лексическими компонентами.

Annotation. In the article, the variants of subcolloquial phraseologisms in French, Uzbek and Russian were studied on the basis of the definitions given by linguists about the variations of phraseological units in variants. The variability of certain parts of some phraseologisms creates an understandable variability in the morphological construction of these components or their replacement with other lexical components.

Kalit so'zlar: subkollokvial frazeologizm, variantlilik, leksik, grammatik, leksik-grammatik, elliptik.

Ключевые слова: субколлоквиальные фразеологизмы, вариативность, лексический, грамматический, лексико-грамматический, эллиптический.

Key words: subcolloquial phraseologism, variability, lexical, grammatic, lexical-grammatic, elliptical.

Frazeologik birliklar konvergentsiyasi jarayonida transformatsiyaning bir necha ko'rinishlari jamlanib, matnda ular ekspressivlik va uslubiy mahsuldorlikni ta'minlaydi. Ayrim frazeologizmlarning muayyan qismlari o'zgaruvchanligi shu komponentlarning morfologik qurilishi yoki boshqa leksik komponentlar bilan almashtirilishi tushuniladigan variativlikni hosil qiladi. Zero, frazeologik birliklar tarkibiy qismlaridagi o'zgarish ushbu so'z birikmasining mazmuniy o'xshashligiga olib kelmasligi kerak. Frazeologik birlikning varianti boshlang'ich frazeologik birlikning fonetik, leksik, grammatik, leksik-grammatik, el-liptik ko'rinishi, unga ma'nosi va mazmunlarining soni jihatidan, iloji bo'lsa, nutq uslublariga tegishli farqlar bilan belgilanadi. Variant til birliklari bo'lgan fonema, morfema kabilarga xos bo'lib, u asliyatning boshqa o'zgarigan shakli yoki bir turi sifatida tasavvur qilinadi.

V.M.Mokiyenko¹ frazeologik birlikning asosiy belgilariga ichki asoslarni, frazeologik oborotning o'zgarishini va sintaktik konstruksiyaning nisbiy o'xshashligini va leksik o'zgarishlarni kiritadi. Frazeologik birliklarning variantlaridagi leksik o'zgartirishlar jiddiy qonuniy, tizimli xarakterga ega bo'ladi.

Frazeologik variantni aniqlash imkonini beruvchi asosiy mezonlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- 1) to'liq mos keluvchi mazmun va semantik umumiylikning bir xil darajasi mavjudligi;
- 2) bir xil grammatik strukturaning mavjudligi;
- 3) o'zgaruvchi frazeologik birliklarning stilistik neytralligi;
- 4) ko'pchilik variantlar uchun yagona obrazning mavjudligi;
- 5) komponentlarni almashtirishda umumiy leksik konstantaning mavjudligi.

Subkollokvial frazeologik birliklar denotativ doimiy komponentlardan tashkil topgan bo'lib, faqat vaqt o'tishi bilan doimiy komponentlarning ma'no uslubiy bo'yoqdorligining ortishi tufayli subkollokvial komponentli frazeologizmlar sinonimik qatorga ega bo'ladi.

Frazeologik birlikda variantlilik masalasi turg'un birliklarning aynan bir xilligi haqidagi masala bilan bog'liq. Frazeologizm variantlari sinonimik so'z birikmalaridan farqli ravishda, har doim, har qanday kontekstda ularning bir xilliklari sababli o'zaro almashinadilar. Ular, asosan, yagona manbadan, bitta frazeologik birlikning bo'linishidan kelib chiqadiki, yaqin leksik tarkibga egalikning sababi ham shular bilan

¹Мокиенко В.М. Противоречия фразеологии и ее динамика. Автореф. дисс... докт.филол.наук, Л., "Просвещение", 1976, 79 с.

bog'lanadi. Sinonimik frazeologizmlardan farqli ravishda, nafaqat bitta, balki yaqin tushunchalarga ham mos kelishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchan frazeologik birliklar, albatta, bitta tushunchaga mos kelishlari, asosan, yaqin grammatik strukturaga ega bo'lishlari kerak. Vaholanki, frazeologik birliklarning variativligi semantik hodisadir. Agar bitta komponentni ikkinchisi bilan almashtirishda ichki shakl o'zgarsa, bunday hollarda frazeologik sinonimlar paydo bo'ladi, agar komponentlarni almashtirish obrazli tasavvurning o'zgarishiga olib kelsa, bunday hollarda frazeologizmning variativligi mavjud. Variativ frazeologizmlar o'rtasida stilistik farqlar bo'lishi mumkinligi haqidagi masala tilshunos olimlar o'rtasidagi munozarali masalalardan biridir. Ularning bir guruhi, bitta so'zning struktur variantlari, nafaqat so'zlar, balki bitta so'zning ayrim variantlari ham stilistik farq qilishi mumkin, deb hisoblaydi. Biz frazeologik birliklarda komponentlar konnotativ farqlarga ega emaslar, ular semantik bir-biriga bog'langan almashtirish natijasida paydo bo'lgan, degan fikrni ma'qullaymiz.

Taniqli tilshunos olim V.N.Teliya variantlarning ancha batafsil tahlilini beradi: "Idiomalarning variantlari idiomalarning shunday usul (planlarning bittasidagi yoki ikkovi birgalikdagi), ular ifodalana-yotgan (tushuncha hajmi)ning referent munosabatini va uning leksik-grammatik xususiyatlarini, signifikativ ma'no (tushunchaning mazmuni) ko'rinishi o'zgarishi mumkin bo'lganda, o'zgartirmaydilar, biroq birlikning tizimli ma'nosini, uning sinonimik va predmetli tematik, munosabatlarda, jumla hosil qilish munosabatlarida, antonimik qarama-qarshi qo'yishda boshqa birliklar bilan o'zaro bog'liqligini buzmay-digan ko'rinishi hisoblanadi".¹

A.S.Shakirovning² qayd qilishicha, frazeologik o'zgarish jarayoni xilma-xil frazeologik birliklarni bir tekisda qamrab olmaydi, ularning ayrimlari o'z komponent strukturasi bilan sezilarli transformatsiyasiga yo'l qo'ymaydi, boshqalari frazeologik birlik tarkibidagi sonlarni o'zaro almashtirishga moyilligini ochiqdan ochiq namoyon qiladi.

Tilshunoslikda variantlar bo'yicha xilma-xil tasniflar mavjud. Asosan, olimlar bu borada leksik, grammatik va stilistik variantlarni ajratib ko'rsatadilar. Ba'zi olimlarning ishlarida ushbu tasnif ancha keng ifodalangan, masalan, yuqorida sanab o'tilgan variantlardan tashqari orfografik, paradigmatik, struktur, kombinatsiyalangan, morfologik, semantik, dialektik, diaxronik va so'z tartibi variantlari ham ajratib ko'rsatiladi.

Frazeologizmlar variantlarining mukammal tasnifi A.V.Kunin tomonidan taklif qilingan. U quyidagi variantlarni ajratib ko'rsatadi:³

1) leksik: a) atributiv-otli; b) predlogli-otli otlashgan; d) predlogli-otli ravishli; e) fe'lli; f) adyektivli;

2) grammatik: a) morfologik; b) sintaktik; d) morfologik-sintaktik;

3) pozitsion;

4) kvantitativ: a) elementlari qisqartirilgan variantlar; b) elementlar qo'shilgan variantlar;

5) aralash;

6) punktuatsion.

A.G.Nazaryanning ta'kidicha, frazeologik birlik variantliligining eng muhim mezon sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:⁴

1) semantik o'xshashlik (predmet bilan uning tushunchasi o'rtasida bir xillik);

2) sintaktik va ekspressiv-stilistik funksiyalarning bir xilligi;

3) leksik invariantlikning mavjudligi komponent tarkibining qisman turlichaligida ko'rinadi;

4) obrazning umumiyliigi.

Frazeologik birlikning variantlilikka munosabati ularning ma'nolari aynan bir xilligiga, strukturasi va turlichaligiga va assotsiatsiyalar yagonaligiga tayanadi. Assotsiatsiyaning yagonaligini frazeologik

¹ Юсупова Р.С. Вариантность устойчивых фраз неродственных языков (на материале немецкого, уйгурского и русского языков). Мир языка. Материалы второй международной научно-теоретической конференции, посвященной 80-летию профессора М.М.Копыленко. Алматы, КазГУМОиМЯ, 2001, 13 с.

² Шакиров А.С. Семантические особенности имен числительных, входящих в состав нумеративных фразеологизмов разносистемных языков. Фраzeология в аспектах стилистики и словаря. Сб. научных трудов. Самарканд, 1992, 115 с.

³ Кунин А.В. Фраzeология современного английского языка. М., "Высшая школа", 1972, 65 с.

⁴ Назарян А.Г. Фраzeология современного французского языка. М., "Высшая школа", 1987, 90 – 92 с.

birlikning obrazli variantliliği asosida yoritish o‘rinli. Bu factor frazeologik birlik variantlilik komponentining sifat hamda midor jihatidan chegarasini aniq hamda qat‘iy belgilab beradi.

Sh.Rahmatullayevning fikricha, har qanday frazeologizm frazeologik birliklarning o‘zaro variant bo‘lishi uchun quyidagi mezonlar mavjud bo‘lishi kerak: 1) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatik o‘zgartirishlar tufayli biri ikkinchisidan o‘zib chiqqan bo‘lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim; 2) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi zarur; 3) variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma‘noni anglatishi kerak; 4) o‘zaro o‘zib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent bo‘lishi shart.¹

Haqiqatan ham, variantlashish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, ma‘no birligi saqlanadi. Ko‘rib chiqilayotgan tillarning subkollokvial frazeologik birliklarida aniqlangan va o‘rganilgan variantlar quyidagilar sanaladi: leksik, grammatik va leksik-grammatik hamda fonetik. Leksik variantlar – bu xilmaxil leksik tarkibli variantlar bo‘lib, ular frazeologik birlikning mazmuniga qandaydir ma‘noviy o‘ttenkalar olib kirmaydi.

O‘zgaruvchan komponentlar ma‘nosining o‘zaro bog‘liqligiga qarab leksik variantlarda o‘zgarishning uch turini qayd qilish mumkin: a) sinonimlik munosabati asosida so‘zlarning o‘zgarishi; b) bitta predmetli-tematik guruh ichida o‘zgarish; d) til aloqalarining tizimliliği nuqtayi nazaridan, ularning ekvivalentligini tushuntirish mumkin bo‘lmagan so‘zlarning o‘zgarishi.

Fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi subkollokvial frazeologik birliklarning leksik variantlari birinchi ko‘rinishida bir-biriga bog‘liq o‘zgaruvchan komponentlar sinonimlar yoki ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlar hisoblanadi:

fr: *deux avis valent mieux qu'un (seul)*² – bir kalladan ikki kalla afzal;

o‘zb: *eshagini sug‘ormoq (itini sug‘ormoq)* – bekorchilik bilan shug‘ullanmoq; *eshagidan to‘qimi (to‘shovi) qimmat; burnini (tumshug‘ini) suqmoq (tiqmoq); ishi yo‘q eshak (it) sug‘oripti;*

rus: *гроша медного (ломаного) не стоит*³ – bir tiyinga arzimaydi, uch pulga (sariq chaqaga) qimmat; bir pulga (bir paqirga) ham arzimaydi; *одним (едином) махом* – darhol, tez(da), darrov, bir onda, bir harakatda, bir hamla qilib, juda tez; *одним (едином) духом* – darhol, tez(da), darrov, bir onda, bir ko‘tarishda; juda tez, bir lahzada.

Leksik o‘zaro almashtirishlarning ikkinchi ko‘rinishi bitta predmetli-tematik guruh ichida so‘zlarning o‘zgarishi, ya‘ni, so‘zning rod yoki assotsiativ belgilar bo‘yicha bitta semantik doira sifatidagi bir-birini almashtirishi hisoblanadi. Leksik variantlarning shunday ko‘rinishli variantlariga o‘zaro bir-birini almashtiradigan leksemalarga misol sifatida quyidagilar xizmat qilishlari mumkin:

Masalan: fr: *cinquième roue à un carrosse*⁴ (yoki *de, d'un, du carrosse) de la charrette* – aravaning beshinchi g‘ildiragi; keraksiz, ortiqcha odam;

o‘zb: *jin urdi (jin tegdi)* – dard, illatga chalindi, *dimog‘iga qurt tushdi (dimog‘idan eshak qurti yo‘g‘iladi)* – o‘ta darajada kekkaygan, kibr-havoli bo‘lmoq; *to‘rt (yetti) muchasi sog‘ bo‘lmoq* – jismonan sog‘lom odam haqida; *bir (ikki) oyog‘i bilan go‘r ustida osilib turmoq; bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda bo‘lmoq* – o‘limi yaqin inson haqida; *dengizdan (daryodan) bir tomchi* – juhuddan jizza;

rus: *в двух (трех, нескольких) шагах от кого, от чего* – butunlay yaqin, uzoq emas; *за сем верст* *кисел* *хлебать* *(есть)* – ayron ichgani *To‘yteraga bormoq; ahmoqqa Quva bir tosh* (arzimagan yoki keraksiz ish (narsa) uchun juda uzoqqa bormoq).

O‘rganilayotgan tillarning yuqorida keltirilgan o‘zgaruvchan subkollokvial frazeologik birliklaridan ko‘rinadiki, sinonim so‘zlar va bitta predmetli-tematik guruh so‘zlari orasidagi leksik almashtirishlar o‘zgarayotgan so‘zlarning asosiy ma‘nosi bilan, o‘zgarayotgan komponentlardan bittasining asosiy ma‘nosi bilan va ikkinchisining yasama ma‘nosi o‘rtasida sodir bo‘lishi mumkin. Fransuz va rus tillarida sinonimik munosabatlardagi so‘zlarning o‘zgarishiga moyillik kuzatiladi. Shuningdek, o‘zbek tilida ham o‘zgarish bitta predmetli-tematik guruh doirasida yuz beradi – bu inson, uning shaxsiy fazilatlarini, sog‘li-gidir.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Т., “Фан”, 1966, 145-бет.

² Гак В.Г. Французко-русский фразеологический словарь. М., гос. изд., 1963, 79 с.

³ Молотков А.И. Фразеологический словарь русского языка. М., “Русский язык”, 1978, 121 с.

⁴ Dictionnaire Flammarion de la langue française. P., “Flammarion”, 1999, 178 p.

O'zgaruvchan frazeologik birliklarning uchinchi ko'rinishidagi bir-birini o'zaro almashtiruvchi komponentlari xilma-xil tushunchalarni ifoda etadilar, ya'ni, faqat frazeologik bog'langan ma'nolardagi-na bir-birini almashtirishlari mumkin bo'lgan so'zlardir; ular kontekstual sinonimlar hisoblanadilar, masalan: fr: *les trois (les deux) personnes divines* – uchlik, uchovlon, uch do'st, uch bilog'on; *la semaine des quatre (des trois) jeudis* – qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi yerga tekkanda; o'zb: *itdek (bo'ridek) och bo'lmoq; to'rt (yetti) muchasi sog' bo'lmoq* – jismonan sog'lom odam haqida; to'rt odamga (kishiga) bir choynak choy qo'ymoq – mehmonlarga shunchaki dasturxon yozmoq; rus: *раз – другой (два) и обчелся* – juda ham oz miqdor, juda oz, barmoq bilan sanarli (*ни единой*) *кровиночки нет у кого* – yuzida qon qolmagan, rangida bir tomchi qoni yo'q (qolmayapti); *кончат (одним) разом что* – nimanidar keskin, tez uzmoq, to'xtatmoq; *ставит на одну доску; ставит в один (ряд) кого с кем* – o'xshash deb hisob-lab, bir-biriga tenglashtirmoq.

Ta'kidlash joizki, subkollokvial frazeologik birliklarning bitta variativ uyasida nafaqat bitta leksik almashtirishning turi bila n variantlari, balki ikkita, hatto uchta leksik almashtirishlar ko'rinishlari ham bo'lishi mumkin.

Masalan, fr: *n'avoir pas le sou, être sans argent, être sans un sou vaillant, n'avoir ni sou ni maille* – bir pul, bir tiyin, bir sariq chaqa ham yo'q, variativ uyasida birinchi va ikkinchi variantlarda leksik almashtirish sodir bo'ladi, uchinchi, to'rtinchi variantlarda esa leksik almashtirish ma'nosi uzoq bo'lgan so'zlar orasida yuz beradi. O'zbek tilining subkollokvial frazeologik birliklarida variantlarning eng ko'p soni ikkita so'zdan iborat bo'ladi, shu bilan birga, bu ikkita so'z ham sinonimik bo'lishi mumkin:

| | | | | |
|-----|--------|-----------|----------|---|
| bir | vaqtda | (zamonda, | chog'da) | – |
|-----|--------|-----------|----------|---|

bir kuni, bir mahal, bir payt(lar), favqulodda, to'satdan, bir vaqtlar, bir za-monlar, qachonlardir, uzoq o'tmishda; bir yostiqa bosh qo'ymoq – uylanmoq, turmush qurmoq; ikki yuzli odam – munofiq, ikkiyuzlama, riyokor, ikkiyuzlamachi; ham sinonimik bo'lmasliklari mumkin: bir yo'lini (iloji) qilmoq – bir ilojini qilmoq, og'ir ahvoldan qutilish yo'lini topmoq; ikki xayol o'rtasida arg'imchoq uchmoq – noaniq bir holda bo'lmoq, ora yo'lda bo'lmoq.

Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi subkollokvial frazeologik birliklarning variantlari o'rtasida leksik almashtirishlar bittadan ortiq komponentlar orasida ham yuz berishi mumkin: fr: *l'un tire à hue et l'autre à dia (l'un tire à dia et l'autre à hue)* – biri bog'ga tortsa, ikkinchisi tog'ga tortadi; o'zb: *to'rt (yetti) muchasi sog' bo'lmoq* – jismonan sog'lom odam haqida; bir (ikki) oyog'i bilan go'r ustida osilib turmoq; bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda bo'lmoq – o'limi yaqin inson haqida; rus: *видет на два (три) аршина в землю* – o'ta ziyalik bilan ajralib turmoq, ya'ni, yer tagida ilon qimirlasa bilmoq; *сорок одна (два) с кисточкой!* – uchrashganda hazil-betakalluf salomlashish.

Ushbu frazeologik birikmalarda ikkita component leksik almashtirishga tortiladi, ammo ko'p komponentli almashtirishning har ikki holda ham subkollokvial frazeologizmlarning variantlarida son bilan ifodalangan component bog'lovchi o'rinni egallaydi. Leksik almashtirishlar yo'li bilan hosil qilingan leksik variantlar turli so'z turkumlarida uchrashi mumkin, ammo, ko'p hollarda, ular ot va fe'l so'z turkumi doirasida bo'ladi.

Fonetik variantlar ayrim komponentlarni fonetik o'zgartirish bilan hosil qilinadi. Subkollokvial frazeologik birliklar doirasida fonetik variantlar fransuz, rus tillarida o'zbek tiliga nisbatan kam. Ularga quyidagi variant ko'rinishlarini kiritish mumkin: fr: *y aller d'une (de deux)* – yemoqni qusmog'i bor; *un à un, une à une* – bitta-bittadan; rus: *восьмой чудо света* – g'alati, g'aroyib kim yoki nima haqida; o'zb: *bir yer(ga)* – noma'lum joy haqida (bormoq); bir damda, bir dam ichida, bir nafasda, bir lahzada (onda), birpasda, bir zumda – ko'z ochib yumguncha, dam o'tmay, darhol, darrov, juda tez; bir yerga bormoq – 1) endi kech (vaqt haqida); 2) afsuslanmoq, o'kinmoq, afsus (pushaymon) qilmoq, pushaymon bo'lmoq; o'zini o'zi ayblamoq.

Bu variantlarning paydo bo'lishi og'zaki nutqdagi reduksiyaga, fonetik jihatdan yaqin componentlarning ataylab yoki tasodifiy almashtirilishiga olib keladi, bu bilan ushbu almashtirish har doim ham subkollokvial frazeologik birlikning obrazini o'zgartirmaydi, deb hisoblaymiz.

Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi subkollokvial frazeologik birliklar tarkibida grammatik variantlar, leksik variantlarga qaraganda, kam, fr: *c'en est un (c'en est une)* –

bu yaxshilikni anglatadi, Zo'r!; o'zb: *bir qorindan (tushgan)* – tug'ishgan aka (uka), tug'ishgan opa (singil), jigar, qon-qarindoshlar haqida; ik-ki yuzli odam, ikkiyuzlamachi – munofiq, ikkiyuzlama, riyokor; rus: *ни в одном глазу (глазе)* – sira, hech; ko'rdim demaydi; (unga) ta'sir qilmaydi; qumga singgandek gap (mas., ichkilik ichganda va h.k.) = *хот бы в одном глазу (глазе)* – sira, hech; ko'rdim demaydi; (unga) ta'sir qilmaydi; qumga singgandek gap (mas., ichkilik ichganda va h.k.); *один на одном сидит (сидят)* –1) odamlarning juda tiqilinchligi haqida; 2) bir-biriga yonmayon zich joylashgan binolar haqida; c первого шара (шары) – eng boshidan, avval boshdan, boshdanoq.

Subkollokvial frazeologik birliklar tarkibida bir vaqtning o'zida leksik va grammatik o'zgarishlar natijasida leksik – grammatik variantlar hosil bo'ladi, masalan: fr: *avoir un cheval tué sous soi* (yoki *deux, trois chevaux tués sous soi* – maqsad sari intilmoq, kurashni mardlarcha davom ettirmoq; o'zb: *ikki marta o'ylanmoq=ikki o'yda (xayolda) bo'lmoq* – ora yo'lda qolmoq, taraddudlanmoq, hardamxayol bo'lmoq, ikkilanmoq, taraddudda qolmoq, taraddudga tushmoq; rus: *попадать на седьмой небо* – zavq-lanmoq, zavqlanish, huzur-halovatni, cheksiz baxtni boshdan kechirmoq = *быт на седьмом небе* – boshi ko'kka yetmoq; og'zi qulog'ida bo'lmoq; terisiga sig'maslik; o'zida yo'q xursand bo'lmoq; *один шаг от чего* – uncha uzoq emas, juda yaqin = *в двух (трёх, нескольких) шагах от кого, от чего* – ikki qadam narida, ya'ni yaqin masofada joylashgan, uzoq emas.

Elliptik variant boshlang'ich, to'liq shakliga nisbatan frazeologik birlikning qisqartirilgan shaklidan iborat. Juda bo'lmasa, komponentlarning bitta variantini elliptik tushirib qoldirish yoki ekspressiv qisqartirish butun variantning ma'nosiga butunlay ta'sir ko'rsatmaydi yoki uning butunlay buzilishiga olib keladi.

Fr: *à la une, à la deux, à la trois!* – Qani, bir, ikki oldik!; *à deux (yoki à trois, à quatre) pas de ...* – ikki qadam narida; *à deux visages (à deux envers)* – ikki yuzlamachi; *être en un saut (yoki en trois sauts) de ... à ... (ne faire qu'un saut de ... à ...)* – ko'z ochib yumguncha, juda tez.

O'zbek tilida frazeologik birliklarning quyidagi elliptik variantlari aniqlandi: *bir jon–yolg'iz* odam, yakka o'zi (yolg'iz, tanho bir o'zi) yashovchi, ishlovchi odam; yakka, yolg'iz, tanho, boshqalardan ajralgan, so'ppaygan, so'qqaygan, so'qqa; u dastlabki bir jon, bir tanning qisqartirilgan frazeologik birligi hisoblanadi – 1) hamfikrlar, maslakdoshlar haqida; 2) bitta o'zi, yolg'izgina, o'zigina, yolg'iz o'zi, hech kimsasiz frazeologik birligining qisqartirilgan shaklidir; bir kuni – kunlardan bir kun; bugun bo'lmasa, boshqa kuni – kunlardan bir kuni, bir kun emas bir kun, oxiri bir kun; bir-ikki – bir necha esa bir-ikki haf-tadan keyin – bir necha haftadan so'ng frazeologik birligining elliptik variantidir; bir payola choy qo'y-moq=to'rt kishiga bir payola (choynak) choy qo'ymoq – mehmonlarga (quruqqina) dasturxon yozmoq-ning elliptik variantidir.

Rus tilining subkollokvial frazeologik birligi *с куска на кусок* – zo'rg'a, arang, zo'rg'adan zo'rg'a, bir amallab, amal-taqal qilib, katta qiynchilikda, muhtojlik va yetishmovchiliklarga chidab (mavjud bo'lmoq, yashamoq) to'liq frazeologik birlik *перебиваться с куска на кусок* – oziq-ovqatda kuchli muhtojlikni sezmoqning elliptik variant hisoblanadi; *в три туча* – to'xtatib bo'lmaydigan yig'i haqida; to'liq frazeologik birlik *лечь слёзы в три ручья* – achchiq-achchiq, uzoq va o'zini to'xtata olmay ho'ng-ho'ng yig'lamoqning elliptik varianti; *один на один* – 1) yolg'izlikda, yolg'iz, tanho, odamlardan xoli; begona kishilarsiz, guvohlarsiz; 2) bir o'zi, yakka o'zi, yakka-yakka, boshqalardan ajralgan (ajratilgan) holda, *один на один с самим собой* – yolg'izlikda, yolg'iz, tanho, xoli, begona kishilarsiz, guvohlarsiz; *грош цена=грош цена в базарный день кому, чему* – bir tiyinga arzimaydi; uch pulga (sariq chaqaga) qim-mat, bir pulga ham arzimaydi; bir pulga qimmat; *на все сто=на все сто процентов* – 1) har jihatdan ajoyib; 2) bus-butun, butunlay, tamoman, butkul, butunicha; to'la, to'liq, batamom, to'la-to'kis, tamomi-la; butunligicha, butun holda, butunlayin; *подгонять под один колер* = *подгонять всех под один колер* – farqlarni hisobga olmay kimnidir kim bilandir qandaydir munosabatda tenglashtirmoq; *без копейки* = *без копейки в кармане* – cho'ntagida bir tiyini yo'q, qur-quruq (juda kambag'al yashamoq); *грош заведеться=грош заведеться в кармане* – katta pullar paydo bo'ladi; *как дважды два=как дважды два четыре* – 1) mutlaqo, shubhasiz, aniq, ishonarli qilib isbotlamoq, tushuntirmoq, uqtirmoq va h.k.; 2) juda yaxshi ma'lum, tushunarli, aniq va h.k.; ikki karra ikki – to'rtdek aniq; oppa-son, oddiy; *ни на йоту* = *ни на (одну) йоту* – zarracha ham, zig'ircha ham, sira ham (sirayam); *в один миг* = *в один единый миг* – darhol, darrov, bir onda, birpasda, bir lahzada, juda tez, dam o'tmay, shu onning o'zida; tez, tezda, tezlik (zudlik) bilan; bir zumda, ko'z ochib yumguncha; *из одного теста* = *из одного и того же теста* – kimgadir xarakteri, dunyoqarashi, turmush tarsi va h.k.da mutlaqo o'xshash;

(tuprog'i bir joydan olin-gan); *одним миром мазани=одним тем же миром мазани* – bir-biriga o'xshash, odatda, o'z fazilati, xususiyati, mavqei va h.k. bo'yicha); bir-biriga mos, birini olib, biriga uradigan; *два лантия=два лан-тия пара* – bir-biriga o'xshash, odatda, o'z fazilati, xususiyati, mavqeyi va h.k. bo'yicha); *кожа да кос-ти = одни кожа да кости* – o'ta oriқ, holdan ketgan (tinka-madori) qurigan, ozib-to'zib ketgan, sillasi qurib qolgan, nihoyatda oriқ.

Demak, komponentlarni almashtirganda variantlar ma'lum sxemaga amal qilmay, o'zaro turli munosabatlarga kirishishi mumkin, degan xulosaga keldik. Qiyosiy-chog'ishtirilayotgan tillarda variantlarni shakllantirishning sermahsul usuli insonga, uning turmushiga, shaxsiy fazilatlariga bag'ishlangan keng te-matik blokni o'z ichiga olgan bitta predmetli-tematik guruh ichidagi o'zgartirishlar hisoblanadi. Sinonim so'zlar hamda rod yoki assotsiativ belgilari bilan umumlashtirilgan so'zlar o'zlarining asosiy ma'nolarida o'zgaruvchan komponentlarni leksik almashtirishda nutqning (kitobiy va so'zlashuv) uslublariga birik-tirilganlikda farqlarga ega bo'ladi. Frazeologik variantlarning mavjudligi frazeologizmlarni nutqda qo'l-lashda tilning konstruktiv modellarini yangidan tashkil qilishga imkon yaratadi, nutqning ekspressivlik, uslubiy-bo'yoqdorligini kuchaytirishga yordam beradi.

Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi subkollokvial frazeologizmlarning variantlilikni o'rganib chiqib quyidagi xulosalarga kelindi, leksik variantlar uchala tilda ham ko'proq son bilan ifoda qilingan. Fonetik variantlar ayrim komponentlarni fonetik o'zgartirish bilan hosil qilinadi va ular subkollokvial frazeologik birliklar doirasida fransuz, rus tillarida o'zbek tiliga nisbatan kam uchraydi. Fransuz, o'zbek va rus tillari-dagi subkollokvial frazeologik birliklar tarkibida grammatik variantlar, leksik variantlarga qaraganda kam qo'llaniladi, ammo, bir vaqtning o'zida, ma'noviy va shakily o'zgarishlar natijasida leksik-grammatik va-riantlar hosil bo'ladi. Elliptik variant boshlang'ich, to'liq shakliga nisbatan frazeologik birlikning qisqartirilgan ko'rinishdan iborat. Bunda komponentlarning bitta variantini elliptik tushirib qoldirish yoki eksp-ressiv qisqartirish butun variantning ma'nosiga aksariyat ta'sir ko'rsatmaydi, ya'ni uning butunlay buzi-lishiga olib keladi. Tahlilga tortilgan har uchala tilda leksema o'zgartirish yo'li bilan hosil qilingan leksik variantlarning o'zgaruvchan komponentlari morfologik jihatdan xilma-xil so'z turkumlari orqali ifoda-lanishi mumkin, ko'p hollarda ular – son, ot, fe'l so'z turkumlarida uchraydi, zero, muayyan o'zaro variantlar almashinuvi bitta so'z turkumi doirasida yuz beradi. Vaholanki, frazeologik variantlarning mavjudligi frazeologizmlarning nutqiy qo'llanilishida tilning konstruktiv modellarini yangidan tashkil etish imkonini beradi va nutqda o'ziga xos ta'sirchan birliklarni voqelantiradi.

G'aybullayeva Dildora Fayzulla qizi (O'zbekiston davlat

Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

FRAZEOLOGIYA FANIDAGI MAKROKONSEPSIYA VA UNING TALQIN ETILISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mustaqil fan shakllangan, tilning barqaror so'zlar bog'lanmasi (frazeologizmlar)ni o'rganuvchi frazeologiya sohasidagi munozarali nazariy qarashlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, jahon tilshunosligi hamda o'zbek frazeologiyasining frazeologik birliklarni keng va tor ma'noda tushunishni ilgari surgan ko'zga ko'ringan namoyandalarning fikrlari, izohlari va ta'riflari bayon etiladi. Maqolada frazeologizmlarni tushunishdagi bunday lisoniy muammo – makrokonsepsiya ("makro" yirik, "konsepsiya" biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli) atamasi bilan yuritiladi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются спорные теоретические взгляды в области фразеологии, которая сформировала самостоятельную науку и изучает фразеологические единицы языка. Кроме того, представлены видные деятели мировой лингвистики и узбекской фразеологии, их мнения, комментарии и определения, касающиеся понимания фразеологизмов в широком и узком смысле. В статье данная языковая проблема определения фразеологизмов, названная термином – макроконцепт («макро» – большой, «концепт» – это система взглядов, принципов, фактов и событий, связанных с определенным способом понимания, осмысления и интерпретации).*

Annotation. *The article deals with the controversial theoretical views in the field of phraseology, which has formed an independent science and studies the phraseological units of the language. Furthermore, the prominent representatives of world linguistics and Uzbek phraseology and their opinions, comments and definitions pertaining to the understanding of phraseological units in a broad and narrow sense are presented. In the article, this linguistic problem in defining phraseological units is named with*

the term – macroconcept (“macro” is large, “concept” is a system of views, principles, facts and events related to a specific way of understanding, comprehension and interpretation).

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, makrokonsepsiya, semantik tasniflanish, grammatik xarakteristika, funksional mezon.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизм, макроконцепт, семантическая классификация, грамматические характеристики, функциональный критерий.

Key words: phraseology, phraseological unit, macroconcept, semantic classification, grammatical characteristics, functional criterion.

Insoniyatning kommunikativ quroli bo‘lgan til necha asrlardan buyon mutaxassis olimlar, tilshunoslar tomonidan jadal o‘rganilib, tilshunoslik sohasida qator yutuqlarga erishilmoqda. Umumiy tilshunoslik tarkibida bo‘lgan leksikologiya bo‘limining kichik bir qismi sifatida o‘rganilgan frazeologiya ham bir qancha ilmiy izlanishlar, lisoniy tadqiqotlardan so‘ng alohida fan sifatida shakllandi. Albatta, bu qadarning qo‘yilishi frazeologik tadqiqotlar uchun keng yo‘lni ochib berdi.

Nafaqat jahon tilshunosligida, balki turkiy tilshunoslikda ham frazeologiya sohasining maxsus kategorial (yetakchi) belgilariga ega birliklari hisoblangan frazeologizmlarning nazariy ta‘rifiga doir barcha tillarda so‘zlashuvchilarga mos, tadqiqotchilar tan olgan, yagona va mukammal ta‘rifning mavjud emasligi tufayli “frazeologizm” masalasi doim bahsli hisoblanib, tilshunoslar frazeologizmlarning xarakterli xususiyatlarini aniqlash, xususan, ularning pragmatik tabiati va tarkibidagi konnotativ unsurning semiotik chegarasini topish uchun tinimsiz harakat qilib kelishmoqda. Shu kunga qadar, garchi frazeologiya nazariyasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tadqiqotlarda ilmiy va amaliy jihatdan ko‘tarilayotgan muammolar hanuzgacha o‘zining to‘liq yechimiga ega emas.

Tilshunoslikda FBlarning mohiyati xususida bir xil fikrning mavjud emasligi bugungi kungacha olimlar o‘rtasida frazeologik makrokonsepsiyaga aylanib ulgurgan – FBlarni keng va tor ma‘noda tushunish an‘anasidan voz kechishga monelik qilmoqda. Mazkur an‘anaga ko‘ra, jahon tilshunosligining ko‘zga ko‘ringan namoyandalari A.V.Kunin, N.F.Alefirenko, V.L.Arxaevskiy, V.M.Mokienko, V.N.Teliya, S.G.Gavrin, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, A.G.Nazaryan, A.I.Smirnitskiy, A.A.Reformatskiy, Y.M.Vereshagin, V.G.Kostomarovlar, o‘zbek tilshunosligida esa Y.Pinxasov, S.Muratov, G‘.Salomov, H. Berdiyurov, R.Rasulov, M.Xusainov, B.Yo‘ldoshevlarning ilmiy tadqiqotlarida frazeologiya keng ma‘noda e‘tirof etiladi. Ular FBlar qatoriga proverbial frazeologizmlar (maqol va matallar), obrazli iboralar, nutqiy qoliqlar, aforizmlar hamda iqtiboslarni ham kiritib, bunday birliklar ham FBlar kabi sintaktik bo‘linmas, semantik yaxlit ekanligiga asoslanishadi. Ularning fikricha, leksik birliklardan farq qiluvchi, elementlari qat‘iy bir qolipga kirib, ko‘p zamonlar barqaror bo‘lgan, ko‘chma ma‘no yo fikrni anglatib, gapda butunligicha bir vazifani bajaruvchi emotsional-ekspressivlik xususiyatiga ega so‘zlar bog‘lanmalari ham FBlar deb nomlanadi. Boshqacha qilib aytganda, frazeologizmlarning keng doirasi so‘z emas, balki xarakterologik xususiyatlaridan qat‘iy nazar, tugallangan shaklda takrorlanadigan barcha til birliklari deb ta‘riflanib, FBlarning asosiy belgilari ma‘no yaxlitligi emas, balki ma‘no, tarkib va tuzilmaning takrorlanuvchanligi va barqarorligida hisoblanadi.

Mashhur frazeolog S.Ojegovning ta‘kidlashicha, jahon tilshunosligida frazeologiyani tor va keng ma‘noda tushunish an‘anasi XX asrning 50-yillari o‘rtalarida kirib kelgan bo‘lsa-da, 60-yillarning oxiriga kelib, frazeologiyani tor ma‘noda tushunish keng tarqaldi [7.35]. Xorij tilshunoslari orasida tor yondashuv vakillariga V.G.Didkovskaya, V.I.Makarov, V.P.Jukov, A.V.Jukov, A.M.Babkin, V.M.Ogoltsev, N.I.Lavrov, o‘zbek tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev, M.Ro‘ziqulova, A.Rafiyev, A.Yo‘ldoshevlarni kiritish mumkin. Bu yondashuv olimlari FBlar sifatida faqat bir tipdagi turg‘un so‘z birikmalari, ya‘ni ustama ko‘chma ma‘noli birikmalarnigina kiritadilar. Bunday birikmalarni ayrim olimlar frazeologizmlar yoki FBlar deb yuritsalar, boshqalari idiomalar yoki iboralar yoxud idiomatik birikmalar deb nomlashni ma‘qul ko‘radilar. Tor yondashuv namoyandalari FBlarning ichki mohiyatini xarakterlashda ularning obrazlilikini, tayyor holda takror qo‘llanishini, komponentlar orasidagi bog‘lanishning turg‘unligi va ma‘noning yaxlitligini asos sifatida qabul qiladilar. B.Yo‘ldoshev “frazeologik birlik” tushunchasining doirasining toraytirish sababini, birinchi navbatda, olimlarning ma‘nosi o‘zgargan turg‘un so‘z birikmalari mohiyatini chuqurroq aniqlashga intilishi bilan bog‘laydi. Olim o‘z fikrini “Bu yo‘nalish ayrim olimlarni, jumladan, turkiyshunoslarni ham frazeologiyaning haqiqiy obyektini FBni tor doirada tushunishdir, degan qat‘iy fikrga olib keldi”, deya asoslaydi [1.15].

Frazeologizmlarni tushunishda tor va keng yondashuvni bir-biridan farqlashning asosiy mezonlarini M.M.Aymagambetova o‘z maqolasida berib o‘tgan. Olimaning fikriga ko‘ra, bu ikki xil yondashuvni

farqlashda frazeologizmlarning semantik va grammatik tasniflanishi hamda funksional xarakteristikasi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi [2.8].

1. Semantik tasniflanish. Ushbu tasnif N.M.Shanskiy tomonidan keng yoritilgan bo'lib, u to'rtinchi guruhni (Vinogradov FBlarining uchta guruhidan tashqari) – erkin ma'noli so'zlardan tashkil topgan frazeologik iboralarni ajratib ko'rsatdi. Bunda FBlarning barqarorlik xususiyati moslikni cheklash mezoni sifatida talqin etiladi [8.45].

Keng ma'noda FBlarning asosiy belgilari semantik jihatdan yaxlitlikda emas, balki ma'no, struktural takrorlanuvchanlik hamda turg'unlik xususiyatida deb izohlanadi. Shanskiy nazariyasiga ko'ra, barqarorlik moslikni cheklash mezoni sifatida talqin etilib, ushbu o'ziga xoslik FBlarning to'rtta guruhiga ham tegishli.

Tor yondashuvga ko'ra, FBlarning asosiy xususiyati FBlar tarkibiy qismlarining ma'nosi va desemantizatsiyasining yaxlitligidir. A.I.Molotkov FBlarni "so'zlardan emas, balki so'zlarga xos belgilarni (leksik ma'no, so'zning o'zgarish shakllari va so'zning leksik-grammatik xususiyatlari) yo'qotgan komponentlardan tashkil topgan birlik" sifatida tavsiflaydi. Demak, FBlar faqat yaxlit ma'noga ega bo'lgan turg'un birikmalar guruhlarini o'z ichiga oladi [6.34].

2. Grammatik tasnif. Mazkur mezonga tayangan holda, V.V.Vinogradov va N.M.Shanskiy nazariyasiga ko'ra, keng yondashuvda predikativ xarakterdagi birliklar frazeologik tizimga kiritiladi, chunki bunday birliklar, qoida tariqasida, emotsional-ekspressivlikka ega motivatsiyalangan yoki motivatsiyalanmagan iboralar deb qabul qilinadi.

Boshqa tomondan, A.I.Molotkov, V.P.Jukov va boshqa tilshunoslar juda ko'p predlogli holat konstruksiyalarini (ing: by chance, rus: за глаза), murakkab yuklamalarni, bog'lovchilarni va ba'zi muhim so'zlarning konstruktiv tarzda aniqlangan ma'nolarini ham frazeologizmlar qatoriga kiritadilar. Biroq, bizningcha, ularni quyidagi sabablarga ko'ra, FB deb tan olish mumkin emas:

1. Ular komponentlari jihatdan haqiqiy iboralar emas, ya'ni, bir nechta muhim so'zlarni o'z ichiga olmaydi.

2. Ko'pgina qo'shimchalarning alohida yoki qo'shib yozilishi faqat imlo an'anasi bilan bog'lanadi, ko'chma ma'no bilan emas.

3. Ular obrazlilikka ega, lekin bu holda, umuman olganda, frazeologik tizimga barcha obrazli-ifodali qanotli so'zlarni kiritish mumkin bo'ladi, ayni paytda so'z bilan FB orasidagi farq olib tashlanishi kerak bo'ladi, bu esa leksik birlik va FB o'rtasidagi struktur, aksentologik va komponental qismlar orasidagi ichki aloqaga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

A.I.Molotkov ta'kidlaganidek, tor yondashuv bilan predikativ xarakterdagi turg'un iboralar (maqollar, maqollar, iboralar va boshqalar) frazeologiyadan chiqariladi va shu orqali FBlarni leksik birliklardan osongina ajratilishiga erishish mumkin [6.35].

Shunday qilib, frazeologizmlarni keng ma'noda tushinishda obrazlilikka ega, predikativ xususiyatli, ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, orfografik qo'shib yoki ayirib yozilishi mumkin bo'lgan so'z birikmalari ham FB deb yuritilsa, tor yondashuv an'anasiga ko'ra, bunday leksik FBlarni frazeologiyaning obyekt sifatida tan olinmaydi.

3. Funksional mezon. Til doimiy ravishda juda ko'p sonli nominativ-terminologik birliklar (qo'shma atamalar va nomlar), shu jumladan, yumuq iboralar bilan to'ldiriladi. Keng yondashuvga ko'ra, ba'zi olimlar funksional jihatdan ekspressiv-stilistik va semantik birligi asosida bunday birliklarni frazeologiya tizimiga kiritadilar (ing: residential house, rus: дом отдыха). Ammo, shuni nazardan chetlatmaslik lozimki, bunday birliklar FBlarning zarur differensial belgilari to'plamiga ega emas. FBlarga xos xususiyatlar qatoriga grammatik shaklning turg'unligi, arxaizmning mavjudligi, strukturaning o'zgarmasligi, sintaktik o'zgarishlarning mumkin emasligi, turg'un so'z tartibi, obrazlilik, emotsional-ekspressivligini kiritish joiz. Shuningdek, FBning integral xususiyati frazeologik ma'nodir [5.234].

Tor ma'noda FBlarga yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega turg'un iboralargina kiradi. Murakkab vazifali so'zlar, qo'shma atamalar va boshqa qo'shma nomlar (sof nominativ vazifa bajara oluvchi birliklar) frazeologiyaga kirmaydi.

V.P.Jukov yondashuvlardagi farqlarni quyidagicha ta'riflaydi: "Ba'zi olimlar frazeologik tadqiqotlar doirasiga tarkibiy qismlarning (maqollar, maqollar, qanotli iboralar, frazeologik birikmalar) qo'shilish xususiyatidan qat'iy nazar, har xil darajadagi murakkablikdagi barcha takrorlanadigan super-verbal shakllanishlarni kiritadilar. Boshqa olimlar, aksincha, frazeologik birikmalar va birliklar kabi materiallarni o'rganishga moyildirlar. Demak, FBlarning semantik tasnifi asosida frazeologiya predmetiga qarama-qarshi

ikki nuqtayi nazar, tilshunoslikning ushbu tarmog‘i doirasi haqida tor va keng tushuncha shakllangan” [3.70].

Atoqli tilshunos D.Shmelov fikriga ko‘ra, frazeologiyaga barcha turg‘un so‘z birikmalarining kiritilishi boshqa frazeologik tushunchalarga nisbatan katta afzalliklarga ega, chunki ushbu yondashuv bilan frazeologiyaga kiritilgan barcha birliklar izchil o‘rganilishi mumkin. Olim frazeologizmlar doirasini to‘raytirish, umuman, o‘rinsiz ekanligini, bu orqali frazeologiya sohasi yutuqlariga chegara qo‘yilishi mumkinligini ta‘kidlaydi [9.333].

Taniqli frazeolog, tadqiqotchi olim A.E.Mamatov frazeologiyani tushunishdagi har ikki yondashuvga nisbatan ham betaraf holda qat‘iyan ta‘kidlaydi: “Frazeologiyani “keng” va “tor” ma‘noda tushunish noto‘g‘ri, uni bitta ma‘noda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat‘iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg‘un so‘zlashuv formulalarimi, “qanotli so‘zlar”mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta‘rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya‘ni, tuzilishi jihattan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, obrazli, umumlashgan ma‘no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan, lug‘atlarda qayd etilgan har qanday turg‘un leksik-semantik birliklar FBlar doirasiga kiritilishi shart” [4.212].

“Frazeologiya doirasini bunday tor ma‘noda tushunish turkiyshunoslikda ham xuddi rus tilshunosligida bo‘lgani singari idiomatik birliklar yoki idiomatika haqidagi ta‘limotning asoslanishiga olib keldi”– deydi B.Yo‘ldoshev [1.19]. Ayrim tilshunoslar idiomatikani frazeologiyaning tarkibiy qismi, deb hisoblaydilar, boshqalari esa uni, hatto tilshunoslikning mustaqil sohasi, deb tan oladilar.

Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlarni tushunishdagi ushbu makrokonsepsiya frazeologizmlarni aniq tasniflashda ham oz ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Shunday ekan, bizningcha, frazeologiyani tor ma‘noda tushunish uning haqiqiy o‘zagini, yadro qismini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi, keng ma‘noda tushunish esa frazeologiyaning periferiyasini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Monografiya, to‘ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri, Samarqand, SamDU nashri, 2013, 116 bet.
2. Аймагамбетова М.М. «Широкое и узкое» понимание фразеологии. 2020, электронный журнал: www.ulagat.com
3. Жуков В.П. Русская фразеология. М., ”Высшая школа”, 1986, 310 с.
4. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. Т., 1991, 212 bet.
5. Мелерович А.М. К вопросу о соотношении фразеологической и синтаксической семантики. Бюллетень по фразеологии №1. Труды Самаркандского гос. ун-та им. Алишера Навои. Новая серия, вып. № 234.
6. Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. Л., ”Наука”, 1977, 284 с.
7. Ожегов С.И. О структуре фразеологии (в связи с проектом фразеологического словаря русского языка). Лексикографический бюллетень. Вып. II, М., 1957.
8. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Учеб. пособие для студ. филол. фак-тов ун-тов, М., ”Высшая школа”, 1963, 156 с.
9. Шмелев Д.Н. Современный русский язык. М., ”Просвещение”, 1977, 336 с.

Begimov Odil To‘xtamishovich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedراسи mudiri, filologiya fanlari doktori; begimovodil@mail.ru)

O‘ZBEK TILI ERGONOMLARIDA CHET TILI ELEMENTLARINI KIRITISH USULLARI

***Annotatsiya.** Maqola ergonomlarga xorijiy til elementlarini kiritish usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot obyekti sifatida Qarshi shahar ergonomlari tanlandi. Tadqiqotning maqsadi chet tili elementlarini nomga kiritishning eng maqbul usullarini aniqlashdir. Ishning yangiligi Qarshi shahar ergonomiyasiga oid yangi ma‘lumotlarning ilmiy muomalaga kiritilishidir.*

***Аннотация.** Статья посвящена изучению способов введения элементов иностранного языка в эргономику. В качестве объекта исследования выбрана эргономика города Карши. Цель исследования—определить наиболее оптимальные способы включения иноязычных элементов в название. Новизна работы заключается во включении в научный оборот новых сведений по эргономике города Карши.*

***Annotation.** The article is dedicated to the study of ways to introduce elements of a foreign language into ergonomics. The ergonomics of the city of Karshi was chosen as the object of study. The purpose of the study is to determine the most optimal ways to include foreign language elements in the name.*

The novelty of the work lies in the inclusion of new information on the ergonomics of the city of Karshi into the scientific circulation.

Kalit so‘zlar: *ergonim, ergonomiya, emporonim, servisonim, onomastika, onim, tijorat nomlari.*

Ключевые слова: *эргоним, эргонимия, эмпороним, сервисоним, ономастика, оним, коммерческие названия.*

Key words: *ergonim, ergonymy, emporonym, service name, onomastics, onym, commercial names.*

So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekistonda savdo-sotiq va biznes faoliyati sohasida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu ergonimlar semantikasi va tuzilishida ko‘plab xilma-xillik yuzaga kelishiga olib keldi. Asosan, umumiy ovqatlanish tarmoqlarini o‘z ichiga olgan kichik va o‘rta biznesga mamlakatdagi o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyat, moliya bozorida raqobatbardoshlikning zaiflashishi yoki kuchayishi keskin ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli ba‘zi ovqatlanish korxonalari o‘rnida yangilari paydo bo‘ladi, ularning egalari mijozlarni jalb qilish uchun o‘zlarining taktikalarini, jumladan, yorqin, kishilarni e‘tiborini tortadigan jozibali nom tanlash yordamida tez-tez o‘zgartirib turadilar.

Ergonimlarning bir ko‘rinishi sifatida tijorat nominatsiyasini o‘rganish zamonaviy onomastikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Olimlarning qiziqishi bir qancha sabablarga bog‘liq. Birinchidan, ikkilamchi sun‘iy nominatsiya ongli maqsadli jarayon bo‘lib, qaysi biri butun nominatsiya nazariyasiga hissa qo‘shishi mumkinligini o‘rganish asosida nomning denotat bilan qanday bog‘langanligini aniqlash.

Ikkinchidan, tijorat nomining reklama funksiyasi uning g‘ayrioddiy, ifodali tabiati tufayli adresatga ta‘sir qilishni o‘z ichiga oladi, shu bilan birga, uning assotsiativ moslashuvchanligini talab qiladi. Shu sababli tijorat nomlarini yaratish ona tilida so‘zlashuvchilarning yuqori ijodiy faoliyati natijasi bo‘lib, bu onimlarni o‘rganish bizga til tizimining ijodiy imkoniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishni ta‘minlaydi.

Uchinchidan, tijorat nominatsiyasi jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlari tizimiga va til an‘analariga mos kelgan taqdiridagina samarali bo‘ladi. Binobarin, ergonimlarini o‘rganish sizga shahar, mintaqa yoki mamlakatning o‘ziga xos lingvistik manzarasini yaratishga imkon beradi. R.Amirova yozgani-dek, “bu lug‘at qatlami hududning o‘zi tarixi va bugungi holati, unda yashovchi xalqlar madaniyati va ularning tillari rivoji haqida boy ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ergonimlar shahar va butun mintaqaning ijtimoiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aks ettiradi”.¹

Tadqiqotimiz mavzusi tijorat nominatsiyasi natijasi bo‘lgan ergonimlar tarkibiga kiruvchi xorijiy til elementlaridan tashkil topgan servisonim va emporonimlardir. Mazkur ish onomastikaning nisbatan yangi va hali ham rivojlanayotgan sohasi tadqiqiga bag‘ishlanganligi uchun unda qo‘llanadigan atamalar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

“Ergonim” atamasi birinchi marta ilmiy muomalaga N.V.Podolskaya tomonidan kiritilgan. U odamlar biznes birlashmalarining atoqli otlariga shunday nom beradi. Bu termin N.V.Podolskaya lug‘atida quyidagicha izohlangan (aynan keltiramiz): “Эргоним – Разряд онима. Собственное имя делового объединения людей, в том числе союза, организации, учреждения, корпорации, предприятия, общества, заведения, кружка.

Пр.: Организация Объединенных Наций (ООН), Международный астрономический союз (МАС), Академия наук (АН), Московский государственный университет (МГУ), Малый театр, комбинат «Правда», спортивное общество «Спартак», Собрание рыцарей Круглого стола, музыкальный кружок «Могучая кучка»;

Происх.: греч. ἔργον (дело, труд; деятельность, функция).²

Zamonaviy onomastikaning doimiy o‘zgarib borayotgan va rivojlanayotgan sohasi ergonomiya (ergonimlarning rivojlanish tarixini, shuningdek, ularning shakllanish tamoyillari va usullarini o‘rganadigan fan) hisoblanadi. Ergonimlar iqtisodiy va siyosiy omillar ta‘sirida shakllanib, dunyoning til manzarasini rivojlanishida ma‘lum o‘rinni egallaydi va uning “tarixiy bo‘lagi”ni aks ettiradi.³

M.G.Qurbonova ergonimning quyidagi belgilarini ko‘rsatadi: “1) ergonim ham tijorat, ham notijorat birlashmalariga berilishi mumkin; 2) ergonim – u yoki bu obyektga har doim ham huquqiy bog‘liqlik bo‘lmagan odamlarning tadbirkorlik birlashmasining atoqli oti; 3) ergonim ma‘lum muassasalarni (teatr-

¹ Амирова Р.М. Татарская эргонимия города Казани. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук, Казань, Казанский федеральный университет, 2011, с. 5.

² Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. Москва, “Наука”, 1978, с. 166.

³ Кургузова Е.В. Имена собственные немецкой культуры в историческом фрагменте нормативно-научной картины мира. Автореф. дис. ... канд. фил. наук, Смоленск, 2009, с. 8.

lar, mehmonxonalar, do‘konlar, kafelar va boshqalar), shuningdek, turli doiralar, partiyalar, jamoalar va boshqalarning nomlari bo‘lishi mumkin.¹

Ergonimlarning yagona tasnifi hali shakllanmagan. Aksariyat tadqiqotchilar bu turdagi onimlarni nominatsiya obyektini yoki vazifasiga ko‘ra tasniflashadi. T.V.Larina vazifalariga ko‘ra ergoteonimlar (kompaniyaning rasmiy nomlari), ergourbonimlar (shahar obyektlarining nomlari), domen nomlarini ajratadi.² E.M.Spivakova tijorat nomlarini tasniflashda nominatsiya obyektini bo‘yicha “emporonim” (savdo muassasasining nomi) va “servisonim” (xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasi nomi) atamalarini kiritadi. Shu asosda ayrim turdagi tovarlarning nomlari uchun pragmatonimlar terminini ajratadi.³

Biz ham ergonimlarining tasnifini aniq ifodalash uchun o‘rni bilan emporonim va servisonim atamalarini qo‘llaymiz. Maqolaning maqsadi ergonimlarning tarkibiga kiruvchi emporonim va servisonimlarda xorijiy til elementlarini kiritish usullarini aniqlashdir.

So‘nggi 30 yil ichida O‘zbekiston tijorat faoliyati sohasida keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirdi, bu ularning semantikasi va tuzilishi xilma-xil bo‘lgan ko‘plab ergonimlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Asosan, umumiy ovqatlanish va turli xizmatlar ko‘rsatish korxonalarini o‘z ichiga olgan kichik va o‘rta biznes mamlakatdagi o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatga, moliya bozorida raqobatbardoshlikning zaiflashishi yoki kuchayishiga o‘ta sezgir soha hisoblanadi. Shu sababli ba‘zi oziq-ovqat yoki servis korxonalarini yopiladi, ularning o‘rnida yangilari paydo bo‘ladi, ularning egalari mijozlarni jalb qilish uchun o‘zlarining taktikalarini tez-tez o‘zgartirishga majbur bo‘ladilar. Bu xususiyat o‘z biznes obyektlariga yorqin, esda qolarli va jozibali nom tanlashda ham namoyon bo‘ladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini restoran, bar, kafe, oshxona, gazaxona kabi xizmat ko‘rsatish turlariga bo‘linadi. Nomning ixtisoslashuvi kompaniyani raqobatchilar uchun muvaffaqiyatli joylashtirishga imkon beradi va aniqlovchi xususiyatga ega shartlar soni doimiy ravishda yangilari bilan almashtirib turiladi, masalan, restoran biznesi korxonalarini nominatsiya qilish sohasida ko‘plab murakkab atamalar mavjud: restoran-bar, bar-restoran, restoran-kafe-bar, ekspress restoran, restoran-bistro va boshqalar.⁴

Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘p sonli chet tilidagi ergonimlarni kuzatish mumkin. Ergonimlariga xorijiy til elementlarini kiritish usulini aniqlashda E.S.Butakova tadqiqotida taklif qilingan tasnifga tayanishni ma‘qul ko‘rdik.

Nomlarning birinchi guruhi, aslida, xorijiy servisonimlar va emporonimlar hisoblanib, ular butunlay boshqa tildan o‘zlashgan birliklardir. Ergonimlarning ushbu turida ikkita kichik guruhni ajratish mumkin:

1. Xorijiy kiritmalar – o‘zbek tili tizimiga kirmaydigan, singmagan, ehtimol, hatto adresatga tanish bo‘lmagan so‘zlar va so‘z birikmalari. Bu nomlar har doim ham yetarli darajada assotsiativ moslikka ega emas va informativlik funksiyasini bajara olmaydi. Servisonimlar orasida, ayniqsa, go‘zallik sanoatida bunday nomlar juda ko‘p. Bular sataroshxonalar, tirnoq studiyalari, go‘zallik salonlari, spa-salonlar, massaj xonalari, tanani shakllantirish studiyalari va boshqalar nomlari: «Paradise» (inglizcha jannat), «Beauty» (inglizcha go‘zallik), «Violet» (inglizcha binafsha), «Family» (inglizcha oila), «Image» (inglizcha qiyofa), «L’ambre» (fransuzcha qahrabo), «Black and White» (inglizcha “Qora va oq”).

Ushbu nomlarning aksariyati ijobiy assotsiativlarni keltirib chiqaradi (“Big Ben” – inglizcha sayohat uslubi bilan assotsiativ; «Wow» – ishlab chiqarilgan effektning belgisi) va chet tilini bilish sharti bilan informativ funksiyani bajaradi: «Make up room» (ing. bo‘yanish xonasi), «Elite style» (elita uslubi), «Brutal Barbershop» (inglizcha shafqatsiz sataroshxonalar). Shu bilan birga, assotsiativ moslashuvchanlik, shuningdek, informativlik darajasi shubhali bo‘lgan nomlar ham bor, masalan, «Tori-Hamster» go‘zallik saloni (inglizcha Tori-Homyak). Ko‘pgina hollarda, chet tilidagi kiritmalar ingliz tilidan, bir qismi fransuz tilidan olingan.

¹ Курбанова М.Г. Эргонимы современного русского языка: семантика и прагматика. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук, Волгоград, Астраханский государственный университет, 2015, с. 11.

² Ларина Т.В. О концептуализации в области эргонимии [электронный ресурс]. URL: <http://zenjaminsina.eu/univer/69.pdf>.

³ Спивакова Е.М. Иноязычные элементы в эмпоронимах и сервисонимах Биробиджана. Вестник Приамурского государственного университета им. Шолом-Алейхема, № 2 (39), 2020, с. 98.

⁴ Безрукова Н.Н. Актуальные вопросы эргонимии: переводческий аспект (на примере перевода наименований предприятий алтайского края). Язык. Культура. Перевод. Коммуникация. Сб. науч. тр., М., Тезаурус, 2015, с. 306 – 311.

2. Kiritilgan nomlar tarkibidagi soʻzlar oʻzbek tiliga oʻzlashmagan nom taraqqiyotining qaysidir bosqichida tashqi manbalardan olingan, ular manba tilida shakl va semantik assimilatsiya bosqichlarini bosib oʻtib, nom sifatida onimlar tizimining bir qismiga aylangan soʻzlardir. Bu nomlar oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar tomonidan xorijiy soʻzlar sifatida qabul qilinmaydi, ular faqat informativlik funksiyasini bajaradilar. Bizning materialimizda bunday birliklar juda koʻp. Ularning manbalari, xorijiy kiritmalardan farqli oʻlaroq, yanada xilma-xildir. Biz turlicha kelib chiqish xususiyatiga ega birliklarini uchratdik:

- fransuzcha: «Voyaj», «Stellaj», «Kapriz», «Jasmin»;
- inglizcha: «Glamur», «Kreativ»;
- polyakcha: «Kuxni», «Persona», «Amazonka»;
- nemischa: «Original», «Galereya»;
- yunoncha: «Evrika», «Feniks», «Stil», «Angel»;
- lotincha: «Produkt», «Solyar»;
- shvedcha: «Viking»;
- gollandcha: «Apelsin»;
- bolgarcha: «Shark» va boshqalar.

Koʻp tarkibli nomlar turli tillardan olingan oʻzlashmalarni oʻz ichiga olishi mumkin: «Парикмахерская на Шалом» – nemischa soʻz va ibraizm.

Ikkinchi katta nomlar guruhi chet tili elementlari asosida ona tilida soʻzlashuvchilar tomonidan sunʼiy ravishda yaratilgan birliklardir. Ushbu onimlar orasida qoʻllanilgan usullarga qarab, bir nechta kichik guruhlarini ajratish mumkin.

1. Xorijiy soʻzlarning sintaktik va morfologik xususiyatlarini hisobga olmasdan, faqat lugʻaviy maʼno asosida birikishi: «Beauty Nail Lab» (inglizcha chiroyli, tirnoq, laboratoriya), «Angel Art» (inglizcha angel, sanʼat), «Beauty Life» (inglizcha goʻzal hayot).

2. Chet tili morfemalardan neologizmlar yasalishi. Bu juda kam uchraydigan usul boʻlib, bu faqat «Giperavto» doʻkonining nomida kuzatildi.

3. «Transkripsiya» usuli – xorijiy soʻzni oʻzbek-lotin alifbosida yozish, talaffuzini esa oʻzbek tilida uzatish: «Resital» (fransuzcha yakkaxon konsert), «Estel» (fransuzcha yulduz), «Komilfo» (fransuzcha kerak boʻlganidek, qanday boʻlsa, shunday boʻlishi kerak), «Relaks» (inglizcha rohatlaning, spa-salon), «Laki geym» (inglizcha yaxshi oʻyin), «Shapel» (frantsuzcha shapka), «Dilayt» (inglizcha hayrat).

4. Teskari usul – «transliteratsiya». Ruscha nomlarni lotin grafikasida yoki xorijiy tilga tegishli nomlarni kirill grafikasida ifodalash: «Kukla», «Lisa», «Chernika», «Pilka», «Marafet», «Tabak», «Veshalka».

5. Gibrud usuli – mahalliy va chet tili elementidan yangi birlik hosil boʻlishi. Mavjud materiallarning tahlili bu usul, odatda, transliteratsiya bilan birlashishini koʻrsatdi: «Maki-studio», «Myata-studio», «Matreshka-studio», «Mafia Парикмахеров» – bularning barchasi goʻzallik salonlarining nomlari. Gibrud natijasida hosil boʻlgan nomlarning kirill alifbosida yozilishi holatlari ham uchraydi: «Hyra Бест» (davolovchi massaj xonasi).

6. Bitta grafemani parsellash va uni «alifbodagi kabi» oʻqishga asoslangan til oʻyini: «B-flexy», «S-tet». Tana shaklni toʻgʻrilash studiyasining birinchi nomidagi «B» harfi alifbodagi nomi kabi oʻqiladi [be] va butun nom «egiluvchan boʻl – moslashuvchan boʻl» iborasining omofoniga aylanadi. Ikkinchi misolda «S» harfi [es] alifbosidagi kabi oʻqiladi va butun nom «estet» soʻzining omofonidir.

7. Xorijiy soʻz va ruscha soʻzning bir qismining uygʻunligiga asoslangan til oʻyini: «BeerЛогa» (inglizcha «beer» – «pivo» «берлога» soʻzidagi «ber» boʻgʻini kabi eshitiladi); «ЗакуCity» (inglizcha «city» – «shahar» soʻzi ruscha «закусите» soʻzi kabi eshitiladi).

Servisonimlar va emporonimlarga xorijiy til elementlarini kiritish usullarini oʻrganish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi:

1. Globallashuv fonida nomda xorijiy til elementlaridan foydalanish til modasi tendensiyalaridan biriga aylandi. Tahlillar bunda inglizcha soʻzlar ustunlikka egaligini koʻrsatdi. Bu, shubhasiz, ingliz tilining ijtimoiy-iqtisodiy sohada global mavqega egaligi bilan izohlanadi.

2. Servisonimlar va emporonimlarga chet tili elementini kiritishning eng keng tarqalgan usullari oʻzlashtirilgan soʻz, chet tili kiritmalari, transkripsiya, transliteratsiyadir.

3. Nomlarga xorijiy til elementlarini turli oʻyin usullaridan foydalangan holda kiritish holatlari ham keng tarqalgan boʻlib, bu til tizimining ijodiy imkoniyatlarini toʻliq ochishga imkon beradi. Koʻpincha, oʻyin usuli rus va xorijiy til birliklarining uygʻunligiga asoslanadi.

Siddiqova Shoxida Isoqovna (Jizzax davlat Pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti dotsenti)
O'ZINIKI BO'LMAGAN KO'CHIRMA GAPLAR SHAKLLANISHIDA ANTROPOTSENTRIK
OMILLAR

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar shakllanishida antropotsentrik omillar haqida fikr yuritiladi. Xususan, antropotsentrik nazariyaga ko'ra, ularning markazida inson turar ekan, tahlil qilinayotgan parchada, jumladan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda, hech bo'lmasa, personaj shaxsiyati bilan bog'liq uslubiy belgi yoki subyektiv modallik ifodalovchi shakliy ko'rsatkichlar bo'lishi lozim. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni o'zga gapga yaqinlashtiruvchi xususiyatlardan biri shuki, unda nutq subyeksi va fikrlar uchinchi shaxsda ifodalanadi, fe'lining shaxs shakllarining o'zgarishi bilan karakterlanadi. Qolgan hamma shakllar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni ko'chirma gapga yaqinlashtiradi.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются антропоцентрические факторы в формировании несамостоятельных цитат. В частности, согласно антропоцентрической теории, поскольку в центре их находится человек, в анализируемом отрывке, в том числе и несобственной прямой речи, должны быть как минимум стилистические признаки или субъективная модальность, связанные с личностью персонажа. Одной из особенностей, сближающих несамостоятельные предложения с другими предложениями, является то, что подлежащее речи и мысли выражаются в третьем лице, характеризующемся изменением лицевых форм глагола. Все другие формы приближают не требующее пояснений предложение к абстрактному предложению.*

***Annotation.** This article discusses anthropocentric factors in the formation of non-self quotations. In particular, according to the anthropocentric theory, as long as a person is at the center of them, in the analyzed passage, including non-own quotations, there should be at least stylistic signs or subjective modality related to the personality of the character. One of the features that bring non-self-explanatory sentences closer to other sentences is that the subject of speech and thoughts are expressed in the third person, characterized by the change of person forms of the verb. All other forms bring the non-self-explanatory clause close to the abstract clause.*

***Kalit so'zlar:** o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar, antropotsentrik nazariya, kommunikatsiya jarayoni, grammatik-stilistik xususiyatlar, nutqiy maydon.*

***Ключевые слова:** несобственная прямая речь, антропоцентрическая теория, коммуникативный процесс, грамматико-стилистические особенности, речевое поле.*

***Key words:** quotations that are not one's own, anthropocentric theory, communication process, grammatical-stylistic features, speech field.*

Badiiy matnda asar mazmunini ochishga, personajlar karakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor bu gaplardan o'rinni foydalana olishi bilan o'z ijodi mahsuli bo'lgan asar tilining ifodali va ta'sirchanligini ta'minlashga erishadi. Badiiy matnlarda qo'llanilgan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar so'zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshirishini ta'minlashdan tashqari tasvirlangan nutqiy vaziyat, unda ishtirok etuvchilarning ruhiy holatini o'quvchi ko'z o'ngida aniq gavdalaniradi, kitobxonda ularga nisbatan ma'lum bir subyektiv munosabat uyg'onishiga asos bo'ladi. Tabiiyki, badiiy matnda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar sezilmas darajada bo'ladi. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar tasvirlanayotgan personaj karakter-xususiyatlarini, voqelik faktlariga munosabatini ochib berishda tildagi mavjud vositalarga asoslaniladi va u lisoniy tavsifga ko'ra, muallif gapiga mos kelishi kuzatiladi. Muallif tomonidan ongli ravishda matnga kiritilgan va uslubiy vosita sifatida ishtirok etuvchi sintaktik birlikning o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap sifatida qaralishi uchun quyidagilarning bo'lishi talab etiladi:

- badiiy matnlarda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni uslubiy maqsadda qo'llashda tasvirlanayotgan personaj va uning kognitiv-pragmatik imkoniyatlari doimo e'tiborda bo'ladi;
- tahlil qilinayotgan matn va tasvirlanayotgan personaj shaxsiy xususiyatlari: uning voqelikni idrok qilishi, o'y-kechinmalari, fikr ifodalash imkoniyatlari o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi;
- badiiy matnda, albatta, tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, manzaralar insonga bog'liq holda o'z badiiy talqiniga ega bo'ladi.

Antropotsentrik nazariyaga ko'ra, ularning markazida inson turar ekan, tahlil qilinayotgan parchada, jumladan, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarda hech bo'lmasa, personaj shaxsiyati bilan bog'liq uslubiy belgi yoki subyektiv modallik ifodalovchi shakliy ko'rsatkichlar bo'lishi lozim. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarni o'zga gapga yaqinlashtiruvchi xususiyatlardan biri shuki, unda nutq subyeksi va fikr-

lar uchinchi shaxsda ifodalanadi, fe'ning shaxs shakllarining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Qolgan hamma shakllar o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni ko'chirma gapga yaqinlashtiradi.

– sintaktik sathda: yaqin deysis, so'roq, undov, qisqa, parselativ gaplar, murojaatlarning, yuklama, undovlarning qo'llanishi;

– grammatik-morfologik sathda: fe'ning grammatik shakllari (zamon, mayl);

– leksik sathda: kirish-modal, emotsional-ekspressiv, baholovchi so'zlar, shuningdek, alohida personajlarga xos bo'lgan leksika.¹

Umuman olganda, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplar badiiy matnda asar mazmunini ochishga, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini obrazli tarzda ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkor o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi bilan o'z ijodi mahsuli bo'lgan asar tili-ning aniq va tushunarli, ifodali va ta'sirchanligini hamda estetik imkoniyatlarini ta'minlashga erishadi. Ma'lumki, o'zganing gapi ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap oralig'idagi holatlarda ifoda etiladi. Bunday o'rinlarda o'zganing o'y-kechinmalari, fikrlari muallif gapisiz ko'chirilganda so'zlovchi ishtirok etmaydi, balki muallif ko'chirma gapdagi so'zlovchi sifatida qatnashadi. Bu tilshunoslikda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap nomi bilan ataladi. Zero, badiiy matnda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap o'zga gapni ifodalashning eng samarali usullaridan sanalishi ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan qayd etilgan. Badiiy asarlarda boshqa sintaktik birliklar singari o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapning ham badiiy usul sifatida o'rni bor.

Badiiy asar tadqiqi bo'yicha monografik aspektda izlanish olib borgan tilshunos M.Yo'ldoshev badiiy matn estetik maqsad bilan tildan o'ziga xos tarzda foydalanish mahsuli sifatida yuzaga keladigan murakkab nutqiy butunlik bo'lganligidan uning ma'nosini tushunish o'quvchi uchun anchayin murakkab ijodiy jarayon ekanligini ko'rsatadi.² Shu bois o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapdan zamonaviy o'zbek adabiyotining eng sara asarlarida qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda keng qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, adib Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanida Akbarning ichki kechinmalari, taqdirning unga nisbatan qilgan adolatsizligiga munosabatini yoritishda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapdan nihoyatda o'rinli foydalanilgan. E'tiborimizni asardan olingan parchaga qaratamiz: *"Akbar esa o'zini qo'yarga joy topolmay, o'tirgan o'rnini jon-jahdi bilan mushlagandi. So'ng yana shu yerda hammaning ko'z o'ngida, ayniqsa, o'z o'quvchilarining savolga to'la nigohlari oldida ikkala qo'lga kishan solib yetaklab ketishgandi. Akbar haligacha shuning alamzada yashayapti. U o'ylanardi, o'ylanardi-da, o'ziga-o'zi "nega, nega?" deya savol beraverardi. Negaligini bilmasmidi?.. Bilar edi, bilardi-da, haddidan oshgan, haddidan oshgani nimasi, insonlik qiyofasini yo'qotib, o'z o'qituvchisini hammaning oldida haqorat qilishga botingan o'quvchini yaxshi gap bilan tartibga chaqirishga urinib, lekin urinishlari behuda ketganidan ta'sirlanib...o'zini qo'lga ololmay bexosdan tushirgan bir tarsakisi evaziga uch yil qamoq muddati belgilashganini hazm qilolmay qiynalardi...".* Adib Akbarning taqdir zarbalari oldida ba'zan ikkilanib, ba'zan tushuniksiz hissiyotlar girdobida qolganida o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni mohirona qo'llagan. Yuqorida keltirilgan matnda so'zlovchi nomidan muallifning o'zi gapiradi. Uning gapi hech bir o'zgarishsiz semantik, grammatik, leksik xususiyatlari deyarli saqlangan holda keltiriladi. Bu jihatdan u ko'chirma gapga o'xshab ketadi. Biroq parchada keltirilgan gap kimga xosligini ko'rsatuvchi muallif gapining yo'qligi bilan ko'chirma gapdan farq qiladi. Shu bilan birga, muallif gapining to'la bo'lmasligiga ko'ra, o'zlashtirma gapga o'xshasa-da, matnda leksik, grammatik xususiyatlar ma'lum darajada saqlanganligi bilan undan ajralib turadi. Shu sababdan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap o'zlashtirma gap va ko'chirma gap oralig'idagi sintaktik birlik hisoblanadi.³

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotida asar qahramonlarining qalb kechinmalari to'laroq ifodalanayotganligi, psixologik asarlarning ko'plab yaratilayotganligi badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblangan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapni ustalik bilan qo'llash natijasidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek yozuvchilari personajlarning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini, xarakter-xususiyatlarini kitobxon bilan yanada yaqinroq tanishtirish maqsadida o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapdan unumli foydalanib, qahramonlar tilidan o'zlari so'zlaydilar, asardagi voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu bilan birga, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gapda badiiy asar qahramonining o'y fikrlari, g'am-tashvishla-

¹ Беличенко Е.Е. Несобственно – прямая речь в языке художественной литературы (на материале анималистической прозы). Автореф. канд дисс..., Санкт-Петербург, 2006.

² Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Тошкент, "Фан", 2008.

³ Решетов В.В., Иброҳимов С.И., Турсунов У.Т., Камолов Ф.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II қисм. Синтаксис, Тошкент, 1966.

ri, mulohazalari muallif nigohidan o'tkaziladi va muallif nutqi bilan qahramon o'y-fikrlari aralash holda namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotda bunday gaplarning voqelanishi bilan inson xarakter va psixologiyasi boshqa lingvostilistik vositalarga nisbatan mukammalroq ifodalanadi. Masalan: *“–Tavba, – deb o'ylardi u ikkinchi infarktdan sal-pal o'ziga kelgan kezi, – bir oyog'im uyda, boshqasi kasalxonada bo'pqoldi-yu... Omonatni topshiradigan vaqt yaqinlashganga o'xshaydi. Xo'sh, odatda, bunday paytlarda nima qilinardi?.. Vasiyatmi? Dunyo bilan hisob-kitob. Uni bunga, buni unga degandek bozorlik. So'nggi bozorlik! Xo'sh, menda vasiyat qiladigan nima bor o'zi? Shu bir hovli, bog'... va qushlar... Ha, domda ham bitta uy bor edi... Balki biroz shoshayotgandirman, axir infarktdan keyin o'n besh, yigirma yil umr ko'rgan odamlar haqida yozishyapti-yu... Shunday deb o'ylardi-yu, lekin Muhammadjon akaning ko'ngli negadir g'ash, u nimanidir – tushuniksiz kimningdir yaqinlashib kelayotganini sezgansimon bezovta edi...”* (Ulug'bek Hamdam. “Muvozanat”).

Shu o'rinda yana bir holatni qayd etish lozim. Bugungi kun o'zbek tilshunosligida matn lingvopoe-tikasida bo'lgan e'tibor tobora ortib borayotganligi hech kimga sir emas. Badiiy asar tilini tahlil qilish va matn birliklarini aniqlash yozuvchi uslubiga baho berishni keltirib chiqaradi.

B.Yo'ldoshev o'zining “O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap grammatik-uslubiy kategoriya sifatida” nomli monografiyasida badiiy matnlarda o'zga gaplarning tutgan o'rni va vazifasi to'g'risida quyidagicha fikr yuritadi: Badiiy nutq uslubining uziga xos xususiyati tilning estetik ta'sir etish vazifasi bilan uzviy bogliq holda yuzaga chiqadi. Badiiy nutq uslubi mualliflarga asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik, frazeologik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan yangi ifoda-tasvir vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy nutq uslubida til vositalari obraz, xarakter va manzaralar yaratish uchun xizmat qiladi. Badiiy nutq o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funksional uslublaridan ajralib turadi. Badiiy nutq uslubida keng qo'llanadigan o'zga gap shakllari, jumladan, O'BKG ham ana shunday obrazlilik uchun, xarakter va manzaralar yaratish uchun bevosita bo'ysundirilgan bo'ladi.¹ Ma'lumki, o'zga gaplar badiiy matnlarda ifodalangan mazmun bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijodkor tildagi ko'chirma, o'zlashtirma yoki o'ziniki bo'lmagan gaplar vositasida betakror obrazlar, insoniy munosabatlarni aks ettirgan badiiy tasvirlar yaratadi. O'quvchi badiiy matn vositasidagina o'zini o'rab turgan voqelikni badiiy-estetik idrok qilish imkoniga ega bo'ladi. Badiiy matn esa ijodkor tomonidan to'g'ri tanlangan til birliklari vositasida inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi kuchga aylanadi. Demak, badiiy matnlarda ma'lum bir uslubiy vazifani bajarishga xoslangan boshqa birliklar kabi o'zga gaplar ham muallif uchun obrazlar yaratishning, ularning nutqini individuallashtirishning asosiy vositalaridan biridir. Muallif o'zga gaplarsiz kitobxonni asar mazmuni bilan tanishtira olmaydi, asarda ishtirok etuvchi personajlar o'rtasidagi munosabatlarni, so'zlovchining nutq qaratilgan shaxsga, voqea-hodisalarga munosabati va bahosini aks ettira olmaydi. Shuning uchun badiiy adabiyotda ijodkorlar o'zga gaplardan aniq, o'rinli foydalanishga harakat qiladilar.

Asar muallifi o'quvchini mavzu mohiyati bilan tanishtira borar ekan, voqea-hodisaning badiiy tarzda tez va oson tushunarli bo'lishi uchun bir qator obrazlar yaratadi va ular orasidagi turli aloqalarni ko'rsatish barobarida ularni ijobiylik yoki salbiylik nuqtayi nazaridan baholaydi. Ana shundan kelib chiqib, badiiy matnlarda muallifning subyektiv munosabatiga bog'liq holda yuzaga kelgan obrazlar galereyasi hosil bo'ladi. Badiiy matnlarda muallifning o'zi tomonidan yaratilgan obrazga va shu orqali turli shaxslar, jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga munosabati asar qahramonlari tilida qo'llanuvchi o'zga gapning turli ko'rinishlari vositasida namoyon bo'ladi. Muallif badiiy matnda tasvirlangan voqealar jarayonida personaj xatti-harakatlarini bayon qilish asnosida unga nisbatan o'quvchida ma'lum bir his-tuyg'u ham uyg'ota boradi, insoniy munosabatlar, ziddiyatli voqealar shiddat bilan kechayotgan ayrim o'rinlarda personajning mazkur voqealar tizimida tutgan o'rni, o'y-fikrlarini, xatti-harakatlarini batafsil ifodalaydi, unga o'z munosabatini o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap shaklida beradi va bu bilan o'quvchini ham munosabat bildirishga, o'ylashga undaydi.

Toshboev Bahrom Saidkulovich (SamDU filologiya fakulteti “Tojik filologiyasi va xorijiy Sharq tillari” kafedrasining ikkinchi bosqich tayanch doktoranti; e-mail: bahromsaidkulovich@gmail.com)
X–XIII ASRLARDA FORS-TOJIK TILIDA YARATILGAN TARIXIY ASARLARDA ERONIY TILLARGA MANSUB TOPONIMLAR ETIMOLOGIYASI

¹ Йўлдошев Б. Ўзиники бўлмаган кўчирма гап грамматик-услубий категория сифатида. Т., 2015, 37-бет.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy asarlarning tilshunoslik tahlillaridagi ahamiyati, leksik birliklar etimologiyasini o'rganishda muarrixlarning fikrlari, qadimgi joy nomlarini o'rganishda ilmiy manbalardagi qaydlarning ahamiyatlilik va ilmiylik darajasi xususida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение исторических трудов в лингвистическом анализе, мнения историков при изучении этимологии лексических единиц, значение и научный уровень примечаний в научных источниках при изучении древних топонимов.

Annotation. This article discusses the significance of historical works in linguistic analysis, the opinions of historians in the study of the etymology of lexical units, the significance and scientific level of notes in scientific sources in the study of ancient toponyms.

Kalit so'zlar: "Tarixi Tabariy", "Tarixi Bayhaqiy", "Forsnoma", "Zayn ul-axbor", "Tarjumayi Tarixi Yaminiy", "Tarixi Buxoro", leksik birlik, onoma, toponim, tarixiy asarlar.

Ключевые слова: «Тарихи Табару», «Тарихи Байхаки», «Форснама», «Зайн уль-ахбар», «Тарджумай тарихи Ямини», «Тарихи Бухара», лексическая единица, онома, топоним, исторические произведения.

Key words: "Tarihi Tabari", "Tarihi Bayhaqi", "Forsnoma", "Zain ul-akhbar", "Tarjimai Tarikhi Yamini", "Tarihi Bukhara", lexical unit, onoma, toponym, historical works.

Tilshunoslik ilmida toponimiya, toponimika atamallari mavjud bo'lib, har ikkala mafhumning asosi grek tiliga mansub "topos – joy, makon" va "onoma – nom" ma'nolaridan kelib chiqqan. Toponomiya mohiyatan geografik joy nomlarining umumiy nomlanishi bo'lsa, toponimika leksikologiya bo'limining bir sohasi sifatida joy nomlarining ilmiy tadqiqi, yaralish manbalari, etimologiyasi va tarixiy o'zgarishlari, bugungi holati, leksik-semantik xususiyatlari, grammatik tuzilishi, talaffuzi va yozilishi haqida bahs yuritadi.

Toponimlar, asosan, tilda mavjud leksik birliklar zaminasida vujudga keladi. Shu sababdan ular tilshunoslikning tarixiy grammatika, adabiy til tarixi, shevashunoslik va boshqa bo'limlari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuningdek, har bir joy nomining o'z qismati mavjud bo'lib, ular o'zlarida xalq tarixi bilan bog'liq muhim hodisalarni saqlab turadi. Bu jihatdan toponimlar o'rganilishi xalqlar va millatlar o'tmishi bilan bog'liq ko'pgina tugunlarning yechimi hisoblanadi. Bunga qo'shimcha toponimlarni o'rganish jarayonida ko'pgina siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, ziroatchilik va boshqa sohalariga doir terminlar tadqiq qilinadi. Ya'ni, joy nomlarining kelib chiqishi qayd etilgan sohalar bilan ham bog'liq bo'lib, toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik ilmining bahs mavzusi, balki ko'pgina boshqa sohalar tadqiqi uchun zarur obekt vazifasini o'taydi.

Toponimlar – kichik yoki katta geografik hududning tarixiy hodisalar bilan bog'liq holda vujudga kelgan nomi. Joy nomlari geografiya, tarix va tilshunoslikning etimologiya sohasining asosiy bo'limlaridan bo'lib, tarixiy asarlarda eng ko'p uchraydigan leksik birliklar ham bevosita joy va shaxslar nomlari bilan bog'liq bo'ladi.

Tarixni joy nomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. tabiiyki, har bir voqea-hodisa bayoni asnosida bir qancha mikro va makrotoponimlar tilga olinadi. Bu toponimlarning ayrimlari aynan shu voqea zamirida vujudga kelgani – yaratilgani, nomlangani, qayta nomlangani bois ularning etimologiyasi haqidagi dailillar tarixiy voqea-hodisa bayoni asnosida vujudga keladi. Toponimlar, ko'pincha, lug'aviy ma'noga bo'ysunmaydigan leksik birlik bo'lganligi bois ularning sharhini lug'at asarlarida uchratish mushkul. Ayniqsa, XX asrgacha bo'lgan tilshunoslik ilmida toponimika yo'nalishi deyarli rivojlanmagan va geografik hududlar nomlari tarixiy manbalar va "Hudud ul-olam" kabi ayrim geografik xarakterga ega asarlarda "jon saqlagan"i ma'lum.

XX asrning 60-yillaridan tilshunoslik ilmida toponimika sohasi rivojlanib, har bir katta va kichik geografik hududlarning nomlarini o'rganish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu borada rus olimlaridan S.I.Klimchitskiy, A.L.Xromov, O.I.Smirnova, T.N.Paxalina, D.I.Edelman, A.Z.Rozenfeld, A.A.Frayman, V.A.Malitskiy, N.G.Livshits, M.I.Bogolyubov, M.I.Stebelin-Komenskiylar, tojik toponimshunoslaridan R.X.Dodixudoyev, O.G'afurov, Sh.Ismoilov, A.Hasanzoda, D.Homidov, A.Nasriddinov, B.Turayev, A.Abdunabiyev, J.Alimiy, N.Ofaridayev, S.Sulaymonov, S.Nazarzoda, M.Shodiyev, M.Ayubova, S.Abdulloeva, S.Qurbonmamadov, S.Sheraliyeva, E.Davlatov, J.Temurov, F.Davlatova, O.Mahmadjonov, A.Abdunabiyev va boshqalar, o'zbek muhaqqiqlaridan T.Nafasov, Sh.M.Qodirova, Z.Do'simov, T.Rahmatov, A.G.Karimova, K.Abdimurodovlar kabi soha tadqiqotchilarining ilmiy asarlari, maqolalari va dissertatsiya ishlarida O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston va Tojikistonning qator hududlari toponimikasi o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda, tadqiq etilishi lozim bo'lgan masalalar, yaxlit toponimlar lug'atini yaratish muammosi sohada qator tadqiqotlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Toponimlarni tadqiq qilish o'ziga xos metodlar asosida amalga oshirilib, bu borada ta'rixiy tahlil, etimologik tahlil metodlari joy nomlari haqiqatini ularning yaralish davri, siyosiy va ijtimoiy vaziyat, mahalliy xalq tilining leksik xususiyatlari asosida o'rganish imkonini beradi. Bu o'z-o'zidan toponimshunos olimning o'tmish manbalariga, xususan, tarixiy asarlarga murojaat qilishini taqozo etadi.

Tarixi o'tmish zamonlarga borib taqaladigan joy nomlari etimologiyasini o'rganishda X–XIII asrlarda fors-tojik tilida yaratilgan tarixiy asarlarning ahamiyati juda katta. Bu tarixiy asarlarga bir jihatdan xalqlarining dunyo yaralishidan to XIII asrgacha bo'lgan rivoiy va tarixiy davrlarini yoritishda bizgacha yetib kelgan juda muhim manba sifatida qaralsa, boshqa tomonlama muarrixlarning toponimlar etimologiyasiga doir qarashlarning aksariyati hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ilmiy asoslangan ma'lumotlardan hisoblanishi bilan ahamiyatlidir.

X–XIII asrlarda fors-tojik tilida yozilgan “Tarixi Tabariy”, “Tarixi Bayhaqiy”, “Forsnoma”, “Zayn ul-axbor”, “Tarjumayi Tarixi Yaminiy”, “Tarixi Buxoro” kabi asarlarda 50 ga yaqin toponimlarning etimologik izohi keltirilgan bo'lib, biz ularni eroniy tillarga mansub toponimlar (26 ta), arab tiliga mansub toponimlar (18 ta) va boshqa tillarga mansub toponimlar (3 ta) shaklida tahlil qildik.

Tarixnomalarda kelib chiqishi hamda leksik ma'nolari yoritilgan eroniy tillarga mansub toponimlarni geografik hududlarni ifodalashiga ko'ra qishloq, shahar, mamlakat, ariq, tog' nomlariga, tuzilish jihatidan sodda, sodda yasama, qo'shma hamda birikma shaklidagi nomlarga, shuningdek, nomlanish asoslari va etimologiyasi jihatidan shaxs nomlaridan tashkil topgan toponimlar, so'zning lug'aviy ma'nosi asosidagi toponimlar, qavm-millat nomi bilan bog'liq toponimlar, voqea-hodisalar asosida yuzaga kelgan toponimlarga bo'lish mumkin.

Fors-tojik muarrixlari tomonidan tahlil qilingan Ganafa, Anbor, Zarang, Zovul, Zobin, Harora, Nimro'z, Navband, Ko'hi Qoran (Qoran tog'i) kabi eroniy tillarga mansub joy nomlari haligacha o'rganilmagan va etimologiyasi haqida ilmiy xulosalar berilmagan toponimlar sirasiga kiradi. Shu jihatdan tarixnomalardagi bu joy nomlari haqida fikrlarga birinchi darajali va yagona manba sifatida qaraladi.

Hamukat (Jamukat), Shofirkon, Jo'yi Mo'liyon, Romush nomlari xususida barcha tadqiqotlarda “Buxoro tarixi”dagi ma'lumotlar ilmiy dalil sifatida qabul qilinib, barcha manbalar va ilmiy tadqiqotlarda mazkur geografik hududlar sharhida Narshaxiydan iqtibos keltiriladi. Shuningdek, Dorob, Kaygird, Haftoshyon, Jande Shopur, Eronshahr, To'ron haqidagi etimologik xulosalarning tarixnomalarda keltirilgan dalillar bilan o'zaro mosligi va ulardagi tahlillardan lisoniy tadqiqotlarda keng foydalanilganligi muarrixlarning eroniy tillarga mansub toponimlar xususidagi qarashlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Haligacha bahslarga sabab bo'lib kelayotgan Samarqand, Ozarboygon (Ozarbayjon), Balx toponimlari xususidagi yangi tadqiqotlar tarixchilar fikrlarini rad qilsa-da, qiyosiy qarashlarda bu nazariyalardan keng foydalanishadi.

Shu bilan bir qatorda, X–XIII asrlarda yaratilgan fors-tojik tarixnomalarida boshqa asarlarda uchramaydigan Janobo – (“Forsnoma”), Ko'hi Qoran (“Ta'rix Tabariy”) kabi eroniy tillarga mansub toponimlari haqida, shuningdek, tilshunoslarning tahlillari bilan o'zaro mos keladigan Haftoshyon, Dorob, Kaygird, Navband, Jande Shopur, Bumishoh (Shohbum) toponimlari etimologiyasiga doir qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Sanalgan joy nomlaridan Bumishohni bodiy tiliga mansub sanalishi (aslida, fors-tojik tiliga mansub) va Jande Shopurning Shopurning Antoqiyesi (Jundishopur – Antoqiyan yaxshiroq) mazmunida izohlanishi bugungi tadqiqotlar bilan mos kelmaydigan kichik tafovutlardir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, toponimshunoslikda joy nomlarini tarixiy-qiyosiy metod asosida o'rganish muhim talab ekan, fors-tojik tillarida bitilgan tarixiy asarlar O'rta Osiyo, Arab mamlakatlari va dunyoning turli go'shalari nomlarini o'rganishda katta ahamiyatli manba sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ularning ayrim toponimlar haqida ma'lumot beruvchi birinchi yo yagona manbaligini, qolaversa, ba'zi toponimlar nomlanishi bu asarlar bitilgan davrlarga to'g'ri kelishini inobatga olsak, bu ahamiyatlilik darajasi yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bal'ami A. Ta'rix Tabari. 2 jild, Tehron, “Zamon”, 2001.
2. Gardezi A. Zayn u-l-axbor. Dushanbe – Buxoro, 2014.
3. Zehni T. Az tarixi leksikai zaboni tojiki (tojik tili leksikasi tarixidan). Dushanbe, “Donish”, 1987.
4. Zehni T., Kapranov A. va digaron. Farhangi zaboni tojiki. 1–2-jild, Moskva, Советская энциклопедия, 1969.
5. Nazarzoda S., Sanginov A. va digaron. Farhangi tafsirii zaboni tojiki. 1–2-jild, Dushanbe, Pajo'hishgohi zabon va adabiyot ba nomi Ro'daki, 2008.
6. Narshaxi. Ta'rix Buxoro – Dushanbe, “Donish”, 1979.

7. Narshaxiy. Buxoro tarixi (o'zbek tilidagi tarjimasini). Toshkent, "Fan", 1966.
8. Расторгува С.В., Еделман Д.И. Этимологический словарь иранских языков. 1–6-томлар, Moskva, «Восточная литература», 2000 – 2015.
9. Ta'rixi Siston (mullifi noma'lum). Dushanbe – Buxoro, 2014.
10. Qorayev S. Toponimika. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
11. G'afurov B. Tojikon. 1–2-kitob, Dushanbe, 2008.
12. G'iyosuddin M. G'iyos ul-lug'ot. 1–2-jildlar, Dushanbe, "Adib", 1987, 1988.
13. Hudud ul-olam (mullifi noma'lum). Dushanbe – Buxoro, 2014.

**Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinovna (Qo'qon davlat Pedagogika instituti professori, f.f.d. (DSc)
TERMINLAR VA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING O'ZIGA XOSLIKLARI**

Annotatsiya. *Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro munosabati, ya'ni, tilda madaniyatning namoyon bo'lishi, aksincha, madaniyatning til orqali voqelanishi masalasini o'rganuvchi antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil fan tarmog'i hisoblanadi. Maqola doirasida mahoratli yozuvchi til qonuniyatlardan foydalanib, terminlarga ham lingvokulturologik vazifa yuklay olishi misollar yordamida tahlil qilinadi. Ana shunday mulohazalar maqolada ilmiy jihatdan asoslangan.*

Аннотация. *Лингвокультурология – это независимый раздел антропоцентрической лингвистики, изучающий отношения между языком и культурой, то есть проявление культуры в языке и, наоборот, выражение культуры через язык. В рамках статьи опытный писатель может проанализировать закономерности языка, пользуясь которыми может сформулировать лингвокультурологическую задачу и соответствующие термины, используемые в качестве единиц лингвокультуры, отражающих национальную культуру и самобытность. Выводам в статье дается научное обоснование.*

Annotation. *Linguoculturology is an independent branch of anthropocentric linguistics that studies the relationship between language and culture, i.e., the manifestation of culture in language, and vice versa, the expression of culture through language. As a result, the term serves as a linguoculture, reflecting the national culture and identity specific to the nation. Such considerations are scientifically based in the article.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, antropotsentrik tilshunoslik, badiiy matn, lingvomadaniy birliklar, milliy-madaniy qadriyatlar, til birliklari.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, антропоцентрическая лингвистика, художественный текст, лингвокультурные единицы, национально-культурные ценности, языковые единицы.*

Key words: *linguoculturology, anthropocentric linguistics, literary text, linguocultural units, national-cultural values, language units.*

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro munosabati, ya'ni, tilda madaniyatning namoyon bo'lishi, aksincha, madaniyatning til orqali voqelanishi masalasini o'rganuvchi antropotsentrik tilshunoslikning mustaqil fan tarmog'i hisoblanadi. Bu haqda fikr yuritir ekan, professor N.Mahmudov "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiyaning mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanib borayotganligini e'tirof etadi va bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolarni ko'rsatib beradi (1.3–16).

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham til birliklarini lingvomadaniy aspektda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, D.Xudoyberganovanning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli monografiyasida o'zbek tilidagi badiiy matnlar lingvokulturologik aspektda tahlil qilinib, xalq madaniyati, milliy-madaniy qadriyatlarning matnda aks etishi masalasi yuzasidan qimmatli xulosalar bayon etildi (2).

Darhaqiqat, badiiy matn muayyan xalqning milliy-madaniy qadriyatlari, urf-odat, an'analarini tasvirlovchi lingvomadaniy birlik sanaladi. Yozuvchi tomonidan qo'llangan o'ziga xos o'xshatishli birliklar, metaforik ko'chimlar, maqol va matallar, iboralar, okkazonal qo'llanishlar matnda badiiylikni ta'minlash barobarida, milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirishi jihatidan lingvomadaniy birlik darajasiga ko'tariladi. Bunday matnlar o'zbek millatining madaniy qadriyatlari, tafakkur tarzi, voqelikka bo'lgan munosabatini ifoda etar ekan, ularni millatga xos milliy-madaniy xususiyatlarni o'zida saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi lingvomadaniy birliklar sifatida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida lingvomadaniy birliklar vazifasini tilning nafaqat leksik birliklari, balki bu xususiyatni o'zida aks ettirgan sintaktik birliklari ham bajara olishi mumkin.

Ma'lum bo'ladiki, har bir xalq dunyoni o'z "ko'zi" bilan ko'radi. Shu bois ularning tashqi olamni til vositasida aks ettirishida o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlanadi. Ayni shu joyda til birliklarining milliy-madaniy xoslanishi yuzaga keladi. Lingvokulturologiyada aynan shu turdagi til birliklari – lingvomadaniy birliklar (lingvokulturemalar) tadqiq etiladi.

Lingvomadaniy birliklar til sathining boshqa birliklaridan bevosita milliy-madaniy semaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ana shu belgisi bilan ular bir umumiylikka, ya'ni lingvomadaniy birliklarga birlashadi. Har bir tildagi ramzlar, mifologema, etalonlar, metaforik birliklar, iboralar, turg'un o'xshatishlar, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotip birliklar, pretsedent birliklar hamda nutqiy etiketlar lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Anglashiladiki, lingvokulturologiyada xalq madaniyati, an'ana va urf-odatlar, xalq mentaliteti, milliy ongi ifodasi bilan bog'liq bo'lgan maxsus birliklar tadqiq qiladi.

Lingvomadaniy birliklar semantikasida ma'lum bir xalqning urf-odat va an'analari, madaniyati, milliy tafakkur tarzi, tarixi, turmush tarzi, xo'jalik muhiti bilan tutash milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli lingvomadaniy birliklar hisoblangan maqol, matal, iboralar, o'xshatishli qurilmalar, ko'chma ma'nolarda qo'llangan birliklarni xalq madaniyati, urf-odatlar, an'analari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Til qonuniyati har bir til birligiga ma'lum bir vazifani yuklaydi, ularni ma'lum ma'no doirasida harakat qildiradi, ma'lum birliklar bilan bog'lanish imkoniyatini beradi. Har bir mahoratli yozuvchi ana shu qonuniyatlardan foydalanib, terminlarga ham lingvokulturologik vazifa yuklay oladi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvir vositalaridan foydalanib, ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolarni to'g'ri qo'llash asosida erishadi. Natijada termin lingvokulturema vazifasini bajarib, millatga xos bo'lgan milliy madaniyat va o'ziga xoslikni aks ettiradi. Masalan: *Qizi bor odam yuz qilmasa, "diplomatiya" qonun-qoidalarini buziladi* (T.Malik. "Shaytanat").

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *diplomatiya* terminiga quyidagicha izoh berilgan: "fran. "diplomate" – ikki buklangan varaq, hujjat. Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan va shunday ishlar uchun o'z hukumati tomonidan vakil qilib tayin etilgan lavozimli kishilar ishlaydigan soha va "biror maqsadga erishish yo'lida ustalik bilan olib borilgan muomala".

Berilgan misolda sovchilik qoidalarini diplomatiya qonun-qoidalariga nisbatlangan. O'zbek xalqining ko'p asrlilik milliy an'analarga ko'ra, sovchilik avloddan avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlardan biri hisoblanadi. Rasmiy diplomatik munosabatlar muayyan qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Ya'ni, diplomatiyada ikki mamlakat muammolarini hal etish uchun yig'ilgan diplomatlarning salomlashishidan tortib, xayrlashuviga qadar, muammolari, kulimsirashlaridan tortib, qosh chimirishlarigacha bo'lgan harakatlari aniq ishlab chiqiladi. Xuddi shunday, sovchilik marosimi ham uzoq yillardan beri bir qolipga tushgan aniq qoidalar asosida amalga oshiriladi. Sovchilikka borayotgan ayollar ham diplomatlarga o'xshab nima deyishni, qanday muomala qilishni oldindan rejalashtirib qo'yishadi. Bu qonun-qoidalar xuddi diplomatiya qonun-qoidalarini singari hech ham o'zgar olmaydi, qizi bor tomon kishilari ma'lum sharoitlarda nimalanidir o'ylab yon beradi, vaziyat taqozosi bilan quda taraf tomonidan qo'yiladigan talablarga ko'nadi. Shundan kelib chiqqan holda, yozuvchi asarda sovchilikka borgan ayollarning bir-biriga bo'lgan munosabatini ko'rsatish uchun diplomatiya terminidan foydalangan. Bunday qo'llanishda ushbu termin lingvomadaniy birlik vazifasini bajarib, milliy madaniyatning eng nozik jihatlarini namoyon qilishga yo'naltirilgan.

Xuddi shunday *elchilik* terminini ham badiiy matn tarkibida lingvomadaniy birlik sifatida qo'llanishi mumkin. Masalan: *Bolalar ham tabarruk deb yasantirib qo'yishgani bilan boyagidan ancha sipo tortib qolishgan, hech bir-birlaridan ajralmay ichkari bilan elchilik qilib turishardi* (M.Mansurov. "Judolik diyori"). *Salima begimning elchiligi ota-bola urushini faqat bir yilgina orqaga surganini, oradagi ixtilofning ildizlari juda chuqur ekanini, Akbar Oллоhobod isyonini bartaraf qilmay turolmasligini endi onasi va xotinlari ham tushunib qolishgan edi* (P.Qodirov. "Humoyun va Akbar").

Demak, biron-bir terminning lingvokulturologik qimmat kasb etishida terminning nafaqat qanday tushunchani ifodalashi, shu bilan birga, jumla semantikasi, nutq egasining xarakter-xususiyati hamda xalq lingvomadaniyatida qanchalik barqarorlashganligiga ham bog'liq ekan. Xalq lingvomadaniyatini teran tushungan ijodkorlar badiiy nutqni individuallashtirishda, adabiy obrazlarga milliy-madaniy bo'yoq berishda bundan unumli foydalanadilar.

Ma'lumki, og'zaki va yozma muloqot jarayonida turli leksik vositalar bilan ifodalangan xilma-xil murojaat birliklari qo'llaniladi. Ayniqsa, o'zbekona lutf va hurmat ma'nosining eng oliy namunasi ko'r-

satish maqsadida ijodkorlar maxsus leksikadan murojaat birliklari sifatida foydalanishadi. Natijada lingvopoetik maqsad hosilasiga aylangan bunday birlik o'zida lingvomadaniy xususiyatlarni ham namoyon qiladi. Badiiy asardan olingan quyidagi parcha fikrimizni isbotlaydi:

U yoqda bo'sh vaqt ko'p bo'larmish-ku. Shudgor tashvishi bo'lmasa, o'g'it deb, balo deb chopmasangiz.... A, domla, nima dedingiz? (E.A'zam. "Jannat o'zi qayerda").

Yuqorida keltirilgan misollardagi terminlar tahlili bilan bog'liq mulohazalarimiz so'ngida shuni ayta olishimiz mumkinki, sport terminlarining lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlari (boshqa sohalarning terminlarida ham) bitta lingvomadaniyatga, bitta kognitiv bilish tarziga aloqador emas, chunki aksar sport turlari jahon miqyosida amal qiladi, umumqabul qilgan terminlardan foydalaniladi. Aksar lingvomadaniyatlarda sport terminlari bilan bog'liq lingvokognitiv, lingvomadaniy xususiyatlarda yaqinlik, o'xshashlik kuzatiladi. Muayyan sport sohasidagi terminlar bilan bog'liq lingvokognitiv, lingvomadaniy va boshqa xususiyatlar muayyan sport turi ixtiro qilingan xalqning tilida shakllanadi, shu sport turining dunyo miqyosida ommalasha borishi bilan boshqa xalqlarning tillariga ham kirib boradi. O'z navbatida, bu jarayonda lingvokognitiv, lingvomadaniy va boshqa xususiyatlar xiralashadi va barcha tillar uchun umumiylik kasb eta boradi.

Xullas, til tizimi birliklari, shu jumladan, terminlar ham xalq madaniyati, mentaliteti, milliy ongi bilan bog'liq holda tadqiq etilgandagina uning tavsifi mukammal bo'la oladi. Rus tilshunosi V.A.Maslova ham muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi. Ana shu jihat, ya'ni, til va milliy-madaniy jipslik lingvokulturologik tadqiqotlarning markazida turadi. Albatta, tildagi aksar birliklar u yoki bu darajada milliy-madaniy jihatlarni namoyon etadi, ammo shunday til birliklari ham borki, ular milliy-madaniy o'ziga xosliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma'noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining aniq ifodasidir (3.18).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... "O'zbek tili va adabiyoti", T., 2012, 2-son, 3-16-betlar.
2. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, "Fan", 2013.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. M., "Academia", 2001, 18-bet.

**Yusupova Gulxumor (Urganch davlat universiteti "Tarjima nazariyasi va amaliyoti"
kafedrasida o'qituvchisi; e-mail: gulhumor.yusupova94@mail.ru)**

LINGVISTIK GENDEROLOGIYA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistik genderologiya zamonaviy tilshunoslikning yangi tarmog'i sifatida o'rganilishi bayon qilingan. Nemis va o'zbek tillaridagi gender leksemalar va turg'un birikmalar tahlil qilinib, xulosalar qilingan.

Аннотация. В данной статье описывается изучение лингвистической гендерологии как новой отрасли современной лингвистики. Проанализированы гендерные характеристики лексем и устойчивых соединений в немецком и узбекском языках и сделаны выводы.

Annotation. This article describes the study of linguistic gender studies as a new branch of modern linguistics. The gender characteristics of lexemes and stable compounds in the German and Uzbek languages are analyzed and conclusions are drawn.

Kalit so'zlar: gender, lingvistik genderologiya, ijtimoiy jins, biologik jins, erkak, ayol.

Ключевые слова: гендер, лингвистическая гендерология, социальный пол, биологический пол, мужчина, женщина.

Key words: gender, linguistic genderology, social gender, biological gender, male, female.

Kirish. Keyingi yillarda tilshunoslikda antropotsentrizmga asoslangan yangi tadqiqot yo'nalishlari jadal rivojlanmoqda. Tilshunoslikda gender tadqiqotlar alohida o'ringa ega. Lingvistik genderologiya hozirgi kunda dolzarb, shu bilan birga, qiziqarli bo'lgan zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalaridan biridir. Lingvistik genderologiya, asosan, g'arb mamlakatlarida paydo bo'lgan va rivojlangan. Mamlakatimizda ham ushbu soha kundan kunga jadal rivojlanmoqda. Keyingi yillarda lingvistik genderologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortayotganini kuzatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Lingvistik genderologiyaning shakllanishini tadqiqotchilar Yevropadagi ayollar harakati natijasidir deb hisoblashadi. Ayollar harakatidan keyin Yevropada vaziyat ancha o'zgargan,

ayollar o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquqlarini talab qila boshlashgan. Harakatlar natijasida lingvistik genderologiya uchun asos yaratgan feministik tilshunoslik vujudga kelgan.

Amerikalik tilshunos Robin Lakkof o'zining „Language and Woman's Place” (1975) kitobida tilshunoslikning yangi sohasi bo'lgan lingvistik genderologiyani asoslab bergan.¹

Lingvistik genderologiyaning asosiy tushunchasi gender hisoblanadi. „Gender” tushunchasi 1970-yillarning boshlarida feministik harakat va feministik nazariyaning rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. Gender ijtimoiy psixologiyaning bir yo'nalishidir. Genderni insonning ijtimoiy jinsi deb qarash mumkin. Erkaklik va ayollik insonning biologik jinsi bo'lsa, gender ijtimoiy jins bo'lib, erkak va ayolning jamiyatdagi roli, o'rni, tili va huquqlarini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, gender bu jamiyat tomonidan modellashtirilgan va qo'llab-quvvatlanadigan erkaklar va ayollarning xatti-harakatlari, turmush tarzi va fikrlash tarzi, ayollar va erkaklarning ijtimoiylashuv jarayonida shaxs sifatida egallagan rollari va munosabatlari tizimidir.² „Ijtimoiy-madaniy jins” ma'nosida „gender” tushunchasi XX asr 50-yillarning oxiri – 60-yillarning boshidan beri qo'llanilmoqda.

Til va jins masalalariga bo'lgan qiziqish antik davrga borib taqalishi haqida ma'lumotlar mavjud. Platon va Aristotel „tilda jinsning mavjudligi tabiatda ikki jinsning mavjudligi oqibatidir” degan xulosaga kelishgan.³

Lingvistik genderologiya tilshunoslikning boshqa sohalari bilan uzviy aloqadadir. Gender masalalarini o'rganishda psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, linguakulturologiya, pragmalingvistika, sotsiolingvistika va boshqa fanlar jinsni lingvistik tahlil qilish uchun material berishi mumkin. E.I.Goroshka „Tilshunoslikdagi gender masalalar” maqolasida „gender” tushunchasi tilshunoslikka o'tgan asrning ikkinchi yarmida boshqa gumanitar fanlarga qaraganda ancha kechroq kirib kelganligini qayd etgan. O'zbek tilshunosligida ushbu mavzu yuzasidan tadqiqotlar 2000-yillardan keyin amalga oshirila boshladi. Gender farqlarini yaratishda muhim elementlar „erkak” va „ayol” qarama-qarshiligidir. Nemis tilidagi gender va jins o'rtasidagi munosabatlar muammosi birinchi marta Senta Tromel-Plotz (1978) va Luiza Pusch (1979) asarlarida muhokama qilingan.

Nemis va o'zbek tillarida genderga oid leksikalar bir-biridan farqlanish holatlari kuzatiladi. Nemis va o'zbek tillari turli til oilalariga mansubligi tillar leksikasidagi farqlarning asosiy sabablaridan biridir.

Nemis tilida grammatik jins (Genus) tushunchasi mavjud bo'lib, o'zbek tilida grammatik jins mavjud emas. O'zbek tilida genderga oid leksika yasashida, ko'p hollarda, ayol yoki erkak jinsini bildiruvchi maxsus so'zlarining qo'shilishini kuzatish mumkin. *Tikuvchi ayol, tadbirkor erkak, gilamdoz kampir, baliqchi chol* kabi. Kam hollarda genderologik otlarni morfologik qo'shimchalar yordamida ajratish mumkin: *shoir-shoira, muallim-muallima, olim-olima*.

Nemis tilida har bir ot oldidan, otning jinsini, birlik ko'pligini, kelishigini ko'rsatib keluvchi maxsus so'z artikl qo'llaniladi. Artikl yordamida otning qaysi rodga mansubligini aniqlash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, otning artikliga qarash, ot jinsini aniqlashdagi eng to'g'ri usul emas. Ayrim so'zlar borki, artikli so'zning jinsini ko'rsata olmasligi mumkin. Masalan das Mädchen. Ushbu gender leksema o'zbek tiliga *qiz* deb tarjima qilinsa ham, artikli nemis tilida *die* emas, balki *das*. Buning sababi ot tarkibidagi *-chen* kichraytirish qo'shimchasidir.

Nemis tilida genderologik leksemalar o'zbek tiliga qaraganda aniq belgilarga ega. Bunday belgilardan asosiysi *-in* feminizatsiya yasovchi qo'shimchasidir: *Schneider/Schneiderin, Pilot/Pilotin, Verkäufer/Verkäuferin*. Nemis tilida kamdan kam hollarda asl so'z ayol kasbini bildiruvchi gender leksemalar mavjud: *die Hebamme* (doya), *der Entbindungspfleger* (akusher). Odatda, ayol kasbini bildiruvchi gender leksemalar erkak kasbini bildiruvchi leksemalarga *-in* suffiksini qo'shish orqali hosil qilinadi.

Feministik tilshunoslarning ta'kidlashicha, nemis tili til sistemasida ko'pincha ayollarning kamsitilishini kuzatish mumkin. 1970–1980-yillarda feministlar „Fräulein” so'zining murojaat jarayonida qo'llanishiga qarshi chiqishgan. Chunki bu so'z faqat turmushga chiqmagan qizlarga ishlatilishi kerak, hamмага emas. Nemis tilida ko'p gapiradigan ayollarga nisbatan *Klatschtante* iborasi qo'llanilgan, lekin erkaklarga nisbatan bunday holatda *kommunikativ* sifati ishlatilgan va bu ijobiy baholanadi.

¹ Lakoff R. (1975). Language and Woman's Place. New York: Harper&Row.

² Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari. O'zbekistonda xorijiy tillar. 2023, 2 (49), 18–37-betlar.

³ Гаврилова Ю.Н. Конструирование гендера в речи мужчин и женщин на материале итальянского телевизионного дискурса. Санкт-Петербург, 2018, 23 с.

Tillardagi lingvistik gender tengsizlik nafaqat leksemalarda, balki turg'un birikmalarda ham kuzatiladi. Nemis tilidagi *“Herren sind herrlich, Damen sind dämlich”* maqolidagi *dämlich* ayollarga xos sifatni anglatish uchun qo'llangan va bu sifat, aslida, Niderlandiyada gaplashiladigan nemis tilida *dämeIn* degani bo'lib, bu so'z *“ahmoq”* degan ma'noni anglatadi. Mazkur maqoldagi so'zlar qofiya jihatidan bir-biriga mos tushsa-da, lekin *dämlich* so'zi etimologiyasi jihatidan *Dami* so'zi bilan mutlaqo bir-biriga aloqasi yo'q.¹

Nemis tilida murojaat jarayonida ham ikkala jinsning birsini boshqasidan ustun qo'yish holatlari kuzatiladi. Ayollarga murojaatda *Frau* gender leksemasidan foydalaniladi, lekin bu atama ayolning biologik jinsini (*die Frau-ayol*) anglatishda ham qo'llanadi. Ammo erkaklarning ijtimoiy nomlanishi uchun *Herr* gender leksemasi qo'llanadi va bu leksema erkakni anglatuvchi biologik tushuncha *Manndan* alohidadir. Ayollar va erkaklarning nomlanishi tarixiy jihatdan ham adolatsiz yasalgan. Misol uchun, *Mädchen* so'zi *Mädchendan*, ya'ni, *Magd* xizmatkor so'zidan, *Junge, Knabe* so'zlari bo'lsa, *Junker* (yer egasi) va *Knappe* (zamindor) so'zlaridan hosil bo'lgan. Erkak jinsini bildiruvchi so'zlar ayolni bildiruvchi *“xizmatkor”* so'ziga qaraganda yuqori ijtimoiy mavqega ega.

Tilda gender aspektining aks etishi, asosan, turg'un birikmalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki turg'un birikmalarda xalqning mentaliteti, asriy orzu umidlari, an'ana va qadriyatlari bilan birga erkak va ayol haqidagi fikrlar haqqoniy aks etadi. *O'zbek xalq maqollari O'tirgan qiz, o'rin top, Hovliqqan qiz erdan tinmas, Qari qiz yasanguncha, to'y tarqar, Yaxshi xotin go'sht quritar, yomon xotin go'sht sasitar, Kelinni kelganga ko'r, sepini yoyganda ko'r, Uyalgan yigit qizdan quruq qolar, Uringan xotin o'g'il tug'ar, Xotin-qizning ishini tovuq cho'qib bitirolmas, Qari qiz er tanlamas, o'lgan odam yer tanlamas, O'g'il tug'mas xotin bo'lmas, mol topmas yigit bo'lmas, Qaynonali kelin qarqara kelin, qaynonasiz kelin masxara kelin, erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin.* Quyida keltirilgan o'zbek xalqiga xos maqollarda *o'g'il, kelin, qiz, qaynona, yigit, er, xotin* kabi gender leksemalar qo'llangan.

Tromel Plotz nemis xalqiga xos maqollardagi gender xususiyatlarni qayd etgan.²

Eine Frau lacht, wenn sie kann und weint, wenn sie will, Eine Zunge reicht für zwei Frauen, Eine fromme Frau ist der Schmuck des Hauses, wie die Sonne der Schmuck des Himmels, Eine Frau ohne Mann ist wie ein Fisch ohne Wasser, Geld macht den Mann, Jeder Mann ist der Architekt seines eigenen Glücks kabi nemis xalqiga xos maqollarda *Frau, Mann* kabi gender leksemalar qo'llanilgan.

Ushbu tadqiqotda o'zbek tilida mavjud bo'lgan ayrim gender frazeologizmlarning nemis tilida muqobil variantlari borligi kuzatildi.

| | |
|--|--|
| 1. <i>Uyalgan yigit qizdan quruq qolar.</i> | <i>Ein schüchchterner Mann kriegt keine schöne Frau.</i> |
| 2. <i>Onangni otangga beparдоз ko'rsatma.</i> | <i>Männer liebe mit Augen.</i> |
| 3. <i>Die Frau hat dem Teufel die Suppe gekocht und sie ihn dann essen lassen.</i> | <i>Ayollar shaytonga dars beradi. Ayol makri 40 tuyaga yuk bo'lar.</i> |

Xulosa. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, so'nggi yigirma yillikda o'zbek tilshunosligida gender tadqiqotlarining lingvistik tarkibiy qismiga qiziqish keskin o'sdi: ilmiy seminarlar va anjumanlar o'tkazilmoqda, davriy nashrlar paydo bo'ldi va dissertatsiya tadqiqotlari soni ko'paymoqda. Lingvistik genderologiya tez sur'atlarda o'sayotgan zamonaviy tilshunoslikning bir tarmog'idir.

Samandarov Rustam Do'syorovich (Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); samandarovr962@gmail.com)

MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALAR DERIVATSIYASI VA APPLIKATIV MODEL XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida nutq lingvistikasi ilmiy asoslangan ekan, mazkur masala tavsifiga, xususan, gapning lingvistik maqomi masalasiga o'zgacha yondashish talab qilinishi, shubhasiz. Shular jumlasiga qo'shma gap tushunchasi ham kiradi. Hozirgi vaqtda olimlar orasida qo'shma gap atamasini turli yo'llar bilan tushunish ba'zi hollarda uning sintaktik tabiatini boshqacha tushunishga olib keldi, ayrimlar uning bir xususiyatini, predikativ birliklarning birligini hisobga olishsa, boshqalarida ularning semantik va tarkibiy birligiga e'tibor berildi. Mazkur maqolada shu masala yuzasidan nazariy mulohazalar bildirildi.*

¹ Samel I. Einführung in die feministische Sprachwissenschaft. Auflage E. Schmidt, Berlin, 2000, p. 139.

² Trömel-Plötz S. Gewalt durch Sprache. Frankfurt, Fischer, 1984, p. 82.

Аннотация. Поскольку лингвистика речи на современном этапе развития лингвистической науки научно обоснована, бесспорно, что требуется особый подход к описанию этого вопроса, в частности, к вопросу о лингвистическом статусе предложения. К ним относится понятие сложного предложения. В настоящее время понимание учёными термина “сложноподчиненное предложение” по-разному привело в одних случаях к различному пониманию его синтаксической природы, в то время как одни рассматривают одно из его свойств как единство предикативных единиц, в других внимание уделяется их семантическому и структурному единству. Теоретические соображения по этому вопросу были высказаны в данной статье.

Annotation. Since the linguistics of speech at the present stage of the development of linguistic science is scientifically justified, it is indisputable that a special approach is required to describe this issue, in particular, to the question of the linguistic status of the sentence. These include the concept of a complex sentence. Currently, the understanding of the term “compound sentence” by scientists in different ways has led in some cases to a different understanding of its syntactic nature, while some consider one of its properties as a unity of predicative units, in others attention is paid to their semantic and structural unity. Theoretical considerations on this issue have been expressed in this article.

Kalit so‘zlar: qo‘shma gap, murakkab sintaktik qurilmalar, applikativ model, derivatsiya, morfologik vositalar.

Ключевые слова: сложносочиненное предложение, сложные синтаксические конструкции, аппликативная модель, словообразование, морфологические средства.

Key words: compound sentence, complex syntactic constructions, applicative model, word formation, morphological means.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida nutq lingvistikasi ilmiy asoslangan ekan, mazkur masala tavsifiga, xususan, gapning lingvistik maqomi masalasiga o‘zgacha yondashish talab qilinishi, shubhasiz. Shular jumlasiga qo‘shma gap tushunchasi ham kiradi. Hozirgi vaqtda olimlar orasida qo‘shma gap atamasini turli yo‘llar bilan tushunish, ba‘zi hollarda, uning sintaktik tabiatini boshqacha tushunishga olib keldi, ayrimlar uning bir xususiyatini, predikativ birliklarning birligini hisobga olishsa, boshqalarida ularning semantik va tarkibiy birligiga e‘tibor berildi. A.M.Peshkovskiy qo‘shma gapni sodda gaplarning zanjiri deb tushunsa, A.A.Shaxmatovlar terminning o‘zi noqulayligi haqida xulosaga keldilar. A.M.Peshkovskiy qo‘shma gapni “murakkab butunlik”, A.A.Shaxmatov esa “gaplar birikmasi” deb ataydi. V.A.Bogorodiskiy murakkab gapni yagona va integral struktura deb ta’riflagan. Bu g‘oya N.S.Pospelov, V.A.Beloshapkova, S.E.Kryuchkov, L.Y.Maksimov tomonidan yanada rivojlantiriladi va chuqurlashtiriladi.

Bizningcha, bu atamani qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj tug‘ilishi, tabiiy. Buning turli sabablari bor. Birinchidan, qo‘shma gap (uning har bir turi)da matn belgisi mavjud va buni inkor etib bo‘lmaydi. Matn, albatta, o‘zining lingvistik maqomi bilan gapdan farq qiladi. Ikkinchidan, qo‘shma gapda nafaqat polipredikativlik belgisini, balki ustpredikativlik belgisini ham ko‘ramiz. Bundan tashqari, qo‘shma gap atamasini qo‘llash til va nutq birliklarining pog‘onali munosabatiga putur yetkazadi. Bizga ma’lumki, har qanday kichik birlik o‘zidan katta birlik ichida faollashadi va pog‘onali munosabat yaratadi. Agar so‘zlar gap ichida faollashsa, sodda gaplar qo‘shma gap ichida faollashadi, degan fikr paydo bo‘ladi. Bu esa gap gapning ichida faollashadi, degan yangilish xulosaga olib keladi. Shu sababdan ham biz o‘z maqomiga ko‘ra gapdan kattaroq atamani qo‘llashimiz kerak bo‘ladi. Ana shularni hisobga olib, biz ham qo‘shma gap termini o‘rniga murakkab sintaktik qurilma atamasini qo‘llashni joiz topdik.

Ma’lumki, murakkab sintaktik qurilmalar (MSQ) har qanday til sintaksisida ham eng katta salmoqqa ega. Agar sodda gaplar strukturasi juda katta hajmga ega bo‘la olganda ham undagi barcha ishtirokchi elementlar bitta predikativ markaz atrofida munosabatga kirishadi. MSQlarda esa yolg‘iz predikativ markaz haqida so‘z yurita olmaymiz. Masalan, teng munosabatli MSQlarning aksariyat qismi avtosemantik¹ gaplar hisoblanganligi uchun ularning tarkibiga birlashayotgan har bir gap o‘zining predikativ yadrosiga ega bo‘lsa, ergash gapli qo‘shma gaplar komponentlari sinsemantik² strukturaga ega bo‘lib, ularning tarkibida ham biri ikkinchisi bilan bog‘liq bo‘lgan ikki yoki undan ortiq predikativ yadrolarni ko‘ramiz. Xususan, tobe munosabatli MSQlarda sintaksisning eng murakkab qonun-qoidalariga duch kelamiz. Chunki tobe munosabatli MSQlar masalasi har qanday til sistemasida ham sodda gap muammosidan ko‘ra mu-

¹ Гулыгина Е.В. Теория сложноподчинённого предложения в современном немецком языке. М., “Высшая школа”, 1971, 18 с.

² Shu manba. 26-bet.

rakkabroq hisoblanadi. Bu masala, bizningcha, eng avval, verbal kommunikatsiya va uning ifodalanish usullari bilan bog'liq bo'lishi shart.

Fransuz tilshunosi Jorj Galishe tobe munosabatli MSQlar haqida gapirganda, ularning tarkibiga birlashayotgan sodda gaplarni elementar molekulalar deb ko'rsatadi va ana shu molekulalarning gap tarkibida saqlanib turishini fe'l sababidan ekanligini ta'kidlaydi. Lekin, bundan tashqari, tobe munosabatli MSQlarning shu xildagi elementlari molekulalardan tashkil qilinishida boshqa bir necha xil faktorlar ham muhim rol o'ynashlari mumkin. Masalan, o'zining mustaqil predikativ markaziga ega bo'lgan, shu bilan birga, grammatik to'g'riligi to'liq ifodalangan, verbal kommunikatsiya prinsipi buzilmagan qandaydir gapning qaysidir bir elementiga aniqlik kiritish yoki izoh berishga to'g'ri kelib qolsa, shubhasiz, tobe munosabatli MSQ formasiga murojaat qilamiz. Biroq bu o'rinda tobe munosabatli MSQlarning tashkil qilinishi muammosi ana shu aniqlik talab qilayotgan so'z bilan bog'liq bo'ladi. Demak, ikkinchi verbal kommunikatsiya ham shu so'zga kelib taqaladi.

Bundan tashqari, tobe munosabatli MSQlarning qo'llanilishi masalasi paralingvistik faktorga hamda so'zlovchining xohishi, irodasiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki insonning xohishi, irodasi tilning barcha materiallarining faollashishida ham muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham V.V.Bogdanov Ferdinand de Sossyur har qanday nom (eksponent) va narsa (denotat) to'g'ridan to'g'ri bir-biri bilan bog'liq bo'la olmaydi, ular insonning ongi, tafakkuri orqali bog'lana oladi, deganda haqli edi, deb ta'kidlaydi.

Demak, tobe munosabati MSQ qo'llanilishi masalasi ham situatsiya va so'zlovchiga bog'liq bo'ladi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi holatni ko'rib chiqaylik. Agar bizga suhbatdoshimiz *Kitobni keltiring* demoqchi bo'lsa, shubhasiz, quyidagi ikki so'zdan foydalanadi: *kitob va keltirmoq*. Biroq kitoblar orasidan qaysi kitobni olib borishni tushunib yetmasak, u *U stol ustida turibdi* jumlasini qo'shishi mumkin. Shunday qilib, *Kitobni keltiring. U stol ustida turibdi* shaklida ikkita sodda gap hosil bo'ladi. Bunday holat, albatta, ma'lum situatsiya doirasida so'zlovchi tomonidan qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, ayni paytda *Stol ustida turgan kitobni keltiring* gapidan ham foydalanishimiz mumkin. Bu o'rinda sifat-dosh formasi orqali ikkita mustaqil predikativ markazga ega bo'lgan sodda gaplar bir gap tarkibiga birlashtirilayotganligini ko'ramiz.

Bordi-yu, situatsiya talabiga ko'ra, so'zlovchi shaxs aynan stol ustida turgan kitobni keltirmoq zarurligini bo'rttirib ko'rsatmoqchi bo'lsa, u holda quyidagi tobe komponentli MSQ formasini ishlatishga to'g'ri koladi: *Qaysi kitob stol ustida turgan bo'lsa, o'sha kitobni keltiring*.

Ko'rinib turibdiki, so'zlovchi shaxs oldida yoxud bir mazmunning bir necha xil gap formalari orqali ifodalash imkoniyati hosil bo'ladi:

I. *Kitobni keltiring. U stol ustida turibdi* → ikki sodda gap formasi; *Stol ustida turgan kitobni keltiring* → sodda gap formasi; *Qaysi kitob stol ustida turgan bo'lsa, o'sha kitobni keltiring* – tobe komponentli MSQ formasi. Bu xildagi gap formalari transformalar, invariantlar yoki sintaktik sinonimlar ham deb atash mumkin. Chunki ularda aynan bir mazmunning bir necha xil formalarda ifoda qilinayotganligini ko'ramiz. Biroq, keyingi gap formasida, ya'ni, ergashgan qo'shma gapning nisbiy olmoshli formasida qandaydir kitob haqida emas, balki qaysi kitob stol ustida turgan bo'lsa, o'sha kitobni keltirish zarurligi haqida gap bormoqda. Shunday qilib, situatsiyaning talabiga ko'ra, biz sodda gap formasini yoki tobe komponentli MSQ formasini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Biz har doim ma'lum situatsiya qurshovida bo'lganimiz uchun qaysi gap formasini ishlatish zarurligi haqida o'ylab o'tirmasdan, mexanik tarzda qaysi gap formasini tanlab ishlatganimizni sezmay qolamiz.

MSQ qismlarini bir-biriga bog'lovchi applikatorlar har doim ham belgili holatda kelavermaydi. Ko'p hollarda gap tarkibida qo'llanilavermaydi. Biroq bu bilan uning qo'llanilishini mutlaqo fakultativ deb bo'lmaydi. Bunday mulohaza xato bo'lgan bo'lar edi. Chunki MSQlarda applikatorlar shaxsan qo'llanilmagan bo'lsa-da, mazmuniy jihatdan MSQlar sathida ularning o'rni har doim sezilib turadi. Derivatsion nuqtayi nazardan ham xuddi shu fikrni bildirish mumkin. Zero, applikatorlar MSQ derivatsiyasida operator maqomida kelar ekan, biz derivatsion jarayonda operator mavjud emas, deya olmaymiz. Chunki operator bo'lmasa, derivatsiya ham bo'lmaydi.¹ Demak, ularning fakultativlik belgisi semantik nuqtayi nazardan o'z kuchini yo'qotadi. Bunda fakultativ faqat sintaktik jihatdan ahamiyat kasb etadi. Fikr isboti uchun quyidagi misolga murojaat etaylik:

1. *Ruhiy larza shu qadar kuchli ediki, Boburning tilida qolgan duduqlikni birdan yo'q qilib yubordi* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

¹ Turniyozova Sh.N. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Nomzodlik diss. avtoreferati, Toshkent, 2010, 20-bet.

2. *Yigitali ikkovining bir-biriga ko'ngli bo'lsa, men roziman* (D.Nuriy. Osmon ustuni).

Keltirilgan misollarning birinchisi natija munosabatli MSQ bo'lib, unda hokim qismda ifodalana-yotgan ish harakatning natijasi tobe komponentda keltirilgan. Ammo mazkur MSQda tobe qismdagi *nati-jada, oqibatda* kabi qo'llanilishi kerak bo'lgan applikatorlarni biz faqat semantik jihatdan his qilib turib-miz. Shunday bo'lsa-da, bu MSQ da yana *-ki* applikator mavjud bo'lib, mazkur applikatorning mavqeyi belgisiz qo'llanilayotgan applikatorning mavqeyiga nisbatan kuchli ekanligi izoh talab qilmaydi.

Ikkinchi misolda esa MSQ qismlari o'rtasida shart munosabati borligini ko'ramiz. Mazkur misolda *agar* bog'lovchisining borligini semantik jihatdan his qilamiz. Misoldan ko'rinib turibdiki, *agar* so'zining MSQ sintaktik derivatsiyasi uchun ahamiyati nisbatan sust ekanligini dalillash mumkin. Mazkur MSQ-ning real ma'noli turi sintaktik derivatsiyasi, asosan, applikator bo'lib kelgan fe'lning shart ma'nosini ifo-dlovchi *-sa* affiksi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mazkur affiks MSQ sintaktik derivatsiyasining operatori vazifasida keladi. Operator esa sintaktik derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri sanaladi. Chunki uning yordamisiz sintaktik derivatsiya hodisasi voqelanmaydi. Bunday hodisani quyidagi misolda ham kuzati-shimiz mumkin: *Tandir shu qadar qizigan ediki, uning taftidan Oynisaning yuzi lovullab, ko'zlariga olov to'ldi* (H.G'ulom. Toshkentliklar).

Keltirilgan misolda MSQ komponentlari MSQ derivatsiyasining alohida operandlari sanaladi. Ayni paytda derivatsiya operatori maqomida *-ki* bog'lovchisini ko'ramiz. Mazkur bog'lovchi yordamida MSQ komponentlari (operandlari) o'zaro bog'lanmoqda va bir paytning o'zida MSQ sintaktik derivatsiyasi shakllanmoqda.¹

Aytish lozimki, MSQ komponentlari ikkitadan ortiq bo'lsa, sintaktik derivatsiya polioperatorlik doirasida vujudga keladi:

1. *Jang davom etar, yuqoridan yog'ilayotgan ajal shotiga chiqqanlarni tutday to'kayotgan bo'lsa ham, bir necha yuz kishi shovqin-suron bilan devor tepasiga chiqib bordi* (P.Qodirov. Yulduzli tunlar).

2. *Bahor kelgach, Shayboniixon Buxoro va Dabusiya qal'asini ishonchli odamlariga qoldirdi-yu, o'zi Samarqand tomonga qo'shin tortib kela boshladi.*

3. *Barozning mayda toshlari Boburning tovonlariga botar, tik joylardan tushayotganda chaqir toshlar oyog'iga tikan bo'lib kirib ketayotganday og'riq qo'zg'ar edi, lekin Bobur tishini-tishiga qo'yib og'riqqa chidab borar edi.*

Keltirilgan misollarning uchalasi ham uch komponentdan iborat bo'lgan murakkab sintaktik quril-malardir. Ularning birinchisida *-ar* hamda *-sa* ham applikatorlari operator vazifasida kelmoqda. Ko'rina-diki, MSQ sintaktik derivatsiyasida mazkur bog'lovchi vositalarning mavqei katta. Ular vositasida musta-qil gaplar o'zaro bog'langan va buning natijasida MSQ derivatsiyasi voqelanmoqda.

Ikkinchi misolda esa MSQ qismlari *-gach*, *-yu* kabi morfologik vositalar orqali bog'lanmoqda. Bunda MSQning birinchi komponenti ikkinchi komponentda bajarilayotgan ish harakatning qay vaqtda sodir bo'layotganligini ifodalab, payt munosabatini bildiriyapti. Bunda *-gach* applikator sintaktik aloqani vujudga keltirmoqda. Shuningdek, MSQning ikkinchi komponenti uchinchi komponent bilan *-yu* yuk-lamasi orqali sintaktik aloqaga kirishmoqda. Mazkur bog'lovchi vosita ish harakatning birin-ketin sodir bo'layotganligini ifodalb kelmoqda. Ko'rinadiki, MSQ komponentlarini bog'lash uchun xizmat qilayot-gan applikatorlar MSQ derivatsiyasining operatori vazifasini bajarmoqda.

Uchinchi misolda MSQ qismlarini bog'lab turgan vositalar *-ar* qo'shimchasi bilan *lekin* zidlov bog'lovchisidir. Bu misoldan ko'rishimiz mumkinki, bitta MSQ tarkibida derivatsiya operandlari ham to-be munosabatda, ham teng munosabatda bog'lanishi mumkin. Demak, MSQ komponentlarini bog'lashda ham teng bog'lovchilar, ham tobe bog'lovchilar applikativ model nuqtayi nazariga ko'ra applikatorlar si-fatida faol ishtirok etadi. Ana shu applikatorlar derivatsiya operatorlari maqomida kelmoqda.

¹ Turniyozov N.Q., Turniyozov B.N., Turniyozova Sh.N. O'zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. T., 2010, 48-bet.

Xolmanova Shoxsanam (Samarqand davlat Chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi)
MOPASSAN IJODI VA “BEL-AMI” ROMANINING POETIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqola fransuz yozuvchisi Gi de Mopassanning Bel-Ami asaridagi poetik tahlili masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu asardagi badiiy qahramonlar taqdiri, obrazlar xarakteri hamda zamon va makon konsepsiyalari haqida so‘z boradi.

Аннотация. Статья посвящена вопросам поэтического анализа произведения французского писателя Ги де Мопассана «Милый друг», рассказывается о судьбах художественных персонажей этого произведения, характере героев, понятиях времени и пространства.

Annotation. This article is dedicated to the issues of poetic analysis of the French writer Guy de Maupassant's work Bel-Ami, and talks about the fate of the artistic characters, the character of the characters and the concepts of time and space in this work.

Kalit so‘zlar: romantizm, badiiy matn, xronotop, zamon, vaqt, makon, personaj.

Ключевые слова: романтизм, художественный текст, хронотоп, время, пространство, персонаж.

Key words: romanticism, artistic text, chronotope, time, space, image.

Fransuz realizmining yirik vakillaridan biri Gi de Mopassan (Guy de Maupassant) – adabiyotga 1880-yilda she‘rlar to‘plami va «Do‘ndiq» novellasi bilan kirib kelgan. Mopassan o‘z asarlarida real voqealarga ko‘proq e‘tibor qaratgan. Uning “Bel-Ami”, “Une vie” va novellalari jahon adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Badiiy asarni idrok va tadqiq etishda undagi har bir so‘zning ma‘nosi va ma‘no ko‘lamini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘z ma‘nosining aniq, to‘liq va batafsil tadqiq etilishi o‘quvchini muallifning badiiy matnda nazarda tutayotgan maqsadiga tom ma‘noda yaqinlashtiradi.¹ Bu hodisa, ayniqsa, adabiyotni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyotdagi har bir unsur real voqelikni aynan ifoda etish majburiyatini olmaydi. Muallif o‘z maqsadini amalga oshirish uchun mavjud reallikning ma‘lum bir jihatini poetik talqin sathiga ko‘chiradi. Mavjud narsalarga tayangan holda o‘zining yangi ijod namunasini yaratadi.²

XIX asrning ikkinchi yarmi fransuz adabiyotida realizmning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Adabiyotda realizmning yirik vakillari O.Balzak, Stendal, G.Flober va Gi de Mopassanlar o‘z asarlarida real hayotni to‘liq tasvirlashga erishdilar. Yozuvchilarni jamiyatning insonga qanday ta‘sir qilishi, uning dunyoqarashi, jamiyatdagi muammolar, uning qarashlari va e‘tiqodlarining shakllanishi qiziqitirdi. Mopassan taniqli fransuz yozuvchisi, psixologik tahlil ustasi bolib, uning ijodi XIX asrning birinchi yarmida realizm rivojlanishi davriga to‘g‘ri keladi. Mopassan o‘zining ma‘naviy qarashlari va jamiyat haqidagi fikrlari bilan boshqalardan ajralib turar edi. Gi de Mopassanning real voqelikka asoslangan asarlaridan biri “Bel-Ami” romanidir. Gi de Mopassanning “Bel-Ami” romani 1885-yilda yozilgan bo‘lib, unda, asosan, Fransiya hukumatining shu davrdagi siyosati, ya‘ni, o‘sha davr siyosatdonlarining va ular qo‘lida go‘yo qo‘g‘irchoqdek bo‘lgan jurnalistlarning hayoti, siyosiy nayranglarini, fahsh va razolat bilan to‘lgan ichki hayotini to‘liq suratlarida ochib bergan va voqealar yozuvchi tomonidan mahorat bilan real voqealar asosida tasvirlangan. Rus yozuvchisi A.M.Gorkiy ushbu asar haqida shunday degan edi: «Azizim g‘alaba qozondi, u hokimiyat tepasiga ko‘tarildi. Ammo, burjuaziya o‘zining taqdirini shunday ishonchsiz kimsalar qo‘liga topshirib qo‘yar ekan, uning o‘zini himoya qilish qobiliyati qay darajada tushib ketdi».³

Makon va zamon bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Badiiy asarda ular turli ta‘rif va xususiyatlarni o‘zida mujassamlaydilar. Masalan, vaqt konkretlashtirilishi, tabiiyki, o‘z orqasidan makon (joy) konkretlashtirilishiga olib boradi.⁴ Gi de Mopassanning “Bel-Ami” romanida makon – Parij shahri hisoblanadi. Asosiy voqealar Parijda ro‘y beradi. Ushbu asarda Parij shahri boylik, mol-davlat va hashamat, o‘tkinchi havaslarning makoni sifatida ta‘riflanadi. Haqiqatdan, “Bel-Ami” romani o‘sha davr XIX asr fransuz ja-

¹ Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari. “Badiiy asarda lug‘aviy va poetik ma‘no”, 15-dekabr, 2022, 38-bet.

² Shu manba. 41-bet.

³ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Azizim_\(roman\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Azizim_(roman))

⁴ Қаршибаева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари (Шатобриан ва В.Гюго ижоди ми-солида). Дисс... филология фан.доктори, Тошкент, 2016, 191-bet.

miyatining ahvolini yaqqol ifoda etgan. Ammo o'sha davr va o'sha makonda bunday holat jamiyatning tabiiy yashash tarziga aylanib ulgurgan edi.

1. *Duroy avait ralenti sa marche, et l'envie de boire lui séchait la gorge. Une soif chaude, une soif de soir d'été le tenait, et il pensait à la sensation délicieuse des boissons froides coulant dans la bouche (10-bet) – Ma'nosi: Dyurua qadamini sekinlatdi, uning tomog'i qaqrab ketgandi. Yozning dim kechalari-da odam qattiq chanqaydi, behol bo'ladi, u chanqab ketganidan o'zini holsiz sezdi va bo'g'zidan muzdek pivoning ajib ta'mini xayolan tuyib, tamshanib qo'ydi.*

Yozuvchi personaj ruhiyatini ifoda etar ekan, uning kechinmalari va uning o'zining holatini ochib beruvchi motivlari o'rtasidagi ko'p tomonlama aloqalarni aks ettiradi. Yozuvchi bu jumlada obrazning holatini, ruhiyatini o'zaro zamon kategoriyasi bilan bog'laydi. Bu yerda zamon kategoriyasi muhim o'rin tutadi. Yozuvchi, "yozning dim kechalari"ni – "une soif de soir d'été le tenait" deb personajning holatini bir-biriga bog'lab, aniq ifodalab bergan. Ya'ni, yoz faslining dim kechalarini qahramon ichki kechinmalarida sodir bo'layotgan tashnalikka qiyoslaydi.

2. *"Où diable ai je connu ce particulier-là?" Il fouillait dans sa pensée, sans parvenir à se le rappeler; puis tout d'un coup, par un singulier phénomène de mémoire, le même homme lui apparut moins gros, plus jeune, vêtu d'un uniforme de hussar (13–14-betlar). – Ma'nosi: Jin ursin, qayerda ko'rishgan ekanman-a bu nusxa bilan? U tozayam o'yladi va xotirasi birdan yalt etib yorishib ketdi, boyagi yigitni u gusar liboslari kiyib yurgan yosh yigit qiyofasida ko'z o'ngiga keltirdi, u paytlar bunchalik semiz emas edi.*

Har qanday asar ma'lum vaqt oralig'ida yoziladi yoki undagi vaziyatlar aniq vaqtlarda sodir bo'ladi. Ushbu hodisalarni qanday tasvirlash esa yozuvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. Gi de Mopassanning "Bel-Ami" sarining ushbu jumlasida ham yozuvchi bevosita qahramonning Jazoirda o'tkazgan vaqtlarini yodga oladi. «Où diable ai je connu ce particulier-là?» Dyurua bu insonni uchratar ekan, personaj ruhiy olamida katta burilish ro'y beradi. Qahramon ko'z o'ngida tarix qaytadan gavdalanadi. Ushbu jumlaning yozuvchi mahorat bilan tasvirlab o'tgan, ya'ni, personajning bir paytlar do'sti bilan Jazoirda unterofitser bo'lgan hamda u yerda o'tkazgan sarguzashtli damlarini eslaydi. Shu davrlarda Jazoir Fransiya mamlakatining mustamlakasi edi. Foreste Jazoirda paytlarida nozik, kelishgan lekin juda hovliqma edi. Lekin, Dyurua do'stini ko'rib angladiki, Forestning ishi joyidaligi, ishi yurishib ketganligi va yaxshi yeb-ichayotganligini tushundi. E'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan romandagi asosiy xarakter psixologiyasi Jorj Dyurua personajiga mansub. Gi de Mopassan o'z asarlarida qahramonlar ruhiyatida sodir bo'ladigan vaziyatlarga alohida e'tibor qaratadi. Chunki badiiy asarda inson ruhiyati, hissiyotlarida kechadigan voqea va kechinmalar romanning yanada yorqinroq chiqishiga sabab bo'ladi. Personajlarning psixologik xarakteri qahramon obrazi ichki dunyosini ochishning muhim vositasi hisoblanadi. Badiiy asar tahlili jarayonida shu narsa ma'lum bo'ladiki, psixologik tasvir turli asarlarda turlicha vazifalarni talqin etadi. Asarlarda psixologik tasvir va psixologik detallar u qadar ko'zga tashlanmaydi. Bunday hollarda asosiy tasvir obyektini qahramonlarning ichki dunyosi va ularning badiiy psixologik tasviri tashkil etadi. Ayrim vaqtlarda, psixologik tasvir matnning salmoqli qismini band qiladi va bunday asarlarda alohida badiiy uslub – psixologizm yuzaga keladi. Psixologizm – bu adabiyotning o'ziga xos vositalari ko'magida hayoliy (to'qilgan) shaxs (adabiy personaj) his-tuyg'u, fikr va kechinmalarini yetarlicha to'liq va batafsil qilib tasvirlash.¹ L.Y.Ginzinburgning ta'kidlashicha, psixologizm personaj ichki dunyosining ratsional, soddalash-tirib tasvirlanishi bilan baqamti emas, balki "Badiiy psixologizm qahramonning o'zini tushunishidagi xayolga ham kelmagan, to'satdan, tasodifiy, qarama-qarshiliklardan boshlanadi".² Badiiy asarda qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo'lgani kabi, uning ruhiy olamini ochuvchi "portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galusinatsiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir".³

...*Et voilà six mois que je suis employé aux bureaux du chemin de fer du Nord, à quinze cents francs par an, rien de plus (16-bet). – Ma'nosi: Afsuski, mana yarim yildan buyon shimoliy temir yo'l boshqarmasida ishlayapman, yiliga atigi bir yarim ming frank pul olyapman.*

"Bel-Ami" romanida XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiyada yuz bergan voqealar real tasvirlangan. Asarda shu davrda mansab, boyluk uchun hech narsadan qaytmaydigan odamlarning qiyofasi ochib berilgan. Unda asosiy bosh qahramon Jorj Dyurua ismli personaj qo'lidan hech ish kelmaydigan inson

¹Есин А.Б. Психолоизм русской классической литературы. Книга для учителя, М., "Просвещение", 1988, с. 18.

²Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. Л., "Советский писатель", 1971, с. 300.

³Adabiy qahramon nutqida milliylik va ruhiy kechinmani tasvirlash usullari. 63-bet.

gavdalantirilgan. Lekin u shunday bo'lishiga qaramasdan, aslzodalar qatorida bo'lgisi kelar va buning uchun hech narsadan qaytmaydigan inson sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jumlada yozuvchi butun Fransiya hukumatini kichik bir insonning yashash tarzi orqali tasvirlab bergan. Ya'ni, shu davrda Fransiya hukumatida agar zodagonlar davrasida bo'lmasa, u shaxs yaxshi ish, yaxshi oylik topishi mushkul bo'lgan. Personaj nutqidan anglashimiz mumkin, Dyurua yaxshi hayotni yaxshi maosh oladigan ishni orzu qiladi. Lekin bu jamiyatda oddiy insonlar bunday natijaga erishishi murakkab ekanligini biladi. ...*“Tu n'as pas d'habit? Bigre! en voilà une chose indispensable pourtant. A Paris, vois-tu, il vaudrait mieux n'avoir pas de lit que pas d'habit»*.– Ma'nosi: *Senda frak yo'qmi? Ana bo'lmasa! Busiz hech kuning o'tmaydi-ku. Shuni yaxshi bilib qo'yginki, Parijda ko'rpa-to'shaging bo'lmasa, bo'lmasin, lekin frank bo'lishi shart.* Haqiqatdan, ushbu davrda Parijdagi vaziyat biroz jiddiy edi. Jamiyat siyosatshunoslar va zodagonlar qo'lida bo'lgan. Yozuvchi o'z personajlari xarakterini shu davrdagi jamiyatning hosilasi sifatida tasvirlaydi. Mopassan bu romanida Parij jamiyatining turli qatlami, asosan, yuqori tabaqa va yirik ishbilarmonlar haqida so'z yuritadi. Asardagi fransuz xalqi madaniyatini kinoya, metaforalar orqali ochib bergan. Mopassan mana shu omillar vositasida o'zi yashab turgan va ipidan ignasigacha o'rgangan fransuz ijtimoiy, siyosiy hayotini mahorat bilan tasvirlaydi. Yozuvchi asaridagi barcha xronotop shakllardan o'z o'rnida foydalangan. “Xronotop – yunoncha chronos (zamon) va topos (makon) so'zlarini birlashtirish orqali hosil qilingan ushbu ilmiy termin matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi sohalarida ayni shaklda istifoda etilgan. M.Baxtin XX asrning 30-yillarida xronotop tushunchasini bevosita adabiyotshunoslikka olib kirar ekan, uning badiiy asar negizidagi janr, kompozitsiya, sujet, badiiy matn strukturasi, obrazlar poetikasiga doir muhim qismlarni qamrab olishi, badiiy makon va zamonnii uyg'un aks ettirishini hisobga oladi. Chunki badiiy asar, undagi har bir poetik qism xronotop tizimida o'rganilmas ekan, muayyan asarni mustaqil badiiy hodisa sifatida talqin etish murakkablashadi. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg'unlikni xronotop (so'zma-so'z tarjimada zamon, makon degan ma'noni bildiradi), deb ataymiz”.¹

4. *Au-dessus de la porte s'étafait, comme un appel, en grandes lettres de feu dessinées par des flammes de gaz: La Vie Française. Et les promeneurs passant brusquement dans la clarté que jetaient ces trois mots éclatants apparaissaient tout à coup en pleine lumière, visibles, clairs et nets comme au milieu du jour, puis rentraient aussitôt dans l'ombre (19–20-betlar)*. *La Vie Française*.–Ma'nosi: *Eshik tepasiga gaz naychalar bilan yirik-yirik qilib “Fransuz hayoti” degan so'zlar ko'zni qamashtiradigan darajada porlab yonmoqda edi. Bu so'zlarning o'tkir shu'lasida o'tkinchilar bir zum ko'rinib, keyin yana shu zahoti qorong'ilik qariga g'oyib bo'lishardi.*

Yozuvchi, mana shu bitta yaraqlagan so'zlar (“Fransuz hayoti”) orqali Fransiya tarixini, shu davrdagi Fransuz redaksiyasi faoliyatini, jurnalistlari taqdirini bir soniyada qisqa ta'rif orqali keltirib o'tadi. Bu orqali yozuvchi, inson orzu-havaslarini bir zumda paydo bo'lishi va armonga aylanishi, inson umri hech qachon abadiy emasligini ifoda etadi. Bu fonda inson hayotini vaqt bilan uzviy bog'liqligini ko'rish mumkin. “Inson faqat – “o'tkinchi yo'lovchi” (un voyageur)dir, xolos. Uning yoshlik chog'lari esa atigi bir kun, u ham bo'lsa, xuddi “olov tutuni” dek o'chib ketadi. Zamon (vaqt) faqatgina odam taqdiri ustidan emas, balki butun bir sivilizatsiya ustidan ham hukmrondir, u cheksiz qudratlidir”.²

Yuqoridagi tahlillarimizga tayanib, quyidagilarni xulosa sifatida keltirishimiz mumkin bo'ladi, haqiqatdan ham, Mopassan ijodi serqirra va beqiyos. Mopassan o'zining asarlarini o'ziga xos xususiyatlarini ajoyib kondensatsiya kuchi bilan o'zida mujassam etgan. Bular “kuchli” qahramonlardir, ularning orqasida ijtimoiy rivojlanish tendensiyalari, ko'plab insonlar badiiy qiyofasi orqali olamning poetik manzarasini yaratganligi ko'rishimiz mumkin.

**Tursunkulov Sanjar Dilmurod o'g'li (Samarqand davlat Chet tillar instituti
Roman-german tillari fakulteti dekani o'rinbosari; e-mail:sanjar01061991@gmail.com)
20-ASRNING BIRINCHI YARMIDA ISPAN NASRINING POETIK XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr ispan adabiyotidagi ispan ziyolilarining o'z atrofida sodir bo'layotgan barcha voqealarni “1898-yil falokati” deb atashgani, adabiy jamoani tashkil qilgani hamda ijtimoiy-siyosiy tahlil qilishning bir qismi sifatida “98-yillar avlodi” deb nomlagani o'rganilgan. Bu

¹ Узоқ Жўракулов. Адабий-тарихий жараён: иждокор. Жанр. Хронотоп. Тошкент, 2015, 89-бет.

² Қаршибоева У.Д. Француз романтизм прозасининг поэтик хусусиятлари (Шатобриан ва В.Гюго ижоди ми-солида). Дисс... филология фан. доктори, Тошкент, 2016, 102-бет.

davrda adabiyotdagi nasr janrida ham, she'riyatda ham asta-sekin bo'lsa-da, o'sish davom etgani va ularning poetik xususiyatlari haqida qisman fikr yuritilgan.

Аннотация. В статье исследуется, как испанские интеллектуалы в испанской литературе XX века называли все, что происходило вокруг них, “катастрофой 1898 года”, формируя литературное сообщество, а также называя это “поколением 98-х” в рамках социально-политического анализа. В этот период проза в литературе продолжала расти, хотя и медленно, как в прозе, так и в поэзии, и частично рассматривалась их поэтическая характеристика.

Annotation. This article explores how Spanish intellectuals in the Spanish literature of the 20th century called everything that happened around them the “catastrophe of 1898”, forming a literary community, and also calling it the “generation of the '98s” within the framework of socio-political analysis. During this period, prose in literature continued to grow, albeit slowly, both in genre and in poetry, and their poetic characteristics were partially considered.

Kalit so'zlar: adabiy tur, dialogik hodisa, konsentratsiya, sujet, she'riyat, janr, nasr.

Ключевые слова: литературный тип, диалогическое событие, концентрация, сюжет, поэзия, жанр, проза.

Key words: literary type, dialogic event, concentration, plot, poetry, genre, prose.

XX asr Ispaniya uchun nihoyatda fojiali boshlandi, siyosiy va iqtisodiy sabablar asta-sekin chuqur inqirozga olib keldi. 1898-yilda Amerika-Ispaniya urushi, undan oldin Kuba va Filippinda Madrid xalqi ko'targan qo'zg'oloni to'liq va shafqatsiz mag'lubiyati bilan yakunlandi.¹

Ispaniya o'z mustamlakalarini, imperiya maqomini va dunyodagi mavqeyini yo'qotdi. Bu butun ispan jamiyati uchun jiddiy zarba va yo'qotish bo'ldi, unning oqibatlaridan uzoq yillar davomida tiklanish imkoni bo'lmadi.² R.Maestaning 1898-yilda yozgan ilmiy asarlarida “Milliy kasallikning bir ko'rinishi” deb nomlagan, o'shanda avvalgi buyuklik haqidagi barcha illuziyalar bir lahzada barham topgani, voqelikning yangi manzarasi faqat chuqur ommaviy va milliy tushkunlikka olib kelgan.

Ispan ziyolilari o'z atrofida sodir bo'layotgan hamma narsani “1898-yil falokati” deb atashgan, adabiy jamoani tashkil qilgan. 1913-yilda R.Chandler vaziyatni ijtimoiy-siyosiy tahlil qilishning bir qismi sifatida “98-yillar avlodi” deb nomlagan.³

Bu vaqt ichida adabiyotdagi nasr janrda ham she'riyatda ham asta-sekin bo'lsa-da, o'sish davom etib bordi. boshqa adabiy namoyishlar haqidagi tadqiqotlar bilan taqqoslaganda, ular fransuz nasr she'riyatida eng ko'p ishlatilgan va hozirgacha ishlatilayotgan nasriy she'rni, keyinchalik, tahlil qilish uchun tillarda boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi.

Bu nom o'zining aniqligi va to'g'riligi bilan ziyolilar ongida mustahkam o'rnashib qolgan, bugungi kunda ham professional muhitda qo'llanilmoqda.⁴ Asorin (Xose Martines Ruiz), Jasinto Benavente, Pio Baroxa, Migel de Unamuno, Ramon Mariya del Valle Inkolan, Visente Blasko Ibanes va boshqa ko'plab ijodkorlar bu avlod yozuvchilarining ko'zga ko'ringan vakillari hisoblanadi.

“98-avlod” hamjihatligi bilan ajralib turardi va uzoq vaqt samarali mehnat qildilar. Ular bir qator qo'shma manifestlarni chiqarishga muvaffaq bo'ldilar va ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda qatnashdilar, xususan, 19-asr boshlarida, ya'ni, 1901-yilda mashhur shoir va jurnalist Mariano Xose de Lara qabriga gul qo'yishdi. Ispaniya va uning buyuk odamlari haqida ko'plab maqolalar yozilgan. Shu bilan birga, 1903-yildan boshlab, “1898-yil avlodi” faol guruh (ijtimoiy-siyosiy harakat) sifatida o'z faoliyatini to'xtatdi va uning vakillarining g'oyalari muntazam muhokama qilinadigan nazariy tushunchalar yig'indisi sifatida tarixda qoldi.

Bu yozuvchilarni zamonaviy ispan voqeligini tanqid qilish, davlat va jamiyat va mamlakatni yangilash uchun foydali islohotlarning boshlovchisi bo'lish istagi ularni birlashtirdi, ma'naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulga yo'l qo'ymaslik uchun bor kuchini sarfladilar. “1898-yil avlodi” vakillarining har biri, bir tomondan, bir maqsad sari yo'l oldi, ikkinchi tomondan, adabiy ijodda individual yondashuvlar, o'ziga xos qimmatli g'oyalarni qo'llagan.

¹ Maeztu R. Responsabilidad (1898), en Espana y Europa. Buenos Aires: ed. de Maria de Maeztu, Espana-Calpe Argentina, 1947, p. 38.

² Плавский З.И. Испанская литература XIX–XX веков. М., “Высшая школа”, 1982.

³ Chandler R.E. A New History of Spanish Literature. Louisiana State University Press, 1991, p. 221.

⁴ Enseñanza D.G. Superior e Investigación Científica. Real Academia de la Historia. Espana: Cambio de Siglo. Madrid, 2000, p. 11.

Turli davlatlardagi olimlar o'z san'at asarlarining xususiyatlarini tahlil qilib, ular bir toifa emas, lekin ularda ko'rilgan mafkura milliy halokatning og'ir oqibatlari bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga keladi.

“98-yil avlodi” eski an'anaviy qonunlar va asoslarni, tarixiy va diniy merosni inkor etishga qaratilgan bo'lsa-da, ispan jamiyatini tanqid qilishga intilmagan, chunki ular o'z missiyasini badiiy adabiyot orqali yangi dunyoqarashni shakllantirishda ko'rgan. Garchi ularning fikrlari ko'p jihatdan farq qilsa-da, bu yozuvchilarning umumiy yondashuvi edi.

“1898-yil avlodi”ning ba'zi vakillari jamiyatni kuchli kapitalistik davlat qurish uchun Ispaniyani tezda yevropalashtirish zarurligiga ishonirdilar. Xususan, “Boshqa Ispaniya” asarini nashr etgan R. Maestuning fikricha, mamlakat turli xil sanoat turlarida “biznes va dividend” yo'lidan borishi kerak, shunda shaharlarda ko'chalar o'zgarib borayotgani, fabrikalar qurilayotgani va korxonalar barpo etilayotganini sezish mumkin.¹

Ko'rib chiqilayotgan yo'nalishning boshqa yozuvchilari tarixga “ispanchilar” (“tuproqchilar”) nomi bilan kirdilar, ular o'z qarashlari va g'oyalari uchun Anxel Ganivetning hukmini asos qilib oldilar, ular Ispaniya uchun tashqaridan yopilishi muhim deb hisoblaydilar. Jahondagi kontsepsiyasini “Ispan mafkurasi” 1896-yilgi asarida asoslab berdi.

1898-yilgi avlod Ispaniya va uning xalqi uchun Robinson qiyofasida ko'ringan kapitalizmning pragmatizmi va tejamkorligiga alternativ va uni yaratishga intilish muhim deb hisoblardi. Tadqiqotchi O.V.Juravlevning fikriga ko'ra, “1898-yil avlodi” ijodiy faoliyatining g'oyaviy asosi an'anaviy Ispaniyani rad etish va mavjud resurslarni mamlakatni qayta tiklashga o'ylangan holda jamlash edi.²

“Ispanchilar” milliy madaniyatni rivojlantirish va xalqning o'z-o'zini anglashini tiklash ustuvor vazifa bo'lishi kerakligini ta'kidladilar. 19-asr oxiridagi madaniyat ispan an'anaviy ramzlari va o'ziga xosligini mustahkamlashga tayangan.

20-asr boshlarida ispan madaniyatining alohida vakillaridan biri bo'lgan hatto butun Yevropani “ispanlashtirish”ga intilgan. Xususan, Migel de Unamuno nafaqat Yevropani, balki butun dunyoni “Ispanlashtirish” haqida gapirgan, garchi bu kimgadir takabburlikdek tuyulsa ham, u savdogarlik bilan shug'ullanganligi bois, Ispaniyada qahramonlik ruhi borligini yozgan.³

Shu bilan birga, milliy madaniyatni boshqa mamlakatlarga yoyish bo'yicha ulkan rejalarga qaramay, “98-yil avlodi” ijodkorlari asosiy e'tiborni ichki ishlar, yangi dunyoqarash ma'nolarini shakllantirishga qaratdilar. Umuman olganda, “98-avlodi” yozuvchilari tushunchasida Ispaniya madaniyati mazmun jihatdan mamlakatning ma'muriy-hududiy chegaralaridan, turli etnik va tarixiy ta'riflaridan ancha kengroqdir, shuning uchun ham asta-sekin chuqur o'rin egallaydi. Jamiyatda ispan borlig'ining, tabiatning o'zi bilan Yer yuzi miqyosdagi birligining asosi sifatida tushuniladi.⁴

Ularning adabiy faoliyati milliy o'tmishni qayta ko'rib chiqishga, Ispaniya imperiyasining qulashiga olib kelgan fojiali vaziyatning yuzaga kelishining dastlabki shartlariga tarixiy baho berishga qaratilgan edi. Ularning adabiy asarlarini o'rganar ekan, R.Karr “98-yil avlodi” adiblari jamiyatdagi ko'plab buzg'unchi hodisalarga qarshilik ko'rsatishga muvaffaq bo'lganliklarini, biroq, keyinchalik, an'analar ta'sirida o'zlarining noroziliklarini ko'rsatishganini ta'kidladi.⁵ Biz ishonamizki, R.Karr Unamuno tomonidan shakllantirilgan tarix tushunchasini nazarda tutgan.⁶

Unda aytilishicha, davlatning rasmiy tarixini hujjatlardan o'rganish mumkin, lekin bunga parallel ravishda tadqiqotchilarning alohida e'tiborini talab qiladigan haqiqiy norasmiy xalq tarixi mavjud. Buyuk ispan xalqining tiklanishiga yordam so'rash kerak deb o'ylagan.

Shu nuqtayi nazardan, olimlarning “98-yil avlodi” ispan yozuvchilari ijodiy merosiga qiziqishi, tabiiy. I.A.Terteryan o'tmishdagi davlat tizimini, uning fojiali taqdiri va kelajakdagi rivojlanish salohiyatini tahlil qilib chiqqan va Ispaniya “1898-yil avlodi”ning eng asosiy mavzusi bo'lgan, degan xulosaga

¹ Цит По. Там же. С. 12.

² Журавлев О.В. Пути и перепутья. Очерки испанской философии XIX–XX вв. СПб, изд-во СПбГУ, 1992, с. 138.

³ Balfour S. The end of Spanish Empire 1898–1923. Oxford, Oxford University Press, 1997, p. 2.

⁴ Цит По, Журавлев О.В. Пути и перепутья: Очерки испанской философии XIX–XX вв. СПб, изд-во СПбГУ, 1992, с. 141.

⁵ Carr R. Espana 1808–1975. Barcelona, Ariel Historia, 1982, p. 506.

⁶ Там же. С. 140.

kelgan.¹ Darhaqiqat, hatto yozuvchilar asarlarining sarlavhalari ham shundan dalolat beradi: R.De Maestuning “Yangi Ispaniya tomon” (1899), Ortega va Gassetning “Don Kixot haqida tugallanmagan meditatsiyalar” (1914), Migelning “Don Kixot va Sancho hayoti”. Servantes Saavedra, Migel de Unamuno tomonidan tushuntirilgan va sharhlangan” 1905-yilda yozilgan asar, o‘zining “Ispaniya, Ispaniya, Ispaniya!” 1931-yilda yozilgan asar va shu kabi g‘oyali va mazmunli yo‘nalishdagi boshqa ko‘plab asarlar yozilgan.²

Ispaniyaning o‘tmishi, buguni va kelajagi muammolari biz ko‘rib chiqayotgan yozuvchilar avlodi tomonidan turlicha talqin qilingan: buyuk madaniyat, ona tabiat manzaralari tasviri, mintaqaviy hayotning o‘ziga xos xususiyatlaridan iborat edi. Don Kixot obrazi haqiqiy madaniy timsolga aylandi, chunki u “Ispaniya muammosi”ni ochib berishda eng to‘g‘risi bo‘lib chiqdi.³

Migel de Unamunoning fikricha, u “Don Kixot hayoti”ning ikkinchi nashri muqaddimasida aytib o‘tgan, Ispaniyadagi hozirgi tarixiy lahzani “Afsus, yosh! Umidsiz baxtsiz yosh!” O‘quvchi murojaatida muallif: “Har doim ritsar kabi harakat qiling: yo‘lda uchragan yolg‘onni to‘g‘rilang”. K.Brittning fikricha, muallif o‘zini o‘rab turgan voqelikka muqobil ko‘rsata olgan, bu esa Don Kixotning jasoratini ta‘kidlashda namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga, biz I.A.ning pozitsiyasini ko‘rib chiqamiz. Terteryaning fikricha, yozuvchi davlatning tiklanishini ispanlar shaxsiyatining yangilanishida ko‘rgan.

Muallif Don Kixotning hayotda o‘lmasligi muammosi talqinida, matnning kichik bir parchasida bir necha bor takrorlangan iborani uchratish mumkin: “Ikkinchi dunyoda men yo‘q!”..

“98-yil avlodi” ispan yozuvchilari ijodining muhim qismi davlatga fojiali voqelikdan xalos bo‘lishga yordam berish yo‘llarini topishga, xalqni ilhomlantirish va milliy ongini yuksaltirish mumkin bo‘lgan ramzlarni tanlashga bag‘ishlangan. Ruh, qaytib kelgan odamlar jamoat hayotining normallashtirishiga umid qilmoqda. Adabiy ijod 15-asrda Ispaniyaning birlashishida asosiy rol o‘ynagan ma‘lum bir “Kastilya madaniyati”ni shakllantirdi.

1898-yilgi avlodning aksariyati mamlakatning boshqa mintaqalaridan edi, ammo ularning asosiy vazifasi millat vijdonini uyg‘otish va qat‘iy ishontirish edilar, agar bu ispan madaniyatining o‘zagi sifatida Kastilian-Ispano tilida yozilgan bo‘lsa, eng samarali bo‘lishi mumkin edi.

Migel de Unamuno “Don Kixot hayoti” asarida ispan adabiy tili haqida yozgan edi, u o‘z asarlarida so‘z mahoratini oshirgan, ammo matnga og‘izdan og‘izga o‘tadigan, so‘zlashuv uslubiga tegishli iboralar kiritilgan. Odamlarning hayoti va ruhi bilan to‘ldirilgan, har bir ispaniyalikga ma‘lum bo‘lgan va juda ko‘p hissiy tajribalarni keltirib chiqaradigan aniqlik va tozalik bilan ajralib turadi. “98-yil avlodi” yozuvchilari o‘quvchilarga mamlakatning zaiflashgan tarixiy markazi – Kastiliyani mustahkamlash zarurligini ko‘rsatdilar, ushbu mintaqa landshaftining g‘ayrioddiy go‘zalligi va ijodiy salohiyatini yuqori baholadilar.⁴

“98-yil avlodi” adiblarining adabiy asarlaridagi manzaralar bilan ishlashga kelsak, I.A.Terteryan tasvirlangan landshaft so‘z bilan o‘zgargan, u tarixiy voqealar va ispanlarning milliy xarakterini aks ettiruvchi konseptual landshaftga o‘xshaydi, degan xulosaga keldi.⁵ Biroq san‘at asarlari mualliflari nafaqat Kastiliyaga e‘tibor qaratishgan. Xususan, Blasko Ibanes asarlarida u tug‘ilgan Valensiya shahriga katta e‘tibor berganlar.

Bu shahar joylashgan hudud ham xuddi shunday nomga ega bo‘lib, yozuvchi ijodida tabiat, odamlarning xarakteri, mashaqqatli hayoti orqali ochib berilgan. Qahramonlar ishtirokida turli tadbirlar bo‘lib o‘tgan bog‘lar, plyajlar, shahar ko‘chalari va turli mahallalar haqida hikoya qiluvchi B.Ibanes mohiyatan kitobxonlarga Valensiyaning barcha muammolarini ochib beradi.

B. Ibanezning roman va hikoyalari 1894–1902 mahalliy muhitni yorqin ochib beradigan haqiqiy “Valensiya” siklini ifodalaydi. Yozuvchi Valensiyada butun Ispaniyani ko‘radi, u o‘ziga ma‘lum va tushunarli mahalliy hayot materiallaridan foydalangan holda eng dolzarb va murakkab milliy muammolarni ko‘tara oladi.⁶

¹ Тертерян И.А. Испытание историей. Очерки испанской литературы XX века. М., “Наука”, 1973, с. 37.

² Унамуно М. де. Житие Дон Кихота и Санчо. СПб, “Азбука”, 2011, с. 41.

³ Корконосенко К.С. Кихотизм – индивидуальная религия Мигеля де Унамуно. Унамуно М. де. Житие Дон Кихота и Санчо. М. де Унамуно. СПб, “Азбука”, 2011, с. 9.

⁴ Britt C. Arredondo. Quixotism. The Imaginative Denial of Spain’s Loss of Empire. New York, 1966, p. 77.

⁵ Тертерян И.А. Испытание историей. Очерки испанской литературы XX века. М., “Наука”, 1973, с. 84.

⁶ Корконосенко К.С. Кихотизм – индивидуальная религия Мигеля де Унамуно. Унамуно М. де. Житие Дон Кихота и Санчо. М. де Унамуно. СПб, “Азбука”, 2011, с. 20.

“98-yil avlodi” mualliflari Ispaniyani jonlantirishga intilishdi. Ularning g‘oya va umidlari hayotda ro‘yobga chiqmaganiga qaramay, yurtga muhabbat, yuksak vatanparvarlik ruhi, xalqning kelajagi uchun qayg‘urishi, shubhasiz.¹

“1898-yil avlodi” ijodkorlarining sa‘y-harakatlarini roman yozuvchilari R.P. de Ayala (1880–1962) va R.G. de la Serna (1888–1963), 1910-yillarda adabiyotga kirgan, keyin esa “1927-yil avlodi” sanalgan shoirlar va ularning zamondoshlari – rassom Salvador Dali, rejissor Luis Buñuel ijod namunalari paydo bo‘lgan. 1920-yillarda Ispaniya madaniyati G‘arbiy Yevropa avangard yo‘nalishlari – ekspressionizm va surrealizm kabi yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq rivojlangan.

Boltayeva Gulchehra Shokirovna (NavDPI dotsenti, f.f.n.; boltaevagulchekhra@gmail.com)
OZARBAYJON ADABIYOTIDA MUXAMMAS JANRI TAKOMILI

Annotatsiya. XVI asrdan boshlab ozarbayjon adabiyoti tarixida muxammas g‘azaldan keyin ijod ahli tomonidan faol qo‘llanilgan she‘riy janrlardan biri sifatida muhim o‘rin tutadi. Bu janrdagi asarlar an‘anaviyligi, mavzu rang-barangligi, obrazlarga boyligi, badiiy tili bilan muxammasnavislik tarixida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Sharq adabiyotshunosligida g‘azaldan keyingi janrlar takomilida Alisher Navoiyning ta‘siri katta. Bunday holat, asosan, ozarbayjon turkiysida ijod qilgan shoirlarning asarlarida ham uchraydi. Maqolada XVI–XX asrlarda ozarbayjon adabiyotida muxammas janri takomiliga hissa qo‘shgan ijodkorlar, muxammaslarining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация. С XVI века среди художественных творений поэтов азербайджанской литературы, важное место занимают произведения лирического жанра «мухаммас». Произведения этого жанра занимают важное место в истории мухаммасописания своей традиционностью, разнообразием тематики, богатством образов, художественным языком. В восточном литературоведении Алишер Навои оказал огромное влияние на развитие жанров после газели. Подобную ситуацию можно встретить в произведениях поэтов, писавших преимущественно на азербайджанском тюркском языке. В статье анализируются произведения поэтов-мухаммаснависов, внесших большой вклад в совершенствование жанра мухаммас в литературе Азербайджана XVI–XX веков.

Annotation. Since the 16th century, among the artistic creations of poets of Azerbaijani literature, works of the lyrical genre “mukhammas” have occupied an important place. Works of this genre occupy an important place in the history of Mukhammas writing due to their traditionalism, variety of themes, richness of images, and artistic language. In Eastern literary criticism, Alisher Navoi had a huge influence on the development of genres after the gazelle. A similar situation can be found in the works of poets who wrote primarily in the Azerbaijani Turkic language. The article analyzes the works of Mukhammasanist poets who made a great contribution to the improvement of the Mukhammasan genre in the literature of Azerbaijan in the 16th-20th centuries.

Kalit so‘zlar: muxammas, muxammasnavislik an‘anasi, taxmis-muxammas, safaviylar sulolasi, ozarbayjon adabiyoti, ozarbayjon turkiysi, adabiy ta‘sir, ijtimoiy mavzu, diniy mavzu, xalqaro mavzu.

Ключевые слова: мухаммас, традиция мухаммасописания, тахмис-мухаммас, династия сефевидов, азербайджанская литература, азербайджано-тюркский язык, литературное влияние, социальная тема, религиозная тема, международная тема.

Key words: mukhammas, tradition of mukhammas writing, tahmis-muhammas, Safavid dynasty, Azerbaijani literature, Azerbaijani-Turkic language, literary influence, social theme, religious theme, international theme.

I. Kirish. Ozarbayjon adabiyoti go‘zal va jozibador adabiyot sifatida turkiy xalqlar adabiyoti ichida ajralib turadi. Ozarbayjon hududida VII–VIII asrlarda arab tili, IX asrdan boshlab, fors tili davlat tili mavqega ega bo‘lganligi uchun ko‘pgina ijodkorlar asarlarini arab va fors tillarida yozganlar. Ozarbayjonda yashab ijod qilgan mashhur Qatron Tabriziy, Abul ul-Ganjaviy, Muhammad Falaki Shirvoniy, mexseti Ganjaviy, Ismoil Yazor, Ahmad Tabriziy, Xatib Tabriziy, Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy, Muhammad Fuzuliy kabi ijodkorlarning asarlari arab va fors tillarida yaratilgan. XIII asrgacha ko‘pgina shoirlar ozarbayjon shoirlarining ijodida arab va fors tilining hamda mazkur tillardagi adabiyotning ta‘siri yaqqol se-

¹ Herrero J. Negotiating Past and Present: Studies in Spanish Literature. Rookwood, Virginia, Edicion by David Thatcher Gies, 1997, p. 70.

ziladi.¹ XIV–XV asrlarda Ozarbayjon tarixida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, XV asrda safa-viylar sulolasining taxtga kelishi ozarbayjon tili va adabiyotining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu davrning o'ziga xos jihatlari xususida haqida akademik Hamid Orasli shunday yozadi: “XV asrdan boshlab ozarbayjon adabiyoti o'z milliy tilida rivojlana boshladi. Safaviylar sulolasining taxtga kelishi bilan ozarbayjon tiliga e'tibor kuchaydi va bu sulola tomonidan ozarbayjon tili davlat tili sifatida qo'llanilib, mazkur til ozarbayjon adabiy tilining shakllanishida asosiy o'rin tutadi”.² Bu davrgacha bo'lgan ozarbayjon shoirlarining ijod mahsuli sifatida qasida, doston, g'azal, ruboiy va qit'ani alohida ta'kidlash lozim.

II. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XVI asrdan boshlab, ozarbayjon adabiyoti tarixida ham muxammas g'azaldan keyin ijod ahli tomonidan faol qo'llanilgan she'riy janrlardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Ozarbayjon adabiyotida muxammas janri genezisi, taraqqiyoti va takomili borasida Muhammad Fuzuliy nomidagi Ozarbayjon Qo'lyozmalar instituti rahbari, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Nailya Mustafayevaning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Olimaning ta'kidlashicha, “Janrlar rang-barangligi va muxammas, taxmis yozish an'anasi XVI asrga kelib takomillashgan. G'azaldan keyingi janrlar takomilida Alisher Navoiyning ta'siri katta. Bunday holat asosan ozarbayjon turkiysida ijod qilgan shoirlarning asarlarida uchraydi. XVI asr adabiyotining yirik namoyondalari sifatida Shoh Ismoil Xatoiy, Muhammad Fuzuliy, Habibiy, Shohiy, G'aribiy, Sodiq Afshar, Ibrohim Mirzo, Zamiriy, Shamsiy, Zehniy, Fazliy kabilarni ta'kidlash mumkin. Muhammad Fuzuliyning turkiy devonida muxammas, taxmis, murabba', qit'a va ruboiy alohida o'rin tutadi. Bu davr adabiyotida muxammas va taxmis yaratish an'ana-ga aylangan. Xulqiy, Fuzuliy, Masihiy, Yusuf bey Ustachlu kabi shoirlar ona tilida muxammas yaratganlar. Shoh Ismoil Xatoiyning yagona taxmisi forschadir. U Hofizning “G'olame-nərgis məst, to təcərə-ənd”³ misrasi bilan boshlangan g'azaliga 7 bandlik taxmis yozgan”.⁴ Muhammad Fuzuliy muxammaslari tahliliga bag'ishlangan mazkur maqolada N.Mustafayeva Ozarbayjon turkchasi shoir devonidan joy olgan 5 muxammas (3 muxammas, 2 taxmis)ning janr tabiati, mavzu doirasi, badiiyati va poetik obrazlar rang-barangligini tahlil qilib, Fuzuliyning muxammas yaratish mahoratini yuksak baholaydi. Fuzuliy muxammaslari, asosan, ishqiy mavzuda yaratilganligini alohida ta'kidlaydi. Shoir muxammaslariga Alisher Navoiyning adabiy ta'sirini muxammaslardan keltirilgan misralar orqali dalillaydi.

III. Tahlil. XVIII asr ozarbayjon adabiyotida xalq og'zaki ijodi janrlari bilan birga mumtoz janr – muxammas betakror taraqqiyot bosqichiga ko'tarilganligi bu davrga xos ilmiy-adabiy manbalarda ta'kidlab o'tilgan.⁵ Bu davr adabiyotining Nishot Shirvoniy, Shokir Shirvoniy, Og'a Masih Shirvoniy, Maxjur Shirvoniy, Shekili Nabi, Mulla Vali Vedodiy, Mulla Panoh Vagif kabi shoirlari xalq orasida mashhur asarlarini aynan muxammas janrida yozganliklarini ularning lirik asarlari, ulardan tartib berilgan devonlar dalillaydi. Bu davr she'riyatining taniqli vakili Mulla Panoh Vagif ijodi xalq she'riyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi – goshma yozma she'riyatda keng qo'llanila boshladi. Shoir she'riyatining asosiy mavzusi insonning sevgisi va ma'naviy go'zalligi edi. Bu davr adabiyotida muxammas janrining spesifik xususiyatlarini alohida qiyosiy-tarixiy aspektida o'rgangan ozar olimasi Nailya Mustafayevaning XVIII asr Ozar-

¹Ариф М. Азербейджанская литература. Москва, 1979; Araslı Həmid. Azərbaycan ədəbiyyatı tarixi və problemləri. Bakı: Gənclik, 1998; Araslı Həmid. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. Bakı, Azərbaycan Uşaq və Gənclər Ədəbiyyatı Nəşriyyatı, 1958; Azərbaycan ədəbiyyatının tarixi poetikası. II kitab, Bakı, “Elm”, 2006.; Azərbaycan ədəbiyyatı tarixi. Altı cildə. Üçüncü cild, Bakı, “Elm”, 2009; Azərbaycan klassik ədəbiyyatı kitabxanası. 20 cildə. Üçüncü cild, XIII–XVI əsrlər Azərbaycan şeiri. Bakı, “Elm”, 1984.

² Araslı Həmid. Böyük Azərbaycan şairi Füzuli. Bakı, Azərbaycan Uşaq və Gənclər Ədəbiyyatı Nəşriyyatı, 1958, s. 45

³Xətai Şah İsmayıl Səfəvi. Külliyyatı. Tərtibçi: Mirzə Rəsul İsmayilzadə. Tehran, “Əlhuda”, 2004, s. 505 – 507.

⁴Mustafayeva Nailə. Füzuli və müasirlərinin müxəmməsləri barədə. Risalə. Araşdırmalar toplusu. 12-ci kitab, Bakı, “Elm və Təhsil” nəşriyyatı, 2016, s. 83.

⁵Кочарли Фиридун бей. Азербайджанская литература: в 2, т. I, Баку, «Наука», 1978 (на азерб. языке); Арасли Хамид. История азербайджанской литературы XVII–XVIII вв. Баку, изд-во Азербайджанского университета, 1956 (на азерб. языке); Библиотека классической азербайджанской литературы, в 20 т., т. VI, Баку, «Наука», 1988 (на азерб. языке); Дадашзаде Араз. Азербайджанская лирика XIII. Баку, «Наука», 1980 (на азерб. языке); Мумгаз Салман. Источники литературы в Азербайджане. Баку, “Eurasia Press”, 2006 (на азерб. языке); Ахундов Мирза Фатали. Художественные и философские работы. Баку, «Писатель», 1987 (на азерб. языке); Вагиф Молла Панах. Сочинения. Баку, «Писатель», 1988 (на азерб. языке); Дадашзаде Араз. Молла Панах Вагиф (Жизнь и творчество). Баку, издательство Академии наук Азербайджана, 1966 (на азерб. языке).

bayjon adabiyotida muxammas janri takomili masalalari bag'ishlangan yana bir tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi.¹

Bu davr adabiyoti namoyandalari muxammas janrida kechinma va tuyg'ularni real ifodalash imkoniyatlarini kashf etdilar. Ma'lumki, muxammas boshqa janrlarga nisbatan lirik kechinma va tuyg'ularni, keng qamrovli ma'lumotlarni ifodalash imkoniyatiga ega va bu har bir she'riy band misralarida namoyon bo'ladi. Bu davr adabiyotida muxammas janrining taraqqiy etishini N.Mustafayeva quyidagicha izohlaydi: "Ozarbayjon shoirlari XVIII asr voqealarini tasvirlashda, asosan, shu janrga murojaat qilishga intilganlar, chunki aynan shu janr imkoniyatlari orqali jamiyatda sodir bo'lgan voqealarni to'g'ri, real va batafsil aks ettirish, voqelikni ifodalash mumkin bo'lgan.

Har bir qalam ustasining individual fazilatlarini ifodalashda muxammaslarning rolini ham ta'kidlash lozim. Bu fazilatlar muxammaslarni ko'rsatilgan asrning dolzarb janriga aylantirdi. XVIII asr ozarbayjon shoirlari Nishat Shirvoniy, Shokir Shirvoniy, Mahchur Shirvoniy, Og'a Masih Shirvoniy, Shekili Nabi, Husaynixon Mushtaq, Mulla Vedodiy, Mulla Panoh Vagif she'rlarining muxammas janridagi namunalarini bugungi kungacha yetib kelgan va Ozarbayjon adabiyoti yilnomasining tarixiy asarlariga aylangan. Ushbu she'riy janrning o'ziga xos xususiyati tarixiy mavzularga murojaat qilish edi".²

Bu davr shoirlari tomonidan yaratilgan muxammaslar tematikasida an'anaviy ishqiy mavzu, tabiat, peyzaj tasviri bilan birga ko'proq davrning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy voqealari haqida qalam tebratilganligi namoyon bo'ladi. Umuman, ozarbayjon adabiyotida muxammas janri taraqqiyotida bu davr ijodkorlari novator shoir sifatida ko'zga tashlanadi. Bu yangilik muxammas janrining ko'lamini kengaytirishda namoyon bo'ldi. Xususan, muxammaslarda o'z ifodasini topgan hayotga optimistik qarash va real munosabatning ahamiyatini ta'kidlash lozim. XVIII asr ozarbayjon she'riyatining eng salmoqli xususiyatlari Mulla Panoh Vagif ijodida mukammal shaklda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-falsafiy, tarixiy mavzularning yorqin ifodasi bo'lgan Vagif she'riyati, jumladan, muxammaslari Ozarbayjon adabiyotida dunyoviylik bilan bir qatorda realizm sari tashlangan qat'iy qadamlar edi.

XX asr boshlarida Ozarbayjonda siyosiy faollik kuchayadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, siyosiy tashkilotlar tuzilib, milliy kuchlarning birlashishi nazarga tashlanadi.³ Bu davrda "Hayot", "Irshod", "Fuyuzat", "Mulla Nasriddin", "Ochiq so'z" kabi ommaviy axborot matbuot vositalarining yuzaga kelishi va rivojlanishi, vatanparvar yozuvchi hamda shoirlarning faol ijodi xalqning milliy o'zlikni anglash, Vataniga muhabbat tuyg'usini shakllantirdi. Bu davr shoirlari matbuotda erkinlik, milliy istiqlol haqidagi she'rlar bilan chiqishdi. Asosan, mumtoz she'riyat janrlarida xalqqa taqdim etilgan istiqlol va erk g'oyasi bu davr adabiyotining yetakchi mavzusiga aylandi. Bu haqda prof. Ahmad Jafaro'g'li yozadi: "Yangi she'rlar ma'lum ma'noda klassik she'rning tuzilishi, shaklini saqlab qolgan, ammo mavzu nuqtayi nazaridan, milliy hamjamiyatning o'zgarishlarga bo'lgan tendensiyalari va ehtiyojlarini ifodalay boshladi. Vaqt o'tishi bilan vatanparvarlik tuyg'usini o'zida aks ettirib shuhrat qozongan milliy adabiyot maktablarining shakllanishi ozarbayjon adabiyotining mohiyatiga katta ta'sir ko'rsatdi".⁴

XX asr boshlarida ozarbayjon adabiyotida lirikaning jadal taraqqiyoti ko'zga tashlanadi. She'riyatda erkinlik, yevropadan yangi she'riy janrlarning kirib kelishi ozarbayjon adabiyotining ham janr, mavzu doirasiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Bu davr ijodkorlari uchun muxammas janrida ijod qilish kuchayib, ularning imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu davrda yaratilgan muxammaslarda mavzu doirasining kengayishi, janr shaklida yangiliklar, janrning yasharishi ko'zga tashlanadi. Ozarbayjon shoiri Mirzo Aliakbar Sobir (1862–1911)ning muxammaslarida bu janrning mavzu va forma jihatdan yangilanishlari yorqin nazarga tashlanadi. Satirik shoir Mirzo Aliakbar Sobirning muxammas yozishdagi novatorligi shundaki, uning ayrim muxammaslari ikki misra bilan boshlanib, keyingi uch misra beshlik banddagi misralardan iborat bo'ladi. Shoir muxammaslarining mavzu doirasi o'zida XX asrning ijtimoiy-siyosiy kayfiyatini ifodalab, ancha keng mavzularni qamrab oladi. Ozarbayjon adabiyotida bu davrda yaratilgan muxammaslarning mavzu doirasini olim N.Mustafayeva, asosan, 6 ga bo'ladi:

- 1) lirik sevgi mavzusidagi muxammaslar;
- 2) vatanparvarlik mavzusidagi muxammaslar;

¹Мустафаева Н. Жанр мухаммас в азербайджанской литературе XVIII века. <file:///C:/Users/GLHF/Desktop/жанр%20мухаммас.pdf>

²Мустафаева Н. Жанр мухаммас в азербайджанской литературе XVIII века. <file:///C:/Users/GLHF/Desktop/жанр%20мухаммас.pdf>

³ Azərbaycan tarixi. Yeddi cildə. Beşinci cild. Bakı, "Elm", 2001, s. 135 – 146.

⁴ Cəfəroğlu Əhməd. Seçilmiş əsərləri. Bakı, "Mütərcim", 2008, s. 236.

- 3) ijtimoiiy-siyosiy mavzudagi muxammaslar;
- 4) falsafiy mavzudagi muxammaslar;
- 5) diniy mavzudagi muxammaslar;
- 6) satirik mavzudagi muxammaslar.¹

XX asr boshlarida yaratilgan muxammaslarda shoirlar Vatan madhini asosiy planga chiqarib, uni ozod va farovon, gullab yashnagan holatda ko'rish istagini aks ettiradilar. Bir qator vatanparvarlik mavzusida yaratilgan muxammaslarda Vatanga fido bo'lish, uning erki va ozodligi kurashish madh etilib, ona yurti bosqinchilardan himoya qilishga chaqirilgan. Chunki o'tgan asr boshlarida Chor Rossiyasining aybi bilan Ozarbayjon va Armaniston o'rtasida yuzaga kelgan siyosiy kelishmovchilik, qarama-qarshiliklar ko'p qon to'kilishiga, shahar va qishloqlarning vayronagarchilikka yuz tutib, xalqning parokanda bo'lishiga, mamlakat tanazzulga uchrashiga sabab bo'ldi. Bu voqealar mazkur davr adabiyotida ham o'z aksini topdi. Mamo bek Mamay, Hodi Muhammad, Miqoil Mushfiq, Nazmi Ali, Sarbandi Komil, Mir Muhsin Navvob, Rijoiy, Shaig, Shaydo kabi shoirlar o'z muxammaslarida sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy aybdorlari, milliy kuchlarni birlashtirish, ona yurti bosqinchilardan himoya qilish haqida yozdilar.² XX asr she'riyatining atoqli namoyandasi Muhammad Hodi muxammaslarida erkinlikka erishish mavzusi mahorat bilan kuylanadi. Uning 1906-yil 1-noyabrda "Fuyuzat" jurnalida chop etilgan "Amali-tarag'i" muxammasida shoirning orzu-istaklari, fikrlari, yutuqlari Vatan va millat ravnaqi, erki bilan bog'liqligi, faqat ozod xalq haqiqiy taraqqiyotga erishib, farovon yashashi, mamlakat gullab-yashnashi mumkinligi g'oyasi ilgari suriladi. Muhammad Hodining 1906-yil 16-noyabrda "Tekamul" gazetasida birinchi marta nashr etilgan "Xalq ovozi" muxammasi ham xalq va millat erki, farovon hayot, baxtli kelajakka erishish orzusi bilan yo'g'rilgan:

*Hürriyyət ilə millət edər kəsbi-məali,
Hürriyyət ilə mülkün olur qiyməti ali,
Avropalı hürriyyət ilə tapdı kəməli.³*

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar Muhammad Hodining muxammaslarida Vatan madhi, milliy ozodlik g'oyasi tarannum etilsa, o'z ijodi bilan milliy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilgan bo'lsa, mashhur satirik shoir Mirzo Aliakbar Sobir mamlakat taqdiriga befarq qaragan, ilg'or rivojlanishga to'sqinlik qilgan reaksionerlarni qoraladi. Shoir ijodida ta'lim olish, yurt taqdiri, ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash bilan bog'liq masalalar ham qamrab olingan. Ozarbayjon Respublikasida 1920-yil 28-aprelda ro'y bergan davlat to'ntarishidan so'ng Jafar Jabbarli, Ahmad Javod, Ali Yusuf kabi shoirlar milliy mustaqillikni yo'qotish qayg'usini ifodalash uchun allegoriya, metafora va o'xshatishlardan foydalangan. Ozarbayjon adabiyotida bu davrda yaratilgan muxammaslarning boshqa davrdagi ijod namunalari bilan yana bir muhim farqi (jihati) – ko'proq satirik mavzularni qamrab olganligida.

Sovet hokimiyati davrida bir qancha ozar shoirlari klassik janrlarda ijod qilishda davom etdilar. V. Abbaszoda Hammal, M.S.Ordubadi, A.Nazmi, Miqoyil Rafili, Ali Nazim, Sulaymon Rustam, Miqoyil Mushfiq kabi ijodkorlar o'z muxammaslarida ona yurti madh etish bilan birga, davr mafkurasini ham ulug'laganlar. Davrning ko'zga ko'ringan muxammasnavis shoiri Miqoyil Mushfiqning 1926-yilda yozilgan "Vatan" nomli muxammasi bunday she'rlar orasida alohida o'rin tutadi. To'rt banddan iborat mazkur tarjeband-muxammasning har bir bandi oxirida "G'am va qayg'udan xoli yurtda" misrasi takrorlanib, badiiy mukammallikni ta'minlagan:

Qış getdi ölümlərlə, ölkəmdə bahar vardır,

¹Mustafayeva N. XX əsr azərbaycan ədəbiyyatında müxəmməs janrında yazılmış şeirlərin mövzu dairəsi. Risalə. Елми арашдырмалар журналі. №1, 2020 (18), Bakı, "Elm və Təhsil" nəşriyyatı, 2020, s. 151; Мустафаева Н.Б. Строфическая форма мухаммас в азербайджанской лирике XX века. Неофилология. 2020, т. 6, № 21, с. 76 – 84; DOI 10.20310/2587-6953-2020- 6-21-76-84.

²Məmai Məmo bəy. Şeirlər. Bakı, "Elm və təhsil", 2016, 210 s; Cəfəroğlu Əhməd. Seçilmiş əsərləri. Bakı, "Mütərcim", 2008, 408 s; Hadi Məhəmməd. Seçilmiş əsərləri. İki cild. Birinci cild. Bakı, "Elm", 1979, 470 s. 5; Müşfiq Mikayıl. Seçilmiş əsərləri. Bakı, 2013, 596 s; Nəzmi Əli. Seçilmiş əsərləri. Bakı, "Yazıçı", 1979, 361 s; Dərbəndi Kamil. Yağı bizim, dağı sizin. Bakı, "Nafta-Press", 2008, 404 s; Buzovnalı Hacı Arif. Xəzərim. Bakı, "Qanun", 2009, 304 s; Vəzirova Fəridə. Məmməd Səid Ordubadi. Bakı, "Gənclik", 1970, 122 s; Ordubadi Məmməd Səid. Seçilmiş şeirlər və hekayələr. Bakı: "Azər nəşr", 1951, 183 s; Şeyda Nəcəfqulu bəy. Şeirlər. Bakı, "Nurlan", 2006, 158 s; Arif Məmməd. Seçilmiş əsərləri. Üç cild. İkinci cild. Bakı, Azərbaycan Elmlər Akademiyası Nəşriyyatı, 1968, 516 s.; Cabbarlı Cəfər. Əsərləri. Dörd cild. I cild. Bakı: "Şərq-Qərb", 2005, 328 s; Müasir Hacı Mirsalam. Deyilən söz yadigardır. Bakı, MBM, 2012, 568 s; Tahir İbrahim. Əsərləri. Bakı, "Elm və təhsil", 2012, 633 s.

³ Hadi Məhəmməd. Seçilmiş əsərləri. İki cild. Birinci cild. Bakı, "Elm", 1979, s. 26.

*Bağlarda gözəlliklər, şən qəhqəhələr vardır,
Sevda könuşlərdə sevdikləri yar vardır,
Daim sevişirlər, bax, məzda olan ölkəmdə,
Qəmlərdən, ələmlərdən azad olan ölkəmdə.¹*

IV. Muhokama. XX asr boshlari ozar ijodkorlarining ko'pgina muxammaslari xalqaro voqealarga bag'ishlangan bo'lib, imperialistik kuchlarni tanqid ostiga oladi. Ulardan biri Fuzuliy lirik an'analari davomchisi, mumtoz g'azal ustasi sifatida tanilgan Aliog'a Vohid (1895–1965)dir. U, asosan, ijtimoiy mavzularda qalam tebratgan. XX asr boshlari va sovet davrida ijtimoiy hayot voqealariga munosabatini tasvirlab, adolatsizlik va kamchiliklarni tanqid qilib, Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmni fosh etuvchi muxammaslar yozgan. Ikkinchi jahon urushi davrida muxammasnavis shoir o'z asarlarida nemis fashizmining muqarrar mag'lubiyatini bashorat qilib, sovet askarlarining mardligi-yu matonatini she'r misralarida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalab beradi. Satirik shoir Aliakbar Sobir uslubida bir qancha satirik muxammaslar yozgan bu ijodkor jami yuzdan ortiq muxammaslar muallifidir. Hajm jihatdan uning muxammaslarini Ali Nazmiy muxammaslari bilan bilan solishtirish mumkin. Bu davr ozarbayjon she'riyatida diniy mavzudagi muxammaslar yaratish ham o'sib boradi. Ozar shoirlari orasida Aliog'a Vohid bu mavzudagi muxammaslari bilan ham ajralib turadi. Sovet davrida yozgan she'rlarida ateizm g'oyalari bilan sug'orilgan sotsialistik jamiyatda diniy aqidaparastlik, diniy marosimlarni qoralash, yangi jamiyatni ulug'lash motivlari yetakchilik qiladi. Shoirning "Kexsa musulmonlar", "Shayxdan yordam", "Shayxga tuhfa", "Zamonimiz", "Achchiq kulgu", "Mulla zamon"² va boshqa bir qator muxammaslarida odamlarning e'tiqodini suiiste'mol qilib, diniy marosimlardan manfaat kutadigan, faqat cho'ntagini o'ylaydigan mullalar qoralanadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan Ozarbayjon she'riyatida diniy mavzudagi she'rlar soni ortib boradi. Diniy she'rlar mualliflaridan biri Yusuf G'ulommirzodir. Uning "Tavhid", "Muhammad", "Qur'on", "Hazrati Ali haqida", "Fotima-yu-Zaxro", "Duo", "Johod", "O'lim va Shayton" kabi muxammaslari diniy mavzuga bag'ishlangan.

V. Xulosa. Ozarbayjon adabiyotida XVI asrda boshlangan muxammasnavislik an'anasi XX asrga kelib, o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi. XX asr ozarbayjon she'riyatida muxammasning baytli she'r shakli keng tarqalgan bo'lib, unda juda ko'p ijod namunalari yaratilgan. Bu davrda Ozarbayjon shoirlari yozgan muxammaslarning mavzu doirasi kengayib, muxammas tuzilishida yangi shakllarni izlash holati yuz berdi. Mashhur satirik Mirzo Aliakbar Sobir (1862–1911)ning muxammaslari ikkilik bayt bilan boshlanadi. Muhammaslar muhabbat, vatanparvarlik, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy va boshqa mavzularda yozilgan. Bir qator vatanparvarlik muxammaslarida ona zamin go'zalliklari ulug'lanadi. Ularning bir qismi Vatan himoyasiga bag'ishlangan. XX asr boshlarida yashagan shoirlar o'z vatanini ozod va ma'rifatli ko'rishni orzu qilganlar va bu haqda o'z asarlarida yozganlar. Bu davr adabiyotida satirik muxammaslar sonining ortib borganligi diqqatni tortadi. Dunyoda bo'layotgan xalqaro voqealarga munosabatni yoritishda ham shoirlar muxammas janridan unumli foydalanganlar. Umuman olganda, Ozarbayjon she'riyatida muxammas janri ko'plab dolzarb ijtimoiy muammolarni badiiy aks ettirish vositasi sifatida ko'plab ijodkorlar e'tiborini tortgan. So'z san'atkorlari bugungi kunda ham lirik kechinma va tuyg'ularni erkin ifodalashda bu janrning imkoniyatlaridan unumli foydalanib kelmoqdalar.

**Qahharova Dilafro'z Abdug'afforovna (O'zbekiston davlat
Jahon tillari universiteti "Jahon adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi)
BOBUR SHE'RIYATIDA KO'NGIL TIMSOLINING TURFA TALQINLARI**

Annotatsiya. Maqolada mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan ko'ngil timsoliga murojaat qilingan. Ko'ngil timsolining Bobur lirikasida talqiniga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, ko'ngil timsolining Bobur lirikasida qo'llanilishi qanday ma'nolarda aks etib kelganligi shoir g'azal va ruboiylaridan misollar keltirish orqali tahlil etilgan.

Аннотация. В статье говорится о символе сердца, который широко используется в классической литературе. Особый акцент сделан на интерпретации символа сердца в лирике Бабур. Кроме того, анализируется использование образа сердца в лирике Бабур на примерах из газелей и рубаев поэта.

¹ Mufiq Mikayil. Seçilmiş əsərləri. Bakı, 2013, s. 58.

² Əliağa Vahid. Seçilmiş əsərləri. İki cild. Birinci cild, Bakı, "Elm", 1979, s. 210 – 215.

Annotation. The article refers to the symbol of the heart, which is widely used in classical literature. Special emphasis is placed on the interpretation of the symbol of the heart in Babur's lyrics. Also, the meaning of the use of the image of the heart in Babur's lyrics is analyzed by giving examples from the poet's ghazals and rubai.

Kalit so'zlar: ko'ngil, timsol, obraz, she'riyat, talqin, qalb, ishq, muhabbat, yor, mashuqa, do'st, tasavvuf, ilohiy ishq.

Ключевые слова: сердце, образ, образ, поэзия, интерпретация, сердце, любовь, любовник, возлюбленная, друг, мистика, божественная любовь.

Key words: heart, symbol, image, poetry, interpretation, heart, love, lover, beloved, friend, mysticism, divine love.

Adabiyot, badiiy asarlar, lirika, she'riyat uni chuqur his etgan insonlargagina juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan qudratli kuch hisoblanadi. U inson his-tuyg'ularini, ongini, qolaversa, qalbini tarbiyalashda ulkan rol o'ynaydi. Xoh nasrda bo'lsin, xoh nazmda yaratilgan ijodiy asarlarning ijodkorlari bilan birgalikda kitobxon hayotining turli taraflari, voqea-hodisalar va xarakterlar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni rivojlantiradi. Insonlarni chuqur o'yga solib, ularni fikrlashga va voqea-hodisalarni tahlil qilishga undaydi. Umuman olganda, adabiyot ayniqsa badiiy adabiyot bitmas-tuganmas fikrlar va g'oyalar manbasi hisoblanadi. Boisi adabiyotda turli davrlardagi insonlarning fikrlari, milohaza va mushohadalari, orzu-istaklari, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, diniy-falsafiy va boshqa turdagi o'y-qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan bir qatorda, o'zida aks ettirilgan g'oyalar bilan insonlar ko'ngliga, ruhiy olamiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangidan yangi fikrlar tug'ilishiga, ularning ongu tafakkuri ma'naviy jihatdan boyishiga xizmat qiladi. Insonning ruhiy olami, his-tuyg'ulari va kechinmalari tasvirlanar ekan, uni rivojlantiruvchi, yuzaga olib chiquvchi asosiy vosita esa jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, odamzodning hissiy va aqliy rivojlanishida, eng asosiysi, ko'nglidan kechayotganlarini anglab yetishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi.

Adabiyotda, ayniqsa, mumtoz adabiyotda shoirlar bir necha o'rinlarda ko'ngil timsoliga murojaat qilishadi. Sababi shoir o'z yaratgan lirik qahramoni orqali ko'ngil kechinmalarini bayon etadi. Gohida mahzun ko'ngilni tariflasa, gohida ishqdan sarmast bo'lgan mamnun ko'ngilni tavsiflaydi, bazan esa sog'inch va hijron azobida qovrilayotgan notinch ko'ngilni tarannum etadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning lirikasi diqqat bilan mutoala qilinsa, deyarli barcha she'rlarida, hech bo'lmaganda, bir marotaba ko'ngil so'ziga murojaat qilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, shoir lirikasida dil, qalb, yurak, ko'ngil bilan bog'liq timsollar qo'llanilgan bo'lib ko'ngilning konseptosferasi turli mazmunni qamrab olgan, shu bilan bir qatorda, muallif tomonidan lirik qahramon xarakterining emotsional holatlarini ochib berishda, she'riyatning jozibador jihatlarini aks ettirishga xizmat qilgan. Vaholanki, muallifning o'zi barcha she'rlarida ko'ngilning qahramoni, ko'ngil kuychisi desak, xato bo'lmaydi.

Masalan:

*"Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching.*

*Muyassar o'ldi junun mulki, ey junun ahli,
Nisori ashkni emdi bu kun mango soching.*

*Soching shikastida bordur shikasta ko'ngullar.
ko'ngullar ochilur ochilsa ul qaro soching.*

*Ochildi ko'ngli, chu ochting sochingni, Bobur,
Ne ayb agar desa dilband-u dilkusho soching".¹*

Mazkur g'azal shoirning eng kichik baytli g'azallaridan biri bo'lib, unda, asosan, shoir ranglarga murojaat qilganini va soch timsoliga katta urg'u berganini ko'rishimiz mumkin. Lekin g'azalda tasvirlangan qora rang va soch timsoli ramziy ma'no kasb etayotganligini anglab olish qiyin emas. Mazkur timsollarni tarannum etish orqali Bobur o'z ko'ngil holatini ko'ngilning yor bilan muloqotda bo'lgandagi ichki his-tuyg'u va kechinmalarini ta'riflaydi. Shoir qalamiga mansub ushbu 5 baytlik g'azalning matla' qismidayoq tardu aks badiiy san'ati qo'llanilgan bo'lib (balo qaro-qaro balo) yorning sochi qoraligiga va u qoralik oshiq ro'zg'orining ham ishq sabab qoraligiga sababchi ekani ifodalanmoqda. Oshiq keyingi

¹ Бобур З.М. Бобур шеърятдан. Т., 1982, 22-бет.

baytda unga “junun mulki”, ya’ni, muhabbat bobidagi telbalik nasib etganidan mamnunligi ifodalangan. Ma’shuqaning qaro sochi savdosida qanchadan qancha ko’ngillar shikasta ekani, bu esa visol bo’lsagina ko’ngillar obod bo’lishini shoir yozmoqda. Tasavvufiy adabiyotda soch dunyo ramzi ekani g’azalning umumiy ma’no qatlamlariga yanada chuqur ta’sirini ko’rsatadi. Ushbu kichik hajmli g’azali orqali Bobur o’z ko’ngil holatining ham shikastaligini ham mamnunligini tasvirlab bergan. Bir she’rda lirik qahramonning ikki xil holatda tasvirlanishi bu shoirning mahoratidan dalolat beradi. Bu kabi holatlarni shoirning ko’plab she’rlarida uchratish mumkin. Ba’diiy san’atlar bilan ushbu tasvirlash g’azalning ma’no ko’lamini yanada boyitgan desak, xato bo’lmaydi. Shoirning birgina bu emas, deyarli aksariyat g’azal va ruboiylarida yuqoridagi holatni aniq va yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham mumtoz adabiyot an’analarini to’laqonli davom ettirgan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Shoir o’z she’rlarida yor obrazini gul, oy, quyosh, jon, g’uncha, pari, moh, hur, jonon, rafiq, do’st, shoh, Layli, Shirin, bazan esa dildor, dilrom, g’amgusor, sohibi kamol, rahnamo, nozuk, parivash, so’zlari bilan tavsiflaydi. She’riyatidagi har bir poetik obraz o’ziga xos ahamiyatga ega. Chunki ular insonning ichki olamini aks ettirishda ta’sirchan vosita sanaladi. Shu bilan bir qatorda, Bobur oshiq obrazini ifodalash uchun *qul, telba, Majnun, bemor, dardmand, g’arib, xor-tikon, parvona, zor, it, bedil, rasvoyi olam, miskin, notavon, bulbul* kabi so’z va iboralardan foydalangan. Foydalanganda ham bularni ajoyib bir tizimga sola olgan.

Bobur lirikasida ko’ngil timsoli, asosan, yurt sog’inchi yoki yor vasli, yoki hijron azobi bilan hamohanglikda keladi. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul aytganidek: “...ko’ngil Bobur ma’naviy hayotining eng so’nmas, eng ko’rkam vodiysi erur”.¹ Ana shu vodiya shoir yashaydi, ana shu vodiya o’z menini shakllantirgan lirik qahramonlar tug’iladi, ana shu vodiya ko’ngil yuksak cho’qqilarni zabt etish orqali kitobxon ko’nglidan chuqur joy oladi. Shunday ekan, shoir lirikasida ko’ngil juda ajoyib va takrorlanmas tarzda g’oya va obrazlar tizimi bilan hamohanglikda uyg’unlashib ketgan. Aniqrog’i, bir tizimga solib shakllantirilgan. Bu esa shoir she’rlarida o’zgacha ma’no kasb etgan. “Bobur she’rlarini marjon kabi tizib chiqar ekan hech kimga o’xshamagan va hech qaysi shoir uslubini takrorlamagan tarzda pora-pora bo’lgan ko’ngilni gul g’unchasiga o’xshatadi: *Chok ko’nglim hay’ati gul g’unchasi andomida*.

Bobur ko’ngilning ko’rinishini gul g’unchasi shakliga qiyoslamog’da. Shoirning yana bir g’azali maqta’sida g’unchadek qavat-qavat qonlik ko’ngil haqida so’z yuritiladi.

*Mening ko’nglumki gulning g’unchasidek tah-batah gondur,
Agar yuz ming bahor o’lsa, ochilmog’i ne imkondir”.*²

Shoirning “Topmadim” radifli g’azalida ham uni bir necha o’rinlarda ko’ngil timsoliga murojaat qilganiga guvoh bo’lamiz. To’g’ri mazkur g’azalda Bobur boshqa timsollarga ham murojaat qilgan ammo o’sha murojaat ham shoirning qalb qo’ridan chiqqan. G’azalda shoir yor ishq, yor hajrida qiynalayotganligi orqali o’z ko’ngil kechinmalarini aytganligi yaqqol ko’rinib turibdi.

Xususan:

*“Jonimdin o’zga yori vafodor topmadim,
ko’nglimdin o’zga mahrami asror topmadim.*

*Jonimdin o’zga jonni dilafkor ko’rmadim,
ko’nglim kibi ko’ngulni giriftor topmadim.*

*Usruk ko’ziga toki ko’ngul bo’ldi muhtalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.*

*Nochor furqati bila xo’y etmisham netay,
Chun vasliga o’zumni sazovor topmadim.*

*Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko’ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.*

*Bobur, o’zingni o’rgatako’r yorsizki, men,
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim”.*¹

¹ Haqqul I. Taqdir va tafakkur. T., “Sharq”, 2007, 314-bet.

² Bekmirzayeva X. Bobur she’riyatida poetik obraz. T., “Muharrir”, 2013, 49-bet.

G'azalning dastlabki bayti – matla'sida oshiq ko'ngilning dil iztiroblari aks etgan. Unda jon va ko'ngil timsollari orqali inson ruhiyatidagi nozik tebranishlar o'ziga xos tarzda ifodalangan. Baytning har ikki misrasida bir-biriga uyg'un bo'lgan hodisalar tilga olingan. Oshiq vafodor yorni izlaydi, istaydi, biroq bu harakatlar samarasiz. Ko'ngil eng aziz, eng muqaddas sirlar bilan o'rtoqlasha oladigan mahramni, do'stni izlaydi, unga talpinadi, biroq uni topa olmaydi.

Jon va ko'ngil bilan bog'liq tavsif keyingi baytda ham davom etadi. Endi jon “dilafgor”, ko'ngil esa “giriftor” tarzida tasvirlanadi. “Dilafgor”ning ma'nosi “dili xasta, dili vayron, dili haddan tashqari musibat chekkan” demakdir. “Giriftor” esa biror narsaga duch kelgan, yo'liqqan, asir-u muhtalo bo'lgan, band bo'lgan ma'nosiga ega. Demak, oshiqning joni kabi qiynalgan, azob chekkan o'zga jon yo'q, aniqrog'i, oshiq ayni shunday jon (egasi)ni ko'rmagan. Oshiqning ko'ngli ham bu borada yagona, boshqa birtorta ko'ngil uniki kabi giriftor emas.

Oshiq uchun ma'shuqaning borlig'i to'laligicha sehrli va jozibador. Bu o'rinda ma'shuqaning ko'z-lari tavsif manbaya bo'lgan. Ko'zning sifati “usruk”. Uning ma'nosi “mast”dir. So'zning ko'chma ma'noda ekanligi aniq. Ko'zning mastligi uning go'zalligiga ishora. Bu ko'zning harakatlariga, harakatchanligiga berilgan shoirona baho, xolos. Tabiiyki, bunday go'zal ko'zga ko'ngil muhtalo bo'ladi. Keyingi baytda “bu telbani” ifodasi bor. Bir qarashda u so'zlovchi – lirik qahramonni nazarda tutayotganday bo'ladi. Matnda shu ma'no ham bor. Ayni chog'da bu ifodaning “ko'ngil” bilan ham aloqadorligini sezish qiyin emas. Mast ko'zga muhtalo bo'lgan ko'ngilning telba bo'lishi mantiqan to'g'ridir. Shunga ko'ra, “hushyor topmadim” ifodasi ham ikki ma'noda tovlanadi. Uning bir ma'nosi lirik qahramonning o'zi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa bir ma'nosi “ko'ngil” bilan chambarchas aloqadordir. Oshiq ma'shuqadan ayirilib yashashni o'z odatiga aylantirgan (“xo'y etmisham”), biroq bu odat ixtiyoriy emas, balki majburiydir, buning uchun ixtiyor oshiqning o'zida emas. Ayni shu fikrni tasdiqlash uchun misrada ikkita so'z xizmat qilyapti. Ulardan biri misra boshida (“nochor”), ikkinchisi misra oxirida (“netay”) turibdi. Ammo oshiqning o'zi tomonidan ixtiyoriy tarzda tanlangan bir harakati ham mavjud. Bu oshiqning o'z ko'ngil qo'yganiga o'zini nomunosib deb bilishidir (“o'zumni sazovor topmadim”).

Mumtoz adabiyotimizdagi oshiq uchun xos bo'lgan kamtarlik va kamsuqumlik bu yerda ham to'laligicha namoyon bo'lgan. Ammo u boshqalarni takrorlamagan holda, yangicha ohor bilan ko'rsatib berilgan.

Navbatdagi baytda so'z o'yinlari yanada kuchliroq va avjliroq darajada qo'llangan. Bu yerda “bor” so'zining ma'no tovlanishlari kishining zavqini uyg'otadi. Dastlabki “bore”, “yana bir marta” ma'nosini anglatadi. Uning yonidagi “boray”ni izohlash shart emas, u harakat ma'nosini bildirib kelmoqda.

Keyingi misradagi “borib” ham ravishdosh shaklidagi fe'ldir. Shu misradagi “bor”ning ma'nosi esa bitta emas. Dastlab uning “bor, mavjud” ma'nosi xotirga keladi. Shunda bayt ma'nosi “eshigiga borib uning bor-yo'qligini, uyda mavjud yoki mavjud emasligini bilmadim” tarzida izohlanadi. Birinchi misradagi ma'no ham bu yerda takrorlanmoqda. Unga ko'ra, “eshigiga borib yana bir bor (marta) topmadim” mazmuni oydinlashadi. “Bor”ning “yuk” ma'nosi ham bor. Unda bu so'z ko'chma ma'noda “natija” mazmunini anglatadi. Nihoyat, mazkur so'zning “ruxsat”, “ijozat” ma'nosiga ham egaligini eslash joiz. Shunda keyingi misrani “eshigiga necha marta borgan bo'lsam ham (kirish uchun), ijozat ololmadim” tarzida izohlash o'rinlidir. Oxirgi bayt – maqta butun g'azal uchun yakun va xulosa vazifasini ado etmoqda. Lirik qahramon o'zini yolg'iz va yakka sezadi. Bu holatga ko'nikish zarurligiga o'z-o'zicha undov ham mavjud. Bu undovni asoslash uchun dalil ham bor: lirik qahramon butun jahonni izlab ko'rgan bo'lsa-da, o'ziga munosib yorni topgani yo'q. Bir qarashda oshiqona ruhda yozilganday ko'ringan bu g'azal mazmuniga teranroq nazar tashlanadigan bo'lsa, uning mag'iz-mohiyatida ijtimoiy ohanglarning ustunligini kuzatish qiyin kechmaydi. Oshiqning o'z yoridan shikoyati bahonasida lirik qahramonning o'z zamoni va zamon-doshlariga bo'lgan munosabati ham aks etgandek tasavvur uyg'onadi. Bu she'rning tabiati, she'r tabiatidan shoirona foydalana olishning samarasidir. Shoirning yana bir g'azalida aks etgan misralarda ko'nglini g'am-g'ussa egallab olganiga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham u “gulgasht ila” ochilib-sochilmaydi. Buni esa kimgadir bildirish kerak. Shoir bog'bonga murojaat qiladi:

Ranga-ranga gullaringni, bog'bon, raz etmakim,

Tah-batah qonlig' ko'ngul gul orzusin qilmag'ay.

Bog'bon sen rang-barang gullaringni ko'p maqtama. Tushunsangchi, lahta-lahta qonli ko'ngulga gul havasi sig'armidi?

Yo'qtur ulkim gul yuzingdin ayru boqsam gul sari,

¹ Бобур З.М. Бобур шеърятдан. Т., 1982, 38-бет.

G'uncha yanglig' ko'ngluma yuz xori g'am sanchilmag'ay.

Lirik qahramon gulzordagi guldan yuz burib, o'zining hayot gulini sharaflaydi: gul yuzingdan ko'z olib, gulga nazar solmasman, shunda g'unchadek ko'nglimga yuzlab g'am tikonlari sanchilmaydi, – deydi u.¹

Zahiriddin Muhammad Bobur his-tuyg'usi ulkan shoir. U olamni qalb ko'zlari bilan ko'radi. Butun borliqdagi ulkan narsalardan tortib, arzimas ashyolardagi ham mo'jizani, tilsimni anglab yetadi. O'z yaqinlari, atrofidagi insonlar, umuman olganda, butun odamzodni ana shunday ruhiy yuksaklikda hayot kechirishlarini umid qiladi. Lekin Bobur o'zining ko'ngliday ko'ngil topa olmaganligidan qiynaladi, ozor chekadi. Qizig'i, shoir his qilgan tuyg'ular vaqtlar o'tsa-da, bizning qalbimizga shunchalar yaqin va juda-juda tanish. Bu esa, albatta, shoirga xos tasvirlash usulidagi samimiylik, soddalik, hayotiylik va tabiiylik natijasidir. Ko'ngil timsoli mumtoz she'riyatimizda keng qamrovli mavzulardan biri sanaladi. Bu timsolning Bobur she'riyatidan ham yaxshigina o'rin olganini bilamiz. Shunisi qiziqki, ko'ngil shoir she'riyatida o'ziga xos yangicha talqinni topgan.

*“Tanimg'a nechakim nazzora qilsang dog' ko'rgaysen,
Ko'ngulda har nechakim istasang, ozor topqaysen...”*

Lirik qahramon tani otilgan “o'qlaru tikanlardan” dog'larga to'lgan. Ozoru og'riqlardan bag'ri kuygan. Zamona zarbidan, xiyonat-u sotqinliklardan yuragi tilkalangan. Baytdan paydo bo'ladigan tasavvur xuddi shunday”.² Shoirning ko'ngil timsoli bilan bog'liq she'rlarining aksariyat qismida ko'ngil o'z ma'nosida kelgan bo'lsa, ba'zi bir she'rlarida ramziy ma'noda qo'llanilgan.

Xususan:

*To uzildi ko'nglum ul oy qaddidin afsurdadur,
Kim, uzulgay g'uncha gulning shohidin pajmurdadur.*

Matla'si bilan boshlanuvchi g'azalida ko'ngil timsoli Boburga xos soddalik va mahorat bilan tasvirlangan. Yuqoridagi baytda ham shoir yorni oyga qiyoslagan. O'zining uzilgan ko'nglini yorining bo'yi bastidan ham tushkunligini tariflaydi. Bunday tushkunlikni shoirning ko'ngil timsoli aks etgan boshqa she'rlarida ham uchramiz. Yana bir g'azalining matla'sida shoir shunday deydi:

*Telba ko'nglimkim sening changingdadur, yod aylagil,
Bir navozish birla ko'nglumni mening shod aylagil.*

Bunda shoir ma'shuqasiga ishqingda sarmast bo'lgan ko'nglim sening qo'lingda, bir lutf ko'rsatib shu telba ko'nglimni shod qil, deydi. Ko'rib turganimizdek, shoir ko'ngli yorining husni-jamoli va ishq oldida tushkunlikka ham tushadi, telbaga ham aylanadi. Qizig'i, bir g'azalning matla'sida tushkun-u, devona ko'ngil g'azal maqta'siga kelib, shod va xurram ko'ngilga aylanadi. Bu ham Bobur Mirzoga xos o'ziga xoslikdan dalolat desak, xato bo'lmaydi.

Misol uchun:

Matla'

*Ko'nglumni chu ul pariy olibtur,
Devona bo'lurg'a ne qolibtur.*

Maqta'

*Bobur, necha kun ko'ngulni xush tut,
Bu olam ishi chu munqalibtur.*

G'azalning matla' qismiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, shoir ko'nglimni bir pari oldi. Menda devona bo'ladigan boshqa hech narsa qolmadi deb ta'kidlamogda. Bunda shoir ko'ngilning yori, sevgilisi oldida devona bo'lib qolishiga urg'u beradi. G'azalning maqta'sida esa Bobur ko'nglingni xursand tut, chunki bu olam ishi hamisha shunday, deydi. Uning ruboiylarini mutolaa qiladigan bo'lsak, ularda ko'ngil timsoli, asosan, hasbi hol shaklida tarannum etilgan. Boisi, shoir yurtdan yurtga, diyordan diyorga ko'chib manzil-u makonini hamisha o'zgartirib yurgan. Shoirning bir g'azalidan keltirilgan quyidagi misralarga nazar solsak:

*Bu mahvashlarga ko'nlung bermagilkim asray olmaslar,
Ko'ngulni asrag'il, bo'lg'ayki, bir dildor topqaysen.*

Bu bayt orqali shoir yoridan ozor ko'rgan ko'ngil holatini bayon etgan. Lirik qahramonning ko'ngli o'zi dardu sitamga to'la. Ana shu dardga to'la ko'nglini oy jamollarga berishni istamaydi, sababi ko'ngli-

¹ Bekmirzayeva. X. Bobur she'riyatida poetik obraz. T., “Muharrir”, 2013, 50-bet.

² Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. T., “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 81-bet.

ni ular asray olmasligini biladi. O'z ko'nglini faqatgina o'zi asray olishi kun kelib esa vafodor bir yor topilishiga ishonadi.

*Qadam ranjida qil ko'nglum uchun, ey yorning o'qi,
Mening bu notavon ko'nglumga chun darmondin ortiqsan.*

Bu misralarda esa Bobur ko'ngliga yordan keladiga ozor va sitamlar o'qiga ham muhtoj ekanligini, ular shoirning notavon ko'ngliga har qanday darmondan ham ortiq ekanligini tasvirlaydi. Shoir lirikasida o'z ko'nglini notavon, telba, devonaga o'xshatish holatlari juda ko'p o'rinlarda kelgan. Xususan:

*Agarchi yor ishqini notavon ko'nglumga o't soldi,
Vale men notavon ul yor ishqida ko'ngul solmon.*

Yorning ishqini lirik qahramonning notavon ko'ngliga ishq o'tini solsa, notavon lirik qahramon yorning ishqida ko'ngil berishini ta'kidlaydi. Birinchi misrada lirik qahramonning ko'ngli notavon bo'lsa, ikkinchi misrada yor ishqida lirik qahramonning o'zi notavonga aylanadi. Shoirning quyidagi g'azalining maqta'sida parini ishqida telbaga aylangan ko'nglini ta'riflaydi:

*Ul pariy ishqida Bobur ko'nglum andoq telbadir,
Kim sochi zarjirredur, chohi zaqan zindonidur.*

Mumtoz adabiyotda yor ishqini, mashuqa hajri firoqida azoblanish orqali shoirlar lirik qahramonning ruhiyatidagi o'zgarishlarni bayon qiladi. Lirik qahramon shunchalar ojiz qilib tarflanadiki yorning bir qiyoy boqmasligi uning o'zini yoki ko'nglini telba-yu devonaga aylantirib qo'yadi. Bu turdagi g'azal va ruboiylar Bobur lirikasida talaygina. Sababi zabardast shoh Boburning ko'ngli mashuqasi, dildori oldida notavon va majruh. Shu boisdan ham uning ko'ngli goh telba, goh esa devonaga aylanadi. Shoirning ruboiylarida esa taqdirning zarbasi tufayli bir yerda muqim yashamagan, g'urbat azobidan qiynalgan, tunganmas bir dard bilan kurashayotgan Boburning ko'ngil nolasini ko'rishimiz mumkin:

*Jonig'a yetishti tuzu tog' birla ko'ngul,
Dardini tugatmas aytmog' birla ko'ngul,
G'urbatga oyoq birla badan tinmas, lek
Yuz shukrki tinhdur qulog' birla ko'ngul.*

Mazkur ruboiyda shoirning joniga yetishgan ko'nglini, dardga to'la ko'nglini va tinch ko'ngil holatini keltirib o'tadi. Shoir ruboiylarini diqqat va maroq bilan mutoalaa qilar ekanmiz, ularning barchasini ham hasbi hol shaklida yozilgan deb ayta olmaymiz. Boisi Bobur ruboiylarida ham turli mavzularga murojaat qilgan.

Misol uchun:
*Bu chehrayi zardimdin uyolsang netkay,
Rahmat nazarini manga solsang netkay,
Bir ishva bila ko'ngul berib Boburg'a,
Bir bo'sa bila ko'nglini olsang netkay.*

Ushbu ruboiysida shoirni yoriga murojaatini ko'rishimiz mumkin. Ruboiyning so'ngi ikki misrasida yor ko'ngli va Bobur ko'ngli tasvirlanmoqda. Shoir mashuqasining bir bo'sasiga o'z ko'nglini berishga tayyor ekanligini ma'lum qilmoqda. Bu yo'nalishdagi she'rlarni Bobur ijodida juda ko'p marotaba uchratamiz.

Shoir lirikasidagi qalb qo'ridan tiralib chiqqan bu satrlarda yosh boshiga minglab muammoyu tashvish yuki tushgan, yaqinlarining adolatsizligi va xiyonatiga uchragan, ko'p jabr-u jafoyu sitam ko'rgan Boburmironing ozorli ko'ngil nolasini his qilishimiz aniq.

Bobur lirikasini mutolaa qilar ekanmiz, she'rlarida shoir ko'ngli shunchalik noziklik bilan tasvirlanganiki ishqiy mazmundagi she'rlarida yorning bir nazari bilan dunyolarga sig'mas darajada quvongan ko'ngil, kichik adolatsizligi bilan yer bilan yakson bo'lib ketadi yoki vatan sog'inchidan hapriqib ko'ksidan chiqib ketishga shaylangan ko'ngil, g'olibona yurishlari ortidan faxr va iftixor bilan Bobur bag'rida yanada mustahkam o'rin egallaydi. Mumtoz adabiyotning, ayniqsa, lirikaning inson hayotidagi roli va ahamiyati juda katta.

Odamzod e'zozlab keladigan eng muhim va ardoqli his-tuyg'ular insoniylik, adolat, diyonat, hamji-hatlik, sadoqat, vafo, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabbat hisoblanadi. Mazkur insoniy tuyg'ular kishi ongu shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi va sayqallanib boraveradi. Ularning sayqal topish jarayonida atrofdagi voqea-hodisalar muhim rol o'ynaydi. Ammo adabiyotga oshno qalblarda yuqoridagi tuyg'ular asl gavhar holiga aylanadi. Aslini olganda, tuyg'ular faqatgina aql orqali emas, balki qalb, ko'ngil, yurak orqali seziladi va ta'sir o'tkaziladi. Shunday ekan, lirik she'riyat badiiy adabiyotning eng muhim

ajralmas qismi hisoblanar ekan, unda ko'tarilgan har qanday mavzu kitobxon uchun ma'naviy hamda estetika ozuqa manbayi bo'lib qolaveradi.

**O'roqova Nafosat Yoriyevna (Buxoro davlat universiteti "O'zbek adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-pochta: n.v.uroqova@buxdu.uz)
SHE'RIYATDA IT OBRAZINING RAMZLASHTIRILISHI**

Annotatsiya. Maqolada adabiyotning barcha adabiy tur va janrlarida keng qo'llanuvchi hayvon obrazlaridan – it timsoli xususida so'z boradi. Bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslikda yuksak ijtimoiy-falsafiy g'oyalar betakror ramz va timsollar orqali ilgari surilgan asarlarni yangi ilmiy tamoyil va mezonlar asosida o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda she'riyatda qo'llangan hayvonot ramzlari va timsollarning badiiy mohiyatini ilg'or adabiy usullarni tatbiq etgan holda ochib berish dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu jihatdan maqolada it obrazining turli ramziy ma'nolari misollar yordamida qiyosiy tahlilga tortilgan. She'riyatda it timsoli ifodalagan ramzlar borasida izlanishlar qilgan adabiyotshunos olimlar tadqiqoti o'rganilgan va unga doir ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Аннотация. В статье говорится об образе животного, широко используемом во всех литературных видах и жанрах литературы, – образе собаки. Сегодня в современном литературоведении уделяется внимание изучению произведений, в которых высокие социально-философские идеи продвигаются через уникальные символы и символы, основанные на новых научных принципах и критериях. В этом смысле остается актуальным раскрытие художественной сущности животных символов и символов, используемых в поэзии, с использованием передовых литературных методов. В связи с этим в статье на примерах сравниваются различные символические значения образа собаки. Изучены труды литературоведов, исследовавших символику собаки в поэзии, и даны научные комментарии по этому поводу.

Annotation. The article talks about animal images widely used in all literary types and genres of literature – the image of a dog. Today, in modern literary studies, attention is paid to the study of works in which high socio-philosophical ideas are advanced through unique symbols and symbols based on new scientific principles and criteria. In this sense, it remains relevant to reveal the artistic essence of animal symbols and symbols used in poetry using advanced literary methods. In this regard, the article compares the various symbolic meanings of the image of a dog with the help of examples. The research of the literary scholars who researched the symbols of the dog in poetry was studied and scientific comments were made about it.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, folklor, mumtoz adabiyot, she'riyat, obraz, timsol, it obrazi, ramz, Navoiy, Ibrohim Haqqul, Sirojiddin Sayyid.

Ключевые слова: художественная литература, фольклор, классическая литература, поэзия, образ, символ, образ собаки, символ, Навои, Ибрагим Хаккул, Сироджиддин Сайид.

Key words: fiction, folklore, classical literature, poetry, image, symbol, image of a dog, symbol, Navoi, Ibrahim Hakkul, Sirojiddin Sayyid.

Kirish. So'z faqat muloqot vositasigina emas, insoniyat tafakkuri va ruhiyatining namoyon bo'lish usuli hamdir. Inson qalbi, uning o'y-xayollari va orzu-armonlari lirik asarlarda yana ham ta'sirliroq ifodalanadi. Ijodkor hayotda ko'rgan-kechirganlari yoki atrofdagilardan eshitganlarini qog'ozga tizarkan, eng avvalo, qalbi orqali his qilganlarini, ya'ni ko'ngli buyurganini asar sifatida yaratadi. Asarning jonli bir tarzda dunyoga kelishi uning obrazlilik darajasiga bog'liq. Ma'lumki, keng ma'noda qo'llanilganda obraz tushunchasi inson tasviridan tashqari peyzaj, detallar, buyumlar, jismlar, hayvonot dunyosi kabilarini ham o'z ichiga oladi. She'riyatda hayotimizda yuz beradigan ijtimoiy hodisalarni umumlashtirish maqsadida bir qancha vositalar qatori hayvon obrazlari ham keng qo'llaniladi. Ular yordamida ma'lum bir narsalarga, voqea-hodisalarga ishora qilinadi. Hayvonlarning bu kabi xususiyatlari ularni simvolik obrazlar yoki ramziy timsollar deya talqin etilishida muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Azaldan dunyo she'rshunosligi an'analari, lirikada ramz va uning ko'rinishlari, hayvonot va nabodot olamining ramzlashtirilishi, uning kelib chiqish asoslari, shu mavzudagi she'rlar badiiyatiga xos jihatlarni ochib berish doimiy e'tiborni jalb qilib kelgan. Xususan, bugungi kunda ramzning ko'rinishlari, she'riyatda ramzlashtirish yetakchilik qilishi, hayvon obrazlarining timsollashtirilishi, animalistikaning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Badiiy adabiyotda predmetlar, o'simliklar, narsalar, jonivorlar, ranglardan foydalanib yaratilgan simvolik obrazlar tez-tez uchrab turadi. Masalan, shular orasida tulki – ayyorlik, bo'ri – qonxo'rlik, it –

vafodorlik, ot – do'stlik ramzi sifatida ma'lum. Xalq og'zaki ijodi janrlarini bu kabi hayvon ramzlari ilk boshdanoq boyitib kelmoqda. Ularning yana bir guruhi allegorik obrazlar deb yuritiladi. Xarakterli tomoni shundaki, bunda qush, hayvon, hasharot kabilar insonlarga xos bo'lgan xususiyatga ega qilib ko'rsatiladi. Aniqroq qilib aytganda, ular insoniyashtiriladi. Natijada jamiyatdagi ayrim odamlarning nuqsonlari ustidan kulinadi yoki ularning ma'lum bir kamchiliklari qattiq tanqid ostiga olinadi.

Ma'lumki, masal janri, odatda, allegorik timsollar asosiga quriladi. Buning eng yorqin namunasi Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridir. Unda ko'plab hayvon obrazlari ishtirok etgan bo'lib, har biri o'z xususiyatiga ko'ra qaysidir bir inson xarakterini tashishda xizmat qilgan.

Folklor namunalari safidagi turli rivoyat va asotirlarda, qadimiy tasavvurlar va qarashlarga ko'ra, hayvonlar xudo yoki yarim xudo timsolida aks etgan. Bugungi kun she'riyatida esa ular real obrazlar qi-yofasida namoyon bo'lmoqda. Insonlar mavjud yerlarda hayvonlarning ham ular bilan yonma-yon yashashi, tabiiy hol. Chunki bu tabiat qonuni, ya'ni, tabiat-insoniyat-hayvonot uchligi bu dunyoni muvozanatda ushlab turgan birliklardir. Odamzot hayotining ilk bosqichlaridanoq ayrim jonivorlarni qo'lga o'rgatib, ulardan turli maqsadlarda foydalanganlar. Ba'zilar yemish vazifasini bajargan bo'lsa, bazilari ulov o'r-nini bosgan. Hatto hayvonlarning insonlarga psixologik tomondan ko'mak berishlari maxsus tadqiqotlar-da o'rganilgan. Millatlar geografik joylashuvi, madaniyati, dunyoqarashi, an'ana va urf-odatlariga ko'ra farqli jonivorlar bilan birgalikda yashaganlar va ularning ham tirikchilik tarziga qiziqqanlar. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, dostonlarda ot, tuya, qoramol va qo'y-qo'zilar kuylangan. Chunki ularga xotirjamlik, to'kin-sochinlik ramzi sifatida qaralgan.

Badiiy adabiyotda boshqa hayvon obrazlari tizimida it obrazi ham faol qo'llanganligiga guvohmiz. Tadqiqotlardan ko'rinadiki, bu obraz genezisi, avvalo, muqaddas dinimizning ilohiy nomasi – Qur'on va folklor namunalari borib taqaladi. Shu bilan birga, bu obrazni barcha turdagi janrlarda uchratishimiz mumkin. Itlar asarlarda insonning eng yaqin do'sti, uying eng ishonchli qo'riqchisi, cho'ponlarning qi-shin-yozin hamrohi, bolalikning yorqin bir parchasi sifatida turli ramziy ma'nolarni ifoda etgan holda gavdalanadi.

Tadqiqotchi Doniyor Muratov "About animals mentioned in the Quran" ("Qur'oni karimda zikr qilingan hayvonlar borasida") nomli maqolasida uni tuya, ot, eshak, qo'y, echki, xachir, fil, sigir, buzoq, bo'ri, sher, cho'chqa va maymunlar qatorida sutemizuvchilar guruhi tarkibida sanaydi [1, 28].

Adabiyotshunos Laylo Hasanova "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida it obrazlarining tasvirlanishi tamoyillari nomli kichik tadqiqotida Imom G'azzoliyning "Daqoyiq ul-axbor" asarida mavjud shunday hadisni keltiradi: "Payg'ambarimiz alayhissalom aytadilar: "Mo'min kishiga loyiq va munosibi shulki, ani(ng) xulqi va odati itning xulqi va odatidek bo'lg'ay, itning besh ibratli xulqi bordir. Biri shulki, doim och bo'lur, qanoat qilur. Bu tariqa ochlikka qanoat qilmoq solih bandalar xulqidir. Ikkinchisi shulki, itning hashamatli makoni bo'lmas, har go'shada yotur. Bu tariqa go'shanishinlik solihlar xulqidir. Uchin-chisi shulki, it kechasi uxlamas. Bu tariqa bedorlik solihlar xulqidir. To'rtinchisi shulki, itning avlodiga meros qoldiradurg'on moli bo'lmas. Bu tariqa dunyo muhabbatini tark etmoq solihlar xulqidir. Beshin-chisi shulki, hargiz it egasining eshigidan ketmas. Bu tariqada vafo qilib, Parvardigorga itoat qilmoq ham solihlarning xulqidir" [2.1099]. Bu jonzotning boshqa xususiyatlari haqida atroflicha fikr bildirgan Hazrat Alining hikmatlari bu jonivorga qiziqish qadimdan bo'lganligi, dinimizda, shuningdek, tasavvuf adabiyotida ham uning o'ziga xos alohida xususiyatlari e'tirof etilganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, L.Hasanova it obrazini ijodkor ideali aks etgan obraz, adib antiidealiga xizmat qiluvchi obraz tarzida ikki qismga bo'lib tasniflash yo'lidan borib o'rgangan hamda devondagi g'azallardan o'rnak keltirib asoslagan. Bu it obrazi ma'nolarining turfa ekanligi va ularni har xil poetik maqsadda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Demak, adabiyotshunoslar oldida turgan ulkan vazifalardan biri she'riyatda qo'llangan bu timsolning turli ma'nolarini alohida tadqiq qilishdir.

It obrazi odamzod hayotining mingyillik tarixi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bo'lib, bu kunga qadar o'ziga xos jarayonlardan o'tgan. Masalan, folklor namunalari tarkibida saqlanib qolgan bir qancha ko'hna motivlar, obrazlar "it"ga xalqimiz e'tiqodi tarixining ma'lum bir qatlamlarida ijobiy yoki salbiy obraz sifatida qaralganligini tasdiqlaydi.

Xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy adabiyotda it qator ramziy ma'nolarda kela olishi bilan ajralib turadi. Bunga mo'jaz tadqiqotimiz obyekt sifatida bir qancha asarlarni o'rnak keltirishimiz mumkin. Turli rivoyat va afsonalarda, sehrli-fantastik ertaklarda g'aroyib it obrazlari keltiriladiki, ular bosh qahramonga zarur paytida yordamga kelgan zoomorf ko'makchilar tarzida talqin qilinadi. Bungacha bosh qahramon ularning jonini saqlab qolishi motivi keltiriladi. Insonning shu yordamiga javoban ular ham

zarur sharoitda bosh qahramonni qo‘llab-quvvatlashadi. Bosh qahramonlar, ko‘pincha, ularning yordamida yo sevgan yorini sehdan qutqaradilar, yo biror-bir tilsimli predmetni qo‘lga kiritadilar va hokazo.

Mumtoz adabiyotimizda it timsoli ishtirok etgan lirik asarlar talaygina. Yolg‘iz Navoiy devonlari tarkibida uchraydigan bu jonivor bilan aloqador ko‘plab g‘azallarni tahlilga tortishimiz mumkin:

*Takovaringg‘a bag‘ir qonidin xino bog‘la,
Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il. [3.230–23]*

Insoniyat dastlabki xonakilashtirgan, o‘ziga o‘rgatib olgan jonzotlardan sanaluvchi it va odamlar orasida munosabat yetarlicha ijobiy. Ammo itning salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjudligi bois, bu xususiyatlar har bir lirik asar namunasida turlicha yoritilgan. “Qilg‘il” radifli g‘azalda kelgan ushbu bayt atrofida bugungi kun adabiy jarayonida hanuz munozaralar ketmoqda. Adabiyotshunos olimlar hamda so‘z ixlosmandlari ushbu baytda qo‘llangan it obrazi atrofida bahsga kirishar ekanlar, uning turli so‘fiyona ma‘nolarini o‘rtaga tashlayaptilar. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul baytda qo‘llangan it timsolining, dastlab, tashqi ma‘nosiga to‘xtaladi: “Bundagi “it”ning zo‘hiriy ma‘nosi – vafu va sadoqatda o‘rnaklik. Chunki an‘anaviy tasvirlarga ko‘ra, sidqu sadoqat va vafodorlikda oshiq o‘zini it bilan (ko‘pincha, yorning iti bilan) teng ko‘radi [4.146]. Shu g‘azalning qiyosiy tahlili bilan maxsus shug‘ullangan olimlar professor H.Boltaboyev va N.Jumaxo‘ja fikrlariga tayanib, botiniy ma‘noda it obrazi misrada nafsi ammorani ifodalab kelishini ta‘kidlaydi.

Zamonaviy lirikada ham it timsoli ramziy ma‘noda qo‘llangan asarlar yetarlicha uchraydi. Biroq ular realistik uslubda bitilganligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Bolaligimda itotarlar otib ketgan to‘rt oyoqli do‘stlarim xotirasiga” she‘ri bu jonzotga bag‘ishlangan eng sara namunalardan biridir. Chunki she‘r sarlavhasining o‘zidanoq bola shoirning yoshlikdagi jon do‘sti – itlarga o‘zgacha hurmati chuqur anglashilib turibdi.

*Ularni otdilar shundoq ko‘chada,
Og‘ilxonalardan topib otdilar.
Katta tog‘oraning ostiga
Yashirgandim men Yo‘lbarsimni
Topib otdilar!
Itlar jon berdilar, panjalarida
G‘ajilmagan suyaklar qoldi. [5.32]*

She‘r yodnoma tarzida yozilgan bo‘lib, unda lirik qahramon bolaligini, qishloqda kechirgan hayotini xotirlaydi. Ma‘lumki, ko‘plab insonlar bolalik chog‘larida hayvonlarni sevadilar, ular bilan iliq munosabat o‘rnatadilar. Agar bu yaqinlik uzoq muddat davom etsa, o‘rtadagi aloqa chin do‘stlik darajasiga yetishadi. Keyin esa ma‘lum bir sabablarga ko‘ra, bolalarning bu beozor jonivorlardan ajralishlari juda qiyin kechadi. Hatto, ba‘zi hollarda, bu miya faoliyati bilan bog‘liq ruhiy zo‘riqlashlarni ham keltirib chiqarishi sir emas.

Kunlarning birida qishloqda itotarlar oralaydi. Ko‘zlariga ko‘ringan yoki egalari tarafidan qayerlargadir yashirilgan itlarni topib, har jihatdan yashashga haqli tabiatning bu jonzotini ayamasdan otib tashlaydilar. Bu vahshiylikning guvohi bo‘lgan bolalar esa hayotning bu qadar shafqatsizligidan dahshatga tushadilar. Bu mudhish voqea boshqa qishloq bolalari qatorida lirik qahramon – bola xotirasida hayoti davomida ko‘rgan eng jirkanch adolatsizlik sifatida bir umrga muhrlanadi. It obrazi she‘rda bolalik xotiralarining eng yorqin parchasi – do‘stlik ramzi poetik mazmunini aks ettirgan. So‘nggi misralar, ayniqsa, bola ruhiyatining naqadar yaralanganini ifodalaydi:

*Hurpaygan va jundor shamollar
Bargi xazonlarni quvlaydi.
Otilgan itlarning ruhi singari
Uvlaydi. Uvlaydi. Uvlaydi. [5.33]*

Bu o‘rinda do‘st kabi qabul etilgan jonivor – itga muhabbatning kuchi uning ruhini shamolga ko‘chiradi. “Hurpaygan”, “jundor”, “uvlaydi” singari xususiyatlar shamolni bu obrazga xos alohidaliklar bilan ifodalashda qo‘l kelgan.

Xulosa. Badiiy adabiyotning ma‘lum bir rivojlanish bosqichlarida insonning turmush tarziga yo‘ldosh, vafodor do‘st, yordamchi kuch, ayniqsa, cho‘pon-cho‘liqlarning doimiy hamrohi, ko‘makchisi bo‘lgan hayvon – itning ba‘zi o‘rinlarda nihoyatda ko‘klarga ko‘tarilib, muqaddaslashtirish darajasida obrazlantirilganligi kuzatiladi. Bu jarayon o‘sha davrda adabiyotda romantik uslubning amalda bo‘lganligi bilan belgilanadi. Dunyo adabiyotidan realistik metodning o‘zlashtirilishi bilan ham uslubda, ham poe-

tik obrazlar ifodasida ulkan yangilanishlar o'rtaga chiqdi. It timsoli ifodalagan ramziy ma'nolar ko'lami kengaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muratov Doniyor. (2021). About animals mentioned in the quran. The Light of Islam: Vol. 2021, Iss. 2, Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiaw/vol2021/iss2/3>.
2. Laylo Hasanova. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida it obrazlarining tasvirlanishi tamoyillari. Scientific progress» scientific journal. V 1, ISSUE: 6.
3. Alisher Navoiy. Badoyi' ul-bidoya. www.ziyouz.com kutubxonasi. 490 bet.
4. Haqqulov I. Irfon va idrok. T., "Ma'naviyat", 1998, 154 bet.
5. Sirojiddin Sayyid. So'z yo'li. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik, 1-jild, T., "Sharq", 2008, 384 bet.

Rasulmuxamedova Dilfuza (O'zbekiston davlat

Jahon tillari universiteti "Jahon adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi)

AHMAD LUTFIY QOZONCHI "BIR VIJDON UYG'ONUR" ASARIDA TARBIYANING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqola turk adabiyotining mashhur vakillaridan biri jahon adabiyotida o'ziga xos va munosib o'ringa ega bo'lgan realist yozuvchi Ahmad Lutfiy Qozonchining "Bir vijdon uyg'onur" asari badiiy tahlil tamoyillari asosida o'rganib chiqilgan.

Аннотация. В основе данной статьи лежат принципы художественного анализа произведения одного из самых известных представителей турецкой литературы, писателя-реалиста Ахмада Лутфи Казанчи «Пробуждение совести», которое занимает особое и достойное место в мировой литературе.

Annotation. This article is based on the principles of artistic analysis of the work of one of the most famous representatives of Turkish literature, the realist writer Ahmad Lutfi Kazanci "Awakening of Conscience", which occupies a special and worthy place in world literature.

Kalit so'zlar: qabohat, ezgulik, e'tiqod, hasad, nur va soya, hakalak otgan nafsi, adabiyot – so'z san'ati, adabiyot – ko'ngil oynasi, adabiyot – hayot darsligi, adabiyot–so'z va xayolot o'yini, mayxo'rlik, tarbiya, harom.

Ключевые слова: зло, добро, вера, зависть, свет и тень, извращенная похоть, злоба, литература – искусство слова, литература–зеркало души, литература–учебник жизни, литература – игра слов и фантазий, пьянство, воспитание.

Key words: evil, good, faith, envy, light and shadow, perverted lust, malice, literature – the art of words, literature – the mirror of the soul, literature – a textbook of life, literature – a play on words and fantasies, drunkenness, education.

Kitobxonlar ko'nglidan joy olib ulgurgan Ahmad Lutfiy Qozonchi o'z asarlari bilan nafaqat turk adabiyoti, balki jahon adabiyotida ham o'zining muxlislari mavjudligi bilan alohida o'rin tutadi. Yozuvchimiz din tarixiga, diniy masalalarga hazrati Payg'ambar (s.a.v) va sahobalarining hayotlariga bag'ishlangan 20 dan ortiq nomdagi kitoblarning muallifi hisoblanadi. E'tiborga molik tomoni shundaki, bundan tashqari, 4 ta roman ham yozgan. Uning "Saodat asri qissalari", "O'gay ona", "Qaynona" kabi asarlari ham kitobxonlar uchun mahorat maktabi bo'lib kelmoqda.

Ahmad Lutfiy Qozonchi bugungi turk adabiyotining oqsoqollaridan biri hisoblanadi. U har bir mu tafakkir singari olam-u odamning o'sish, o'zgarishlarni kuzatib o'z muxlislari uchun bir-biridan qiziqarli asarlar yaratib kelmoqda. Uning ana shunday har birimizni qalbimizdan joy olgan asarlaridan biri bu "Bir vijdon uyg'onur" asari hisoblanadi. Bu asar zamonaga mos ravishda yaratilgan didaktik – ma'rifiy mavzudagi sara asarlar to'plamiga kiritilgan. Bu romanida tasvirlanishicha, olamni hasaddan, insonni chigalliklar girdobidan, dunyoga befarqlikdan faqat va faqat sof e'tiqodgina olib chiqishi mumkinligi eslatib o'tilgan. Romanda nur va soya kurashi, hakalak otgan nafsi, go'yoki quyunday bosib kelgan qabohat bilan nurday pokiza ezgulik va e'tiqodning mazmun va mohiyati yoritib berilgan.

Aytganlarimiz masalaning, bir tomondan, hamisha dolzarbligini, ikkinchi tomondan, g'oyat murakkabligini ko'rsatadi. Hamisha dolzarblik adabiyotning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarning o'zgarishiga mos tarzda mudom o'zgarish-yangilanishda yashashi va bu hol, o'z navbatida, ayni jarayonni anglash ehtiyojini tug'dirishi bilan izohlanadi. Murakkablik– adabiyotning g'oyat murakkab va serqirra hodisa ekanligi bilan bog'liqdir. Mashhur olim D.Quronov ta'kidlaganidek "Shu bois adabiyotga beriluvchi ta'riflar turfa-tuman: "adabiyot–o'qish uchun mo'ljallab yozilgan asarlar jami", "adabiyot – madaniyat shakllaridan biri", "adabiyot–semiotik faoliyat", "adabiyot–san'atning yozma ko'rini-

shi”, “adabiyot–insonning o‘zini ifodalash vositasi”, “adabiyot – ijtimoiy ong shakli”, “adabiyot – nutqiy faoliyat turi”, “adabiyot – so‘z san’ati” va hokazo. Bu kabi ilmiy definitsiyalardan tashqari, yana “adabiyot – insonshunoslik”, “adabiyot – hayot darsligi”, “adabiyot – ko‘ngil oynasi”, “adabiyot – so‘z va xayolot o‘yini” singari topib aytilgan shoirona ta’riflar ham bir talay. Eng muhimi, ushbu ta’riflarning hammasi ham too‘g‘ri, faqat ularning har biri adabiyotni bitta jihatidan kelib chiqib tavsiflaydi. Bu ham, ta’biy”.¹

Adabiyotshunoslarimiz ta’kidlaganlaridek, har qanbay yaratilgan badiiy asar o‘z mantig‘i va tarbiyaviy asosiga ega bolmog‘i kerak. Bu asarni o‘qish jarayonida shuni anglash mumkinki, gunohi azm o‘p-qoniga qulagan ota fojiasi hamda otaning bu ko‘ngilsizliklarni sababchisi ekanligi kitobxon ko‘nglida achinish hissini paydo qiladi. Buning yana bir tomoni ham borki, yo‘qchagina jismiga tog‘day sabr-toqatni jo eta olgan onaizorni iztiroblari va alamlari, ya’ni, bir so‘z bilan aytganda qalb ko‘zi butunlay ko‘r bo‘lib qolgan ota va itoatgo‘y hamda farzandini yaxshi odam bo‘lishi uchun har narsaga tayyor ona o‘rtasida sargardon farzandni ruhiy iztiroblari aks ettirilgan. Kitobni mutolaa qilgan har bir kitobxonning ong-u shuurida nurli, pokiza bir tuyg‘u uyg‘otadi. Har bir kishini beixtiyor o‘ylashga majbur qiladi. Ya’ni, buzulib ketayotgan dunyoni poklik, halollik, mehr-oqibat va qanoat kabi tuyg‘ular asrab qolishi asl o‘zaniga solishi mumkin degan fikrlar kelishi tabiiy. Chunki bu asar qahramoni Sururi bey butun umri davomida shaytonni malayi bo‘lib o‘tdi: u na dinni-diyonatni, na pokiza ayolini, na bebaho ne‘mati hisoblangan yakka-yu yolg‘iz o‘g‘lini, ya’ni farzandini qadrlamaydi. U tun-u kun faqat ichkilik girdobiga sho‘ng‘idi, og‘zidan faqat kishilar ko‘nglini vayron qiladigan ularni diliga azob beradigan so‘zlar chiqdi. Buning eng dahshatli tarafi shundaki, u oqko‘ngil rafiqasini, farishtaday begunoh o‘g‘lini ham mana shu qabih yo‘lga boshlamoqchi bo‘ldi. Uning ayoli Saodat xonim aqlli-hushli, din-diyonatni joyiga qo‘yadigan oqila ayol bo‘lib, uni na urish, na haqoratli so‘zlar uni bu yo‘ldan chekintira olmaydi. Ammo diyonatsiz otaning bu g‘arazli harakatlari bolaga ta’sir etmay qolmaydi. Uning mitti qalbiga so‘kish, haqoratli so‘zlar joylandi. Doimo o‘z huzur-halovatini ichkilikda ko‘rgan ota bolasini majburlab bo‘lsa ham, o‘zining yo‘lidan ketishga undaydi va bunga erishadi.

O‘z farzandiga, hatto “agar men o‘lsam, do‘stlaring bilan qabrim boshiga borib ichishni unutmam va mening tuprog‘im ustiga ham bir qadah to‘k”,² deganini eslab, ham uning ruhini shod etish, ham shu bahona mayxo‘rlik qilish uchun do‘stlari bilan birgalikda shirakayf holatda mozor boshiga keladi. Ulfatiga shu vasiyatni aytib, birga ichish uchun olib keldi. Shunda ularning qarshisida bir qariya paydo bo‘lib, bu manzarani ko‘rib, hayratdan yoqa ushlaydi. Hatto ular cholga ham ichishni taklif qilishadi. Shunda chol shu yerda yotganlar ham bir vaqtlar sizlardik yeb-ichuvchi bo‘lganlar. Har bir kishi yaxshi-yomon hayot kechirib, oxir oqibatda shu qora tuproqqa kiradi. Bu yerda sizlarning ham yaqinlaringgiz qayg‘u va pushaymonda. Har biri hayotni qanday yashaganini hisobini berish bilan mashg‘ul deb tanbeh beradi. Ammo ularga bu gaplarni birortasini ham ta’siri bo‘lmaydi, chunki ular mast va o‘zlari qilayotgan ishlarini to‘g‘ri deb bilar, boshqalarni gap-so‘zlari esa hech qanaqa ma’no anglatmas edi. Shuning uchun ham ular qariyaning ma’noli gaplarini hech ham tushunolmay yana mayxo‘rlikda davom ettiradilar. Otasini tarbiyasini olib, shu darajaga yetadiki, qabrning toza tuprog‘ini ichkilik bilan harom qiladi. Bu asarda tarbiyaning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda Abdulla Avloniyini ibratli so‘zlarni keltirmoqchiman”. Otasiga nima dersiz desak, qaysi ota to‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi, avval, o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmak lozim der, mana bu so‘zni eshitgach, umid qo‘llari qo‘ltiqqa urilur”. Uning onasi Saodat xonim esa eri tufayli kun ko‘rmagan edi o‘g‘li eridan battar bo‘lib, bechora ona kuyib-kuyib kul bo‘ladi. Oxirigacha suyangani e’tiqodi bebaho boyligi hisoblangan Qur’oni karimni bag‘riga bosgan holda olamdan ko‘z yumadi.

Ahmad Lutfiy Qozonchi romanining go‘zal va ibratli tomoni shundaki, Sururi bey va Saodat xonim o‘g‘li Tumay tiriladi, insonlik yo‘liga kiradi. Yana shuni aytib o‘tmoqchimanki, menimcha, Tumayning nurga, poklikka, e’tiqodga duch kelishi bilan bog‘liq. O‘lguday mast bo‘lgan Tumay izg‘ib yurarkan, yurak-bag‘ri kuyadi, suv ichgisi keladi. Hech qayerda suv yo‘q, Jome masjidida chiroq yonib turganini ko‘radi ammo, u masjidga yot odam. Nima qilishini bilmay u yerga kirib qonib suv ichadi. Qarasa ichkarida farishta monand kishilar ibodat qilib o‘tiribdilar. U masjid atrofida yurgan odamdan bugun qadr kechasi ekanligini biladi. Bundan anglashimiz kerakki, aynan shu qadr kechasida Tumayni qalb ko‘zi ochiladi.

¹ Д.Курунов. Адабиётшунослик назарияси. Т., 2018.

² Ахмад Лутфий Қозончи. Бир виждон уйғонур. Тошкент, “Истиқлол”, 2006.

Biz bu asarni o'qish jarayonida shunday holatga duch kelamizki, Tumay o'z ismini o'zgartirib, Murod deya ism olishi ham, qahramonimiz qaytadan tug'ilganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shundan keyin u butkul o'zgarib, eski odatlarini tashlaydi, halollikni bosh maqsad, hayotning ma'no-mazmuni qilib belgilaydi. Bu go'zal xulqi bilan hammaga o'rnak bo'lib, hayotda o'z o'rnini topadi.

Bu asar haqiqiy ma'noda kishilar yuragida samimiylikni jo qilib, insonlardan qabihlikni haydaydigan roman hisoblanadi. Agar asar matni bilan tanish kitobxon dastlabki holatidanoq –adib, aslida, o'zi nima demoqchi ekanligini yozuvchi tomonidan berilgan muqaddimadagi ishoradan sezsa, asarning boshidanoq olis qishloq va undagi ko'chaning nomiga o'quvchi e'tiborini qaratadi va ko'chning nomi ham hatto quloqqa yomon eshitilishini alohida ta'kidlaydi “Dor ko'cha, nima uchun bunday nom berilgan shuni Gul ko'cha deb atashsa, nima bo'lardi” deb dastlabki fikr bayonini berib o'tadi.¹ Bu tarzda asarning boshlanishidanoq, o'quvchi va muallif o'rtasida o'ziga xos uzviy bog'lanish paydo bo'lganligini ko'ramiz. Har qanday xronikali asar sujetida ekspozitsiya birinchi o'ringa o'tadi va kitobxon va voqelik o'rtasida bog'lovchi vazifani belgilab ko'rsatadi.

Asarning eng ta'sirli nuqtalari, jumladan ota va bola o'rtasidagi eng oxirgi nuqta –bu ularning otasi tomonidan olib kelingan aroqni ota va bola talashib qoladilar, doimo uyiga aroq olib kelsa, bir yoki ikki qadah ichishga ham ulgura olmay qolyapkan otaning miyasiga “o'zining nazarida oqilona fikr” keladi. Yo'lda shishaning yarimni ichib olib yarmini uyga olib keladi, shunda g'azabdan ko'zlari ola-kula bo'lgan o'g'li Tumay – Surur beyga: “Shishani yarmini ichib qo'ydingmi qari ko'ppak deb o'shqira boshlaydi”.² Bundan g'azablangan ota juda og'ir ahvolga tushib qoladi. Xotining yalinib yolvorishlari, ichkilikni tashla imonga qayt deb zorlanishlari ham bekor ketadi. O'ziga xos tarbiyaviy asosga ega bo'lgan ushbu kitobni mutolaa qilgan har bir kitobxon o'ziga tegishli xulosalar chiqarishi, tabiiy. Shu o'rinda o'zbek adabiyotining donishmand shoirlaridan biri bo'lgan Maqsud Shayxzodaning ajoyib bir fikrlarini keltirib o'tish mumkin “tovushlar butun olamdan, suvdan, oydan, qishdan, ko'klamdan, diyorlardan, aziz o'lkamdan xush kelgaylar shoir diliga” deb ta'kidlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir yozuvchi o'z asarlarini ezgu niyat bilan kitobxonlar ko'ngliga joy topishini xohlaydi. Ahmad Lutfiy Qozonchi ham shu kabi shoirlar sirasiga kiradi va buni uddasidan chiqib, har bir kitobsevar muhlislarini ko'nglidan mustahkam joy olgan yozuvchi hisoblanadi. Hozirgi kungacha minglab nushalarda chop etilayotgan adibning asarlari o'zbek kitobxonlari qo'lidan tushmay mutolaa qilib kelinmoqda. Yozuvchining mahorati bir tomonda bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyat uchun kerakli ibratli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'layotgan bu janrdagi asarlar ko'pchilikning diqqat markazidadir.

Shu o'rinda Ahmad Lutfiy Qozonchining ushbu asari o'zbek kutubxonlariga mohir tarjimon Rohila Ro'zmonova tarjimasida va mashhur adabiyotshunos olim, professor Abdug'afur Rasulov tomonidan yozilgan so'zboshi bilan 2006-yilda taqdim etilgan. O'zbek kitobxonlari yozuvchi Ahmad Lutfiy Qozonchidan o'rnak va hammamiz uchun ibrat maktabini o'taydigan, mazmun-mohiyatli ajoyib asarlar kutib qoladi. Dinimiz va madaniyatimiz mushtarak bo'lgan turk va o'zbek adabiyotida, zero, bunday salmoqli asarlar juda ko'plab topiladi.

¹ Shu manba.

² Shu manba.

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, f.f.n.;
e-mail: anastasi72@yandex.ru)

**O‘ZBEKISTON OLIY O‘QUV YURLARI TALABALARIDA ISPAN TILI BO‘YICHA
IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN “KAHOOT!”
TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

***Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola doirasida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarida ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish kontekstida “Kahoot!” texnologiyasidan foydalanishi o‘rganiladi. Kahoot! talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshirish maqsadida o‘quv jarayonida faol qo‘llaniladigan interfaol viktorinalar va o‘yinlarni yaratishga mo‘ljallangan onlayn platforma hisoblanadi. Mazkur maqolada “Kahoot!” texnologiyasidan foydalanish samaradorligini ko‘rib chiqqan holda talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun ushbu texnologiyani o‘quv jarayoniga maqbul integratsiya qilish usullari va tavsiyalari taklif etiladi.*

***Аннотация.** В данной научной статье исследуется использование технологии Kahoot! в контексте развития социокультурной компетенции по испанскому языку у студентов вузов Узбекистана. Kahoot! – это онлайн-платформа для создания интерактивных викторин и игр, которая активно применяется в образовательном процессе для повышения мотивации и вовлеченности студентов. В данной статье рассматривается эффективность использования технологии Kahoot! для развития социокультурной компетенции студентов и предлагаются методы и рекомендации для оптимальной интеграции этой технологии в учебный процесс.*

***Annotation.** This scientific article explores the use of “Kahoot!” technology in the context of the development of socio-cultural competence in Spanish among students of universities of Uzbekistan. “Kahoot!” – this is an online platform for creating interactive quizzes and games, which is actively used in the educational process to increase motivation and involvement of students. This article discusses the effectiveness of using the Kahoot! technology. The methods and recommendations for optimal integration of this technology into the educational process are proposed for the development of socio-cultural competence of students.*

***Kalit so‘zlar:** “Kahoot!” texnologiyasi, interfaol ta‘lim, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, motivatsiya, kommunikativ ko‘nikmalar.*

***Ключевые слова:** технология “Kahoot!”, интерактивное обучение, социокультурная компетенция, мотивация, коммуникативные навыки.*

***Key words:** “Kahoot!” technology, interactive learning, socio-cultural competence, motivation, communication skills.*

Madaniy aloqalar tobora kuchayib borayotgan zamonaviy axborot jamiyatida chet tillarini bilish muvaffaqiyatli aloqa va kasbiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanadi. O‘zbekistonda ispan tili eng ko‘p talab qilinadigan chet tillaridan biri hisoblanadi, chunki Respublikamiz ispan tilida so‘zlashadigan mamlakatlardan kelayotgan sayyohlar va sarmoyadorlar uchun tobora jozibador bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarida ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun o‘qitishning innovatsion usullarini qo‘llash zarur. Ta‘lim jarayonida foydalanish uchun taklif qilingan bunday texnologiyalardan biri “Kahoot!” nomli interfaol viktorinalar va so‘rovnoma yaratishga mo‘ljallangan platforma hisoblanadi.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi “Kahoot!” texnologiyasidan O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarida ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun foydalanish samaradorligini o‘rganishdan iborat Ushbu texnologiyaning talabalarning motivatsiyasiga, ularning o‘quv jarayonidagi faolligiga va ispan tilini bilish darajasiga ta‘sirini tahlil qilishga e‘tibor qaratiladi.

“Kahoot!” ta‘lim va ko‘ngilochar maqsadlarda ishlatiladigan interfaol viktorinalar va so‘rovnomalarni yaratishga yo‘naltirilgan mashhur platforma hisoblanadi. Ushbu vosita o‘qituvchilar va foydalanuvchilarga, keyinchalik, o‘rganish, bilimlarni sinab ko‘rish yoki shunchaki bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan maxsus savol-javob viktorinalarini yaratishga imkon beradi.

Kahoot!ning paydo bo‘lishi tarixi Norvegiyada boshlangan bo‘lib, 2013-yilda Kahoot!” AS kompaniyasining tashkil etilishi bilan bog‘liq. Johan Brand, Jamie Brooks va Morten Versvik ushbu kompaniyani o‘quvchilarni o‘qishda faol ishtirok etishga undaydigan platforma yaratish maqsadida tashkil etishdi.

Ularning maqsadi faol o'rganishni rag'batlantiradigan va keng auditoriyani jalb qiladigan qiziqarli vositani yaratishdan iborat bo'lib, o'rganish talabalarning interfaol viktorinalarda o'zaro ta'siri va ishtiroki orqali amalga oshiriladigan o'yinga asoslangan ta'lim konsepsiyasiga (game-based learning) suyangan "Kahoot!"ning rivojlanishiga olib keldi.

Vaqt o'tishi bilan, "Kahoot!" foydalanish qulayligi, interfaolligi va turli mavzular uchun kontentni sozlash qobiliyati tufayli, ayniqsa, ta'lim muassasalarida tobora ommalashib bormoqda. U o'zining geografik hududini tezda kengaytirgan holda, ta'lim muhitida, shu jumladan, O'zbekistonda keng qo'llaniladigan platformaga aylandi.

2017-yilda Kahoot! kompaniyasi o'z platformasini rivojlantirish va kengaytirish uchun Northzone, Creandum, Microsoft Ventures kompaniyalaridan 26,5 million dollar miqdoridagi sarmoya oldi. O'shandan beri ular rivojlanishda davom etmoqdalar hamda so'rovlarni yaratish va "Kahoot!"dan sinfdan tashqari foydalanish kabi yangi funksiyalarni, shuningdek, turli xil qurilmalarda qo'llab-quvvatlashni qo'shmoqdalar.

"Kahoot!", shuningdek, onlayn va masofaviy ta'lim doirasidagi mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mashhur vositaga aylandi, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi fonida. Uning interfaolligi va virtual o'zaro ta'sir qilish imkoniyatlari o'qituvchilarga samarali o'rganishni davom ettirish hamda talabalarni onlayn muhitda jalb qilish imkonini beradi.

2017-yilda "Kahoot!" oyiga 50 million faol noyob foydalanuvchi va jami bir milliard ishtirokchi o'yinchi mavjudligini e'lon qildi. Ushbu holat platformaning ta'lim va ko'ngilochar sohalarda keng tarqalishi va uning muvaffaqiyatidan dalolat beradi. 2020-yil holatiga ko'ra, platformadan 70 milliondan ortiq noyob foydalanuvchilar foydalanmoqda.

Kahoot! o'z platformasini faol ravishda rivojlantirgan holda, o'rganish hamda bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun turli xil xususiyatlar va vositalarni taklif etadi. Masalan, ular viktorinalar, so'rovlar, bahs-munozaralar va boshqa turdagi interfaol o'yinlarni yaratish imkoniyatini beradi. Foydalanuvchilar o'zlarining viktorinalarini sozlashlari, rasmlar va videolarni qo'shishlari, turli xil o'quv maqsadlari va mavzularini qo'llab-quvvatlash uchun savollarni tanlashlari mumkin. Bundan tashqari, "Kahoot!" talabalar va ishtirokchilarni faol ishtirok etishga undaydigan reytingli musobaqalarni o'tkazish imkoniyatini taqdim etadi. O'yin natijalari saqlanib qolishi, shuningdek, talabalarning rivojlanishini yanada muhokama qilish va baholash uchun tahlil qilinishi mumkin.

"Kahoot!" platformasi, shuningdek, hamkorlik va kollaboratsiya vositalarini taklif etadi. Talabalar guruhlar tuzishlari, loyihalar ustida ishlash davomida hamkorlik qilishlari hamda platforma doirasida fikr va materiallar almashishlari mumkin. "Kahoot!" xususiyatlaridan biri, ya'ni, uning turli xil qurilmalarda, shu jumladan kompyuterlar, planshetlar va mobil telefonlarda ishlatish mumkinligi talabalarga o'yinlarda qatnashish va istalgan vaqtda, istalgan joyda faol o'rganish imkonini beradi.

Ta'lim maqsadlarida foydalanishdan tashqari, "Kahoot!", shuningdek, turli sohalarda, masalan, treninglar, anjumanlar, tadbirlar va seminarlarda qo'llaniladi. Ushbu tadbirlarda interaktiv viktorinalar mulot qilish va so'rov o'tkazish uchun foydalaniladi.

Eng avvalo, "Kahoot!" texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz. "Kahoot!" texnologiyasini ta'limda qo'llash ilmiy ishlarda faol o'rganilmoqda. Asniza I., Zuraidah O., Bahauddin A. "Kahoot!" platformasidan dasturlash tillarini o'qitish kontekstida foydalanish samaradorligini o'rganadilar. Natijalar shuni ko'rsatadiki, "Kahoot!" texnologiyasini qo'llash talabalarning motivatsiyasini oshirishga va o'quv natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Kh.Altawalbeh va I.Irwanto tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda "Kahoot!" platformasining kognitiv, affektiv va psixomotor qobiliyatlarga ta'siri o'rganilmoqda. Natijalar Kahoot!ning talabalarni rag'batlantirish, jalb qilish va takomillashtirishga bo'lgan ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

R.Ali va M.Abdalgane tadqiqoti Kahoot!ning ingliz tili talabalari tomonidan so'z boyligini o'zlashtirish va saqlashga ta'sirini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Kahoot!dan foydalanish o'rganilayotgan tilning yangi so'zlarini yanada samarali va uzoq muddatli yodlashga yordam beradi.

C.Plump va La Rosa J. tadqiqoti "Kahoot!"dan talabalarning katta guruhlarida foydalanish tajribasini o'rganadi. Natijalarga ko'ra, "Kahoot!" talabalarni faol o'rganishga jalb qilish, ularning natijalari va o'quv jarayonidan qoniqishlarini yaxshilash imkonini beradi.

Yuqoridagi tadqiqotlar va misollar "Kahoot!" texnologiyasining talabalarning turli sohalardagi o'qishi va yutuqlariga ijobiy ta'sirini tasdiqlagan holda, "Kahoot!"ning talabalarning motivatsiyasini oshirish, jalb qilish va ularning natijalarini yaxshilashda samaradorligini ko'rsatadi.

Aslida, “Kahoot!” guruh mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan. Talabalar umumiy ekran, masalan, interaktiv doska, proyektor, monitor, VNC, Jitsi, Skype yoki Google Hangouts orqali virtual uzatiladigan ekran atrofida to‘planishadi. O‘yin jarayoni oddiy. Barcha o‘yin ishtirokchilari bir vaqtning o‘zida o‘z qurilmalaridagi savollarga javob berishadi. Savollar ekranda o‘quvchilarga birma-bir ko‘rsatiladi. Ishtirokchilar har bir to‘g‘ri javob uchun ball to‘playdilar. Viktorina oxirida savollarga javob berish paytida to‘plangan barcha ishtirokchilarning ballari ko‘rsatiladi.

“Kahoot!” texnologiyasi quyidagi tamoyil asosida ishlaydi:

1. Viktorina yaratish. O‘qituvchi “Kahoot!” platformasida viktorina (savollar to‘plami) yaratadi. Savollar bitta javobni yoki bir nechta javob variantlarini tanlashni talab qilishi mumkin. Bundan tashqari, grafik tasvirlar yoki videolar ham viktorinaga kiritilishi mumkin.

2. Kod yaratish. Viktorina yaratilgandan so‘ng, o‘qituvchi talabalar ushbu viktorinaga kirish uchun foydalanadigan noyob kodni yaratadi. Ushbu kod displeyda, proyektorda ko‘rsatilishi, hatto chop etilishi mumkin bo‘lgan oddiy raqamli kod yoki QR kod bo‘lishi mumkin.

3. Talabalarni ulash. Talabalar mobil qurilmalari yoki kompyuterlaridan foydalangan holda, “Kahoot!” tizimiga kirgandan so‘ng, tegishli maydonga noyob kodni kiritadi. Viktorinaga ulangandan keyin, talabalar ekranda o‘z ismlarini ko‘rishlari mumkin va undan o‘tishga tayyor.

4. Savollarga javoblar. Ekranda savollar paydo bo‘lganda, talabalar o‘z qurilmalari yordamida to‘g‘ri deb hisoblagan javoblarni tanlaydilar. Javob berish vaqti odatda cheklangan bo‘lib, tezkor javob berishni va barcha talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi.

5. Natijalarni baholash. Viktorinaning so‘nggi savoliga javob bergandan so‘ng, Kahoot! ballarni hisoblab chiqib, to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni hamda ishtirokchilar reytingini ko‘rsatadigan statistik ma‘lumotlarni taqdim etadi. Fikr-mulohazalar va natijalar faqat o‘qituvchiga ochiq yoki ko‘rinadigan bo‘lishi mumkin.

6. Munozara va tahlil. Viktorina tugagandan so‘ng, o‘qituvchi to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarni muhokama qilishi va materialning muhim jihatlari aniqlab berishi mumkin. Bunday faoliyat talabalarga bilim va tushunchalarini mustahkamlashga yordam beradi.

7. Live Game dasturi. O‘z viktorinalarni yaratishdan tashqari, Kahoot! o‘qituvchi boshqa foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan mavjud o‘yinlardan tanlashi mumkin bo‘lgan “jonli o‘yin” xususiyatini taklif etadi. Bunday viktorinalar tanlovini kengaytirish hamda belgilangan maqsadlar va mavzularga mos keladigan tayyor o‘yinlardan foydalanish imkonini beradi.

8. Yetakchilik va raqobat. Viktorinalarni o‘tkazish jarayonida, “Kahoot!” ishtirokchilar reytingini taqdim etadi hamda to‘g‘ri javoblar soni va reaksiya tezligiga qarab yetakchilarni aniqlaydi. Ushbu jihat raqobat elementini yaratadi, shuningdek, talabalarni faol ishtirok etishga va yaxshi natijalarga erishishga undaydi.

9. Ma‘lumotlarni tahlil qilish. “Kahoot!” har bir viktorina natijalarini saqlash va tahlil qilish imkonini beradi. O‘qituvchi batafsil statistikaga, shu jumladan, to‘g‘ri javoblar foiziga, har bir savolga sarflangan vaqtga va har bir ishtirokchining taraqqiyoti va akademik ko‘rsatkichlariga kirishi mumkin. Bunday ish o‘qituvchiga talabalarning tushunish va ishlash darajasini baholashga hamda “Kahoot!” texnologiyasidan ta‘lim jarayonida foydalanish samaradorligini baholashga yordam beradi.

10. Foydalanish osonligi va qulayligi.” Kahoot!” kompyuterlar, planshetlar va mobil qurilmalarni o‘z ichiga olgan turli platformalarda foydalanish mumkin bo‘lgan veb-dastur hisoblanadi. Mazkur jihat ishtirokchilarga istalgan joydan va istalgan vaqtda viktorinalarda qatnashish imkoniyatini berib, o‘rganishning moslashuvchanligini oshiradi.

Umuman olganda, “Kahoot!” texnologiyasi talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantirish va motivatsiyani oshirish orqali o‘rganishga interaktiv va rag‘batlantiruvchi yondashuvni taklif etadi, shuningdek, o‘qituvchilarga interfaol viktorinalarni yaratish va o‘tkazish, o‘quv jarayonini takomillashtirish va talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga imkon beradi. “Kahoot!” texnologiyasining interaktiv viktorinalarni yaratish va o‘tkazish uchun oddiy va tushunarli interfeysi uni ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayonining motivatsiyasi va samaradorligini oshirish uchun mashhur vositaga aylantiradi.

Tadqiqotimiz davomida “Kahoot!” texnologiyasining quyidagi afzalliklari aniqlandi:

1. Interfaollik. “Kahoot!” talabalarni faol ravishda jalb qiladigan va rag‘batlantiradigan interfaol viktorina formatini taklif etadi. Shu sababli ushbu texnologiyadan foydalanish o‘quv jarayonini sezilarli darajada yaxshilagan holda, uni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

2. Raqobatni rag'batlantirish. "Kahoot!" talabalar savollarga javob berish uchun o'zaro raqobatlashadigan musobaqalarni o'tkazish imkoniyatini beradi, ularning diqqatini jamlab oladi va o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bundan tashqari, raqobat barcha talabalarning faol ishtirok etishiga va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

3. Tezkor teskari aloqa. "Kahoot!" har bir savoldan keyin darhol natijalar va fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Ushbu holat talabalarga xatolarni tezda tuzatishga, shuningdek, ularning taraqqiyotini tahlil qilishga va qo'shimcha o'rganishni talab qiladigan sohalarni aniqlashga imkon beradi. Bunday tezkor fikr-mulohazalar talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi va materialni o'zlashtirish sifatini oshiradi.

Tadqiqot asosida "Kahoot!" texnologiyasining quyidagi kamchiliklarini ta'kidlash mumkin:

1. Cheklangan funksionallik. "Kahoot!"ning barcha afzalliklariga qaramay, uning kontent yaratish imkoniyatlari cheklangan. Ushbu texnologiya viktorinalar va so'rovlar uchun ko'proq mos keladi, ammo chuqur tahlil va tanqidiy fikrlashni talab qiladigan murakkab ko'nikmalarni rivojlantirishda unchalik samarali bo'lmasligi mumkin.

2. Internetga kirish cheklovlari. "Kahoot!"dan foydalanish uchun, albatta, internet tarmog'iga kirish kerak. Internetga barqaror ulanishning yetishmasligi yoki uning cheklangan tezligi ushbu texnologiyadan foydalanishni qiyinlashtirishi va ba'zi talabalar uchun to'siq bolishi mumkin.

3. Chuqur tushunishning yetishmasligi. "Kahoot!"dan foydalanish faol ishtirok etish va motivatsiyani oshirishga yordam berishiga qaramasdan, materialni chuqur tushunishni ta'minlamasligi mumkin. "Kahoot!" yordamchi vosita bo'lib, ma'lumotni to'liq o'zlashtirishni ta'minlash uchun o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ishlash va moslashishni talab qiladi.

Keyinchalik, "Kahoot!" texnologiyasidan foydalangan holda, oliy ta'lim muassasida ispan tili bo'yicha dars ishlanmasini taklif qilamiz.

"Kahoot!" texnologiyasidan foydalangan holda, ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish

| | |
|-------------------|--|
| Dars maqsadi | Talabalarning ispan tilidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish, "Kahoot!" texnologiyasidan foydalangan holda, ispan madaniyati va urf-odatlarini haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish. |
| Dars bosqichlari: | <p>1. Kirish (5 daqiqa).</p> <ul style="list-style-type: none"> ◆O'qituvchi dars mavzusini taqdim etadi va talabalar "Kahoot!" texnologiyasi orqali ispan tili bo'yicha o'zlarining ijtimoiy-madaniy kompetentliklarini rivojlantirishlarini tushuntiradi. ◆O'qituvchi talabalar ispan madaniyati va urf-odatlarini to'g'risida allaqachon bilgan jihatlarni qisqacha muhokama qiladi. <p>2. Viktorinani yaratish (15 daqiqa).</p> <ul style="list-style-type: none"> ◆O'qituvchi "Kahoot!" platformasida ispan madaniyatining turli jihatlari, masalan, tarix, san'at, oshxona, bayramlar va an'analar haqidagi savollarni o'z ichiga oladigan viktorinani yaratadi. ◆Savollar bir yoki bir nechta javoblarni tanlash formatida, shuningdek, grafik tasvirlar yoki videolardan foydalangan holda taqdim etilishi mumkin. <p>3. Viktorinani o'tkazish (30 daqiqa).</p> <ul style="list-style-type: none"> ◆Talabalar o'zlarining mobil qurilmalari yoki kompyuterlarida noyob Kahoot! kodidan foydalangan holda viktorinaga ulanishadi. ◆O'qituvchi viktorinani boshlaydi va talabalar cheklangan vaqt ichida o'z qurilmalari ekranida javoblarni tanlab, savollarga javob berishadi. ◆Har bir savoldan so'ng o'qituvchi to'g'ri va noto'g'ri javoblarni muhokama qiladi, qo'shimcha ma'lumot beradi va muhokamani rag'batlantiradi. <p>4. Natijalarni muhokama qilish va fikr-mulohazalar (20 daqiqa).</p> <ul style="list-style-type: none"> ◆O'qituvchi "Kahoot!" tomonidan taqdim etilgan natijalar va statistikani tahlil qiladi, va muhim jihatlarni muhokama qiladi, to'g'ri javoblarni va tushunarsiz fikrlarni tushuntiradi. ◆Talabalar viktorina haqidagi fikrlari va taassurotlari bilan o'rtoqlashishlari, shuningdek, ispan madaniyati bilan bog'liq savollar berishlari mumkin. <p>5. Xulosa va mulohaza (10 daqiqa).</p> <ul style="list-style-type: none"> ◆O'qituvchi ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish muhimligini va uning ispan tilini o'rganishda ahamiyatini ta'kidlab, dars natijalarini sarhisob qiladi. ◆Talabalar ispan madaniyati haqidagi bilimlarni ularning kundalik hayotida va kelajakdagi kasbiy faoliyatida qanday qo'llash mumkinligi haqida fikr yuritadi. |

Qo‘shimcha g‘oyalar:

–o‘qituvchi talabalar tajribasini vizual ravishda boyitish va ularni ispan madaniyati muhitiga singirish uchun darsni taqdimot, rasm yoki video bilan to‘ldirishi mumkin;

–talabalar tomonidan bo‘lajak viktorinalar uchun savollarni muhokama qilishlari va tayyorlashlari mumkin bo‘lgan kichik guruhlarni tashkil qilishi ularning o‘quv jarayonida faol ishtiroki va ijodiga yordam beradi;

–darsdan so‘ng talabalarga Ispaniya madaniyati haqida ko‘proq bilib olishlari va mustaqil o‘rganishini davom ettirishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha manbalarni taklif qilish mumkin.

Endi DELE A1, A2, B1, B2, C1, C2 darajalari bo‘yicha talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish maqsadida Kahoot!da viktorinalar uchun ehtimolli mavzularni taqdim etadigan jadvalni taqdim etamiz.

| Darajalar | Maqsadlar | Viktorinalar uchun ehtimolli mavzular |
|-----------|--|--|
| A1 | Ispan madaniyat va urf-odatlariga kirish. | Salomlashish. Ispan milliy taomlari. Ispan shaharlari va diqqatga sazovor joylari. Ispancha musiqa. |
| A2 | Ispan madaniyatini chuqurroq tushunish. | Ispaniya va ispan tilida gapiruvchi davlatlarning mashhur shaxslari. Tarixiy faktlar va hodisalar. Ispan urf-odatlari va an‘analari, bayramlari. |
| B1 | Madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish. | Madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari. Ispan tilida gapiruvchi davlatlarda biznes-madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari. |
| B2 | Tanqidiy fikrlash va madaniy jihatlarni tahlil qilish | Ispanzabon davlatlarning jahon san‘atiga qo‘shgan hissasi. Tarixiy va zamonaviy ijtimoiy va siyosiy muammolar. |
| C1 | Madaniyatni chuqurlashtirilgan o‘rganishi. | Falsafa. San‘at. Ispan adabiyoti. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy tendensiyalari. |
| C2 | Madaniy “sho‘ng‘ish” va til ko‘nikmalarining yuqori darajasiga erishish. | Madaniy urf-odatlar va an‘analar. Yuqori saviyadagi matnlar va audiomateriallarni tahlil qilish. |

Keyinchalik, “Kahoot!” texnologiyasini O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarining ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish maqsadida o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning bir necha usullarini taklif etamiz.

1. Madaniy viktorinalar. “Kahoot!”da Ispaniya madaniyati, an‘analari, tarixi va diqqatga sazovor joylari haqidagi savollarni o‘z ichiga olgan viktorinalar seriyasini yarating. Talabalarga ispan madaniyatining turli jihatlariga e‘tibor qaratib, o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlariga topshiriq bering.

2. Rolli o‘yinlar. “Kahoot!”da talabalar ispan tilida so‘zlashuvchi qahramonlar rolini o‘ynashi hamda ularning madaniyati va urf-odatlari bilan bog‘liq savollarga javob berishi mumkin bo‘lgan “Live Game” rejimidan foydalaning. Bunday mashq talabalarga ispan madaniyatini yaxshiroq tushunishga va o‘rganishga yordam beradi.

3. Virtual ekskursiyalar. Ispaniya shaharlari, muzeylari, tarixiy yodgorliklari va boshqa madaniy diqqatga sazovor joylarga virtual sayohatlar asosida viktorina yarating. Bunda talabalar interaktiv galereyalar va audio-vizual materiallar orqali ispan madaniyatini o‘rganishlari mumkin.

4. Filmlar va musiqa. Ispan tilidagi filmlar, qo‘shiqlar yoki kliplar asosida viktorina yarating. Talabalar ispan tilidagi asarlarning mazmuni, ma‘nosi, tarixi haqidagi savollarga javob berishlari hamda ispanzabon mamlakatlarining musiqiy va kinematografik madaniyati haqidagi bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

5. Munozara va guruh muhokamasi. Har bir viktorinadan so‘ng “Kahoot!”dan guruh muhokamasi va natijalarni birgalikda tahlil qilish uchun foydalanishi talabalarga ispan tilining turli madaniy jihatlari haqida fikr yuritishni o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, bunday mashq ularga madaniyatlararo aloqa va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

6. Loyihalar va tadqiqotlar. Talabalarga ularining izlanishlari va ispan madaniyatiga sho'ng'ishlarini aks ettiruvchi o'z viktorinalarini yaratish maqsadida "Kahoot!"dan foydalanishni taklif qiling. Bunday mashq talabalarga o'qishlarida faol ishtirok etishga hamda tadqiqot va taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. Virtual mehmondo'stlik tadbirlari. "Kahoot!"dan Ispaniyaning mehmondo'stlik an'analari va madaniy qadriyatlari bilan bog'liq viktorina yaratish uchun foydalaning. Talabalar mehmondo'stlik ispan madaniyatida qanday namoyon bo'lishi, qanday an'analardan mavjudligi va ular boshqa madaniyatlardan qanday farq qilishi haqidagi savollarga javob berishlari mumkin.

8. Kross-madaniy viktorinalar. Talabalarga ispan madaniyatini o'z xalqi madaniyati bilan taqqoslash bo'yicha savollar beriladigan kross-madaniy viktorinalarni yaratishni taklif qiling. Bunday topshiriq talabalarga madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish orqali madaniyatlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni o'rganish va yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

9. Kahoot!ga asoslangan o'quv loyihalari. Talabalarga Kahoot! texnologiyasidan foydalangan holda, ispan madaniyatining turli jihatlarini o'rganish va taqdim etish maqsadida o'quv loyihalarini tashkil-lashtirishni taklif qiling. Bunga Ispaniyaning ayrim mintaqalari haqida viktorinalar yaratish, ispan san'atini o'rganish yoki ispan kinematografiyasini tahlil qilish kiradi.

10. Multimedia resurslaridan foydalanish. Talabalarni "Kahoot!"da viktorinalar uchun savollar va materiallar yaratish uchun video, audio yozuvlar, maqolalar va rasmlar kabi turli xil multimedia manbalarini izlashga va ulardan foydalanishga undang. Bunday faoliyat talabalarga ispan madaniyati haqidagi bilimlarini kengaytirishga va uni yanada to'liq va qiziqarli tarzda tasavvur etishga yordam beradi.

"Kahoot!" texnologiyasini ispan tilida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha o'quv jarayoniga integratsiya qilish interfaol va qiziqarli o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu usullar talabalarga ispan tilidagi material bilan faol ishlash, madaniy tushunchalarini boyitish va ispan madaniyati sharoitida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Ushbu ilmiy maqolada biz "Kahoot!" texnologiyasidan O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalarining ispan tili bo'yicha ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun foydalanishni o'rganib chiqdik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Kahoot!"dan foydalanish talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarning qisqacha ko'rib chiqilishi "Kahoot!" o'qituvchilarga va talabalarga ispan madaniyati, adabiyoti, geografiyasi va tarixini tushunishni yaxshilashga yordam beradigan interaktiv kvizlar va o'yinlarni yaratishga imkon berishini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv talabalarning faol ishtirokini rag'batlantiradi, muloqot va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda madaniyatlararo fikr va bilim almashinuvini takomillashtiradi. Biroq, bunda ba'zi ehtimolli cheklovlarni ta'kidlash kerak. Ayrim talabalar texnologiyadan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari yoki ijtimoiy-madaniy kontekstni chuqurroq tushunishni rivojlantirish uchun uni noo'rin deb hisoblashlari mumkin. Bundan tashqari, "Kahoot!" kontekstida yutuqlarni baholash qiyin vazifa bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, "Kahoot!" texnologiyasidan foydalanish ispan tilini o'rganuvchi talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini samarali rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin. Biroq, ushbu texnologiyadan maqbul foydalanishni ta'minlash uchun ehtiyojlarni hisobga olish va cheklovlarni yengib o'tish muhimdir.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston oliy o'quv yurtlarining ispan tili o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishga yangi va interfaol yondashuvni taqdim etishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar "Kahoot!"dan foydalanishning uzoq muddatli ta'sirini o'rganishga hamda ushbu texnologiyadan boshqa o'qitish usullari bilan birgalikda foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ali Rabea, & Abdalgane Mohammed. (2022). The Impact of Gamification "Kahoot! App" in Teaching English for Academic Purposes. *World Journal of English Language*, 12, 18–27. 10.5430/wjel.v12n7p18.
2. Altawalbeh Kh., & Irwanto I. (2023). The impact of Kahoot! on a Higher Education Online Classroom. *Journal of Educational Technology and Instruction*, 2023, Vol.2, № 1, p. 30 – 49.
3. Asniza I., Zuraidah O., & Bahauddin A. (2021). Online Game-Based Learning Using Kahoot!! to enhance Pre-University Students' Active Learning: A Students' Perception in Biology Classroom. *Journal of Turkish Science Educacion*, 2021, 18(1), p. 145 – 160.

4. Plump Carolyn, & LaRosa Julia. (2017). Using Kahoot!! in the Classroom to Create Engagement and Active Learning: A Game-Based Technology Solution for eLearning Novices. Management Teaching Review, 2. 10.1177/2379298116689783.

Latipova Gavhar Shavkatovna (oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti)
O'QUVCHILARNING KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarining kreativ salohiyatini, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ularning fikrlashlari bilan bog'liq bosqichlar, fikrlashning turlari, bolalar dunyoqarashi, ularning atrof-muhitni tushinish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются психолого-педагогические аспекты развития творческого потенциала учащихся, их творческих способностей. Также в процессе работы с учащимися рассматриваются этапы, связанные с их мышлением, типами мышления, мировоззрением детей, проблемы, связанные с пониманием ими окружающего.

Annotation. The article examines the psychological and pedagogical aspects of developing the creative potential of students, creative abilities. Also, in the process of working with students, the stages related to their thinking, types of thinking, children's worldview, problems related to their understanding of the environment are considered.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, maktab davri psixologiyasi, konvergent fikrlash, divergent fikrlash, kreativ yondashuv, rag'batlantirish, tabaqalashtirilgan ta'lim, sababli fikrlash, qarama-qarshi fikrlash, kazu, aqliy hujum, teambuilding.

Ключевые слова: креативное мышление, школьная психология, конвергентное мышление, дивергентное мышление, творческий подход, мотивация, дифференцированное образование, причинное мышление, конфликтное мышление, кейс-стади, мозговой штурм, командообразование.

Key words: creative thinking, school psychology, convergent thinking, divergent thinking, creative approach, motivation, differentiated education, causal thinking, conflicting thinking, case study, brainstorming, team building.

Kirish. Bugungi kunning insonlari doimo o'zgarib turadigan, murakkablashib borayotgan davrda yashamoqda. Yangi paydo bo'ladigan qiyinchiliklarga qarshi turish uchun moslashuvchanlik xarakteri muhimdir. Moslashish usullaridan biri ijodiy fikrlash, yangi va foydali g'oyalarni yaratish jarayonidir. Ijodiy fikrlash aqliy moslashuvchanlikka va kutilmagan hodisalarni boshqarishga qo'shgan hissa orqali individual darajada foydali tomonlarni beradi. Ijodiy ongini rivojlantirish har doim yangilikka moslashishni ta'minlash uchun asos bo'lgan. Insoniyat sivilizatsiyasining muammolaridan bo'lib kelgan. Ijodiy fikrlash bolalik davrida o'sib borsa-da, maktab tajribasi uning rivojlanishiga yordam berishi ko'rsatilgan [1]. Maktab davri har bir bola uchun alohida ahamiyat kasb etgan holda, tevarak-atrofga moslashishda asosiy bosqich ijodiy fikrlashga undaydigan boshlang'ich davr hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamonaviy ta'lim paradigmalarining o'zgarishini ham talab etadi. Bu paradigmalar o'quvchilarga tayyor mavjud bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki eng asosiy, zarrur bilimga qanday qilib ega bo'lish qobiliyatini shakllantirishga qaratiladi. O'quv faoliyatini samarali tashkil qilish orqali dars jarayonida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalari shakllanib boradi. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar o'zlarini va jamiyatni anglashni boshlaydi. Ularda tushinish bilan birga, o'z fikrlash doirasida xulosalar shakllanadi. Pedagogikaning asl mohiyati ham bolani to'g'ri yo'naltirgan holda, uni shaxs sifatida voyaga yetishiga yordam berishdir.

Adabiyotlar sharhi. Filipp Eon Duvalning Lozanna universiteti va boshqa joylar bilan hamkorlikda olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, ijodiy fikrlash ko'plab kundalik hayotiy vaziyatlarni hal qilish uchun asosiy yechimdir [2]. Shunga ko'ra, bolalik davrida ijodiy fikrlashni qanday rivojlantirishga qiziqish ortib bormoqda, ammo uning rivojlanishining asosiy mexanizmlari haqida hozirga qadar kam narsa ma'lum. Deyarli barcha tadqiqotlar konvergent (konvergent fikrlash – bu muammolarning aniq va fakt asosidagi yechimlarini topish jarayoni) fikrlashni chetga surib, divergent (divergent–original g'oyalar va yangi imkoniyatlarni yaratishning ijodiy jarayoni) fikrlashga qaratilgan. Torrance (1959-yildan 1964-yilgacha AQSHda birdan oltinchi sinfgacha bo'lgan uch yuz ellik o'quvchi bilan tadqiqot o'tkazish orqali bolalarning ijodiy darajalariga qiziqishni boshladi [3]. Beshinchi sinf o'quvchilaridan tasodifiy tanlab olinganlar

o'rtasida u "Ijodkorlikning to'rtinchi darajali pasayishi" (195-bet) deb nomlagan umumiy tanazzulni topdi. To'rtinchi darajali pasayish, odatda, to'qqiz yoshli bolalarga ta'sir qiladi. Bu bosqich bolalarda balog'at davriga o'tish bilan kechadi va tanqidiy yondashuvning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Eronda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati birinchi sinfdan uchinchi sinfga qadar o'sganini, so'ngra uchinchi va to'rtinchi sinflarda keskin pasayib, beshinchi sinfdan yana o'sishini ko'rsatib berganlar (Darvishi va Pakdaman) [4]. O.D.Nikitin fikriga ko'ra, "Tadqiqot jarayonida shaxsning uchta tashkil etuvchisi (mental, emotsional, jismoniy) ajratib ko'rsatilgan. Amaliyot darajasida mental, emotsional va jismoniy tashkil etuvchilar orasidagi munosabatni uchta kesishuvchi sohalar shaklida aks ettirish mumkin. Bunday holatda ta'lim olish jarayoni barcha uch sohaga ham ta'sirini o'tkazadi, kreativlikning o'sishi esa ularning tartibga solingan o'zaro ta'siri va bu komponentlarning integratsiyalashuvi jarayonini o'zida namoyon etadi [5].

Metodologiya. Ijodkorlikni turli xil fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini baholash orqali ijodiy fikrlash nuqtayi nazaridan aniqlash mumkin. Bu qobiliyatlarni, ayniqsa, ijodiy treninglar orqali amalga oshirish mumkin. Pedagogik va psixologik texnologiya ishlarini shaxsning u yoki bu qismiga ta'siri darajasi bo'yicha ularni ajratib ko'rsatish mumkin. Olimlarning fikriga ko'ra, o'tish davrida tug'ilgan bolalarda ijodkorlikning pasayishi bilan bog'liq muammolar vujudga kelishi mumkin [6].

Sababi davr almashinuv vaqtida turli xil dunyoqarash, turli madaniyatlar to'qnashuviga guvoh bo'lgan avlodlarda fikrlash, tushunib yetish bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. Shunday vaziyatda maktab atrofni tushunish va moslashish uchun eng qulay muhitni beradi. Keltirilgan tavsiflarni tahlil etish natijasida bilimlar izlanish va fikrlash faoliyatlari, ijod jarayoni shakllarda tizimli, fanlararo hamda umumlashtirilgan holda aniqlab olish mumkin. Kreativ yondashuv darslarida o'quvchilarni faollashtirish uchun individual va tabaqalashgan yondashuvlarni keltirishimiz mumkin. Dars davomida o'quvchilarga tabaqalashtirilgan yondashish deganda, mustaqil o'quv faoliyatini boshqarishning shunday tizimi tushuniladiki, bunda o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Bu o'quvchining bilish faoliyatini ma'lum tizimda boshqarish bilan boradigan o'quv-tarbiyaviy jarayondir. Shunga mos ravishda o'qitishni tashkil etish individuallashtirilgan holda olib boriladi [6].

Yuqorida keltirilgan metodikani ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida didaktika tamoyillariga mos ravishda qo'llash kutilgan ijobiy natijani beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda konvergent fikrlashga asoslan statistik kuzatuv, o'rganilayotgan obyektlarni guruhlash, statistik ko'rsatkichlarni hisoblash orqali mavzuni tushinish oson kechsa, ijtimoiy gumanitar fanlarda olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni grafik, jadval yoki matn ko'rinishida tasvirlash kabi usullardan foydalanish ta'lim saradorligining oshishiga imkon beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Kreativ yondashuvni rivojlantirish, fanlar kesimida undan foydalanish, individual ravishda qo'llash quyidagi xulosalarni chiqarish imkoniyatini berdi: umumta'lim muassasalarida o'quvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligiga qaratilgan kreativ fikrlashni rivojlantirish muammosidagi, o'qitishning tashkiliy shakllari orasida nazariy yoki amaliy mashg'ulotni ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda darsni qanday tashkil etish tanlovi asosiy jarayon hisoblanadi. O'qituvchi oldidagi asosiy vazifa esa:

- o'tilayotgan dars mashg'ulotlarini bosqichlarga ajratib olish;
- o'quvchilarga ishlash qulay bo'lgan ijodiy muhitni yaratish uchun zaruriy sharoitlarni yaratish;
- o'z-o'zini kashf qilish va o'zini namoyon qilishning maxsus tanlangan texnologiyalarini ishlab chiqish;
- pedagogning kasbiy tajribasiga tayangan holda, ijodiy salohiyatni faollashtirish;
- ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarga oldindan tayyor turish;
- vujudga keladigan muammolar uchun maxsus yechimlar berish, keyinchalik, qaytarilmaslik uchun sinfdagi vaziyatni qo'lga olish, nazoratda ushlab;
- oldingi bosqichlarda olingan ko'nikmalarni mustahkamlash va mazkur ko'nikmalardan keyingi faoliyatlarda foydalanish;
- o'quvchilar uchun, eng muhimi, bo'lgan rag'batlantirish va mashg'ulot yakunidagi umumiy ijobiy xulosalarni doimiy berib borishdan iboratdir.

Ushbu jihatlardan orqali ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan dars mashg'uloti shakllantiriladi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishiga hamda oldingi mavzularni takrorlab mustahkamlashga qaratiladi. Biroq dars mashg'ulotlarini tarbiyaviy tomoni ham bo'lib didaktikadan ajragan holda olib borilgan ta'limiy yondashuv kutilgan natijani bermaydi. Shunga ko'ra, har bir dars mashg'uloti uchun ta'limiy maqsad bilan birgalikda tarbiyaviy maqsadni birgalikda tashkil qilish talab etiladi. Darsning tarbiyaviy maqsadi:

- o‘quvchilar ustida ishlab, ko‘proq tahliliy yondashuvga tayanish;
- mavzu doirasida xulosa chiqaradigan, ibrat bo‘ladigan na‘munalar keltirish;
- fanlarga aloqador bo‘lgan olimlar hayotidan lavhalar, ibratli voqealarni bayon qilish;
- millatning o‘tmishiga aloqador tarixiy qahramonlarni tanitish;
- an‘analarga sodiqlik va madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, eng muhimi, har bir shaxsni vatanparvarlik ruhida komil inson sifatida tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko‘rilgan tahlil natijalariga tayanib, o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda, quyidagi ketma-ketlikka e‘tibor qaratish zarur degan xulosaga keldik:

Birinchi, dars mashg‘ulotining chaqiriq bosqichi. Faollashtirish, mavzuning mazmun-mohiyatiga o‘quvchilarning chuqur kirib borishlari, uni to‘liq anglab yetishlari jarayoniga tayyorlashni amalga oshirish zaruriyati;

Ikkinchi, mashg‘ulot jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlarini qo‘llash bosqichi. Bu usullar o‘quv mashg‘ulotining boshlanishida yoki istalgan qismida qo‘llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo o‘quvchilarga istalgan usulda beriladi va ularning fikrlari orqali natija umumlashtirilib olinadi;

Uchinchi, mavzu mazmuni-mohiyatini anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar jamlanadi va o‘qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to‘ldirib boriladi;

To‘rtinchi yakuniy fikrlash bosqichi [7]. Muhokama qilingan mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqacha yozma bayon qilish topshiriladi. Bu usul ikkita kognitiv hikoya mexanizmi orqali amaliy muammolarni hal qilishga hissa qo‘shishi mumkin:

1. Sababli fikrlash. Agar bola biron-bir faoliyatni bajara olmaganligi sababli umidsizlikka tushib qolsa, u o‘z nuqtayi nazaridan orqaga chekinib, nima uchun ushbu faoliyatni amalga oshirishni xohlayotgani haqida chuqurroq fikr yuritishi va unga maqsadlarini qondirishning boshqa yo‘llarini aniqlashga yordam berishi mumkin. Bunday holatni o‘z ustida ishlashning individual varianti deb ayta olamiz. Sababi bola o‘z fikrlash doirasida yechim qidiradi va bu yechim boshqalaridan, umuman, farq qiladi.

2. Qarama-qarshi fikrlash mexanizmi [8].

Bunda bolalar boshqa odamlar qanday qilib bir xil muammoni hal qilish uchun turli xil rejalarni ixtiro qilishlari mumkinligini tasavvur qilish orqali o‘zlarining aqliy doirasini kengaytirib, harakat qilishning yangi usullarini yaratishlari mumkin. Ushbu mexanizm orqali bola oldin atrofni o‘rganadi, tahlil qiladi va shu tahlillarga tayanib, o‘zining yechimini beradi. Keltirilgan ikkala mexanizm ham bolaning fikrlash salohiyatini rivojlantirishda o‘ziga xos jihatlarga ega, ammo kim qaysi usuldan foydalanishi, natija va xulosalarning qanday bo‘lishi bolaga bog‘liq jarayon bo‘lib qolaveradi.

Ushbu mexanizmlardan foydalanishni esa pedagog hal qiladi va bu usullar to‘g‘ri kelmagan hollarda guruh bo‘lib ishlash metodlarini qo‘llashni tavsiya sifatida keltirib o‘tamiz. Bunda berilgan topshiriqlarni bajarish uchun sinf guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh topshiriq bo‘yicha o‘z fikrlarini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga tushuntirib beradi. Bulardan tashqari, guruhlariga topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish, kuchli guruhlarini rag‘batlantirib borish, natijalarni baholashga ham ahamiyat qaratadi. Mashg‘ulot jarayonida kuchli guruh a‘zolarini kuchsiz guruh a‘zolariga almashtirish ham mumkin. Ushbu usuldan foydalanganda yana bir jihat borki, beriladigan xulosa umumiy bo‘lsa-da, mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida raqobat muhitini yaratish uchun tabaqalashtirilgan topshiriqlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Sababi, bunday vaziyat o‘quvchini yanada o‘z ustida ishlashga, takrorlanmaydigan, original, kreativ g‘oyalarni o‘ylashga sabab bo‘ladi. O‘quv mashg‘ulotlarini ushbu ketma-ketlikda tashkil etilganida, o‘quvchilarning kreativ fikrlashlari rivojlanib boradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmasi hosil bo‘lib, ijodiy tafakkurining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mahoratli pedagog har qanday kayfiyatdagi, bilim darajasi turli bosqichlarda bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda ham muammoli vaziyatlardan ustakorlik bilan chiqib ketadi, ularni qiziqtiradigan, diqqatini jamlaydigan, rivojlantiradigan, fanlarga qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladigan metodlardan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bugungi kun o‘quvchilarning talab va ehtiyojlariga ko‘ra boshqa yuqorida keltirib o‘tilgan mantiqiy boshqotirmalar, o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga undaydigan, tafakkurini kengaytiradigan jamoaviy harakatiga sabab bo‘ladigan metodlar qiziqarli va foydalidir. Tajriba davomida turli xil fikrlash bosqichlari, o‘quvchilarning aqliy salohiyatiga qarab guruhlariga ajratilishi va vazifalar ham shunga ko‘ra, turli darajada berilishini jahon tajribasi misolida ko‘rib chiqdik.

O'rgangan xuloslarimiz ham shuni ko'rsatadiki, bugungi globallashuv jarayonida, eng asosiysi, o'quvchilarni diqqatini fanga jalb qilish va ularni darsdan zeriktirmaslikdir. O'quvchilar uchun ochiq baza internet mavjudligi ularni o'qituvchi aytayotgan ma'lumotlardan zeriktirishi mumkin, shunday vaziyatlarda ularning qiziqishlaridan kelib chiqib, ko'proq masalaning g'oyaviy jihatlariga e'tibor qaratadigan, ularni shaxsiy fikrlarini ochiq bayon qilishga undaydigan, o'ziga xos yechimlar keltiradigan muammoli vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan kazuслar, aqliy hujum, jamoaviy ishlash jarayonlarida teambuilding metodlaridan foydalanishni maqsadga muvofiq yechim sifatida tavsiya qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DISCOVERing and nurturing creative problem solving in young children. An exploratory study. Journal of Creativity Volume 33, Issue 2, August 2023.
2. Creative thinking and brain network development in schoolchildren Article in Developmental Science March 2023 DOI: 10.1111/desc.13389.
3. An Exploration of Creativity in Primary School Children, International Journal of Creativity and Problem Solving, 28, 2, pp. 7 – 25.
4. An Exploration of Creativity in Primary School Children, International Journal of Creativity and Problem Solving, 28, 2, pp. 7–25.
5. Никитин О.Д Педагогическая модель креативного развития студентов педагогических вузов. Монография, Москва, «Музыка», 2017, с. 84.
6. Nyhout&Ganea. 2019. Russ, Affiliations and expertise. Director of Creativity Research&Programming, Southern Oregon University, Ashland OR, USA. 2013 Journal of Creativity 33 (2023), 100061 3.
7. Султанова Ў.Н. Техника олий таълим муассасаларида физика ўқитиш методикасини компетенциявий ёндашув асосида такомиллаштириш. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати, Тошкент, 2022, 17-бет.
8. Angus Fletcher, Patricia Enciso, Mike Benveniste. Narrative creativity training: A new method for increasing resilience in elementary students.
9. Азимов Юсуфжон. Ўқувчиларда креатив фикрлашни шакллантириш ва ривожлантириш. №7 (2022). “Образование и инновационные исследования”.

Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti doktoranti) O'QUVCHILARGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация. *Мақоллада компетенсијавиј јондашувга асосланган та'лимнинг бир қатор јihatлари ко'риб о'тилган. Хусусан, компетенсијавиј та'лимнинг афзallikлари, компетенсија тurlari, касбиј, амалиј компетентлик тurlari ва ularning рivoјlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается ряд аспектов обучения на основе компетентностных подходов. В частности, были рассмотрены преимущества компетентностного обучения, типы компетенций, типы профессиональных, практических компетенций и этапы их развития.*

Annotation. *The article covers a number of aspects of Education based on competency approaches. In particular, the advantages of competency training, types of competence, types of professional, practical competencies and stages of their development have been considered.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kompetentlik, baholash, ma'lumot, o'qituvchi, o'quvchilar, kommunikativlik, munosabat, shaxsiy, amaliy, ijtimoiy, tashabbuskor.*

Ключевые слова: *компетенция, компетентность, оценка, информация, учитель, ученики, коммуникативность, отношение, личное, практическое, социальное, инициативное.*

Key words: *competence, competency, assessment, information, teacher, students, comunicativity, happiness, attitude, personal, practical, social, initiative.*

Jahonda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o'quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida umumiy o‘rta ta‘lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish vazifalari belgilab berilgan. Bu ta‘lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta‘minlash, ularni o‘zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [2].

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim o‘quvchilarni o‘zlashtirilgan axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo‘llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi.

Maktab ta‘limini zamonaviy rivojlanish talablariga moslashtirish fanlardan elektron ta‘lim resurslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning elektron manbalar bilan faol muloqotini ta‘minlash, mustaqil ta‘limni amalga oshirish va o‘z-o‘zini baholash, zaruriy ma‘lumotni operativ izlab topish va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda undan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, ta‘lim sifati ko‘rsatkichlaridan biri kompetentlik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, o‘quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim [3].

O‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar, umumiy (predmetli) kompetensiyalar, xususiy kompetensiyalar.

Bugungi kunda Harakatlar strategiyasi asosida ijtimoiy sohani rivojlantirish bilan bog‘liq yo‘nalishga daxldor bo‘lgan ta‘lim sohasini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha qator maqsadli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi ta‘lim tizimida o‘qitishga nisbatan tubdan yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Ya‘ni, umumta‘lim fanlarini o‘qitishda zamonaviy metodologiyani qo‘llash, ta‘lim jarayoniga kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashish orqali ta‘lim oluvchilarning layoqatlilik darajasini oshirish maqsad qilib olingan. Qabul qilingan mazkur DTSning e‘tiborli tarafi shundaki, o‘quvchilarda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda qo‘llay olish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarga ega bo‘lish jihatlari shakllantirish va rivojlantirish alohida inobatga olingan. Kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kabi tayanch kompetensiyalarning o‘quvchilarda shakllantirilishi bitiruvchilarning aqlan va ruhan barkamol topishiga, kelajak hayotda dadil va mustahkam qadam tashlashiga zamin hozirlaydi. Shu davrgacha o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholashga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, endilikda o‘quvchilarning nafaqat bilimi, balki shakllantirilayotgan kompetensiyalari ham baholanishi nazarda tutilgan. Amaldagi nizomlarga ko‘ra, o‘quvchilarning bilimini baholash quyidan yuqoriga qarab ijobiy baholash mezoni asosida amalga oshirildi. Ya‘ni, “5” ballik tizimda har bir ball (“1”, “2”, “3”, “4”, “5”), o‘quvchining har bir imkoniyati e‘tiborga olinadi. E‘tibor beradigan bo‘lsak, har bir ballni belgilashda imkoniyatlar sanab o‘tilgan. Imkoniyat deganda, o‘quvchining o‘zlashtirishi, darsga tayyorligi, daftar yuritishi, tirishqoqligi, ishtiroki, qo‘shimcha topshiriqlarga nisbatan moyilligi, mavzuga oid ma‘lumotlarni tahlil eta olishi, mustaqil ish bajarishi va o‘z nuqtayi nazarini himoya qila olishi, dars va darsdan tashqari tadbirlarda namuna ko‘rsatishi kabi harakatlari nazarda tutildi. Ushbu fikrni rivojlantirish maqsadida har bir ballni (“1”, “2”, “3”, “4”, “5”) qo‘yishda o‘quvchining imkoniyatlari tavsifida quyidagi yondashuvni tavsiya etsa bo‘ladi:

O‘quvchida shakllantirilishi lozim bo‘lgan fanga oid kompetensiya bo‘yicha: mavzuga oid o‘rganilgan hodisalar, tamoyillar va ularning farqlari, o‘xshashliklarini ajratishda topshiriqlarni noto‘g‘ri bajarsa-da, javob berishga harakat qilishi e‘tiborga olinadi.

Kommunikativ kompetensiya. O‘z ona tilida muloqotga kirishishi, fikrini og‘zaki va yozma bayon qilishda xatoliklarga yo‘l qo‘ymasligi, o‘z nutqini erkin va ravon bayon eta olishi, sodda savollarni to‘g‘ri qo‘ya olishi va asosli javob berishi, o‘z bilimi va kuchiga ishonch tuyg‘usining mavjudligi e‘tiborga olinadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. Mavjud axborot manbalarning (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va h.k.) kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan mukammal ishlay olishi (oddiy tabriknomalar yoza olishi, anketalarni to'ldirishi va boshq.) e'tiborga olinadi.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi. Shaxs sifatida jismonan, ma'nan, ruhan o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi, o'z xatti-harakatlarini to'g'ri baholashda qiynalishi, o'qib-o'rganganlari asosida chin insoniy sifatlarning shakllanishida ijobiy jihatlarning uchrab turishi e'tiborga olinadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. O'zining fuqarolik burch va huquqlarini qisman bilishi, unga rioya qilishga intilishi. Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisalar va jarayonlarga e'tibor berishi, munosabat bildirishda va ishtirok etishda ikkilanishi. "Oila manfaati" tushunchasini idrok etishi, uning uchun ma'lum darajada daxldorlik hissining bo'lishi, kasb-hunarga qiziqishining mavjudligi e'tiborga olinadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar. "Vatan" tushunchasini anglashi, sharhlay olishi, insonlarga mehr-oqibatli bo'lishi, kiyinishi, yurish-turishida madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga rioya qilishi, an'ana va marosimlarini nisbatan bilishi hamda ularni asrab-avaylashga bo'lgan tuyg'usining shakllanib borishi, axloq-odob qoidalariga rioya qilishi e'tiborga olinadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi. Kundalik ehtiyojlari bilan bog'liq sodda hisob-kitoblarga asoslangan shaxsiy iqtisodiy rejalarni tuzishga intilishi, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishga intilishi va kundalik hayotda tatbiq etishga intilishi e'tiborga olinadi [1].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hozirgi zamon maktab o'qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro' orttira olish, to'g'ri muomala qila olish, kelajakni ko'ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari.

O'qituvchi o'zining egallab turgan lavozimi darajasida kasbiy kompetentlikka ega ekanligini his etgandagina, pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishi mumkin. Zotan, uni kasbiy bilimdonlik, hollilik, rostgo'ylik, izlanuvchanlik, tinimsiz sermahsul mehnat, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi fazilatlar yuksaltiradi. Uning bilimdonligi, faolligi, mehnatkashligi, kamtarligi, ma'naviyati va madaniyati, ma'rifatliligi o'quvchilari, bo'lajak kasb egalarining hurmat-ehtiromiga sazovor etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 27-iyuldagi 191-sonli buyrug'iga ko'ra DTS talablari.
2. Barakaevich K.S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24 (1).
3. Qoraev S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation", 2 (2), p. 45 – 50.
4. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3, ISSUE 1, 2022, ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF), 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-1-1071-1078
5. <https://moluch.ru/archive/315/71651/>

Sobirov Dilshod Solayevich (UrDU tadqiqotchisi)

TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH: TA'LIM SOHASIDA AKTNING TEXNIK VA TEKNOLOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot va kompyuter texnologiyalarini, umuman, elektron ta'lim texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish, mamlakat ichida ta'limni, ayniqsa masofaviy ta'limni rivojlantirish, multimedia texnologiyalari hamda zamonaviy elektron darsliklarni ishlab chiqish va tarqatish borasida so'z yuritiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы расширения применения информационных и компьютерных технологий, технологий электронного обучения в целом, развития образования в стране, особенно дистанционного образования, разработки и распространения мультимедийных технологий и современных электронных учебников.

Annotation. This article discusses the expansion of the use of information and computer technologies, elearning technologies in general, the development of education in the country, especially distance education, the development and distribution of multimedia technologies and modern electronic textbooks.

Kalit so'zlar: zamonaviy elektron ilmiy-metodik resurslar, elektron darsliklar, elektron ta'lim, ta'limda AKTni qo'llash, axborot-resurs markazlarini yaratish, yagona ta'lim portalini yaratish, yoshlar, axborot, global tendensiya.

Ключевые слова: современные электронные научно-методические ресурсы, электронные учебники, электронное обучение, применение ИКТ в образовании, создание информационно-ресурсных центров, создание единого образовательного портала, молодёжь, информация, глобальная тенденция.

Key words: modern electronic scientific and methodical resources, electronic textbooks, electronic education, use of ICT in education, creation of information resource centers, creation of a single educational portal, youth, information, global trend.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq eng dolzarb masalalardan biri bu AKTni qo'llash orqali ta'limni boshqarishni takomillashtirishdir. Shu bilan birga, mahalliy o'zini o'zi boshqarish va davlat organlarining ta'limda AKT ni qo'llash sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ta'lim sohasida samarali boshqaruvni ta'minlash uchun zarur bo'lgan elektron ma'lumotlar bazasi tizimini ishlab chiqish va to'ldirish hamda bu sohaning holatini tavsiflash alohida e'tibor talab qiladi. Shuningdek, mamlakatimiz ta'lim tizimini AKT bo'yicha yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan pedagog va boshqaruv kadrlari bilan zamonaviy andozalar darajasiga olib chiqish dolzarb masaladir.

Mamlakatimizda axborot va kompyuter texnologiyalarini, umuman, elektron ta'lim texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni alohida ta'kidlamochimiz:

– mamlakat ichida ta'limni, ayniqsa, masofaviy ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish: asosan, multimedia texnologiyalarini qo'llagan holda, zamonaviy elektron darsliklarni ishlab chiqish va tarqatish;

– barcha fanlar bo'yicha zamonaviy elektron ilmiy-metodik resurslar, elektron darsliklar majmuasini ishlab chiqish va tarqatish;

– elektron ta'lim (E-Learning) resurs bazasini yaratish va o'quv jarayoniga integratsiya qilish;

– ta'limda AKTni qo'llash bo'yicha axborot-resurs markazlarini yaratish;

– yagona ta'lim portalini yaratish va doimiy yordam ko'rsatish;

– ta'limda jahon axborot resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish, o'qitishning interfaol imkoniyatlaridan kengroq foydalanishni qo'llab-quvvatlash.

Ayni paytda, ular axborot jamiyatiga yo'lni insoniyat kelajagiga olib boruvchi yo'l sifatida qadrlaydilar. Olimlarning bashoratlariga ko'ra, axborot jamiyati to'liq shakllanganda odamlar mehnatining asosiy predmeti axborot, mehnat qurollari esa AKT bo'ladi. Shunday ekan, bugungi kunda respublikamizda ta'limning barcha bo'g'inlarida AKTni qo'llash, shuningdek, AKTni o'zi o'rgatish, yoshlarda axborotni mustaqil to'plash, tahlil qilish va uzatish qobiliyatini shakllantirish muhim rol o'ynashi mumkin.

Bugun oliy ta'limda haqiqiy inqilob yuz bermoqda. Oliy ta'limning ommaviylashuvi, jamiyatning globallashuvi, AKTni ta'limga tatbiq etish va turli shakllarda bilim almashish imkoniyatlarini oshirish bu inqilobning bir qismidir. Bu jarayonni tezlashtiradi.

Hozirgi davrda raqamli tafovutni bartaraf etish, ta'lim sifatini oshirish, AKTdan foydalanish orqali qulaylikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bizning nazarimizda, agar universitetlar global raqobatni rivojlantirish va g'olib chiqishni istasa, ular ta'lim sifatini yanada oshirishlari kerak, chunki ta'lim sifati jahon miqyosida universitetlar raqobatbardoshligining asosiy ko'rsatkichidir.

XXI asrda oliy ta'limning quyidagi global tendensiyalari mavjud: ta'limning globallashuvi va baynalmilallashuvi; talabalar sonining tez o'sishi natijasida oliy ta'limning ommaviylashuvi; bilimga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanishi tufayli oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishi; bilimga asoslangan jamiyatni shakllantirish zarurati; universitetlarning jamiyatdagi rolini oshirish; umrbod ta'limni aktuallashtirish; zamonaviy sharoitlarga mos yangi tipdagi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish zarurati; ta'lim sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, xalqaro miqyosda akkreditatsiya va ixtisoslashuvga qiziqish uyg'otish va boshqalar. "Jamiyat va ta'limning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining alohida o'rni shundan iboratki, ular yangi bilimlarni olish jarayonini tezlashtiradi, shuningdek, ularni jamiyatda tarqatish va o'zlashtirish. Jamiyatning ijtimoiy intellekti va uning inson resurslari sifati mana shunday yaxshilanadi".¹

¹ Шепелева Р.П. О создании единого информационного образовательного пространства на примере университетского комплекса ДВГУ. Проблемы современного образования. Информационные технологии в сред-

Axborot jamiyatida AKT taqdim etayotgan imkoniyatlardan kelib chiqib, ta'limni rejalashtirish va amalga oshirish doirasi o'zgaradi. AKTning jadal rivojlanishi ta'limning globallasuvi uchun real imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda AKT orqali istalgan vaqtda, istalgan joyda, istalgan shaklda o'qish mumkin. Raqamli axborot resurslarining katta hajmi va bilimlarga tez kirish imkoniyati talabalarning o'rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. AKT bu jarayonda vosita rolini o'ynaydi. Ushbu texnologiyalarni qo'llash natijasida zamonaviy pedagogik muhitga ta'lim xizmati va ta'lim trayektoriyasi kabi yangi tushunchalar kirib keladi. Bugungi kunda ta'limning zamonaviy texnologiyalariga talab ortib bormoqda, ta'lim modellari, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining rollari asta-sekin o'zgarib bormoqda. Ta'limda foydalanish mumkin bo'lgan yangi vositalar paydo bo'ladi. Bugungi kunda MP pleyer, smartfon va boshqa innovatsion mobil qurilmalar orqali mobil ta'lim imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu talabalarga dunyoning istalgan nuqtasida sifatli ta'lim olish imkonini beradi.

Jamiyatni axborotlashtirish kabi global jarayonlar natijasida yangi axborot muhiti vujudga keladi. Zamonaviy insonning faoliyati axborot muhitida sodir bo'ladi. Shu ma'noda ta'lim mazmuni, texnologiyalari, tashkil etish va boshqarish uslublari yangidan shakllanayotgan axborot muhiti talablariga mos ravishda o'zgarishi va rivojlanishi kerak. Ushbu muammoni hal qilish ta'limni axborotlashtirish masalalarini dolzarb qiladi. Tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, ta'limda AKTdan samarali foydalanish ta'lim sifatini 80 foizgacha oshirish imkonini beradi. Axborot jamiyati texnologiyalari, jumladan, internet tarmog'ining resurs va xizmat ko'rsatish imkoniyatlari tobora ortib borayotgani ta'lim mazmuni va tashkil etilishiga jiddiy o'zgarishlar kiritmoqda.

Bugungi ta'lim "Axborot-ta'lim makoni" muhitida kechadi. Universitetlarda aylanayotgan axborot massasining hajmi shunchalik katta, uni qayta ishlashga ajratilgan vaqt esa shunchalik qisqaki, axborot tizimlarisiz bu jarayonlarni samarali boshqarish mumkin emas. O'qituvchi bunday informatsion muhitda o'zini erkin his qilishi va axborot texnologiyalari yordamida o'z oldiga qo'ygan pedagogik maqsadlariga osonlik bilan erishishi kerak. Bu holat o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, uning metodik mahoratiga yangi komponent—"axborot madaniyati" komponentini qo'shadi. Zamonaviy o'qituvchi o'z fanini AKTdan foydalangan holda o'rgata olishi kerak. Shu boisdan ham A.Y.Kurin kasbiy ta'limning hozirgi paradigmasini o'zgartirish haqida fikr yuritadi. Sobiq talabaning ijtimoiy va professional dunyoga tez kirishini va moslashishini ta'minlaydigan universitet bitiruvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish. Uning fikricha, "Professional kompetensiya mutaxassisning keng doiradagi xususiyatlarini umumlashtiradi: uning qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari, kasbiy va shaxsiy xususiyatlar, kasbning qadriyat asoslarini qabul qilish, birgalikda amalga oshirilishi kerak bo'lgan faoliyat vositalariga egalik qilish, kasbiy vazifalarni sifatli va oqilona hal qilishni ta'minlash"dan¹ iborat bo'ladi. Bizningcha, bu asosiy yo'nalishlarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash mumkin. Ilmiy adabiyotlar va universitetlarda mutaxassislar tayyorlash tajribasining keyingi tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimini takomillashtirish Boloniya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan global ochiq ta'lim makonining rivojlanish tendensiyalari kontekstida amalga oshirilmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish kabi global ahamiyatga ega, murakkab texnologik muammoni hal qilish bir qator tashkiliy, texnik, ilmiy-uslubiy, loyihalash, kadrlar, moliyaviy va boshqalar shu kabi masalalarni kompleks hal qilishni talab qiladi. Ta'limni axborotlashtirish muammosi jahon ta'lim tajribasida tarixiy o'xshashi bo'lmagan tizimli muammodir. Insoniyat tarixida hech bir ta'lim innovatsiyasi, ta'lim islohoti, ta'lim innovatsiyasi bunchalik inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmagan, bunchalik e'tibor va sarmoya talab qilmagan. "Oliy ta'lim tizimidagi innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish, foydalanish va tarqatish faoliyatidir".²

Bugungi kunda AKT shu qadar tez rivojlanmoqdaki, ta'lim tizimi ham bu yangilikdan ortda qola olmaydi va unga yetib bora olmaydi. Biroq AKT ta'lim tizimi, mamlakatlarning iqtisodiy, butun sivilizatsiyalashgan dunyo texnologik va intellektual rivojlanishga ta'sir qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ushbu muammoni hal qilish bilan shug'ullanadi. Ilmiy tadqiqotlar va muammolarni amaliy qo'llash

ней школе: Сб. материалов конф. 3-й Всероссийской научно-практической конф., г.Владивосток, 5-6 ноября 2002, Владивосток, 2002, с. 4 – 25.

¹ Курин А.Ю. Дидактические основы формирования профессиональной компетентности специалиста в процессе дистанционного обучения в вузе. "Вестник Тамбовского университета", серия: Гуманитарные науки, 2007, № 12-1, с. 186 – 191.

² Денякина Л.М. Инновационные технологии в управлении образовательным учреждением. Дис... канд. пед. наук, Якутск, ЯГУ, 2001, 163 с.

uchun har yili milliardlab dollar sarflanadi. “Ta’limni axborotlashtirish kabi tizimli innovatsiyalar, butun oliy ta’lim muassasasini umumiy konsepsiya asosida qayta qurish yoki mavjud oliy ta’lim muassasasi negizida yangi turdagi muassasa tashkil etish tashabbusi bilan chiqish. Mumkin bo‘lgan innovatsiyalar ko‘lamini belgilovchi menejer uchun birinchi bosqichda ular tashkilotning qaysi quyi tizimlarini qamrab olishi va ularni amalga oshirishda jamoaning qaysi qismi ishtirok etishini aniqlash muhim”.¹

AKTni qo‘llash tufayli ta’lim ommaviy, individuallasadi, to‘xtovsiz bo‘lib, sifati oshadi. Shu sabablarga ko‘ra, hozirgi vaqtda jahon ta’lim xizmatlari bozorining moliyaviy imkoniyatlari energiya bozorining moliyaviy imkoniyatlaridan oshib ketadi. Ta’lim xizmatlari bozori bir necha trillion dollarni tashkil yetadi va bu sohadagi foydaning katta qismi elektron ta’lim hisobiga olinadi. Masalan, Janubiy Koreyada innovatsion rivojlanishning yaqqol namunasi bo‘lgan ta’limni axborotlashtirish sohaning yangi yo‘nalishi sifatida shakllanmoqda. Janubiy Koreyada elektron ta’lim xizmatlari bozorining yillik sig‘imi 2 milliard AQSH dollaridan oshadi, yillik o‘sish sur‘ati 8 foizni tashkil etadi. Mamlakatda 17 ta virtual universitet faoliyat yuritmoqda. Ta’limni axborotlashtirish bo‘yicha taniqli rus olimi, professor V.Tixomirov e‘tirof yetganidek, Rossiya Federatsiyasi bu borada Janubiy Koreyadan 15 yilga ortda qolmoqda. Janubiy Koreyada oliy ta’limni ommaviylashtirish yo‘nalishida shuni ta’kidlaymizki, o‘rta maktab bitiruvchilarining 82 foizi oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirmoqda. Bunday ommaviy oliy ta’lim faqat elektron ta’lim orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu mamlakatdagi universitetlarning 80 foizi elektron ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’limni texnologik ta’minlash muammolarini muvaffaqiyatli qilyapdi. Bu hech kimga savol tug‘dirmaydi, bu o‘tgan bosqich. Bu sohada boshqa muammolar yo‘q. Endi asosiy masala ana shu texnologiyalarni qo‘llagan holda, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdan iborat. Yana bir muhim muammo–axborot jamiyatida o‘qituvchi, talaba, ta’lim muassasasi faoliyatini metodik ta’minlash. Ta’lim muassasalarini axborot jamiyati talablariga moslashtirish globallashtirish barcha universitetlar oldiga qo‘yayotgan muhim talabdir. Buning uchun oliy o‘quv yurtlarida uzoq muddatli innovatsion ta’lim dasturlarini tizimli ravishda ishlab chiqish va joriy etish zarur.

**Madaminov Uktam Ataxanovich (TATU Urganch filiali katta o‘qituvchisi; uktam9527@gmail.com)
OLIJ TA’LIM MUASSASALARIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA
O‘QITISH METODIKASI MODELARI**

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalarining ta’lim oluvchilarda interaktiv mobil ta’lim resurslardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish tamoyillarini yaratish va amalga oshirish bosqichlarini modellashtirish hamda mobil texnologiyalar orqali bilim olish ko‘nikmasini rivojlantirish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini ta’minlash, zaruratligini ham ilmiy, ham ijodiy tarafdin ilmiy tayanchlarini ishlab chiqish, usullarini nazorat qilish tuzilmasi batafsil yoritib beriladi.

Аннотация. В данной научной статье подробно описывается структура создания высших учебных заведениями и реализация принципов развития у обучающихся умений пользоваться интерактивными мобильными образовательными ресурсами, а также обеспечение взаимобусловленности и актуальности процессов формирования навыков обучения с помощью мобильных технологий, разработка научных и творческих научных опор, контроль методов.

Annotation. This scientific article describes in detail the structure of higher education institutions’ creation and implementation of the principles of development of the ability to use interactive mobile educational resources in students, as well as ensuring the interdependence and relevance of the processes of developing the skills of learning through mobile technologies, developing scientific and creative scientific supports, and controlling the methods.

Kalit so‘zlar: model, mobil, metodika, o‘qitish, interaktiv, resurs, pedagogik, konsepsiya, kompleks.


Ключевые слова: модель, мобильный, методический, обучающий, интерактивный, ресурсный, педагогический, концепт, комплекс

Key words: model, mobile, methodology, teaching, interactive, resource, pedagogical, concept, complex.

Mobil texnologiyalarda yaratilgan elektron darsliklar bilim oluvchi uchun u xohlagan tezlik va ketma-ketlik bo‘yicha darslarni tashkil etishi mumkin, ya’ni, ma’ruza matnidin interaktiv topshiriqlar to‘plamiga o‘tishi, topshiriqlardan forumga o‘tishi, test sinovlaridan interaktiv topshiriqlarga, amaliyot stendidan videodarsga o‘tish va hokazolarni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

¹ Shu manba. 43; 163 c.

Interaktiv texnologiyalarning asosiy konsepsiyasi quyidagi tavsifga ega (1-rasm) [1].




1-rasm. Interaktiv texnologiyalar konsepsiyasining asosiy mazmuni.

Mobil texnologiyalar asosida o'qitishda ma'ruza va amaliyot ayni bir yaxlit bo'laklar sifatida ko'riladi hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro ta'siri, shuningdek, ta'lim oluvchining dars jarayonida qatnashishi bilan belgilanadi.

Interaktiv mobil ta'lim resurslari yordamida fanlarni o'qitish talabani bilim olish darajasini yuqori sifatga olib chiqish mumkin, ya'ni, ma'lumotlarni kompleks o'rganish va qabul qilishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, mobil texnologiyalarda interaktiv resurslardan foydalanish orqali talabani zeriktirmaslik va qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, faol ishtirokini ta'minlash mumkin [2].

Bir qancha tadqiqotchilar tomonidan web texnologiya asosida elektron axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish va modelini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot ishimizda taklif etayotgan «Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiluvchi web dasturlashga kirish fanini mobil texnologiyalar asosida o'qitish» modeli ta'limni mobillashtirish sharoitida fanlarni zamonaviy mobil texnologiyalar yordamida o'qitishga qaratilgan (2-rasm).



2-rasm. Interaktiv mobil ta'lim resurslarini yaratish modeli.

Didaktik talablar: moslashuvchanlik, interfaollik, kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlari, talabalar bilim olishida o'z salohiyatlarini takomillashtirishi, mantiqiy mulohazalar yurita olishi, ma'lumotlarni tahlil qila bilishi, ta'lim manbayi hisoblangan ma'lumotlarni taqdim qilishning turli xil ko'rinishlarini ko'rsata bilishi [3].

Uslubiy talablar. O'quv materialini taqdim etishning tushunarli, obrazli va animatsiyali komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda yaratilishi, o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma shaklida ta'minlashi, fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlik hisobga olinishi, ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirish uchun turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish imkoniyati yaratilishi, barcha amalga oshiriladigan hisoblashlar vizuallashtirishning ochiq tizimiga ega bo'lishi, o'zgaruvchan obyektlar yoki jarayonlarning bog'liqligi namoyish qilinishi [4].

Psixologik talablar. O'quv materialini namoyish qilish nafaqat verbal, balki kognitiv jarayonning sensorlik va namoyish qilish holatlariga ham mos kelishi, qabul qilish, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, xotirada saqlash kabi psixologik jarayonlar xususiyatlarini hisobga olishi, o'quv materialini mazmunida ta'lim oluvchilarning yoshi, tayanch bilimlari inobatga olinishi, obrazli va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi, o'qitishning ko'rgazmaliligini ta'minlashi, hayotiy tajribasini hisobga olish zaruriyatini ko'zda tutishi [8].

Texnik, texnologik talablar. Ichki va tashqi tarmoqlarda shuningdek ma'lumot tashuvchilarda va foydalanuvchilar uchun zarur bo'lgan talablar asosida nazoratlashtirilgan bo'lishi.

Pedagogik jarayonni modellashtirish asosini, odatda, fikrlash konstruksiyasi tashkil qiladi hamda ma'lum ma'noda o'rganilayotgan obyektga o'xshash bo'ladi va ayni vaqtda u yoki bu darajada undan farq qiladi. Jarayon ham ma'lumki ko'p ma'noli. Jarayonni muayyan natijaga erishish, hamda talabalarining axborot madaniyatini shakllantirishda amalga oshiriladigan izchil harakatlar yig'indisi sifatida tushunamiz [5].

Interaktiv mobil ta'lim muhitini shakllantirishdan maqsad nafaqat axborotlashgan jamiyatda zarur bilimlarga ega bo'lishi, balki talabalarining ta'lim olishlarida har tarafdan mukammal bilimlarga erishish ruhiyatini yuqori darajada oshirish va mobil texnologiyalardan samarali foydalanish, joylashish o'rnidan qat'iy nazar, darslarga muntazam qatnashishini ta'minlashdan iboratdir [6.7]. Aksiologik, tizimli yonda-

shuvlar nuqtayi nazaridan, elektron ta'lim muhitini biz oliy ta'lim muassasalarini interaktiv mobil ta'lim resurslari bilan ishlash usullariga o'rgatish metod va vositalariga ega bo'lgan, talabning o'qituvchi bilan o'zaro hamkorligi asosiga qurilgan ta'lim jarayoni sifatida tushunish mumkin [8].

Tadqiqot ishimizda taklif etilayotgan «Elektron ta'lim muhitida interaktiv mobil ta'lim resurslaridan foydalanish» modeli tajriba-sinov ishlarida o'zini hayotiyligini ko'rsatdi.

Elektron ta'lim muhitida interaktiv mobil ta'lim resurslardan foydalanishda, dastlab, uning asosiy talablarga e'tibor qaratildi va elektron ta'lim muhitini shakllantirish maqsadida uni didaktik talablari aniqlandi, uslubiy talablar, psixologik-pedagogik, texnik-texnologik talablarini joriy etish imkoniyatlari o'rganildi. Interaktiv mobil ta'lim resurslaridan foydalanishning texnik va dasturiy ta'minotini yaratish jarayoni ko'rib chiqildi. Elektron ta'lim muhitida interaktiv mobil ta'lim resurslardan foydalanishni pedagogik amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari aniqlandi va amalda joriy etildi.

Ushbu tadqiqot loyihasi doirasida talabalarning web dasturlashga kirish fanidan intellektual qobiliyatlari va tushunchalarni anglab yetishga texnologiyaning ta'sirini o'rganib chiqildi.

Demak, tadqiqod natijasida, quyidagi fikr va mulohazalarga kelish mumkin, talabada elektron ta'lim muhitida interaktiv mobil ta'lim resurslardan foydalanish aniq shakllantiriladigan va boshqariladigan bosqich bo'lib, tajriba-izlanish natijalari asosida rivojlantirilgan model kompleksi talabning ta'lim madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoymardonov T.T. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash. O'quv-uslubiy majmua, T., 2017. <http://tmetod.uz/wp-content/uploads/umk/3.1.Elektron-pedagogika-OUM2017.pdf>
2. Turdiyev Temur, Sadikov Makhmudjon, Sabirov Bahrom, Ruzmetov Artyom. Comparison of steganography algorithms which are based on cryptography. international scientific conferences with higher educational institutions. 2023/5/5, 530 – 536 p.
3. Nasritdinova U.A. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi. Diss. . ped. fan. nom., Toshkent, 2018, 60 bet.
4. Marks Matyakubov, Onakhon Rustamova. Development of Smart City Model: Smart Bus System. 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT).
5. O'zstandart agentligining 2017-yil 10-noyabrda 05–896-sonli qarori. «Elektron ta'lim» milliy tizimiga kiritiladigan elektron metodik komplekslar va boshqa ta'lim resurslariga yagona talablar. O'zDSt, 36.2030:2017. <https://lex.uz/docs/4994920>.
6. Abdugani Nematov, Turdiev Temur Takhirovich, Ismailov Shikhnazar, Akbar Bakhriddinov. Parallel computational algorithms for solving boundary value problems for two-dimensional equations of parabolic type. 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT).
7. Sadikov M.A., Olimov I.S., Karimov A.A., Tursunov O.O., Yusupova Sh.B., Tojikabarova U.U. A Creation Cryptographic Protocol for the Division of Mutual Authentication and Session Key. 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT).
8. U.A.Madaminov. Methods of teaching and improving web programming in higher education organizations. 2022 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). DOI:10.1109/ICISCT55600.2022.10146962.

Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li (Termiz davlat universiteti “Amaliy matematika va informatika”

kafedrası o'qituvchisi; e-mail: shoxumarzoda@gmail.com)

“ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI” FANINI O'QITISHNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarga algoritmik tillar va dasturlash asoslari fanini o'qitishning umumiy xususiyatlari, shu bilan birga, dasturlash asoslari ta'limida metodik innovatsiyalarning mazmun-mohiyati haqida fikrlar yuritilgan, algoritmik tillarga oid manbalarning nazariy va amaliy aspektlari atroflicha tahlil qilingan.*

***Аннотация.** В данной статье подробно рассмотрены общие особенности преподавания студентам алгоритмических языков и основ программирования, а также содержание и сущность методических новаций в обучении основам программирования, а также их теоретические и практические аспекты, тщательно анализируются ресурсы, связанные с алгоритмическими языками.*

***Annotation.** In this article, the general features of teaching algorithmic languages and the basics of programming to students, as well as the content and essence of methodological innovations in the edu-*

ation of programming basics, are discussed in detail, and the theoretical and practical aspects of resources related to algorithmic languages are thoroughly analyzed.

Kalit so'zlar: talabalar, algoritmik tillar, dasturlash asoslari, innovatsiya, fan, o'qitish, xususiyat.

Ключевые слова: студенты, алгоритмические языки, основы программирования, инновации, наука, обучение, особенность.

Key words: students, algorithmic languages, programming fundamentals, innovation, science, teaching, feature.

Kirish. Mamlakatimizning barqaror va samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning asosiy tarkibiy qismlaridan biri malakali mutaxassislarini tayyorlashdir. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning ko'plab sohaslarida malakali kadrlar, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar bo'lgan ehtiyojlar ortib bormoqda. T.Ismoilovning yozishicha, axborot texnologiyalari sohasidagi OTM bitiruvchilari zamonaviy mehnat bozoriga kuchli qiziqish bildirmoqda, bu so'nggi yillarda ularning ishga joylashish dinamikasini baholanishidan dalolat beradi [1.18].

Tadqiqotchilar K.D.Latipova va E.O.Gasparovichning ta'kidlashicha, dasturchi kasbi bir necha yillardan buyon mehnat bozorida talab qilinadigan kasblar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu omil esa algoritmik tillar va dasturlash asoslari fanining o'qitishdagi o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga dasturlashni o'rgatish metodikasi masalalari A.I.Valisheva, A.G.Minak, D.A.Slinkina, M.S.Shapovalovning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Sanab o'tilgan mualliflar jamiyatni axborotlashtirishning faol rivojlanayotgan jarayoni talabalarni tarbiyalash va tayyorlashga yangi talablarni qo'ymoqda, degan xulosalarini keltirishadi. Darhaqiqat, talabalarda davlat ta'lim standartlariga muvofiq va mehnat bozori talablariga javob beradigan zarur kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak [2.79].

O.A.Shirokavaning ta'kidlashicha, algoritmik tillar va dasturlash asoslari fanini o'qitish jarayonida jamoaviy usullardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Muallifning fikricha, jamoaviy o'qitish usullaridan ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda, shuningdek, darsdan tashqari mustaqil ishlarni bajarishda foydalanish mumkin, chunki ular talabalarga dasturlashni o'qitishni tashkil etishning asosiy turlari sanaladi. Aytish joizki, o'qitish usullari turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning orasida jamoaviy o'qitish usuli alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, algoritmik tillar va dasturlash asoslari kabi fanlarni o'qitishda talabalarni hamkorlikda fikr yuritishga, turli masalalarni birgalikda muhokama qilishga, turli kamchiliklarni to'ldirib borishga xizmat qiladi [3.38].

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchi E.V.Gordiyevaning yozishicha, talabalarni jamoaviy o'qitishning mumkin bo'lgan usullari orasida jamoaviy loyihalash usuli va o'zaro baholash (o'zaro baholash) usuli keng ommalashib bormoqda. O'zaro baholash usulini qo'llashning asosiy g'oyasi talabalar tomonidan bir-birlarining faoliyati natijasida yaratilgan mahsulotlarni baholashni o'rganishdir. Malayziya Texnologiya universiteti (MTU) tadqiqotchisi N.Eveng ilmiy izlanishlarida dasturlashni o'qitishda jamoaviy loyihalash usulining ayrim o'ziga xosliklari haqida so'z yuritadi. Muallifga ko'ra, o'z jamoadoshlarining ishini baholash talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlanishiga yordam beradi:

–konstruktiv tanqid qilish;

–o'zgalarning faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish;

–qaror qabul qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;

–intellektual qobiliyatlarini ko'rsatishga imkon beradi [4.57]. Bizningcha, dasturlash asoslarini o'qitishda loyihalash usuli nafaqat talabalarni loyiha faoliyatiga o'rgatish, balki talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yaqin bo'lgan vaziyatlarga tushishini tashkil qilish imkoniyatini ham beradi. Slovakiyaning Koshitse universiteti "Kompyuterlar va informatika" kafedrasi professori Z.Bilanovanning ilmiy izlanishlari ham talabalarga dasturlashni o'rgatishda jamoaviy loyihalash usullariga bag'ishlanadi. Muallifning fikricha, jamoaviy loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar o'zaro mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash, bir-biri bilan va loyiha koordinatori vazifasini bajaruvchi o'qituvchi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish, shuningdek, har birining ishini baholash qobiliyatini rivojlantiradilar. Demak, ushbu usul orqali talabalar nafaqat o'zlashtirilayotgan materialning mazmuni, balki o'zlashtirish jarayonidagi ijtimoiy muhitni anglashi va unga moslashishiga ko'mak beradi.

Tadqiqotchilar A.I.Valisheva va A.G.Minak hamkorlikdagi loyihalarni ishlab chiqish orqali talabalarga dasturlashni o'rgatish masalasini ko'rib chiqadi. Mualliflar, dasturlashni o'qitish va amaliyot jarayonini uch bosqichga ajratadi va ularning har biri uchun aniq maqsad va vazifalar belgilaydilar [5.92]:

–birinchi bosqich – talabalar jamoasini shakllantirish va ular o'rtasida ularning dasturlash qobiliyatlariga muvofiq loyiha pozitsiyalarini taqsimlash;

–ikkinchi bosqich – asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirish muddatlarini, loyihani birlamchi va yakuniy himoya qilishni aks ettiruvchi loyiha rejasini ishlab chiqish. Bundan tashqari, ishning o‘ziga tegishli qismini olgandan so‘ng, talabalar o‘zlariga yuklangan vazifani tasvirlashni va hal qilishni boshlaydilar. Ushbu bosqichni tugatgandan so‘ng, har bir loyiha ishtirokchisi o‘z vazifasining tavsifini loyihaning barcha ishtirokchilari bilan kelishib olishi ta‘minlanadi;

–uchinchi bosqich loyiha – tarkibiy qismlarini amalga oshirish va ularni bir butunga jamlash. Ushbu bosqichda dastur kodini ishlab chiqish va uni sinovdan o‘tkazish uchun mas‘ul bo‘lgan talabalar o‘rtasida uzluksiz o‘zaro aloqa o‘rnatiladi. Loyihaga mas‘ul bo‘lgan talaba barcha bosqichlarda har bir ishtirokchi tomonidan bajarilgan ishlarni baholab boradi;

–to‘rtinchi (yakuniy) bosqich – bu yakuniy dasturiy mahsulotni jamoaga taqdim etilishi. Talabalar loyiha ustida ishlashi jarayonida o‘qituvchi har bir loyiha ishtirokchisining ishini nazorat qiluvchi repletitor vazifasini bajaradi. Ushbu usul, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, o‘quv jarayonini ko‘plab rivojlantirish guruhlarini ishlaydigan haqiqiy ishlab chiqarish sharoitlariga imkon qadar yaqinlashtirishga imkon beradi.

Uzluksiz ta‘lim bilimga asoslangan iqtisodiyot va jamiyatga o‘tish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu boisdan uzluksiz ta‘lim uchta turdagi ta‘lim va tarbiyani o‘z ichiga oladi:

–rasmiiy ta‘lim (o‘quv maqsadlari va uning davomiyligiga qarab tashkil etilgan, ta‘lim muassasalari tomonidan taqdim etiladigan va ta‘lim to‘g‘risidagi guvohnomaga ega);

–mustaqil ta‘lim (shaxsning kundalik hayoti davomida olingan, o‘rganishga yordam berishning maqsadlari va davomiyligi bo‘yicha hech qanday tuzilmaga ega bo‘lmaydi);

–norasmiiy ta‘lim (ta‘limning maqsadlari va davomiyligi bo‘yicha tuzilgan, ta‘lim muassasasidan tashqarida amalga oshiriladi. Ushbu ta‘lim shakllarini tahlil qilinishining asosiy sababi algoritmik tillar va dasturlash asoslari kabi zamonaviy va talab juda yuqori bo‘lgan sohalarni o‘rgatishda cheklovlar yo‘q ekanligi isbotlash maqsad qilingan. Dasturlashni elektron ta‘lim sharoitida xoh rasmiiy ta‘lim ko‘rinishida yoki norasmiiy tartibda o‘rganish va tatbiq etish mumkin.

Hozirgi jamiyatda mobil qurilmalar va mobil internet yanada qulay va keng tarqalmoqda. Hozirgi vaqtda ta‘limda ko‘chma, simsiz, foydalanish mumkin bo‘lgan mobil qurilmalardan foydalanish jarayonini anglatuvchi “E-learning” iborasi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda juda keng tarqalib ulgirdi. G.A. Serovanning ta‘kidlashicha, mobil qurilmalar, kompyuterlardan foydalanishning asosiy maqsadi – o‘rganishni optimallashtirish va qo‘llab-quvvatlash, talabalarga muloqot qilish, yaratish va ma‘lumot olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularning faoliyati yanada samarali bo‘ladi.

Yuqoridagilardan shuni ta‘kidlaymizki, bunday qurilmalarning to‘liq imkoniyatlarini tushunishning asosiy nuqtalari kasbiy bilimlarni qo‘llash asosida ish jarayonini shakllantirish imkoniyatlarini bilish, shuningdek, ish jarayoni davomida mashg‘ulotlarni amalga oshirishdir. Bu potensial elektron ta‘lim muhitini rivojlantirishga imkon beradi va shu bilan turli qurilmalar va interfeyslardan foydalangan holda, turli kontekstlarda dasturlashni o‘rganishga kirishishni osonlashtiradi. Shu bilan bir qatorda, ba‘zi qarashlarga ko‘ra, virtual ta‘lim va aloqa texnologiyalaridan foydalanish talabalarni dasturlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishning muqobil bo‘lmagan variantidir. Tarmoq xizmatlari guruhi yordamida shakllantirilgan ta‘lim muhiti o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish, talabalar loyiha faoliyatini boshqarish imkoniyatini ta‘minlash imkonini beradi. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, ushbu faslga doir quyidagi xulosalar keltiriladi:

◆Turli tahlillar asosida aytish mumkinki, elektron ta‘lim sharoitida turli vositalar yordamida talabalar uchun dasturlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish, ularning mavjud holati va o‘ziga xosliklarini tahlil qilish, o‘rganilayotgan muammoning metodologiyasini yaratish masalasi o‘z dolzabligini sira yo‘qotmaydi.

◆Algoritmik tillar va dasturlash asoslari fanini o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlari talabalarni hamkorlikda fikr yuritishi, turli masalalarni birgalikda muhokama qilishi, turli kamchiliklarni bartaraf etib borishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Югфельд И.А. Подготовка будущих учителей к использованию игровых технологий в процессе изучения психолого-педагогических дисциплин. URL:https://www.dissertcat.com/content/podgotovkabudushchik_huchitelei-k-ispolzovaniyu-igrovyykh-tekhnologii-v-protsesse-izucheniya_Zagatskaya_TS, 2007, c. 13.

2. Орлов С.А. Технологии разработки программного обеспечения. СПб, “Питер”, 2002, Т., с. 21.

3. Макконнелл С. Профессиональная разработка программного обеспечения. СПб., Символ-Плюс. 2006, с. 82.

4. Лафоре Р. Объектно-ориентированное программирование в C++:[пер. с англ.]. Издательский дом “Питер”, 2013, с. 6.

5. Sancho P., Fuentes-Fernández R., Fernández-Manjón B. NUCLEO. Adaptive computer supported collaborative learning in a role game based scenario. 2008 Eighth IEEE International Conference on Advanced Learning Technologies. IEEE, 2008, с. 671 – 675.

**Samadova Svetlana Jontoshevna (Chirchiq Oliy tank
qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti mustaqil izlanuvchisi)**

OLIIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING INGLIZCHA NUTQINI O‘STIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim kursantlarining inglizcha nutqini o‘stirishning shakl, metod va vositalari haqida ma’lumot berilgan. Metod, uslub, usul, shakl va vosita tushunchalariga ta’rif berilib, ular haqida tilshunos olimlarning fikrlari keltirib o‘tilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация о формах, методах и средствах совершенствования английской речи курсантов высшего военного учебного заведения. Описаны понятия метода, формы и средства, а также приведены мнения лингвистов о них.

Annotation. This article provides information on the forms, methods and means of improving the English speech of cadets of higher military educational institution. Concepts of method, form and tool are defined, and the opinions of linguists about them are cited.

Kalit so‘zlar: usul, shakl, vosita, metod, o‘yin texnologiyalari, kommunikativ yondashuv, munozaralar, texnologiya, autentik materiallar, onlayn vositalar.

Ключевые слова: метод, форма, средства, метод, игровые технологии, коммуникативный подход, дискуссии, технология, аутентичные материалы, онлайн-инструменты.

Key words: method, form, tool, method, game technologies, communicative approach, discussions, technology, authentic materials, online tools.

Kirish. Zamonaviy til o‘qitish tizimi davlat ta’lim standartlarida belgilab berilgan kommunikativ kompetensiyaga, ya’ni, og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan va mashg‘ulotlar ham kommunikativ metodlarga asoslanishi talab etilmoqda. Chet tilini o‘qitish metodikasida doimiy ravishda o‘qitish vositalari tushunchasi haqida so‘z boradi. Shu o‘rinda metod, usul, uslub va vosita tushunchalariga ta’rif berib, ular haqida tilshunos olimlar fikrlarini keltirishni joiz deb topdik.

Asosiy qism. Usul va vosita so‘zlari metod so‘zi bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Usul metod tushunchasining bir tarkibiy qismi bo‘lib, vosita deganda o‘quv faoliyatining quroli ya’ni o‘qituvchining o‘qitishi, til o‘rganuvchining o‘rganishi anglashiladi. Ta’lim jarayonida “usul” biror narsa, hodisa, jarayonni o‘rganish yoki amalga oshirish tartibi, “uslub” esa biror narsa, hodisa, jarayonni o‘rganish yoki amalga oshirish uchun qo‘llash kerak bo‘lgan usullar majmuasi [1]. I.V.Raxmonov va M. Bermanlar metodni ta’limning maqsadga yo‘naltiruvchi yo‘li deb aytadilar [2]. B.V.Belyaev ta’lim metodi deganda o‘qituvchining o‘quvchilarga bilim berish usuli va yo‘li; o‘quvchilar ham bu jarayondagi o‘quv faoliyati bilan bir deb tushunadi [4]. Didaktlar esa “metod” atamasini bilim, ko‘nikma va malakani egallash, o‘qituvchilar dunyoqarashini shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo‘lidagi o‘qituvchining ish usuli ekanini ta’kidlaydilar [5]. J.Jalolov “metod” – ta’limda usullar yig‘indisi va ta’limning yo‘nalishi deb ta’kidlaydi [3].

Oliy harbiy bilim yurtlarida o‘qish yiliga qarab, kursantlarning chet tili kompetensiyasini shakllantirish uchun kompleks yondashuv bilan birgalikda o‘qitishning turli shakllari, usullari va vositalari qo‘llaniladi.

Qo‘llash mumkin bo‘lgan usullarga og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, reproduktiv, vaziyatli va mustaqil ish shaklidagi usullarni misol qilsak bo‘ladi. Og‘zaki usulni material nazariy va informatsion bo‘lsa, kursantlar yangi materialni idrok etish (tushunish)ga tayyor bo‘lsa, nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishda hamda o‘qituvchi bu usulni boshqalarga qaraganda yaxshiroq qo‘llay olsagina, foydalangan ma’qul. Ko‘rgazmali usul kuzatishni rivojlantirish, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishni oshirish uchun ishlatiladi, o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni vizual vositalar bilan taqdim etilishi mumkin bo‘lganda qo‘llaniladi; amaliy usul amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun, amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda, amaliy topshiriqlarni amalga oshirish uchun o‘quv qo‘llanmalar va darsliklar mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi; reproduktiv usul o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni murakkab bo‘lsa, aksincha, agar o‘quvchilar mu-

ammoli usuldan foydalanishga tayyor bo'lsa, oddiy bo'lsa, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun bu usuldan foydalaniladi, vaziyatli usulda til materiali vaziyatlarda ishlab chiqiladi, bu mashg'ulot mavzusini tezroq o'zlashtirishga yordam beradi, grammatik material grammatik namunaviy tuzilmalar shaklida kiritiladi va o'rgatiladi; mustaqil ishlar o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha, shuningdek, kursantning tashabbusi bilan o'qituvchining ko'rsatmasisiz ham amalga oshirilishi mumkin.

Qo'llash mumkin bo'lgan shakllarga harbiy matnlarni o'rganish, kursantlar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish, ingliz tilini o'qitishning tabaqalashtirilgan shakli sifatida o'yin texnologiyalarini hamda nutq mashqlarini joriy etish, ingliz tilida konferensiyalarda ishtirok etishni misol qilib keltirsak bo'ladi. O'yin texnologiyalaridan foydalanish – ingliz tili darslarida fanni o'rganish motivatsiyasini oshirishga, ingliz tilida fikrlashni rivojlantirishga, bir-biri bilan faol muloqot qilish qobiliyatini oshirishga, har bir kursantning fikrlashini kengayishga, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga, o'quv materialining mazmuni kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, kasbiy yo'nalishni rivojlantirishga yordam beradi. Individual, guruhli va juftlikda ishlash kabi o'rganishning tashkiliy shakllari ingliz tili mashg'ulotlarida mustaqil dars shakli va dars elementi sifatida qo'llaniladi.

Qo'llash mumkin bo'lgan vositalarga past o'zlashtiruvchi kursantlar bilan qo'shimcha darslarda AKTdan, maxsus matnlardan, topshiriqlardan, kartochkalardan, grammatik sxemalardan, o'quv filmlar va audio yozuvlardan, lug'atlar, mashqlar to'plamlaridan, qo'shimcha o'qish uchun kitoblardan, gazeta va jurnallardan foydalanishni kiritish mumkin. Kursantlarning ingliz tilidagi nutqini rivojlantirishning bir qancha samarali shakllari va vositalari mavjud, jumladan, kommunikativ yondashuv. Bu yondashuv grammatik qoidalar va lug'atni yodlashdan ko'ra, muloqot uchun tildan foydalanishga qaratilgan. Bu kursantlar uchun ingliz tilida so'zlashish va o'zaro muloqot qilish, masalan, rolli o'yin mashqlari, guruh muhokamalari hamda bahs-munozaralar kabilarga imkoniyat yaratish demakdir. Ingliz tilida so'zlashuvchilar yoki boshqa malakali ingliz tilini biladiganlar bilan muntazam suhbatlarda qatnashish kursantlarga nutq va tinglash qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Guruh muhokamalari: kursantlarni turli mavzularda guruh muhokamasiga jalb qilish ularga o'z fikr va mulohazalarini ingliz tilida ifoda etishni mashq qilishlariga yordam beradi.

Rolli o'yinlar. Ingliz tilini o'rganish faqat grammatik qoidalarni va lug'atni yodlashdan iborat emas, balki, bu tilni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishdir. Biz restoranda ovqat buyurtma berish, chipta sotib olish yoki yo'nalishni so'rash kabi real hayotdagi vaziyatlar va ssenariylarni o'z ichiga olgan rolli o'yinlardan foydalanishimiz mumkin. Kursantlarning sahna ko'rinishlarida ishtirok etishlari, masalan, turli ssenariylarni ijro etishlari, ularga ingliz tilini yanada real va interaktiv muhitda mashq qilishda yordam beradi.

Munozaralar. Turli mavzularda bahslarni tashkil qilish kursantlarga ingliz tilida gapirishda va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mashq qilishda yordam beradi. Omma oldida nutq so'zlash: kursantlarni nutq so'zlash yoki taqdimot qilish kabi ommaviy notiqlik tadbirlarida ishtirok etishga undash ularning ingliz tiliga bo'lgan ishonchini va ravonligini oshirishga yordam beradi.

Tilni o'rganish. Kursantlarga ingliz tilida so'zlashadigan muhitda, masalan, chet elda o'qish dasturlarida qatnashish ularning til o'rganishini tezlashtirishga yordam beradi.

Audio va videomateriallar. Podkastlar, musiqalar, filmlar va teleko'rsatuvlar kabi turli xil audio va videomateriallar bilan ta'minlash kursantlarga ingliz tilini tinglash va tushunish ko'nikmalarini yaxshilashga olib keladi.

Ingliz tili muhitini yaratish. Bu kursantlar ingliz tili bilan o'ralgan muhitni yaratishni anglatadi. Bunga misol ingliz tilida so'zlashadigan o'qituvchilar, til klublari va filmlar bo'lishi mumkin.

Til o'yinlari. O'yinlar til ko'nikmalarini o'rgatishning qiziqarli va samarali usullardandir. Bunga biz so'z jumboqlari, so'z birikmalari va til o'rganish ilovalari (language learning apps) kabi o'yinlarni kiritishimiz mumkin.

Texnologiya. Til o'rganish uchun ko'plab ilovalar, dasturiy ta'minot va onlayn resurslar mavjud bo'lib, ular sinfdagi an'anaviy darslarni qiziqarli tomonga o'zgartiradi. Ular har bir kursant uchun shaxsiy o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin.

Ingliz tilini o'qitish vositalarining eng yaxshi usuli kursantning ehtiyojlari va afzalliklariga qarab o'zgaradi. Quyida bir necha samarali o'qitish vositalarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

– interfaol doskalar – ular multimediali kontentni aks ettirishi, real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishi va sinflar o'zaro ta'sirini ta'minlashi mumkin;

– onlayn vositalar va platformalar – ular grammatik mashqlar, lug'at bo'yicha viktorinalar, tinglash mashqlari va videodarsliklar kabi keng ko'lamli resurslarni taklif qiladi;

– til o‘rganish ilovalari – bu ilovalar o‘quvchilarga tinglash, gapirish, yozish va o‘qish qobiliyatlarini mashq qilishlariga yordam beradi.

Til almashinuv dasturlari–bu dasturlar kursantlarni ingliz tilida so‘zlashuvchilar bilan suhbatlashish qobiliyatini mashq qilish uchun bog‘laydi.

Autentik materiallar – gazetalar, kitoblar, teleko‘rsatuvlar va filmlar o‘quvchilarni ingliz tilining turli urg‘ulari, ifodalari va madaniy jihatlari bilan tanishtirishi mumkin.

Duolingo. Duolingo til o‘rganish uchun bepul ilova bo‘lib, so‘z boyligi, grammatika va talaffuz ko‘nikmalarini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin. U o‘yinga aylantirilgan bo‘lib, uni o‘rganish qiziqarli bo‘lib, uzoq vaqt davomida shug‘ullanish oson.

Rosetta Stone. Rosetta Stone so‘z va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilishni ta‘minlash uchun nutqni aniqlash bilan interaktiv til o‘rganish tajribasini ta‘minlovchi dasturiy ta‘minot dasturidir. Bu tezroq o‘rganishga yordam beradigan chuqur til tajribasini taqdim etadi.

English Central – bu videoga asoslangan o‘rganish platformasi bo‘lib, u kontekstda til ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun asl ingliz tilidagi videolardan foydalanadi. Bu kursantlarga real hayotdagi ingliz tilidagi suhbatlar bilan shug‘ullanish imkonini beradi va har kuni ishlatiladigan tilni o‘rganishni osonlashtiradi.

Babbel til o‘rganishning grammatika, lug‘at va so‘zlashuv ko‘nikmalari kabi barcha jihatlarini qamrab oladi va foydalanuvchilarga qulay mobil ilovasi orqali keng til o‘rganish tajribasini taqdim etadi. U kursantlarga ingliz tilini tezroq o‘rganishga yordam berish uchun moslashtirilgan o‘quv rejalari va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, eng yaxshi shakl, metod, vositalari til o‘rganuvchining individual ta‘lim uslubi, qobiliyat darajasi va maqsadlariga mos keladiganidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. “Ўқитувчи”, 2004, 98-бет.
2. Ибрагимов Х.И. Педагогик психология. Педагогика, психология, бакалаврият таълим йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма, ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамият нашриёти, 2009, 87-бет.
3. Ж.Жалолов. Чет тили ўқитиш методикаси. Т., “Ўқитувчи”, 2012, 17-бет.
4. Саидалиев С. Чет тили ўқитиш методикасидан очерклар. Наманган, 2004, 61-бет.
5. Шабанов Дж. Чет тилини ўқитиш методикаси ва замонавий технологиялари. Т., 2009, 23-бет.

Shadiyeva Nigora Sharipovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti; e-mail: nigrollashadiyeva-10@mail.ru.) MA'RUZA MASHG'ULOTLARIDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH TEKNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Yangi O‘zbekiston ta‘lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ta‘lim jarayonlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqozo etdi va ta‘lim jarayonini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta‘limga kredit-modul tizimini joriy qilish, zamonaviy axborot tizimlari yordamida masofaviy ta‘lim shaklining ilg‘or usullarini qo‘llash ta‘lim sifatini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация. Комплексные реформы, проведенные в системе образования нового Узбекистана, потребовали адаптации образовательных процессов к мировым стандартам и использования инновационных педагогических технологий в организации учебного процесса, внедрения кредитно-модульной системы в образовании, использование передовых методов дистанционного обучения с помощью современных информационных систем имеет большое значение в обеспечении качества образования.

Annotation. Comprehensive reforms carried out in the education system of new Uzbekistan required the adaptation of educational processes to world standards and the use of innovative pedagogical technologies in the organization of the educational process, the introduction of a credit-modular system in education the use of advanced methods of distance learning with the help of modern information systems is of great importance in ensuring the quality of education.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta‘lim, ZOOM, Blackboard Collaborate, Adobe Connect.


Ключевые слова: дистанционное обучение, ZOOM, Blackboard Collaborate, Adobe Connect.

Key words: distance learning, ZOOM, Blackboard Collaborate, Adobe Connect.

Pandemiya davrida mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalari masofaviy ta'lim shakliga o'tkazildi. Ayni vaqtda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o'qitishni tashkil etish, masofaviy ta'limning tashkiliy-huquqiy asoslarini shakllantirish, ta'lim olish huquqini ta'minlash ta'lim berishning yangi uslublaridan foydalanish nihoyatda dolzarb masalalardan biri hisoblaniladi.

Talabalarga masofadan ta'lim berishda ilg'or texnologiyalardan kengroq va chuqurroq foydalanish, masofaviy ta'limning huquqiy asosini ishlab chiqishimizni taqozo etmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida va shakllarida masofaviy ta'limning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va talabalarga masofaviy ta'lim berish jarayoni yangicha yondashuvni talab qilmoqda [2].

Hozirda hayotning deyarli barcha sohalari kompyuter va axborot texnologiyalari ta'sirida tubdan o'zgardi. Bu kabi o'zgarish ta'lim sohasida ham o'z aksini topdi va an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofaviy ta'lim shakli ham paydo bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Masofaviy ta'limning asosiy toifalari.

O'quv mashg'ulotlari o'quv rejasida belgilanganidek, onlayn yoki oflayn rejimda ham sinxron, ham asinxron tarzda o'tkazilishi mumkin.

Masofaviy ta'lim ba'zan ham sinxron, ham asinxron, ya'ni ikkala turning qorishiq (gibrid) shaklda bo'lishi mumkin [3].



2-rasm. Masofaviy ta'limning turlari.

Ruxsat etilgan onlayn kurslar talabalarda oldindan rejalashtirilgan dars mashg'ulotlarini ma'lum bir sur'atda bajarishlari kerak. Ushbu tadbirlar, ko'pincha, suhbatlar va munozarali forumlarni o'z ichiga oladi. Ruxsat etilgan vaqt onlayn kurslar talabalarining o'zaro ta'sirini rag'batlantiradi (1-jadval) [5].

1-jadval

Masofaviy ta'limning afzalliklari

Masofaviy ta'limning afzalliklari

| | |
|---|--|
| 1 | Masofaviy ta'lim ochiqlik xususiyatiga ega bo'lib, bu ta'limni demokratlashtirish hamda oliy ma'lumot olish imkoniyatining ortishi orqali fuqarolarning ta'lim olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash imkonini beradi. |
| 2 | Ijtimoiy aholining barcha yoshdagi turli qatlamlarini qamrab oladi (maktabgacha ta'lim, o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimida, hatto turli o'quv kurslarida mashg'ulotlarni masofadan turib olib borish mumkin. |
| 3 | O'z-o'zidan talabada ilhom mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, ijodiy va intellektual salohiyatni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. |
| 4 | Masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan samaralidir, chunki boshqa an'anaviy ta'lim turlariga qaraganda xarajatlar va to'lovlar ancha kam. |
| 5 | Ta'limda xalqaro integratsiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi, talabalar ma'lum bir vaqtini, o'qish joyini va o'quv yurtini o'z xohishiga ko'ra tanlashi mumkin. |
| 6 | Yuqori sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishini ta'minlaydi. |

Xorijiy tajribalarga qaralganda, masofaviy ta'limning asosiy ishtirokchilariga, odatda, talabalar, professor-o'qituvchilar, moderator, tyutor, edvayzer, fasilitatorlar, invigilator, yordamchi xodimlar va ma'murlar kiradi, ularning har biri alohida muhim ahamiyatga ega. Talabalarining o'quv ehtiyojlarini qondirish har bir samarali masofaviy ta'lim dasturining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ta'lim mazmunidan qat'iy nazar, talabaning asosiy roli o'rganishdir.

Respublikamiz olimlaridan O.Musurmonova, Sh.Sharipov, Sh.Mardonov, S.Nishonova, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, D.Sharipova, M.Quronov, A.Nurmonov, S.Annamurotova va boshqalar tomonidan ijodkor shaxsni tarbiyalashning umumpedagogik jihatlari tadqiq etilgan [6].

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchi olimlarning ishlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha ta'lim oluvchilarning kreativ kompetentligini turli usullar tajribasidan o'tkazib, obyektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvaldan yozib olingan videoma'ruzalar ta'lim oluvchilarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish uchun sharoit yaratsa, maksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi [5]. Mohiyatiga ko'ra, masofaviy ta'limning tashkil etilishi bir qator iqtisodiy masalalarning ijobiy hal qilinishiga bog'liq.

Ta'lim sohasi mutaxassislarining hisob-kitobi bo'yicha endilikda oliygohlarning ko'pchiligi odatdagi o'qitish shakliga qaytishni xohlashmaydi. Talabalarni ham an'anaviy (klassik) ma'ruza darslar bilan qiziqtirish mushkul bo'lib qoladi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga innovatsion tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur hisoblaniladi:

1. Geografiya ta'lim yo'nalishining malaka talablarida ko'rsatilgan umumtexnik ko'nikmalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanib, videodarslar, virtual laboratoriya va stendlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

2. Talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishda o'quv axborotlarini mustaqil izlash va tanlash jarayoniga faol jalb etish, o'qitish metodlarini o'quv dasturlari va o'qitish metodikalariga integrativ singdirish lozim.

3. Talabalarni mutaxassis darajasiga erishishda auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanlarni dasturiy ta'lim vositalari orqali o'qitishda, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik va metodik talablarini amalga oshirishning maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlarni qamrab olgan takomillashtirilgan model asosida o'qitishni ommalashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.R.Jo'rayev, N.Sh.Shadiyeva. Совершенствование электронного программного и методического обеспечения учебного процесса по профильным предметам. "Ilm sarchashmalari" ilmiy-nazariy, metodik jurnali, 2022, 11-son, Urganch, 111 – 115-betlar.
2. N.Sh.Shadiyeva. Role of software educational tools in preparing future teachers professional activity. Actual Problems of modern science, education and training. Elektronik journal of actual problems of modern science, education and training. November, 2022, 11, "Zamonaviy fan ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari". Ilmiy jurnal, 21 – 28-betlar.
3. A.R.Jo'rayev, N.Sh.Shadiyeva. Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarning geografik obyektlarni 3d loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 2023, 2-son, 149 – 155-betlar.
4. Шадыева Н.Ш. Совершенствование электронно-программно-методического обеспечения учебного процесса специальных наук. International Conference On Higher Education Teaching. Hosted from Hamburg, Germany. 1 (8) Avgust 2023, Retrieved from, p. 54 – 56.
5. N.Sh.Shadiyeva. Model of development of competences of students in the field of three-dimensional design and modeling of geographical objects on the basis of educational software tools. International Conference on Management, Economics & Social Science, 1(5), Hosted from Hamburg, Finland. Avgust 2023, Retrieved from, p. 8–11.
6. Shadiyeva N.Sh. "Software Tools" in the Training of Geography Teachers in the Profession. Journal of Innovation, Creativity and Art. 2023, 2 (1), p. 64 – 67.

**Jumayeva Hulkarxon Muhammadjonovna (Termiz davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: hjumayeva@list.ru)
TALABALARNI VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISH TEXNOLOGIYASI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarni variativ tahdidlardan himoya qilish texnologiyasi haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, talabalarni pedagogik jarayonda variativ tahdidlardan himoya qilish metodlarining mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligi va barqarorligi, obodligi yoshlarning ma'naviyati yuksak bo'lishiga bog'liqligi va ularni har qanday tahdidlardan himoyalash zarurligi haqida ham fikrlar bildirilgan.*

***Аннотация.** В данной статье представлены идеи о технологиях защиты студентов от различных угроз. Также поясняется суть методов защиты обучающихся от различных угроз в педагогическом процессе. Высказаны мнения о том, что мир, спокойствие и стабильность в нашей стране зависят от высокого морального духа молодёжи и необходимости защищать её от любых угроз.*

***Annotation.** This article presents ideas about technologies for protecting students from various threats. The essence of methods for protecting students from various threats in the pedagogical process is also explained. Views were also expressed that peace, tranquility and stability in our country depend on the high morale of young people and the need to protect them from any threats.*

***Kalit so'zlar:** variativ tahdidlar, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ma'naviy tahdid, "SWOT-tahlil texnikasi", „SCAMPER“ metodi, "Assesment" texnologiyasi.*

***Ключевые слова:** переменные угрозы, духовность, образование, воспитание, моральная угроза, «SWOT-методика анализа», метод «СКАМПЕР», технология «Оценка».*

***Key words:** variable threats, spirituality, education, moral hazard, "SWOT analysis method", "SCAMPER" method, "Assessment" technology.*

Kirish. Jahonda yosh avlodning ma'naviy kamoloti yo'lida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globallashuv jarayonida chuqur ildiz otib borayotgan barcha sohalardagi tizimli islohotlarning samaradorligi, shuningdek, kelajakning bardavom hamda barqaror bo'lishidek o'ta mas'uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan talabalar ma'naviyatiga bevosita bog'liq. Talabalarning ichki ma'naviyati bu borada ustuvor hisoblanadi. Shu bois talabalarni ichki tahdidlarga qarshi tura olish ruhida tarbiyalash masalasining paysalga solinishi yoki bunga panja orasidan qarash, buni qandaydir mavhum yoki o'z-o'zidan amalga oshib boraveradigan holat sifatida tushunish va shunday baholash mumkin emasligini anglab yetish lozim.

Biroq globalizatsiya qaysidir jihati bilan shaxs dunyoqarashiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib ulgurdi. Ayniqsa, dunyo aholisining qariyb 60 foizini tashkil etadigan yoshlar ongi va ma'naviyatining shakllanishiga keskin ta'sir o'tkazmoqda. Globalizatsiya tufayli bugungi talabalarda ichki tahdidlarga qarshi kurashchanlik immuniteti pasayib bormoqda. Shu bois barkamol avlodni shakllantirishdek muhim va mas'

uliyatli vazifani amalga oshirish davom etayotgan hozirgi davrda talabalarni globallashtirish jarayonida ichki tahdidlardan himoyalash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning faol a'zolari, chunonchi, ziyoli va pedagoglar oldiga mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jamiyat yoshlarining ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri – talabalarning ma'naviy-axloqiy holati, chunki aynan yosh avlod jamiyatning asosiy ijtimoiy-intellektual boyligi hamda uning kelajagi hisoblanadi. Shu jihatdan yoshlar ma'naviy xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy salomatlik jihatlarini A.Erkayev, S.Choriyev, M.Quronov, N.Umarovalar o'z ilmiy ishlarida tahlil qilgan, ma'naviy-axloqiy muhit, yoshlar tarbiyasi, mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik, psixologik jihatlarini A.Turgunova, M.Xujayev, Sh.Taylaqova, Z.Saliyeva, A.Ismanova, G.Tulyaganovalar tomonidan yoritilgan.

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish, inson ma'naviy borlig'iga sinergetik yondashuv, tahdidbardosh jamiyatni shakllantirish, yoshlar siyosiy tolerantligi falsafiy, siyosiy nuqtai nazaridan I.Kuvandikov, Z.Muminova, Sh.Agabayev, A.Komilovlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Qolaversa, N.I.Belova, J.C.Gureva, S.I.Kopkareva, A.I.Kuznetsova, L.B.Latish, O.A.Rogachevalar o'z tadqiqot ishlarida talabalar ma'naviy xavfsizligini o'rganish uchun ma'naviyatga tahdid soladigan asosiy omillarni aniqlashga harakat qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarda ichki tahdidlarni bartaraf etishda ularning ijtimoiy salomatligini, qiymat ierarxiyasini, umuman, ma'naviy holatini aks ettiruvchi kategoriya sifatida ko'rib chiqish muhim. Talabalarning ijtimoiy salomatligi to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlar, shuningdek, uning har tomonlama rivojlanishidagi ma'naviy madad va yoshlarning ma'naviy muhitini "tozalash" sohasidagi muammolarni hal qilishda sifat jihatidan yangi yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bunda talabalarga mustaqil mavqega ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki sub'yekt sifatida o'zlarining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini anglay olmaydigan talabalar rivojlanishidagi qarama-qarshi shart-sharoitlar ular faolligini pasaytirishning asosiy omili. Bu omillar esa talabalar faolligida noaniqlik, befarqlik va loqaydlik kabi ichki tahdidlarni kuchayishiga sabab bo'ladi.

Talabalarning ichki olamini boyitish, ma'naviyatini yuksaltirish, turli ichki tahdidlardan himoyalash texnologiyasi quyidagi majmual vazifalarni hal etishga imkon beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida neogen (yangicha) topshiriqlardan foydalanish asosida talabalarda ichki tahdidlar va ularning talaba shaxsiga ta'sirini anglashga yo'naltirish. Neogen topshiriqlar talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga imkon beruvchi treninglar yakka, guruh va jamoaviy shakllarda taklif etilib, interfaol texnologiyalar, assesmentlar vositasida faoliyatda amalga oshiriladi[1; 165-b.]. Talabalar o'z ichki olamida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga yechim topish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Neogen topshiriqlarni bajarish uchun talabalarning o'zlarini o'z "men"i nuqtayi nazaridan tahlil qilishadi. Shuningdek, mazkur topshiriqlarni bajarish uchun zarur manbalardan axborotlarni izlab topish va o'quv topshirig'ini bajarish jarayonida manbalardan oqilona foydalanish talab etiladi. Foydalanilgan manbalarning o'z hayotlarida ahamiyat kasb etishi to'g'risida mulohaza yuritishadi. Xullas, o'z-o'zining ma'naviyat darajasini baholab boradi.

Talabalarda ichki tahdidlarning mazmun-mohiyatini tushunish ko'nikmasini shakllantirish uchun tanlangan kasb sohasining amaliy jihatlarini bilan aloqador o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish hamda talabalarning interfaol metodlar orqali topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash. Bu orqali talabalar, bir tomondan, ichki tahdidlarning shaxsiga ta'siri va uning oqibatlarini o'z tajribasiga asoslangan holda o'zlashtirishadi, ikkinchi tomondan, birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyat malakasiga ega bo'lishadi, ichki qiziqish, mas'uliyat bilan yondashish, o'rtoqlari bilan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish layoqatini egallaydi. Bu talabada ijtimoiy moslashish, axloqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilish tarbiyaviy tadbirlar orqali rivojlantirib borishilishini ta'minlash lozim. Bunda talabalarda ichki hissiyotlarni rivojlantirish auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish asosida ta'limning faol hamda interfaol metodlaridan foydalanishni talab etadi.

Tahlil va natijalar. Mazkur metodika orqali talabalarning shaxs sifatleri, ularning iroda kuchi haqida taassurot hosil bo'ladi. Shuningdek, talabalar metodika orqali o'zlari anglamagan, lekin shaxs uchun xayotiy zarurat bo'lgan sifatlar bilan to'qnash keladilar va o'z-o'zini baholay boshlaydilar. Baholash esa shaxsdagi ijobiy va salbiy xususiyatlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

"SCAMPER" metodi. Vaziyat. Talaba sifatida sizda ichki tahdidlar paydo bo'ldi. Bu, albatta, sizni rivojlantirishga to'siqlik qiladi. Siz o'zingizdagi irodasizlik, dangasalik, yaxshilik istamaslik, o'zingiz-

ni o'ylash istagining ustuvorligi kabi ichki tahdidlarni qanday bartaraf etsam ekan, deb o'ylanib qoldingiz ("SCAMPER" jadvalini to'ldiring).

1-jadval

"SCAMPER" metodi

| Ichki tahdidlardan himoyalash mexanizmi | | |
|--|---|--|
| SCAMPER savollari | SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish) | Muqobil imkoniyatlar |
| S- Substitute | Nima bilan almashtirish mumkin? | „O‘z-o‘zini anglash“ dasturi |
| C -Combine | Nima bilan birlashtirish mumkin? | Boy tarixiy tajriba bilan |
| A -Adapt | Nimaga moslashtirish kerak? | Innovatsion faoliyatga |
| M -Modify | Qanday yaxshilash mumkin? | ? |
| P - Put | Nimalarni o‘zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar) | Ta‘lim faoliyatli yondoshuv asosida tashkil etilishi |
| E -Eliminate | Yana qanday holda qo‘llash mumkin? | Jamoaviy |
| R- Reverse | Nimani qayta tiklash mumkin? | ? |

"SCAMPER" savollariga berilgan javoblar natijasiga ko'ra, qaysi savolga javob berish qiyinroq ekanligini aniqlang. Xuddi shu narsa sizdagi ichki tahdidlardan himoya qilishga imkon berishi mumkin. Shuningdek, yoningizda o'tirgan o'rtoqlaringiz bilan javoblaringizni taqqoslang. Nima sababdan javoblar turlicha bo'lib chiqdi?

Globalashuv jarayonida ta'lim tizimining ham taraqqiyotida tezkor va sifatli o'zgarishlarni talab etadi. Chunki ta'lim orqali keng tafakkurga ega, tanqidiy mushohada qila oladigan yangi avlodni shakllantira olishimiz mumkin. Bunda esa "Assesment" texnologiyasining ahamiyati katta.

Quyida namuna sifatida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan assesment topshirig'ini namuna sifatida 3-jadvalda keltirib o'tamiz.

Xulosa. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash borasidagi ishlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda ularni keltirib chiqaradigan omillarni o'rganish muhim pedagogik muammo ekanligi, shuningdek, ichki tahdidlarning o'ziga xos xususiyatlari, ko'rinishlari, jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilish zaruriyati mavjudligini yuzaga keltirdi. Tadqiqot ishida talabalarning ichki tahdidlardan himoya qilishning pedagogik shartlari o'rganilib, talabalarning umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish tizimini samarali tashkil etish imkoniyati aniqlandi. Mavjud holatni o'rganish va tahlil qilish natijalariga ko'ra, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash qoidalarini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur qoidalarga asoslanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artiqova M.B. Umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori ((DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss., T., TDPU, 2018, 165 bet.
2. Aydin, M. Z., Gürler Akyol Sh. 2013, 38-bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T., "Sano standart", 2018, 131-bet.
4. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadir. T., "Kamolot" kutubxonasi, 2016, 3-bet.
5. Latish L.B. Социальная адаптация молодёжи как объект регионального управления (по материалам Хабаровского края). Автореф. дис... канд. соц. наук, М., 2007, с. 51.
6. Jumayeva H.M. Some shapes of spiritual attack, its influences and outcomes for educating the youth // European journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Research. 2020, № 2, p. 20 – 23.
7. Jumayeva H.M. Model of protection of students from internal threats and its main components // European journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Research. 2020, № 11, p. 94 – 99.

Sharifzoda Sardorbek O'razboy tabib o'g'li (Ma'mun universiteti nodavlat ta'lim muassasasi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail:sharifzoda1978@mail.ru)

PEDAGOGIK FAOLIYATDA GENDER YONDASHUVINI AMALGA OSHIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender ta'limning dolzarb muammolari atroflicha tahlil qilinib, pedagogik jarayonda gender toifasini joriy etish muhim ahamiyatga egaligi asoslangan, gender xususiyatlarini hisobga olgan holda, shaxsni shakllantirish muammolarini samarali hal qila oladigan gender bi-

limga ega mutaxassisni tayyorlash va o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashda gender yondashuvni amalga oshirish bo'yicha o'qituvchining gender kompetensiyasi modeli ishlab chiqilgan, natijada o'quvchi shaxsini tarbiyalash va o'qitishda gender yondashuvni amalga oshirish ko'nikmalarga imkon yaratilgan.

Аннотация. В данной статье подробно проанализированы актуальные проблемы гендерного образования, и исходя из важности введения категории «гендер» в педагогический процесс, разработана модель гендерной компетентности педагога для подготовки специалиста, обладающего гендерными знаниями, способного эффективно решать задачи формирования личности с учетом гендерных особенностей, и реализовывать гендерный подход в социальном воспитании обучающихся, в результате создана возможность реализации гендерного подхода в воспитании и воспитании личности обучающегося.

Annotation. In this article, the actual problems of gender education are thoroughly analyzed, and based on the importance of introducing the gender category in the pedagogical process, a model of teacher's gender competence has been developed to prepare a specialist with gender knowledge who can effectively solve the problems of personality formation taking into account gender characteristics, and to implement a gender approach in the social education of students, as a result, the ability to implement the gender approach in education and training of the student's personality has been created.

Kalit so'zlar: gender, gender ta'lim, gender yondashuv, jinsiy tarbiya, jinsiy rol ta'limi, gender ta'limi, gender tarbiyasi, jinsiy-rol tarbiyasi, gender pedagogikasi.

Ключевые слова: гендер, гендерный подход, половое воспитание, гендерно-ролевое образование, гендерное образование, гендерное воспитание, полоролевое образование, гендерная педагогика.

Key words: gender, gender approach, gender role education, gender education, gender role education, gender pedagogy.

Kirish. Zamonaviy gender pedagogikasining eng muhim muammolaridan biri bu turli yosh bosqichlarida gender tarbiyasining aniq maqsadlari, vazifalari va mazmunini ilmiy asoslash va aniqlashdir. Gender tarbiyasi-bu gender roliga mos keladigan tarbiya. Gender ta'limining maqsadi hozirgi vaqtda erkak va ayolning kelajakdagi ijtimoiy rolini bajarishga tayyorgarlik sifatida tushuniladi. Gender tarbiyasining o'ziga xos vazifalari va mazmunini aniqlashdagi qiyinchilik jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida erkak va ayol rollari tarkibidagi tub o'zgarishlar, erkaklik va feminizm fazilatlarini, oilaviy va kasbiy rollarning stereotiplari bilan bog'liq bo'lgan dominant gender stereotiplarining o'zgarishi bilan bog'liq. An'anaga ko'ra, erkaklarni kasbiy muvaffaqiyatlari, ayollarni esa oilaviy yutuqlari bilan baholash odatiy holdir.

Asosiy qism. Uzoq vaqt davomida jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan erkak va ayol jinsiy rollari o'rtasida aniq farq bor edi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy ishlab chiqarish va mehnat xarakteridagi o'zgarishlar, jinslarning huquqiy va siyosiy tengligi, ayollarning jamiyatdagi rolining oshishi erkaklar va ayollarning ijtimoiy rollarining an'anaviy tizimining yemirilishiga olib keldi, jinsiy farqlanishga ta'sir qildi. Uzoq vaqt davomida erkak – jangchi, Vatan himoyachisi, davlat va jamoat arbobi va faqat uy xo'jaligi va bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadigan passiv ayolning stereotiplari o'rniga haqiqiy erkak va haqiqiy ayolning yangi stereotiplari paydo bo'ldi. Zamonaviy jamiyat erkaklar va ayollarning gender stereotiplari, ularning jinsiy rollarining multivariantligi bilan ajralib turadi. Gender stereotiplarining o'zgarishi nafaqat erkaklar va ayollarning ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalaridagi roliga, balki ularning oilaviy rollariga ham tegishli. Gender stereotiplarining bunday o'zgarishi jamiyat hayotidagi o'zgarishlar bilan bog'liq, ammo bu jarayon juda murakkab va qarama-qarshi. V.E.Kagan ta'kidlaganidek, "jinsiy rollarni demokratlashtirish o'zining barcha progressivligi bilan ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi: jinslar o'rtasidagi yangi munosabatlarga bo'lgan ehtiyoj ushbu yangi munosabatlarni o'rnatish, saqlash va rivojlantirish qobiliyatidan ustundir. An'anaviy va yangi yarim rolli stereotiplarning o'zaro ta'sirida murakkab to'qnashuvlar yuzaga keladi" [3].

Ta'limda gender yondashuvi muammosini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar hozirda bir qator omillarga bog'liq:

- davlat ta'lim standartlarida gender muammolarining yo'qligi;
- gender pedagogikasining kategorik apparati yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- turli jins vakillarining aqliy farqlari, ularning namoyon bo'lish darajasi to'g'risida eksperimental ma'lumotlarning nomuvofiqligi. Shunday qilib, gender pedagogikasi ilmiy bilimlarning yo'nalishi sifatida so'nggi besh yilliklarda faol rivojlanmoqda va hozirda nazariy va uslubiy asoslarni shakllantirish, gender tarbiyasining mazmunli va texnologik jihatlarini rivojlantirish davrini boshdan kechirmoqda.

Zamonaviy fan “jins” va “gender” atamalarini ajratib turadi. Birinchisi odamlarning anatomik va fiziologik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Ushbu xususiyatlar yordamida barcha insonlar erkaklar va ayollarga bo‘linadi. Ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi bilan biologik nuqtayi nazardan ikkala jins o‘rtasida farqlardan ko‘ra ko‘proq o‘xshashlik borligi aniq bo‘ldi. Katta vazn, baland bo‘yli, mushak figurasi erkak farqlarining ko‘rsatkichlaridan katta emas. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi yagona muhim biologik farq ularning naslni ko‘paytirishdagi roli. Ammo jinslar o‘rtasidagi biologik farqlardan tashqari, ularning ijtimoiy rollari, xatti-harakatlari va hissiy xususiyatlaridagi farqlar ham mavjud. Erkaklar va ayollarning ijtimoiy o‘zaro ta‘sirini ko‘rsatish uchun inglizcha “gender” so‘zi olingan. Jamiyatda ayol yoki erkak bo‘lish shunchaki turli xil anatomik xususiyatlarga ega bo‘lishni anglatmaydi – bu unga tayinlangan turli xil gender rollariga ega bo‘lishni anglatadi [9].

Pedagogik jarayonda “gender” toifasini joriy etish muhim ahamiyatga ega, chunki maktabda ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishga asoslangan kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash, hayot strategiyasi, resurslardan foydalanish va hokimiyat to‘g‘risida ko‘plab g‘oyalar shakllanadi. Maktabda gender ta‘limining rivojlanishi jins har qanday mezon yoki ko‘rsatkich bo‘yicha kamsitish uchun asos emas, bu ayol va erkakka inson huquqlaridan foydalanish va o‘ziga xos individuallik darajasida o‘zini-o‘zi anglash usullari va shakllarini erkin tanlash imkoniyatini beradi degan fikrni shakllantirishga imkon beradi. Tor ma‘noda gender ta‘limi, birinchi navbatda, talabalar, odatda ijtimoiy-gumanitar mutaxassisliklar uchun turli xil variantlarda o‘qiladigan gender masalalari bo‘yicha ta‘lim dasturlari. Kengroq ma‘noda, gender gender tengligini shakllantirishga yordam beradigan va salbiy gender stereotiplarini yengishga yordam beradigan ta‘limni anglatadi. Shu ma‘noda, gender ta‘limi har qanday aniq ta‘lim dasturlarida ifodalaniishi shart emas, u ta‘lim va tarbiya jarayonlarida mavjud bo‘lib, oliy ta‘lim mafkurasining bir qismidir. Gender mavzusining asosiy mazmuni insonning jinsidan qat‘iy nazar, o‘zini-o‘zi anglash huquq va imkoniyatlarini tasdiqlash g‘oyasi bilan bog‘liq. Gender yo‘nalishi doirasida asosiy vazifa nafaqat ma‘lum bir jinsning vakili sifatida (jinsiy hodisalar tufayli) shaxsning xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish qonuniyatlarini o‘rganishdir, shuningdek, gender tengligiga erishish yo‘llari va usullarini aniqlashtirishdir. Gender bilimlari asoslarini o‘zlashtirish oliy ta‘limni modernizatsiya qilishning asosiy maqsadlariga mos keladi va Boloniya kelishuvi tamoyillarini o‘quv jarayoniga joriy etish va universitet ta‘limi sifatini oshirish vazifalariga javob beradi [5].

Gender ta‘limi erkaklar va ayollarning ijtimoiy voqelik va individual tajribalarini tahlil qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, erkak va ayol rollarining adolatsiz farqlanishi va ularning mavqei tengsizligi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan. Gender ta‘limida fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatimizda demokratik g‘oyalar va qarashlarni rivojlantirish va mustahkamlashning umumiy dasturining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli gender ta‘limi quyidagi asosiy vakolatlarni shakllantirishga muhim hissa qo‘shadi:

- fuqarolik;
- gumanistik yo‘nalish;
- ijtimoiy-madaniy muloqotga tayyorlik;
- kasbiy va shaxsiy ijtimoiy tajribalarini tanqidiy aks ettirish qobiliyati [11].

Gender ta‘limi, ayniqsa qizlar va o‘g‘il bolalarga qaratilgan bo‘lsa, bugungi jamiyatda gender tengligini yaratishga yordam beradigan ijobiy kuch bo‘lishi mumkin. Gender stereotiplarini kamaytirish orqali gender ta‘limi bolalarga haqiqiy fuqarolik tengligiga erishishga yordam beradi, bunda erkaklar va ayollar hamkorlik va hurmat ruhida birga yashaydilar. Gender ta‘limi jinsiy rollarga e‘tiborni jalb qilishni boshlaydi. Bu gender stereotiplarining salbiy ta‘sirini tan olish va ular bilan bog‘liq tengsizlikni yo‘q qilishni anglatadi. Qizlar uchun gender ta‘limining natijasi o‘ziga bo‘lgan ishonch, qat‘iyatlilik, mustaqillik va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishdir. O‘g‘il bolalar uchun natija muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvini yengish, tajovuzni yengish qobiliyati, ijtimoiylashuv va mas‘uliyat darajasini oshirish va xususiy sohaga kop‘roq e‘tibor berishdir [7].

Gender ta‘limi – bu uzluksiz jarayon bo‘lib, uni ta‘lim faoliyatining ayrim turlari bilan cheklab bo‘lmaydi. O‘qituvchilar bolalikdan jinsiy rollarni stereotiplashdan qochishlari va qizlar va o‘g‘il bolalarga har qanday faoliyatda ishtirok etish va o‘zaro aloqada bo‘lish uchun teng imkoniyatlar berishlari kerak. Qizlar o‘quv mashg‘ulotlari va sport mashg‘ulotlariga jalb qilinishi kerak, o‘g‘il bolalar esa kimgadir g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq faoliyat bilan shug‘ullanishlari kerak. Ularning ikkalasi ham sahnalash-tirish va raqs, duradgorlik, ovqat tayyorlash, sayyohlik va shaxmat o‘yinlari kabi barcha tadbirlarda ishtirok etishlari kerak. Qizlar o‘zlarining yutuqlari uchun ijobiy javob olishlari kerak, o‘g‘il bolalar esa g‘amxo‘rlik va birdamlik uchun.

Gender ta'limining yana bir muhim maqsadi bolalarga onalik kabi an'anaviy ayollar faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini va g'amxo'rlik, e'tibor, hamkorlik va bag'rikenglik kabi fazilatlarni tan olishga yordam berishdir. Ushbu e'tirof gender ta'limining asosiy maqsadi bo'lgan erkaklar va ayollar o'rtasidagi haqiqiy hamkorlikka olib kelishi mumkin. Shunday qilib, bolalar erkaklar va ayollarning oila va jamiyatga qo'shgan turli hissalarini teng darajada muhimligini va erkaklar ham, ayollar ham teng huquqlarga ega va teng javobgarlikka ega ekanligini bilib olishadi. Gender ta'limi samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar o'zlarining gender stereotiplarini tan olishlari va ularning ta'lim usullari, tili va o'g'il-qizlar bilan o'zaro munosabatlari ular ilgari surayotgan gender tengligini aks ettiradimi yoki yo'qligini o'ylab ko'rishlari kerak. Qizlar erkak tengdoshlariga nisbatan yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega ekanligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bu barcha ta'lim muassasalariga tegishli. Qizlar ko'proq tirishqoq va vijdonli, qat'iyatli, ko'pincha, ota-onalar va o'qituvchilarning umidlarini oqlashga intilishadi, beparvolarni o'qishga majburlaydigan ota-onalar va o'qituvchilarning bosimiga kamroq qarshilik ko'rsatishadi [3].

Shaxsni shakllantirish muammolarini hal qilishda, o'quv jarayonini takomillashtirishda gender pedagogikasining ahamiyati bir qator omillarga bog'liq. Bolalarda jinsiy (gender) rollar kattalarga xos bo'lgan tayyor shaklda mavjud emas, balki ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadi. Erkaklar va ayollar ijtimoiy ma'noda tug'ilmaydi, ular maktabgacha yoshdan boshlab, imkon qadar erta boshlash muhim bo'lgan maqsadli ta'lim natijasida paydo bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'g'il va qizlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olmaydigan "jinssiz pedagogika" yosh avlodning jinsiy rolini sotsializatsiya qilish, jinsiy ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish muammolarini samarali hal qila olmaydi [8].

Muhokamalar va natijalar. Ta'limda gender yondashuvini amalga oshirishning asosiy shaxsi o'qituvchidir. O'qituvchilar jamiyatning gender madaniyati va o'zlarining gender g'oyalari tashuvchisi sifatida o'quvchilarning gender sotsializatsiyasiga, jinsiy rol qadriyatlarining shakllanishiga, jinsiy rol xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Endi ta'lim gender xususiyatlarini hisobga olgan holda, shaxsni shakllantirish muammolarini samarali hal qila oladigan gender bilimlariga ega mutaxassislarga muhtoj. Gender kompetensiyasi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan biridir. Bir qator zamonaviy tadqiqotlar o'qituvchilarning gender g'oyalari va munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar erkak va ayol fazilatlarini an'anaviy gender nuqtayi nazariga ko'ra farqlaydilar.

O'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashda gender yondashuvini amalga oshirish bo'yicha o'qituvchining gender kompetensiyasi modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelning tarkibiy qismlari quyidagilar:

◆Nazariy kompetensiya: o'qituvchining o'g'il va qizlarning psixologik holatidagi farqlarni, o'quvchining jinsiy-rol rivojlanish dinamikasini bilishi; o'quvchida erkaklik va ayollik tamoyillarini shakllantirish shakllari va usullarini bilish.

◆Diagnostik kompetensiya: jinsiy rol sotsializatsiyasi jarayonini o'rganish uchun diagnostika usullarini qo'llashga tayyorlik.

◆Shaxsiy kompetensiya: shaxsiy fazilatlarni, gender stereotiplarini, o'ziga xoslikni, amalga oshirayotgan gender rollarini tushunish, shaxsiy xususiyatlarni o'z-o'zini bilish.

◆Texnologik kompetensiya: o'qituvchining o'quvchining asosiy faoliyatini tashkil etishda gender yondashuvini qo'llashga tayyorligi.

Bu esa o'quvchi shaxsini tarbiyalash va o'qitishda gender yondashuvini amalga oshirish ko'nikmalarga imkon beradi:

- o'quvchilarning jinsiy-rol rivojlanish darajasini aniqlash;
- o'quvchilarning jinsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda mavzuni rivojlantirish muhitini modellashtirish;

- mavjud ta'lim dasturlari va texnologiyalarini gender yondashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
- yarim rolli ta'lim jarayonini uslubiy va didaktik qo'llab-quvvatlashni ishlab chiqish (darslarning qisqacha mazmuni, ko'ngilochar ssenariylar, didaktik o'yinlar);

- ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa. Rivojlanishning hozirgi bosqichida gender pedagogikasining dolzarb muammolari qatoriga gender ta'limining yaxlit konsepsiyasini ishlab chiqish, uning aniq maqsadlari, vazifalari, mazmunini aniqlash, ta'limda gender yondashuvini amalga oshirishning samarali shakllarini izlash, ta'lim jarayoni subyektlarining gender kompetensiyasini shakllantirish kiradi, shuningdek, zamonaviy ta'lim muassasalari tomonidan bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olish zarurati, shubhasiz. Biroq pedagogikaning "jinssizligi"ni yengib o'tishni faqat alohida ta'lim amaliyotiga qisqartirish mumkin emas. Genderga

yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish turli jinsdagi bolalarni gender sotsializatsiyasi, tarbiyalash va o'qitish muammolarini birgalikda o'rganish sharoitida muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Филиппова С.А. Социально-психологические особенности гендерной идентичности в юношеском возрасте. Дис... канд. психол. наук, Москва, 2009, 196 с.
2. Savickas M.L. Life Designing. A Paradigm for Career Construction in the 21st Century. Journal of Vocational Behavior, 2009, Vol. 75, № 3, pp. 239 – 250. <https://doi.org/10.1016/2009.04.004>.
3. Brandt G.A. Gender studies in Russia: features and problems. Gender relations in modern Russia. Samara: Samar. un-t, 2003, URL: <http://www.liza.am/article/001.htm> (date of access: 29.11.2011).
4. Temkina A.A., Zdravomyslova E.A. Sociology of gender relations and gender approach in sociology // Sotsiol. research. 2000, № 11, p. 15 – 23.
5. Kletsina IS Psychology of gender relations: theoretical substantiation. Gender as a tool for cognition and transformation of society: materials of the Intern. conf. "Gender Studies: People and Themes that Unite the Community", Moscow, April 4–5, 2005.ed.-comp. E.A.Ballaeva, O.A.Voronina, L.G.Lunyakova. M., MTsGI, Solteks, 2006, p. 142 – 152.
6. S.Sharifzoda. Strategies for preparing future teachers for pedagogical activity on the basis of a gender approach/International Bulletin of Engineering and Technology. ISSN: 2770–9124 Impact factor: 8.1.In Volume 4, Issue 04 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7854298>.
7. S.Sharifzoda. Strategies for forming competencies in students based on an integrative approach/European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. ISSN 2750-8587|SJIF 2021-5.624, 2022-5.954, 2023-6.94 <https://doi.org/10.55640/eijmrs-03-04-13>.
8. S.Sharifzoda.H.Karimov.Gender yondashuv asosida o'quvchi-qizlarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish omillari/Academic Research in Educational Sciences, 3(7), p. 371–375
9. S.Sharifzoda.Factors for preparing students for pedagogical activities aimed at socialization on the basis of a gender approach/International conference on management, economics & social science. Hosted from Tampere, Finland 30.04.2023.
10. S.Sharifzoda.Pedagogical conditions for the organization of gender based training/ Innovative research in modern education. Hosted from Toronto, Canada 30.04.2023.
11. Khudoyberganov D.,&Safaeva D. (2023). Gender yondashuv asosida o'quvchilarni ijtimoiylashtirishga yo'naltirish mexanizmlari. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), p. 42–46. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/15415>.
12. Karimov Khabibulla (2023). Mechanisms of socio-cultural competence formation in graduate class students based on gender approach. International Journal of Pedagogics, 3(05), p. 128–133. <https://doi.org/10.37547-ijp/Volume03 Issue 05-25>.
13. Khudoyberganov D.,& Safaeva D. (2023). Mechanisms of directing the socialization of on students on the basis of a gender approach. International bulletin of applied science and technology. 894-899. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7969057>.
14. Sharifzoda M. (2023). Gender yondashuvi asosida katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish mexanizmlari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(6 Part 2), p. 38–42, извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/17951>.

Tagayev Odil Nurmuminovich (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali "Amaliy matematika" kafedrasi assistenti)

BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ALGARTIMIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarining kasbiy kompetentligini oshirishda o'quv jarayonining qiyosiy tahlil qarab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается сравнительный анализ образовательного процесса по повышению профессиональной компетентности будущих экономистов, изучающих экономику.

Annotation. This article discusses a comparative analysis of the educational process to improve the professional competence of future economists studying economics.

Kalit so'zlar: iqtisodchi, tahlil, talaba, mutaxassis, iqtisodiyot, yo'nalish, jamiyat.

Ключевые слова: экономист, анализ, студент, специалист, экономика, направление, общество.

Key words: economist, analysis, student, expert, economics, direction, society.

Bugungi kunda butun dunyoda kambag'allikni qisqartirish hamda iqtisodiy barqarorligini ta'minlash muammolari eng muhim masala hisoblanadi. Jamiyatdagi o'sib borayotgan yosh avlod uchun mos, har tomonlama qulay va ijtimoiy-iqtisodiy mahsulotlaridan foydalana olishni ta'minlash deyarli barcha xalqlarda yuzaga kelayotgan eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlari o'sishi va kam ta'minlanganlikni qisqartirish nazarda tutiladi. Iqtisodiy o'sish, jumladan, uning sifati to'g'risidagi masala mamlakat, uning mintaqalari, umuman, biror-bir ijtimoiy tizimning rivojlanish istiqbollari aniqlash uchun ham juda muhim. Iqtisodiy o'sish jamiyatning rivojlanish istiqbollari prognozlash imkonini beradi. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot yo'nalishi talabalari bugungi kundagi iqtisodiy o'sish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab turuvchi omillarni yaxshi o'rganishlari lozim. Ya'ni iqtisodiyot yo'nalishi mutaxassisliklari hisob-kitoblarni amalga oshirishda matematik va statistik formulalar yordamida ma'lumot to'plash, tartibga solish va tahlil qilishni o'rganadilar. Shuningdek, ular investitsiyalar, siyosiy qarorlar, sanoat tendensiyalari, demografiya, iqlim o'zgarishi va boshqalarning ta'sirini taxmin qilish uchun modellarni yaratadilar [1].

Yosh iqtisodchi mutaxassislar muammolarni tahlil qilish va yechimlarni taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan birga, ularda bu sohada muvaffaqiyatga erishish kuch va muloqot ko'nikmalarini ham talab qiladi. Iqtisodiyot sohasida ishlaydigan mutaxassislar o'zlarining beznis rejalarini sodda tilda va oddiy insonlar tushunadigan tilda bayon qila olishlari kerak.

Kelajakda iqtisodchi mavqeyiga ega bo'lgan bitiruvchilar ish jarayonidagi jadval va grafikalarini, tendensiyalar va natijalarini umumlashtirish vositasi sifatida o'zlashtirgan bo'lsalar-da, aniq natijalarga erishishi iqtisodiy loyihalarni boshqalarga taqdim eta olishi iqtisodchi mutaxassislar uchun juda muhim mahoratdir.

Iqtisodiyot yo'nalishlarini a'lo bahoga bitirgan bitiruvchi – bu haqiqiy iqtisodchi kabi fikrlaydigan bo'lishi kerak. Demak, bo'lajak iqtisodchilarga mo'ljallangan ta'limning asosiy maqsadi talabalarni iqtisodchi kabi fikrlashga o'rgatishdir.

Shu o'rinda savol tug'iladi:

–iqtisodchi kasbiy nuqtayi nazardan qanday fikrlaydi?

–oliy ta'lim muassasasi iqtisod yo'nalishi talabasi o'z mutaxassisligi bo'yicha iqtisodchilik kasbiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida nimani o'rganishi kerak?

–oliy ta'lim muassasasi o'z talabalariga nimani o'rgatishi kerak?

Bu savollarga qoniqarli javoblar faqatgina ixtisoslikni yaxshi bilish, shu bilan birga, iqtisodchi, birinchi navbatda, iqtisodiyot va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarni tahlil qila bilishni anglashdir. Aslida, mutaxassislik o'quv dasturining alohida yo'nalishini belgilab beradi. Bu tahlil Amerika kollejlari assotsiatsiyasi iqtisodiyot yo'nalishlar bo'yicha chuqur o'rganishlar olib borilgan [2.3].

Iqtisodiy rivojlanishning barqaror davrlari inson kapitaliga, xususan, ta'limga alohida e'tibor qaratgan holda ishchi kuchiga katta investitsiyalar kiritilishini talab qiladi.

Yuqorida berilayotgan savollar kasbiy ta'limning o'ziga xos xususiyati yoki xarakteriga mos keladi. Talabalarni yaxshi iqtisodchi qilib yetishtirish uchun qanday kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish kerak? Yanada aniqroq aytganda, oliy ta'lim muassasasida iqtisodiyot yo'nalishi talabalariga, xususan, o'z mutaxassisliklariga nisbatan nimani o'rgatishlari kerak?


O'quv dasturlari bo'yicha bunday savollarga javob sifatida ixtisoslikning muhimligini anglashdan tashqari, iqtisodiy ta'limning tanlangan maqsadlariga ham bog'liqligini keltirish mumkin. Misol uchun, juda ko'plab amerikalik tadqiqotchilar ishida shuni ko'rish mumkinki, iqtisodiy yo'nalishlarda dars beradigan professional dasturlarini ishlab chiquvchilar uchun iqtisodiy yo'nalishdagi ta'limning maqsadi sifatida talabalarni o'z kasbining yetuk egasi, ya'ni haqiqiy iqtisodchi kabi fikrlashga undashlari kerak. Buning asosiy sababi shundaki, bugungi kun zamonaviy barqarorlikga intilayotgan iqtisodiyotda kasbiy kompetentlik – bu iqtisodiy tilda aytadigan bo'lsak, valuta qiymati hisoblanadi. Amerkada tadqiqotchilar bundan shunday xulosa chiqaradiki, belgilangan mutaxassislik va maxsus bilim, talaba kasbiy kompetentligini oshirishning samarali vositasidir [2.3].

Yurtimiz pedagogik olimlarining fikricha, yildan yilga ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni yanada yanqilayotgan iqtisod yo'nalishi o'quv mashg'ulotlari dars samaradorligini ko'rsatishi uchun mo'ljallangan bo'lib, har bir o'quv mashg'ulotlariga ko'ra farqlanadi. Bundan tashqari, ayrim soha olim-

larining tadqiqotlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, ta’limning maqsadi iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash va eng maqbul o‘quv dasturlari “maxsus tayyorgarlik” loyihasini namoyish etishdir. Umuman olganda, bo‘lajak iqtisodchilar yetuk iqtisodchi kadrlar ishga borganda, dastlab, qanday ish boshlashlarini tahlil qiladilar va o‘rganadilar. Bu yerda talaba nima sodir bo‘layotganini tartibga soluvchi qonunlarni kontseptsiyalash, boshqarish va ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi.

Tahlilchi, aslida, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassis hisoblanadi, chunki u nima sodir bo‘layotgani tushunish qobiliyatiga ega. Bu o‘zlashtirilgan qobiliyatdir; ya’ni orttirilgan ko‘nikma hisoblanadi. Talaba yaxshi iqtisodiy tahlilchi bo‘lishi uchun qanday ta’lim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak?

O‘z kasbining mohir egasi, ya’ni. yaxshi iqtisodchi bo‘lish – bu haqiqiy iqtisodchi kabi fikrlash qobiliyati borligidan dalolat beradi. Tahlil ketma-ketligi 1-rasmda keltirib o‘tilgan.



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat tahlili.

Yetakchi pedagogik olimlarning fikricha, iqtisodchi – ijtimoiy hayotda ko‘zga ko‘ringan olim bo‘lib, u jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarni tahlil qilish uchun iqtisodiy fanlaridan foydalanadi (ijobiy tahlil) va jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlikni eng oson yo‘l bilan qanday qilib tashkil etishni tahlil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yaxshi iqtisodchi iqtisod fanini bilishi, tushunishi va idrok qilish kerak; mavjud bilimlarga ega bo‘lish, ularni boshqarish, umumlashtirish va sharhlash qobiliyatiga ega bo‘lishi, shuningdek, analitik usulda savol bera olishi va savolga javobni shakllantira olishi lozim.

Bugungi kunda dunyoda ayrim davlatlarda umumiy ta’limdan ko‘ra bakalavriat yo‘nalishlarida zamonaviy iqtisodiyotni o‘rganishni kuchaytirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan. Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiy ta’limning asosiy maqsadi iqtisodiyot yo‘nalishlari talabalarini iqtisodchi kabi fikrlashga undashdir (Siegfried va boshqalar. 1991-yil, AQSH).

Iqtisodiyot xuddi ulkan daraxtga o‘xshaydi, uning tanasi kurslar, tahliliy usullar va miqdoriy ko‘nikmalarga asoslangan. Daraxt shoxlari iqtisoddagi qiziqish va tadqiqot nuqtalari bo‘lgan amaliy kurslardir.

O‘rta darajadagi mikro va makroiqtisodiyot nazariyasi kurslari prinsiplar kurslarida kiritilgan g‘oyalarni “yanada kuchliroq tahliliy vositalar” yordamida qayta ko‘rib chiqadi va iqtisodchilar nazariyadan qanday foydalanishlarini ko‘rsatib beradilar. O‘rta darajadagi nazariya kurslar iqtisodiy tahlillar uchun zarur vositalarni taqdim etadi va qanday ko‘nikmalarni rivojlantirish kerakligi haqida ogohlantirish beradi.

Nihoyat, amaliy kurslar xalqaro savdo va moliya, davlat iqtisodiyoti, sanoatni tashkil etish, mehnat, valyuta iqtisodiyoti, iqtisodiy rivojlanish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy bilimlar “daraxt”ga chiqish iqtisodchi kabi fikrlashni yaxshiroq tushunadigan bitiruvchi mutaxassislar uchun kerakli.

Iqtisodiyotda hisoblash izohlashdan ko‘ra ko‘proq narsani anglatadi, Bu masalalarni og‘zaki va grafik jihatdan o‘rganishning chuqurroq usulidir. Jarayonga nisbatan kompyuter grafikasi tushunchasini berishi mumkin, ammo iqtisodiy tahlilning haqiqiy kuchi iqtisodiy muammolarga miqdoriy javoblarni hisoblashda o‘z kuchini ko‘rsatadi. Har bir iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba iqtisodiyotga bog‘liq voqealarni matematik hisob-kitob va kompyuter grafikasidan foydalangan holda ijtimoiy masalaga aylantira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Ammo bu narsaga, ko‘pincha, e‘tibor berilmaydi. Aslida, zamonaviy iqtisod bilan bog‘liq masalalar muhandislik grafikasi, fizik masalalar, amaliy matematika

va amaliy statistika bilan bog'liq. Shunday qilib, iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar yaxshi matematik statistik, shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan keng foydalanadigan bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotda matematika va raqamli texnologiyalar muhim ahamiyatga ega, chunki matematika va raqamli texnologiyalar bilan iqtisodchi mutaxassis bajarib bo'lmas og'zaki ekvivalentlar mavjud bo'lmagan operatsiyalarni bajarishi mumkin. Ko'pgina iqtisodiy tahlillar uchun matematika va raqamli texnologiyalar oddiy mulohazali nutqdan ko'ra aniqroq ko'rinadi. mutaxassislik kurslari bilan bir vaqtda, matematik statistika va informatika kurslari ham tegishli kafedralar tomonidan o'qitiladi [4.5].

Birinchi kurs iqtisodiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga umummajburiy fanlar o'tiladi. Talaba ikkinchi kursning oxiriga kelib, asosiy miqdoriy tahlil bo'yicha amaliy bilimga ega bo'lishi kerak. U vaqtgacha talabaga oraliq kurslari yoki iqtisodiyot nazariyasiga oid kurslar bilan bir qatorda, bir nechta tanlov fanlari o'tilgan bo'ladi. Pedagogik nuqtai nazardan iqtisodiyot mutaxassisligi talabasi ushbu asosiy tayyorgarlikdan so'ngina iqtisodni to'g'ri o'rganishga tayyor bo'ladi. Uchinchi kursda talaba ekonometrika va amaliy kurslarga duch keladi. To'rtinchi kurs oxiriga kelib, iqtisodchi-stajor iqtisodiy nazariyalar va ichki sezgisi bilan birgalikda empirik usullarga ega bo'lib, unga barcha bilimlar, xulosalar, loyihalar va tavsiyalar yordam beradi.

Bo'lajak iqtisodchi uchun mukammal kasbiy kompetentli ta'lim talabalarning iqtisoddagi farazlarini, dalillarni, yondashuvlarni tushunishlarini nazarda tutadi.

Yuqoridagi natijalarga erishishda talabalar uchun jiddiy saralangan testlarini o'tkazish zarurati yuzaga keladi. Yetarli tayyorgarligi bo'lmagan har qanday talaba bakalavr darajasi uchun kredit hisoblanmaydigan "tuzatish kurslar"ini o'tashi kerak. Bu degani, ba'zi talabalar uchun bakalavr darajasi besh yillik dastur (yoki undan ko'p)ga aylanadi.

Pedagogik tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot yo'nalishlarida dars beruvchi professor-o'qituvchilarining mas'uliyati, ular talabalarni analitik va miqdoriy ko'nikmalar, shuningdek, iqtisodiy loyihalarning foydali ish koeffitsiyenti haqida oldindan sezishlari kerakligini o'rgatishi kerak. Oliy ta'lim muassasalari iqtisodiy yo'nalish talabalariga kasbiy bilimlarni o'rgatishda majburiy biznes kurslari unchalik yordam bermaydi. Iqtisod fanidan o'quv dasturida ko'rsatilgan raqamli texnologiyalarga asoslangan fanlar, ya'ni, "Kompyuterlar bugungi kun talabalarining qalami va grafik qog'ozi" ekanligini aks ettirilishi kerak. Chunki raqamli texnologiyalarga asoslangan kurslarda biznes kurslariga e'tibor qaratish maqsadi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
2. Turakulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida ta'limni boshqarish. O'quv-metodik qo'llanma, T., "Fan va texnologiya", 2010, 156-bet
3. Halimboyev J., Turakulov X.A., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T., "Fan va texnologiya", 2009, 672-bet
4. Ashurova D., Yuldoshev Z. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash – zamon talabi. "Xalq ta'limi", T., 2006, 1-son, 16 – 17-betlar.
5. Turakulov X.A., Turakulov O.X. Intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari negizida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash. Monografiya, T., "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 224 bet.

Xasanova Xurshida Naimovna (Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.(PhD); x-xasanova1989@inbox.uz)
MAKTAB TA'LIMIDA KIMYO FANINI O'QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA STEAM OG'ZAKI KREATIV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktablarda kimyo fanini o'qitish jarayonidagi muammolar tahlil qilingan. Ushbu muammolarni hal qilishda zamonaviy STEAM ta'limidan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Bir nechta yangicha STEAM kreativ topshiriqlaridan namunalar keltirilgan.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются проблемы процесса преподавания химии в школах. Обоснована важность использования современного обучения STEAM для решения этих проблем. Приведены примеры нескольких новых творческих квестов STEAM.*

Annotation. This article analyzes the problems of the process of teaching chemistry in schools. The importance of using modern STEAM training to solve these problems is substantiated. Examples of several new creative STEAM quests are given.

Kalit soʻzlar: maktab, innovatsiya, taʼlim, ijodiy topshiriqlar, kreativ fikrlash, maʼlumot, texnologiya, nazariya, amaliyot, baholash, loyiha, metod.

Ключевые слова: школа, инновация, образование, творческие задания, креативное мышление, информация, технология, теория, практика, оценка, проект, метод.

Key words: school, innovation, education, creative tasks, creative thinking, information, technology, theory, practice, evaluation, project, method.

XXI asr global oʻzgarishlar asriga aylanmoqda, ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika-texnologiyalar sohasida kundan kunga yirik masshtabdagi yangiliklar va kashfiyotlar kuzatilmoqda. Bunday muhitda yashash va faoliyat yuritish, yaratilayotgan turli imkoniyatlardan toʻlaqonli foydalanish uchun, avvalambor, bilim va salohiyatga ega boʻlish, faqat mavjud bilimlarni oʻrganish va ular asosida oʻz faoliyatini tashkil qilish emas, balki izlanuvchanlik va ijodkorlik xususiyatlariga ega boʻlish va shu asosda oʻz sohasida doimo yangiliklarga intilish va ularni joriy qilish orqali oʻzi faoliyat yuritayotgan sohasining samaradorligini oshirish, jamiyatimizdagi turli yangiliklardan xabardor boʻlish va ularni oʻz faoliyatida qoʻllab borish uchun zamonaviy texnologiyalarning yuqori imkoniyatlaridan foydalana olish, ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali oʻzi uchun kerakli axborotlarni maʼlumot sifatida qabul qila olish, dunyo miqyosida muayyan jarayon va voqealar boʻyicha mulohaza yuritish va xulosalar chiqarish, oʻz dunyoqarashiga ega boʻlish kabi koʻnikmalarga ega boʻlish lozim. Bunday raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalasi maktabgacha taʼlim muassasalari, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, oliy taʼlim va oliy taʼlimdan keyingi taʼlim tizimi zanjirining har bir tarkibiy qismlarining oldida turgan birdek ahamiyatli va ustuvor vazifalaridandir. Bunday bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarga ega boʻlishda barcha fanlar qatorida tabiiy fanlarning ham oʻrni beqiyosdir. Tabiiy fanlar oʻzaro umumiy bazaviy asosga ega boʻlib, ularni mukammal bilish orqali atrofda sodir boʻlayotgan koʻplab hayotiy jarayonlarning mohiyatini tushunish, olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllay borish orqali esa insoniyat hayotini yaxshilash mumkin.

Kimyo fanini oʻqitish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammoalar sifatida quyidagilarni keltirib olamiz:

1. Fanning katta miqdordagi maʼlumotlar bazasiga ega ekanligi, serqirraligi va turli tarmoqlar, yoʻnalishlarga boʻlinishi ushbu katta hajmdagi maʼlumotlarni oʻzlashtirish jarayonini qiyinlashtiradi.

2. Kimyo fani nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy, tajribaviy, tadqiqotchilik xususiyatlariga ham egadir. Fandan oʻzlashtirilgan nazariy bilimlarni zaruriy vositalar yetarli emasligi sababli toʻliq amaliyotda qoʻllash imkonining yoʻq ekanligi oʻquvchilarga baʼzi jarayonlarni faqatgina tasavvur qilish orqaligina tushunish imkonini beradi, qolaversa, bu jarayon kelajakda oʻquvchida olgan bilimlarini turli maqsadlarda qoʻllash, kimyo fanidan turli kashfiyotlar qilish jarayonini ham qiyinlashtiradi.

3. Darslarda, aksariyat holatlarda, anʼanaviy taʼlimiy oʻqitish usullaridan foydalanilish, darslarning zerikarli boʻlishiga, oʻquvchilarda motivatsiyaning pasayishiga, sinfda oʻquvchilarni toʻliq baholash imkonini qiyinlashtiradi.

4. Aksariyat maktablarda moddiy-texnik taʼminotning yaxshi emasligi, darslarda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish jarayonini qiyinlashtiradi.

5. Kimyo darslarida oʻquvchilarning oʻzlashtirish jarayonini baholashda qoʻllaniladigan topshiriqlarning aniq yodlashga asoslangan bilimlarnigina rivojlantirishi, oʻquvchining mantiqiy fikrlash jarayonini yaxshilaydigan, kreativlikni oʻstiradigan vazifalarning kam ekanligi.

Ana shu muammolarning tezkorlik bilan, oʻz vaqtida, eng maqbul usulda bartaraf etilishi natijasida kimyo fanining, jumladan, tabiiy fanlarning oʻqitilish jarayonini yaxshilanishiga, nazariy va amaliy bilimlarning uzviy holda oʻzlashtirilishi natijasida taʼlimning sifat va samaradorligi yaxshilanishiga, kelajakda esa oʻz kasbining mukammal mutaxassislarini yetishib chiqishiga koʻmak berishi mumkin. Dars bosqichlarida jarayonning maqsadga muvofiq kechishini nazorat qilish imkoniyati, bilim berish usullari va yondashuvlarini tanlashda oʻziga xos izchillik, bunda oʻquvchilarning qiziqishlari va talablarining inobatga olinishi, berilayotgan bilimlar, usul va oʻqitish vositalarining hamda bilim berish jarayonining samarali boʻlishi maqsadga muvofiqdir.¹

¹ Stuckey Marc, Lippel Marianne, Eilks Ingo. Teaching chemistry about Stevia – a case of cooperative curriculum innovation within PROFILES in Germany. CEPS Journal 4 (2014) 1, p. 69 – 83.

I.N.Borisov kimyo fanini o'qitish metodlariga o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beruvchi vositalar sifatida qaraydigan bo'lsa, D.M.Kiryushin va V.S.Polosin o'qitish metodlarini o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishga imkon beruvchi vosita sifatida qarash kerakligini ta'kidladi. S.G.Shapovalenko fanni o'qitish metodlariga muayyan bilimlar majmuini o'rganish va tushunishga yordam beruvchi vosita ekanligini aytgan.

V.P.Garkunovning fikricha, kimyo fanini o'qitish usullari nafaqat fan bo'yicha faqat muayyan bir mavzuni o'qitish va o'zlashtirish, balki butun o'quv kursini, shu jumladan, kimyo fanini o'qitish vositalarini, o'quvchilarda kimyoviy bilimlar, ko'nikmalar tizimini shakllantirishga qaratilgan o'qituvchining faoliyatini tartibga soluvchi vosita sanaladi.

Xorijiy davlatlarda pedagogik ta'lim jarayonida zamonaviy usullar va vositalardan foydalanish, kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirish sohasida P.G.Meyer, D.A.Jacjbsen, P.Eggen, D.Kauchak, A.T.Yarachev, M.Sullivan, M.Stajanovskaya, B.Velevska, D.T.Thomas, I.Devetak, S.A.Glazar, STEM ta'limini STEAM ko'rinishiga keltirgan innovator tadqiqotchi Georgette Yakman tadqiqotlari, STEAM ta'limida dars jarayonini loyihalash sohasida Anderson C., STREAM ta'limida axborot resurslaridan foydalanishning ahamiyati borasida L.Lindberg, Deborah Ann Fields, Yasmin B.Kafai, STEAM ta'limida videoresurslar va videomateriallardan foydalanish borasida Halversen, Sheriden, Tan E., Barton A.C., Greenberg D., Buechley L., STEAM ta'limida harakatli jarayonlarning ahamiyati Jacobs J., Mako Hill B., Cohen J., STEAM ta'limida san'at va dizayn loyihalashining ahamiyati borasida Jones W.M., Smith S., Calandra B., Buechley L., Pepler K., Eisenberg M., Yasmin K.larning olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.¹

Adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yetarlicha tahlil qilingan, lekin umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish va baholash jarayonida mantiqiy kreativ topshiriqlardan foydalanishning motivatsion, psixologik asoslari, nazariy bilimlarni hayotiy jarayonlarga bog'liq holda o'qitishda uni alohida fan sifatida emas, balki tabiiy fanlar bilan yaxlit tizim sifatida mazmuni, shakl, metod va vositalarining imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

So'nggi yillarda xorijiy ta'lim tizimida o'quvchilarga nazariy va amaliy kimyoni to'liq va bir xilda o'zlashtirishga imkon beradigan zamonaviy STEAM ta'limi o'qitishning eng asosiy va muhim yo'nalishi bo'lib kelmoqda. STEAM ta'limi asosida kimyo darslarni tashkil etishda o'quvchilarni qayerda va qachon o'qitish kerakligini, ta'limni tashkil etishda o'quvchilar soni, o'quv jarayoni tashkil qilingan joy va vaqti bilan bog'liq bo'lgan ta'limga ta'sir etuvchi tashqi tomonlarni ham inobatga olishimiz lozim.

Aynan STEAM o'qitish usulining boshqa metodlardan farqli tomoni, bu metod keng qamrovli bo'lib, u olingan bilimlarni kundalik turmushda qo'llash, fanlararo bog'lanish va ularga tayangan holda kreativ fikrlashni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar, loyihalar va ko'rgazmali vositalardan foydalanishni inobatga oladi.²

STEAM o'qitish usulining o'ziga xos tomoni shundaki, bunda kimyo fanini o'qitishda fanlararo bog'lanish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan metodlar asosida kimyo fanini kreativ fikrlash asosida o'qitishga va baholashga imkon beradigan topshiriqlar tayyorlash, ya'ni, fanni hayot bilan bog'lab o'qitish hamda kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlar va ko'rgazmali loyihalar bajarish orqali o'qitish imkonini beradi. STEAM ta'limida og'zaki o'qitish va baholashga imkon beradigan metodlar talaygina. Quyida og'zaki bir nechta qiziqarli yangicha kreativ topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Ushbu metodning o'ziga xosligi shundaki, unda, birinchi navbatda, fanlararo bog'lanishga asoslangan. O'quvchilar bir fandan olgan bilimlarini boshqa fanda qo'llash orqali nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga imkon beradi.

1-topshiriq. "Kimyoda antonimlar" o'yini. Ona tili fanida antonimlar tushunchasi bor. Ushbu tushuncha mazmun jihatidan bir-biriga zid bo'lgan moddalar tushuniladi. Bunday tushunchalar kimyoviy atamalar orasida ham bor. O'quvchilarga kimyo fanidan antonimlarni topishni o'rgatish fanni adabiyot bilan bog'lab o'qitishga yordam beradi. Qolaversa, ona tili fanidan ba'zi qoidalarni takrorlash uchun yordam beradi.

1. Gidratlanish-Degidratlanish.
2. Hidrogenlanish-Degidrogenlanish.
3. Polimerlanish-Depolimerlanish.

¹ Учебные и методические материалы для учителя химии-<http://school-collection.edu.ru/catalog/teacher>.

²A.Nistor, A.Gras-Velargues, N.Billon, G.Mihal. The community for science education in Europe. Texas, 2018, p. 80.

4. Anod-katod.
5. Anion-kation.
6. Musbat-manfiy.
7. Metall-metallmas.
8. Asos-kislota.
9. Kislotali-ishqoriy.
10. Kuchli-kuchsiz.

2-topshiriq. “Oxirgi harf” metodi. O‘qituvchi bir guruh o‘quvchilarga noma’lum elementning nomini aytadi. O‘quvchilar esa oxirgi harfi shu harf bilan tugaydigan elementlar qatorini topadilar. Ushbu metod 7-sinf o‘quvchilarida kimyoviy elementlarning nomini yodda saqlashga yordam beribgina qolmasa-da, o‘quvchida tezkorlik, topag‘onlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga ham yordam beradi.

1-topshiriq. Oxirgi harfi “N“ harfi bilan tugaydigan 4 tadan elementni ayting.

Argon, neon, ksenon, radon.

Ushbu metodni guruhlar orasida yoki individual tarzda amalga oshirish mumkin.

3-topshiriq. “Kimyoviy omonimlar”. Ushbu og‘zaki organayzer, fanlararo bog‘lanish prinsiplariga asoslangan bo‘lib, unda ona tili va kimyo fani orasida bog‘lanishga asoslanadi. Shakldosh so‘zlar deganda, yozilish shakli bir xil bo‘lgan, biroq mazmuni turlicha bo‘lgan so‘zlar guruhiga aytiladi.

“Uran” kimyoviy element nomi. – “Uran” sayyora.

“Yod” kimyoviy element nomi. – “Yod” xotira ma’nosida.

“Bor”-kimyoviy element nomi. – “Bor” bormoq ma’nosida keladi.

4-topshiriq. “Tamommi?” o‘yini. Biror modda haqida shu moddani topishga ko‘mak beradigan bir qancha kalit vazifasidagi fikrlar aytiladi, so‘ngra o‘quvchidan “Tamommi?” deb so‘raladi. O‘quvchi davom ettirishi lozim. Masalan:

1. Tarkibida oltingugurt mavjud bo‘lgan kislotalar: sulfid kislota, sulfit kislota, sulfat kislota. Tamommi?

Javob. Tiosulfat, persulfat, diton kislotasi, Karo kislotasi kabi tarkibida oltingugurt mavjud bo‘lgan kislotalar bor.

Bu metod og‘zaki metodlar orasida o‘quvchida ijodkorlik, topag‘onlik va xotirani rivojlantiruvchi metodlardan sanaladi.

STEAM yo‘nalishida tayyorlangan topshiriqlar o‘quvchida kreativ fikrlar va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi:

1. Kashfiyotchilik, muammoli vaziyatlarda noodatiy, stereotipik, favqulotda xilma-xil g‘oyalar asosida muammolar yechimini topa olishga yordam beradi.

2. Yangi va qiziqarli ma’lumotlarni tinimsiz izlashga tayyorgarlik va qiziquvchanlikni rivojlantiradi.

3. Ijodiy fikrlash asosida obrazli tasavvur darajasi nihoyatda keng, mavjud va mavjud bo‘lmagan holatlar borasida chuqur fikr va mulohaza yuritish ko‘nikmasini shakllantiradi.

4. Ijodiy qobiliyatni intellektual salohiyatning natijasi bilan bog‘lagan holda mushohada yuritishga imkon beradi.¹

Yuqorida olib borilgan tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni keltiriladi:

1. Kimyo darslarida mavzuni mustahkamlash qismida o‘quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan muamoli topshiriqlardan foydalanish lozim. Bu holat o‘quvchilarni faqat yod olishga asoslangan usuldan ko‘ra, tushunishga asoslangan afzalroq usuldan foydalanishga olib keladi.

2. Barcha beriladigan ma’lumotlar kundalik turmushda qo‘llanilishi asosida tushuntirish, o‘quvchining kelajakda turli hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllanishida qo‘l keladi.

3. O‘quvchiga beriladigan topshiriqlar loyihaviy ko‘rinishda mustaqil tarzda bajariladigan bo‘lishi kerak. Shunda ular fanlararo olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda, hech kimning yordamsiz topshiriqlarni bajarishga yordam beradi. Bu holat ularda kelajak hayotda ham turli hayotiy muammolarda mustaqil yechim topishga yordam beradi.

¹ Мычко Д.И. Инновационные образовательные стратегии на уроках химии: пособие для учителей учреждений общ. сред. образования. Д.И.Мычко, Е.А.Сеген. Минск, “Адукацыя і выхаванне”, 2014, с. 296.

**Mamarajabov Shavkat Ergashevich (Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti dotsenti, p.f.n.),
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li (Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi)
O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описаны возможности использования педагогических технологий в развитии креативного мышления учащихся в процессе обучения.

Annotation. This article narrated about the possibilities of using pedagogical technologies in the development of creative thinking in the learning process.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, ijodiy potensial, pedagogik texnologiya, ta'lim metodlari.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, творческий потенциал, педагогическая технология, методы обучения.

Key words: creativity, creative thinking, creative potential, educational technology, teaching methods.

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bu ta'lim oluvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, pedagogdan mazkur vazifani hal etish uchun turli metodlardan samarali foydalanish lozimligini taqozo etadi.

Shaxsning ijodiy potentsiali va kreativ fikrlashi quyidagi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin:

- muammolar va qarama-qarshiliklarni mustaqil ko'rishi;
- har qanday muammoni shakllantirish va tahlil qilish, ularga yechim topish ko'nikmasi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni, o'quv faoliyati usullarini yangi o'quv vaziyatlariga qo'llay bilishi;

- tanish obyektlarning yangi tomonlarini ko'ra bilish ko'nikmasi;

• ilgari o'zlashtirilgan faoliyat usullarini yangilari bilan uyg'unlashtirish, sintezlash ko'nikmasi va boshqalar.

Shu bilan birga, ushbu ko'nikmalar har doim ham tug'ma bo'lmasdan, ularni maxsus texnologiyalar yordamida maqsadga muvofiq holda shakllantirish mumkin. Bu holda shaxsning kreativ fikrlashini rivojlantirishning quyidagi texnologiyalari eng samarali hisoblanadi:

♦ faol o'qitish texnologiyasi (sinektika metodi, morfologik tahlil metodi, guruhli munozara, aqliy hujum va boshqalar);

♦ ijodiy loyihalash texnologiyasi;

♦ tadqiqotchilik foliyati texnologiyasi;

♦ ixtirochilik masalalarini yechish texnologiyasi (TRIZ);

♦ ijodiy topshiriqlarni yechish texnologiyasi;

♦ interfaol o'yin texnologiyalari (treninglar);

♦ o'yin texnologiyalari (ishbilarmonlik, rolli, imitatsion o'yinlar);

♦ artefakt-pedagogika va boshqalar.

“Aqliy hujum” va “sinektika” metodlari psixologik zo'riqishni yo'qotish imkonini beradi va qisqa vaqt ichida maksimal miqdordagi yangi g'oyalarni olish imkonini beradi. “Aqliy hujum” metodi eng aql bovar qilmaydigan, hatto kulgili fikrlarni bayon etish, muhokama davomida ularni tahlil qilish va tuza-tish, amalga oshirish yo'llarini topish imkonini beradi.

“Sinektika” metodi (muallif Uilyam J.Gordon) ijodkorlikning ikkita turini ajratishga asoslangan:

♦ operativ bo'lma (boshqarilmaydi)gan – intuitsiya, ilhomlanish;

♦ operativ (boshqariladigan) – turli xil analogiyalardan foydalanish.

Agar bolalarning turli analogiyalarni qo'llashga maqsadga muvofiq o'rgatilsa, ularning ijodiy fikrlashini ham faollashtirish mumkin. Buning uchun dastlab o'quvchilarni ijodiy usullarga, eng avvalo – analogiyaning turli: to'g'ri, fantastik, ramziy va boshqa shakllariga o'rgatish lozim. Maqsadga yo'naltirilgan faoliyat natijasida o'quvchilar tevarak atrofdagi qarama-qarshiliklarni sezishni o'rganadilar va ularning yechimini topishga harakat qiladilar.

Yangi bilimlarga qiziqishni rag'batlantirish allqachon m'lum bo'lgan narsalarni ajratib olish va yuzaga kelgan savollarga aniqlik kiritish orqali sodir bo'ladi. Yuzaga kelgan savollar yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltiradi. Shunga muvofiq ravishda o'qitishning birinchi bosqichi – chorlash – ishning keyingi bosqichlarida taklif etiladigan axborotlar va jarayonlarga tayyorlashni amalga oshiradi. Bu

bosqich ikkinchi bosqichda o'rganiladigan yangi materialni bilishga bo'lgan motivatsiyani hosil qilish va kuchaytirish imkonini beradi.

Tushunish bosqichi yangi materiallarni kiritilishini o'z ichiga oladi.

So'nggi bosqich–refleksiya (fikrlash) muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan unda ijodiy rivojlanish, o'zlashtirilgan axborotlarni tushunish ro'y beradi.

O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning yana bir shartlaridan biri ta'lim jarayoniga interfaol texnologiyalarni joriy etish bo'lib, u o'quvchilarning o'zaro bir-biriga ta'sir etish imkonini beradi. Interfaol texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin: interfaol ma'ruza, juftliklarda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, trening mashg'ulotlar va boshqalar.

Faol ta'lim texnologiyalari o'quvchining bilish faoliyatini rag'batlantiradigan, har bir o'quvchini aqliy va xulq-atvor faoliyatiga jalb qiladigan metodlarni o'z ichiga oladi.

Ular har bir o'quvchi tomonidan mavjud bilimlarni tushunish, ishlab chiqish, boyitish va qabul qilishga qaratilgan. O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning eng samarali texnologiyalaridan biri bu TRIZ-pedagogika. TRIZ-pedagogikaning asosiy maqsadi – o'quvchilarni ochiq (evristik, ijodiy, hayotiy) masalalarni yechishga o'rgatishdan iborat. Ochiq masalalar bolalarni kreativ, tizimli, mantiqan fikrlash, maktab fanlarini o'rganishda o'zaro bog'lanishni ko'rish va olamni anglashga imkon beradi.

Kreativlikni rivojlantirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri evristik metodlarni qo'llash hisoblanadi. Tavsiya etilgan evristik metodlarning birinchi guruhiga o'quvchilarning muammoni ko'rish va shakllantirish, uning yechimini topish va topilgan yechimni tekshirish qobiliyati bilan bog'liq usullar kiradi. Ushbu metodga inversiya usuli, ko'p o'lchovli matritsalar usuli, uyushgan strategiyalar usuli va boshqalar kiradi.

Ikkinchi guruhga yechimni izlab topish bosqichiga mos keladigan evristik usullar kiradi, bunda muammoni hal qilishga qaratilgan texnologiyalarni tanlash va yoki qidirish amalga oshiriladi. Buning natijasida o'quvchilarda turli g'oyalarni generalizatsiyalash va ishlab chiqish qobiliyati, ya'ni, kreativlik sifatleri: ravonlik, egiluvchanlik va original fikrlash, g'oyalarni batafsil qayta ishlash qobiliyati rivojlanadi. Mazkur guruhga aqliy hujum va uning ma'lum modifikatsiyalari (qaytar aqliy hujum, individual aqliy hujum va boshqa) kiradi.

Yechimni tekshirish bosqichiga muvofiq keladigan uchinchi guruh metodlariga qo'llanilgan texnologiya vositalarining imkoniyatlari va funksiyalarini taqqoslash orqali ularning samardorligini tahlil qilish qobiliyati bilan bog'liq usullar kiradi, ya'ni, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati kabi sifatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Bu metodlarga evristik savollar va evristik kuzatish usullarini kiritish mumkin.

Loyiha texnologiyasi an'anaviy ravishda ijodiy va izlanish xarakteridagi muammolarni hal qilish, kreativ fikrlashning asosi bo'lgan vazifaga muvofiq o'quv faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Aynan loyiha jarayonida o'quvchilar natijaga erishish usullari samardorligini baholash, optimal variantni tanlash va o'z tanlovini izohlashga o'rganadilar.

Loyiha faoliyatini rejalashtirishning o'zi o'quvchilarni maqsadlarni belgilash, o'quv loyhasini amalga oshirish vaqtida o'quv jarayonini tahlil qilish hamda boshqarish va uni yakunida mulohaza yuritishda hamkorlikdagi faoliyatga jalb qilishga qaratilgan.

O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish nuqtayi nazaridan eng muvaffaqiyatlaridan biri – bu ijodiy jarayonni muayyan vizualizatsiya usullari, masalan, infografikadan foydalanish bilan birga olib boriladigan usullardir. Infografikadan foydalanishning didaktik samarasi, avvalombor, ishtirokchilarning barcha kommunikativ va bilish faoliyati belgili-ramziy xarakterga egaligi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, vizual tasvirlar so'zga qaraganda mustahkamroq ongga ta'sir etadi va unda saqlanib qoladi. Ta'lim jarayonida axborot uzatilishining verbal shaklidan ramziy (simvollar, grafiklar, fotosuratlar, rasmlar va boshqalar) shaklga o'tkazilishining maqsadga muvofiqligi shu bilan tushuntiriladi. Shuningdek, kreativ fikrlashning rivojlanishi, har qanday aqliy operatsiyalar (taqqoslash, tahlil qilish, umumlantirish, tartiblash, tizimlashtirish, tasniflash va b.) axborotlarni vizual idrok etishning eng oddiy operatsiyalariga asoslanadi va ularsiz amalga oshirilmaydi. Bu jihatda infografikani o'rganishni tashkil etish unda qo'llaniladigan tasvirlarni izohlash usullarini egallash (turli ramziy belgilar: grafiklar, sxemalar, diagrammalar va boshqalarga ega bo'lgan mavjud modellarni verbal darajaga o'tkazish)ning samardorligi juda muhimdir. O'quvchilarning kreativ faoliyatining kvintessensiyasi infografikani, masalan, qandaydir o'quv faoliyatining natijasi bo'yicha yoki loyihaviy faoliyat natijasining va mahsuli sifatida yaratish hisoblanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha pedagogning metodik to'plamiga ijodiy qobiliyatlarni diagnostika qilish metodikasi va metodlari ham kirishi lozim. Ta'lim muassasasida o'quvchilarning ijodiy salo-

hiyatini aniqlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha sharoitlar yaratish, ularning kreativligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli faoliyatni o'z ichiga olgan moslashuvchan ko'p bosqichli tizim yaratilishi lozim.

Davrning yangi muammolarining paydo bo'lishi ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida ta'lim mazmuni, uni amalga oshirish sharoitlari va natijalariga yangidan yangi talablarni qo'yadi.

Kreativ fikrlashni shakllantirish faqat sinf-dars tizimi asosida, hatto turli innovatsion pedagogik modellar va texnologiyalarni faol tatbiq etilgan taqdirda ham mumkin emas. Shuning uchun o'quvchining ta'limiy natijasi darsdan tashqari faoliyat dasturini ishlab chiqish uchun mazmuni va mezoniy asos hisoblanadi. Darsdan tashqari faoliyat shaxsni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha (ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy-sport va salomatlik, ijtimoiy, umumintellektual, umummadaniy) quyidagi shakllarda tashkil etiladi: to'garaklar, badiiy studiyalar, sport klublari va seksiyalari, yoshlar tashkilotlari, o'lkashunoslik ishlari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, olimpiadalar, ilmiy tadqiqot va izlanuvchilik, jamiyatga foydali amaliyotlar, harbiy-vatanparvarlik birlashmalari va h.k. Darsdan tashqari faoliyatni tashkil etish shaklini ta'lim tashkilotini o'zi mustaqil ravishda o'quvchilar va ota-onalar (qonuniy vasiylari)ning talabi, ehtiyoj, qiziqishlarini e'tiborga olgan holda belgilaydi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'z mohiyatiga ko'ra, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun ularni turli faoliyat turlariga jalb qilish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi, ularning shaxsiy va kasbiy o'zini-o'zi belgilashi, ularning qadriyatlar tizimini, faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

Ta'lim oluvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni o'z ichiga oluvchi tizim moslashuvchan va ko'p darajali bo'lishi lozimligini pedagogik jamoaga eslatib o'tish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Торшина К.А. Современные исследования проблемы креативности в зарубежной психологии. "Вопросы психологии", 1998, № 4, с. 123 – 132.
2. Хуторской А.В. Развитие одаренности школьников. Методика продуктивного обучения. Пособие для учителя, М., Гуманит. изд. центр "ВЛАДОС", 2000, 320 с.
3. Hallmann R.J. The necessary and sufficient conditions of creativity. Creativity: its educational implications. Sidney, 1967.
4. Мамаражабов Ш.Э., Сатторов В.Н., Жабборова Г.К. Талаба шахсида креативлик сифатларини ривожлантиришнинг самарали йўллари. "Фан, таълим, ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида пахта тозалаш, тўқимачилик, енгил саноат, матбаа ишлаб чиқариш инновацион технологиялари долзарб муаммолари ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами, ТТЕСИ, Т., 2018, 438–442-бетлар.

Yarashev Komiljan Dexkanovich (O'zDJTSU professori, p.f.n.)

JISMONIY TARBIYA VA SPORT IXTISOSLIGIDAGI TALABALARNI TASHKILOTCHILIK FAOLIYATLARIGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK JARAYONNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan talabalarni tashkiliy faoliyatga tayyorlashda pedagogik jarayon elementlarining roli yoritilgan.

Аннотация. В статье описывается роль элементов педагогического процесса при подготовке к организаторской деятельности студентов специализации физическая культура и спорт.

Annotation. The article describes the role of the elements of the pedagogical process in preparation for the organizational activities of students specializing in physical culture and sports.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, shaxsni rivojlantiruvchi texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi talabalari.

Ключевые слова: дистанционное образование, личностно-ориентированные технологии, педагогические технологии, студенты специализации физическая культура и спорт.

Key words: distance education, student-centered technologies, pedagogical technologies, students of specialization in physical culture and sports.

Bilim, ko'nikma va malakalar mutaxassislar tayyorlashning innovatsion usullarining asosidir. Talabalar pedagogik jarayon natijasida bilim oladilar. Bularning barchasi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'qituvchilar bilan muloqot qilish jarayonida yoki mustaqil ravishda olishadi, ayniqsa, "masofaviy ta'lim" yoki "virtual ta'lim" haqida gap ketganda muayyanlashadi.

Ushbu turdagi ta'lim hozirgi kunda zamonaviy ta'limda juda keng qo'llaniladi. Bu dunyodagi epidemiologik vaziyat tufayli dolzarb bo'lib qoldi. Gap, birinchi navbatda, yaxshi, didaktik jihatdan mukammal darsliklar yaratish haqida bormoqda. Ularning mazmuni, tuzilishi va shakli, birinchi navbatda, o'quvchining o'qituvchi va kursdoshlaridan ajratilishini hisobga olishi kerak. Shu bilan birga, "talaba kursdagi asosiy narsani, albatta, o'zlashtirishi kerak bo'lgan narsani osongina ko'rishi kerak, bu asosiy narsa yengillik bilan ajralib turadi, ehtimol, ko'p marta va turli yo'llar bilan".

Talabalarning mustaqilligiga qaramay, ko'pincha "virtual" deb ataladigan bunday mashg'ulotlar "kafedraning yuqori malakali professor-o'qituvchilari" mavjudligini talab qiladi. Bu nafaqat aniq darsliklarni yozish, balki talabalarga maslahat berish va bilimlarni nazorat qilish bilan ham bog'liq. Ikkinchisi (masofaviy o'qitish sharoitida) juda ko'p muammolarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun "ta'lim tizimini shunday o'zgartirish kerakki, nazorat o'quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi bo'lmay qoladi va o'quvchilarning bilim izlashga qiziqishi bilan almashtiriladi".

Bu yerda biz faqat shaxsiyatni rivojlantiruvchi ta'limga keldik. Mutaxassislarning adolatli fikriga ko'ra, talabalar ikki xil ta'lim oladilar:

- ◆birinchidan, ular tanlagan mutaxassislik doirasida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar;
- ◆ikkinchidan, ularga ijodiy, mustaqil fikrlaydigan, har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib yetishish imkoniyati beriladi. Buning uchun ular faqat ma'ruza yoki seminarlarda qatnashmasliklari kerak.

Ustoz bilan muloqot qilish juda muhim, uni tinglaganingizdan so'ng siz o'zingizni harakatga keltira olasiz. Biz o'qituvchining shaxsiyati haqida gapiramiz, u bilan muloqot sizga dunyo qiyofasini o'zgartirish, uni yangi elementlar bilan boyitish imkonini beradi.

Dunyo qiyofasi – bu insonning dunyo, boshqa odamlar, o'zi va faoliyati haqidagi g'oyalarining yaxlit ko'p bosqichli tizimi. Bu universitet ichidagi ta'lim va shaxsiy rivojlanish nuqtayi nazaridan katta (asosiy) ahamiyatga ega.

Kundalik o'quv harakatlarida o'quvchilarning dunyo, undagi hayot tarzi haqidagi konseptual qarashlarini shakllantiradigan o'qituvchidir. U shaxsiy va kasbiy o'sish sohalarini belgilaydi, konstruktiv xatti-harakatlarning tasvirlarini namoyish etadi, rivojlanish jarayonini tabiat tomonidan dasturlashtirilgan xatolarni tuzatishga yo'naltiradi.

Dunyo qiyofasi rivojlanib borar ekan, u shaxsning o'ziga borgan sari o'xshash bo'lib boradi. Tobora yaxlit voqelik ongda aks etar ekan, u inson ruhiyati (hissiyotlari) doirasiga tobora chuqurroq kirib boradi.

Rivojlanayotgan shaxs, go'yo o'ziga chuqurroq "qarang", qo'rquv, qaramlik yoki biror narsani yo'qotish hissi sifatida hayotda tobora muhim rol o'ynay boshlaydi. Bu qo'rquv asosan pedagogik jara-yonning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Bu "odamning nomukammalligidan qo'rqish" yoki hayotimizning nomukammalligidan qo'rqish haqida bo'lishi mumkin. Bunday tuyg'u odamni tobora faol hayotiy pozitsiyani egallashga majbur qiladi. Bu, birinchi navbatda, pedagogik jarayonga, o'qituvchining (oliy ta'lim muassasa o'qituvchisi) shaxsiyati bilan muloqotga taalluqlidir.

Bunday qo'rquvni "qiziqish qo'rquvi" deb atash mumkin. Buni talaba bilimini baholash bilan bog'liq qo'rquvdan farqlash kerak (uning shaxsiyatni rivojlantiruvchi ta'lim sharoitida uning qiymati universitetda talabalarni o'qitishning an'anaviy shakllariga qaraganda kichikroq).

S.I.Gessenning fikricha, shaxsni rivojlantiruvchi tarbiyaning eng muhim tamoyillari erkinlik va burchdir. Uning fikricha, ta'limning maqsadi nafaqat o'quvchini insoniyatning madaniy, shu jumladan, fan yutuqlari bilan tanishtirishdir. Uning maqsadi ham (yoki bir vaqtning o'zida) yuqori axloqiy, erkin va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdir. Bu "faqat shaxsiy vazifalar ustida ishlash orqali erishiladi".

Erkinlik – bu dunyoda ilgari bo'lmagan yangilikni yaratish. Burch – bu o'z burchlarini so'zsiz bajarish (intizom erkinlik orqali, erkinlik esa burch qonuni orqali mumkin). Ikkalasi ham qo'rquvni "oziqlantiradi" oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayon bilan chambarchas bog'liq.

Shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim (yoki boshqacha qilib aytganda, "hamkorlik pedagogikasi") g'oyasini hamma talabalar ham to'liq qo'llab-quvvatlamasligi bejiz emas. Biz so'rov o'tkazgan talabalar orasida bunday talabalar 67%. Qolgan 33 foizi oliy ta'limda asosiy rol "talablar pedagogikasi"ga tegishli bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Boshqacha aytganda, har bir universitet talabasi "erkinlik va burch yukini" o'z zimmasiga olmaydi. O'qituvchining talablariga bo'ysunish osonroq (ayniqsa, ular ham adolatli bo'lsa).

"Pedagogik texnologiya" tushunchasi bugungi kunda an'anaviy pedagogikada, umuman, qabul qilinmagan. UNESKO hujjatlarida ta'lim texnologiyasi ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan tex-

nik va kadrlar resurslari hamda ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, o'qitish va o'qitishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli sifatida qaraladi.

Bir tomondan, ta'lim texnologiyasi – bu o'quv ma'lumotlarini qayta ishlash, taqdim etish, o'zgartirish va taqdim etish usullari va vositalari yig'indisi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu o'qituvchining o'quv jarayonida o'quvchilarga kerakli texnik yoki ma'lumotlardan foydalangan holda, qanday ta'sir qilishi haqidagi fandi. anglatadi. O'qitish texnologiyasida o'qitishning mazmuni, metodi va vositalari o'zaro bog'liqdir. O'qituvchining pedagogik mahorati – to'g'ri mazmuni tanlash, dastur va ta'lim maqsadlariga muvofiq o'qitishning eng yaxshi usul va vositalarini qo'llashdir.

O'qitish texnologiyasi tizimli toifa bo'lib, uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ◆o'quv maqsadlari;
- ◆trening mazmuni;
- ◆pedagogik o'zaro ta'sir vositalari;
- ◆o'quv jarayonini tashkil etish;
- ◆talaba, o'qituvchi;
- ◆faoliyat natijasi.

Pedagogik texnologiyaning manbalari sifatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar yutuqlari, ilg'or pedagogik tajriba, xalq pedagogikasi, o'tmishda mahalliy va xorijiy pedagogikada to'plangan barcha eng yaxshi narsalardir.

Pedagogik tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uning barcha tarkibiy qismlarini puxta o'ylangan “nosozliklarni tuzatish” kerak. Har qanday zamonaviy pedagogik texnologiya pedagogika fani va amaliyoti yutuqlarining sintezi, o'tmish tajribasining an'anaviy elementlari va ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish natijasida tug'ilgan narsalarning kombinatsiyasidir.

Turli ijrochilarning qo'lidagi bir xil texnologiya har safar har xil ko'rinishi mumkin: bu yerda ustaning shaxsiy komponentining mavjudligi, talabalar kontingentining xususiyatlari, ularning umumiy kayfiyati va sinfdagi psixologik iqlimi muqarrar. Xuddi shu texnologiyadan foydalangan holda, turli o'qituvchilar tomonidan erishilgan natijalar har xil bo'ladi, lekin ko'rib chiqilayotgan texnologiyani tavsiflovchi o'rtacha ko'rsatkichga yaqin. Ya'ni, pedagogik texnologiya shaxs xususiyatlari bilan vositachilik qiladi, lekin ular bilan belgilanmaydi.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi “ta'lim usullari” tushunchasidan kengroqdir. Texnologiya savolga javob beradi ta'sir qilish maqsadlariga qanday erishish mumkin, bu jarayonni boshqarishdir. Texnologiya oldindan rejalashtirilgan o'quv jarayonini amaliyotga izchil tatbiq etishga qaratilgan.

Pedagogik texnologiyani loyihalash muayyan shart-sharoitlar uchun pedagogik texnologiyalarning optimal tizimini tanlashni nazarda tutadi. Bu shaxsning individual xususiyatlarini o'rganishni va o'quvchilarning rivojlanish yosh bosqichiga va ularning tayyorgarlik darajasiga mos keladigan faoliyat turlarini tanlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Скрипник К.Д. Управленческая деятельность: структура, функции, навыки персонала. М., издательство “ПРИОР”, 1999, 186 с.
2. Старобинский Э.Б. Основы менеджмента на коммерческой фирме. М., 1994, 218 с.
3. Чернов К.Л., Кузнецов В.К. Подготовка кадров для спорта и физической культуры в условиях рыночной экономики. “Теория и практика физической культуры”, 2014, № 12, с. 28 – 32.
4. Таунсенд Р. Секреты управления. Пер. с англ., М., “Интерконтакт”, 2008, 324 с.
5. Галеева Н.А. Особенности деятельности по формированию организаторских способностей студентов в высшем учебном заведении [текст]. Вестник Хакасского государственного университета им. Н.Ф. Катанова. Серия 2. Педагогика. Психология. Выпуск 2, отв. ред. Л.А. Миндибекова, Абакан, издательство Хакасского государственного университета им. Н.Ф. Катанова, 2004, с. 39.

Jiemuratova Gulxan O'temuratovna (Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatishmilliy markazi katta o'qituvchisi) GEOGRAFIYA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Geografiya darslarida ta'lim vositalarining majmuyi qo'llash metodlari va ularning tavsifi to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim vositalari bilan o'qitish samaradorligini oshirish usullari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы коллективного применения учебных средств и их описание на уроках географии. Также представлены методы повышения эффективности обучения с помощью современных образовательных инструментов.

Annotation. This article is about the methods of collective use of teaching aids and their description in geography lessons. Methods for improving the effectiveness of training with the help of modern educational tools are also presented.

Kalit soʻzlar: milliy dastur, QR-kod, elektron resurslar, geografiya taʼlimi vositalari, oʻqitish vositalari, LearningApps platformasi.

Ключевые слова: национальная программа, QR-код, электронные ресурсы, инструменты обучения географии, средства обучения, платформа LearningApps.

Key words: National program, QR code, e-resources, geography learning tools, learning tools, Learning Apps platform.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida taʼlim jarayonida zamonaviy islohotlarning joriy etilishi har bir oʻqitish predmetining oʻrganuvchi tomonidan natijali oʻzlashtirishi uchun taʼlim-tarbiya jarayonida qoʻllaniladigan zamonaviy innovatsiyalar, interfaol oʻqitish qurollari va kompetensiyaviy munosabat asosida informatsion texnologiya qurollaridan foydalanish, oʻqituvchining kasbiy kompetentligi, oʻquvchilarning intellektual darajasiga bogʻliq masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bugungi kunning talablardan biri ortiqcha sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir.

Milliy taʼlim dasturining amalda joriy etilishi asosida geografiya fanini oʻqitish jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish boʻyicha quyidagi tadbirlar koʻrsatilgan.

◆zamonaviy raqamli texnologiyalar va taʼlim texnologiyalarining integratsiyalarini taʼminlash, bu boʻyicha pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratish, geografiya fani boʻyicha elektron darsliklarni mobil aloqa qurollariga yuklab olish va koʻchirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida taʼlimning metodik komplekslar (innovatsion darsliklar, oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma, darsliklarning multimediali ilovalari) haqidagi joylashtirish sistemasini yaratish;

◆oʻquvchilarni qoʻshimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shaklida xabardor qilib turish, zamonaviy informatsion-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofadan taʼlim qurollarini tashkil etish;




◆masofadan foydalanish imkonini beruvchi elektron kitobxona tizimiga geografiya fani boʻyicha ishlab chiqilgan taʼlimiy-metodik komplekslarini, elektron taʼlim resurslarini joylashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish, taʼlim jarayonida elektron resurslar hissasini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron adabiyotlar yaratish, ularni mobil aloqa qurilmalariga yuklab olish maqsadida QR-kod bilan elektron resurslar haqidagi xabarlarini joylashtirish tizimini yaratish va undan foydalanishni yoʻlga qoʻyish [1].

Bu koʻrsatilgan tadbirlarni amalga oshirishda bilim beruvchida informatsion texnologiyalar boʻyicha bilimi yetarli boʻlishi kerak va uzluksiz oʻz ustida ishlashni talab etadi. Sababi darsliklarni samarali oʻqitishda informatsion texnologiyalarning hissasi juda katta. Shuning uchun ham, dastlab, pedagog kadrlarning oʻzlari bu imkoniyatlarni yuqori darajada oʻzlashtirishi va foydalana olishi lozim. Fanlarni oʻqitishda qoʻllaniladigan informatsion texnologiyalar texnik va anʼanaviy qurollarni yaratish va ishlov berish texnologiyalari, shaxsiy elektron taʼlim resurslarini yaratish, fanlar boʻyicha elektron oʻqish kurslarini rejalashtirish, oʻquvchilar bilimini baholash tizimlari, internet texnologiyalari, masofadan oʻqitish texnologiyalari va uni tashkillashtirish usullaridan foydalanish, videokonferensiya, online ochiq kurslar (Coursera, edX, Khan Academy, MIT Open Course Ware)ni tashkillashtirish kabi bilimlarni talab etadi. Bu bilimlarni rivojlantirish orqali umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi har bir oʻqituvchi oʻquvchilarga dars davomida ilmiy bilimlarni berish bilan birga, ularda keng dunyoqarashni paydo etish, oʻylash va mustaqil fikrlash koʻnikmalari orqali bilimga boʻlgan qiziquvchanligini rivojlantirib boradi [2].

Bunda, birinchi navbatda, oʻqituvchining oʻzidan koʻp masʼuliyat talab etiladi. Sababi informatsion texnologiyalardan foydalanish mahoratini orttirish uchun geografiya fani oʻqituvchilari har xil saytlar bilan dasturlarningning imkoniyatlari haqida maʼlumotlarga ega boʻlishi kerak. Bu resurslar oddiy usullarga qaraganda multimediali, oʻquvchida bilim olishga boʻlgan qiziqishni uygʻotadigan, topshiriqlar bajarish, izlanish davomida yordamchi qurol boʻla oladigan platformalar boʻlib hisoblanadi [3].

Bunday platformalarning ichida oʻquvchining olgan bilimni baholashda qoʻllaniladigan platformalardan oʻqituvchilar keng doirada foydalanmoqda. Masalan, shunday platformalardan biri LearningApps platformasidir. Bu platforma yordamida oʻqituvchi oʻquvchilarning oʻzlashtirgan bilimlarini mustahkam-

lashda foydalana olsa bo'ladigan interfaol, multimediali, elektron trenajor mashqlar yarata oladi. LearningApps servisinde "Pazllar", "Jubingni tab", "Moslashtiring", "Tartibga soling", "Krossvord" turdagi interaktiv topshiriqlar konstruktori hisoblanadi. Bu konstruktorda yaratilgan mashqlar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini, qiziqarli, oyin formasida sinab k'rishini va mustahkamlashi mumkin. Yana bir afzalliklaridan biri platforma har bir fan o'qituvchisi uchun qulay. Bu degani barcha fan o'qituvchilari o'z fanlaridan har xil shakldagi mashqlar yarata olish imkoniyati bor. Shuningdek, yaratgan mashqlarining havolalarini o'qituvchilar shu vaqtning o'zida telegram guruhlari orqali yoki kundalik.com platformasi orqali uyga vazifa bo'limida joylashtirib, o'quvchilarga taqdim etadi. Shuning bilan birga, bu o'qituvchilarimiz bugungi kunda o'z pedagogik faoliyatida keng ko'lamda foydalanayotganligini, darslarning yana ham qiziqarli va samarali bo'layotganligi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziquvchanligi ortib borayotganligi bilan ko'rishimiz mumkin. Masalan, mazkur platformalarda geografiya darslarida foydalanish uchun yaratilgan oddiy bir mashqni ko'rsatib o'tmaqshimiz.

| | |
|---|---|
|  | Moslikni aniqlang. |
|  | Jadvalnito'ldiriring. |
|  | Mos so'zlar bilan ma'lumotlarni to'ldiring. |


Shunday qilib, LearningApps.org platformasi geografiya darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Dars davomida olgan bilimlarini tizimlashtiradi.
- Tez xulosa qilishga o'rgatadi.
- Topshiriqni bir necha marta bajarish orqali yaxshi natijaga erishadi.
- Umumiy ta'limga bo'lgan motivatsiya paydo qiladi.
- Qayta munosabat o'rnatadi, o'z-o'zini baholaydi.
- Mustaqil bilim olish ko'nikmasi shakllanadi.
- Mustaqil ishini shaxsiy kompyuterlar, planshet, uyali telefon yordamida tashkillashtira oladi.


Darsda interfaol texnologiyalardan samarali foydalanish mas'uliyat bilan ijodkor shaxsni shakllantirishga olib keladi.

Bundan tashqari, geografiya darslarida "Tarsiya Pazl" dasturidan ham foydalanish imkoniyati mavjud. Tarsiya dasturi asosida tuzilgan pazllardan yangi mavzuni o'rganishda, o'tilgan mavzuni takrorlash-

da, yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Faqat o'qituvchilarimiz bu pazldan foydalanishda bugungi kuni electron dasturlardan foydalanish, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishlari lozim.



“Tarsiya” ko‘rinishi.



Tarsiyaning hosil bo'lishi.

O'qitishda ko'rsatmalilik o'quvchilarning geografik tasavvur doiralari kengayishiga, mavzuning tushunarli bo'lishiga va puxta o'zlashtirilishiga imkon beradi. Turli o'quv ko'rsatmalari, asboblarning geografik bilimlar yaxshi o'zlashtirilishiga va xotirada uzoq saqlanishiga sababchi bo'ladi [4].

Biz bundan geografiya darslarini sifatli tashkil etish uchun amaliy dasturlar va ko'rgazmali qurollar (Google Earth Win, Bandicam, Ispring, Eclipse Crossword Krossvordli topishmoqlar)dan foydalanish orqali ham darslarning samaradorligini oshirish imkoniyatlari bor. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanish uchun o'qituvchidan o'z ustida ko'p ishlashni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, geografiya darslarida AKTdan foydalangan holda darslarni tashkil qilish orqali o'quvchilarni:

–o'rganilayotgan o'quv ma'lumotlarini animatsiya, audio, video shaklida taqdim qilish orqali bilimini orttira olish;

–bilim olish jarayonida faqatgina ma'lumotga ega bo'luvchi emas, to'liq qatnashuvchiga aylantirish;

–berilgan ma'lumotlar bilan mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratish;

–ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni matn yoki o'quv topshiriqlari usulida monitoring qilish va baholash imkoniyatlariga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi 11.05.2022-yildagi PF-134-sonli farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022, 6/22/134/0407-son).

2. G.Xodjayeva, G.Jiemuratova. "Ilm hám jámiyet", ilmiy-metodik jurnal, 2020, 2-soni.

3. K.Turmanov. Science of informatics and information technologies specific principles of teaching. Educational Research in Universal Sciences, Scientific Journal Impact Factor 2022, 4, p. 556.

4. Matsaidova S.X. "Pedagogika". O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari jurnali, 2023, 3-soni.

Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi (Andijon Mashinasozlik instituti doktoranti;

e-mail: abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com)

YARIMO'TKAZGICHLI VA MIKROELEKTRON RELE HIMOYASI QURILMALARINI O'QITISHNI ISHLAB CHIQRISH BILAN UZVIY INTEGRATSIYASINI YO'LGA QO'YISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada sifatli mutaxassis sifatli ta'lim natijasi ekanligi, ishlab chiqarishda yangi bitiruvchi mutaxassislar bilan uchraydigan muammolar va bu masalada yechim sifatida fanlarni ishlab chiqarish bilan doimiy integratsiyalash to'g'risida yozilib, tegishli takliflar asoslab berilgan.

Аннотация. В статье говорится о том, что качественный специалист является результатом качественного образования, о проблемах, с которыми сталкиваются новые выпускники на производстве, и о постоянной интеграции дисциплин с производством в качестве решения этого вопроса, с обоснованием соответствующих предложений.

Annotation. This article says that a quality specialist is the result of a quality education, about the problems faced by new graduates in the workplace, and about the constant integration of disciplines with production as a solution to this issue, with the justification of relevant proposals.

Kalit so'zlar: ta'lim, sifatli mutaxassis, texnika fanlari, integratsiya, pedagogik texnologiya, zamonaviy yondashuv, innovatsion texnologiya.

Ключевые слова: образование, качественный специалист, технические науки, интеграция, педагогические технологии, современный подход, инновационные технологии.

Key words: education, quality specialist, technical sciences, integration, pedagogical technologies, modern approach, innovative technologies.

Mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti rivojlanishida ta'lim sohasi bir qadam oldinda yurmog'i lozim. Boisi, har sohaning yaratuvchisi, ishlatuvchi va ishlab chiqaruvchisi ham, avvalo, o'qib, o'rganib ya'ni, ta'lim olib shakllanadi. Ta'lim tizimi qay darajada mukammal va samarali yo'lga qo'yilganligi unda yetishib chiqqan sifatli kadrlarga bog'liqdir. Buning uchun esa ta'lim jarayonlarida sifat masalasini oshirish bo'yicha uning barcha vakillari mas'uliyat bilan ishtirok etishi lozimdir. Oliy ta'lim muassasasida yetishib chiqqan mutaxassis ayni davrni muammolariga yechim izlay olishi, avvalo, mehnat faoliyatiga tez kirishib, innovatsion yutuqlarni o'zlashtira olishi asosiy talabga aylanib bormoqda. Bu boradagi ozgina mas'uliyatsizlik, ertangi kun kelajagiga tahdiddek qabul qilinadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimining har bir yo'nalishida yangi ilmiy g'oya va innovatsiyalar bilan yangilab borish, har bir yo'nalishni izchillik bilan rivojlantirishga kirishish lozim. Yuqorida ta'kidlanayotgan masalalarda mamlakatimizda bir qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda.

Oliy ta'lim tizimida texnika yo'nalishlarining ham o'rni salmoqlidir. Vaholanki, texnik yutuq va texnik ixtiro texnik bilim evaziga shakllanadi. Texnika oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etishning zamonaviy usullariga yondashish talab etilayotgan bir davrda, o'quv, ta'lim kuchli pedagogik sa'y-harakatni talab qiladi. Talaba fanlarni oqilona o'zlashtirishi uchun, avvalo, unga qiziqish bilan yondashishi va bunda ta'lim beruvchining pedagogik mahorati katta ahamiyatga ega. Pedagog qadimdan o'rgatuvchi maqomi bilan yaralib, bugungacha ta'lim-tarbiya beruvchi sifatida faoliyat olib boradi. Pedagogik mahorat ta'lim beruvchilarning shaxsiy, kasbiy xususiyatlarini belgilovchi fazilat bo'lib, vazifasi davomida mehnat faoliyatini yanada rivojlantirib borishiga sabab bo'ladi [1]. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchida allaqachon pedagogik bilish va pedagogik qobiliyatlar shakllangan bo'ladi. Pedagogik maho-

ratli o'qituvchi ta'lim jarayonlariga pedagogik takt bilan yondashadi. Ta'lim oluvchilar bilan tez va samarali muloqotga kira olish ham pedagogning taktikasiga bog'liq. Nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlar, balki texnika fanlari ham ta'lim jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni talab qiladi. Texnika fanlarini o'qitish masalalari bo'yicha respublikamiz va xorijiy mamlakatlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, Z.J.Tojiyev o'z ilmiy maqolasida texnika universtitetlarida ta'lim jarayonlarini modellash usullari va masalalari to'g'risida yozib, o'qitish jarayonlarida fanlararo o'zaro aloqani yo'lga qo'yishning avfzallik tomonlarini ko'rsatib bergan.

Ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish, pedagoglar mexnatida innovatsion yondashuvni shakllantirish masalalarida fikr yuritgan G.D.Tosheva [2], ta'lim tizimining taraqqiyotida innovatsion texnologiyalarnig roli to'g'risida o'z maqolasida yoritib bergan.

O.S.Olimova [3], pedagogik texnologiyalarni texnika oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonlaridagi ahamiyati va innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish choralari to'g'risida o'z ilmiy nashrlarida qayd etgan.

Texnika fanlari qatoriga kiradigan "Nazariy elektrotexnika" fanini o'qitishda eng muhim tamoyillardan sanaladigan izchillik tamoyilidan unumli foydalanish orqali dars jarayonlarini tashkil etish to'g'risida yozilgan maqolada [4] talabning o'zida mavjud bilish qobilyatini ishga solish, uni oldingan bilgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va yangilarini singdirish masalalarida ilmiy asoslar keltirilgan.

Zamonaviy pedagog, avvalo, talabalar bilan ishlashni zamonaviy usullarini to'g'ri tanlay oladi. Rivojlanayotgan davrda yoshlarining fe'l-xususiyatlari bir-biriga o'xshamaydi, bilim qabul qilish qobilyatlari ham o'zgacha bo'ladi. Endilikda har bir talaba bilim olishga "majbur" tushunchasi bilan natijaga erishish mukammaldir. Sifatli ta'limga erishishning asosiy yechimi to'g'ri tanlanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Boisi, ayni vaqtning talabalarida quyidagi muammolar hozirgacha uchrab turibdi, ya'ni:

– oliy ta'limgacha talabalarning bilim-ko'nikmasi va qoldiq bilimlari bir emasligi;

– tanlangan ta'lim yo'nalishiga qiziqmasligi;

– dars jarayonlarida ayrim talabalar murakkab tushunchalarni qabul qilishni xohlamasliklari va shu kabilardir.


Mahoratli pedagog ta'lim jarayonlariga pedagogik takt bilan yondashsagina, yuqorida ta'kidlangan muammolarni avvaldan ko'ra bilib, dars jarayonlariga yechim bilan kiradi. Buning uchun har bir yo'nalish o'qituvchisiga ham, talabasining oldiga ham yetarlicha vazifa yuklatiladi. Texnika yo'nalishini tanlangan har bir talaba, avvalo, o'z tanlagan yo'nalishiga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirishi lozim bo'ladi. Buning bilan talabada o'z yo'nalishiga qiziqish uyg'onadi va ertangi kunda ishlab chiqarish qanday kadr kutayotganiga qarab tahsil olishga qiziqadi. Talabning tanlagan yo'nalishi bo'yicha ilk bilim va tushunchalar "Yo'nalishga kirish" fanlarida o'qitilishi hisobga olinadigan bo'lsa, boshlang'ich mas'uliyat aynan mana shu fan o'qituvchilariga yuklatiladi.

Texnika yo'nalishi talabalarining bilim ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar davomida, talabada tadqiqotli kompetensiya rivojlangan, texnika bilan ishlashga tayyor bo'lishi va texnik yutuqlarni o'z vaqtida o'zlashtira olishi lozim bo'ladi. Tadqiqotli kompetensiya mavjud talabada nazariydan amaliygacha yaxshi o'zlashtira olish qobilyati mavjud bo'lib, o'zida izlanish, tadqiqot qilish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantira oladi. Buning uchun ta'lim beruvchi dars jarayonlariga yondashuvni barcha usullarini yo'lga qo'yishi lozim. Dars jarayonlarida an'anaviy yondashuvdan zamonaviy yondashuvga o'tilishi, innovatsion yangilik va texnologiyalarni ta'limga joriy etilishi bugungi kunning muhim masalalariga yetarlicha javob bo'la oladi. Shular qatorida, eng muhim bo'lgan masalalardan biri bu fanlarni o'z vaqtida ishlab chiqarish bilan integratsiyalab borishdir. Fanlar ishlab chiqarish bilan bog'lanmasa, texnik ixtiro va yangilik yaratilishi sekinligicha qoladi, asosiysi, talaba ishlab chiqarishdagi yangi innovatsion jihozlar bilan ishlash qobilyatiga ega bo'lmaydi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonlarida kadrlar bilan uchraydigan eng muhim muammolardan biri ham bu yangi mutaxassisning ishlab chiqarishdagi yangi texnik jihozlar bilan ishlay olamasligidir. Talaba ishlab chiqarishda yangi texnikalar bilan ishlash uchun yana vaqt, hatto malaka oshirish uchun mablag' sarflashi mumkin. Aslida, bitiruvchi ishlab chiqarishga joriy etilayotgan har bir jihozni tegishli fanlar davomida o'rganib, mehnat faoliyatini boshlasa, bu uning mehnat samaradorligini tez oshib borishiga va kadr oliy ta'limda sifatli bilim bilan yetishib chiqqanligini ishlab chiqarishga ko'rsatib bera oladi. Bu masalaning boshlang'ich yechimi esa ta'lim jarayonlarida o'quv rejalari, fan dasturlari, sillabuslarda mavzularni yaratilishidan boshlanadi. O'quv rejaga kiritiladigan fanlar ayni davrda kerakli bilimni bera olishi hisobga olinishi va tanlanadigan fan mavzulari ishlab chiqarish bilan doimiy integratsiyalab borili-

shu lozim. Bu masalani texnika fanlari sanaladigan, asosan, barcha energetika yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Rele himoyasi va avtomatikasi” fani misolida ko‘rib chiqamiz.

“Rele himoyasi va avtomatikasi” fanining o‘qitilishi barcha texnika sohalar uchun muhim sanalib, elektr energiyasi bilan ishlash jarayonlarini sifatini kafolatlaydigan jihoz va qurilmalar bo‘yicha bilim-konikmalarni talabalarga yetkazib beradi. Har bir sohada o‘ziga yarasha rivojlanish bo‘lgandek, boshlang‘ich relelar elektromexanikdan yarimo‘tkazgichli turlargacha yaralib, bugungi kunda rele himoyasining raqamli qurilmalari rivojlanib bormoqda. Energetika tarmoqlari va ishlab chiqarish korxonalarida rele himoyasining raqamli qurilmalari bilan yangilanmoqda. Bunday yangilanishlarni endi fan mavzulariga ham kiritish lozim bo‘ladi. “Rele himoyasi va avtomatikasi” fanini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashning boshlang‘ich qadami, fan nomini o‘zgartirishdan, ya‘ni, “Rele himoyasi va avtomatikasining raqamli qurilmalari” yoki “Mikroprotsessorli relelar” deya nomlashdan boshlash lozim bo‘ladi.




1-rasm. Fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash ketma-ketligi.

Ilmiy natijalarga ko‘ra, aynan “Rele himoyasi va avtomatikasi” fanini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash masalasi Farg‘ona Politehnika instituti 5312100-Energiya tejamkorligi va energoaudit yo‘nalishi talabalarining 2023–2024-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan o‘quv rejasi uchun taklif kiritildi.

Ishlab chiqarish bilan integratsiyalab tashkil etilgan fanning har bir qismiga alohida yondashuv talab etiladi. Ma'ruzaga talabning ko'pligiga ko'ra, vaqtni hisobga olib, ularning barchasini qiziqish bilan qamrab oladigan va mustaqil fikrlashga undaydigan pedagogik usullardan foydalanish lozim. Buning uchun ma'ruza mashg'ulotlarini soddadan murakkab tomon yo'naltirish kerak bo'ladi. Tanlanadigan interfaol metodlar talabalarda qiziqish uyg'ota olishi va eslab qolish qobiliyatini ishga solishi lozimdir. Buning uchun asosiy masala esa texnika fanlarida ma'ruza mashg'ulotlarida foydalanishga mos yangi interfaol metodlar yaratilishi va ularni joriy etilishidadir. Ma'ruza mashg'ulotlari davomida talaba olgan bilimlariga qarab amaliyot mashg'ulotlarida mustaqil ishtirok eta oladi. Bugungi kunda uchrab turadigan laboratoriya jihozlarining yetishmasligi muammolarini animatsion laboratoriyalarni tashkil etish bilan ta'minlab tursa bo'ladi. Ayniqsa, zamonaviy texnik jihozlar mikroprotessorli ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bunday jihozlarning ishlash prinsipini kompyuter dasturlari orqali ham ifodalab tushuntirish mumkin. Pedagog uchun qo'yiladigan vazifa esa yangilik va izlanishdan to'xtamaslik va chorasizlik holatini mehnat faoliyatidan chiqarib tashlash bo'ladi.

Sifatli ta'limning bilimli mutaxassisi ishlab chiqarishda malakali kadr bo'lishi lozimligini hisobga olgan holda, harakat qilish ham ta'lim beruvchini ham ta'lim oluvchi oldiga qo'yilgan talab sanaladi.



2-rasm. Ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash natijasi.

Xulosa qilib aytish joizki, sifatli ta'lim samarali natija bera oladi. Samarali natijaga esa oqilona pedagogik sa'y-harakat va zamonaviy yondashuv joiz bo'ladi. Iqtisodiy yutuq va texnik yangilik uchun mutaxassis ta'limdan tarbiyalanishini hisobga oladigan bo'lsak, bu masalada ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalamay turib, natija olib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev Jamshid Zokir o'g'li. Texnik universitetda ta'lim jarayonini modellashtirish usullari. (jJrtes) volume 1, ISSUE 4, ISSN 2181-2675, 44 – 50-betlar.
2. G.D.Tosheva, B.B.Toirov. Innovatsion texnologiyalar ta'lim taraqqiyotining asosiy kuchi va tutgan o'rni. "Science and Education", Scientific Journal. November 2020, Volume 1, Issue 8, 222 – 229-betlar.
3. Olimova O.S. (2023). Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning onlayn ilmiy forumi. Texnik oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar, "TATUFF-EPAI", 258 – 259-betlar.
4. Zokirova Dilnoza Ne'matillayevna, Ismoilov Bilolxon Sobitjon o'g'li, Axmadjonov Samandar G'olibjon o'g'li. Texnika oliy o'quv yurtlarida "Nazariy elektrotexnika" fanini izchillik tamoyili asosida o'qitish. Pedagog's international research journal. Volume-6, Issue-1, March-2022, 34 – 43-betlar.

IZOJARAYONLARGA DOIR MASALALARNI YECHISH ORQALI O'QUVCHILARNI FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH

Annotatsiya. Mazkur maqolada asosiy fan olimpiadaning turli bosqichlari uchun qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan, izojarayonlar mavzusiga doir masalalar tanlab olingan va yechish metodikasi tushuntirilgan.

Аннотация. В данной статье выделены уровни сложности для разных этапов олимпиады по фундаментальной науке, задачи по теме "Изопроцессы" и объяснен метод их решения.

Annotation. In this article, the difficulty level for different stages of the basic science Olympiad, the problems on the subject of iso-processes are selected and the method of solving them is explained.

Kalit so'zlar: metod, iqtidor, olimpiada, izojarayonlar, bosim, temperatura, hajm, ideal gaz.

Ключевые слова: метод, олимпиада, изопроцессы, давление, температура, объем, идеальный газ.

Key words: method, Olympiad, isoprocesses, pressure, temperature, volume, ideal gas.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan rag'batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug'ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash maqsadida, iqtidorli o'quvchi yoshlarni aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [1].

Iqtidorli yoshlarni aniqlash va tayyorlash, hamda iqtidorli o'quvchilar zaxirasini boyitish uchun fan olimpiadalarining o'rni beqiyos. Olimpiadalar o'tkazishning asosiy prinsipiga muvofiq, olimpiadalarda iqtidorli o'quvchilar orasidan eng kuchlilari aniqlanadi. Bunday aniqlash xolisona bo'lishi uchun olimpiadaning birinchi bosqichida o'quvchilar ommaviy qatnashishlari kerak. Shundagina olimpiadada qatnashishni istagan barcha o'quvchilar o'z qobiliyatlarini sinab ko'rishlari mumkin. Shuning uchun o'quvchilarga, nisbatan olganda, fizikadan o'rtacha qiyinlikdagi masalalarni tanlash maqsadga muvofiq. Bu masalalar mazmuni jihatdan o'quvchilarning fizik hodisa va jarayonlarni chuqur bilishlariga va birmuncha tasavvur qila olishlariga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Namuna sifatida gaz qonunlaridan foydalanib, yechiladigan quyidagi masalalarni ko'rib chiqaylik.

Birinchi bosqich uchun mo'ljallangan masala. Silindrda $S=4 \text{ dm}^2$ yuzli porshen ostida $m=20 \text{ g}$ geliy qamalgan. Porshenning dastlabki holatida gazning hajmi $V_1=32 \text{ l}$, bosimi $P_1=4,1 \text{ atm}$ bo'lgan. Gazning hajmi juda sekinlik bilan $V_2=9 \text{ l}$ bo'lishi uchun porshen ustiga qancha yuk qo'yish kerak? Silindrni vertikal joylashgan deb hisoblang va porshenning silindrga ishqalanishini hisobga olmang.

Berilgan.

$$m = 20 \text{ g} = 2 \cdot 10^{-2} \text{ kg},$$

$$\mu = 4 \text{ g/mol} = 4 \text{ kg/kmol},$$

$$S = 4 \text{ dm}^2 = 4 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2,$$

$$V_1 = 32 \text{ l} = 32 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$V_2 = 9 \text{ l} = 9 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$p_1 = 4,1 \text{ atm} = 4,1 \cdot 10^5 \text{ Pa}.$$

$$M = ?.$$

Yechilishi. Masalaning shartiga ko'ra, gazning hajmi kamaygan va gazni $V_2=9 \text{ l}$ hajmgacha siqish jarayoni juda sekin bo'lan. Shuning uchun gazning temperaturasini o'zgarms deb hisoblab, gazning ikkinchi holatidagi bosimini topish uchun Boyle-Mariott qonunini $p_1 V_1 = p_2 V_2$ (1) dan foydalanish mumkin. Ikkinchi tomondan, siqilgan gazning bosimini $p_2 = p_1 + \frac{Mg}{S}$ (2) deb yozish mumkin. Bu yerda M -

porshen ustiga qo'yilgan yukning massasi bo'lib, uni yuqoridagi ikkala ifodadan topish mumkin. Buning uchun bosimning (1) ifodadan topilgan $p_2 = \frac{V_1}{V_2} \cdot p_1$ qiymatini (2) ifodaga qo'yamiz:

$$M = \frac{V_1 - V_2}{V_2} \cdot \frac{p_1 \cdot S}{g}$$

$$\text{Hisoblash. } M = \frac{23}{9} \cdot \frac{4,1 \cdot 10^5 \cdot 4 \cdot 10^{-2}}{10} \text{ kg} = \frac{23 \cdot 41 \cdot 40}{9} \text{ kg} = 4190 \text{ kg}$$

Javob. $M = 4190 \text{ kg}$.

Ikkinchi bosqich uchun mo'ljallangan masala. Ikkinchi bosqich tuman olimpiadalarida shu tuman maktablaridan eng yaxshi, g'olib o'quvchilar qatnashdi. Shuning uchun bunday olimpiadalarga masala tanlashda masala sharti biroz murakkabroq bo'lishi kerak. Masalan, yuqoridagi masala tuman olimpiadasi tuzuladigan bo'lsa, uning qator fizik hodisalarni qamrab olishiga va o'quvchilarning chuqurroq tasavvur qilishlariga e'tiborni kuchaytirish kerak bo'ladi.

Masala. Silindrda $S=4 \text{ dm}^2$ yuzli porshen ostida $m=20 \text{ g}$ geliy gazi qamalgan. Porshenning dastlabki holatida $t=47^\circ \text{C}$ temperaturada silindrdagi gazning hajmi $V_1=32 \text{ l}$ bo'lgan. Gazning hajmi juda sekinlik bilan $V_2=9 \text{ l}$ bo'lishi uchun vertikal o'rnatilgan silindrning porsheni ustiga qancha yuk qo'yish kerak? Porshenning silindrga ishqalanishini hisobga olmang.

Berilgan.

$$m = 20 \text{ g} = 2 \cdot 10^{-2} \text{ kg},$$

$$\mu = 4 \text{ g/mol} = 4 \text{ kg/kmol},$$

$$S = 4 \text{ dm}^2 = 4 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2,$$

$$V_1 = 32 \text{ liter} = 32 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$V_2 = 9 \text{ liter} = 9 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$t = 47^\circ \text{C}; T = 320 \text{ K}.$$

$$M = ?(\text{kg}).$$

Yechilishi. Porshen ustiga qo'yilgan yuk asta-sekin orttirib borilgani uchun $t=47^\circ \text{C}$ temperaturasi o'zgarmas bo'ladi. U vaqtda silindrdagi jarayonni izotermik jarayon deb hisoblash va Boyle-Mariott qonuni $p_1 V_1 = p_2 V_2$ dan foydalanish mumkin. Bu yerda p_1 –silindrdagi geliyning dastlabki holatidagi bosimi

bo'lib, u Mendeleyev-Klapeyron formulasi $p_1 V_1 = \frac{m}{\mu} \cdot RT$ ga binoan, $p_1 = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{RT}{V_1}$ bo'ladi. Gazning ik-

kinchi holatdagi bosimini esa, bir tomondan, $p_2 = \frac{V_1}{V_2} p_1$ deb, ikkinchi tomondan, $p_2 = p_1 + \frac{Mg}{S}$ deb yo-

zish mumkin. Shuning uchun yuqoridagi ifodalarga binoan porshen ustiga qo'yilgan yukning massasi

$$M = \frac{V_1 - V_2}{V_2} \cdot \frac{p_1 \cdot S}{g} = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{R \cdot T \cdot S}{g} \cdot \frac{V_1 - V_2}{V_1 \cdot V_2} \text{ bo'ladi.}$$

Ko'rinib turibdiki, mazkur masalaning yuqoridagi masalaga nisbatan murakkablashgani gazning dastlabki holatidagi bosimining qiymati masala shartida bevosita berilmaganidan iborat. O'quvchilarga gazning bosimini maxsus hisoblash zarur emasligini, asosan, masala shartida so'ralgan yukning M massasini hisoblash zarur ekanini uqdirib o'tish lozim.

Hisoblash.

$$M = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{R \cdot T \cdot S}{g} \cdot \frac{V_1 - V_2}{V_1 \cdot V_2} = \frac{2 \cdot 10^{-2}}{4 \cdot 10^{-3}} \cdot \frac{8,31 \cdot 320 \cdot 4 \cdot 10^{-2}}{10} \cdot \frac{32 \cdot 10^{-3} - 9 \cdot 10^{-3}}{32 \cdot 10^{-3} \cdot 9 \cdot 10^{-3}} =$$

$$= \frac{2 \cdot 831 \cdot 23}{9} \text{ kg} \approx 4250 \text{ kg}$$

Javob. $M \approx 4250 \text{ kg}$.

Uchinchi bosqich uchun mo'ljallangan masala. Odatda, uchinchi bosqich, ya'ni, viloyat olimpiadasida o'quvchilar orasidan respublika olimpiadasida qatnashishi mumkin bo'lgan o'quvchilar tanlanadi. Shuning uchun olimpiadaning bu bosqichi birmuncha jiddiy hisoblanadi. Bunday olimpiadalarga masala tuzilganda o'quvchilarning chidamliligini, tasavvur qilishlarini va topqirliklarini rivojlantirish talab qilinadi.

Shu maqsadda yuqoridagi masalani quyidagicha murakkablashtirib tuzish mumkin.

Masala. Hajmi $V_1=32 \text{ l}$, temperaturasi $t_1=47^\circ \text{ C}$ bo'lgan $m=20 \text{ g}$ geliy gazi vertikal silindrda $S=4 \text{ dm}^2$ yuzli porshen ostida qamalgan. Gazning hajmini $V_2=9 \text{ l}$ gacha kamaytirish va temperaturasini 17° C ga orttirish uchun porshenga qanday kuch bilan bosish kerak? Porshenning silindrga ishqalanishini hisobga olmang.

Berilgan.

$$m = 20 \text{ g} = 2 \cdot 10^{-2} \text{ kg},$$

$$\mu = 4 \text{ g/mol} = 4 \text{ kg/kmol},$$

$$S = 4 \text{ dm}^2 = 4 \cdot 10^{-2} \text{ m}^2,$$

$$V_1 = 32 \text{ liter} = 32 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$V_2 = 9 \text{ liter} = 9 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$t = 47^\circ \text{ C}; T = 320 \text{ K},$$

$$\Delta t = 17^\circ \text{ C}; \Delta T = 17 \text{ K}.$$

$$F = ?(\text{kN}).$$


Yechilishi. Gazning ikkala holatdagi p_1 va p_2 bosimlari Mendeleev-Klapeyron tenglamalaridan aniqlangani uchun $p_1 = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{R \cdot T_1}{V_1}$ va $p_2 = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{R \cdot T_2}{V_2}$ bo'ladi. Bu yerda $T_2 = T_1 + \Delta T = 337 \text{ K}$. Gaz-

ning ikkinchi holatdagi bosimi $p_2 = p_1 + \frac{F}{S}$ deb ham yozish mumkin bo'lgani uchun porshenga quyidagi kuch bilan ta'sir etish kerak:

$$F = (p_2 - p_1) \cdot S = \frac{m}{\mu} \cdot R \cdot S \cdot \left(\frac{T_2}{V_2} - \frac{T_1}{V_1} \right) = \frac{m \cdot R \cdot S \cdot (T_2 \cdot V_1 - T_1 \cdot V_2)}{\mu \cdot V_1 \cdot V_2}.$$


$$\text{Hisoblash. } F = \frac{2 \cdot 10^{-2} \cdot 8,31 \cdot 4 \cdot 10^{-2} \cdot (337 \cdot 32 - 320 \cdot 9) \cdot 10^{-3}}{4 \cdot 10^{-3} \cdot 9 \cdot 10^{-3} \cdot 32 \cdot 10^{-3}} = 40 \text{ kN}$$

Javob. $F = 40 \text{ kN}$



1-rasm.

To‘rtinchi bosqich uchun mo‘ljallangan masala. Respublika olimpiadasida faqatgina eng kuchli o‘quvchilar emas, balki qobiliyatli o‘quvchilar ham aniqlanadi. Buning uchun tegishli topshiriqlar tuziladi. Bunday topshiriqlarni tuzishda o‘quvchilarning barcha qobiliyatlarini kengroq qamrab olishga e‘tibor beriladi. Shuning uchun, masalan, yuqoridagi masalaning o‘zini matematik jihatdan birmuncha murakkablashtirish mumkin.



2-rasm.

Masala. Silindrda porshen ostida qamalgan $m = 20$ g geliy $V_1 = 32$ l hajmli va $p_1 = 4,1$ atm bosimli holatdan $V_2 = 9$ l hajmli va $p_2 = 15,5$ atm bosimli holatga sekin o‘tgan. Bu jarayonda gaz bosimining temperaturaga bog‘lanishi to‘g‘ri chiziqdan iborat bo‘lsa (1-rasm), gaz qanday eng yuqori temperaturaga erishadi.

Berilgan.

$$m = 20 \text{ g} = 2 \cdot 10^{-2} \text{ kg},$$

$$\mu = 4 \text{ g/mol} = 4 \text{ kg/kmol},$$

$$V_1 = 32 \text{ liter} = 32 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$V_2 = 9 \text{ liter} = 9 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3,$$

$$P_1 = 4,1 \text{ atm} = 4,1 \cdot 10^5 \text{ Pa},$$

$$P_2 = 15,5 \text{ atm} = 15,5 \cdot 10^5 \text{ Pa},$$

$$T_{\max} = ?(K).$$

Yechilishi. Gazning bosimi bilan hajmi chiziqli bog‘langanligi uchun $p = aV + b$ deb yozish mumkin. Bu yerda a va b o‘zgarmas o‘zgarmas koeffitsiyentlar bo‘lib, ular masalaning shartidan topiladi, ya‘ni $a = \frac{p_1 - p_2}{V_1 - V_2} = \frac{-11,4}{23} \cdot 10^8 \frac{Pa}{m^3}$; $b = p_1 - a \cdot V_1$ yoki $b = p_2 - a \cdot V_2$ ga binoan,

$$b = \frac{p_2 \cdot V_1 - p_1 \cdot V_2}{V_1 - V_2} = 20 \text{ atm} = 2 \cdot 10^6 \text{ Pa} . \text{ Ideal gaz holat tenglamasining } pV = \frac{m}{\mu} \cdot RT$$

ifodasiga binoan, p bosimning yuqoridagi ifodasiga qo‘ysak, $a \cdot V^2 + b \cdot V = \text{const} \cdot T$ hosil bo‘ladi. De-mak, gaz hajmining temperaturaga bog‘lanishi paraboladan iborat ekan (2-rasm). Bu egri chiziq

$$V_{\max} = -\frac{b}{2a} = 20 \text{ liter} = 2 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3 \text{ hajmda maksimumga erishadi, bu vaqtda yuqoridagi kvadrat teng-$$

lamaning ildizlari bir xil bo‘ladi. Hajmning V_{\max} qiymatiga gazning quyidagi bosimi to‘g‘ri keladi:

$$p_{\max} = a \cdot V_{\max} + b = -\frac{b}{2} + b = \frac{b}{2} = 1 \cdot 10^6 \text{ Pa} .$$

Binobarin, ideal gazning holat tenglamasidan silindrdagi gazning eng yuqori temperaturasi

$$T_{\max} = \frac{m}{\mu} \cdot \frac{p_{\max} \cdot V_{\max}}{R} \text{ bo‘ladi.}$$

$$\text{Hisoblash. } T_{\max} = \frac{10^6 \cdot 2 \cdot 10^{-2} \cdot 4 \cdot 10^{-8}}{0,02 \cdot 8,31} \text{ K} = \frac{4000}{8,31} \approx 490 \text{ K}$$

Javob. $T_{\max} \approx 490 \text{ K}$.

Bugungi kunda ta‘lim muassasalarida fizika o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta‘lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish metodlarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e‘tibor qaratilmoqda [2].

Yuqorida yechimi bilan ko‘rsatilgan, yilda bir o‘tkaziladigan asosiy olimpiadaning to‘rt bosqichga mo‘ljallangan izojaroyonlar mavzusiga doir bo‘lgan masalalar, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va iqtidorli o‘quvchilar zaxirasini boyitish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Fizika sohasidagi ta‘lim sifati oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli qarori.
3. Isamuhammedova M.S., Kamardin I.F., Nazirov I.N. va boshqalar. “Fizika”dan olimpiada masalalari. T., “O‘qituvchi”, 1990, 192 bet.
4. “Umumiy fizika” kursidan masalalar to‘plami (M.S.Sedrik tahriri ostida). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
5. A.G.Chertov, A.A.Vorobev. “Fizika”dan masalalar to‘plami. Toshkent, «O‘zbekiston», 1997.
6. Григорьев Ю.М., Муравьев В.М., Потапов В.Ф. Олимпиадные задачи по физике. международная олимпиада. «Туймаада», Москва, 2007.

Abdurahmonova Diyora Akbarjon qizi (Andijon davlat Pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida stajor-o‘qituvchisi)

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI O‘QUVCHILARDA MANTIQUIY TAFFAKURINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni integral yondashuv yordamida o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga tayyorlashning ahamiyati o‘rganildi.

Аннотация. В данной статье рассматривается важность подготовки будущих учителей к воспитанию у учащихся навыков логического мышления с использованием комплексного подхода.

Annotation. *This article examines the importance of preparing future teachers to educate students' logical thinking skills using an integrated approach.*

Kalit so'zlar: *mantiqiy fikrlash, o'qituvchilarni tayyorlash, ta'lim, fikrlash integrativ yondashuv, tanqidiy, pedagogika, kognitiv rivojlanish.*

Ключевые слова: *логическое мышление, педагогическая подготовка, образование, интегративный подход мышления, критическое мышление, педагогика, когнитивное развитие.*

Key words: *logical thinking, teacher training, education, thinking integrative approach, critical, pedagogy, cognitive development.*

Talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi murakkab dunyoda juda muhimdir. Mantiqiy fikrlash, ko'pincha, "taffakuri" deb ataladi, bu odamlarga muammolarni tizimli ravishda tahlil qilish, baholash va hal qilish imkonini beruvchi kognitiv qobiliyatdir. Ushbu maqolada integrativ yondashuv orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish uchun bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash metodikasi keltirilgan. Integrativ yondashuv yaxlit o'quv tajribasini yaratish uchun turli xil o'qitish strategiyalari va metodikalarini birlashtiradi.

♦O'quv dasturining integratsiyasi. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlari mantiqiy fikrlash bo'yicha ko'rsatmalarni fanlar bo'yicha birlashtirishi kerak. Masalan, matematika, fan va gumanitar fanlar kurslari talabalardan real muammolarga mantiqiy fikrlashni qo'llashni talab qiladigan tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

♦Tanqidiy fikrlash pedagogikasi. Bo'lajak o'qituvchilar so'roq qilish, tahlil qilish va muammolarni hal qilishni ta'kidlaydigan tanqidiy fikrlash pedagogikasi bo'yicha o'qitilishi kerak. Ular talabalarni savollar berishga va turli nuqtayi nazarlarni o'rganishga undaydigan muhit yaratishni o'rganishlari kerak [1].

♦Hamkorlikda o'qitish. Guruh faoliyati va munozaralarni o'qituvchilarni tayyorlashga kiritish nomzodlarga hamkorlikda o'rganish mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini qanday oshirishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. O'qituvchilar tanqidiy fikrni rag'batlantiradigan mazmunli munozaralarni osonlashtirishi kerak.

♦Texnologiya integratsiyasi. Raqamli simulatsiyalar va interaktiv dasturiy ta'minot kabi mantiqiy fikrlashni targ'ib qiluvchi ta'lim texnologiyalari vositalari bilan tanishish kelajakdagi o'qituvchilar uchun juda muhimdir.

♦Baholash strategiyasi. O'qituvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini baholaydigan shakllantiruvchi va summativ baholardan foydalanishni o'rganishlari kerak. Rubrikalar va ishlashga asoslangan baholash talabalarning qobiliyatlari to'g'risida qimmatli tushunchalarni berishi mumkin.

♦Bo'lajak o'qituvchilarni integral yondashuv orqali o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga tayyorlash turli xil o'qitish strategiyasi va tamoyillarini birlashtirgan o'ylangan metodologiyani o'z ichiga oladi. Mana bu maqsadga erishishning bosqichma-bosqich metodologiyasi.

♦Mantiqiy fikrlashning ahamiyatini tushunish. Bo'lajak o'qituvchilarga o'quv jarayonida mantiqiy fikrlashning ahamiyatini tushunishga yordam berishdan boshlang. Muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va umumiy kognitiv rivojlanishda mantiqiy fikrlashning afzalliklarini ta'kidlaydigan tadqiqotlar va misollarni baham ko'ring.

♦O'qituvchilarni tayyorlash. Kelajakdagi o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashni o'zlari yaxshi tushunishlariga ishonch hosil qiling. Tanqidiy fikrlash va mantiqiy fikrlash bo'yicha treninglar o'tkazing. Bunga seminarlar, kurslar yoki onlayn manbalar kirishi mumkin.

♦O'quv dasturini ishlab chiqish. Turli fanlar va sinf darajalari bo'yicha mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini birlashtirgan o'quv dasturini ishlab chiqish uchun bo'lajak o'qituvchilar bilan hamkorlik qiling. Mantiqiy fikrlash, ayniqsa, muhim bo'lgan asosiy tushunchalar va mavzularni aniqlang.

♦Faol o'rganishni qo'shing. Bo'lajak o'qituvchilarni munozaralar, munozaralar, muammolarni hal qilish faoliyati va amaliy tajribalar kabi faol ta'lim usullaridan foydalanishga undash. Ushbu usullar talabalarni jalb qiladi va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

♦Fanlararo yondashuv. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini turli mavzularga bog'lash orqali fanlararo yondashuvni targ'ib qiling. Bo'lajak o'qituvchilarga mantiqiy fikrlashni matematika, fan, til san'ati va ijtimoiy fanlar kabi fanlarga qanday integratsiya qilishni ko'rsating.

♦Sokratik so'roq. Kelajak o'qituvchilarga Sokratik so'roq qilish san'atini o'rgating. Ularni talabalarni tanqidiy va mantiqiy fikrlashga undaydigan ochiq savollar berishga undang. Samarali so'roq qilish texnikasiga misollar keltiring.

◆Haqiqiy dasturlar. Mantiqiy fikrlashning haqiqiy qo'llanilishini ta'kidlang. Bo'lajak o'qituvchilarga sinf darslarini amaliy stsenariylar bilan qanday bog'lashni ko'rsating, o'quvchilarga kundalik hayotlarida mantiqiy fikrlashning dolzarbligini ko'rishga yordam bering.

◆Baholash va mulohaza. Kelajakdagi o'qituvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'lchaydigan baholarni yaratishga o'rgating. Talabalarga konstruktiv fikr-mulohazalarni taklif qilish, takomillashtirish yo'nalishlarini ta'kidlash bo'yicha ko'rsatmalar bering.

◆Texnologiya integratsiyasi. Mantiqiy fikrlashni qo'llab-quvvatlaydigan texnologiya vositalari va manbalarini qo'shing. Bo'lajak o'qituvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradigan ta'lim dasturlari, veb-saytlar va dasturlardan xabardor bo'lishlari kerak [2].

◆Kasbiy rivojlanish. Kelajakdagi o'qituvchilarni mantiqiy fikrlashni o'rgatishning eng yaxshi amaliyotlaridan xabardor bo'lish uchun doimiy ravishda malaka oshirishga undash. Bu konferentsiyalarda qatnashish, tadqiqot maqolalarini o'qish yoki onlayn kurslarda qatnashishni o'z ichiga olishi mumkin.

◆Hamkorlik va tengdoshlarni o'rganish: Kelajakdagi o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikdagi o'quv muhitini targ'ib qiling. Ularni mantiqiy fikrlashni o'rgatish uchun g'oyalar, manbalar va muvaffaqiyatli strategiyalar bilan bo'lishishga undang [3].

◆Fikr va mulohaza. Bo'lajak o'qituvchilarga o'qitish amaliyoti haqida fikr yuritish uchun imkoniyatlar yarating. Muntazam aloqa sessiyalari va o'z-o'zini baholash ularga vaqt o'tishi bilan yondashuvlarni takomillashtirishga yordam beradi.

◆Ota-onalar va jamiyatning ishtiroki. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini targ'ib qilishda ota-onalar va jamiyatni jalb qiling. Ota-onalarga mantiqiy fikrlashning muhimligini va uni uyda qanday qo'llab-quvvatlashlarini tushunishga yordam berish uchun seminarlar yoki axborot sessiyalarini tashkil qiling.

◆Talabalar taraqqiyotini baholash. Talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni aniqlash uchun turli xil baholash usullaridan foydalaning. Baholash natijalari asosida o'qitish metodikasini muntazam ravishda ko'rib chiqing va sozlang.

◆Doimiy takomillashtirish. Kelajakdagi o'qituvchilarni yangi g'oyalar va rivojlanayotgan strategiyalarga ochiq bo'lishga undash. Metodologiya ta'lim va texnologiyadagi o'zgarishlarni moslashtirish uchun moslashtirilishi kerak.

◆Tadqiqot va baholash. Kelajakdagi o'qituvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda integrativ yondashuv samaradorligini o'rganish uchun o'quv tadqiqotlari bilan shug'ullanishga undash. Bu o'qitish usullarini doimiy ravishda takomillashtirishga olib kelishi mumkin.

Esda tutingki, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga integrativ yondashuv dinamik va talabalarining ehtiyojlariga va rivojlanayotgan ta'lim landshaftiga javob berishi kerak. Bu kelajakdagi o'qituvchilardan majburiyat va ta'lim muassasalarining doimiy yordamini talab qiladi [5].

Ushbu integral yondashuvning muvaffaqiyati o'qituvchilarni o'z o'quvchilarining rivojlanayotgan ehtiyojlariga moslasha oladigan ko'p qirrali o'qituvchilarga tayyorlash qobiliyatidir. Bu mantiqiy fikrlashni turli mavzularda va hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan o'zaro faoliyat mahorat sifatida rivojlantirishni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, yondashuv samarali o'qitish va o'rganishning muhim elementlari bo'lgan faol ishtirok etish, tanqidiy fikr yuritish va hamkorlikka yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, kelajakdagi o'qituvchilarni o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga tayyorlash ta'limning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada keltirilgan integral yondashuv o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari uchun keng qamrovli metodologiyani taklif etadi. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida mantiqiy fikrlash ko'rsatmalarining integratsiyasini kuchaytirish uchun biz quyidagilarni tavsiya qilamiz:

◆O'qituvchi o'qituvchilar uchun eng so'nggi pedagogik strategiyalar bilan yangilanib turish uchun doimiy malaka oshirish.

◆Ushbu yondashuvning talabalarining mantiqiy fikrlash qobiliyatiga uzoq muddatli ta'siri bo'yicha tadqiqotlar.

Bu takliflarni amalga oshirish orqali, o'qituvchi tayyorlash dasturlari mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini tarbiyalashda muhim rol o'ynashi mumkin, talabalar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish ilmiy excel va 21-asrning murakkab muammolar muvaffaqiyatli uchun.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lisova G.G., Ashtrafziyanov A.I., Nikiforova T.A., Prilezhayeva L.G., Saliyev N.N. Uslubiy maqolalar to'plami: "Integratsiya rivojlanuvchi ta'lim uchun". "Premier", 2014.

2. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o'quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida). Dis. ... ped. fan. nom., Toshkent, TDPU, 2002, 146-bet.
3. Toshpulatova Sh.O. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. ... (PhD) diss. avtoref., Samarqand, 2019, 14 – 20-betlar.
4. Yusupova Sh.M. Ona tilini integral o'qitish sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish. Dis. ...ped. fan. dok., X., 2010, 17-bet.
5. Toshpulatova D.K. "The role of mental arithmetic in improving mathematical literacy in primary school". International Scientific. Journal Theoretical & Applied Science Published, 18.12.2019.
6. Toshpulatova D.K. "The role of mental arifmetics and thinking skills in mathematics lessons of primary schools". International Engineering Journal For Research &Development, 2020.

Nabijonova Odina (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Xorijiy til hamda adabiyot yo'nalishi magistranti)

METHODOLOGY AS A SET OF FORMS, METHODS AND TECHNIQUES OF THE TEACHER'S ACTIVITY

***Annotatsiya.** O'qituvchilar malakasini hamda metodik tayyorgarligini oshirishning milliy tizimini shakllantirish vazifasi pedagogik faoliyat sifatini baholashning mavjud yondashuvlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Maqolada o'qituvchilarning ish natijalarini baholash muammosi bo'yicha xorijiy nashrlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ikkita asosiy yondashuv ko'rib chiqiladi: o'quvchilar faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha o'qituvchi ishining samaradorligini baholash va o'qituvchi faoliyatini kuzatish asosida formativ baholash va kuzatish natijalari bo'yicha o'qituvchining fikr-mulohazalarini o'rnatish.*

***Аннотация.** Задача формирования национальной системы педагогического роста диктует необходимость анализа существующих подходов к оценке качества педагогической деятельности. В статье представлен обзор зарубежных публикаций по проблеме оценки результатов труда учителей. Рассмотрены два основных подхода: оценка эффективности работы учителя на основе показателей успеваемости учащихся и формативное оценивание, основанное на наблюдении за деятельностью учителя и установлении обратной связи с учителем по результатам наблюдения.*

***Annotation.** The task of forming a national system of teacher growth necessitates an analysis of existing approaches to assessing the quality of teaching activities. The article provides an overview of foreign publications on the problem of assessing the results of teachers' work. Two main approaches are considered: assessing the effectiveness of the teacher's work based on student performance indicators and formative assessment based on observing the teacher's activities and establishing feedback from the teacher based on the results of observation.*

***Kalit so'zlar:** o'quv faoliyatini baholash, o'qituvchilarni formativ baholash, fikr-mulohazalar, kasbiy o'sish.*

***Ключевые слова:** формирующая оценка учителей, оценка педагогической деятельности, обратная связь, профессиональный рост.*

***Key words:** assessment of teaching activities, formative assessment of teachers, feedback, professional growth.*

Introduction. Currently, approaches to assessing teacher performance are receiving increased attention from politicians, scientists and educational practitioners around the world. Evaluating teachers helps both to increase teachers' responsibility for the quality of education and to improve the performance of schools. Corresponding practices have become widespread in England and the USA, as well as in a number of other countries.

Literature review. According to S.Huber and G.Skedsmo, of the 28 countries whose representatives were surveyed in 2013 by the Organization for Economic Cooperation and Development as part of the "Review of Concepts for Assessment and Certification of Workers for School Improvement," 22 countries have assessment systems at the national or regional level, and in the remaining six, feedback mechanisms on the quality of teachers' work are being developed and applied so far only at the local level. Considering the development of teacher evaluation systems in the world in historical retrospect, the authors note that at the end of the 20th century. Among the approaches to improving the activities of schools, those based on self-assessment of teachers or assessment by colleagues instead of assessment by superior officials prevailed. However, in many countries, the tradition of teacher evaluation by administrators (principals and their deputies) or regional supervisory bodies (in some countries, by members of the school committee or regional education department) remains, associated with the policy of strengthe-

ning the responsibility of teachers for the quality of education, with strictly linking the assessment of their work to student performance indicators [Huber, Skedsmo, 2016].

Research Methodology. In recent decades, models for assessing the quality of a teacher's work based on measuring his contribution to the increase in student achievement have gained recognition. Many foreign studies provide evidence of the effectiveness of such approaches, but there are also many that question the validity and reliability of such measurements and the existence of a connection between the increase in academic performance and the efforts of the teacher.

P.Tucker and D.Stronge provide an overview of a variety of strategies that have been developed to evaluate the effectiveness of teachers based on student performance [Tucker, Stronge, 2005]. Among them are several models of teacher evaluation, based on actual data on student performance, and not on individual subjective opinions. The authors offer specific recommendations that should be followed when including student performance indicators in the teacher evaluation system in order to reduce the likelihood of biased judgments and increase the effectiveness of using performance data in assessing the results of teaching activities:

- 1) data on student performance can only be used as one component of a teacher evaluation system, which relies on many other sources of information;
- 2) it is necessary to take into account the context in which learning occurs;
- 3) data on the increase in student performance should be used, rather than comparing the level of performance with predetermined indicators;
- 4) the increase in knowledge that has arisen over a certain period of time should be assessed in the same group of students, and not in different groups;
- 5) growth indicators as indicators of teacher performance have shortcomings - this fact must be understood, taken into account and strive to reduce the impact of these shortcomings;
- 6) when assessing the increase in students' knowledge, it is necessary to compare indicators over a sufficiently long period of time, which will make it possible to record the features of the learning process characteristic of a given teacher;
- 7) transparent and correct measures should be used to assess academic performance;
- 8) the choice of control and measurement tools should most accurately reflect the content of the existing training program;
- 9) it is necessary to control the absence of shortcuts in the educational program used by the teacher in order to increase the chances of students to successfully pass screening tests.

Analysis and results. Criticizing the use of gains in academic performance, determined by the results of students' examination papers, to evaluate teachers, D.Katz emphasizes that this approach, in fact, makes teachers personally responsible for increasing the examination results of students. While administrators and education reform advocates may find this logic very useful in shaping educational policy, the use of performance growth measures is fraught with problems, and their inclusion in teacher performance evaluation systems leaves many questions at the very least. The author notes that teachers are accustomed to the increased attention paid to test results in the system of assessing the quality of education, however, judging by the results of the annual Gallup/PDK poll, the majority of Americans do not believe that teacher performance evaluation should be based on results testing students: only 38% of respondents support this practice. Achievement indicators still remain a powerful tool for educational policy, summarizes D.Katz, despite the well-known conceptual limitations in using them to assess the success of specific teachers: we cannot be sure that these indicators measure exactly what their supporters claim, since they are characterized by a high level of error, general instability, and ambiguous influence on the quality of education [Katz, 2016].

An American team of authors led by L.Darling-Hammond presented a comprehensive critique of the approach to assessing the effectiveness of teachers from the standpoint of increased academic performance [Darling-Hammond et al., 2012]. Problems with measuring the dynamics of academic performance are due to the fact that the term "increase in academic performance" means the amount of knowledge acquired by a student over a certain period of time. Its use for teacher evaluation is based on the assumption that student performance is adequately measured by a particular test, that it is solely influenced by the teacher, and that it is independent of peer performance gains and other aspects of the learning context. None of these assumptions have been sufficiently supported empirically today. Three main drawbacks of the performance growth approach, according to the authors, make it unsuitable for assessing teacher effectiveness:

- 1) the results of assessing the increase in academic performance are not stable and consistent over time;
- 2) the results of measuring the increase in academic performance vary significantly depending on the calculation method used and the control and measurement tools used;
- 3) the assessments obtained when testing the increase in academic performance do not reflect a large number of factors that influence the student's performance.

Increased attention to reforms in teacher evaluation in the American educational system prompted G.Ritter and D. Barnett to conduct a study in those schools that have gone through the development of a thoughtful system of formative assessment of teacher performance. It is based on repeated observations of the teacher's activities in the classroom, an effective and meaningful matrix of professionalism criteria, meaningful feedback and professional development resulting from the results of the teacher's assessment [Ritter, Barnett, 2016]. This program, called The System for Teacher and Student Advancement (TAP), has been implemented in several US states and has received positive feedback from teachers and school administrators using the system.

The main goals of the new system are: career advancement and creation of leadership opportunities for educators; a fair and transparent assessment process linked to on-the-job professional development; performance-based compensation. The system is built on four main elements: diversity of career paths; constant practical professional growth; teacher's responsibility; remuneration based on performance indicators.

G.Ritter and D.Barnett interviewed about 50 teachers and educational leaders who were affected by these innovations. From the point of view of most of them, the old system of assessing teacher effectiveness, in which the school principal once a year observed and evaluated the teacher's activities in the classroom, does not work. The authors of the article note that they did not expect to hear so many negative comments about the old system. Teachers did not see any practical value in these "demonstrative performances" for their further professional development, and principals admitted that, since the evaluation system was not carefully thought out, they simply carried out this procedure formally, trying not to underestimate the grades. The new assessment system, according to respondents, helps identify areas of professional development. It is more effective precisely because it uses a matrix for assessing the professional qualities of teachers, based on factual data collected as a result of repeated observations of the teacher's work in the classroom and analysis of students' activities. A well-thought-out assessment system creates the basis for meaningful feedback. According to the majority of respondents, feedback received during a discussion at a meeting immediately after observing the teacher's work in the classroom is the most effective element of the new assessment system; it creates motivation for the teacher to professional reflection and provides material for it. After a short period of time after observing the teacher's work, the next meeting is scheduled to discuss the dynamics of progress. The teacher constantly carries out self-assessment. Teachers working in schools with the new assessment system note that feedback helps them determine the strategic trajectory for the development of their skills. One principal identified the two most important factors for improving teaching practices in his school: interaction between teachers who actively attended and observed colleagues' lessons, and group meetings where student performance and teaching strategies were discussed.

F.Hellinger, R.Heck and D.Murphy also found that many school leadership initiatives can have a significant impact on the learning process, even if they are not directly related to the quality of teaching. School leaders can achieve higher quality teaching if they focus on activities other than assessment systems. The following initiatives are particularly important:

- 1) providing teachers with feedback on the basis of which they can improve their work [Duke, 2010; Hattie, 2009; Showers, 1985; Joyce, Showers, 2012; Walberg, 2011];
- 2) the creation of professional communities in which teachers are united by common goals, work, and responsibility for the success of students [Vescio, Ross, Adams, 2008];
- 3) practical support for teachers' work [Hattie, 2009; Ikemoto, Taliaferro, Adams, 2012];
- 4) creating systems in which teachers have the opportunity for continuous professional learning [Bryk, Sebrin, Allenworth, 2010; Joyce, Showers, 2012; Robinson, Lloyd, Rowe, 2008].

Conclusion/Recommendations. Analysis of foreign publications devoted to systems for assessing teacher effectiveness allows us to draw the following conclusions.

Teacher effectiveness is a complex phenomenon with many components. Assessment models reduced to only one factor—assessing the increase in student performance or monitoring the process of teaching activities—cannot be considered adequate to the construct being assessed.

A promising approach to determining the effectiveness of teachers is formative assessment, the principles of which are still being developed in the course of assessment practice.

The assessment models being developed should not only provide accountability for the education system, but also support the continuous professional growth of teachers.

When testing models for assessing the results of teaching activities, it is necessary to pay increased attention to the impact of assessment on the teacher's personality and to protect teachers from excessive administration and formalism.

Assessing the effectiveness of a teacher's activities should contribute to his personal development.

References:

1. Ashdown J. (2012) Professional Development as Interference? C.Sugrue, C.Day (eds) *Developing Teachers and Teaching: International Research Perspectives*. New York, NY, Routledge-Falmer, p. 116 – 129.
2. Ball D.L., Forzani F.M. (2009). The Work of Teaching and the Challenge for Teacher Education. *Journal of Teacher Education*. Vol. 60, № 5, p. 497 – 511.
3. Bryk A.S., Sebrin P.B., Allenworth E. (2010). *Organizing Schools for Improvement. Lessons from Chicago*. Chicago: University of Chicago.
4. Cohen D.K., Raudenbush S.W., Ball D.L. (2013). Resources, Instruction, and Research. *Educational Evaluation and Policy Analysis*. Vol. 25, № 2, p. 119 – 142.
5. Chen W., Mason S., Staniszewski C., Upton A., Valley M. (2012). Assessing the Quality of Teachers' Teaching Practices. *Educational Assessment, Evaluation and Accountability*. Vol. 24, № 1, p. 25 – 41.
6. Danielson C., McGreal T.L. (2000). *Teacher Evaluation to Enhance Professional Practice*. Alexandria, VA, Association for Supervision and Curriculum Development.
7. Darling-Hammond L., Amrein-Beardsley A., Haertel E., Rothstein J. (2012). Evaluating Teacher Evaluation. *Phi Delta Kappa*. Vol. 93, № 6, p. 8 – 15.
8. Darling-Hammond L. (2012). *Creating a Comprehensive System for Evaluating and Supporting Effective Teaching*. Stanford, CA, Stanford Center for Opportunity Policy in Education.
9. Duke D.L. (2010). Developing Teacher Evaluation Systems that Promote Professional Growth. *Journal of Personnel Evaluation in Education*. Vol. 1, № 4, p. 131 – 144.

Radjapov Ulug'bek Erkinovich (huquqshunos)
VOYAGA YETMAGANLARNING TA'LIMGA OID HUQUQLARINI TA'MINLASHDA
PROKUROR NAZORATI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar uchun ta'lim huquqlarini ta'minlash bo'yicha prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Unda prokurorlar yosh shaxslarning ta'lim huquqlarini himoya qilish uchun foydalanadigan qonunchilik bazasi, ijro mexanizmlari, monitoring strategiyalari va javobgarlik choralari ko'rib chiqiladi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlarni tushunish voyaga yetmaganlarning qonunga muvofiq ta'lim olishlarini ta'minlash uchun juda muhimdir.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности прокурорского контроля за обеспечением прав на образование несовершеннолетних. В нем рассматривается правовая база, механизмы правоприменения, стратегии мониторинга и меры подотчетности, которые прокуроры используют для защиты прав молодых людей на образование. Понимание этих уникальных особенностей имеет решающее значение для обеспечения получения несовершеннолетними законного образования.*

***Annotation.** This article examines the specific features of the prosecutor's control over the provision of educational rights for minors. It examines the legal framework, enforcement mechanisms, monitoring strategies and accountability measures that prosecutors use to protect young people's educational rights. Understanding these unique characteristics is critical to ensuring that minors receive a lawful education.*

***Kalit so'zlar:** prokuror nazorati, ta'lim huquqlari, voyaga yetmaganlar, qonunchilik bazasi, javobgarlik, ijro, muvofiqlik, monitoring.*

***Ключевые слова:** прокурорский надзор, образовательные права, несовершеннолетние, правовая база, подотчетность, правоприменение, соблюдение, контроль.*

***Key words:** prosecutor's supervision, educational rights, minors, legal framework, accountability, enforcement, compliance, monitoring.*

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik amaliyotida ilk bor Jinoyat kodeksining umumiy qismida voyaga yetmaganlarning javobgarligiga xos xususiyatlarni aks ettiruvchi qoidalarni tartibga solishga bag'ishlangan maxsus oltinchi bo'lim ajratilgan. Bunday qoidalarning o'rnatilishi voyaga yetmagan shaxslarning shakllanishidagi biologik, fiziologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, ushbu shaxslar toifasiga xos bo'lgan xususiyatlardan kelib chiqadi.¹

Voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlarini ta'minlash har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatning asosiy jihati hisoblanadi, chunki u nafaqat bolalarning kelajakdagi farovonligini kafolatlaydi, balki millatning umumiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Ko'pgina mamlakatlarda prokuror nazorati ushbu huquqlarni himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar uchun ta'lim huquqlarini ta'minlash ustidan prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari, uning roli, usullari, natijalari, adolatli va adolatli ta'lim tizimini ta'minlash oqibatlari yoritilgan.

Shu nuqtayi nazardan, prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun biz ta'lim masalalarida prokuror nazorati bilan bog'liq huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va amaliy ishlarni har tomonlama ko'rib chiqdik. Bundan tashqari, ushbu nazoratning amaliy jihatlari to'g'risida tushuncha olish uchun huquqshunoslar va ta'lim huquqni muhofaza qilish organlari bilan shug'ullanadigan mansabdor shaxslar bilan suhbatlar o'tkazildi.

Voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlarini ta'minlash ustidan prokuror nazorati, shuningdek, ta'lim nazorati yoki ta'lim vasiyligi sifatida ham tanilgan, bir yurisdiksiyadan boshqasiga farq qiladi. Biroq, ushbu konsepsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan ba'zi umumiy o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

◆Huquqiy asos. Ta'lim huquqlari ustidan prokuror nazoratining huquqiy bazasi, odatda, voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlarini himoya qilish qilishda prokurorlarning roli va majburiyatlarini belgilaydigan qonunlar, qoidalar va siyosatni o'z ichiga oladi.

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. 1-jild, Toshkent, „O'zbekiston“, 2017, 592 bet.

◆Huquqlarni himoya qilish. Ushbu kontekstda prokuror nazoratining asosiy maqsadi voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlarini himoya qilishdir. Bunga sifatli ta'lim olish, kamsitishlardan xalos bo'lish va xavfsiz va inkluziv ta'lim muhiti huquqini ta'minlash kiradi.

◆Tergov va ijro. Prokurorlar ta'lim huquqlarining buzilishi bilan bog'liq shikoyatlarni tekshirish vakolatiga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, ular ushbu huquqlarni buzganligi aniqlangan shaxslar, muassasalar yoki tashkilotlarga qarshi qonuniy choralar ko'rishlari mumkin.

◆Advokatlik. Prokurorlar, ko'pincha, voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlari xavf ostida bo'lgan hollarda advokat sifatida harakat qilishadi. Bu sud jarayonlarida yoki ta'lim muassasalari bilan muzokaralarda bolaning manfaatlarini himoya qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

◆Idoralararo hamkorlik. Ta'lim bo'limlari, bolalarni himoya qilish idoralari va huquqni muhofaza qilish organlari kabi tegishli davlat idoralari bilan hamkorlik keng tarqalgan. Bu voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun muvofiqlashtirilgan harakatni ta'minlaydi.

◆Monitoring va muvofiqlik. Prokurorlar ta'lim muassasalarining qonun va qoidalarga muvofiqligini nazorat qilish uchun javobgar bo'lishi mumkin. Bu muntazam tekshiruvlar va auditlarni o'tkazishni o'z ichiga olishi mumkin.

◆Tuzatish. Qonunbuzarliklar aniqlanganda, prokurorlar ta'lim muassasalari bilan tuzatish ishlari rejalarini ishlab chiqish va voyaga yetmaganlarning huquqlari tiklanishini ta'minlashi mumkin. Bu yaxshilanishlarni yengillashtirish uchun ko'rsatma va nazoratni o'z ichiga olishi mumkin.

◆Maxfiylik. Voyaga yetmaganlarning ishtirokini hisobga olgan holda, prokurorlar, ko'pincha, ishtirok etgan bolalarning shaxsiy hayoti va farovonligini himoya qilish uchun yuqori darajadagi maxfiylik bilan ta'lim huquqlari bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqadilar.

◆Qonuniy choralar. Jiddiy yoki doimiy qoidabuzarlik holatlarida prokurorlar qonuniy choralar ko'rishlari mumkin, ular sud ishlarini qo'zg'atish, buyruq izlash yoki ta'lim huquqlarini buzganlik uchun javobgar shaxslar yoki muassasalarga nisbatan jinoiy ayblovlarini o'z ichiga olishi mumkin.

◆Jamiyat ta'limi. Prokurorlar voyaga yetmaganlar uchun ta'lim huquqlarining ahamiyati to'g'risida xabardorlikni oshirish va shaxslarni bu boradagi qonuniy majburiyatlari to'g'risida xabardor qilish uchun jamoatchilikni targ'ib qilish va o'qitish bilan shug'ullanishi mumkin.

◆Ixtisoslashgan bo'linmalar. Ba'zi yurisdiksiyalarda prokuratura tarkibida voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlari bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan ixtisoslashtirilgan bo'linmalar yoki idoralar tashkil etiladi. Ushbu bo'linmalar ushbu sohada tajribaga ega bo'lgan advokatlar va yordamchi xodimlardan iborat bo'lishi mumkin.

◆Hisobot berish mexanizmlari. Jismoniy shaxslar uchun ta'lim huquqlarining buzilishi bilan bog'liq shikoyatlar berish uchun aniq hisobot mexanizmlarini yaratish prokuror nazoratining asosiy tarkibiy qismidir. Ushbu mexanizmlar tashvishlarni to'g'ri hal qilishni ta'minlaydi.

◆Profilaktika choralari. Prokurorlar qonunbuzarliklarga javob berishdan tashqari, voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlarini himoya qiladigan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar paydo bo'lishining oldini oladigan siyosat va amaliyotni targ'ib qilish kabi profilaktika choralari ustida ishlashlari mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim huquqlari ustidan prokuratura nazoratining o'ziga xos xususiyatlari va majburiyatlari bir yurisdiksiyadan boshqasiga sezilarli darajada farq qilishi mumkin, chunki huquqiy tizimlar va ustuvorliklar farqlanadi. Shu sababli ushbu kontekstda prokuratura nazoratining aniq rollari va funksiyalarini tushunish uchun ma'lum bir yurisdiksiyadagi tegishli qonunlar va qoidalarga murojaat qilish juda muhimdir.

Muhokama. Yuqorida muhokama qilingan prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari birgalikda voyaga yetmaganlarning ta'lim huquqlarini himoya qilishning yanada mustahkam va samarali tizimiga yordam beradi. Prokuror nazorati qonunchilik bazasini yaratish, hisobdorlikni oshirish, muvofiqlikni ta'minlash va muntazam monitoring olib borish orqali voyaga yetmaganlarning xavfsiz va adolatli muhitda sifatli ta'lim olishlarini ta'minlaydi.

Prokuror nazorati ham xolis va mustaqil bo'lishning afzalliklariga ega. Prokurorlar ta'lim muassasalari bilan bog'liq emas, bu manfaatlar to'qnashuvi ehtimolini kamaytiradi. Ushbu mustaqillik ularning ta'lim huquqlari buzilishini obyektiv va xolisona hal qilish qobiliyatini oshiradi.¹

¹ Старцева-Тарасова Валерия Ивановна. Социальная работа общеобразовательной школы как средство профилактики правонарушений подростков. Ставрополь, 2005.

Bundan tashqari, prokuror nazorati siyosat va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi. Ta'lim to'g'risidagi qonunlar va qoidalar faqat ularning bajarilishi kabi samaralidir va prokurorlar huquqiy qoidalarni voyaga yetmaganlarga foyda keltiradigan mazmunli harakatlarga aylantirishda muhim rol o'ynaydi.

Voyaga yetmaganlar uchun ta'lim huquqlarini ta'minlash ustidan prokuror nazorati adolatli va adolatli ta'lim tizimining hal qiluvchi tarkibiy qismidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan, mustahkam qonunchilik bazasi, javobgarlik, ijro etish mexanizmlari va muntazam monitoring birgalikda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Prokurorlar ta'lim muassasalarini javobgarlikka tortish orqali har bir bola sifatli ta'lim olishi va o'z salohiyatini to'liq rivojlantirishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, prokuror nazorati ta'lim tizimining muhim ustuni bo'lib, voyaga yetmaganlarning huquqlari himoya qilinishini va ular o'zlariga munosib ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Ushbu nazoratni kuchaytirish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hal qilish orqali jamiyatlar o'zlarining eng yosh a'zolari uchun yanada adolatli va adolatli kelajak sari harakat qilishlari mumkin.

Xolov Sherali (Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi; Sheralixolov83@gmail.com)
GLOBAL IQTISODIY TENDENSIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada global iqtisodiy tendensiyalarning o'ziga xos xususiyatlari va O'zbekiston iqtisodiy tizimiga ta'siri bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilingan. Saqlanib qolayotgan mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bilan bog'liq nazariy fikr-mulohazalar bildirilgan.*

***Аннотация.** В статье анализируются особенности мировых экономических тенденций и процессов, связанных с их влиянием на экономическую систему Узбекистана. Представлены теоретические мнения, связанные с существующими проблемами и способами их устранения.*

***Annotation.** The article analyzes the specific characteristics of global economic trends and the processes related to their impact on the economic system of Uzbekistan. Theoretical opinions related to existing problems and ways to eliminate them are presented.*

***Kalit so'zlar:** globllashuv, zamonaviy tendensiyalar, iqtisodiy tizim, integratsiya, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash.*

***Ключевые слова:** глобализация, современные тенденции, экономическая система, интеграция, модернизация, диверсификация.*

***Key words:** globalization, modern trends, economic system, integration, modernization, diversification.*

Kirish. Global tendensiyalarning turli xalqlar hayotiga, davlatlar iqtisodiy tizimiga ta'siri doirasini aniqlash muhim masala, ayni paytda, jiddiy muammodir. Shu sabablardan kelib chiqib, ushbu muammolarni samarali hal qilish, mamalakatning milliy-iqtisodiy rivojlanish modellarini belgilash, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash hamda mavjud muammolarning oqilona hal etilishida global ahamiyatdagi tendensiyalarning ta'sirini to'g'ri baholay olish lozim. Chunki hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda [1]. Ushbu muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkab vazifalarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, ko'p jihatdan, kishilarning iqtisodiy saviyasiga, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun-qoidalarni, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan strategik dasturlar mazmunini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globllashuv davlatlarning iqtisodiy siyosat sohasidagi ustamonlik bilan harakat qilishlarini cheklaydi, lekin hech ham uni bekor qilmaydi. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash bugungi kunda eng muhim ustuvor vazifa sifatida qolmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda milliy iqtisodiyot global iqtisodiyotning ajralmas elementi sifatida uning bilan hamohang tarzda o'zgarib va

¹ Ismailov N.T. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning individual profilaktikasi. Yurid. fan. nomz. ilm. dar. olish uchun diss... avtoref., Toshkent, TDYU, 2006.

rivoj topib bormoqda. Shu boisdan global iqtisodiyotga xos bo'lgan ijobiy va tendensiyalar O'zbekiston sharoitida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, bir tomondan, barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham milliy iqtisodiyot liberallashtirishda, uning o'zga iqtisodiyotlar bilan aloqalari intensivlashmoqda, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar potensialidan foydalanish, iqtisodiy ko'mak olish imkoniyatlari kengaymoqda. Ikkinchi tomondan, jahonda avj olayotgan iqtisodiy proteksionizm O'zbekiston eksport salohiyatini oshirishga xalal bermoqda. Jahon bozorida narxlarning yuqori holatligi mamlakat eksporti va importi hajmiga, iste'mol bozoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik faoliyati mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng voqelikka aylangan faoliyat turlaridan biridir. Biroq bundan O'zbekistonda tadbirkorlik keyingi 30 yildagina qaror topdi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tadbirkorlik faoliyati bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan kishilar barcha zamonlarda ham bo'lgan. Mustaqillik yillarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berildi. Bu e'tiborning samarasi o'laroq, masalan, 2015-yilga kelib, "kichik biznes subyektlarida band bo'lganlar soni 10,2 mln kishidan oshdi. Bu esa iqtisodiyotda jami ish bilan band bo'lganlarning 77,9 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi 2005-yildagi 38,2 foizdan 56,5 foizga yetdi. Kichik biznes ulushi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda 38,9 foizni, eksportda esa 26,9 foizni tashkil qildi" [2.21].

Biroq keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik harakatini avj oldirishga, shu jumladan, yigit va qizlarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor berilganiga qaramasdan, bu faoliyatga to'siq bo'lib turgan ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarning mavjudligi ayrim hollarda yoshlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishdan hadiksirashlariga, xavfsirashlariga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatining yoshlar turmush tarzini optimallashtirish borasidagi imkoniyatlari to'liq ro'yobga chiqmay qolmoqda. Binobarin, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va shuning bilan ularning turmush tarzlarini tubdan o'zgartirish uchun aynan ana shu muammolarni bartaraf etishga diqqatni jamlash zarur bo'ladi. Bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan choralar haqida gapirganda, birinchi navbatda, tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan korrupsion holatlarni bartaraf etish zaruriyatini tilga olish lozim bo'ladi. Umuman olganda, bugungi kunda korrupsiya jahonning barcha mamlakatlarida tadbirkorlikka to'siq bo'lib qolmoqda, investitsiya muhitini yomonlashtirmoqda. "Tahlillarga ko'ra, bu illat jahon iqtisodiyotiga har yili o'rtacha 2,6 trillion dollar zarar keltiradi" [3]. Afsuski, mamlakatimiz ham ushbu illatdan xalos bo'lganicha yo'q. U ijtimoiy hayotning turli sohalarida, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatida ham bot-bot uchrab turibdi. "Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarida korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi" [4.42]. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'tkazgan so'rov natijalariga qaraganda, hanuzgacha so'rovdan qatnashgan tadbirkorlarning 69 foizi korrupsion holatlarga ko'p bora duch kelmoqdalar [5]. Har qanday chegaradan yuqori turgan global jihatdan qanchalik uzoqdaligimizni anglasak ham, bir necha yo'nalishlar bo'yicha davlatlarning roli o'zgargan. Davlatlar kapitalni jalb qilish va ushlab qolish va mustaqil iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lsa ham, ularning roli nazoratda emas, balki iqtisodiyotni tartibga solishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Global iqtisodiyot – bu ulkan ishlab chiqarish va savdo, global moliyaviy va planetar miqiyosda axborot tarmog'i tomonidan shakllangan ajralmas global tizimga bosqichma-bosqich aylanib borayotgan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidir.

Global iqtisodiyotning funksional elementlari:

1. Ishlab chiqarishning globallasuvi va global ishlab chiqarish.
2. Global moliyaviy tizim.
3. Tovar va xizmatlar savdosining global tizimi.
4. Kapital, ishchi kuchi va informatsion (axborot) texnologiyalarining global bozorlari.
5. Intellektual faoliyat natijalari bilan ayirboshlashning global tizimi.

Global iqtisodiyot elementlarini shakllanish jarayoni bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda. Ulardan birinchisi, mamlakatning ichki bozorida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sotish, bir tomondan, ishlab chiqarish ko'lamining sezilarli darajada oshishi, boshqa tomondan, mamlakat ichidagi ehtiyojlarning aynan milliy ishlab chiqarish tovarlari va xizmatlariga nisbatan to'yinganligi bilan bog'liq bo'lmoqda. Shu asosda mamlakatda yaratilgan yalpi mahsulotni qiymat va natural-ashyoviy shaklda sotish uchun tashqi bozorlarni doim izlash ehtiyoji vujudga keladi. Yana bir boshqa yo'nalish uning teskarisi bo'lib, u milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va kengayishini

ta'minlaydigan barcha mehnat vositalari va predmetlarining yetishmasligi sababli jahon bozoriga keng ko'lamli chiqishni taqozo etadi.

Global iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

–xalqaro savdo asosidagi rivojlangan xalqaro tovar ayirboshlash sohasi;

–ishlab chiqarish omillari (kapital, ishchi kuchi, texnologiya) xalqaro harakatining rivojlangan sohasi;

–bir nechta mamlakatlarda joylashgan korxonalarining xalqaro ishlab chiqarishning shakllari;

–tovarlar va ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan mustaqil xalqaro moliyaviy soha;

–iqtisodiy taraqqiyotning muvozanati va barqarorligini ta'minlash maqsadida xalqaro va davlatlararo, davlatlararo va nodavlat tartibga solishning xalqaro mexanizmlari tizimi;

–davlatlarning ochiq iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan iqtisodiy siyosati.

Dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiyoti yanada ochiq bo'lib bormoqda, bu esa ularning jahon iqtisodiy jarayonlarida faol ishtirok etishiga yordam beradi va tovar eksportining jahon YAMdagi ulushini barqaror o'sish tendensiyasini ta'minlaydi. Masalan, 1913-yildagi 7,9%dan. 1929-yilda 9%gacha, 1960-yilda 10%, 1970-yilda 14,5%gacha, 2000-yilda 19%, 2018-yilda 21,7% tashkil etdi va yuqori daromadli mamlakatlarda – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo (Yevropa Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti) – tovarlar va xizmatlar eksportining ulushi (YIMga nisbatan%) 70%ni tashkil qiladi. Tovarlar eksportining o'rtacha yillik o'sish sur'ati YIM o'sishidan qariyb ikki baravar yuqori. Mazkur jarayon xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayoni avj oldirdi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mehnat taqsimoti asosida ma'lum bir davlatlar xo'jaliklarining birlashishi hamda o'zaro aloqalarining samarali rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarga turli shakl va darajada ta'sir o'tkazishi mumkin. Xalqaro iqtisodiy integratsiya xo'jalik munosabatlari baynalmilallashuvining yangi, shu bilan birga, murakkab bosqichi bo'lib, jahon iqtisodiyotining yuqori, samarali va kelajakka yo'naltirilgan rivojlanish nuqtasi hisoblanadi. Bunda faqatgina milliy xo'jaliklar birlashibgina qolmasdan, balki iqtisodiy muammolarning yechimi hamkorlikda hal etilishi ta'minlanadi. Shu o'rinda aytish joizki, iqtisodiy integratsiya mamlakatlarni birgalikda faoliyat yuritishga yetaklovchi jarayon sifatida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

–turli mamlakatlarning milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik hamda ularning to'liq yoki qisman umumiylashuvi;

–mamlakatlar o'rtasida tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchi harakatidagi to'siqlarning qisman yoki to'liq bartaraf etilishi;

–yagona bozor yaratish maqsadida ma'lum bir davlatlar bozorlarining bosqichma-bosqich birlashuvi;

–turli mamlakatlarga taalluqli bo'lgan xo'jalik subyektlari o'rtasidagi farqlarning birin-ketin bartaraf etilishi;

–har bir hamkor davlatda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi chet el subyektlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlari ikki tomonlama, bir nechta mamlakatlar va hududlararo bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonda integratsion birlashmalarining asosiy masalalaridan biri ularning hududiy darajada rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bu masalada, odatda, davlatlararo boshqaruv tizimi joriy etilib, yakka umumiy mintaqaviy xo'jalik majmuyi tashkil etiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Globallashuv zamonaviy jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi eng asosiy jarayonlarning biri bo'lib, xo'jalik hayoti baynalmilallashuvining yuqori bosqichi hisoblanadi. Hozirgi davrda tashqi omillarni hisobga olmasdan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Bugungi kunda axborotlashtirish, axborot texnologiyalari xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biriga aylanmoqda, xalqaro miqyosda joriy iqtisodiy va valuta-moliyaviy jarayonlarni milliy darajada tartibga solishdan yuqori turuvchi, davlatlararo tartibga solishga intilishning kuchayib borayotganligi ham globallashuv jarayonlarini chuqurlashtirmoqda. Natjada milliy iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish maqsadida antiglobalistlar harakati ham vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakun-

lari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2017-yil 16-yanvar.

2. Zahirova G.M., Qodirov S.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda mahalliy hokimiyat organlarining roli. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T., O'zMU, 2016, 21-bet.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlari takomillashtiriladi. uza.uz, 2020, 11-fevral.

4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild, T., "O'zbekiston", 2020, 42-bet.

5. Tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan korrupsion holatlar bo'yicha so'rovnomasi o'tkazildi. anticorruption.uz, 2020, 16-dekabr.

**Gulboyev Bobir (Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi; Bobirgulboyev77@gmail.com)
HOZIRGI ZAMON SIVILIZATSIYASI: XUSUSIYATLARI VA XARAКTERI**

Аnnotatsiya. Maqolada sivilizatsiya tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tarixiy shakllari va tip-lari bilan bog'liq nazariy fikr va mulohazalar o'rganilgan. Sivilizatsiya tushunchasiga bo'lgan turli yon-dashuv va qarashlar tahlil qilingan, zamonaviy jamiyatning xarakterli xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация. В статье исследуется понятие цивилизации, ее сущность, исторические фор-мы и виды, теоретические взгляды и соображения. Анализируются различные подходы и взгляды на понятие цивилизации, выявляются характерные черты современного общества.

Annotation. The article explores the concept of civilization, its essence, historical forms and types, and theoretical opinions and considerations. Various approaches and views to the concept of civilization are analyzed, the characteristic features of modern society are revealed.

Kalit so'zlar: globllashuv, zamonaviy tendensiyalar, sivilizatsiya, integratsiya, axborotlashgan ja-miyat, texnogen sivilizatsiya, din, madaniyat.

Ключевые слова: глобализация, современные тенденции, цивилизация, интеграция, инфор-мационное общество, техногенная цивилизация, религия, культура.

Key words: globalization, modern trends, civilization, integration, information society, man-made civilization, religion, culture.

Kirish. Sivilizatsiya so'zi insoniyat tarixidagi sifat chegarasini belgilash bilan bog'liq. Ushbu tushunchaning yuzaga kelishi ma'rifatparvarlik davridagi Yevropa fani va adabiyotining yutug'idir. Ammo sivilizatsiya haqidagi ilk tushunchalar ancha ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi davrlardayoq insonlar o'zlarining dunyolarini o'zgaral dunyosi bilan solishtira boshlashgan. Antik davr sivilizatsiya so'zi bilan belgilanmasa-da, o'z taraqqiyot darajalariga varvarlikni qarama-qarshi qo'yganlar. Dastlab, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari sinonim sifatida qo'llanilgan, ammo bora-bora bu ikki atama o'rtasida farq paydo bo'ldi. Masalan, nemis faylasufi I.Kant bu tushunchalar o'rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko'rsatib o'tgan edi. Ko'pchilik faylasuflar "sivilizatsiya" deganda jamiyatning moddiy-texnika yutuqlarini, "madaniyat" deganda esa faqat uning ma'naviy qadriyatlarini tushunishgan. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi O.Shpengler "Yevropa quyoshining so'nishi" asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama qarshi qo'ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o'giradi. Madaniyatning paydo bo'lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog'liq bo'lsa, sivilizatsiya – tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisa-dir. Sivilizatsiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Sivilizatsiyalashgan hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi. Sivilizatsiya kategoriyasining serqirraligi va ko'p serma'noligi tufayli unga aniq ta'rif berish mushkul. "Sivilizatsiya"ning yuzdan ortiq ta'riflari mavjud bo'lib, har bir o'ziga xos ta'rifida ijtimoiy hayotning ma'lum tomonlari, jihatlariga alohida urg'u beriladi-ki, bu, umuman, sivilizatsiyaning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini to'laroq anglab etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Bugungi kunda sivilizatsiya tushunchasi turli kontekstida tahlil qilinmoqda. Bu esa turli yondashuvlar va qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Sivilizatsiya tushunchasi, madaniyat tushunchasi kabi katta ahamiyatga ega bo'lgan, ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo'llaniladigan tushunchadir. Sivilizatsiya tushunchasi lug'aviy jihatdan lotincha fuqarolikka oid, fuqarolik jamiyati, moddiy va ma'naviy madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotida erishilgan muayyan bosqichini, madaniy taraqqiyot darajasini ifodalaydi [1.441]. U ma'rifat (XVIII) davrida ilmiy tushuncha

sifatida muomilaga kiritilgan. J.Starobinskiyning fikricha, sivilizatsiya tushunchasini ilk bor fransuz iqtisodchisi Viktor Riketi Mirabo (1715–1789) o‘zining “Qonunlar do‘sti” asarida qo‘llagan. 1767-yilda u shotlandiyalik ma‘rifatparvar Adam Fergusson (1723–1816) asarida paydo bo‘ldi. A.Fergusson ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish mezoni sifatida “madaniyatning o‘zlashtirish darajasini” ilgari surdi: yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya. Insoniyat ancha tarixiy davrgacha yovvoyilik davrida qolib, ma‘lum bosqichga o‘tgandan keyin sivilizatsiya belgilari paydo bo‘la boshladi. Keyinchalik, shved olimi S. Nilson bu davrlashtirishni biroz to‘g‘irladi va to‘ldirdi: yovvoyilik, nomadizm (yunon. nomados–ko‘chib yuruvchi, ko‘chmanchilik), dehqonchilik va sivilizatsiya.

Ma‘rifatparvarlik davridagi ensiklopediyalarda sivilizatsiya tushunchasi taraqqiyot konsepsiyasi bilan uyg‘unlashib ketdi. Fransuz faylasuf ma‘rifatparvarlari aql va adolatga asoslangan jamiyatni sivilizatsiyalashgan jamiyat deb bilganlar. Sivilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi va XVIII asrdan “sivilizatsiya” tushunchasi tarixchilar lug‘atidan mustahkam o‘rin oldi. Shu davrdan sivilizatsiyaning turli nazariyalari shakllana boshladi. XIX asr boshlaridayoq sivilizatsiyalar to‘g‘risida ko‘p-likda fikr yuritila boshlandi, bu esa xalqlar sivilizatsion taraqqiyotining rang-barangligini tan olishni anglatardi. Sivilizatsiya tushunchasini shotlad tarixchisi va faylasufi A.Fergusson jahon tarixiy taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichini ifodalsh uchun, fransuz ma‘ri-fatparvarlari aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat ma‘nosida ishlatganlar [3.298]. Umuman olganda, sivilizatsiya yovvoyilikka nisbatan inson va jamiyatning holatini angalatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sivilizatsiya tushunchasining terminologik ma‘nosi uning lug‘aviy ma‘nosidan ancha farq qiladi. Hozirgi davrda sivilizatsiya tushunchasini ko‘plab ma‘nolarda qo‘llaniladi:

- “Madaniyat” tushunchasining sinonimi sifatida (F.Shelling);
- madaniyatning antipadi sifatida (N.Berdiyayev, N.Rerix);
- madaniyatning zaiflashishi, uning tug‘ilishi va o‘lishi bosqichlari (O.Shpengler);
- Jamiyatning konkret tarixiy turi;
- diniy birlik sifatida;
- jamiyatning texnologik rivojlanish tarixini ifodalsh uchun.

XVIII asrdan boshlab fransuz ma‘rifatparvarlari tufayli sivilizatsiya atamasi fanda keng tarqaldi. Ma‘rifatparvarlar sivilizatsiyani aql va adolatga asoslangan jamiyat sifatida talqin qilib, sivilizatsiyani madaniyat tushunchasining sinonimli sifatida ishlatdilar. Bu an‘ana ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan. Ayniqsa publitsistik adabiyotlarda ular sinonim sifatida ko‘p ishlatiladi. Sivilizatsiya to‘g‘risida yozgan olimlar, xususan, italiyalik Jan Batista Viko (XVII–XVIII asr I yarmi) sivilizatsiyalar tug‘iladi, rivojlanishning cho‘qqisiga chiqadi, keyin asta-sekin so‘na boshlaydi va halok bo‘ladi, deya uning hayotida uch davrni ko‘rsatadi. Bu sivilizatsiya tushunchasiga ijtimoiy organizm sifatida qarash oqibatidir. Kishilik jamiyati haqiqatan yaxlit ijtimoiy organizmdir. Sivilizatsiya esa uning taraqqiyotining alohidalashgan yopiq diskret ko‘rinishidir.

Aslini olganda, sivilizatsiya jamiyatning moddiy va ma‘naviy taraqqiyotda erishgan darajasini anglatadi. Bunda jamiyat hayotining barcha sohalar, yo‘nalishlari, qatlamlari, qismlar, moddiy va ma‘naviy hayot, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong, mafkura bus-butunlikda yagona tizim sifatida qaraladi. Bir davrda yashagan sivilizatsiyalarni o‘zaro farqlashda keng ma‘nodagi ma‘naviyat asosiy mezondir. Sivilizatsiya jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi shaklidir [2.81].

Zamonaviy sivilizatsiya inqirozining asosida jamiyatning o‘zib borayotgan ehtiyojlari va tabiiy muhitning ularni qondirish qobiliyati o‘rtasidagi ziddiyat yotadi. Bu qarama-qarshilikni bartaraf etib bo‘lmaydi. Bu qarama-qarshilikni hal qilmasdan turib, jahon sivilizatsiyasining barqaror rivojlanishga o‘tishini amalga oshirish mumkin emas. Aynan bugungi kunda global tartibning qarama-qarshiliklari va muammolari tobora keskinlashib borayotganligi sababli zamonaviy sivilizatsiya muammolari va istiqbollari alohida ma‘no kasb etmoqda.

Zamonaviy falsafa ijtimoiy adolatni sanoat sivilizatsiyasi o‘rnini bosadigan axborot jamiyatining mohiyati deb biladi. Uning jihatlari quyidagilardan iborat: ko‘p tarmoqli iqtisodiyot va davlat sektorining yetakchi roli bilan tartibga solinadigan bozor mavjudligi, mehnat bazasi, xodimlarga mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to‘lash, jamiyatning ma‘lum sabablarga ko‘ra, ishlay olmaydigan qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoya qilish, jamiyat hayotining barcha sohalarida demokratik tashkil etish shakllari, barcha ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish, fan va madaniyatning yuqori darajasi, ayniqsa, huquqiy va ma‘naviy.

Ijtimoiy adolat jamiyati – bu mehnatning miqdori va sifatiga qarab shaxs-ning mavqeini belgilaydigan fuqarolik jamiyati. U kapitalizm va sotsializm bilan solishtirganda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida yuqori ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Sivilizatsiyalarning o'z-garishi–yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda hayotning davom etishi. Hayotning sotsial-madaniy omillari evolyutsiyasi jarayonida sivilizatsiya nafaqat ijtimoiy jarayonning uzluksizligini, balki uning uzluksizligini ham ta'minlaydi. Sivilizatsiya o'zining rivojlanish jarayonida o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi uzviylikni saqlash mexanizmini shakllantiradi. Global integratsiya jarayonlari, iqtisodiy, etnomilliy, siyosiy va ijtimoiy harakatning boshqa subyektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir ko'lamining o'sib borishi zamo-naviy sivilizatsiyani insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichiga olib keladi. Zamonaviy insoniyat muammolarining dolzarbligini shundaki, sivilizatsiya nafaqat o'zini-o'zi yo'q qilishga, balki hayotning barcha ulug'vorligini yo'q qilishga qodir. Hozirgi vaqtda ko'plab faylasuflar, sotsiologlar va tarixchilar insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida butun sayyorada yagona sivilizatsiya shakllanmoqda, deb o'ylashga moyil. Ushbu g'oyaning fan va jamoatchilik ongida jadallashishi zamonaviy dunyoda ijtimoiy va madaniy jarayonlarning globallashtirishdan xabardor bo'lishga yordam berdi. Globallashtirish, birinchi navbatda, Yerdagi barcha ijtimoiy faoliyatning baynalmilallashuvi bilan bog'liq. Bu baynalmilallashuv hozirgi davrda butun insoniyatning yagona ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa aloqalar, o'zaro ta'sirlar va munosabatlar tizimiga kiritilganligini bildiradi. Shunday qilib, zamonaviy davrda o'tmishdagi tarixiy davrlarga nisbatan insoniyatning sayyoraviy birligi beqiyos oshdi, bu umumiy taqdir va umumiy mas'uliyat bilan bog'liq bo'lgan tubdan yangi supertizimdir. Shu bois olimlar va faylasuflar yagona sivilizatsiyaning shakllanishi va yangi sayyoraviy tafakkur uslubi zarurligi haqida gapirishni qonuniy deb biladilar. Bunday globalistik yondashuv amerikalik sotsiologlar D.Bell, Z.Bjezinski, A.Toffler va boshqalarning “postsindustrial jamiyat”, “texnologik davr” tushunchalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu tushunchalar har bir texnologik inqilob nafaqat jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarida, balki odamlarning butun turmush tarzida ham chuqur o'zgarishlarga olib kelishiga asosiy e'tiborni qaratadi. Jamiyat axboroti bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy texnologik inqilobning o'ziga xos xususiyati shundaki, u odamlarning o'zaro ta'sirini universallashtirish va globallashtirish uchun tubdan yangi shart-sharoitlarni yaratadi. Ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalarning keng rivojlanishi, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining chuqurlashishi tufayli insoniyat yagona ijtimoiy-madaniy yaxlitlikka birlashdi. Bunday birlikning mavjudligi butun insoniyatga va shaxsga nisbatan o'z talablarini belgilaydi. Texnik ishlab chiqarish va insonning butun faoliyati darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, insonning o'zi, uning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati qanchalik yuqori bo'lishi kerak, shuning uchun shaxsga qo'yiladigan yangi talablar: u yuqori malakani, texnologiyani virtuoz mahorat bilan uyg'unlashtirishi kerak, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy umuminsoniy qadriyatlar bilan o'z mutaxassisligi bo'yicha yakuniy kompetensiya.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusions and recommendations). Zamonaviy dunyoda ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning globallashtirish ijroiy tomonlari bilan bir qatorda “zamonamizning global muammolari” deb ataladigan bir qator jiddiy muammolarni yuzaga keltirdi: ekologik, demografik, siyosiy va boshqalar. Bu muammolarning barchasi insoniyatning buguni va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning har birini o'ziga xos tahlil qilish maxsus fanlar: sotsiologiya, demografiya va boshqalar vakolatiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild, T., O'zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008, 441-bet.
2. A. Erkayev. Ma'naviyatshunoslik. T., “Ma'naviyat”, 2018, 81-bet.
3. Falsafa ensklopedik lug'at. T., O'zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010, 298-bet.

**Mardiyev To'liq Kulibayevich (SamISI dotsenti,
“Tillarni o'qitish” kafedrasi mudiri; tulkinmardiyev@umail.uz.)**

INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIOLOGIK BIRLIKLARIDA VATAN KONSEPTNING METAFORIK IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikki qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida Vatan tuyg'usining metaforik jihatdan ifodalanishi qator maqollar va paremiologik birliklar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan o'xshash va umumiyligi na'mayon bo'ladi. Maqolada Vatan tuyg'usining mazkur tillarda mavjud bo'lgan izohli lug'atlar yordamida qiyosiy tahlili berilgan. Jumladlarda Vatan tuyg'usining mental ma'

nolari nafaqat nazariy, qolaversa, ushbu leksemaning sematik jihatdan qanchlik boyligi donishmandlar fikrlari bilan ham maqolada bayon etiladi.

Аннотация. В данной статье представлен ряд пословиц и паремнологических единиц метафорического выражения чувства Родины в двух неродственных языках – английском и узбекском, которые семантически близки и их общность очевидна. В статье проводится сопоставительный анализ чувства Родины с помощью толковых словарей, имеющихся в этих языках. Хотя ментальные значения чувства Родины в предложениях остаются не только теоретическими, в статье также описывается семантическая насыщенность этой лексемы мнениями ученых.

Annotation. This article presents a number of proverbs and a couple of paremiological units of metaphorical expression of the feeling of the Motherland in two unrelated languages – English and Uzbek, which are semantically close and their commonality is obvious. The article provides a comparative analysis of the feeling of the Motherland with the help of explanatory dictionaries available in these languages. Although the mental meanings of the feeling of the Motherland in sentences remain not only theoretical, the article also describes the semantic richness of this lexeme with the opinions of scientists.

Kalit soʻzlar: Vatan, tuygʻu, muhabbat, ezgulik, vatanparvar, sevish, inson, tanho, yurt, maskan, ona yer, tugʻilgan yer, uy.

Ключевые слова: Родина, чувство, любовь, добро, патриот, любить, человек, одинокий, страна, пристанище, родная земля, место рождения, дом.

Key words: motherland, feeling, love, goodness, patriot, person, lonely, country, place of birth, home.

Kirish. XXI asrda yuzaga kelgan tilshunoslikning yangi yoʻnalishlari til hodisalarini yangi nuqtayi nazarlar, mezonlar, meʼyorlar asosida tadqiq etishni taqozo etadi. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining oʻzaro kesishuvi sifatida maydonga kelgan lingvomadaniyatshunoslik sohasi “dunyoning til manzarasi”, “konsept”, “diskurs” kabi yangi tushunchalarning isteʼmolga kiritilishiga sabab boʻldi. Yangi tushunchalar, oʻz navbatida, til hodisalarini “inson+til+ madaniyat” prizmasi orqali oʻrganish zaruratini yaratdi. Metafora anʼanaviy tilshunoslikda maʼno koʻchishining usullaridan biri sifatida tadqiq etilgan. Tilshunoslikning stilistika boʻlimida esa metafora nutqning bezagi, fikr ifodalashning oʻziga xos shakli ekani eʼtirof etiladi. Lingvomadaniy tadqiqotlar doirasida maydonga kelgan ilmiy qarashlar metaforani maʼlum bir xalqning milliy, oʻziga xos, spetsifik dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim vositalardan biri tarzida oʻrganishning dolzarbligini koʻrsatdi. Metafora milliy dunyoqarashni ifodalovchi vositalardan biri ekanligi, ularni tarjimada qayta yaratishda tarjimon oldiga murakkab vazifani qoʻyadi.

Maʼlumki, etnospetsifik mentallik, madaniy dominantlar shakllanishi uchun bazaviy (tayanch) hisoblangan madaniyatning asosiy konseptlarini tadqiq etish favqulodda dolzarb muammoga aylangan. Har bir madaniyatda oʻzining asosiy konseptlari bor, ularni oʻrganish ustida hozirgi vaqtda faol ish olib borilmoqda. Olamning qadriyatli manzarasi tilda umuminsoniy va spetsifik qismlarni oʻz ichiga oladi, bunda ushbu qiyofaning spetsifik qismi obyektlarning xilma-xil nominativ zichligiga, obyektlarning turlicha baholash tasnifiga, qadriyatlarning har xil kombinatorligiga olib keladi. U oʻzaro bogʻlangan baholashning turli koʻrinishlarida rekonstruksiya qilinadi, ular huquqiy, diniy, axloqiy kodekslarga mos keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lingvomadaniy yondashuv milliy konseptosferaning xususiyatini madaniyatdan ong tomonga boʻlgan yoʻnalishini oʻrganadi. Bu yoʻnalishda izlanishlar olib borayotgan olimlar qatoriga Y.S.Stepanov, V.I.Karasik, V.A.Maslova, D.U.Ashurova va boshqalar kiradi. Bu yoʻnalishda konseptlar madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, obrazli, pragmatik va stilistik hodisa sifatida oʻrganiladi. Albatta, yuqorida koʻrsatilgan yoʻnalishlar shartli ravishda farqlanadi, chunki bunday turkumlash zamonaviy kognitiv tilshunoslikda mavjud boʻlgan qarashlarni belgilab beradi, xolos. Shuningdek, Azim Hojiyevning “Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati” nomli kitobida esa vatan soʻziga izoh berilishi bilan birgalikda, ushbu tushunchaga *mamlakat, yurt, diyor, el, mulk* kabi soʻzlar sinonim sifatida berilgan. Chunonchi, mashhur olim A.N.Tolstoy quyidagi fikrlari oʻrinlidir. *Vatanga nafi yoʻq. Yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun. Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslik.*

Ayonki, inson hammadan avval, oʻz mamlakatining farzandi, vatan manfaatlarini diliga jo qilgan shaxsdir. Shu sababli saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan. Biz ushbu maqolamizda nafaqat yuqoridagi nazariy fikrlar, qolaversa, ushbu fikrlar isbotini qadimgi oʻtmish avlodlarimizni boy madaniy meroslaridan foydalangan holda, misollar bilan bayon qilamiz. Jumladan, quyidagi oliyjanob fikrlarni bayon etamiz. Buyuk sarkarda Amir Temur shunday deydi; *Vatanparvar – oʻz vatani kamoloti yoʻlida, oʻz xalqiga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan in-*

sondir, xalqi va vatani ozodligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir. Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, bu kishini bashariyat haqidagi g'oyalar bilan ulg'aytiradigan maktabdir. Vatan g'oyasi hamma uchun bir xil manfaatlidir. U halol kishilarda jasorat haqida fikr uyg'otadi, nopoq kishilarni esa, agar vatan g'oyasi bo'lmaganda, qilishlari aniq bo'lgan qabihliklardan saqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada, asosan, tavsifiy, chog'ishtirma, konseptual tahlil usullaridan hamda til nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasida qo'llaniladigan ilmiy metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, u yoki bu leksemaning madaniy dominantasi asosiy so'z sifatida tan olish uchun mental (verbal)lik matnlarda umumqo'llanadigan frazeologizmlar tarkibida, maqol va matalar ichida bo'ladi. Biz kuzatishlarimizda qator maqollarni ko'rib tahlil qilganimizda shunga guvoh bo'ldikki, ikki qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida Vatan tuyg'usini metaforik jihatdan ifodalanishi uchun qator maqollar va paremiologik birliklar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan o'xshash va umumiyliги namayon bo'ladi. Masalan: *There is no place like home – O'z uying o'lan to'shaging. Bulbul chammanni sevar odam Vatanni—Every bird lives its own nest. O'z uyimning xushligi oyoq qo'limning bo'shligi. East or west home is best* [1.171].¹ Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, har ikki qardosh bo'lmagan tillardagi maqollarda nafaqat semantik o'xshashlik, qolaversa, strukturaviy jihatdan ham moslik holatlari mavjud.

Yana shunday fikrlar borki, zero, sevgisiz hayot bu hayot emas, shunchaki tirikchilik o'tkazishdir. Sevgisiz yashash mumkin emas, ayni shu sevis uchun ham odamga yurak berilgan va insonlar o'z yuragidagi bor iliq tuyg'larni ba'zan oshkora aytishga qiynaladi. Shu tufayli ushbu nozik tuyg'uni ba'zan she'riy misralar yoki boshqacha yo'llar bilan izhor qilishga harakat qilamiz. Umuman olganda, sevgi va muhabbat tuyg'ulariga ko'plab ta'riflar berilganligini ko'ramiz. Lekin xalqmizda Vatanga sevgi va muhabbat to'g'risida shunday iliq fikrlar bor. Har ikkala tilda Vatanga muhabbat uni sevish uning inson uchun tanho va yagonalagini ifodalovchi maqollar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan ikki qardosh bo'lmagan tilda aynan bir xil ma'noni anglatadi. Masalan, *One who does not love his homeland can love nothing – Vatanni sevmagan hech narsani seva olmaydi. To survive a winter in your native land is better than to live ten years of spring in another land – O'zga yurtida o'n yil bahorda yashagandan ko'ra o'z yurtida qishda yashagan maqul; The native land – is the past, the present and the future of a nation – Vatan xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi. Each has only one native land and only one mother – Har kishining bitta ona yurti va faqat bitta onasi bor* [1.170–171].²

Har ikki tilda keltirilgan misollarda paremiologik tushuncha lingvokonseptlarning konseptual belgilari va ularning lisoniy aks etishini, ifodalanishi, tasvirlashi, belgi strukturasi, definitsiya tomonlarining qiyosiy xarakteristikasi u yoki bu umumiylikka ega, ya'ni insondagi verbal his-tuyg'ular birdek aks etadi.

Tadqiqot mobaynida shuning guvohi bo'ldikki, Vatan tuyg'usini ifodalashda biz yuqorida ushbu konseptning yurt, maskan, ona yer, tug'ulgan yer, uy kabi sinonimlarning aynan ikki tilda maqollarda quyidagi ma'nolarni ifodalab kelganligini ko'ramiz. Masalan: *Kishi yurti sira yurtlik qilmaydi – A man's country is not a country at all; Qush ham ketsa keladi – o'z uyini sevadi – Every dog is a lion at home; Tug'ulgan yerdan ko'ngil uzilmas – the wider roam, the welcome home* [1.170–171] kabi maqollarda har ikki tilda Vatan tuyg'usining naqadar kuchli qudratga ekanligining guvohi bo'lamiz. Biz ushbu tadqiqotimizda yana quyidagi metaforik o'xshatishlar bilan misollarni davom ettiramiz. Kuzatishlarimizda ingliz tilida *Homeland, Matherland* leksemalaridan tashqari, Vatan konseptining turli *home, country, land* kabi so'zlar orqali berilgan maqollarni ham ko'rishimiz mumkin. Maqolada Vatanga xiyonat, uning qadriga yetmagan vatanfurushlarning oxiri voy bo'lishi, kerak bo'lsa, gadoy bo'lib xor-u zor holatlariga tushish barcha tillar kabi ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan maqollar orqali ushbu salbiy munosabatni ko'rsatishimiz mumkin. Masalan: *Vatan gadosi – kafan gadosi – Dry bread at home is better than roast meat abroad; Kishi yurti sira yurtlik qilmaydi – A man's country is not a country at all. O'lsang o'l vataningda bo'l – home is home though it's never so* [1.156–171] kabi maqollarda insonning vatan oldidagi burchi va o'zga yurt hech qachon yurt bo'la olmasligi bayon etiladi.

Biz o'zbek xalqida inson yordan ayrilsa ham, eldan ayrilmasligi lozimligini ifodalovchi metaforik o'xshatishlarni tez-tez eshitamiz yoki nutqda qo'llaymiz. Masalan: *Yordan ayrilsang ham, eldan ayrilma. Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Yurtidan ayrilgan o'lguncha yig'lar. Yoringni gul orasidan izla, erkingni – el orasidan. Yigit g'ami elida, elning g'ami dilida.* Ko'rinib turibdiki, ushbu maqollarda inson uchun

¹ Караматова К., Караматов Х.С. Proverbs. Мақоллар. Пословицы. Т., “Мехнат”, 2000, 398-бет.

² Shu manba.

ona yurtning, elning qadri qanchalik ahamiyat kasb etishi va muhimligi tengsiz baholanadi. Yana shunday maqollar borki faqat o'zbek madaniyatiga urf odatlariga xos bo'lib, inglizlarda bunday mental ma'noni anglatuvchi maqollar diyarli kuzatilmaydi. Masalan: *Ayrimagin elingdan, Quvvat ketar belingdan. Vatanga kelgan – imonga kelar. Vatangado bo'lguncha, Kafangado bo'l. Vatandan yiroqlashgan – nomusdan o'lar* [4.58–162].¹

Yuqorida biz ko'proq o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan maqollarni tahlillariga e'tiborimizni qaratgan bo'lsak, endi biz ingliz madaniyatiga xos bo'lgan maqollarga ham izoh berishga harakat qilamiz. Jumladan, shunday maqollardan ayrimlarini berib o'tamiz. *The land is good where you were fed, but not better the one you were born on* (Siz oziqlangan yer yaxshi, lekin siz tug'ilgan joyingizdan yaxshiroq emas). *In his land one cannot be lost, outside it one cannot rejoice* (Uning yurtida odam yo'qolmaydi, undan tashqarida quvonib bo'lmaydi). *The native land is your mother, a foreign land – stepmother* (Vatan – onajon, begona yurt – o'gay ona). *He who doesn't live in his homeland knows nothing about the test of life* (O'z vatanida yashamagan odam hayot sinovi haqida hech narsa bilmaydi). *He who battles under the native skies gains the lion's courage* (Vatan osmoni ostida jang qilgan kishi sherning jasoratiga ega bo'ladi). Ushbu keltirilgan ingliz tilidagi maqollarda aksariyat metaforik holatlarni ifodalovchi misollar ingliz mentalitetiga va madaniyatiga xosligi bilan ma'lum ma'noda ajralib turibdi. Asosan, Vatan tuyg'usi va unga hurmat, uni himoya qilish, unga xizmat qilish, kerak bo'lsa, vatan osmon ostida jang qilish kabi-larning barchasi qanchalik sharafli vazifa ekanligi bayon etilgan.

Ingliz tilida shunday maqollar borki, ularning ayrimlari semantik jihatdan o'zbek tildagi maqollarga ham o'xshab ketadi. Jumladan, *It's better to be a poor man in your homeland than a king in Cairo* (Qohirada podshoh bo'lgandan ko'ra, o'z vataningizda kambag'al bo'lganingiz yaxshi). *He who doesn't live in his homeland knows nothing about the test of life* (O'z vatanida yashamagan odam hayot sinovi haqida hech narsa bilmaydi). *One loses his homeland – loses all* [8.125–162]² – *Inson vatanini yo'qotadi – hamma narsani yo'qotadi* kabi maqollarda vatanga sadoqat, hurmat, shuningdek, vatandan ayrilish, turli sinovlarda mardona munosabatda bo'lish kabi g'oyalar ifodalanadi.

Ingliz tilida yana shunday maqollar borki, ularda Vatan so'zi ona kabi muqaddas ekanligi bayon etiladi. Masalan: *The best country is your motherland, the best friend is your mother* (Eng yaxshi yurt – vatan, eng yaxshi do'st – ona). *House upon a rock, build one's* (Uyim tinch, ko'nglim tinch). Ko'rinib turibdiki ushbu maqoldagi mazmuni o'zbek tilida ham mavjud bo'lgan maqollar tarkibida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ingliz tilda shunday maqollar borki, ular ko'proq salbiy manoda kelib, ulardagi asosiy g'oya o'z vataniga nisbatan ijobiy fikrda bo'lmaslik namoyon etiladi. Masalan, *It is an ill bird that fouls its own nest* (O'lgisi kelgan shaqol o'z iniga qarab uvillar). *It's the man who make a city* (Yurtda odam bo'lmasa, to'ng'iz tepaga chiqarmish) kabi maqollarda asosiy g'oya vatanga muhabbat, sadoqat emas, balka xiyonat yoki ko'rolmaslik kabi salbiy g'oyalar bayon etiladi.

Metaforik birliklarning qiyosiy tahlili, avvalambor, ikki til uchun umumiy bo'lgan metaforik birliklarni ajratib olishdan boshlanadi. Ingliz va o'zbek tillari uchun vatan konseptning xuddi shirin-lazzatli substansiyadagi kabi ko'proq referensiya mavjud bo'lgan holatlarni ham kuzatishimiz mumkin. Masalan: *It is sweet and right to die for the homeland, but is sweeter to live for the homeland. The sweetest to drink for it. Therefore, let us drink to the health of the homeland* [9].³

O'zbek tilidagi maqollarning ko'pchiligi vatanga nisbatan *muhabbat, sadoqat va hurmat* kabi mental ma'nolar ifodalangan misollarni yuqorida bir necha holatda ko'rdik. Lekin yana shunday maqollar borki, ularda asosiy g'oya biomorf ma'noli fikrlarga tayanadi. Jumladan: *Baliq suv bilan tirik, Odam – el bilan. Begona tuproq – devona tuproq. Ona yerning tuprog'i – ona sutidan aziz. Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni. Bulbulga bog' yaxshi, Kaklikka – tog'* [4.16–48]. Ushbu misollar tahlilidan ko'rinib turibdiki, Vatanga muhabbat ishori turli xil o'xshatishlarga metaforalarga xos vaziyatlarni ko'rish mumkin. *Vatanga muhabbat tuproq, bog', yer, chaman* misolida ifodalash mumkin.

Shuningdek, o'zbek tili frazeologik yoki paremiologik matereallarda ham shunday maqollar borki, ulardagi asosiy metaforik g'oya boylik, qadr-qiymat ma'no – xususiyatlar ifodalanganligini kuzatish mumkin. *Ona yurtiing–oltin beshiging. Kishi yurtida shoh bo'lguncha, O'z yurtiingda gado bo'l* kabilar. Ushbu keltirilgan misollarda paremiologik tushuncha lingvokonseptlarning konseptual belgilari va ular-

¹ Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. Т., “Фан”, 1961, 162-бет.

² Apperson G.L. The Wordsworth Dictionary of Proverbs. Wordsworth Reference. 1993, p. 644.

³ www.specialdictionary.com/proverbs.

ning lisoniy aks etishini, ifodalanishi, tasvirlashi, belgi strukturasi, definitsiya tomonlarining qiyosiy xarakteristikasi u yoki bu umumiylikka ega, ya'ni insondagi verbal his-tuyg'ular birdek aks etadi.

Xulosa va takliflar:

– har ikkala tilda Vatanga *muhabbat* uni *sevish* uning inson uchun tanho va yagonalagini ifodalovchi maqollar mavjud bo'lib, ular semantik jihatdan ikki qardosh bo'lmagan tillarda aynan bir xil ma'noni anglatadi;

– ingliz va o'zbek tillari uchun vatan konseptning xuddi shirin-lazzatli substansiyadagi kabi ko'proq referensiya mavjud bo'lgan holatlarni ham kuzatishimiz mumkin;

– qiyoslanayotgan har ikki tilning lingvomadaniy jihatdan sezilarli darajada farqli tomonlarini uchratsak-da, lekin umumiylikka xos bo'lgan jihatlarni ham maqolada ko'rishimiz mumkin.

**Gapparova Mehribon Tulqin qizi (Navoiy davlat Pedagogika instituti doktoranti,
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi)**

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA LEKSIK SINONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikki til doirasida, ya'ni, o'zbek va ingliz tillaridagi leksik sinonimlarning leksikografik tahlili haqida fikr yuritimiz va misollar orqali ko'rib chiqamiz.*

***Аннотация.** В статье речь идёт о лексикографическом анализе лексических синонимов в рамках двух языков, то есть узбекского и английского, и рассмотрим их на примерах.*

***Annotation.** In this article, we will think about the lexicographical analysis of lexical synonyms within the framework of two languages, that is, Uzbek and English, and we will consider them through examples.*

***Kalit so'zlar:** stilistik tus berilishi, leksik birliklar, sinonimlik darajasi, so'zning ta'rifi, rasmiylik darajasi.*

***Ключевые слова:** стилистический тон, лексические единицы, уровень синонимии, определение слова, уровень формальности.*

***Key words:** stylistic tone, lexical units, level of synonymy, definition of the word, level of formality.*

Leksik sinonimlarning leksikografik tahlili o'xshash yoki ma'nosiga ko'ra yaqin bo'lgan, ammo stilistik tus berilishi, rasmiylik darajasi, qo'llanish ko'lami va boshqa xususiyatlariga ko'ra farq qilishi mumkin bo'lgan leksik birliklarni lug'atlarda aks ettirish spetsifikasini tadqiqot qilishdan iboratdir.

Y.Y.Sidelnikova sinonimlar tor ma'noda, lug'atda bir xil izohlanishi lozim, ya'ni, bir xil tarjima qilinishi, bir tushuncha, predmet yoki hodisani ifodalashi lozimligini ta'kidlaydi.¹

Leksik sinonimlarning leksikografik tahlili ularning strukturasi, sinonimlik darajasi, ya'ni, leksik birliklarning ma'nolari qanchalar o'xshash yoki farqli bo'lishi, sinonimlar qo'llaniladigan ishlatilish kontekstlarini tahlil qilish yo'li bilan ishlatilish xususiyatlarini aks ettirilishi ko'zda tutiladi va ma'nosidagi qanday nozik farqlar aniq bir kontekstlar bilan bog'langan bo'lishi aniqlanadi.

Lug'atlarning muayyan xalq ma'naviyati va milliy madaniyatida muhim o'rin egallashi isbot talab qilmaydigan holatdir. Ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'atlar ma'lum ijtimoiy vazifalar bajarishi, jumladan, kishiga muayyan hodisa yoki holat haqida ma'lumot berishi, uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtirishi; tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, doimo zamonaga hamnafas tarzda mukammallashib borishi zarur. Biroq lug'atlar qanchalik zamonaviy, mukammal bo'lmasin, davrdan ma'lum darajada orqada qolib, so'zlar hamda ular ifodalagan narsa va hodisalar o'rtasidagi u yoki bu o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni qayd etadilar.

Lug'at maqolasi, ideal ko'rinishida, har bir sinonimni tavsiflaydi, sinonimlar ishlatilishi mumkin bo'lgan kontekstlar va ularning ishlatilish xususiyatlarini ko'rsatadi.

Leksikografik tahlili misoli tariqasida ingliz tilidagi «Oxford English Dictionary» izohli lug'ati materialiga murojaat qilamiz. Ikkita leksik sinonimlar «begin» va «commence» tahlilini ko'rib chiqamiz.

«Oxford English Dictionary» lug'ati «begin» va «commence» ta'rifi va ishlatilish namunasidan iborat. Har bir so'zning ta'rifi va ishlatilish namunalarini tahlil qilib ko'ramiz va ularning ma'nosidagi nozik farqlar va ishlatilish kontekstlari haqida ma'lumot keltiramiz. Masalan,

Begin: to start doing something; to start happening or existing.

¹Semantik valentlik – sintaksisda sozning boshqa elementlar bilan sintaktik munosabatga kirishish qobiliyatidir (ru.wikipedia.org).

Ishlatilish namunasi: They begin their journey at dawn.

Commence: to begin something, especially something important or formal.

Ishlatilish namunasi: The meeting commenced with a brief introduction.

Tadqiqot qilinayotgan birliklarning ishlatilish kontekstiga kelsak, bu borada «Oxford English Dictionary» lugʻatidan «begin» va «commence» soʻzlari ishlatilgan kontekstlarni aniqlash uchun ularning bir nechta ishlatilish namunalarini koʻrib chiqamiz.

«I'm going to begin my diet tomorrow» – bunda «begin» norasmiy kontekstda ishlatilgan.

«The ceremony will commence at 10 a.m.» – bunda «commence» rasmiy yoki formal kontekstda ishlatilgan.

Taʼriflash va ishlatilish namunalari asosida «begin» va «commence» bir-biriga nisbatan sinonimdir, lekin ularning ishlatilishida baʼzi farqlar mavjud, deb xulosa qilish mumkin. «Commence», koʻpincha, formal yoki rasmiy kontekstlarda ishlatiladi, «begin» esa koʻproq norasmiy vaziyatlarda ishlatiladi.

Toʻplangan maʼlumotlar ishlatilish kontekstlarining tahlili asosida har bir soʻz uchun lugʻat maqolasini unifikatsiyalash mumkin. Masalan, «begin» uchun maqola quyidagi koʻrinishda boʻlishi mumkin:

Begin (verb).

to start doing something; to start happening or existing.

Usage: «Begin» is used in informal contexts to indicate the start of an action or event.

Example: «I'm going to begin my diet tomorrow».

Endi «beautiful» soʻzi bilan bogʻliq boʻlgan sinonimlar guruhini koʻrib chiqamiz, va leksik sinonimlar lugʻatda qay tarzda aks ettirilganini aniqlash uchun ularning maqolalarini «Oxford English Dictionary» lugʻatida tahlil qilamiz va maʼnolar va kontekstlarni solishtirish uslubi bilan ushbu soʻzlar oʻrtasidagi sinonimlik darajasini va xususiyatlarini aniqlaymiz.

Oksford ingliz tili lugʻatida «beautiful» soʻzi uchun sinonimlar tariqasida quyidagi soʻzlar belgilangan: attractive, pretty, handsome, lovely, gorgeous, stunning, etc. va soʻz turkumlari, kelib chiqishi, semantik maʼnolari, ishlatilishi, sinonimlari va antonimlari koʻrsatilgan.

Bizning mazkur sinonimlarni leksikografik tahlilimiz bir nechta bosqichdan iborat boʻldi va bunda vazifalar quyidagilardan iborat boʻldi:

1. Har bir soʻzning semantik maʼnosidagi nozik farqni va «beautiful» soʻzi maʼnosiga mos kelishini tahlil qilish.

2. Bu soʻzlar har xil kontekstlarda qay darajada bir birini oʻrnini bosa olishini aniqlash.

3. Har bir soʻz «beautiful» soʻzining maʼnosiga qanchalar yaqin boʻla olishini baholash.

4. Maʼnolardagi qaysi nozik farqlar aniq kontekstlar bilan bogʻliq boʻlishi aniqlash uchun har bir soʻz ishlatilgan kontekstlarni tahlil qilish.

5. Har bir soʻz qanchalar nutqning turli stillarida, masalan, rasmiy yoki norasmiy vaziyatlarda ishlatilishi mumkinligini baholash.

6. Har bir sinonimni hamda uning semantik maʼnosini, sinonimi, antonimi, ishlatilish kontekstini va namunalarini alohida tavsiflash. Har bir sinonimni turli kontekstlarda ishlatish xususiyatlarini koʻrsatish.

Bunday tahlil natijasida biz «attractive» va «pretty» soʻzlari ancha keng diapazondagi kontekstlarda ishlatilishi mumkin boʻlib, «gorgeous» va «stunning» soʻzlari esa tashqi goʻzallikni tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin, «lovely» soʻzi esa odamning tabiati yoki xulq-atvori bilan bogʻliq boʻlgan uning jozibador ekanligi maʼnosidagi nozik farqni bildirishi mumkin. Shuningdek, «pretty» soʻzida «nihoyatda, yetarli» mazmundagi qoʻshimcha maʼno borligini, bunday maʼno qolgan sinonimlarda yoʻq ekanligini sezishimiz mumkin. Bundan tashqari, har bir soʻz kontekstga qarab, oʻz sinonimiga ega boʻlishi mumkin, masalan. «lovely» soʻzi turli kontekstlarda «beautiful» yoki «charming» soʻzlariga almashishi mumkin.

Oʻzbek tilida leksik sinonimlarni tasniflashda biz «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»dan¹ foydalandik va bu orqali leksik sinonimlarning aks ettirilish xususiyatlarini tahlilga tortdik.

«Oʻzbek tilining izohli lugʻati»dagi lugʻat maqolasining strukturasi muvofiq, har bir maqola soʻz turkumi, kelishik, rod kabi grammatik tavsifdan boshlanib, keyin esa soʻzning maʼnosi, uning kelib chiqishi va ishlatilish tarixi beriladi. Maqolalarda yana ishlatilish misollari, sinonimlari ham beriladi.

Masalan, «Kuchli», «baquvvat» va «zabardast» leksik sinonimlarini koʻrib chiqamiz. «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»dagi maqolalarni oʻrganib chiqib, «kuchli», «baquvvat» va «zabardast» leksik sino-

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. I–V jildlar, Toshkent, Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006 – 2008.

nimlar haqida ma'lumotlarni yig'ishimiz mumkin. Lug'atdagi maqolalardan biz quyidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin:

«Kuchli» – sifat bo'lib, u «kuchli», «baquvvat» va «zabardast» ma'nolarini bildiradi. Maqolada quyidagi sinonimlar ko'rsatilgan: «baquvvat», «quvvatli», «qudratli», «qattiq», «shiddatli». Biroq, hamma sinonimlar ham to'la ekvivalent bo'lmagan, masalan, «baquvvat» so'zi «kuchli, baquvvat, mustahkam» degan ma'nolarni bildiradi, «shiddatli» esa – «kuchli, jadal, qaqshatqich, zolim, g'ayratli, jo'shqin». Maqolada yana «kuchli» so'zini ishlatilish misollari ko'rsatilgan. «Kuchli» so'zi turli kontekstlarda ishlatiladi, masalan, «kuchli yigit», «kuchli dastgoh», «kuchli davlat».

«Baquvvat» so'zi ham sifat bo'lib, «kuchli, quvvatli, baquvvat, kuchli (jismonan), kuchga to'la» ma'nosini bildiradi. Maqolada yana quyidagi sinonimlar ko'rsatilgan: «kuchli», «pishiq», «mustahkam», «yo'g'on», «quvvatli», «badavlat». Maqolada yana «baquvvat» so'zini ishlatish misollari ham berilgan:

«Baquvvat odam». «Baquvvat yigit». «Baquvvat ayol». «Baquvvat ot». «Baquvvat qo'llar». «Baquvvat tishlar». «Baquvvat yelka». «Baquvvat panja». «Baquvvat soch». «Baquvvat ip». «Baquvvat kursi». «Baquvvat panjara». «Baquvvat motor». «Baquvvat texnika». «Baquvvat traktor». Hamma sinonimlar ham teng ma'noga ega emas, masalan, «quvvatli» va «badavlat» ma'nolarida nozik farqqa egadirlar: «quvvatli» «kuchli, baquvvat» ma'nolarini bildirishi mumkin, «badavlat» – «boy, o'ziga to'q, badavlat, davlatmand».

«Zabardast» so'zi sifat bo'lib, «kuchli, barvasta, quvvatli, azamat» ma'nolarini bildiradi. Maqolada quyidagi sinonimlar ko'rsatilgan: «baquvvat», «kuchli», «qudratli», «yetuk», «o'tkir», «tanikli», «og'ir», «katta», «zalvorli». Maqolada yana «zabardast» so'zini ishlatish misollari ham berilgan: «zabardast yigit».

Sinonimlarning ma'nolarini solishtirib, ularning barchasi «kuchli, baquvvat va mohir» ma'nosini bildiradi, degan xulosaga kelish mumkin, ammo ishlatilish kontekstida ba'zi farqlar mavjud. Masalan, «zabardast» va «kuchli» so'zlari ma'lum bir sohada bilim va ko'nikmalarni tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin (masalan, «zabardast paxtakor», «kuchli muhandis»), «zabardast» va «baquvvat» so'zlari esa, odatda, kuchli jismoniy jihatlarga ega bo'lgan odamni ta'riflash uchun ishlatiladi (masalan, «zabardast yigit», «baquvvat odam»). Shunday qilib, «kuchli», «baquvvat» va «zabardast» sinonimlarining tahlili kuchli, baquvvat, mohir kishini bildirishi ularning umumiy ma'nosidir, lekin ular ishlatilishi kontekstida farq qilishlari mumkin.

Shunday qilib, «Oxford English Dictionary» lug'atida berilgan va «beautiful» so'zi bilan bog'liq bo'lgan sinonimlarning leksikografik tahlili natijasida biz aniq bir kontekstda eng mos keladigan so'zni tanlashga yordam beruvchi sinonim bo'lgan leksik birliklarini ishlatishda ma'nosida nozik farqlarni aniqladik.

Barnoyeva Samarabonu Uchqun qizi (Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro Tabiiy resurslarni boshqarish instituti; e-mail: bsamarabonu@gmail.com)

ANTROPOTSENTRIK YONDASHUVNING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

***Annotatsiya.** Maqola zamonaviy tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan birini tavsiflashga bag'ishlangan. Antropotsentrizm va lingvomadaniyatshunoslik tushunchalariga izoh berilgan.*

***Аннотация.** Статья посвящена описанию одного из бурно развивающихся направлений современного языкознания. Раскрываются понятия антропоцентризма и лингвокультурологии.*

***Annotation.** The article is devoted to the description of one of the rapidly developing areas of the modern language. The concepts of anthropocentrism and linguoculturology are revealed.*

***Kalit so'zlar:** paradigma, antroposentrizm, protagor, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyat, til.*

***Ключевые слова:** парадигма, антропоцентризм, протагор, языкознание, культура, язык.*

***Key words:** Paradigm, anthropocentrism, Protagoras, linguistics culture, language.*

XX asr va XXI asr boshlarida til ikki paradigm, ya'ni, markazlashgan tuzilma va antroposentrik yo'nalishda o'rganildi. Zamonaviy tilshunoslikda tillarni o'rganishda antroposentrik paradigma ustuvor ahamiyatga ega. Bunda tadqiqotchining qiziqishlari bilish obyektidan subyektga o'tkaziladi, ya'ni tildagi shaxs va shaxsdagi til tahlilga tortiladi. Hozirgi bosqichdagi til to'g'risidagi antroposentrik yondashuv tildagi inson omili muammosiga qiziqish bilan birlashtirilgan qator xilma-xil ilmiy yo'nalish va maktab-

lar, lingvistik ta'limot va konsepsiyalarning shartli umumlashtiruvchi nomidir. Ayni shu munosabat antropologik lingvistikaning obyektini hisoblanadi.

Antropotsentrizm (yunon tilidan antropos – inson va lotin tilidan centrum – markaz) – tabiat, jamiyat haqidagi har qanday bilimda va bilimning o'zida insoniy o'lchov mavjudligini tasdiqlovchi antropomorfizmning keskin shakli, bilish ko'rsatkuchidir. O'zining mumtoz formulasini antropotsentrizm Protogorning mashhur "Inson barcha narsaning o'lchovidir" formulasida topadi. Antropotsentrik yo'nalish konsepsiyalarida erkin tanlov va mas'uliyatli harakat subyektini sifatida shaxsning mustaqilligi ta'kidlab o'tilgan. Antropotsentrik paradigma nuqtayi nazaridan, inson o'zini anglash barobarida, shuningdek, ilmiy va amaliy faoliyati orqali dunyoni o'rganadi. Yangi ilmiy paradigmani shakllantirish jarayonida quyidagi tezis e'lon qilindi: "Dunyo – bu narsalar emas, balki dalillar majmuyidir" (Vitgetshteyn). Til asta-sekin dalilga, voqeaga qayta yo'naltiriladi va so'zlovchining shaxsiyati diqqat markaziga aylandi. Yangi paradigma til tadqiqining yangi ifoda va maqsadlarini, yangi muhim tushuncha va uslublarni nazarda tutadi. Antropotsentrik paradigmada lingvistik tadqiq mavzulari ham, ularni o'rganish usullari ham o'zgardi, tadqiqotning umumiy tamoyillari va usullarini tanlashga yondashuv ham o'zgacha tus oldi, lingvistik tavsifning bir qator raqobatdosh metatillari paydo bo'ldi.

Til shaxslar o'rtasidagi muloqot vositasi, madaniyat esa jamiyat taraqqiyotining ma'lum darajasi-dir. Til madaniyatni asraydi, uni avlodlardan avlodga yetkazadi. Shu g'oya asosida lingvomadaniyatshunoslik fani vujudga keldi.

Lingvomadaniyatshunoslik – XX asrning 90-yillarida shakllangan til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi lingvistikaning mustaqil yo'nalishi.

Ma'lumki, til va madaniyat o'rtasidagi munosabat muammosi tilshunoslikda uzoq vaqt davomida o'rganilib kelmoqda va turli yo'nalishlarda tadqiq qilinmoqda. Ushbu muammo yechimining dastlabki urinishlari V.Gumboldt asarlarida o'z aksini topgan. Uning ta'kidlashicha, konsepsiyasining asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlashgan.

2. Har qanday madaniyat milliydir, uning milliy tabiati dunyoga munosabatda reallashadi, til har bir xalqqa xos ichki shakllarga ega.

3. Tilning ichki shakli "xalq ruhi", uning madaniyati ifodasidir.

4. Til inson va uning atrofidagi dunyo bilan aloqasidir.

Hatto bir xil tilni bilgan holda ham odamlar bir-birlarini har doim ham to'g'ri tushuna olmaydilar va buning sababi, ko'pincha, ular tegishli bo'lgan madaniyatlarning farqidadir.

Inson nutqi so'z va jumladan iborat bo'lib, ularsiz muloqot qilish "mumkin, lekin bunday muloqot ham qiyin, ham soddadir" [8]. So'z va mulohazalar odamlarni muloqot orqali birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat mavjud emas, jamiyatsiz esa na ijtimoiy, na madaniyatli, na idrokli inson mavjud. «Til xalqning barcha so'zlari va ularning to'g'ri birikmasi, o'z fikrlarini yetkazish majmuidir» [6.347].

Til odamlarning qadriyatlarini, ideallari va munosabatlarini, odamlarning olam va bu dunyodagi hayoti haqidagi fikrlarini aks ettiradi va shakllantiradi. Tilning eng muhim vazifasi madaniyatni asrab, uni avlodlardan avlodga yetkazishdir. Ayni shuning uchun ham til shaxs, milliy xarakter, etnik jamoa, xalq, millatni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ma'lumki, turli tillarda moddiy madaniyat obyektlarini (masalan, oziq-ovqat, ichimliklar) belgilash uchun maxsus atamalar mavjud. Bunday atamalarning mavjudligi ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan maxsus odatlar, qadriyatlar tizimining xususiyatlari bilan bog'liq. Madaniyat so'zi lotincha "Colere" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "o'stirish, tarbiyalash, rivojlantirish, qadrlash, sig'inish" degan ma'nolarni anglatadi. XVIII asrdan boshlab madaniyat inson faoliyati, uning maqsadli mulohazalari tufayli paydo bo'lgan barcha narsalarni anglatishni hamda XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, bu so'z ilmiy atama sifatida qo'llanila boshadi. Madaniyat atamasi ko'p ma'noli. Katta ensiklopedik lug'atda quyidagicha ta'rif berilgan. Madaniyat – bu jamiyat, odamlar hayoti va faoliyatini tashkil etishning turlari va shakllarida, ularning munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda ifodalangan shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari taraqqiyotining tarixan belgilangan darajasi [2.669]. A.Vejbitskaya G.Klifford tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, madaniyat – bu ramzlarda mujassamlashgan ma'nolarning tarixan uzatiladigan namunasi, ramzlar ko'rinishida ifodalangan irsiy tasvirlar tizimidir, ular yordamida odamlar bir-biri bilan muloqot qilishadi va ular asosida ularning hayot haqidagi bilimlari va hayotiy tafakkurlari mustahkamlanadi va rivojlanadi [3.44]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, odamlar muloqot qiladigan belgilar bu tildir. Ya'ni, madaniyat til-da mujassamlashgan ma'nolarning tarixan uzatilgan namunasi. Til "madaniyat" haqiqiylikning eng

asosiy isboti hisoblanadi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqamiz. Ularning quyidagi o'zaro yaqin munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi:

1. Til va madaniyat insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridir.

2. Madaniyat va til bir-biri bilan muloqotda mavjud (shaxs madaniyat va tilning subyekti bo'lganligi sababli, shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi til, til esa madaniyatni avloddan avlodga o'tkazish vositasi bo'lishi mumkin bo'lsa, u holda madaniyat va til o'rtasida "muloqot" yoki ma'lumot uzatish borligini aytishimiz mumkin).

3. Madaniyat va til subyekti bu shaxsdir.

4. Til va madaniyat me'yoriylik umumiy xususiyatiga ega.

5. Madaniyat va tilning muhim xususiyatlaridan biri bu tarixiylikdir.

Umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda, til va madaniyatda farqlar mavjud:

1) «tilda fenomendagi kabi ommaviy adresatga e'tibor ustunlik qiladi, madaniyatda esa elitarlik qadrlanadi» (Maslova. 2001, 60). Tildan muloqot vositasi sifatida jamiyatning turli qatlamlari foydalaniishi mumkin. Ammo jamiyatda alohida qatlam – muhim ijtimoiy va madaniy vazifalarni bajaradigan yuqori qatlam yoki elita mavjud;

2) madaniyat shunday belgilar tizimiki, u o'zini mustaqil ravishda tashkil qila olmaydi (Maslova. 2001, 60);

3) til va madaniyat turli xil belgilar tizimlaridir.

Yuqoridagi farqlar madaniyat tilga mutlaqo mos keladi, madaniyat esa tilga faqat strukturaviy o'xshash degan xulosaga kelishga imkon beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar murakkab manzara bo'lib, uning turli tomonlarini yoritish uchun bir nechta yondashuvlar ilgari surilgan:

Birinchi yondashuv S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.I.Kukushkin, E.S.Markaryan kabi faylasuf olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar bir yo'nalishdagi harakatga aylanadi. Til voqelikni aks ettirganligi, madaniyat esa bu voqelikning ajralmas tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, til madaniyatning oddiy aksidir. Voqelikdagi o'zgarishlar tilda o'zgarishlarga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv V.Gumboldt, A.A.Potebnya tomonidan taklif qilingan. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, til bizni o'rab turgan, biz undan tashqarida va uning ishtirokisiz yashay olmaydigan muhitdir. Binobarin, "bizning yashash muhitimiz bo'lgan til bizdan tashqarida obyektiv borliq sifatida mavjud emas, u bizning o'zimizda, ongimizda, xotiramizda; u har bir fikr harakati, har bir yangi ijtimoiy va madaniy roli bilan o'z ko'rinishini o'zgartiradi" (Maslova. 2001, 60).

Yuqoridagilarni hisobga olib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: til va madaniyat muloqot jarayonlarida; insonning til qobiliyatlarini shakllantirishda; ijtimoiy shaxsning shakllanishida o'zaro bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д., Степанов Г.В. "Русский язык", Москва, 1979.
2. А.М.Прохоров. Большой энциклопедический словарь. 1993.
3. Вежицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. Москва, 2001.
4. Вопрос о смене парадигм в языкознании. Новая парадигма знаний и место в ней лингвокультурологии (электронный ресурс), Режим доступа, URL: <http://zinki.ru/book/lingvokulturologiya/vopros-o-smene-paradigm-v/2/>
5. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. Москва, 1985.
5. В.И.Даль. О наречиях русского языка. 1995.
7. Маслова В.Л. Лингвокультурология. Москва, 2001.
8. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. Москва, 2000.

Achilov Oybek Rustamovich (Toshkent davlat Transport universiteti

"Chet tillar" kafedrasini dotsenti; achilovoybek88@gmail.com)

SARLAVHADA ILGARI SURISH VOSITALARINING AKS ETISHI

Annotatsiya. Bugungi kunda turli materialga shoshilinch ishlov berish va uni tezkorlik bilan anglash talab etiladigan davrda, birinchi galda, yaxshi mazmunga ega bo'lgan matnlar sarlavhasini tadqiq etishga ehtiyoj hamisha katta. Yozuvchi matn yaratilishi uchun matnga mos sarlavha tanlashi g'oyatda muhim mezonlardan sanaladi. Badiiy adabiyotda janrlar imkoniyatlaridan keng foydalanish, materialning mazmun-mundarijasini boyitish, uning ta'sirchanligini oshirish sohalarida katta ijobiy o'zgarish-

lar yuz berdi. Buning natijasida asarlar tilini va sarlavhasini lingvistik jihatdan tadqiq etish vazifasini yukladi. Maqolada badiiy matnlar va asarlar sarlavhalarining lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi.

Аннотация. Сегодня, в эпоху срочной обработки различного материала и быстрого его понимания, всегда существует большая потребность в исследовании названий текстов с хорошим содержанием. Выбор подходящего названия для текста – один из важнейших критериев для писателя при создании текста. Большие положительные изменения произошли в художественной литературе, в области широкого использования возможностей жанров, обогащения содержания материалов, повышения их эффективности. В результате ему была поставлена задача лингвистического исследования языка и названия произведений. В статье рассматриваются языковые особенности художественных текстов и названий произведений

Annotation. Today, in the era of urgent processing of various material and its rapid understanding, there is always a great need to research the title of texts with good content. Choosing a suitable title for the text is one of the most important criteria for a writer to create a text. Great positive changes have taken place in fiction, in the fields of wide use of the possibilities of genres, enrichment of the content of materials, and increase of its effectiveness. As a result, he assigned the task of linguistic research of the language and title of the works. The article examines the linguistic features of literary texts and titles of works.

Kalit soʻzlar: sarlavhaning semantik xususiyatlari, ilgari surish vositalari, kognitiv tilshunoslik, deviatziya turlari, konseptual metafora.

Ключевые слова: семантические особенности заголовка, средства продвижения, когнитивная лингвистика, типы девиаций, концептуальная метафора.

Key words: semantic features of the title, means of promotion, cognitive linguistics, types of deviation, conceptual metaphor.

Kirish. Hozirgi kunda badiiy matn sarlavhalarining lingvistik xususiyatlari, semantik maʼno boʻyoqdorligi va uning keng qamrovliligi, sarlavha orqali eʼtiborni tezkor tortish mumkinligi va asar ichidagi bir asar mohiyatini berish qobiliyati kabi koʻplab lisoniy mezonlarni oʻzida qamraganligi sabab, sarlavhalar haligacha tilshunos olimlarning diqqat markazi boʻlib, chuqur oʻrganishni talab etmoqda.

Hozirgi vaqtga qadar sarlavhalarning vazifalari va mohiyati, jumladan, badiiy asarlardagi vazifalari Xazagerov, Kojina, Domashnev va boshqalar tomonidan ancha chuqur oʻrganilgan, ularning sintaktik tuzilishi Xarchenko, Koshevayalar fikr yuritgan boʻlsa, sarlavha va matn oʻrtasida yuzaga keladigan munosabatlar turlari Fomenko, Evsa, Kojinalar tomonidan aniqlanadi [1].

Ilgari surish vositalari haqida fikr yuritadigan boʻlsak, dastlab, ushbu lisoniy mezon, Viktor Shkolvskiy, keyin esa Yan Mukarjovskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Vosita adabiy-estetik maqsadda ishlab chiqilgan boʻlsa-da, shakldagi istiqbollarni tushunish uchun ham birinchi oʻringa qoʻyish tushunchasi keng tarqalgan.

Adabiyotdagi ilgari surish vositalari oʻquvchining matnga diqqatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Oʻquvchi matnning maʼnosi va mualliflik tanlovi haqida koʻproq maʼlumotga ega boʻladi. Muallif qaysi soʻz yoki shaklni (buzilgan yoki takrorlangan) oʻquvchi eʼtiborni jalb qilishni xohlayotganini koʻrib chiqishi mumkin. Demak, ilgari surish vositalari oʻz xususiyati bilan ham sarlavhalar tarkibida toʻgʻridan toʻgʻri ishlatilib, maʼno mohiyatni ochish uchun, diqqatni jalb etish uchun asosiy lingvistik mezon vazifasini oʻtay oladi.

Muhokama va natijalar. Samarali sarlavhalar haqida oʻquvchi va yozuvchi munosabatlarining badiiy shakllanishi oʻrtasidagi uchinchi odam kuzatishi, yaʼni, tilshunos olimning tadqiqoti natijasi quyidagilar aniqlandi: “Sarlavhada lisoniy vositalar neytral boʻlishi kerak. Sarlavhada oʻz fikringiz bilan oʻquvchiga qarshi turish samarasiz – nima uchun oʻquvchi sizga ishonishi kerak? Yuqorida aytib oʻtilganidek, sarlavha orqali maʼnoni taklif qilish ancha yaxshi, lekin hammaga maʼlum kontekstda (freym tahlilda – ramkaga) joylashtirilgan soʻrov sohasining koʻrsatkichi (mavzu) boʻlib qoladi. Buning natijasida sarlavhalar odatda toʻliq jumla sifatida koʻrinmaydi, chunki jumla taklifni, yaʼni hukmni ifodalaydi. Sarlavhalar matn asosidagi fikrlash jarayonining natijasini ifodalash uchun moʻljallanmagan, aksincha, ular oʻquvchining matn ichida taqdim etilgan maʼlumotlar asosida fikrlash jarayonini qayta qurish, ilgari surishni aktualashtirish, kognitiv idrok vazifasi uchun boshlangʻich nuqtani taklif qiladi. Shunday qilib, Mark Helprin quyidagi kabi sarlavhalar mos kelmaydigan sarlavhalardir, deb taʼrif bergan:

“Analysis of the Works of an amazing author”– Ajoyib muallifning asarlari tahlili; “Britain is Going to the Dogs”– Buyuk Britaniya itlar tomon ketmoqda; Adib fikricha, yuqordagi sarlavha oʻrnida quyidagi misolar namunasidagi sarvlaha bilan almshtirilsa, semantik boʻyoqdorlik va lingvistik jihatdan

maqsadga muvofiq bo'lishiga e'tibor qaratgan "Aesthetics in author's oeuvre"—adib ijodida estetika; "Recent Developments in the British Economy"—Britaniya iqtisodiyotidagi so'nggi voqealar [1.2].

Garchi hukmni ifodalovchi jumlarlar (deklarativ jumlarlar) bahsli matnlar uchun mos nomlar bo'lmasa-da, biroq so'roq ohangidagi gaplar (so'roq gaplar) vaqti-vaqti bilan sarlavha sifatida qo'llash uchun samarali bo'ladi. Har bir savol javobni taklif qilganligi sababli, savol ko'rinishidagi sarlavhalar, shubhasiz, mumkin bo'lgan xulosaga ishora qilib, o'quvchi diqqatini tordati va unda xulosa uchun kerakli fikrlarga turtki paydo qiladi va aynan shu turtki tilshunoslar nazdida ilgari surish vositalari deb nomlanadi. Misol keltiradigan bo'lsak: "Where the context is the desirability of extending the European Union"—bu yerda kontekst Yevropa Ittifoqini kengaytirishning maqsadga muvofiqligi. Asosiy e'tibor Polshaga qaratilgan va sizning maqsadingiz Polshaning ittifoqqa kirishi uchun vaqt hali yetib kelmaganligini da'vo qilishga yo'naltirilgan deb taxmin qilishingiz mumkin, lekin quyidagi kabi sarlavhada so'roq shakli juda foydali usulda ishlatilgan:

Ian McEwan's "Atonement": balancing on the edge of Ethics? -Ian McEwanning "Tozalash": axloqning chekkasida muvozanat?

Hemingway's "In our Time": Novel or Short story cycle?! – Xemingueyning "Bizning davrimizda" romani yoki hikoyalari sikli?! [3].

Tahlilni davom ettiraymiz, sarlavhaga qo'yiladigan quyidagi me'zonlar: sarlavhalar qisqa, o'quvchi uchun darhol tushunarli bo'lishi, sarlavhalar neytral tilda so'zlanishi, tadqiqotning asosiy mavzularini yetkaza olish xususiyatlari bo'lishi, tadqiqotning muhimligini ta'kidlash, o'quvchilarni jalb qilish kabi bir qancha talablarga javob berishi kerak. Misolga qarasak: "*Does Vaccinating Children and Adolescents with Inactivated Influenza Virus Inhibit the Spread of Influenza in Unimmunized Residents of Rural Communities?*"—tahlil qilib qaraydigan bo'lsak, bunaqa uzun mazmunga ega sarlahaning boshidan oyoq mazmunini qamrash uchun o'quvchidan kuchli zehn va xotirani talab qiladi, o'z o'rnida e'tiborni ham boshidan oxirigacha bir xil mezonda saqlab qolish qiyin bo'ladi va pirovard, matn sarlavhasining o'zida o'quvchining e'tibori yo'qotilib, asarning ichiga bo'lgan qiziqishi shakllanmaydi, tarjimaga qaraydigan bo'lsak: Inaktivatsiyalangan gripp virusi bo'lgan bolalar va o'smirlarni emlash qishloq jamoalarining immunizatsiya qilinmagan aholisida grippning tarqalishini oldini oladimi? Aslida esa "Influenza Vaccination of Children: A Randomized Trial" ko'rinishida taqdim etilgan sarlavha birmuncha maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu misolarga tubdan teskari bo'lgan va leksik, stilistik vositalarga boy bo'lgan, lisoniy mezonlarni o'zida qamragan misolarga e'tiborimizni qaratamiz. Bunda, albatta, birinchi o'rinda sarlavhaning qisqaligi inobatga olinsa, ikkinchi o'rinda o'quvchini ongida asardan bir mavhumiy parcha orqali unung ichki ma'nosini ochishga qiziqish uyg'otishi va ongli tarzda ilgari surish xususiyatlarini shakllantirib, asar nima bilan yakunlanar ekan, degan savollarga javob berishga yo'naltirishi va o'ziga jalb etishi lozim.

Chinua Achebe (1977)ning "An Image of Africa: Racism in Conrad's Heart of Darkness", Sandra Gilbert and Susan Gubar (1979) qalamiga mansub "Shut up in prose: gender and genre in Austen's Juvenilia" from *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*". Cherish Aileen Aguilar Brillon (2021) tomonidan yozilgan "Superhero from the Margins: Darna and the Hybridity of the Filipino Superhero Genre" [4.5.6].

Qaysi birini tanlaganingizdan qat'iy nazar, ushbu sarlavhalarning har biri sizga qaysi mavzu(lar) va matn(lar) asarning diqqat markazida bo'lishi haqida kuchli ma'lumot beradi. Ular noyob bo'lish uchun yetarlicha o'ziga xosdir. Har bir matn, mavzu, janr yoki vaqt davrini nomlaydi. "Afrika tasviri: Konradning zulmat qalbidagi irqchilik" asari sizga Jozef Konradning "Zulmat yuragi" asarini o'qib chiqishingiz kerakligini aytadi. Shuningdek, bu bizga irqchilikni o'rganish bo'lishi mumkinligini aytadi (mavzu); aniqrog'i, Konradning Afrika tasviri (tasviri)da irqchilik tasvirlangan. U asosiy dalilning ilgari surishni boshlanishini taqdim etish orqali tezisga ishora qiladi (Konradning Afrika tasvirlari irqchilikdir). Agar siz "Nasrda jim: Ostenning Juveniliasidagi jins va janr"ni tanlagan bo'lsangiz, biz ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan matn Jeyn Ostenning o'smirlar davridagi (juvenilia) asarlari ekanligini bilamiz. Mavzular jins, janr va nasr bo'lishini bilamiz. Bizda "Jim bo'l" bilan tezis bayonotiga ishora bo'lishi mumkin, bu bizning qiziqishimizni uyg'otadi, chunki bu shafqatsiz va potensial haqoratli buyruq bo'lib, biz tasavvur qilishimiz mumkinki, gender vakilliklari bilan bog'lanadi. Nihoyat, "Chetdagi superqahramon: Darna va filippinlik superqahramon janrining gibridligi" bizga superqahramon janrida ma'lum bir personajni (Darna) ko'rib chiqishimizni bildiradi. Mavzu "Gibridlik" va marginallashuv bo'ladiganga o'xshaydi [7.8].

Tahlilni davom ettiraymiz, "Short Representative Quotation", ya'ni, qisqacha iqtibos berish misolida ham samarali sarlavha jozibadorligiga erishish mumkin: "golden daffodils" iqtibosini: botanik soxaga

daxldor gul nomlari vositasi orqali Wordsworthning “I wandered lonely as a cloud” so‘zlari boshqa sarlavha asarlarda uchraydi yoki boshqa misolda metaforik o‘xshatish vositalari yordamida ham sarlavhalar leksik atraktivlik kasb etgan: Shelleyning “Frankenstein” asari (1818) va LaValle’s “Destroyer” asarlari-da (2017) bunday xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Yana bir misolda asardan asarga ko‘chib yuradigan alluziyaviy xususiyatlar ifodalangan: Morri-sonning Beloved asarida: “The Limits of Hermeneutics” so‘zlar ko‘chib yuradi.

Biz ingliz tilidagi ilgari surishni ma’nosini o‘rganamiz va adabiyotdagi ba’zi misollarni ko‘rib chi-qamiz. Bundan tashqari, biz birinchi darajali texnikani ko‘rib chiqar ekanmiz, ilgari surish tarkibida: pa-rallellik va og‘ish kabi turlar ham mavjud ekanligini G.Lich ta’kidlab o‘tgan. Demak, tilshunos olimning tadqiqotlari natijasida, lingvistik og‘ish ham o‘z ornida 8 turga bo‘linib, leksin, semantik, fonetik, dilek-tik, registr, grammatik, arxaik kabi bir qancha turlar haqida ilmiy ishlarni amalga oshirilgan.

O‘z o‘rnida Lichning tadqiqotlari davomida parallelik xususiyatiga ham turlicha yondashib, lisoniy og‘ishdan farqli tarzda, parallelikni antonomik qarshilik yoki juft so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar ketma-ketli-gi kabi turli jihatlarni ham tahlil qilgan .

Ilgari surish–mazmunni takrorlaydigan yoki o‘rnatilgan shakllarni buzadigan, diqqatni jalb qiluvchi lingvistik usullardan foydalanish orqali g‘oyalari va belgilarni ta’kidlaydigan adabiy vosita. Matnning lingvistik xususiyatlari yoki qismlari ajralib tursa, birinchi o‘ringa qo‘yish, odatda, kuzatiladi. Bu matnda-gi biror narsa oldingi planga qo‘yilganda sodir bo‘ladi. Oldinga ko‘rsatish markaz, markazlashtirilgan nuqta va diqqatning sinonimidir.

Xulosa. Yuqorida ko‘rib chiqilgan misollar tahlidan shuni aytish mumkinki, ilgar surish vositalari-ning asosiy vazifasi matnda oldindan kognitiv tahlil yordamida umumiy mazmunga yo‘naltirish va asosiy tushunchalarni ilg‘ashdir. Ilgar surishning stilistikada asosiy tushuncha sanalib, tilshunoslikning aktual tadqiq sohasi. Bu matndagi ba’zi elementlarni ta’kidlash, ularni ajratib ko‘rsatish yoki “oldingi” qo‘yich uchun lingvistik vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Oldinga qo‘yish yoki ilgar surish ajablanish, diqqatni jamlash yoki ta’kidlash kabi effektlarni yaratishi mumkin, ko‘pincha, she’riyat va adabiyotda ma’no, uslub va estetik jozibadorlikni oshirish uchun ishlatiladi.

Reference:

1. Adorno Theodor. “Titres”, Notes sur la littérature, Paris, 1984.
2. Ferry Anne. The Title to the Poem, Stanford University Press, 1996 ISBN 9780804735179
3. Fisher John (December, 1984), “Entitling”, Critical Inquiry, 11 (2), p. 286 – 298.
4. Genette Gérard. Crampé Bernard (Summer 1988), “Structure and Functions of the Title in Litera-ture”, Critical Inquiry, 14 (4), p. 692 – 720.
5. Hélin Maurice (September–December 1956), “Les livres et leurs titres”, Marche Romane, 6, p. 139–152.
6. Hoek Leo H. (1981), La marque du titre: Dispositifs sémiotiques d’une pratique textuelle, Approaches to Semiotics [AS], vol. 60.
7. Kellman Steven G.(Spring 1975), “Dropping Names: the Poetics of Titles”, Criticism, 17 (2), p. 152–167.
8. Levin Harry (October 1977).”The Title as a Literary Genre”. The Modern Language Review, 72 (4).

Yusupova Kamola (O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi) QADIMIY SHARQ VA MILLIY MADANIYATIMIZDA IJTIMOY-SIYOSIY REKLAMA ALOMATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada juda ko‘plab qadimiy manbalar ijtimoiy-siyosiy reklamaga bir qa-dar daxldorlik kasb etishi ta’kidlanib, reklama dastlab juda tushunarli, kerakli ko‘rinishda namoyon bo‘l-ganligi, ijtimoiy-siyosiy reklamaning ibtidosi turli vositalarda amalga oshgan bo‘lishiga qaramay, matn bilan bog‘lanishi tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье подчеркивается, что многие древние источники связаны с общественно-политической рекламой, и анализируется, что реклама изначально была представ-лена очень понятно и желательно, и что она связана с текстом, несмотря на то, что начало об-щественно-политической рекламы реализовывалось разными способами.

Annotation. This article highlights that many ancient sources are related to socio-political adver-tising, and analyzes that advertising was originally presented in a very clear and desirable way, and that it is connected to the text, despite the fact that the beginning of socio-political advertising was implemen-ted in different ways.

Kalit so'zlar: reklama, reklama matni, ijtimoiy-siyosiy reklama, reklama nutqi, dallol.

Ключевые слова. реклама, рекламный текст, общественно-политическая реклама, рекламная речь, маклер.

Keywords. Advertising, advertising text, socio-political advertising, advertising speech, broker.

O'zbek tili va xalqi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, juda ko'plab manbalar ijtimoiy-siyosiy reklama bir qadar daxldorlik kasb etadi. Qadimiy Sharqda reklama, dastlab, juda tushunarli, kerakli ko'rinishda namoyon bo'lar edi. Ayrim manbalarda "Sharq bozorlaridagi "Opqoling, kepqoling", "Olganlar darmonda, olmaganlar armonda" degan iboralar ota-bobolarimizning o'zlari bilmagan holda reklama bilan shug'ullanganliklariga dalil bo'ladi, degan fikrlariga qo'shilgan holda, bu jarayon beixtiyor, "o'zlari bilmagan holda" emas, juda puxta o'ylangan, ulug' maqsadlarni ko'zlab qilingan. Bozorlarda maxsus jar-chilar xaridor sotuvchilarni insofga chorlab, oldi-sotdi ishlarida molning kamchiligini aytib sotish, tarozidan urmaslik, axloq-odob, halollikka rioya qilishga undab turganlar.

Asosan, dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari sotilgan bozorda meva-sabzavot va polizchilik mahsulotlarini og'zaki reklama qilishda bugungi kunda reklama tayyorlash nazariyasida alohida e'tibor bilan o'rganiladigan vositalardan unumli foydalanilgan. Masalan, qovun-tarvuzlarni "Shakar-navot, manzili barakot, shirasidan eganlarning labi bir-biriga yopishib qoladi" kabi saj', mubolag'a, o'xshatish singari badiiy vositalar bilan ta'riflash o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalaga jiddiy yondashib, faktlarni tahlil qilsak, reklama madaniyati ajdodlarimizdan o'tgan ma'naviy qadriyat ekanligini anglab yetamiz. Qadimgi bozor peshtaxtalarida mevalarning did bilan terib qo'yilishi, xaridorlarni baqiriq, chaqiriq bilan jalb qilish Sharq bozorlariga fayz kiritgan. Shuningdek, ayrim joy nomlari reklama vositasi sifatida ishlatilgan. Masalan, *Bog'otning uzumi, Hazoraspring olmasi, Quvaning anori, Toshkent o'rigi va kamoni, Isfahon po'lati* kabi. Shuningdek, hunarmandlar mahallalardagi do'konlarda mahsulotlarni osib terib qo'yib xaridorlarga tavsiya etishgan. Ustalar mijoz bilan muomala qilish odobini ham hunar bilan bir qatorda shogirdlariga o'rgatganlar. Do'konga kirgan xaridorlarga bir piyola choy uzatib, o'z mollarining sifati, narxi haqida suhbatlashganlar. Savdo-sotiq madaniyati o'rta asrlardan rivojlanib kelgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bozorlardagi reklama nutqi manbalaridan biri, albatta, dallollar bo'lgan. Bu jarayon ayni paytda ham faol bo'lib, dallollar nutqi orqali o'zbek reklama tarixining bir qismini tasavvur qilamiz. Hatto o'zbek adabiyoti tarixida reklama tarixining ayrim qirralarini yorituvchi lavhalar ham mavjud. Ular garchi reklama jaryonini ko'rsatishni maqsad qilmagan bo'lsa ham, bayon qilingan voqealar, kelib chiqadigan umumiy xulosalar, taqdim etilgan faktlar muhim sanaladi. Masalan, Haydar Xorazmiyning "Gulshani asror" dostonidagi "Bo'z to'quvchi kampir va Bazzoz" hikoyati, aslida, so'fiyona va didaktik xarakterda bo'lishiga qaramay, undan mavzuga oid juda zarur faktlarni topa olamiz. Hikoyada keltirilishicha, nochor holda qolgan bir kampir o'zi to'qigan bo'zni do'kondor oldiga olib borib, qanchaga bo'lsa ham sotishini, bolalari och, g'oyatda muhtojligini bildiradi. Xoja bo'zni to'quvchi kampir dan olayotganda bu matoh haqida:

*Kim momug'i pastu ipidir yo'g'on,
Bo'zchi oshuqub ne kerak to'qug'on.
To'ng'a yaramaski, bo'yatsa kishi,
YUvsa xud onjoq erur aning ishi.
Ko'nglaku ishtong'a chu loyiq degul,
Harna baho birla muvofiq degul.
Qaysi xaridorg'a bo'lsun pisand,
Qayda topoyin munga men bir lavand –*

deb, sandig'iga solib qo'yadi. Xoja bu bo'zni ikki hafta "jon berib" to'qigan "Tul... bechora-yu sohibayol, ojizu miskinu parokandahol" ayoldan ikki tangaga sotib oladi. Bo'zchi ketishi bilan Xoja minnat qilgan bir "lavand" – dangasa, beparvo odam topiladi va do'kondor ko'rsatgan barcha bo'zlarni rad qilib, talabiga muvofiq deb bilmaydi. Ana shunda:

*Xoja ayittikim: – Uzatma so'zung,
Bo'z berayin ko'rmamish avval ko'zung,
Kim momug'i pilladin ortuq zarif,
Ipligi katon ipidin ham latif.
Puxtayu hamvor to'kulg'on bo'zi,
Ko'rmak arusedin orig'roq yuzi,*

ya'ni "Gapni qisqa qilaylik. Senga shunday bir bo'z berayki, undayini ilgari ko'rmagansan. Paxtasi pilladan ortiq, ipligi katon ipidan muloyim. Bo'zi pishiq hamda tekis to'qilgan bo'lib, yuzi kelinlar yuzidan tozaroq", deydi. Natijada

*Ko'rmas egoch bo'ldi xaridor lol,
Tobladi-yu, qildi bahosin savol.
Urdi bahosini tengizdin terang,
Sotti o'shul bo'zni katon birla teng.*¹

Fikrimizni dalillovchi asarlardan yana biri G'afur G'ulomning "Chorbozorchi" hikoyasidagi sotuvchi esa o'tib borayotib, nogoh uning shimining bahosini so'rab qolgan odamni tutib, o'tqazib qo'yib, unga shimni kiydirib olib, rosa ta'rifini qiladi. Noiloj qolgan "Xaridor narx so'raydi. Ahmad-sedob unga bir qarab oladi-da: "Endi gap pulda emas. Moli hozirgi mollardan emas, yangangizning bisotidan, qadimdan qolgan edi. Ataylab o'zimga tiktirgan edim, sal tor keldi. Siz o'zimizniki, yetti so'm berasiz",—deydi. Xaridor cho'chib shimni yecha boshlasa, qo'lini ushlab to'xtatadi-da: "– Xayr, xayr, qani, shoshmang, siz qancha berasiz?"—deydi. Xullas, xaridorning u yog'idan o'tib, bu yog'idan o'tib, shimni sotadi.²

O'zbek reklama tarixining ma'lum bir qismini ijtimoiy-siyosiy reklama tashkil qiladi. Bugunga kelib, "Ijtimoiy-siyosiy reklama deganda, siyosiy partiya (uyushma), davlat boshqaruvi organlari, davlat va jamoat tashkilotlari hamda siyosiy faoliyatda ishtirok etayotgan alohida fuqarolar, ya'ni, siyosat subyektlarining xatti-harakatlari, g'oyalari, dasturlari hamda ularning biror tashkilotga, hodisalarga, fuqarolarga, g'oyalarga munosabatining reklamasi tushuniladi. Bundan tashqari, ijtimoiy-siyosiy reklama aholiga siyosiy kompaniyaning asosiy mavzularini, muammolarini yetkazishning keng tarqalgan usullaridan biri sanaladi. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy reklama nafaqat qudratli siyosiy institut, balki professional faoliyatning alohida turiga aylanganini tan olish zarur".³ Lekin ijtimoiy-siyosiy reklamaning ibtidosi turli vo-sitalarda amalga oshgan bo'lishiga qaramay, matn bilan bog'lanadi.

O'zbek tili va xalqi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, juda ko'plab manbalar ijtimoiy-siyosiy reklama bir qadar daxldorlik kasb etadi. "Alp Er To'nga marsiya"si, qadimgi turkiy bitiklar, kitob va kitobatlariga homiylik kabilarda mohiyatan ijtimoiy-siyosiy reklama alomatlari mavjud. Aniqroq qilib aytganda, ushbu jarayonlarning barchasida bugungi kun nazari bilan qaraydigan bo'lsak, ijtimoiy-siyosiy reklamani harakatlantiruvchi omillar, ya'ni, jamiyatda o'ta muhim va muqim maqomlarni egallash hamda mustahkam tutib turishga intilish, o'z faoliyatini jamiyat hamda kelgusi avlodga ibrat sifatida taqdim qila olish maqsadi, shaxsiy hamda milliy manfaatlarini mushtaraklashtirishga harakat kabilar hal qiluvchi rol o'ynagan. Bu fikrlarimizga asos satrlar toshbitiklarning o'zida ham mavjud: "Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, uning bilan mening o'zim zafar qozonmaganimda, yurt ham, xalq ham yo'q bo'lar edi (xoqon) zafar qozongani uchun, mening hushyorligim, zafar qozonganim uchun, el ham el bo'ldi, xalq ham xalq bo'ldi" ("Bilga xoqon" bitigtoshidan). Albatta, Bilga hoqon, ukasi Kultegin va dono maslahatchi To'nyuquqlar sharafiga qoya toshlarga bitilgan O'rxun yozuvi bu davrning o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turdi. Ma'naviy jihatdan g'oyat muhtasham ushbu obidalar Turk xoqonligining qaror topgani haqida tarixiy dalil vazifasini o'tadi. Turkiylardagi qabilaviy sadoqat va o'tmish ajdodlarga hurmat tuyg'usi yangi davrdan darak berar edi. Misol uchun, Bilga xoqon bitigida xoqonning davlatni adolatli boshqarganligi, ko'pgina xalqlarni birlashtirgani, mamlakatni iqtisodiy jihatdan yuksaltirganini Yo'llug' tigin mahorat bilan tasvirlaydi. Xalq xoqonidan, vatanidan ayrilmasa, ezgulik ko'rishi, baxtli, betashvish bo'lishi juda ifodalib bayon etiladi. Ko'ziga faqat mol-mulk ko'rinadigan davlat boshliqlari gumrohdir, deb ta'kidlanadi mazkur bitigida. Bilga xoqon davlatning qudrati haqida so'zlaydi. Bu davrda yo'l qo'yilgan xatolarni kelajak avlod takrorlamasligini maslahat beradi. Qissalar va toshga o'yib yozilgan bitiklardagi asosiy g'oya vatan va xalqni himoya qilish, el-yurt birdamligi, ona-yurtni chet el bosqinchilaridan himoya qilishda barchaning hamjihatlik bilan bir bo'lib ish tutishi zarurligi ko'rsatib beriladi.⁴

¹ Асрлар нидоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. Тошкент, Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982, 16-бет.

² Ғафур Ғулом. Ёдгор. Повест ва ҳикоялар. Т., Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 252-бет.

³ Исанова Г.Т. Жамоатчилик фикрини шакллантиришда ижтимоий-сиёсий реклама роли ошишининг замонавий тенденциялари: Сиёсий фанлар бўйича фалс. докт (PhD) дисс... автореф., Тошкент, 2020, 20-бет.

⁴ <file:///E:/Downloads/3925-9862-1-10-20211201.pdf>

Shuning uchun ham umumreklama tarixi mutaxassislari N.R.Trubnikova va O.O.Saveleva Behus-tun yodnomalarida ham reklama alomatlari haqida gapirishi bejiz emas.¹ Mualliflar qoyatoshlarda uch til (qadimgi fors, elam, akkad)da yozilgan matnda reklamanning xarakterli jihatlaridan biri madhu maqtoq, degan fikr bildiradilar. Bundan tashqari, qoyalarda Axura Mazdaning Doro Birinchiga hukmdorlik nisho-nini topshirayotgani aks etishi tasviriy reklamanning bir ko‘rinishi sifatida qaraladi. Eramizdan oldingi XV asrga oid Misrda fir‘avn Tutmos III tomonidan o‘rnatilgan lavhlar bunga misol bo‘la oladi. Unda “tangri” Amon-Ra tilidan Tutmos III sharafiga alqovlar aytiladi, ya‘ni, “Har ikki mamlakatning taxtlari Rabbisi” Amon-Ra e‘lon qiladi: “Men sizning dushmanlaringizni oyoqlaringiz ostiga tashlayman vasen itoatsizlar-ni oyoq osti qilasan, chunki Men senga butunerni yuqoriva pastini berdim.G‘arb va Sharq sizga bo‘ysu-nadi. Siz begona yurtlarni oyoq osti qilasisz vayuragingiz quvonchdan bahra oladi. Sizning vaqtingizda sizga teng keladigani yo‘q, chunki men Sizning maslahatchingizman va siz hammadan o‘zib ketasisz. Bar-cha istaklarimni bajarish uchun Tutmos abadiy yashaysiz”.² Mualliflar fikricha, “madhli” matnlarning muhim xususiyati ularning taklifi, ya‘ni, ma‘lum fikr va his-tuyg‘ularning taklifiga tayanish bo‘lib, buning uchunma‘lum taklif usullari ishlatilgan. Masalan, mubolag‘ali tasvir, ba‘zilarini bir necha marta takror-lash va bir xil formulalar shular jumlasidandir.

Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda aytishimiz mumkinki, Sharqda ijtimoiy-siyosiy reklamanning bu ko‘rinishi keyinchalik solnomalarda o‘zining ancha rivojlangan va to‘ldirilgan shaklini olgan. Aslida, o‘z-bek solnomanavisligining uslubi, tarkibi, ifodasi kabilarni belgilashda ijtimoiy-siyosiy reklamanning o‘rni katta. Chunki “Boburnoma” darajasida o‘z-o‘zini tanqid ham aks etgan solnomalar o‘zbek mumtoz muar-rixligida kam topiladi. Ko‘rinadiki, ijtimoiy-siyosiy reklamalar haqidagi bu mulohazalar solnomalarni adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganishda ham e‘tibordir.

**Berdixanova Arzayim (Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi akademik
litsey o‘qituvchisi: berdixanova_a@gmail.com)
O‘ZLASHMALARNI TIL TIZIMIDA TAHLIL QILISH USULI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada struktur-semantik tahlil yordamida o‘zlashtirilgan so‘zlarning ich-ki tuzilishi va mazmuni lingvistik yondashuv asosidagi o‘zlashmalar tahlili bilan chuqur o‘rganilgan. O‘zlashgan “kombayn” va “peynet” lisoniy birliklari tahlilga tortiladi va ularning qoraqalpoq tili struk-turasi va semantik sathiga integratsiyalashuv darajasi aniqlandi.*

***Аннотация.** В данной статье глубоко изучается внутренняя структура и содержание слов, выученных с помощью структурно-семантического анализа с анализом усвоения на основе лингвистического подхода. Анализируются приобретенные языковые единицы «комбайн» и «пей-нет» и определяется уровень их интеграции в структуру и семантический уровень каракалпак-ского языка.*

***Annotation.** In this article, the internal structure and content of the words learned using the struc-tural-semantic analysis is deeply studied with the analysis of the acquisitions based on the linguistic ap-proach. The acquired linguistic units “combine” and “peinet” are analyzed and the level of their integra-tion into the structure and semantic level of the Karakalpak language is determined.*

***Kalit so‘zlar:** o‘zlashma, differentsiatsiya, differensialanmagan, fonetik xususiyat, morfologik xusu-siyat.*

***Ключевые слова:** приобретение, дифференциация, недифференцированность, фонетичес-кий признак, морфологический признак.*

***Key words:** acquisition, differentiation, undifferentiated, phonetic feature, morphological feature.*

Hozirgi vaqtda tilshunoslik fanida o‘zlashgan so‘zlarni tahlil qilish usullari bir qancha bo‘lib, ularni o‘rganib, biz mazkur ishda tadqiqot obyektin quyidagi ketma-ketlikda tahlil qilishni o‘z oldimizga maq-sad qilib oldik:

- 1) muayyan bir matn tarkibidan o‘zlashgan so‘zni aniqlab olish;
- 2) ushbu so‘zning chet tili izohli lug‘atlaridagi ta‘riflari bilan tanishish;
- 3) lisoniy birlikning xususiyatlarin ochib beruvchi xususiyatlarni aniqlash (differensiyalangan va differensiyalanmagan), agar amalda ularning farqlari aniqlansa, tasniflash;
- 4) qoraqalpoq tilidagi o‘zlashish xususiyatlariga ta‘rif berish;

¹ТрубниковаН. В., СавельеваО. О.Всеобщая история рекламы. – М.: Дашков и К,2019. – С. 38.

²ТрубниковаН. В., СавельеваО. О.Всеобщая история рекламы. – М.: Дашков и К,2019. – С. 39.

5) nil sathlaridagi o'ziga xosliklarin ochib berish:

a) fonetik o'zlashish (lisoniy birliklarning almashish va birikish nizomlari); fonema atamasi → uning fonetik xususiyatlari → ushbu fonema qaysi tovushlar bilan birga qo'llaniladi, jumladan, uning pozitsiyasining o'zgarishidagi xususiyatlar ta'riflanadi → mazkur o'zgarishlarga sabab bo'ladigan fonetik nizomlarni ko'rsatish → o'zlashtirilmaslik sabablarin tushuntirish → fonetik o'zgarishlarning tabiyati haqida xulosa chiqarish (o'zlashtirilgan, to'liq o'zlashtirilmagan, o'zlashtirilmagan);

b) morfologik taraqqiyotini aniqlash (gap tarkibiga e'tibor berish);

d) semantik o'zlashtirish (manba til bilan qiyosan so'z mohiyati qanday o'zgarishin aniqlash);

6. O'zlashtirishdagi maqsad.

7. O'zlashgan so'zning tatbiq etilish jarayoni: a) talaffuz; b) yozuv; d) foydalanish doirasi.

Mazkur tahlil bosqichlarin amalga oshirish maqsadida tadqiqot predmeti sifatida O'zbekiston qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq shoiri Ibroyim Yusupovning «Alasatli d'nya bul» nomli she'riy to'plami va ijtimoiy tarmoq matnlaridan foylanamiz. Albatta, tan olishimiz kerak, o'zlashgan so'zlarning soni badiiy matnlarga qaraganda ijtimoiy tarmoqlarda ko'p uchrashi aniq. Vaholanki, she'riy to'plamni o'rganganimizda satrlar ichidan bir qancha boshqa o'zlashgan so'zlarning ro'yhatin aniqladik (yaxta, poligon, mashina, doktor, minut, avtobus, inturist va b.), jumladan, mazkur ro'yxatdagi so'zlarning deyarli ko'plari ingliz tilidan kirib kelmagan. Aynan shu sabab ularning manbalariga e'tibor bergan holda, «kombayn» va «peynet» so'zlari bilan tahlilni davom ettiramiz.

Salqın lebiz enip jellerge,

“Miynet syygish” nasoslar tyndy.

Atlanysqa tayar pillerdey

Kombaynlar sapqa dizildi.

Kombayn (ingl. *combine* – “biriktirish”, “qo'shish”) – bir vaqtning o'zida bir nechta turdagi operatsiyalarni amalga oshiradigan mashinalar kompleksi.

Combine **noun** **UK** /'kɒm.bəɪn/ **US** /'kɑːm.bəɪn/

a group of people or organizations acting together in business:

Combine noun (machine)[C] (also **combine harvester**);

a large farming machine that cuts the plant, separates the seed from the stem, and cleans the grain as it moves across a field

Ingliz tilining izohli lug'atida ushbu lisoniy birlik markeri qisqa berilgan va u ikkita sema bilan ta'riflangan, ya'ni «bir guruh odamlarning yoki idoralarning birga ishlashi» va «qishloq xo'jalik ishlarida ekinlar bilan ishlash uchun foydalaniladigan mashina, yig'im-terim ishlarida qo'llaniladigan uskuna»;

3) «kombayn» so'zidagi unli harflar soni ikkita: o, a. Unli tovushlar «kombayn» lisoniy birligidagi urg'u tushadigan bo'g'inlarni aniqlab berishga yordam beradi «'»; undosh harflar soni beshta: k, m, b, y, n. Ikki bo'g'inli so'z hisoblanadi;

4) qoraqalpoq tilida «kombayn» so'zi lug'atda “o” va “y” harflari bilan yoziladi. Assotsiativ so'zlar qatoriga quyidagi ko'rsatilgan ot so'zlarni keltirsak bo'ladi: *bug'doy, fermer, maydon, dala, ketmon – kombayn*. Qoraqalpoq tilining tovushli singarmonizm nizomiga asos mazkur lisoniy birlikga ko'plik qo'shimchalaridan -lar qo'shiladi. I.Yusupov she'ridagi ushbu o'zlashgan so'z eslab qolish uchun qulay va qiziqarli hisoblanadi.

Kombayn so'zining mopfem tahlil, sxema va so'z tarkibi asosida amalga oshiriladi (morfemalar). So'z tarkibi va birikmalar bo'yicha tahlil jarayoni quyidagicha (mopfem analiz):

◆kombayn so'zi ildiz va qo'shimcha morfemalarga ega xarakteristikasi bor, ushbu so'z yordamidagi qoraqalpoq tilidagi grammatik ma'no beruvchi affiksatsiya, analitik forma, yordamchi so'zlar, so'z tarkibi, so'zlarni takrorlash va intonatsiya usullari yordamida amalga oshiriladi. Ko'p hollarda so'z yasovchi, ko'plik va kelishik qo'shimchalari qo'shilish vositasida yasaladi: *kombayn-kombayn+-lar-kombayn+-shy, +-lar, +-dyh*;

◆morfemalar soni:

◆so'z ildizi: 1;

◆qo'shimcha morfema: 0;

5) fonetik tahlil uchun so'z: kombayn.

So'zga tushadigan urg'u ikkinchi bo'g'unga tushadi, qoraqalpoq tilidagi so'zning tpanskripsiyasi: [kombay'yn], talaffuzi [kambayyn]. Zero, ingliz tilidagi so'zning tpanskripsiyasi: [kəmbaɪ'n]. Ko'rib turganimizdek, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi bir xil [k] tovushi undoshi [o] bilan birgalikda keladi (C+ V+ C+C+V+C).

Soʻz tarkibidagi tovushlarning xarakteristikasi va tovushlar:

k → [k] – undosh, portlovchi jarangsiz, konsonant;

o → [a] – unli, til orqa unli, labli;

m → [m] – sonant undosh, qattiq sonor, labli;

b → [b] – undosh, labli, yopiq, shovqinli;

a → [a] – unli, til orti, ochiq;

y → [yʼ] – undosh, sonor, ingichga;

n → [n] – undosh, sonor, yopiq, yumshoq sonant.

Tadqiq qilinayotgan lisoniy birlik tarkibidagi tovushlarning fonetik xususiyati ularning oʻzlashgan yoki oʻzlashmaganligiga qarab, yumshoq yoki qattiq tovush, asosan, undoshlarning shu kabi xususiyatiga bogʻliqliklari oʻzbek, qoraqalpoq va rus tillarida aniqlandi.

Turli sohalarida mazkur atama tur shakl va mazmunda qoʻllaniladi, yaʼni, ular mashinalar va mexanizmlarga tegishli boʻlishi mumkin.

♦ oʻrmon ishlari kombayni (Lesozagotovitelnyy kombayn) – daraxtlarni kesish, shoxalar va butalarni kesish va assortimentlarni yigʻish uchun vosita;

♦ togʻ ishlari kombayni (Gornyy kombayn) – foydali qazilmalarni qazib olish va tashish, kon yoʻllarini ochish uchun moʻljallangan oʻzi yuradigan kompleks;

♦ yoʻl ochadigan kombayn;

♦ tozalaydigan kombayn;

♦ oshxona kombayni – oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlaydigan va tayyorlashda ishlatiladigan, odatda, elektr quvvati bilan ishlaydigan xoʻjalik texnikasi [<https://fonetic.textologia.ru/definit/kombayn/?q=1048&n=525331>];

2) **Paynet** soʻzining oʻzi ingliz tilidan “klipping” soʻz yasash usuli yordamida paydo boʻlgan yangi soʻz hisoblanadi. Yaʼni, pay «toʻlash» va net «tarmoq», «tarmoq orqali toʻlov amalga oshirish» maʼnosi paydo boʻladi.

Pay verb UK/peɪ/US/peɪ/paid/paid.

Pay verb (BUY)

1) to give money to someone for something you want to buy or for services provided;

2) to give money to someone for work that they have done;

3) to give a profit or advantage to someone or something;

4) to give or do something.

Net noun UK/net/US/net/plural.

1) material made of threads of rope, string, wire, or plastic with spaces between them, allowing gas, liquid, or small objects to go through, or an object made with this material that is used to limit the movement of something;

2) a rectangular piece of material made from string, used to separate the two sides in various sports;

3) the area surrounded by a piece of material made from string into which a ball or puck is put in order to score points in various sports.

Ingliz tilining izohli lugʻatida mazkur lisoniy birlikning markerlaridan kelib chiqqan holda, «tarmoq yordamida toʻlov qilish» semasi kelib chiqadi, ushbu soʻzimiz IT va ekonomika sohalarining integratsiyasidagi yangi soʻz ekanligi aniq;

3) «peynet» soʻzidagi unli harflarning soni ikkita boʻlib, E e harfi takrorlanmoqda. Unli tovushlar «peynet» soʻzida urgʻu tushishi boʻgʻinni aniqlab berishga yordam beradi «‿»; Undosh harflar soni toʻrtta: p, y, n, t. Ikki boʻgʻinli soʻz hisoblanadi;

4) qoraqalpoq tilida «peynet» soʻzi ingliz tilidagi lugʻatlardagi markeri boʻyicha “a” va “y” (ay) diaqraflari bilan yoziladi. Assotsiativ soʻzlar qatoriga quyidagilar kiradi: *internet, onlayn toʻlash, kommunal toʻlam, shtraf, plastik karta – peynet*. Neologizm soʻz boʻlganligi sababli hozirgi zamon talablari negizida koʻp qoʻllanilishi majburligidan qoraqalpoq tilining lisoniy sathiga tezlik bilan kirib kelgan soʻzlarining biri hisoblanadi.

Soʻz tarkibi va birikmalar boʻyicha tahlil (morfem tahlil):

♦ peynet soʻzi ildizi (pey) va qoʻshimcha (net) morfemalarga ega xarakteristikasi boʻlib, ushbu soʻz yordamida qoraqalpoq tilida grammatik maʼno berish affiksatsiya (*suffiks yordamida-peynetchi; yordamchi soʻzlar yordamida: peynetdan keldim*), analitik shakl (*peynet qilib yubor*), koʻmakchi soʻzlar (*klikdan da, peynetdan//da*) va soʻz tarkibi (internetdan toʻlam-peynet) usullari yordamida amalga oshiriladi.

Ko'pchilik sharoitlarda ushbu o'zlashgan so'z ko'plik, kelishik va so'z yasovchi qo'shichalar qo'shilishi vositasida yasaladi: *peynet – peynet + -ler – peynet + -shi, + -ler, + -di*.

◆ morfemalar soni:

◆ so'z ildizi: 1;

◆ qo'shimcha morfema: 1;

5) fonetik tahlil uchun so'z: *peynet*.

So'zdagi urg'u, ikkinchi bo'g'inga tushadi, qoraqalpoq tilida so'zning tpanskripsiyasi: [peynet], og'zaki tilda ['paynet] qo'llanilib kelmoqda, zero, biz ingliz va qoraqalpoq tillaridagi fonetik qoidalar va nizomlarni hisobga olib, [peynet] shaklda ishlatilishini taklif qilamiz. So'z tarkibidagi tovushlarning xarakteristikasi va tovushlar tarkibi (C+V+C+C+V+C):

p → [p] – undosh, lablangan, portlovchi, jarangsiz, shovqinli;

e → [e] – unli, til oldi, lablanmagan, ingichga;

y → [y'] – undosh, sonor, sig'aluvchi, jarangli;

n → [n] – unsiz, sonor, sig'aluvchi, til oldi;

e → [e] – unli, til oldi, lablanmagan;

t → [t] – undosh, til oldi, portlovchi, hovqinli.

Raqamli iqtisodiyot sohasining atamalaridan biri bo'lib, pul o'tkazish usuli hisoblanadi. Mazkur atamaning birinchi bo'g'ini bilan tanish bo'lgan xaridorlar muloqot mazmuni to'lov haqida ekanin tushunib oladi, to'g'ri foydalanishi mumkin. Agar ikkinchi bo'g'in "net"ning tarmoq ekanligin bilganlar, ushbu so'zning har xil variatsiyalarin tushunib, to'g'ri qo'llanish imkoniyatiga ega bo'ladi: *Paynet, Payme, Netpay, InternetPay h.t.b.*

Shunday qilib, ko'rib turganimizday o'zlashgan so'zning chuqur tahlili qoraqalpoq lisoniy va maddaniy olam manzaralaridagi xususiyatlarin ochib berdi. Olib borilgan struktur-semantik tahlil yordamida o'zlashtirilgan so'zlarning ichki tuzilishi va mazmunini lingvistik yondashuv nazdida o'zlashtirish tahlilni chuqur o'rganib chiqdik. O'zlashgan so'zlar «kombayn» va "peynet"larni tahlil qilish bilan uning qoraqalpoq til strukturasi va semantik sathlarida bir qancha integratsiyalashganini dalilladik. Bunda qo'shimcha aytishimiz kerak narsa, qoraqalpoq tiliga faqat ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar emas, aksincha, boshqa chet tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarni bunday formatda tahlil qilish, ularning o'zlashtirilayotgan tilga moyillik darajasini aniqlab berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Словарь иностранных слов. М., "Наука", 1984.
2. Хэзирги карақалпақ тилининг морфологиясы. Нөкис, "Қарақалпақстан", 1981, 264-бет.
3. Даўлетов А. Хэзирги карақалпақ тилининг фонетикасы. Нөкис, "Қарақалпақстан", 2005, 208-бет.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. <https://fonetic.textologia.ru/definit/kombayn/?q=1048&n=52533>
6. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english>
7. Юсупов И. Аласатлы дүнья бул.

Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna (Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqotlar universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti "O'zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar" kafedrasi katta o'qituvchisi; mbozorova20@gmail.com)

HAYNRIX HAYNE SHE'RLARI O'ZBEKCHA TARJIMASIDA SHARQONA OBRAZ IFODASI

Annotatsiya. Maqolada Haynrix Hayne she'rlari o'zbekcha tarjimasida sharqona obraz haqida so'z yuritilgan bo'lib, ular orasida obrazlar muhim o'rin tutadi. Haynrix Hayne she'rlari o'zbek tilida tanikli shoir Abdulla Sher tarjimasida o'zbek tilida jarangladi. Bu she'rlarni mutolaa qilish davomida shoirning Hayne ruhiyatiga kirib borganligini, nemis tilining nazokati va badiiy jilosini o'zbek tilida mahorat bilan bera olganligini kuzatish mumkin.

Аннотация. В статье речь идёт о восточных образах в узбекских переводах лирики Генриха Гейне, подчёркивается важность этих образов для понимания творчества поэта. Приводятся переводы стихов узбекского поэта Абдуллы Шера. Нужно отметить мастерство переводчика в умении проникнуть в духовный мир Гейне, передаче художественных особенностей немецкого языка.

Annotation. The article talks about the oriental image in the Uzbek translation of Heinrich Heine's poems, among which images occupy an important place. Heinrich Heine's poems were translated into

Uzbek by the famous Uzbek poet Abdulla Sher. While reading these poems, it can be observed that the poet penetrated into the psyche of Hayne and was able to skillfully convey the delicacy and artistic brilliance of the German language in the Uzbek language.

Kalit so‘zlar: *образ, мотив, sharqona uslub, lirik qahramon.*

Ключевые слова: *образ, мотив, восточный метод, лирический герой.*

Key words: *image, motif, oriental style, lyrical hero.*

G‘arb adabiyoti vakillari ijodida Sharq adabiyotiga muhabbat asosida sharqona obrazlar, motivlar qo‘llash usullari taniqli ijodkorlarning sevimli yo‘nalishiga aylangan. Bunday uslubni nafaqat Sharqqa oshufta kitobxon, balki G‘arb adabiyotida o‘ziga tanish, go‘zal tasvirlarni uchratgan adabiyotsevarlar qiziqish bilan kuzatishadi va o‘rganishadi. XVIII–XIX asrlarning buyuk ijodkori bo‘lgan ingliz romantizm adabiyoti vakili Bayron (“Sharq dostonlari” turkumi) va shu davrning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lgan nemis adibi Gyote (noma janriga asoslangan 12 bo‘limdan iborat “Mag‘rib-u Mashriq devoni”), Rus adabiyotining oltin davri vakillaridan Pushkin (Pushkinning Sharq olami, Islom dini va Payg‘ambarimiz (alayhissalom)ga bo‘lgan iliq munosabati zamondoshlarini hayratlantirardi. Do‘stlari uni: “Muhammadning havoriysi” deb atashardi. Shoir sharqona odob-axloq fazilatlarini aks ettirib, “Boqchasaroy fontani” asarini yozdi. Shundan so‘ng uning Islom va Qur‘on, Payg‘ambarimiz (alayhissalom)ga bo‘lgan hurmat-e‘tibori yanada ortib bordi. Bu muhabbat shoirning “Qur‘onga taqlid” asarini ta‘lif etishiga sabab bo‘ldi”.¹ Tolstoy (ijodining dastlabki davrlarida Yusuf haqidagi injil rivoyati ta‘sirida yozilgan she‘rlar, “Hazrati Muhammad” asari), Yesenin (Sharq madaniyatiga katta qiziqish bilan qaragan Sergey Yesenin 1921-yil yoz faslining boshida ikki kun davomida Samarqandda ham bo‘lib, bu yerdagi obidalar va osori-atiqalar bilan tanishdi. Bu tashrif uni shu qadar hayratga soldiki, oradan bir yil o‘tib, Italiyaga sayohat qilgan shoir «Baribir, bu Samarqand emas!” deya qayta-qayta ta‘kidladi. Samarqand sayohati taassurotlari Yeseninga Sharq muhitiga oshno bo‘lish, mashhur «Fors mavzulari” (Fors taronalari) turkumini yozishiga turtki bo‘ldi)² kabi ijodkorlar ijodida Sharqqa muhabbat yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu motivlarning yoki obrazlarning paydo bo‘lishida Islom dinining ham ahamiyati va ta‘siri katta bo‘lgan. Sharq adabiyotiga oid asarlarda, mumtoz tarixiy-adabiy davr na‘munalarida o‘zgacha motivlar, o‘zgacha sokinlik, go‘zallik mujassam. Mayin kuyda sirg‘alayotgan so‘zlar o‘qiguvchining ham hissiyotlarini ohista tebratib yuboradi. Eng asosiy motivlardan biri oshiq va ma‘shuqa dardlari, kechinmalari tasvirlaridir. G‘arb she‘riyati bilan solishtirganda o‘zgacha vazn va she‘rda tasvirni ochib beruvchi farqli voqeliklarni kuzatamiz. Mumtoz adabiyotda, asosan, aruz vaznidagi she‘rlarda lirik qahramonlarning ishq dardida yonib-kuyishlari bayon etiladigan mavzular beqiyosdir. Yor o‘z ma‘shuqasiga inzorligi, uni tun-u kun xayolidan ketkizmay o‘ylashi, uning ko‘chasiga borib kelishi va bu tasvirlarda oshiq uchun, hatto ma‘shuqa eshigi ostidagi itning yoki tuproq ko‘chasidagi changing, toshning qadri, barcha-barchasida o‘z yoridan bir belgi topgan-day bo‘ladi. Ularning Dilbarga, Go‘zalga, Shahlo ko‘zga, Jononga tegishliligidan yor Dildorini uni ko‘rmasa-da, bu detal-obrazilardan ham bir taskin topa oladi. Mana shunday hazing ohanglardagi o‘zgacha pafos G‘arb shoirlarini ham maftun etmay qo‘ymadi. Navoiyning “usiz vayroni tiyra bo‘lgan, bir marta bo‘lsa-da, mehmoni bo‘lishini istagan quyoshi”ning jamoli qanday bo‘lsa?! (Tiyradur vayronim onsiz, vah, yana bir qatla ham, Ul quyoshni baytul-ehzonimda mehmon istaram).³ Boburning “u siz sabr aylamak mushkul bo‘lgan yori”-chi?! (Agar-chi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur, Sening birla chiqishmoqlik dag‘i bisyor mushkuldur).⁴

Hofiz Sheroziyning Samarqand-u Buxoriyni qaro holiga baxsh etadigan sheroz jonini qay darajada go‘zal bo‘lsa?! (Agar on turki sherozi ba das orad dili moro, Ba holi xinduysh baxsham Samarqand-u Buxororo).⁵

Yuqoridagi kabi g‘azallarda yoxud boshqa janrlarga oid she‘rlarda ham shoirlar ta‘riflagan ma‘shuqalar timsoli juda go‘zal ifoda etilgan. Ko‘pchilik G‘arb adabiyoti vakillari, asosan, mana shu kabi buyuk ijodkorlarimizning ijodlaridan ilhomlangan.

¹ Malika Barnoyeva. Hazrati Muhammadning havoriysi. www.kh-davron.uz

² Sergey Yesenin. She‘rlar (ustoz Erkin Vohidov tarjimalari) www.kh-davron.uz

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 4-tom, “Xazoyin ul-maoniy”, “Navodir ush-shabob” (427-g‘azal), T., “Fan”, 1989, 310-bet.

⁴ www.tafakkur.net

⁵ Mirzoyev Jamshid. Hofiz Sheroziy g‘azallaridagi nozik jihatlarning tarjimada berilishi (fors-ingliz tillari misolida) [//www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)

Genrix Geyne, Heynrix Heyne, Haynrix Hayne. Bu nomlarning qaysi biri to'g'ri? degan savol kitobxonni o'ylantiradi. Rossiya mustamlakasi bo'lgan davrimizda barcha jahon adabiyoti vakillari nomlari rus tilida qanday yozilgan, aytilgan bo'lsa, o'zbek tiliga ham xuddi shunday olib kirildi. Bunday xato jaranglovchi ismlar qatori juda ko'p edi: German Gessi, Gegel, Geyne... ismlarni to'g'ri talaffuzida, ya'ni, asl tilning qoidalari bilan yozishga ruxsat etilmagan, deydi tarjimon ustoz Abdulla She'r. Keyinchalik, ko'p o'zgartirishga harakat qilingan, hatto bosma nashrlarda, hech bo'lmasa, Heynrix Heyne, deya yozilishiga erishilgan. Mustaqillikdan anchagina vaqt o'tibgina bu nomlar asl holicha yozila boshlangan. Haynrix Hayne asarlarini, dastlab, o'tgan asrning yigirmanchi yillarida Cho'lpon, qirqinchi yillarida Oybek, Mirtemir, yetmishinchi yillarda Xayriddin Saloh, so'ngra Abdulla She'r va Yanglish Egamovalar tarjima qila boshlashgan. Bu go'zal she'riyatdagi Sharqqa xos uslub tarjimonlarni ham ishga bog'lab qo'ygan bo'lsa, ajab emas. hozirgi kunda bu tarjimonlardan faqatgina Abdulla Sher hayot va Hayne she'riyatining o'zbekcha na'munalari yanada boyitmoqdalar. Haynrix Hayne she'rlaridagi sharqona uslubning sababini tarjimon Abdulla Sher olmon shoirining otasi yahudiy ekanligi va arablar bilan ajdodlari bog'liq bo'lganligida deya ta'kidlaydi. Shu sababli ham shoir yoshligidan arab va sharq xalqlari adabiyot, falsafasi bilan tanish bo'lgan. "Haynrix Hayne yaxshigina faylasuf va Suqrot hamda boshqa sharq faylasuflari asarlaridan xabardor bo'lgan", – deydi Abdulla Sher. Uning Olmoniyada din va falsafa taraqqiyoti nomli falsafiy asari ham mavjud bo'lgan. Bu asar rus tiliga ham tarjima qilingan o'tgan asrning elliginchi yillarida. Bundan tashqari, u "Tanqidchi, siyosiy yetuk jurnalist, essenavis, satirik, shuningdek, bahsga moyil san'atkor sifatida undan hamma hayratga tushar, ham cho'chir edilar".¹ Hayne yetuk adabiyotshunos sifatida ham bir qancha kitoblar nashr qildirgan: "Adabiy Yevropa" almanaxi, "Romantik maktab". Haynrix Hayne 1821-yilda Berlinga kelgan. Bu yerda Gomerning tanqidchisi Volf bilan tanishgan. "The university gave Heine access to notable cultural figures as lecturers: the Sanskritist Franz Bopp and the Homer critic F.A.Wolf, who inspired Heine's lifelong love of Aristophanes".²

Aynan mana shu universitetda Hayne yahudiylar tarixi va Sharq falsafasi, yunon adabiyoti bilan chuqur tanishgan.

Haynrix Haynening kelib chiqishi yahudiy bo'lganligi bois ham u Germaniyada ko'p tazyiqlarga uchragan. "al-Mansur" tragediyasi, "Lorelay" kabi she'rlari ham taqiqlab qo'yilgan. Ammo Hayne o'z vataniga bo'lgan muhabbatini tark etmagan va nemis adabiyotini Fransiyada targ'ib etgan.

Haynrix Hayne she'riyatidagi Sharqqa xos timsollar uning ijodiga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. Shoirning Sharqqa maftunligi uning shu ohanglarga mos ravishda yozgan har bir misralarida sezilib turadi. Shoirning ishqiy lirikasida qo'llagan sharqona obrazlari sharq ohanglariga mos tasvirlangan. Masalan, uning "O'tganimda" deb nomlangan barmoq vaznidagi she'rida "dildor", "qalandar", quralay ko'z" kabi obrazlarni olishimiz mumkin:

Shahlo ko'zlar tashlagay nazar.

Kiprik qoqmay boqarsan, dilbar:

"Bechora na axtarar bunda,

Kim ekan bu g'arib qalandar?.."

Qalandar obrazi o'zbek mumtoz adabiyotida bu dunyodan kechgan, Olloh yo'lida yurguvchi, devo-nasifat, otashqalb, uysiz, asosan, har yerda kezib yuruvchi g'arib insonlarga nisbatan qo'llanadi.

Qalandar – tarki dunyo qilgan, go'shanishinlikka berilgan odam, so'fiy; tasavvuf yo'liga kirib, darbadarlik va xayr-ehson bilan kun kechiruvchi kishi. „Qalandar“ istilohi sufiylarning asarlarida zikr-u samo orqali Allohga ruhan yaqinlashib, faqr-u fanoga va haqiqatga erishish maqsadida o'z jismini va qalbi-ni poklashga intilgan darvishlarga nisbatan qo'llanilgan.³ Bunday insonlar faqatgina Olloh ishq bilan yashagan. Eng mukammal ishq Ollohga bo'lgan muhabbat ekanligi sababli ham qalandarlar ishq qadrlangan. Mumtoz adabiy na'munalarda esa oshiqning sevgilisiga bo'lgan ishqini xuddi shu mukammal ishqqa qiyoslagan holda, yoxud ishq yo'lida qalandarday sobit turishini, ishq uni qalandarday g'arib qilganligini ifodalash uchun ham shoirlar bu obrazni lirik qahramon darajasiga ko'targan. Haynrix Hayne-ni yuqoridagi she'rida ham yor ishqida bedavo, benavo yurgan g'arib qalandarga qiyoslangan. Uning qidirayotgani ham ishq edi. Ma'shuqaning go'zalligi oldida oshiq g'arib ko'rinadi.

She'rning nemis tilidagi asl variantida qalandar so'zi qo'llanmagan. Bu tarjimonning milliy kaloritni asar ruhiyatiga singdirish mahorati sababli, shu so'z qo'llanganligidan dalolat beradi. Badiiy asar, umu-

¹ Karimov Shavkat. Nemis adabiyoti tarixi. T., "Mumtoz so'z", 2010, 103-bet.

² https://en.wikipedia.org/wiki/Heinrich_Heine

³ www.wikipedia.org

man, har qanday chet tilida yozilgan asarni tarjimonlar o‘z ona tilida o‘qiguvchilarga yetkazib berish uchun xuddi shunday usulni qo‘llaydi. Chunki asar o‘quvchiga qanchalik ruhiy yaqinlik baxsh eta olsagina e’tirof qozonadi. Nemis tilidagi ushbu band quyidagicha:

*Wenn ich an deinem Hause
Des Morgens vorüber geh’,
So freut’s mich, du liebe Kleine,
Wenn ich dich am Fenster seh’.
Mit deinen schwarzbraunen Augen
Siehst du mich forschend an:
Wer bist du, und was fehlt dir,
Du fremder, kranker Mann?*

“Kranker Mann” so‘zi nemis tilidan tarjima qilganda “betob yigit” ma’nosini anglatadi. Ishq dardida betob bo‘lgan yigit obrazini Mirtemir mumtoz asarlarimizga xos ravishda qalandar obrazi bilan berishni ma’qul topgan. She’rdagi sharq go‘zallariga xos bo‘lgan sifatlashlar ham nemischa variantida unday jaranglamaydi. “Shahlo ko‘zlar” so‘zini Haynrix Hayne “qora jigarrang ko‘zlaring bilan” deya tasvirlaydi. O‘zbek tilida aynan shahlo so‘zining ma’nosi qop-qora, porlab turuvchi ko‘zga nisbatan qo‘llanadi. “Qora jigarrang ko‘zlaring bilan menga savol bilan boqarsan” degan misrani Mirtemir o‘zbekona so‘zlar bilan qo‘llab, hatto “kiprik qoqmay turmoq” iborasining hayronlik yoki savol nazari bilan boqish kabi ma’nolarini bildirishini inobatga olib, shunday go‘zal iborani she’rga olib kiradi. Ammo xuddi shu she’rni Nurmuhammad Abduzoirov ham tarjima qilgan va u ko‘zga aloqador sifatlashni o‘z holicha qo‘llashni ma’qul ko‘radi:

*O jigarrang ko‘zlaring
So‘roq qilar o‘shal dam:
– Kimsan, seni ne qiynar,
Begona, xasta odam?¹*

Yuqoridagi bandda qalandar obrazini begona xasta odam deb qo‘llangan. So‘zma-so‘z tarjima qilganda tilga xiyonat qilmay, undagi bor so‘zlarni ona tilidagi ham xuddi o‘sha so‘z bilan qo‘llash yaxshi, albatta. Ammo Mirtemir ustoz tarjimasida obrazlarning sayqallanganligi o‘quvchini o‘ziga maftun etmay qo‘ymaydi. Tarjimada she’r o‘girilayotgan til tabiati, shu til bulan shakllangan adabiyot katta rol o‘ynaydi. Har bir tilde yangrovchi turli adabiyotning turlicha o‘ziga yarasha ohanggi bo‘ladi. Sodda so‘zlarda bayon qilish o‘quvchiga osonlik tug‘dirsa, qalandar yoki shahlo kabi mumtoz ohangni ta’minlovchi so‘zlar she’r jozibasini yanada oshiradi.

Xudjayeva Ra’nohon Mitalibjonovna (A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU

Tajima nazariyasi va amaliyoti kadefrasi dotsenti, PhD; e-mail: bagira81@inbox.ru)

BADIIY TARJIMADA OMONIMLARNING “KONTEKSTUAL ASSOTSIATIV TARJIMA” USULINING ILMIY ASOSI

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy tarjimada omonimlarning “kontekstual assotsiativ tarjima” usulining ilmiy asoslanishidir. Omonimlarni tarjima qilishning kontekstual assotsiatsiyasidan kelib chiqqan holda tarjima qilish usuli taklif qilinadi va asoslanadi, bu esa tarjimada omonimlarning ma’no murakkabligi va rang-barangligini saqlab qolish va yetkazish imkonini beradi. Bu usul tarjimonlar uchun badiiy matnlar bilan ishlashda foydali vosita bo‘lib, uning samaradorligi tarjima matnlarining real namunalarida sinovdan o‘tgan. Olib borilgan izlanishlar natijasida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy tarjimada omonimlarning “kontekstli assotsiativ tarjimasi” usulidan foydalanish tarjimada omonimlarning asl ma’nosi va emotsional mazmunini yanada to‘g‘ri va sifatli yetkazilishiga xizmat qiladi.

Аннотация. Данная статья представляет собой научное обоснование метода «контекстно-ассоциативного перевода» омонимов в художественном переводе. На основе контекстуальной ассоциации омонимов предложен и обоснован метод перевода, позволяющий сохранить и передать смысловую сложность и многообразие омонимов при переводе. Этот метод является полезным инструментом переводчиков при работе с художественными текстами, а его эффективность проверена на реальных примерах переведенных текстов. В результате проведенного исследования можно сделать вывод, что использование метода «контекстного ассоциативного пере-

¹ Haynrix Hayne. She’rlar. www.nodirabegim.uz

вода» омонимов в художественном переводе служит для более правильной и качественной передачи исходного значения и эмоционального содержания омонимов.

Annotation. *This article is a scientific justification of the “contextual associative translation” method of homonyms in literary translation. Based on the contextual association of homonyms, a translation method is proposed and justified, which allows to preserve and convey the meaning complexity and diversity of homonyms in translation. This method is a useful tool for translators in working with literary texts, and its effectiveness has been tested on real examples of translated texts. As a result of the conducted research, we can conclude that the use of the method of “contextual associative translation” of homonyms in literary translation serves to convey the original meaning and emotional content of homonyms more correctly and qualitatively.*

Kalit soʻzlar: omonimlar, tahlil, semantika, tarjima, kontekst, muqobil, assotsiatsiya, metod.

Ключевые слова: омонимы, анализ, семантика, перевод, контекст, альтернатива, ассоциация, метод.

Key words: homonyms, analysis, semantics, translation, context, alternative, association, method.

Har bir badiiy asar bilim manbai, dunyoqarashni kengaytirishdir. Fundametal hisoblangan buyuk asarlarimizni oʻzga tillarga tarjima qilinganligini yoxud qilinayotganligini koʻrish quvonarli, albatta. Bunda ona-Vatanga boʻlgan muhabbatimiz, gʻururimiz oshishi aniq.

Har bir millat uchun oʻz ona tilida oʻqish, fikrni bayon etish maroqlidir. Biroq til bilmaslik, noiloj oʻsha asar tarjimasini oʻqishga majbur. Oʻzbek adabiyoti ham oxirgi yillarda koʻplab fundamental asarlarning tarjimasini bilan boyidi. Lekin bajarilayotgan tarjimalarning aksariyati negadir oʻzbek tili tabiati, til qoidalariga mos kelmaydi. Aksar kitobxon gʻaliz jumla, notoʻgʻri, “Google translate”ga solingan tarjimalar haqida ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez qoldirilayotgan fikrlarga jiddiyroq eʼtibor berish kerakligiga ishora qiladi.

Tarjima, aslida, qanday jarayon? Nega Oʻzbekistonda tarjima kitoblar koʻp chop etilsa-da, ularning ancha-munchasi til tabiatiga yot boʻlib qolmoqda? Tarjimonlarning moddiy va maʼnaviy qadri qanday? Ularga qanday talablar qoʻyilishi kerak kabi muammoli, oʻz javobini va tadqiqini kutayotgan masalalar koʻp. Shu joyda badiiy tarjimonlar uchun yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlik zarurligi mavjud, ammo hozirgi davrda tarjimonlikning turli parametrlari hali yetarlicha professionalashtirilmagan.

Tadqiqotning asosiy jarayonlaridan biri hisoblangan “kontekstual assotsiativ tarjima” metodiga asos solish va ushbu metodni badiiy asarlarni tarjima qilishda qoʻllashni ilmiy asoslashdir. Shunga koʻra, quyidagicha mezonlar yaratildi:

1. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi orqali turli xil badiiy asarlarni asl tabiatini anglash.
2. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi mutaxassis-tarjimon uchun asliyatni kitobxonga denotativ maʼnoni uzatish.
3. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi orqali badiiy asarlarda uchrovchi polisemantik, omonimik, sinonimik, polimorfemik va hokazo soʻzlarni mohirona tarjima qilish.
4. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi asliyat matnida “yopiq” tub mohiyatini anglanadi.
5. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodining prinsiplari tarjimoni muqobillashtirishga oʻxshaydi, chunki unda lugʻatdagi soʻzlarning asl maʼnolariga nisbatan qarama-qarshiliklar mavjud boʻladi. Chunki ushbu metoddan foydalanilganda, tarjima qilingan soʻzlar lugʻatda keltirilgandan farq qilishi mumkin. Bunday holda, tarjimonning asosiy yoʻnalishi kontekstdir, shuning uchun usulning oʻzi tarjima-dagi lugʻat yozishmalarini kontekstual, yaʼni mantiqiy bogʻliqlik bilan almashtirishdan iboratdir.

Demak, omonimlarning kontekstual assotsiativ tarjima usulida tarjimon omonimlar bilan bogʻliq boʻlgan assotsiyalar va tushunchalardan eng mos tarjimoni aniqlash uchun foydalanadi. Kontekstual assotsiativ tarjima soʻzning oʻziga xos maʼnosini aniqlash va tegishli tarjimoni tanlash uchun ishlatiladigan kontekst hisobga olinadi.

Kontekstual-assotsiativ tarjima tillar orasidagi kontekstual va assotsiativ aloqalarni solishtirishga asoslangan tarjima usulidir. Badiiy asarlarda qoʻllangan omonimik soʻzlar tarjimasida bu usul keng qoʻllanilishi kerak, chunki mualliflar, koʻpincha, soʻz va boshqa stilistik vositalarni yaratish uchun omonimlardan foydalanadilar. Bu metodning asosini matndagi soʻz, iboralarning semantik munosabatlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning konseptual, milliy-madaniy xususiyatlarini tushunish zaruratini tashkil etadi.

Har bir tilda badiiy tarjima masalasi murakkab aqliy faoliyat boʻlib, manba va tillarni, shuningdek, tillarning adabiy hamda madaniy tizimlarini bilishni talab etadi. Barchamizga maʼlum boʻlgan badiiy tarjima bilan shugʻullanish uchun qoʻllaniladigan usullar, strategiyalar, uslublar mavjud. Ehtimol, rivojla-

nishda to'xtamayotgan zamonaviy dunyoimizda barcha muammoli vaziyatlarni hal qilib yoki o'rganib bo'lmay, ammo tarjimonlar uchun maxsus yaratilgan tizimlarni tor doirada o'rgansa bo'ladi.

Inson tomonidan amalga oshirilgan tarjimoni elektron mashinada bajariladigan tarjimalar bilan hech qachon solishtirib bo'lmaydi. Chunki bu yerda gap faqat so'zlarni tarjima qilish haqida ketmaydi, balki badiiy asarlarda uchrovchi omonimik, sinonimik, antonomik so'zlarni o'z ma'nosini yo'qotmagan holda ko'chirishga to'g'ri keladi. Bu esa mutaxassis tarjimondan intellektual ijodkorlikni talab etadi, chunki inson omilini hech qanday mashina yoki dasturiy ta'minot uddalay olmaydi.

Global dunyoda qardosh tillar yoki qardosh bo'lmagan tilli asarlarni tarjima qilish ahamiyati o'sib bormoqda. Bir-biriga begona bo'lgan madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish imkoniyati bugungi kunda faqat badiiy tarjimalar orqali hal qilinishi mumkin. Chunki turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish to'siqlari, chegaralari tarjima asarlar orqali bosib o'tiladi. Chunki tarjimashunoslik fani orqali biz boshqa madaniyatlar, ularning tafakkuri, o'ziga xosligi bilan tanishish imkonini beradi.

Badiiy adabiyot tarjimasi boshqa tarjima turlaridan tubdan farq qiladi. Zero, badiiy tarjimaning asosiy tamoyili hukmron poetik kommunikativlik funksiyadir. Demak, asarlarning badiiy tarjimasi kitobxoniga ma'lumot yetkazish bilan bir qatorda, estetik vazifani ham bajaradi. Asarda yaratilgan badiiy obraz o'quvchiga ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan, shuning uchun badiiy tarjima "usta"lari matnning shu xususiyatini hisobga olishlari kerak. Chet tilidagi badiiy asarni professional tarjimon aralashuviz tushunib bo'lmaydi.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda aynan she'riy tarjima turi informativ turdan o'zgachadir. Badiiy tarjimada asosiy maqsadiga erishish kitobxon uchun ma'lum bir obraz yaratishdir. Bu esa yozuvchiga ancha qiyin mas'uliyatni yuklaydi. Shuning uchun badiiy asarlar tarjimasida standart qoidalardan ayrim holdalarda chetlanishlar qo'llaniladi.

To'g'ridan to'g'ri tarjima badiiy asarlar matnining chuqurligi va mazmunini aks ettira olmaydi. Badiiy tarjimon materialni boshidan oxirigacha qayta ishlaydi. Bunda tarjimon kontekstga qarab so'zlarni sinonimlar, troplar, ekvivalent so'zlar bilan almashtirishda yoki gapning tuzilishi o'zgartirilganda qo'llashadi. Tarjimon ishi odatiy algoritmg muvofiq amalga oshiriladi. Asar tarjimon tomonidan to'liq o'qilibgina qolmay, alohida atamalar, omonimlar, iboralar va hokazolar ajratib chiqiladi. Shundan so'ng bu qismlarning tarjimasi bevosita davom etishi orqali tarjima jarayoni bir necha bosqichlaridan o'tadi.

Badiiy tarjima juda mahorat talab ish. Nafaqat matnning adekvatligini, balki tarjima qilingan asarni o'qiyotgan kitobxon asl nusxani o'qiyotgandagidek tasavvurini ham uyg'ota olishi kerak.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri tuzilishi jihatidan yoki ma'nosi-ning ekvivalenti ko'p bo'lgan so'zlarni tarjima qilish muammosidir, uning mavjudligi bir qator sabablarga bog'liq, xususan: obyekt, hodisa yoki tushunchaning stilistik, leksik xususiyatlarining ko'pligidir. Badiiy asarlar tarjimasida shunday yondashuv "kontekstual-assotsiativ tarjima" usulidir.

Kontekstual-assotsiativ tarjima usuli so'zning ma'nosi uning kontekstiga qarab belgilanishi, tarjimon ko'zda tutilgan fikrni to'g'ri yetkazish uchun uning turli assotsiatsiyalarini hisobga olishi kerak degan fikrga asoslanadi.¹ Bu usul, ayniqsa, omonimlar, ya'ni, yozilishi va talaffuzi bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar bilan ishlashda foydalidir.

Bu usulga ko'ra, tarjimon, avvalo, omonimning manba tildagi mumkin bo'lgan turli ma'nolarini aniqlashi kerak. Keyin ular qaysi ma'no eng mos kelishini aniqlash uchun so'z ishlatilgan kontekstni tahlil qilishlari kerak,² nihoyat, ular asosiy tilda so'zning har qanday muqobilini hisobga olgan holda, mo'ljallangan ma'noni aniq yetkazadigan so'zni tanlashlari kerak.

Tarjimaning kontekstual-assotsiativ usulining ilmiy asosi til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi kognitiv tilshunoslik sohasiga to'g'ri keladi. Kognitiv tilshunoslarning fikricha, so'zlarning ma'nolari turg'un emas, balki ular qo'llanilayotgan kontekstga qarab, doimiy ravishda takomillashib, o'zgarib turadi.³ Demak, omonim ma'nosi qaysi kontekstda qo'llanishiga qarab, o'zgarishi mumkin va tarjimon tegishli tarjimoni tanlashda buni hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'z ishlatilgan kontekst uning tafakkur tomonidan qanday qayta ishlanishi va tushunilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'z jumlada berilganda, tafakkurda uni turlicha qabuli bo'ladi.

¹ "Context-associative Translation". Multitran, multitran.com/m.exe l1=1&l2=2&s=context-associative+translation.

² "Translation Techniques". TranslationDirectory.com, translationdirectory.com/articles/article1908.php.

³ Lakoff George and Mark Johnson. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980.

Jozef Konradning “Heart of Darkness” asarida¹ kontekstual-assotsiativ tarjima talab bir misolni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarda *oq* so‘zi omonim bo‘lib, rangni ham, rangning yo‘qligini ham anglatishi mumkin. Masalan: “*There was a white fog, very warm and clammy, and more blinding than the night*” (Tundanda qorong‘u va quyuq tuman...). Kontekstda “oq” omonimi, odatda, tozalik, yorug‘lik va yorqinlik bilan assotsiatsiyalashadi, ammo bu yerda u so‘z “quyiq tumanda ko‘rinmaslik” ma‘nosida kelishi ko‘rishimiz mumkin.

U. Shekspirning fundamental hisoblangan “Otello” asarida ham, albatta, omonimlar qo‘llangan, lekin bu asardagi omonimik so‘zlarni tarjima qilishda g‘alazliklar kelib chikgan. Masalan, (*asliyat*) *Othello: I’ll tear her all to pieces*² (*tarjimon*). *Otello: Men uni sog‘ qo‘ymayman*.³ Ushbu misolda omonimik qator so‘z kontekstda *janjal* ma‘nosi bilan assotsiatsiyalashmoqda, shuning uchun tarjimada *parchalamoq* so‘zini qo‘yish o‘rniga tarjimon *kontekstual assotsiativ tarjima* usulidan foydalangan holda, *sog‘ qo‘ymayman* so‘zini qo‘llagan. Bu usul orqali tarjimon muammolarsiz qo‘llanayotgan omonimik qatorlarning ekvivalent bo‘lgan so‘zni tanlashi demakdir, ya‘ni, o‘sha omonimik so‘zning tarjimasi emas, ma‘no jihatidan mos bo‘la oladigan sinonim so‘zni qo‘llaydi.

Ikkinchi misolni tahlilga Dj. Ornellning⁴ “1984” novellasida qo‘llanilgan inglizcha *light* omonimik qatorini tortsak. Badiiy asarda omonimik so‘zning tarjimasida semantik maydon hisobga olinmaganligi sababli ma‘nosi noto‘g‘ri tarjima qilingan. Masalan, (*asliyat*) “*Oceania, ‘tis for thee’ gave to lighter music*”. (*tarjimon*).⁵ “*Senga Okeyaniya*” madhiyasi *yengil* musiqaga almashdi. (*bizning tarjima*) “*Okeyaniya*” madhiyasi *sokin* musiqaga bilan uyg‘unlashdi. Ushbu misolda ham semantik ma‘nosi noto‘g‘ri qo‘llanilgan. Aslida, *light* omonimik qatorining musiqaga nisbatan *yengil* ma‘nosi tanlanilishi kerak edi. Tadqiqot izlanishlari natijasida ilmiy asoslangan tarjima usuli kontekstual-assotsiativ tarjima usulidan foydalangan holda *yengil* ma‘nosi *sokin* ma‘nosi bilan almashtirilishi kerak edi. Chunki o‘zbek tilida *musiqaga* nisbatan *yengil* so‘zi emas *sokin* so‘zi muqobil bo‘lib, badiiy estetik jihatini ta‘minlaydi.

Tahlildan ko‘rishimiz mumkinki, kontekstual-assotsiativ tarjima badiiy matnlardagi omonimik so‘zlarni tarjima qilish uchun ayni ma‘qul usul, chunki u so‘z o‘yinlari va stilistik vositalar effektlarini saqlab qolish, shuningdek, asl nusxaning madaniy semantikasini yetkazish imkonini beradi.

Omonim so‘zlar barcha tillardagi badiiy asarlardagi roli juda muhim, chunki o‘xshash yoki o‘xshash so‘zlar butunlay boshqa narsalarni anglatishi mumkin. Ular tufayli asarning jizibasi noto‘g‘ri talqin qilinmasligi uchun tarjimon “kontekstual assotsiativ tarjima” foydalangan holda, kontekstga e‘tibor berish muhimdir.

**Abdullaeva Dilrabo Zubayevna (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi xodimi)**
**O‘ZBEK KINO SAN’ATIDA AYOLLAR OBRAZI HAMDA SAN’AT SOHASIDA GENDER
TENGLIGI MASALASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek kino san’atida ayollar obrazi hamda san’at sohasida gender tengligi masalasi xususida fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, o‘zbek kino san’ati hamda unda obrazlar talqini haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, madaniyat va san’at sohasi faoliyatida gender tengligi masalasi va uning jamiyat rivojlanishida tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Аннотация. В данной статье высказаны мнения об образе женщины в узбекском кино и проблеме гендерного равенства в сфере искусства. Также дается подробная информация об узбекском киноискусстве и интерпретации образов. Кроме того, дана информация о проблеме гендерного равенства в сфере культуры и искусства и его роли в развитии общества.

Annotation. In this article, opinions are expressed about the image of women in Uzbek cinema and the issue of gender equality in the field of art. Also, detailed information about Uzbek film art and the in-

¹ Conrad Joseph – Heart of Darkness.

² CHICAGO Shakespeare, William, 1564–1616. Othello. 1622, Oxford :Clarendon Press, 1975.

³ Jamol Kamol tarjimasi. Shekspir Vilyam. Tanlangan asarlar. T., “Adabiyot va san’at” nashryoti, 1991, 272-bet; 784-bet.

⁴ G.Orwell. Nineteen Eighty-Four. A novel. London: Secker &Warburg. 1949.

⁵ K.Berdiyev. “1984” tarjimasi.

terpretation of images is given. In addition, information about the issue of gender equality in the field of culture and art and its role in the development of society is given.

Kalit soʻzlar: kino sanʼati, gender tengligi, zamonaviylik, ayollarning roli, ijtimoiy hayot, ayollar obrazi.

Ключевые слова: киноискусство, гендерное равенство, современность, роль женщины, общественная жизнь, образ женщины.

Key words: film art, gender equality, modernity, role of women, social life, image of women.

Ekranlarda oʻzbek ayolining qiyofasi qanday boʻlishi kerak? Yoshlar ijod saroyida 11–16-yanvar kunlari «Oʻzbek milliy kino sanʼati haftaligi» doirasida «Ektranda ayol taqdiri» mavzusida davra suhbatini boʻlib oʻtdi. Xoʻsh, Oʻzbekistonda ayollar haqida ilk kino 1927-yilda namoyish etilgan boʻlsa, toʻshu bugungi kungacha ekrandagi oʻzbek ayoli qay darajada «oʻsdi». Uning ongi, dunyoqarashi oʻzgardimi? Umuman, oʻzbek ayoli qiyofasi ilk kinolarimizda qanday edi-yu bugun qanday? Ayni paytda, «Ayol» nomli serialni suratga olish jarayonlari davom etmoqda. Maqsadimiz kuchli ayol obrazini ekranlarga olib chiqish. Toʻrt nafar mardikor ayolning taqdiri, boshidan kechirganlari, nihoyat, ular xizmatkorlikdan kuchli shaxsga aylangani haqidagi serial oʻsha oʻzbek ayolining jasorati, sabr-bardoshiga bagʻishlanadi.

Hozir shu «Ayol» seriyasidagi qisqagina lavhani tomosha qila turib, yana oʻsha taniqli aktrisalariga toʻqnash kelayapmiz. Axir Sanʼat institutini qanchadan qancha yosh qizlar bitirayapti. Har xil obrazlarda oʻynagan bir xil aktyorlar qiyofasidan tomoshabin zerikdi. Masalan, taniqli aktrisaning mardikor ayol rolidagi oʻynashi qanchalik ishonarli chiqadi, deb oʻylaysiz. Yoki boʻlmasa, yosh, kinoga endi kirib kelayotgan aktrisalar qachon yuzaga chiqadi, 40 yoki 50 yoshga kirganidami?

Men mana shu oʻzbek ayolining pardozi andoziga eʼtibor qaratishlaringizni soʻrab qolardim. Nima serial va oʻzbek kinolarida aktrisalarining oʻzining husni, chiroyi yoʻq. Barchasi yasama, kipriklar bir qarich, qip-qizil lab boʻyogʻi. Kaltak yegan ayol ham boʻyanib olgan, bemor yotgan, vafot etgan ayol ham toʻyga boradigandek yasan-tusan qilgan. Hovli supurayotgan va paxta terayotgan ayolning ham kipriklari bir qarich. Oʻzbek ayolining haqiqiy qiyofasi nega boʻyoqlar ostida qolib ketmoqda?

Kinolarimizni tanqid qilayotganlarning, albatta, fikrlarini, takliflarini inobatga olamiz. Ammo ular ham bizni kino olish jarayonimizda qatnashishsa, bu sohaning ishi qanchalik mashaqqatli va ogʻirligini his qilishardi. Masalan, Men «Ayol qalbi», deya nomlangan serial ustida ishlayapman. Serialda 72 ta personaj bor. Ularning har bir bilan til topishish, ishlashning oʻzi boʻlmaydi. Kino olish ishi juda mashaqqatli va mablagʻga borib taqaladigan jarayon. Mana shu tomonlarini ham hisobga olishlaringizni soʻrab qolaman [1.67].

Kinoijodkorlar, kinomutaxassislar, turli vazirliklar, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari, jurnalist va blogerlar qatnashgan ushbu tadbir haqiqiy bahs munozaralar maydoniga aylandi. Tadbir doirasida kinolarimizda bugun ayollar faqat qaynona va kelin obrazida shallaqi yoki juda itoatkor, xoʻrlangan, zoʻrlangan xokisor ayol timsolida aks ettirilayotganiga alohida urgʻu berildi. Undan tashqari, dialoglarning juda joʻnligi, ota va qiz, oʻsmir qiz va ona, dugonalar munosabatlari ochib berilmayotgani, jamiyatimizning eng ogʻriqli nuqtalaridan biri ayolning oʻz joniga suiqasd qilish omillari chetda qolib ketayotgani taklif sifatida ishtirokchilar tomonidan oʻrtaga tashlandi [2.54].

Ayol tilini ayol tushunadi. Bugungi tadbirda ham har bir ayol oʻzbek ayoli taqdiri haqida kuyunib gapirdi, oʻz taklifini berdi. Oʻylaymizki, mana shunday bahsli tadbirlardan keyin ekranlarimizda nafaqat ayol taqdiri, balki oʻzbek ayolining qiyofasi, xarakteri ochib beriladi. Oʻylaymizki, ekranlarimizda oʻzbek ayoli «oʻsadi», «rivojlanadi» va nihoyat, millat tarbiyachisi zamonaviy, kuchli, gʻururli, irodali shaxsga aylanadi. Yangi Oʻzbekistonda xotin-qizlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qoʻshmoqdalar, ular jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining barcha sohalarida faoliyat koʻrsatib, davlat hokimiyati va jamoat tashkilotlari faoliyatida keng ishtirok etishmoqda, yosh avlod tarbiyasiga, sogʻliqni saqlash, ijtimoiy soha, sanoat, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarni rivojlantirishga hissa qoʻshmoqda.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish dasturining asosiy maqsadlaridan biri gender tenglikka erishish hisoblanadi. 2022–2026-yillarda mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha sohalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish boʻyicha qabul qilingan Milliy dastur erkaklar va ayollar tengligiga erishish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini roʻyobga chiqarishda ularni qoʻllab-quvvatlash samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, xotin-qizlarning taʼlimi va tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning ilmiy salohiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi rolini kuchaytirish va davlat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish uchun kuchli turtki boʻldi [3.89].

Xalqaro xotin-qizlar kunini nishonlash arafasida “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi tomonidan telefon so‘rovi o‘tkazildi, unda mamlakatimizning shahar va qishloq joylarida yashovchi 18 va undan katta yoshdagi, turli millat va ijtimoiy guruhlar vakillari, turli sohalar va ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan fuqarolar so‘raldi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar samarasidan dalolat beradi.

Jamoatchilik fikrida ayollarning onalik, bolalar va oila bilan bog‘liq an‘anaviy roli haqidagi istisnosiz tasavvurlarda o‘zgarishlar yuz bermoqda. Aksariyat (78,3%) so‘rov ishtirokchilarining ta‘kidlashicha, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlarning o‘rni tobora ortib bormoqda, respondentlar O‘zbekiston ayollari oilaviy hayot va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirib, jamiyat va davlat boshqaruvida o‘zini yanada faol namoyon qilayotganiga ishonadilar. Bugungi kunda xotin-qizlarda o‘zlarining ma‘naviy, ijodiy, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar mavjuddir va so‘rov natijalarining ko‘rsatishicha, mamlakat fuqarolarining mutlaq ko‘pchiligi, ham erkaklar, ham ayollar, keksa avlod vakillari va yoshlar xotin-qizlarning o‘zib borayotgan faolligini, o‘zlarini nafaqat an‘anaviy “ayollarga xos sohalarda” ro‘yobga chiqarayotganini, balki martabasida, tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishayotganini, davlat boshqaruvida yuqori lavozimlarni egallayotgan ayollar soni o‘zib borayotganini ijobiy qabul qilmoqdalar. 80,2% so‘rov ishtirokchilarining fikricha, barcha sohalarda ayollar rolining ortib borishi ijobiy xususiyatlarga egadir. Ayollar professional jihatdan yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lib, ular o‘z sohalarida malakali, tashabbuskor, bilimli, yuqori intellektual va ijodiy salohiyatli kishilar hisoblanadi, respondentlar ayollarni erkaklardan kam bo‘lmagan salohiyatli rahbarlardir, deb hisoblashadi, ayni paytda, ayollar o‘zaro insoniy munosabatlarga va xodimlarga nisbatan ko‘proq e‘tiborli hamdir. So‘rov davomida fuqarolar xotin-qizlar faqat “ayollik” xususiyatlari va fe‘l-atvor qirralari tufayli muhim masalalarni hal qila olishlari mumkinligini hamda bu jamiyat va davlat hayotining ayollar faoliyat yuritayotgan barcha sohalariga tegishli ekanligini ta‘kidladilar [4.54].

